

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**TAHRIRIYAT HAY‘ATI**

**Bosh muharrir:** prof. Nabiye D.H.

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

f.-m.f.d. Bekpulatov I.R.

**Mas‘ul kotib:** dots. Ne‘matova Y.O.

**Tahririyat hay‘ati a‘zolari:**

prof. Bahriddinova B.M.

prof. Bo‘riyev O.B.

prof. Yoziyev L.Y.

prof. Jabborov A.M.

prof. Jumayev T.J.

f.-m.f.d. Imomov A.A.

k.f.d. Kamolov L.S.

prof. Kuchboyev A.E.

prof. Mengliyev B.R.

prof. Normurodov M.T.

prof. Nurillayeva Sh.N.

prof. Nurmanov S.E.

p.f.d. Oripova N.X.

prof. Ochilov A.O.

prof. Tojiyeva G.N.

prof. To‘rayev D.T.

prof. Umirzakov B.Ye.

prof. Xayriddinov B.X.

prof. Xolmurodov A.E.

prof. Choriyev S.A.

prof. Shodiyev R.D.

prof. Shodmonov N.N.

prof. Erkeyev A.P.

prof. Ernazarova G.X.

prof. Eshov B.J.

prof. Qurbonov Sh.Q.

prof. Qo‘yliyev B.T.

prof. Bekmurodova G.H.

dots. Ro‘ziyev B.X.

dots. Eshqorayeva N.G‘.

dots. Xolmirzayev N.S.

dots. Hamrayeva Y.N.

prof. Bobonazarov G‘.Y.

prof. Shukurov O.M.

2024  
(2)1

**QarDU xabarlari**  
Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

**Muassis:** Qarshi davlat universiteti

**Jurnal Qashqadaryo viloyati**

**Matbuot va axborot boshqarmasi**

**tomonidan 2010.17.09 da**

**№ 14–061 raqamli guvohnoma**

**bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.**

**Musahhihlar:**

Shodmonova D.E.

Bazarova D.B.

Tursunboyev B.N.

Ubojenko A.S.

**Sahifalovchi**

Yuldoshev D.N.

**Texnik muharrir:**

Raxmatov M.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Oliy attestatsiya komissiyasi

Rayosatining qarorlari bilan fizika-

matematika, kimyo, biologiya, tarix,

falsafa, siyosatshunoslik, filologiya,

pedagogika-psixologiya va iqtisod

fanlari bo‘yicha doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy

natijalarini chop etish tavsiya etilgan

ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



**Jurnal 2009-yilda tashkil  
etilgan.**

**Yiliga 4 marta  
chop etiladi.**

**MUROJAAT UCHUN MANZIL:**

**Pochta manzili:** 180003, Qarshi,

Ko‘chabog‘, 17. Qarshi davlat universiteti,

Filologiya fakulteti binosi, 107-xona.

**Telefon:** 97-222-10-80

**TelegramID:**

[https://t.me/Qardu\\_Xabarlari2024](https://t.me/Qardu_Xabarlari2024)

**Elektron pochta:** qardu\_xabarlari@mail.ru

**Veb-sayt:**

<https://qarshidu.uz/oz/page/ilmiy-jurnal-NEW>

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlar**

Jurnaldan olingan materiallarga “QarDU

xabarlari” jurnalidan olindi”, degan havola

berilishi shart. Mualliflardan kelgan

materiallar egalariga qaytarilmaydi.

## MUNDARIJA

### TARIX

<b>Eshov.B.J.</b> Ilk shaharlar tarixiy topografiyasi va me'morchiligini o'rganishda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati.....	4
<b>Jahongirov B.B.</b> O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi.....	8
<b>Ibraximov B. B.</b> Qo'qon xonligidagi milliy siyosat.....	13
<b>Raupov X.R.</b> Kon-metallurgiya sanoatida ekologik muammolar va ularni yechish masalalari (NKMK misolida).....	17
<b>Abdullayev O'.Sh.</b> Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari va iqtidorli talabalar bilan ishlash (Pedagog kadrlar tayyorlaydigan OTMLar misolida).....	22
<b>Shirinov S.A.</b> Buxoro xonligining ijtimoiy munosabatlarida sudlov masalasi.....	25
<b>Karimov U.D.</b> Xorazm vohasi aholisining suv bilan bog'liq madaniyati va an'analari tarixshunosligi.....	29
<b>Jaynarov O.H.</b> Turkistonda advokatura tizimidagi o'zgarishlar (XX asr 20-yillari).....	34
<b>Polvonov K.N.</b> O'zbekistonning janubiy shaharlari klassifikatsiyasi (1946–1991-yillar)....	39
<b>Muxamedova M.S.</b> O'zbekiston davlat san'at muzeyi faoliyatining muzey turizmdagi o'rni (XX asr ikkinchi yarmi misolida).....	44
<b>Ваисова Н.А.</b> Проблемы колонизации в английской общественно- политической жизни в XVI - XVII вв.....	49
<b>Dusaliyev M.T.</b> Qo'qon xonligining XVIII - XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda qo'ng'irotlar bilan o'zaro siyosiy aloqalarining ahamiyati.....	53
<b>Buriyev Z.T.</b> Kaspiyorti viloyatining tashkil etilishi tarixidan.....	58

### FALSAFA

<b>Rustamaliyev M. H.</b> Davlat boshqaruvi uslublari tushunchasi va xususiyatlari.....	65
<b>Shamsutdinova N.K.</b> Abu Ali Ibn Sino tasavvufiy qarashlarida kamolot bosqichlari.....	70
<b>Vaxobova M.A.</b> O'zbekistonda ta'limni isloh qilish va rivojlanishning tendensiyalari.....	75
<b>Qurbonov T.H.</b> Milliy g'urur va milliy o'zlik - milliy qadriyatlarimizga aylangan fazilat..	80
<b>Saidov B.J.</b> Yoshlarning ma'naviy rivojlanishida bo'sh vaqtning roli.....	83
<b>To'rayeva A.</b> Farzandlarga milliy oilaviy qadriyatlarni singdirishda internet va ma'naviy targ'ibotning o'rni.....	88
<b>Toshpo'latov D.N.</b> Addiktiv axloq egalari muammoli faoliyatining falsafiy tahlili.....	92
<b>Yuldashyev R. D.</b> Falsafiy ta'lim va tarbiya – jamiyatni dyemokratik tarzda barqaror rivojlantirish omili.....	95

### FILOLOGIYA

<b>Mengliyeva M.</b> Ingliz-o'zbek tillarida "shart-ehimol" paradigmasi.....	101
<b>Ne'matova Y.O., Berdiyarova Maxfuza Ilhom qizi</b> Namangan viloyati oykonimiyasidagi o'zgarishlarning sotsiologik tahlili.....	104
<b>Batirxanova M.</b> Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari.....	108
<b>Пардаева Д.</b> Интерпретация образа Амира Темура в русской художественной литературе: историко-литературный анализ.....	113

<b>Shomurotova Ch.R.</b> “Alisher Navoiy” romanida portret tasviri.....	118
<b>Qorayev Sh.</b> Buhoro Ashtarxoniylar hukmdori, olim va shoir Subhonqulixon huzuridagi adabiy anjumanlar.....	123
<b>Yo‘ldoshev D.N.</b> O‘zbek adabiy tanqidchiligida metodologik o‘zgarishlar va Matyoqub Qo‘shjonovning ilmiy-tanqidiy merosi.....	128
<b>Jumayeva N.G‘.</b> Uilyam Folkner she‘riyati.....	130
<b>Ortiqova M.N.</b> Badiiy adabiyotda valiy obrazi.....	135
<b>Usmonova M.</b> Adabiyotshunoslikda Pahlavonquli Ravnaq ijodining o‘rganilishi.....	140
<b>Ochilov N.K.</b> Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi va Ergash shoirning badiiy-estetik qarashlari .....	143
<b>Ernazarova G.</b> Jadidchilik va milliy adabiyot.....	147
<b>Shomurodova M.</b> Nishotiyning Fuzuliy g‘azaliga taxmisi: asliyat va nashr qiyosi.....	153

## PEDAGOGIKA

<b>Rasulova Z.D.</b> Bo‘lajak o‘qituvchilar kreativ kompetentligini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari.....	157
<b>Rashidova O.H.</b> Organizing independent education of students of higher education in the pedagogical field in modern form and methods.....	163
<b>Negmatova Z.Sh.</b> Etnopedagogik asarlardan foydalanishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.....	168
<b>Yaxiyaxonova M.M.</b> Birinchi sinf o‘quvchilariga “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda ularning tasavvurlarini va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari.....	172

---

**ILK SHAHARLAR TARIXIY TOPOGRAFIYASI VA ME'MORCHILIGINI  
O'RGANISHDA ARXEOLGIK MA'LUMOTLARNING AHAMIYATI****Eshov B.J.**

QarDU, t.f.d., prof

[eshov0406@gmail.com](mailto:eshov0406@gmail.com)

ORCID-0009-0001-2825-8068

UDK 950:940 (021)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta Osiyodagi ilk shaharlarning tarixiy topografiyasi, me'morchiligi va umuman, ilk shaharlar tarixini o'rganishda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati masalalari yoritilgan. Muallif ko'p sonli arxeologiya ma'lumotlarini tarixga yo'naltirish orqali ilk shaharlar paydo bo'lishining asosiy omillari va zarurati, shaharlarning funksiyalari hamda ularning o'zgarib turishi, shaharlar va davlatchilik taraqqiyotining o'zaro bog'liqligi kabi masalalarni tahlil etgan. Shuningdek, maqolada shaharlar davlatchilikning dastlabki bosqichidayoq paydo bo'lib, uning rivojlanishi, gullab-yashnashi hamda inqiroziy holatlarini o'zida aks ettirishi, ammo davlatlar taraqqiyotining ilk boschiqlari yozma manbalarda juda kam aks etgan bo'lsa, ilk shaharlar haqida deyarli ma'lumotlar uchramasligi masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** İlk shaharlar, shaharlarning funksiyalari, tarixiy geografiya, me'moriy tuzilish, davlatchilikning belgilari, hunarmandchilik, ishlab chiqarish, madaniy markazlar, arxeologik ma'lumotlar.

**ВАЖНОСТЬ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ДАННЫХ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИЧЕСКОЙ  
ТОПОГРАФИИ И АРХИТЕКТУРЫ РАННИХ ГОРОДОВ**

**Аннотация:** В данной статье освещаются историческая топография, архитектура ранних городов Средней Азии, а также значение археологических данных в изучении истории первых городов в целом. Добавив к истории большое количество археологических данных, автор проанализировал такие вопросы, как основные факторы и необходимость возникновения ранних городов, функции городов и их изменения, взаимозависимость развития городов и государственности. Также в статье особое внимание уделяется тому, что города появляются на начальном этапе государственности и отражают ее развитие, процветание и кризисные ситуации, однако ранние этапы развития государства редко отражаются в письменных источниках, и информации о них почти нет.

**Ключевые слова:** Ранние города, функции городов, историческая география, архитектурная структура, признаки государственности, ремесленное производство, культурные центры, археологические данные.

**Kirish.** Shahar – bu insoniyat tomonidan tabiiy yaratilgan hayotiy zarurat bo'lib, uning har tomonlama faoliyat ko'rsatishi uchun o'ta muhimdir. Jamiyat taraqqiyoti natijasida shahar shakllanadi, rivojlanadi va kengayib boradi. Shahar – me'morchilik va qurilish faoliyatining nisbatan yuqori va murakkab ko'rinishidir. Aynan shuning uchun ham shaharlarning paydo bo'lishi me'morchilik inshootlarining qad ko'tarishi bilan bevosita bog'liqdir. Shahar – bu rejali, murakkab tuzilishga ega hudud bo'lib, bu yerda ishlab chiqarish kuchlari, madaniy an'analar, ixtisoslashgan hunarmandchilik kabilar markazlashadi. Shaharlarning taraqqiy etishi ko'plab omillar, avvalo, aholining o'sishi va uning mehnat faoliyati hamda turmush tarzi bilan bevosita bog'liqdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbekistonning qadimgi tarixini tadqiq etishdagi murakkab muammolardan biri – O'zbekiston sivilizatsiyasi va davlatchiligining paydo bo'lishi hamda rivojlanish bosqichlari hisoblanib, bu jarayonda shaharlar shakllanishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat sivilizatsiya va davlatchilik-urbanistik xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi qonuniyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Chunki har bir tarixiy davrda aynan shaharlar davlat salohiyatining ma'muriy, harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazlari sifatida mavjud bo'lgan. Shaharlarda hunarmandchilik, ishlab chiqarish va savdo-sotiq, boshqaruv tartibi hamda harbiy garnizonlar, o'z davrida yetakchi bo'lgan dinlarga xos ibodatxonalar markazlashgan va faoliyat ko'rsatgan [1:18].

Shuning uchun ham o'lkamiz tarixi va madaniyatini yorituvchi turli davrlarga oid tarixiy va tarixiy-geografik manbalarda solnomachilar O'rta Osiyo shaharlariga katta e'tibor qaratganlari tasodifiy hol emas. Ayni vaqtda shaharlarning shakllanishi murakkab va uzoq davom etgan jarayonligini ham ta'kidlash joizdir. Shaharlar davlatchilikning dastlabki bosqichlaridayoq paydo bo'lib, uning rivojlanishi, gullab yashnashi va inqiroziy holatlarini o'zida aks ettiradi. Davlatlar taraqqiyotining ilk bosqichlari yozma manbalarda juda kam aks etgan bo'lsa, ilk shaharlar haqida deyarli ma'lumotlar uchramaydi.

Yozma manbalar urbanizatsiya masalalarining bu jarayonda gullab-yashnagan davri haqida ma'lumot beradi, xolos. Arxeologik materiallar bu jarayonning ilk bosqichlarini o'rganish, tushunish va anglab yetish uchun muhim bo'lgan hamda shahar tizimining asosiy jihatlari – boshqaruv hokimiyatining belgisi bo'lgan harbiy-mudofaa va ma'muriy, rivojlanayotgan davlatchilik belgisi bo'lgan ijtimoiy-iyerarxik xususiyatlar, turli hunarmandchilik – ishlab chiqarish belgilari, savdo-sotiq va madaniyat almashuvining markazlari, diniy e'tiqodlar markazlarining belgilari kabi ko'plab shaharlar tarixi va rivojini aks ettiruvchi tomonlar asosan arxeologik topilmalarda o'z ifodasini topadi [2:8]. Shuning uchun ham qadimgi shahar xarobalarida bu jarayonni o'rganishimiz uchun muhim bo'lgan haqiqiy tarixning izlari va qoldiqlari saqlanib qolganligi shubhasizdir.

XX asrning 50-yillaridan boshlab O'rta Osiyo ilk shaharlarini o'rganishda arxeologik materiallar katta ahamiyat kasb eta boshladi. Ularning tahlili tadqiqotchilar oldiga mintaqaning ilgari ma'lumotlar kamligi tufayli o'rganilmagan turli viloyatlaridagi shaharlar taraqqiyoti masalalarini tadqiq etish muammosini qo'ydi. Hozirgi bilimlar doirasida arxeologik materiallarni yozma manbalar ma'lumotlari bilan bog'lash kabi qonuniyatli zaruriyat paydo bo'ldi. Shuningdek, ilk shahar markazlari shakllangan turli tarixiy-madaniy viloyatlardagi o'ziga xos shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ilk shaharlarning arxeologik belgilarini nisbatan aniqroq ajratish ham zaruriy holat hisoblanadi [3:43].

Aslini olganda, biz shaharlar ta'rifini arxeologik mezonlarning umumiy sxemasiga ega bo'lsak-da, ammo shaharlar genezisi (bronza, ilk temir davri) masalasi hanuzgacha anchagina ochiq turibdi. Bu masalaning hal bo'lishi ko'p hollarda shahar maskanlari evolyutsiyasidagi o'ziga xoslikni to'g'ri tushunish bilan bog'liqdir. Bu yerda, avvalo, bir qator eng muhim tushunchalar, atamalarning noaniqligi (mas. “shakllanayotgan shahar”, “shaharmonand”, “shahar tipidagi maskan”, “shahar manzilgohi”, “shahar-davlat” va boshq.) yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu holat tarixiy topografiya va me'moriy inshootlarni o'rganishga ham ta'sir etadi.

Metodologik xususiyatga ega bo'lgan muammoni hal etishning yangi usullarini izlash zaruriyatini ham ta'kidlash joizki, bu avvalo, ilk shaharlar shakllanishining ilgaridan ma'lum bo'lgan sotsiologik va arxeologik sxemalarini to'ldirilishi bilan bog'liqdir. Bu qadimgi urbanizatsiya jarayonlari borishini qayta tiklash, uning rivojlanishi qonuniyatlari va mavjud omillarini aniqlashga bog'liqdir. Shunday qilib, mavjud manbalar salohiyatidan kelib chiqib, ilk shaharlar tarixini o'rganish u yoki bu holatda ham arxeologik ma'lumotlarni tarixga yo'naltirish muammolari bilan bog'liqdir.

Ayni vaqtda arxeologik materiallar o'ziga xos va murakkabdir. Yozma manbalardan farq qilgan holda ular saqlab qo'yish yoki avlodlarga ma'lumot yetkazish maqsadida maxsus bunyod etilmay, qadimgi tarixiy jarayonlarning mahsuli hisoblanadi. Tarixiy informatsiya arxeologik materiallarda ashyoviy buyumlar, narcalar yoki makonlar shaklida muhrlangan bo'lib, ular ijtimoiy va siyosiy tarix uchun to'g'ridan to'g'ri to'liq fakt bo'la olmaydi. Aynan shuning uchun ham ularni tarixiy, ijtimoiy va madaniy umumlashtirish darajasiga ko'tarishni faqat arxeologik materiallarni tahliliy uslub orqali tarixga yo'naltirish yoki tarixga aylantirish yo'li bilangina amalga oshirish, izohlash va talqin etish mumkin [4:9].

Obyektlar (shaharlar, mudofaa inshootlari, me'moriy qurilmalar va hok.) tipologiyasi tartibini ishlab chiqish, materiallar xususiyatlarini tahlil etish va ular asosida haqiqiy mavjudlik orasidagi uzviylikni ochib berish – arxeologik materialni qayta ishlab tarixiy va materiallarni manbaga aylantirishga imkoniyat yaratadi. Bu jarayonni obyektiv yoritish uchun tartibli yondashuv yoki tadqiq etilayotgan mavzu bo'yicha tadqiqotchilar tomonidan to'plangan arxeologik manbalarni mumkin qadar ko'proq egallash, tahlil qilish lozim bo'ladi. Buning uchun

tadqiqotchida arxeologik sharhlash yoki izohlashni amalga oshirishda tarix fanining muhim ilmiy-tadqiqot yo'nalishi sifatida ma'lum arxeologik tayyorgarlik va bilimlar zarur bo'ladi. Bu bilimlar mashhur majmualar bilan birgalikda turli yillarda ochilgan obyektlarni aniqlash, ularning tuzilish jihatlari, obyektlarning ma'lum hududiy va tuzilish guruhlari tipologiyasini o'rganishni talab etadi.

Bunday tahlil esa keyingi bosqichda arxeologik manbalarni sotsiologik va ijtimoiy tadqiqotlar darajasida yoki tarixiy manbalar darajasida tushunish uchun keng imkoniyat yaratadi. Qadimgi ishlab chiqarish jarayonlarini tarixan qayta tiklash tadqiqotning muhim qismi hisoblanib, ularni umumlashtirish shahar va davlat iqtisodiy tarixini tarixiylik nuqtayi nazaridan ochib berish imkoniyatini yaratadi. Ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan o'zgarishlar shahar hayoti tuzilishining o'zgarishiga olib keladi [4:9]. Shuning uchun ham turli davrlarga oid shaharlar o'ziga xos tuzilish shakliga ega bo'ladi. Shu bilan birgalikda shaharlar sifatii jihatdan boshqa aholi joylashuvi punktlaridan faqat shaharga xos bo'lgan xususiyatlari bilan ham farqlanadiki, bu jihatlarni aniqlash va o'rganish tadqiqotch-urbanologlarning hozirgi paytdagi muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Turli bosqichlarda shaharlarning uzoq vaqt mobaynida shakllanishi, tarkibiy qismlarining rivojlanishi, shahar tuzilmasining shakllanib bo'lgan jihatlarning turlicha rivojlanishi va turli geografik zonalaridagi aholi joylashuv punktlaridagi shaharga xos bo'lgan jihatlarni aniqlash juda murakkabdii. Chunki ayrim guruh shaharlar ma'muriy markazlar sifatida rivojlansa, ayrim guruh shaharlarda harbiy-mudofaa, madaniy yoki ishlab chiqarish vazifalari ustunlik qiladi. Shuning uchun ham dastlabki shaharlarning tarkibiy qismlarini tadqiq etish – arxeologik materiallarning juda ko'pligi nuqtayi nazaridan ko'p qirralidii.

**Natija va muhokamalar.** Arxeologiyadagi tarkibiylik faqatgina moddiy madaniyat obyektlarini pragmatik o'rganish bo'libgina qolmay, umuman jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi tarixi, fan, madaniyat, e'tiqodlar va san'at, etnogenez va demografik jarayonlar, davlatchilikning shakllanishi va shahar madaniyatining rivojlanishi, shaharlarning tarixiy topografiyasi, me'moriy inshootlar tarixi hamdii. Arxeologik manbalarning ushbu jihatlarni o'rganish uchun maxsus ilmiy konferensiyalar va nazariy tadqiqotlar o'tkazilgan. Boshqa muammolar qatori ularda jamiyat faoliyatining muhim yo'nalishlari markazlashgan va jamiyat rivojlanish darajasining o'ziga xos ko'rsatkichi bo'lgan shahar masalasi alohida o'rin egallaydi. Arxeologlar arxeologik manbalar orqali shaharni ko'p vazifali ijtimoiy aloqalarning murakkab tartibi sifatida tadqiq etadilar. Ta'kidlash joizki, shaharlarning rivojlanishi jarayonida ular bajarayotgan ko'pgina vazifalarning roli o'zgaradi, ayrimlari yo'qolib boradi, ayrimlari esa mukammalasha borib nisbatan yuqori bosqich darajasiga ko'tariladi. Ammo asosiy vazifalar – aholining bir yerga zich joylashuvi, savdo-sotiq va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat (hunarmandchilik, harbiy, ma'muriy va madaniy markaz) barcha davrlarda saqlanib qoladi [5:61-62].

Shu bilan birgalikda, shaharlar shakllanishining Qadimgi Sharq sxemasini to'g'ridan to'g'ri O'rta Osiyo mintaqasiga (zich qurilishlar, mahobatli me'morchilik rivoji, mustahkamlangan panagoh vazifasi) joriy etishga harakat qilish to'liq o'zini oqlamaydi. Misol uchun, bronza davri Oltintepa materiallariga ko'ra, uning atrof qishloq xo'jaligi markazi yoki harbiy-mustahkamlangan panagoh vazifasini bajaraganligi haqida to'la ishonchli ma'lumot yo'q. Baqtriyadagi Jarqo'ton va Dashliga nisbatan ham shu fikrni aytish mumkin. Jarqo'tonda Mesopotamiya shaharlarida bo'lgani kabi uzluksiz aylanma devorlar yo'q. Shaharlarning qishloq xo'jaligi atrofi markazi, mustahkam devorlar bilan o'ralgan aholi panagohi vazifalari ilk temir davri Baqtriya va Sug'dda kuzatiladi. O'rta Osiyo shahar maskanlarining aynan bronza davri, bronzadan ilk temir asriga o'tish davri va ilk temir davri genezisi masalalari bo'yicha ma'lum noaniqliklar mavjud bo'lib, ular maxsus tadqiqot mavzusi bo'lmagan [6:103].

Bularning barchasiga aniqlik kiritish arxeologik manbalarni tahlil etish, qayta ishlash va tarixiylikka yo'naltirishni talab etadi. Ma'lumotlar tahliliga nazariy yondashuv va arxeologik materiallarni qayta ishlab madaniyatshunoslik va sotsiologik darajada tarixiy manbaga aylantirish asosiy tayanch bilim bo'lib, V.M. Masson tomonidan shaharlar tarixini o'rganishda qo'llanilgan. Tadqiqotchi arxeologik manbalarni talqin qilishning ikkita: madaniyatshunoslik va sotsiologik darajasini ajratadi. Ma'lumki, arxeologik materiallar mavjud bo'lgan buyum-mahsulot shaklidagi madaniyatni aniq tanlashni o'zida aks ettiradi. Ma'lum mintaqadagi turli manbalarni

madaniyatshunoslik jihatidan talqin etish biz uchun muhim bo'lib, ular madaniy majmualardagi ajralib turadigan sara jihatlari, hokimiyat ramzi va ilk sivilizatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Bu holat urbanizatsiyalashgan madaniyat belgilaridan biridir [7:28-29].

Yana ko'pgina urbanistik belgilarni sotsiologik talqin o'zida aks ettirib, u rivojlanish bosqichidagi ishlab chiqarish jarayonini, me'morchilik, manzilgohga oid tuzilmalarni ochib beruvchi arxeologik materiallarda o'z ifodasini topadi. Bu yerda materiallar ma'lum tarixiy xususiyatga ega bo'lgan shaharmonand – ilk shahar rivojlangan shahar-makonga oid tizimi shakllanadigan urbanistik tizimni, uning shakllari va jihatlarni ochib beradi. Materiallarning tartibi va tahlili murakkablashgan ijtimoiy tuzumdagi tarixiy, jumladan, ilk shahar belgilari, shaharmonand manzilgohlar, rivojlanish turlarini, ilk shaharlar, rivojlangan shahar markazlari tizimi tarixini ishlab chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda respublikamiz tarix fani oldidagi muhim vazifalardan biri – jamiyat tarixini obyektiv o'rganish va xalqimizning, tarixiy xotirasini qayta tiklash, davlatchilik hamda shaharlar paydo bo'lishining asoslari, bosqichlari va shakllarini o'rganish, bu jarayonlar rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy tomonlarini tadqiq etish ham o'ta muhim hisoblanadi. Fikrimizcha, arxeologik ma'lumotlardan tarixning qadimgi davrlarini yoritishda foydalanish va bu jarayonda davlatchilik hamda qadimgi shaharlar tarixiga alohida e'tibor qaratish aynan davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muammolar sirasiga kiradi.

Ushbu muammolardan kelib chiqib, jamiyatning qadimgi tarixini har tomonlama tahlil etish shuni ko'rsatadiki, davlatchilik va dastlabki shaharlar siyosiy institutlar tartibining ilk bosqichlarida paydo bo'ladi hamda bu jarayon iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotning tubdan sifatini yangi bosqichi bilan izohlanadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, shaharlar va davlatchilik sivilizatsiya rivojining asosiy sababi bo'lsa, boshqa tadqiqotchilarning fikricha esa, bu jarayon sivilizatsiyaning asosiy bosqichlaridan biridir. Har qanday fikrlarga qaramasdan, barcha tadqiqotchilar davlatchilik va shaharlar sivilizatsiyalashgan jamiyatning asosiy belgisi ekanligini yakdillik bilan e'tirof etadilar [8:39-40]. Diqqatga molik tomoni shundaki, jamiyat taraqqiyotiga sivilizatsion yondashuv respublikamiz olimlari tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Ta'kidlash lozimki, yaqin paytgacha o'tmish tarixni o'rganishda uni betinim sinfiy kurashlar, ijtimoiy isyonlar va mojarolar sifatida talqin etish metodologiyasi ustunlik qilib keldi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli turtki bergan ko'pgina tarixiy-madaniy jarayonlar rad etilib, sivilizatsion yondashuv unutilib qo'yildi. Fikrimizcha, tarixga (ayniqsa uning ilk bosqichlariga) bo'lgan sivilizatsion yondashuv – sinfiy yondashuvni va ma'lum xalq mentalitetini nisbatan yuqori ko'rishni rad etadi. Chunki davlatchilik va shaharlar tarixini chuqur va har tomonlama tadqiq etish jarayonida sivilizatsiya ko'p hollarda mahalliy xususiyatga ega bo'lsa-da, mohiyatan umuminsoniy jarayon ekanligi isbotlandi.

Ayni paytda yana shuni ta'kidlash lozimki, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, tarixga faqat sivilizatsiyani qiyosiy yoki solishtirma o'rganish asosida yondashuv har doim ham o'zini oqlamaydi. Uning qiziqarli va istiqboli borligiga qaramasdan, umuminsoniy qadriyatlardagi aniq ahamiyati va sivilizatsion yondashuvda insoniyat jamiyatini o'rganishdagi qarashlarning torligi va bir yoqlamaligining ustunligi seziladi. Rivojlanish jarayonidagi ayrim sivilizatsiyalar o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarilsa, ayrimlari rivojlanishning quyi pog'onasida bo'ladi [9:120-122].

Bizning fikrimizcha, sivilizatsiya harakatining ko'p qirrali yo'nalishi bilan birgalikda jamiyat taraqqiyotini o'rganishda qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik ishlab chiqarishning nisbatan tez taraqqiy etishiga turtki bo'lgan iqtisodiy tuzilishining tahlili, uning yo'nalishi va rivojlanish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosalar va takliflar.** Shunday qilib, muammoni chuqur tahlil etish natijalari shuni ko'rsatadiki, davlatchilik va shaharlar tarixi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p qirrali va murakkab masala bo'lib, alohida tadqiqotchilar hamda butun ilmiy jamoalar izlanishlarini talab etadigan o'ta muhim ilmiy muaommlardan hisoblanadi. Demak, arxeologiya fani o'rganadigan moddiy manbalar turli mehnat qurollari, harbiy yarog'lar, zargarlik buyumlari, turli xomashyolardan ishlangan idishlar, shuningdek, me'morchilik yodgorliklari – ko'hna shahar va qishloq xarobalari, turar joy binolari, ustaxonalar, saroylar, ibodatxonalar, istehkomlar, mudofaa inshootlari va shu kabilardan iboratdir. Bu manbalarga qarab o'tmish avlodlarimizning ishlab

chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish jarayoni, turmush tarzi va moddiy madaniyati haqida ma'lum tasavvur hosil qilish mumkin va eng muhimi, mintaqamiz hududlaridagi qadimgi aholining bunyodkorlik faoliyati hamda shaharlar va davlatchilik tarixining eng qadimgi davrlari bo'yicha muhim ma'lumotlar olish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Эшов Б.Ж. Цивилизация тизимида илк шаҳарлар. –Тошкент: Зар қалам, 2004. –Б.18.
2. Сағдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. –Б.8.
3. Павленко Ю.В. Раннеклассовые общества. Генезис к пути развития. –Киев, 1989. –С. 43
4. Эшов.Б.Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи. – Тошкент: Фан ва технология, 2008. –Б.9.
5. Массон В.М. Культурогенез Древней Центральной Азии - СПб: Из-во С.Петербург. ун-та, 2006. –С. 61-62.
6. Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. –Ташкент, БУ, 2005. – С.103.
7. Массон В.М. Экономика и социальный строй древних обществ. – Л.: Наука. 1986. – с.28-29.
8. Тойнби А. Дж. Героические века Т.8. Контакты между цивилизациями; т.9. Цивилизация перед судом истории. Айрес Пресс. – М.: Рольф, 2002. – С. 25-26, 39-40.
9. Тойнби А.Дж. Постигание истории. – М.: Айрес Пресс, 2010. – С. 120-122.

#### О'ZBEKISTONNING XALQARO TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIGI

**Jahongirov Burxon Bo'ronovich**

О'zDJTSU, "Sport huquqi, ijtimoiy  
va tabiiy – ilmiy fanlar"

kafedراسи dotsenti

[burxon2016@gmail.com](mailto:burxon2016@gmail.com)

ORCID. 0009-0006-4267-1197

UDK: 796. 009 (100)

**Annotatsiya.** O'zbekiston mustaqillik sharofati bilan jahonning ko'plab mamlakatlari va yirik xalqaro tashkilotlari bilan turli sohalarda hamkorlik qilishi uchun bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining va boshqa qonunosti hujjatlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hamda Yevropada, Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining prinsiplari va maqsadlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga asoslandi. Ushbu maqolada O'zbekistonning xalqaro maydonda nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH), Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT), Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) va boshqa tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonlama diplomatik hamda xalqaro xavfsizlik va mintaqaviy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal etish yuzasidan ilgari surayotgan tashabbuslari jahon hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotgani haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bundan tashqari bir qator muammolar ham mavjudki, ularni hal etish uchun albatta xalqaro munosabatlar taqozo etiladi. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarini kengaytirish, davlatlararo neft quvurlarini o'tkazish, xalqaro avtomobil va temir yo'l magistrallarini qurish, O'zbekistonning jahon bozoriga kam moliyaviy xarajat evaziga chiqish imkoniyatini beruvchi kommunikatsion tarmoqlarini yaratish kabi masalalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** davlat, respublika, mamlakat, qonun, normativ-huquqiy hujjat, xalqaro tashkilot.



## СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ

**Аннотация.** Благодаря независимости Узбекистана был принят ряд нормативно-правовых актов для сотрудничества в различных сферах со многими странами мира и крупными международными организациями. В частности, Конституция Республики Узбекистан и другие подзаконные акты основаны на принципах и целях Организации Объединенных Наций и Организации по безопасности и сотрудничеству в Европе, а также на обязательствах, вытекающих из международных договоров и соглашений Республики Узбекистан, ратифицированных Олий Мажлисом Республики Узбекистан. В данной статье рассматривается деятельность Узбекистана на международной арене в рамках авторитетных международных и региональных организаций – Организации Объединенных Наций (ООН), Организации по безопасности и сотрудничеству в Европе (ОБСЕ), Содружества Независимых государств (СНГ), Шанхайской организации сотрудничества (ШОС), Организации исламского сотрудничества, Организации тюркских государств, Организации экономического сотрудничества (ОЭСР) и др., двусторонняя дипломатия и инициативы по решению актуальных проблем международной безопасности и регионального развития. Были проанализированы такие вопросы, как расширение торговых экономических, политических отношений Узбекистана с международными организациями и странами, прокладка межгосударственных нефтепроводов, строительство международных автомобильных и железнодорожных магистралей, создание коммуникационных сетей, позволяющих Узбекистану выйти на мировой рынок с минимальными финансовыми затратами.

**Ключевые слова:** государство, республика, страна, закон, нормативный акт, международная организация, мировое сообщество, внешняя политика, политическое, экономическое, гуманитарное, культурное взаимодействие, дипломатические отношения, военное дело, безопасность, Европа, Азия, экономическое сотрудничество, региональное развитие

**Kirish.** O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridan xalqaro tashkilotlarga, jumladan, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv yo‘lini tutdi. Buning natijasida O‘zbekiston 1991- yildan bir qancha xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘la boshladi, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov, Q.Usmonov o‘z asarlarida O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, A.Qirg‘izboyev esa O‘zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi haqida ma‘lumotlar bergan bo‘lsalar, B. Jahongirov o‘zining ilmiy-uslubiy ishlarida ma‘lumot bergan. Bundan tashqari arxiv materiallari, statistik va kundalik matbuot materiallaridan foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O‘zbekistonning tashqi siyosiy yo‘li barcha xalqaro tashkilotlar bilan har tomonlama hamkorlik qilishga yo‘naltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunda 40 dan ortiq xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o‘rnatgan. Davlat mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borish yo‘lini tanladi va bu yo‘ldan izchil davom etmoqda.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) – davlatlararo tashkilot. 1991-yil 8-dekabrda Minskda Belarus, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketishi natijasida yo‘q bo‘lganligi qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. 1991-yil 21-dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston qo‘shildi. Ular Belarus, Rossiya va Ukraina bilan birga MDHning maqsad va qoidalari to‘g‘risidagi Deklaratsiyani Olmaota shahrida imzolashdi. 1993-yil dekabrda MDHga Gruziya qo‘shildi. 1993-yil yanvarda MDH Ustavi qabul qilindi. [1.18]

MDH sobiq SSSR hududida fuqarolik urushi kelib chiqishining oldini oldi, mamlakatlarni bosqichma-bosqich xalqaro munosabatlar tizimiga kirib, mustaqilliklari, suverenitetini mustahkamlashga ko‘mak berdi. O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda MDHda ishtirok etmoqda. U MDHga davlatlar ustidan tuzilgan tashkilot sifatida emas, balki mustaqil davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida qaraydi. Hozir MDH ga

kiruvchi davlatlarning aholisi 283 million kishini tashkil etadi. Bu aholining 120,5 millioni iqtisodiyotda mashg'uldir. Ularning 29,4 foizi sanoat va qurilishda, 21,5 foizi qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik sohasida ishlaydi. [2.380].

Ma'lumki, 1992-yil 2-mart kuni O'zbekiston Respublikasi BMTga yangi suveren, jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida kirdi. O'zbekistonni tashkilotga qabul qilish to'g'risidagi qaror BMT Bosh Assambleyasining 46-sessiyasida ovozga qo'yilmagan holda qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi rayosatining qarorida bu xususda shunday deyilgan edi: "1992-yil 2-mart bahor kunini avlodlarimiz buyuk tarixiy kun deb ataydilar. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi va BMT binosi oldida mustaqil, suveren respublikamizning davlat bayrog'i ko'tarildi", deb ta'kidlagan. Shundan so'ng, 1993-yil 24-oktyabrda Toshkentda Xolid Malik boshchiligidagi BMTning vakolatxonasi o'z ishini boshladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda BMTning o'ndan ortiq dasturlari, jamg'armalari va agentliklari, jumladan, BMT Taraqqiyot dasturi (BMT TD), Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA), Bolalar jamg'armasi (YUNISEF), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO), Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (BMT NJB), OIV/OITS bo'yicha birlashgan dasturi (YUNEDS), Gender tengligi hamda ayollar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalalari bo'yicha tuzilmasi, Markaziy Osiyoda Preventiv diplomatiya mintaqaviy markazi, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hamda BMT TD rahbarligi ostida BMT ko'ngillilar dasturi singari bir qator ixtisoslashgan muassasalari faoliyat olib bormoqda. [3.2].

1997-yilda I.A. Karimov AQSh va Rossiya ishtirokida Afg'oniston (Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston) bilan chegaradosh davlatlardan "6+2" muloqot guruhining Afg'oniston muammosini muzokaralar orqali hal qilish uchun BMT shafeligida tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. 1997-yil 15-16-sentyabr kunlari Toshkentda "Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli hudud" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda 56 davlat va 16 xalqaro tashkilot ishtirok etdi. 2000-yil oktyabr oyida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirish mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

1993-yil 29-oktyabr kuni YUNESKoning Parijdagi bosh qarorgohida YUNESKO a'zoligiga O'zbekistonni qabul qilish marosimi bo'lib o'tdi. O'sha kuni YUNESKO dasturiga asosan Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi nishonlandi. 1994-yil oktyabr oyida Parijda Mirzo Ulug'bek haftaligi tantanali ravishda o'tkazildi. Xiva va Buxoro jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, hozirda O'zbekistonda 411 ta obyekt kiritilgan.

O'zbekiston va YUNESKO hamkorligi ta'lim sohasida ham faol amalga oshirilmoqda. Respublika oliy o'quv yurtlarida YUNESKO kafedralari tashkil etilgan. Shunday qilib, O'zbekiston Milliy universitetida YUNESKO kafedrasini ochildi. Mirzo Ulug'bek nazariy fizika va astronomiya masalalarini o'rganishga qaratilgan. [4.3].

O'zbekiston 1992-yil 26-fevralda Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) ga a'zo bo'ldi. YXHT bilan hamkorlikning asosiy ustuvor yo'nalishi mintaqaviy xavfsizlik sohasi bo'lib, a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy sohada, texnologik, gumanitar sohalarida va ekologiyada aloqalarni rivojlantirishga ko'maklashish, tizimli siyosiy muloqot uchun sharoit yaratish edi. 1995-yilda Toshkentda YXHTning Markaziy Osiyo bo'yicha byurosi ochildi, uning maqsadi mintaqaviy mamlakatlarga turli ko'mak berish deb e'lon qilindi. Byuro 1999-yilgacha faoliyat yuritib, tomonlarning manfaatlarini ifodalovchi sohalarida aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha faoliyatni amalga oshirdi. Shu bilan birga, byuro inson huquqlari, demokratik institutlarni rivojlantirish va hokozolar bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratdi. [14.17]

O'zbekistonning "Shanxay hamkorlik tashkiloti" bilan ham olib borayotgan aloqalari samaralidir. 1996-yilda bu tashkilot "Shanxay beshligi" deb nomlanar edi, uning tarkibiga Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari kirar edi. Ushbu "beshlik"ning dastlabki asosiy vazifasi tashkilotga a'zo mamlakatlarning davlat chegaralarida qurolli kuchlarni qisqartirish hamda o'zaro davlat suverenitetiga ishonchli ta'minlashdan iborat edi. "Beshlik" doirasida chegara hududlaridagi harbiy kuchlarni qisqartirish borasidagi bitim imzolandi. Bu o'z navbatida, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining ishonchli va do'stlikning mustahkamlanishiga xizmat qildi. [15.3]

“Beshlik”ka a’zo mamlakatlarning munosabatlari rivojlanib, ular o’rtasidagi ishonch endi chegara hududlardagina emas, balki undan ham kengroq miqyosda namoyon bo’la boshladi. Endilikda bu mamlakatlar o’zaro hamkorlikda siyosiy, harbiy ishlar, diplomatik munosabatlar, xavfsizlik va iqtisodiyot masalalarida ham hamjihatlikda ish yuritadigan bo’lib bormoqda. 2000-yilning yozida tashkilotning Dushanbe shahridagi sammitida u “Shanxay forumi” deb qayta nomlandi. [5.376].

Mazkur sammitda ilk bor Respublika Prezidenti I.A. Karimov rahbarligidagi O’zbekiston delegatsiyasi kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. O’shanda besh davlat rahbarlari va I.A.Karimov “Shanxay forumini” turli sohalardagi hamkorlikni qamrab oluvchi mintaqaviy tuzilmaga aylantirish zarurligini e’tirof etdilar.

2001-yil may oyida I.A. Karimov O’zbekiston ham mazkur “beshlik” tarkibiga kirish niyatida ekanligini ma’lum qildi. O’shanda Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov kelgusida ushbu birlashmani “Shanxay hamkorlik tashkiloti” deya nomlashni taklif etgan edi. Shanxay hamkorlik tashkilotining 2001-yil iyun oyida Shanxay shahrida bo’lib o’tgan sammitda so’zga chiqqan I.A. Karimov O’zbekistonning ushbu tashkilotga a’zo bo’lishiga birinchi galda mamlakatning xavfsizligini ta’minlash masalasi sabab bo’lganligini ta’kidladi. Mazkur masala butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun nihoyatda muhim va dolzarbdir. [11.1054]

Ta’kidlab o’tish kerakki, Shanxay hamkorlik tashkilotiga juda katta harbiy potensialga ega Rossiya va Xitoy kabi davlatlar ham a’zo bo’lib, ular BMT xavfsizlik kengashining ham a’zosi. O’zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotiga kirishiga yana bir sabab – Xitoyning ichki yalpi mahsulot o’sish ko’rsatkichlari bo’yicha dunyoda yetakchi o’rinlarning birini egallab turganligidir. Ushbu Dushanbe sammitida I.A. Karimov ishtirokchilar e’tiborini quyidagi eng muhim masalalarga va tashkilot faoliyati davomida ularni hal etish zaruriyatiga qaratdi. Birinchidan, Afg’oniston xalqaro terrorizm bazasi va butun dunyoga giyohvand moddalarni tarqatuvchi hududga aylangani va undagi beqarorlik mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashga xavf tug’dirishini inobatga olib, tinchlik o’rnatishga erishish; ikkinchidan, hozirgi zamon xalqaro terrorizmga, diniy ekstrimizm, separatizm va narkobiznesga qarshi kurashda barcha kuch va imkoniyatlarni birlashtirish zarurligiga alohida to’xtalib o’tdi.[6.18].

Mazkur sammitda Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to’g’risida Deklaratsiya va terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo’yicha Shanxay konvensiyasi qabul qilindi. Ushbu Deklaratsiyada tashkilotning asosiy maqsadi – o’zaro ishonch, do’stlik hamda tashkilotga a’zo davlatlar o’rtasidagi yaxshi qo’shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, ular orasida siyosat, sadvo-sotiq, iqtisodiyot, fan va texnika, madaniyat va maorif, energetika, transport, ekologiya va boshqa sohalardagi samarali hamkorliklarni rag’batlantirishdan iborat ekanligi alohida e’tirof etilgan.[7.15].

O’zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan hamkorligida, u 1992-yilda a’zo bo’lgan YXHT (Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti) muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti aslida Yevropa davlatlarining tashkilotidir. Ammo O’zbekiston u bilan hamkorlik qilar ekan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlikni ta’minlash, davlatlarning sa’y-harakatlari, kuch va imkoniyatlarini terrorizm, aqidaparastlik, diniy ekstremizmga qarshi kurashda birlashtirishga bog’liq muammolarni ko’tarish va hal qilishga asosiy e’tiborni qaratdi. O’zbekistonning Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bilan hamkorligi jarayonida mazkur tashkilotning Istanbul shahrida 1999-yil noyabrida bo’lib o’tgan sammit nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur sammit ishida tashkilotga a’zo bo’lgan 54 davlatning rahbari, jumladan, I.A. Karimov boshchiligida O’zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etdi. [8.21].

Ushbu sammitda ma’ruza qilgan I.A. Karimov terrorizmga qarshi kurashuvchi xalqaro markazning asosiy vazifasi terrorizmning ko’rinishlariga qarshi kurashishgina emas, ayni paytda, xalqaro terrorizmni moliyaviy ta’minlaydigan, qo’llab-quvvatlaydigan, uni boshqaradigan manbalarga qarshi kurashishdan iborat bo’lmog’i kerakligini ta’kidladi. O’zbekiston Prezidentining ushbu taklifi 2001-yilning 11-sentyabrida Nyu-York shahrida yuz bergan terroristik xurujdan so’ng yanada dolzarblik kasb etdi. O’zbekiston 1996-yilda tashkil etilgan GUUAM (Gruziya, Ukraina, O’zbekiston, Ozarbayjon, Moldova) kabi xalqaro tashkilotning ham a’zosi. Mazkur tashkilot Markaziy Osiyo mintaqasining muammolarini hal etishda muhim rol o’ynaydi. Uning asosiy vazifasi – Osiyo-Kavkaz-Yevropa transportkoridori doirasidan iborat.[9.3].

**Natijalar va muhokama.** Ko‘rinib turganidek, O‘zbekiston ko‘plab xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikni amalga oshirmoqda. Bunday tashkilotlar orasida “EKO”, “ShHT”, “6+2”, “YXHT” va boshqa tashkilotlar bilan hamkorligi, birinchi navbatda, ko‘plab xalqaro siyosiy muammolarni, hamjihatlikda yechish imkoniyatini, jumladan, mamlakatdagi va umuman mintaqadagi xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston turkiy tilli davlatlarning liderlari Forumi deb ataluvchi xalqaro tashkilotning ham faol a‘zosi. Mazkur Forum doirasida O‘zbekiston barcha turkiy tilli davlatlar bilan yaqin iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalarida hamkorlikni amalga oshiradi. Bugungi kunda barcha turkiy tilli davlatlar oldida, jumladan, O‘zbekiston oldida ham bir qator muammolar ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

1995-yilning avgustidan buyon O‘zbekiston Osiyo taraqqiyot banki (OTB) haqiqiy a‘zosi hisoblanadi. 1997-yilda mazkur bankning qishloq xo‘jaligi, tabiiy resurslardan foydalanish, infrastrukturalar, avtomobil va temir yo‘llar qurish, maorif tizimi sohalaridagi loyihalarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi Memorandumi imzolandi. 1998-yilda Osiyo taraqqiyot banki umumiy qiymati 90 million AQSh dollariga teng bo‘lgan yana ikki loyihani imzoladi. Osiyo taraqqiyot banki O‘zbekistonning har tomonlama hamkorliklarini rivojlantirib borayotgan eng yirik va ishonchli moliyaviy muassasalardan biri hisoblanadi. [10.994].

2002-yilda Toshkentda Osiyo taraqqiyot banki bilan O‘zbekiston hukumati hamda Markaziy bank o‘rtasida o‘zaro hamfikirlik to‘g‘risida memorandum imzolandi. O‘zbekiston bilan Osiyo taraqqiyot banki o‘rtasida 2002-yil oxirida yana bir shartnoma imzolangan. Unga muvofiq “Markaziy Osiyoda elektr energiyasi uzatish tizimining operatsion faoliyati samaradorligini yaxshilash” loyihasi uchun 90 million AQSh dollari miqdorida ajratildi. Osiyo taraqqiyot banki O‘zbekistonning maorif tizimini isloh qilishda faol ishtirok etib kelmoqda. Shu maqsadlarda bank tomonidan 108,5 million AQSh dollari miqdorida kredit ajratildi.[16.194].

1995-yildan 2002-yilgacha Osiyo taraqqiyot banki O‘zbekistonga jami 13 ta loyihani amalga oshirish uchun 695,5 million AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ni taqdim etgan. Taqdim etilayotgan loyihaviy kreditlarning o‘ziga xos tomoni shundaki, bu pullar 25 yil davomida qaytarilishi kerak, shundan 5 yili imtiyozli muddat sanaladi. Osiyo taraqqiyot bankining loyihasi uch yilga mo‘ljallangan bo‘lib, u 2007-yilga kelib tugallandi. [12.2].

2001-yil dekabr oyining birinchi o‘n kunligida Toshkent shahrida Osiyo Banklari Assotsiatsiyasining (OBA) 180-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Osiyo banklari assotsiatsiyasi notijorat maslahat tashkiloti sifatida 1981-yilda Taypeyda tashkil etilgan bo‘lib, uning tarkibiga Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi (OTM) 200ga yaqin bank va mazkur mintaqada joylashgan Yevropa va Amerika banklariga qarashli filiallar kiradi. 2000-yilning may oyidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Milliy banki ham Osiyo banklari assotsiatsiyasining a‘zosi hisoblanadi. 2000-yilning sentyabrda u OBAning direktorlari kengashiga ham saylanadi. OBAsiga O‘zbekistonning Asaka banki ham a‘zo bo‘lib kirgan. [13.3].

**Xulosa va takliflar.** O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish, valyuta-moliya mexanizmidan foydalanish, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm va narkobiznesga qarshi birga kurash olib borish, shuningdek, Markaziy Osiyo respublikalari uchun bu hududni yadroviy qurollardan xoli zona deb e‘lon etish hamda xalqaro institutlar tomonidan jamiyatning barcha sohalarini isloh qilish bilan birga, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida moliyaviy, texnikaviy rivojlanishiga imkoniyat yaratildi. O‘zbekiston Xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda xavfsizlikni ta‘minlash, jamiyat hayotida yuz bergan islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha jiddiy ishlarni amalga oshirmoqda. Bu ishlar jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning muhim shartlaridan biri va asosiy omili sifatida baholanmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Karimov I.A. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlarining sammitida so‘zlangan nutq.// Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas‘ulmiz. 9-jild. –T., 2002. –B.380
2. Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. – T.: Moliya, 2003. –B.18.

3. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2001-yil 19-iyun. –B.2
4. Деловой партнёр Узбекистана, 2001 г., 21 июня. – С.3
5. “Xalq so‘zi” gazetasi.1999-yil, 20-22-iyun. –B.2
6. Jaxongirov B.B. O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan ilmiy-texnikaviy aloqalari // Vzglyad v proshloye. – 2021 - T.4 - №2 - B.18
7. GUUAM tashkilotiga 1996-yil Venada, Gruziya, Ozarbayjon va Moldova davlatlari rahbarlari tomonidan asos solingan.1999-yilda O‘zbekiston ham mazkur tashkilotga qo‘shilgan. – B.15
- 8.1997-yilda O‘zbekistonda 30 ta tijorat banki faoliyat yuritib, ular orasida O‘zbekiston-Turkiya banki (UT bank), shuningdek “Sakurabank” (Yaponiya) kabi yirik moliyaviy – institutlarning vakillari. Hindiston Davlat banki, Pokiston Milliy banki, Malayziyaning “Balxardbank” i va hokozolar ham bor edi. // Xalq so‘zi gazetasi. 1998 yil 28 sentyabr.-B.3
9. Jahongirov B. B. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan ilm-fan sohasidagi hamkorlik aloqalari //Academic research in educational sciences.-2021.-T.2.-№.2.-B.994.
10. Hamkor. 2003-yil 16-yanvar.-B.3
11. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2008 yil 22 yanvar.-B.2.
12. Деловой партнёр Узбекистана, 2001 г., 30 августа - С.3
13. Джахангиров Б.Б. Международные связи Узбекистана в области науки // INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" – 2022 - T.1 - №3 - С.17.
14. Jahongirov B. B., Bo‘ronov A. B. O‘zbekistonning Xitoy bilan ilmiy texnikaviy aloqalari //Academic research in educational sciences.-2021. -T.2.-№.4.-S.376.
15. Jahongirov B.B. O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan ilmiy hamkorligi.(1980-1990 yillar misolida) //Educational Research in Universal Sciences.-2023.-T.2.-№.4.-S.1054.
16. Qirg‘izboyev A. O‘zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi. –Toshkent: Fan, 2004. –B.194.

## QO‘QON XONLIGIDAGI MILLIY SIYOSAT

**B.B. Ibraximov**

NamDPI katta o‘qituvchisi

[barotjon2404@gmail.com](mailto:barotjon2404@gmail.com)

ORCID 0009-0007-8946-7633

UDK 93/94(5)

**Annotatsiya:** Maqolada Qo‘qon xonligidagi milliy munosabatlar haqida fikr yuritilgan bo‘lib, xususan, xonlikning etnik tarkibi va ularning mamlakat hayotiga ta‘siri yoritib berilgan. Qo‘qon xonligi aholisining ko‘pchiligi o‘zbeklar bo‘lib, mamlakat shahar va qishloqlarida tojiklar ham yashagan. Xonlikda yana qirg‘izlar va qipchoqlar ham istiqomat qilganlar. Ular Sirdaryoning boshlanish joylaridan Balxash ko‘ligacha bo‘lgan tog‘li rayonlardan to Qashg‘ar chegarasigacha bo‘lgan yerlarda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog‘lari, Badaxshon, Farg‘ona vodiysi hududlarida ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi hayot kechirishgan. Bundan tashqari, Farg‘ona vodiysida qoraqalpoqlar, Toshkent atroflarida qozoqlar, xonlikning sharqiy qismida, Qo‘qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho‘llarda ko‘chmanchi qozoqlar yashaganligi aholi tarkibida o‘troq aholi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholiga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etgan. XIX asr boshlarida aholining 40 foizdan ortig‘i ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lsa, shu asrning oxiriga kelib ular 15 foizni tashkil etgan. Xo‘jalik mashg‘ulotlariga ko‘ra, o‘troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik, kosiblik hamda savdo-sotiq bilan band bo‘lsa, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi chorvachilik bilan shug‘ullanganligi haqida fikr va mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qo‘qon, millat, sart, davlat, uyg‘urlar, qoraqalpoqlar, Sharqiy Turkiston, xonlik, Tojikiston, Darboz.

### НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА КОКАНДСКОГО ХАНСТВА

**Аннотация:** В статье рассматриваются национальные отношения в Кокандском ханстве и их влияние на жизнь страны, этнический состав ханства. Большинство населения Кокандского ханства составляли узбеки, в городах и селах страны также проживали таджики, киргизы и кипчаки. Они вели кочевой и полукочевой образ жизни на землях от истоков Сырдарьи до озера Балхаш, от горных районов до границы с Кашгаром, в районах Семиречья, Таласской долины, Алайских гор, Бадахшана, Ферганской долины. Кроме того, в Ферганской долине жили каракалпаки, в окрестностях Ташкента - казахи, в восточной части ханства, в степях, отделявших Кокандское ханство от Бухары и России, - казахи-кочевники. Оседлое население составляло большинство по сравнению с кочевым и полукочевым населением. Если в начале девятнадцатого века более 40 процентов населения были кочевниками и полукочевниками, к концу этого века они составляли лишь 15 процентов. Согласно исследованиям, основная часть оседлого населения была занята земледелием, ремеслами, скотоводством и торговлей, в то время как кочевое и полукочевое население занималось скотоводством.

**Ключевые слова:** Коканд, народ, сарт, государство, уйгуры, каракалпаки, Восточный Туркестан, ханство, Таджикистан, Дарбоз.

**Kirish.** Xonlikdagi aholi soni haqida manbalar turli ma'lumotlar beradi. Bu ma'lumotlarga ko'ra, XIX asrning boshlarida xonlikda (Toshkent va Turkistonni ham qo'shib hisoblaganda) aholi soni 1 million, XIX asrning o'rtalarida 1,5-2 million, XIX asrning ikkinchi yarmida 3 million kishi bo'lgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi tomonidan ko'plab hududlarning bosib olinishi hamda ularning bosqinchilar ma'muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg'ona vodiysida 2 millionga yaqin aholi qolgani taxmin qilinadi.

Shohruxiylarning dastlabki tarixi mintaqadagi siyosiy va harbiy olatasirlar bilan kechadi. 1720-yillarda qozoq-jungar urushlari qozoq urug'larining Markaziy Osiyoning janubiy tumanlari, jumladan, Zarafshon vohasi hududiga ommaviy ko'chishiga sabab bo'ladi. Ko'chib kelgan qozoqlar Kenagaslar urug'i bilan harbiy ittifoq tuzadi va birgalikda Buxoro xoniga qarshi kurashadi. 1727-yilda qozoqlar Buxoroni zabt etmoqchi bo'ladi. Biroq shahar ikki oy qamal qilingandan so'ng qozoqlarning aksariyati dasht tumanlariga qaytishga qaror qiladi.

1737-1740-yillarda Markaziy Osiyo Eronidagi Afshariylar saltanati hukmdori Nodirshohning (1736-1747-yillarda hukmronlik qilgan) bosqinchilik kompaniyalariga duchor bo'ladi. Nodirshoh Xorazm va Buxoro hududlaridagi harbiy harakatlar bilan cheklanadi, Farg'ona vodiysini esa harbiy ambitsiyalaridan chetda qoldiradi. Biroq 1745-yilga kelib, vodiya sharqdan jungarlar hujumi boshlanadi. Jungarlar o'rdusi Shohruhiylarning yangi poytaxti - Qo'qon shahrini qamal qiladi. Minglar, yuzlar, qirg'izlar va qipchoqlarning birgalikdagi qo'shini jungar kuchlariga munosib qarshilik ko'rsatadi. Qisqa muddatli muvaffaqiyatga qaramay, yangi hujumlar xavfi saqlanib qilaveradi. Jungarlar Qo'qon hukmdorlaridan boy sovg'a-salom va omonatlar olgandan so'ng Farg'ona vodiysidan butunlay chiqib ketadi. [6:140.]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Skott Livay ta'kidlashicha, Qo'qon xonligining iqtisodiy taraqqiyoti, asosan, Jungar xonligining inqirozi va Sharqiy Turkistonda Sin hukmronligining o'rnatilishi bilan bog'liq. XVIII asrning birinchi yarmida jungarlar Xitoy qo'shinlariga bir necha marta qaqshatqich zarba berishga muvaffaq bo'ladi. Ular 1717-yili Tibetni ishg'ol qiladi, lekin oradan bir yil o'tgach, Sin armiyasi ta'qibi ostida ushbu mintaqani tashlab chiqishga majbur bo'ladi. 1755-yilda imperator Syanlun jungar hukmdorlari o'rtasidagi ichki mojarolardan foydalanib, Jungar xonligi ustiga 25 ming kishilik qo'shin jo'natadi. Xitoy qo'shinlari dushmanlarini tor-mor qiladi hamda jungarlar nazorati ostida bo'lgan hududlarni bosib olib, bir vaqtlar qudratli bo'lgan davlatni yo'q qilib yuboradi.

Qo'qon xonligida Qo'qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg'ilon, Chimkent, Jizzax, O'sh, Xo'jand, O'ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'nlab shaharlar mavjud bo'lgan. Xonlikning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi.

XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal'a va istehkomlar muhofaza qilgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To'qmoq, Qurtka, Niyozbek, Mahram kabilarni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo'ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham xizmat qilgan. Ushbu shahar va qal'alarda harbiy qism hamda ularga boshliq bo'lgan botirboshilar bo'lgan. Mudofaa maqsadlari uchun qurol va aslahalar saqlangan.

Xonlik tarkibiga kiruvchi hududlar aholisining joylashuvi va turmush tarzi bir-biridan farq qilgan. Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysining sug'orilib dehqonchilik qilinadigan qismi aholi joylashuvi jihatidan zich bo'lib, ular o'troq hayot kechirganlar. Sahro, tog' va tog'oldi tekisliklaridan iborat hududlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi yashagan.

Xonlikdagi aholi soni haqida manbalar turli ma'lumotlar beradi. Bu ma'lumotlarga ko'ra, XIX asrning boshlarida xonlikda (Toshkent va Turkistonni ham qo'shib hisoblaganda) aholi soni 1 million, XIX asrning o'rtalarida 1,5-2 million, XIX asrning ikkinchi yarmida 3 million kishi bo'lgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi tomonidan ko'plab hududlarning bosib olinishi hamda ularning bosqinchilar ma'muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg'ona vodiysida 2 millionga yaqin aholi qolgani taxmin qilinadi.

Aholi tarkibida o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. XIX asr boshlarida aholining 40 foizdan ortig'i ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lsa, shu asrning oxiriga kelib ular 15 foizni tashkil etgan. Xo'jalik mashg'ulotlariga ko'ra, o'troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik, kosiblik hamda savdo-sotiq bilan band bo'lsa, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi chorvachilik bilan shug'ullangan.

Qo'qon xonligi aholisining ko'pchiligi o'zbeklar bo'lib, mamlakat shahar va qishloqlarida tojiklar ham yashagan. Xonlikda yana qirg'izlar va qipchoqlar ham istiqomat qilganlar. Ular Sirdaryoning boshlanish joylaridan Balxash ko'ligacha bo'lgan tog'li rayonlardan to Qashg'ar chegarasigacha bo'lgan yerlarda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog'lari, Badaxshon, Farg'ona vodiysi hududlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot kechirishgan. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida qoraqalpoqlar, Toshkent atroflarida qozoqlar, xonlikning sharqiy qismida, Qo'qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho'llarda ko'chmanchi qozoqlar yashaganlar.

Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning boshlarida qirg'izlar, qalmoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoq, qozoq va qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg'ona vodiysigacha ko'chib kelishga majbur bo'lganlar. Shuningdek, xonlikning ayrim shaharlarida lo'lilar, hindlar, afg'onlar, arablar va boshqa Osiyo xalqlari istiqomat qilganlar. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topganidan so'ng yahudiylar, armanlar va boshqa millat vakillari ham yashaganlar.

Aholi tarkibida o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. XIX asr boshlarida aholining 40 foizdan ortig'i ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lsa, shu asrning oxiriga kelib ular 15 foizni tashkil etgan. Xo'jalik mashg'ulotlariga ko'ra, o'troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik, kosiblik hamda savdo-sotiq bilan band bo'lsa, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi chorvachilik bilan shug'ullangan.

Qo'qon xonligi aholisining ko'pchiligi o'zbeklar bo'lib, mamlakat shahar va qishloqlarida tojiklar ham yashagan. Xonlikda yana qirg'izlar va qipchoqlar ham istiqomat qilganlar. Ular Sirdaryoning boshlanish joylaridan Balxash ko'ligacha bo'lgan tog'li rayonlardan to Qashg'ar chegarasigacha bo'lgan yerlarda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog'lari, Badaxshon, Farg'ona vodiysi hududlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot kechirishgan. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida qoraqalpoqlar, Toshkent atroflarida qozoqlar, xonlikning sharqiy qismida, Qo'qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho'llarda ko'chmanchi qozoqlar yashaganlar.

Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning boshlarida qirg'izlar, qalmoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoq, qozoq va qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg'ona vodiysigacha ko'chib kelishga majbur bo'lganlar. Shuningdek, xonlikning ayrim

shaharlarida lo'lilar, hindlar, afg'onlar, arablar va boshqa Osiyo xalqlari istiqomat qilganlar. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topganidan so'ng yahudiylar, armanlar va boshqa millat vakillari ham yashaganlar. [5:439.]

**Natijalar va muhokama.** Chindan ham Qo'qon xonligi ko'p millatli bo'lgan. Uning asosiy aholisini o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, qipchoqlar va qozoqlar tashkil qilgan. Qoraqalpoqlar ham bo'lgan. Jungarlar bosqinidan so'ng Qo'qon xonligi hududida yashagan qalmiqlar ham bo'lgan. Qo'qon xonligi o'z hududini Sharqiy Turkistonga qadar kengaytirganda, uyg'urlar va dunganlar ham bu davlatning bir qismini tashkil etgan. Shaharlarda istiqomat qilgan tojik va o'zbek aholisi "sart" etnik nomini olganidan so'ng qiziq muammo paydo bo'ladi. XX asr boshiga qadar, yana ham aniqrog'i, sovet davlati tashkil etilgunga dovur sartlar ikki tilli aholi bo'lgan. "Ular shahar aholisi edi hamda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga nisbatan biroz boshqacha tushunchaga ega bo'lgan. Ular madaniyatliroq va o'qimishliroq edi. O'sha manbalarda aytilishicha, sartlar qozoqlar, qirg'izlar va qipchoqlarga nisbatan ayyor bo'lgan. Ular, asosan, savdo-sotiq bilan shug'ullangan, orasida shaharda yashovchi hunarmandlar va o'qimishli kishilar ko'p edi. Ammo boshqa tarafdin, yana bir guruh bo'lgan. Siz yirik shaharlarning beklari kim bo'lgan deb savol beryapsiz. Ular, birinchidan, hukmron qabilalar vakillari edi. Ya'nikim, bir zamon tojik aholi vakillari ham bek etib tayinlangan, yana shahar hukmdorlar orasida qipchoq, qirg'iz va o'zbek beklari bo'lgan. Masalan, uzoq vaqt hozirgi Toshkent shahri va viloyatini Pokistonning Chitral shahridan bo'lgan lashkarning beklar begi – bir qul boshqargan. Tojikistonning tog' qismidan bo'lgan tojiklarning Kanadshoh urug'i vakillaridan ham hukmdorlar bo'lgan. Ular Tojikistonning Qorategin va Darvoza degan joylaridan edi, chunki Umarxon faqat Tojikistonning tog' qismidan bo'lgan tojiklar vakillaridan iborat qo'shin tuzgan. Yoki Qushbegi, Mingboshi va Dodxoh aholisining mashhur vakillari bor edi". [4:522.]

Qo'qon xonlari devonida ko'plab tojik xalqi vakillari bo'lib, ular o'qitish bilan shug'ullanib, aynan mudarrislik qilgan, kitoblar tuzgan va ularni qayta ko'chirgan. Qirg'iz-qipchoq aholisi har doim Qo'qon xonligidagi markazdan qochish maqsadi bo'lgan, chunki har doim o'troq hayot tarzi bilan ko'chmanchi hayot tarzi o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelib turgan. Bu hokimiyat uchun, mulkni bo'lib olish uchun kurash ham edi. Esingizda bo'lsa, Musulmonqul hukmronligi davrida qipchoq aholisi Farg'ona vodiysi aholisi uylarini kuch ishlatib tortib olgan. Chindan ham zamonaviy Qirg'iziston hududida – Yettisuvda qirg'iz va qozoq aholisining bir qismi na davlat va na xonlik bo'lib shakllangan bir jamiyat tuzgan, chunki boshchi qabilalar beklari har doim mustaqillik yoki muayyan erkinlik va markaziy hokimiyatdan ma'lum imtiyozlar olish uchun kurashgan. Shuning uchun Qora qirg'izlar xonligi hukmronligi haqidagi yozma manbalarda juda kam ma'lumot uchraydi.

**Xulosa va takliflar.** XIX asrning o'rtalarida Qo'qon xonligida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va xonlikda ichki siyosiy keskinliklarning kuchayib borishi masalalariga ham bir qator tadqiqotchilar alohida to'xtalib o'tganlar. Tarixchi Sh. Kamoliddin xonlik tarixiga oid tadqiqotlarida rossiyalik siyosatchilar va tarixchilarning XIX asr o'rtalarida va ikkinchi yarmida Qo'qon xonligida markaziy hokimiyatning zaiflashganligi, siyosiy beqarorlikning kuchli bo'lganligiga alohida urg'u berilishini Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosatini oqlashga bo'lgan urinish sifatida baholanganligini ko'rsatib o'tadi [11:16.] Tarixchi B. Eshov bu jarayonlarning to'rtta sababini asosiy omillar sifatida ko'rsatib o'tadi: -"XIX asrning o'rtalariga kelib Qo'qon xonligidagi siyosiy jarayonlar hamda ichki ahvol yanada og'irlashgan edi. So'nggi tadqiqotlarga ko'ra, buning sababi, birinchidan, o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lgan qipchoqlar hokimiyatni tan olmaganlar. Xonlik hududlaridagi ba'zi viloyat hukmdorlari Musulmonquliga qarshi chiqdilar. Ikkinchidan, hokimiyatda yuqori mavqeni egallash hamda xonga ta'sir o'tkazish uchun qipchoqlar orasida ham o'zaro kurashlar borardi. Bu kurashlarda qipchoqlarning g'ulon urug'idan bo'lgan Musulmonquli ham faol ishtirok etgan. Uchinchi sabab, qipchoqlarning o'troq aholiga nisbatan yuritgan siyosati edi. Qipchoqlar o'troq aholiga nisbatan bepisandlik nazari bilan qarab, boshqa elat va etnik guruhlarni kamsitganlar. To'rtinchidan esa, tashqi omil - Rossiya imperiyasining asta-sekinlik bilan xonlik hududlariga bostirib kirishi siyosiy jarayonlarning yanada keskinlashuviga sabab bo'lgan edi" [5:361.]



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мирзо Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. –Тошкент: Янги аср авлоди. 2009. –Б 244
2. Зиёев Н. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. 29-бет; Тошкент: Шарқ, 2010. 478 б. (Ziyoeyev N. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. –Toshkent: Sharq, 2010. 478 b.) Ўтмишга назар | Взгляд в прошлое | Look to the past №2 | 2020 –67 б
- 3 Бобобеков Н. Қўқон тарихи. Тошкент: Фан, 1996. 240 б. (Bobobekov N. Qo'qon tarixi. –Toshkent: Fan, 1996. 240 b.)
4. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство – власть, политика, религия. – Ташкент: Yangi nashr, 2010. –С 744.
5. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.558 б. (Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. –В 558.)
6. Махмудов Ш. Қўқон хонлигининг маъмурий – бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. номз. ...дисс. Тошкент, 2007. 168 б. (Mahmudov Sh. Qo'qon xonligining ma'muriy – boshqaruv tizimi (1709-1876). -Toshkent, 2007. –В 168.)
7. Воҳидов Ш., Нолиқова Р. Марказий Осиё бошқаруви тарихидан (XIX-XX аср бошлари). Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. 74 б. (Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyo boshqaruvi tarixidan (XIX-XX asr boshlari). -Toshkent: Yangi asr avlodi. –В 74.)
8. Игамбердиев А., Амирсайдов А. История Кокандского ханства. Библиографический указатель с иллюстрациями XVIII век – 1876 г. Ташкент, 2007. –С 124.
9. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигидаги унвон ва мансаблар.// www.kh.davron.uz. (Vohidov Sh. Qo'qon xonligidagi unvon va mansablar. //www.kh.davron.uz.)
10. Ахмедова М. Қўқон хонлигининг марказий ва маҳаллий бошқаруви// Фалсафа ва ҳуқуқ. 2009. № 2. 45-49-бетлар. (Ahmedova M. Qo'qon xonligining markaziy va mahalliy boshqaruvi// Falsafa va huquq. 2009. № 2. 45-49-b.)
11. Илҳомов З. Амирлашкар тарихи. –Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. 132 б. (Ilhomov Z. Amirlashkar tarixi. –Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2013. 132 b.)
12. Шамсиддин Камалидин. Проблемы истории Кокандского ханства. Lambert Academic Publishing. 2013. 327 б.
13. Botirovich, I. B. (2023). ABOUT THE LOCATION OF THE TAJIK POPULATION IN THE KOKAND KHANATE.

**KON-METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI  
YECHISH MASALALARI  
(NKMK misolida)**

**Xolmamat Rashidovich Raupov,**  
Navoiy kon-metallurgiya kombinati,  
Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha direktor,  
tarix fanlari nomzodi, dotsent  
[hr.raupov@ngmk.uz](mailto:hr.raupov@ngmk.uz)  
ORCID: 0009-0005-3424-2002  
UDK: 502.7.719: 628.58

**Annotatsiya.** Insoniyat o'zining ehtiyojlarini qondirish maqsadida yerosti boyliklarini keng miqyosda o'zlashtirmoqda. Qazilma boyliklarni o'zlashtirish va qayta ishlashdagi texnologik jarayonlarda turli kimyoviy moddalarning ishlatilishi hamda texnogen chiqindilarning paydo bo'lishi kabi masalalar o'z navbatida atrof-muhitga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. O'zbekistonda qazilma boyliklari qazib olinadigan ko'plab uran va oltin konlari mavjud bo'lib, ularni qayta ishlaydigan zavodlarning hudud ekologiyasiga salbiy ta'siri mavjud. Jumladan, ekologlarning ma'lumotlariga ko'ra, ochiq usulda qazib olinadigan konlar atrof-muhitga ko'proq zarar yetkazadi.

Maqolada, konlardan qazilma boyliklarni qazib olish uchun portlatish jarayonida tog' jinslari turli tomonga sochilishi natijasida havoga ko'p miqdorda chang ko'tarilishi, kon-metallurgiya zavodlari, texnogen chiqindilari yillar davomida to'planib borishining hudud ekologiyasiga, mamlakatimiz kon-metallurgiya sanoati korxonalari joylashgan hududlarda texnogen chiqindilarning atrof-muhit va aholi salomatligiga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda kon-metallurgiya sanoatining yirik sanoat korxonasi bo'lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) tomonidan ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni hal etish maqsadida respublikamizning ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda olib borayotgan innovatsion loyihalari va ularning natijalari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** kon-metallurgiya, kombinat, ekologiya, atrof-muhit, texnogen chiqindi, suv muammosi, innovatsion loyiha, ilmiy-tadqiqot.

#### **ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ВОПРОСЫ ИХ РЕШЕНИЯ В ГОРНО-МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ (на примере НГМК)**

**Аннотация.** Человечество в больших масштабах осваивает недра с целью удовлетворения собственных потребностей. Использование различных химических веществ в технологических процессах при разработке и переработке ископаемых, а также образование техногенных отходов влияют на окружающую среду. В Узбекистане много месторождений урана и золота, где добываются полезные ископаемые, а заводы по их переработке оказывают негативное влияние на экологию. По мнению экологов, месторождения, добываемые открытым способом, наносят больший ущерб окружающей среде. В статье показано, что при взрывных работах по добыче полезных ископаемых с месторождений в результате разброса горных пород в разные стороны в воздух поднимается большое количество пыли, техногенные отходы накапливаются годами, что влияет на экологию территории. В целях снижения негативного воздействия техногенных выбросов на окружающую среду и здоровье населения на территориях, где расположены предприятия горно-металлургической промышленности, а также решения экологических проблем, возникающих в производственных процессах, Навоийским горно-металлургическим комбинатом (НГМК), крупнейшим промышленным предприятием горно-металлургической промышленности, совместно с научно-исследовательскими институтами республики реализуются инновационные проекты, в статье освещены результаты их реализации.

**Ключевые слова:** горная металлургия, комбинат, экология, окружающая среда, техногенные отходы, водная проблема, инновационный проект, научное исследование.

**Kirish.** Aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyotining jadallashuvi, sanoat korxonalarining ko'payishi bilan bog'liq tarzda inson ehtiyojlarining ortib borayotganligi yer yuzida qator global muammolarni keltirib chiqarmoqda. Natijada aholining turmush tarzi o'zgarib, insoniyat sivilizatsiyasida hali mutlaqo kuzatilmagan global isish, dengiz va yer ekotizimlarining keskin kamayib borishi ro'y beryapti. Tabiat o'z so'zini aytmoqda. Bu esa yirik sanoat korxonalari oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, balki atrof-muhitga zarar yetkazmaslik talabini o'ta dolzarb vazifa sifatida qo'yumoqda.

Keyingi yillarda O'zbekiston kon-metallurgiya sanoatida yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Yangi kon va ulardan qazib olinadigan ma'danlarni qayta ishlaydigan korxonalarining ishga tushirilishi natijasida texnogen chiqindilar hajmi oshib bormoqda. Gidrometallurgiya zavodlari uchun yetkazib berilayotgan suvni tejash va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qayta ishlatish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Uran konlarini ochiq usulda qazib olish jarayonlarida yillar davomida to'planib qolgan radioaktiv chiqindilar atrof-muhitga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu bois, Navoiy kon-metallurgiya kombinati mutaxassislari keyingi yillarda ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarining olimlari bilan kon-metallurgiya sohasida ekologik muammolarning yechimini topish bo'yicha 22 ta innovatsion loyihalar ustida samarali hamkorlik olib bormoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekistondagi kon-metallurgiya sanoati korxonalarining ekologiyaga ta'siri masalalarini tadqiq etish doimo dolzarb bo'lib kelgan. Sanoat korxonalari, jumladan, kon-metallurgiya sanoati korxonalarining hudud

ekologiyasiga ta'siri masalalari tarixchi olimlar, jumladan, tadqiqotchi G.Rahimova tomonidan "O'zbekistonda sanoat korxonalarini faoliyatining ekologik holatga ta'siri (1945–1980-yy.)" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida bu mavzu atroflicha o'rganilgan[1]. Shuningdek, tadqiqotchilar A.Aminova, J.Peremkulov va Sh.Xudoyqulovalarning ilmiy tadqiqotlarida ham sanoat korxonalarining ekologiyaga salbiy ta'siri masalalari [2], uran, oltin va mis konlari va ularni qayta ishlaydigan zavodlarning atrof-muhit va odamlarning sog'ligiga salbiy ta'siri va ularni hal etish masalalari A.Rafiqov va boshqalarning "Ekologiya" asari [3], O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining (hozirgi O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi) yillik milliy ma'ruzalari [4] va boshqa ko'plab tadqiqotlarda dolzarb masalalar turli jihatlarini ochib berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tarixiylik, qiyosiy va muammoli-xronologik tahlil usullaridan foydalanildi. Unda Qizilqum hududida joylashgan yirik sanoat korxonasi – Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ekologik vaziyatni yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar tahlil etilgan.

**Natija va muhokamalar.** Ma'lumki, XX asr 60–80-yillarida Uchquduqdagi uran konlaridan ma'dan ochiq usulda qazib olingan. Ma'danlarni qayta ishlash jarayonidan keyin 1,4 million kubometr yoki 2,25 million tonna radioaktiv kon chiqindilari to'planib qolib, 237 ming kvadrat metr maydonni egallagandi [5]. Bu o'n yillar davomida hudud ekologiyasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatardi. Kon chiqindilari sovetlar davrida rekultivatsiya qilinmasdan qolib ketgandi. Keyingi yillarda bu borada ijobiy ishlar amalga oshirila boshlandi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, mustaqillik yillarida Uchquduq hududida to'planib qolgan 1,4 million kubometr uran chiqindisi uyumi qayta ishlanib, rekultivatsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Chiqindilarni qayta ishlash va hudud ekologik muhitini yaxshilash maqsadida "Radioaktiv kon ag'darmalarini rekultivatsiya qilish usullari" mavzusidagi tadqiqot ishiga O'zbekiston Intellektual mulk agentligidan patent olindi. Hududda tarkibida uran mavjud chiqindilarni rekultivatsiya qilish uchastkasi tashkil etildi. Uchastka foydalanishga topshirilgandan buyon o'tgan davrda 636 ming tonna chiqindidan uran ajratib olindi va maydonlar rekultivatsiya (lot. re – qaytarish, tiklash; cultivo – ishlov beraman, yetishtiraman. Foydali qazilmalarni qazib olish va boshqa sabablarga ko'ra foydalanishga yaroqsiz bo'lib qolgan yerlarni qayta tiklash, ekologik holatlarni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar majmui) qilindi [6]. Bu esa hudud ekologiyasini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

"Muruntov" kombinatning oltin qazib olinadigan eng yirik koni bo'lib, bugungi kunda uning uzunligi 5,5 kilometr, eni esa 3,4 kilometr, chuqurligi 650 metrni tashkil etadi [7]. 130 tadan ortiq og'ir yuk avtomobillari ma'danni kondan 2-gidrometallurgiya zavodiga tashiydi. Kombinat mutaxassislari tomonidan konda ma'danlarni yetkazib berishda davriy-oqim texnologiyasining qo'llanilishi natijasida yiliga avtomobillardan chiqadigan gazlarni 10 ming tonnaga kamaytirishga erishildi. 2013-yilda chang-gazlarni ushlab qoluvchi 270 ta qurilmalarning o'rnatilishi hisobiga atmosfera chiqayotgan 92 ming tonna zaharli moddalar ushlab qolindi. Shuningdek, 2013-yilda 443 gektar yer rekultivatsiya qilinib, qishloq xo'jaligi uchun foydalanishga berildi [8]. "Muruntov", "Dovgiztov", "Kokpatas" va boshqa konlarda doimiy ravishda avtomobillar harakatlanadigan yo'llarga suv sepishning yo'lga qo'yilishi changning havoga ko'p ko'tarilmasligida ijobiy natija bermoqda.

Ayni paytda kombinatning Markaziy kon boshqarmasida 44 ta, Shimoliy kon boshqarmasida 30 ta, Janubiy kon boshqarmasida 29 ta, "Qizilqum" kon boshqarmasida 28 ta, Navoiy mashinasozlik zavodida 118 ta chang-gazlarni ushlab qolish qurilmalari o'rnatilgan bo'lib, ular atmosfera havosiga tashlanadigan ifloslantiruvchi moddalarning kamayishiga va ekologik holatning yaxshilanishiga olib kelmoqda [9].

Kombinat tomonidan ayni paytda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha 22 ta, jumladan, H.M. Abdullayev nomidagi geologiya va geofizika instituti bilan hamkorlikda "Konchilik korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini ekologik va geokimyoviy baholash. Tuproq, o'simliklar va suvning holatini baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqish", "Oltin va boshqa yo'ldosh elementlarning moddiy tarkibi va shaklini o'rganish, 2-gidrometallurgiya zavodining chiqindilarni

qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish, texnologik va ekologik muammolar yechimlarini o'rganish" kabi mavzularda loyihalar bajarilmoqda. Bu ilmiy-tadqiqotlar natijasida korxonalarining atrof-muhitga ta'siri baholanadi, atmosfera ifloslanishini tartibga soluvchi normativ parametrlarning mezonlari aniqlanadi. 2-gidrometallurgiya zavodining texnogen chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasi ishlab chiqilib, kombinatning xomashyo bazasi kengaytiriladi.

Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda 2,2 mlrd. aholi ichimlik suvi ta'minoti cheklangan sharoitda yashamoqda [10]. Yaqin yillarda Yer sharining yarmida odamlar ichimlik suvi bilan bog'liq keskin muammolarga duch keladi. Bu, avvalo, iqlim o'zgarishlari, insoniyat tomonidan atmosfera havosining ifloslantirish darajasi tobora o'sib borayotgani, mavjud resurslardan noto'g'ri foydalanish kabi masalalar bilan bog'liqdir.

Qizilqum sahrosidagi shahar va korxonalarni, ayniqsa, 2-gidrometallurgiya zavodini suv bilan ta'minlash juda muhim hisoblanadi. Kombinatsion tizimidagi boshqa gidrometallurgiya zavodlari uchun ham katta hajmda suv kerak. Ammo suv zaxirasi yil sayin kamayib bormoqda. Shu maqsadda korxonalarda suvni tejash va ikkilamchi suvdan oqilona foydalanish bo'yicha ham ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Kombinat mutaxassislari va olimlari tomonidan "7-gidrometallurgiya zavodi texnologik ehtiyojlari uchun 2-gidrometallurgiya zavodining chiqindilarni saqlash maydonlari hovuzlaridagi suvni ikkilamchi usulda ishlatish va lokal sorbsion qurilmalarida erigan oltinni ajratib olish" loyihasi bo'yicha 7-gidrometallurgiya zavodi texnologik ehtiyojlari uchun 2-gidrometallurgiya zavodining chiqindilarni saqlash maydonlari hovuzlaridagi suv tozalanib, 7-gidrometallurgiya zavodiga yuborilmoqda. Natijada ilgari ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan va tashlab yuborilgan suv yana texnologik jarayonga qaytarilmoqda. Mazkur ishlanmaning joriy etilishi natijasida birgina 2021-yilda 4,1 million kubometr suv tejaldi. Shu bilan birga, suvni tozalash jarayonida yangi texnologiya joriy etilib, undan har yili 100 kilogrammdan ortiq oltin ham olinmoqda [11].

Kombinat mutaxassislari Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda "Zarmitan konining shaxta suvlarini tozalash, sifatini texnik ekinlarni sug'orish me'yorlariga yetkazish texnologik sxemasini ishlab chiqish va joriy etish" loyihasini muvaffaqiyatli joriy etganliklari tufayli shaxta suvlari sug'orish uchun ishlatilmoqda [12].

Kombinat tomonidan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari bilan hamkorlikda "4-gidrometallurgiya zavodi sharoitida yog'och shibasini yoqish pechidan chiqindi gazlarni tozalash uchun skrubber tozalash moslamasini ishlab chiqish va joriy etish" loyihasi bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Sanoat sinovlari shuni ko'rsatdiki, 4-gidrometallurgiya zavodida qurilma to'liq ishlamayapti va kamchiliklari mavjud. Qurilmadan atmosferaga chiqariladigan chiqindi gazlarni tozalash miqdori O'zbekiston ekologik standartlaridan (normalaridan) baland. Shuning uchun qurilmani takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Kombinat korxonalarida ko'plab kon texnikalari mavjud. Ularning asosiy qismini turli rusumdagi avtomobillar tashkil etadi. Bu texnikalarni ishlatish jarayonida, masalan, shinalari yaroqsiz holga kelganda almashtiriladi. Yaroqsiz shinalar chiqindiga aylanib, ularning soni yil sayin ko'payib bormoqda. Ular yoqib yuborilsa, ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur muammoni hal etish maqsadida kombinat mutaxassislari tomonidan "Chiqindi shinalar va konveyer lentalarini qayta ishlash qurilmasini joriy etish" loyihasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Natijada Markaziy va Shimoliy kon boshqarmalarida chiqindi shinalar va konveyer lentalarini utilitatsiya qilish uchastkalari ishga tushirildi. Ularni qayta ishlash natijasida piroliz suyuqligi – pechlar yoqilg'isi, texnik ko'mir va metallom ajratib olinmoqda [13]. Ajratib olingan mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarida qo'llanilmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, kombinatning ekologiya sohasidagi siyosatida, avvalo, texnogen omillarning, ikkinchidan, ishlab chiqarish faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, ishlab chiqarish obyektlari joylashgan hududlarda bioxilmaxillikni saqlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda kombinat tomonidan respublikaning nufuzli ilmiy-tadqiqot institutlari va oliygohlarning olimlari bilan hamkorlikda

ekologik muammolarni hal etish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari o'zining ijobiy natijalarini bermoqda va bu boradagi ishlarni davom ettirish kerak. Negaki, keyingi yillarda dunyoda iqlim o'zgarishi tezlashib bermoqda. Ayniqsa, yoz davrida havoning keskin isib ketishi va chang-to'zonlarning ko'tarilishi, suv resurslarining kamayib borishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu kombinatning asosiy obyektlari – Qizilqum sahrosida joylashgan korxonalari faoliyatiga o'z ta'siri ko'rsatadi. Ekologik muammolarni hal etish uchun, avvalo, korxonadan tomonidan yerning ifloslanishi va degradatsiyasining oldini olish, suv resurslarini tejash, atmosfera havosiga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilishi kerak. Shu bilan bir qatorda, ishlab chiqarish faoliyatida ekologik menejment tizimini ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro standartlari asosida joriy etish, "Yashil mahsulot" ishlab chiqarishni kengaytirish, tadqiqotlar, hamkorlik kelishuvlari va innovatsion yechimlar orqali bioxilmaxillikka salbiy ta'sirning oldini olish va kamaytirish yo'llarini izlash, yashil energetikaga e'tibor qaratish, hududlarda yashil belbog'larni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ESG (ekologiya, ijtimoiy siyosat va korporativ boshqaruv) tamoyillaridan biri, ya'ni ekologik javobgarlikka rioya qilishga asosiy mas'uliyat va biznes strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raximova G.S. O'zbekistonda sanoat korxonalari faoliyatining ekologik holatga ta'siri (1945–1980-yy.): Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2023.
2. Aminova A. 1991–2021-yillarda O'zbekistonda iqtisodiy o'zgarishlar tarixi (Quy Zarafshon viloyatlari misolida): Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent, 2023., Peremkulov J. XX asr o'rtalari – XXI asr boshlarida Toshkent viloyati sanoat shaharlari tarixi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. –Toshkent, 2021., Xoliqulova Sh.B. Quy Zarafshon vohasida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi jarayonlari (1991(PhD) 2016-yy Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. (PhD) avtoreferati. -Toshkent, 2020.
3. Rafiqov A., Abirqulov Q., Hojimatov A. Ekologiya. -Toshkent: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'amasini", 2004, 84 b.
4. Национальный доклад о состоянии окружающей среды и использовании природных ресурсов в Республике Узбекистан (2008-2011 гг.). –Ташкент: «Chinor Enk» 2013, с.29.
5. Rajabboyev I. Uchquduq uran chiqindilarini qayta ishlashning fizik-kimyoviy va texnologik asoslari. Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Navoiy: 2021, 10 b.
6. Sanaqulov Q. Ilm va innovatsiya – taraqqiyotning muhim omili.// "Yangi O'zbekiston", 2016 yil 16 dekabr.
7. "Muruntov" koni.//<https://www.ngmk.uz/uz/home/prensa/154-ochiq-kon-ishlari.html>
8. Темиров Б. С природой говорим на "вы"// "Горняк", 24 апреля, 2014 г.
9. "НКМК" АЖ Ekologik nazorat bo'limi hisoboti.
10. Официальный сайт Всемирной организации здравоохранения. Питьевая вода НКМК Инновация ва технологияларни жорий этиш маркази ҳисоботи.
11. НКМК Инновация ва технологияларни жорий этиш маркази ҳисоботи.
12. НКМК Инновация ва технологияларни жорий этиш маркази ҳисоботи.

**OLY TA'LIM MUASSASALARIDA ILMIY-TADQIQOT ISHLARI VA IQTIDORLI  
TALABALAR BILAN ISHLASH  
(Pedagog kadrlar tayyorlaydigan OTMLar misolida)**

**Abdullayev O'ktam Sheraliyevich,**  
Qarshi innovatsion ta'lim universiteti  
dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori  
[uktamabdullayev86@gmail.com](mailto:uktamabdullayev86@gmail.com),  
ORCID: 0009-0000-0138-2192  
УЎК: 378:371.1.08:37.08:94 (584.4)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda oliy ma'lumotli pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi, ilm-fanni rivojlantirish, jamiyat hayotiga ilmiy ishlanmalarning kirib borishini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni oshirishda katta ilmiy xodim izlanuvchilik instituti, aspirantura va doktoranturaning ahamiyatini oshirish tadbirlari, ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, talabalar dunyoqarashini zamonga moslab borish, fan to'garaklari orqali fan olimpiadalariga tayyorlash, talabani tarbiyalashda o'ziga xos yondashuvni qaror toptirish zaruriyati, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida pedagogik kadrlar muhim bo'g'in ekanligi, keyingi yillarda ta'lim tizimidagi islohotlar pedagogik kadrlar tayyorlash ishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi, mustaqillik yillarida bir qator pedagogika institutlariga universitet maqomining berilishi, pedagog kadrlar tayyorlaydigan qator oliy o'quv yurtlarida talabalar bilim olishlarida imkon qadar yaxshi shart-sharoitlar yaratish borasida chora-tadbirlar olib borilganligi haqidagi ma'lumotlar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar.** Ilm-fan, aspirantura, ilmiy maktab, doktorantura, xo'jalik shartnomasi, ilmiy daraja, to'garak, nomdor stipendiya.

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ РАБОТА И РАБОТА С ОДАРЕННЫМИ  
СТУДЕНТАМИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ  
(На примере вузов, готовящих педагогические кадры)**

**Аннотация.** В статье приводятся данные о системе подготовки педагогических кадров с высшим образованием в Узбекистане, развитии науки, обеспечении внедрения научных разработок в жизнь общества, о мероприятиях по повышению значимости исследовательских институтов, аспирантуры и докторантуры, наращиванию научного потенциала в высших учебных заведениях, об анализе научно-исследовательской работы, о необходимости выявления, поддержки и стимулирования одаренной молодежи, адаптации мировоззрения учащихся к современности, подготовки к предметным олимпиадам через научные кружки, специфического подхода к воспитанию; сведения о том, что педагогические кадры являются важным звеном в социально-экономическом и культурном развитии Узбекистана, что реформы системы образования в последние годы оказали положительное влияние на подготовку педагогических кадров, а также о присвоении статуса университета ряду педагогических институтов в годы независимости, о принятии мер по созданию наилучших условий для обучения студентов в ряде высших учебных заведений, готовящих педагогические кадры.

**Ключевые слова:** наука, аспирантура, научная школа, докторантура, хозяйственный договор, ученая степень, кружок, именная стипендия, научный кружок, высшее образование, учитель, педагогический персонал, институт, университет, знания, исследования, международное сотрудничество

**Kirish.** O'zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish tadbirlari o'z o'rnida jamiyat hayotiga ilmiy ishlanmalarning tobora chuqur kirib borishini ta'minlash kadrlarning sifat jihatdan o'zgarishiga, ta'lim va amaliyotning integratsiyasiga xizmat qildi. Xususan, oliy o'quv yurtlarining nufuzi asosan undagi kadrlar ilmiy salohiyati bilan ham belgilandi. Dunyo miqyosida ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash sohasini isloh qilish, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda innovatsion usullarini joriy etish, ta'lim tizimida strategik yo'nalishlarni aniqlash, fan va ta'lim integratsiyasi, davlat va

xususiy ta'lim o'rtasidagi raqobat kabi mavzular doirasida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Mazkur jarayonda kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat dasturlarining amaliyotga tatbiq'i, pedagogik kadrlarning kasbiy bilimi, ko'nikmasi va mahoratini uzluksiz yangilab borish, o'qitishning zamonaviy innovatsion metodlarini, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

**2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:** Tarixiy-qiyosiy hamda umumlashtirma tahlillar asosida xulosa berish, xolislik, ilmiylik, tarixiy yondashuv, tizimlashtirish tadqiqotning metodologik asosini tashkil qiladi.

**3. Tadqiqot natijalari:** 1999–2000-o'quv yilida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti aspirantura bo'limida 156 nafar aspirantdan 115 nafari kunduzgi, 41 nafari sirtqi bo'limda tahsil oldi. 12 nafar doktorant, 10 nafar stajyor-tadqiqotchi va 106 nafar tadqiqotchi ilmiy ish olib bordi. 1997–2000-o'quv yillarida 10 ta doktorlik, 12 ta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi[1]. Universitetda 1999–2000-o'quv yili davomida 13 ta ilmiy, nazariy va metodik konferensiyalar o'tkazildi[2].

Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida fan nomzodlari va fan doktorlari tayyorlash imkoniyatini yaratuvchi bazani shakllantirishga harakat qilindi. O'zMUda akademiklardan Sh.A.Ayupov, N.Y.Satimov, A.Sagdullayev, P.Q.Habibullayev, U.H.Rasulev, O.S.Sodiqov, B.S.Yuldashev, T.N.Dolimov, professorlar M.S.Salohiddinov, T.J.Jo'rayev, J.Musayev, R.X.Murtazayeva, M.M.Rahimov, E.G'.G'oziyev kabi olimlar rahbarligida ilmiy maktablar shakllandi [3]. Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishda muayyan ilmiy maktablarga moliyaviy masalalarini mustaqil hal etish huquqining berilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Pedagogika institutlarida ham o'ziga xos ilmiy maktablar shakllanib bordi. Masalan, Jizzax davlat pedagogika institutida f-m.f.d., prof O. Do'smatov, t.f.d., prof X.A. To'raqulov, f-m.f.d., prof. R. Bekmirzayev, b.f.n., prof. X. Mavlonov, f.f.d., prof. M. Xolbekov, b.f.d., prof. U. Raxmonqulov kabi olimlar ilmiy shogirdlar tayyorlashda harakat olib bordi[4].

Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari tadqiqotchilari doimiy ravishda xo'jalik shartnomasi, ilmiy-amaliy va fundamental loyihalar ustida izlanish olib bordi. Masalan, Andijon davlat universitetida 2001–2006-yillar davomida 21 ta davlat grantlari asosida 48,320 mln so'm va 3 ta investitsion fondlar grantlari asosida 77,5 ming AQSh dollari hajmidagi ITilar bajarildi[5]. Yoki Qo'qon davlat pedagogika institutida 2010-yilda 2 ta grant loyihasi, 2014-yili Toshkent davlat pedagogika universitetida 23 ta ilmiy loyiha ustida izlanish olib borildi. Bu kabi tadqiqotlar keyingi yillarda ham davom ettirildi. Masalan, Qo'qon DPI 2019-yili 3 ta loyiha ustida ish olib bordi[6].

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni oshirishda katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti, aspirantura va doktoranturaning ahamiyati katta bo'ldi. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ishiga muayyan darajada e'tibor qaratib kelindi. Mustaqil izlanuvchilar va doktorantlar soni yildan yilga ko'paytirib borildi. Masalan, Andijon davlat universitetida 2005–2006-o'quv yilida 14 nafar aspirant va 4 nafar doktorant faoliyat ko'rsatdi[7, 310-317]. Toshkent davlat pedagogika universitetida 2014–2015-o'quv yilida 13 ta ixtisoslik bo'yicha katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti bo'lib, ularda jami 23 nafar katta ilmiy xodim-izlanuvchilar tahsil oldi [8]. O'zbekiston Milliy universitetida 2017-2018 o'quv yilida tayanch doktorantlar va doktorantlarning umumiy soni 76 nafarni, mustaqil izlanuvchilarning umumiy soni esa 85 nafarni tashkil etdi[9].

Ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy va rahbar xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari oshirilgan miqdorlarda to'lanishi, davlat tashkilotlarida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borayotgan fan nomzodlari va falsafa doktorlari oylik maoshlariga 30 foiz, fan doktorlari uchun esa 60 foizgacha ustama haq belgilanishi mamlakatimizda oliy ta'lim va ilmiy faoliyat sifatining yuksalishiga xizmat qildi.

O'zbekistonda pedagogika yo'nalishi oliy o'quv yurtlarida ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili bu borada bir qator muammolar to'planib qolganligini ko'rsatadi. Ayrim fan tarmoqlari bo'yicha kadrlar tanqisligi kuchli sezildi. Psixologiya, sotsiologiya fanlari bo'yicha 1992–2002-yillarda atigi 1-2 doktorlik ishi himoya qilindi. Ilmiy darajali professor-o'qituvchilarning o'rtacha yoshi yuqori bo'lib bordi. Bu davrda fan doktorlarining aksariyat qismi 40-60 yosh oralig'ida

bo'ldi. Masalan, QQDUda faoliyat ko'rsatgan 30 nafar fan doktori hammasi 40 yoshdan yuqori, 50%i 60 yoshdan katta bo'ldi[10, 23]. Qolaversa, nomzodlik va doktorlik ishlarining himoyasi o'rtasida vaqt oralig'ining kattaligi ilmiy tadqiqotlarning sifatiga ta'sir qildi. 1992–2002-yillarda nomzodlik va doktorlik ishlarining himoyasi o'rtasidagi vaqt oralig'i 9-14 yilni, ba'zilari 16-20 yilni tashkil qildi.

Iqtidorli talabalar bilan ishlashda ularni fan to'garaklariga birlashtirish, fan olimpiadalarini tashkil etish, talabalar orasidan nomdor stipendiyalarga nomzodlarni saralashga ahamiyat qaratildi. Ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalar soni ortib bordi. Masalan, Samarqand davlat universitetidagi iqtidorli talabalar soni 1992–1993-o'quv yilida 107 nafar bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda ular soni 600 nafardan ortdi.

Iqtidorli talabalar bilan ishlashda fan to'garaklarini o'rni katta bo'ldi. Masalan, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti kafedralari qoshida fan to'garaklari ishlab turdi. 2010–2011-o'quv yilida universitetda jami talabalarining 69,5%i fan to'garaklariga qamrab olindi[11]. 2013-yilda Qarshi davlat universiteti bo'yicha 214 nafar iqtidorli talaba bilan ishlash uchun professor-o'qituvchilar birlashtirildi. Mutaxassis tayyorlovchi kafedralar qoshida talabalar uchun fan to'garaklari tashkil etildi. 2013-yilda "Fan, taraqqiyot va yoshlar" ilmiy-amaliy konferensiyasida iqtidorli talabalar tomonidan 266 ta ilmiy maqola, "Ilm-fan va innovatsiya" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida Qarshi davlat universiteti professor-o'qituvchilari hamda magistr talabalari tomonidan 91 ta ilmiy maqolalar e'lon qilingan[12].

2013-yilda Jizzax davlat pedagogika instituti kafedralarida jami 46 ta to'garaklar faoliyat olib borib, shundan 25tasi fan to'garaklari, 8 ta talabalar klubi, 4 ta talabalar ijodiy guruhlar edi. Fan to'garaklarida 648 nafar talaba qatnashdi[13].

2016-yilda Farg'ona davlat universitetida 1900 nafardan ortiq iqtidorli talaba va magistrantlar talabalar ilmiy jamiyatlari, ilmiy-ijodiy hamda tajriba-konstruktorlik to'garaklariga jalb etildi. 2015–2016-o'quv yilida universitet iqtidorli talabalari tomonidan Respublika ilmiy nashrlari, xalqaro, Respublika va universitet miqyosida o'tkazilgan anjumanlarda 400 ga yaqin ilmiy-uslubiy maqola va tezislar e'lon qilindi[14].

Respublika oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkazilgan fan olimpiadalarida pedagogika yo'nalishi OTM talabalari ham ishtirok etib bordi. 2014–2015-o'quv yili uchun Toshkent davlat pedagogika universitetidan 3 nafar talaba (B. Ishquvvatov, U. Oripova, N. Madaliyeva) Navoiy nomidagi Davlat stipendiyasi va 1 nafar talaba (D. Abdullayeva) Ulug'bek nomidagi Davlat stipendiyasi sohiblari bo'ldi[15].

2017–2018-o'quv yilida Qo'qon davlat pedagogika instituti bo'yicha 2-tur olimpiadada jami 9 ta umumkasbiy va 17 ta mutaxassislik fanlari bo'yicha talabalar ishtirok etdi. Talabalar olimpiadasining 2-bosqichida tabiiy fanlar fakultetining biologiya o'qitish metodikasi yo'nalishi talabasi Aminjonov Hayotjon Ahrorjon o'g'li 1-o'rinni, kimyo o'qitish metodikasi yo'nalishi talabasi Haydarov Rahmonjon G'ofurjon o'g'li 1-o'rinni qo'lga kiritdi[16].

1991–2016-yillar davomida Samarqand davlat universiteti talabalaridan 17 nafari Prezident stipendiyasi (L. To'raqulov, Sh. Nizomov, Z. Sodiqjonov, B. Osmonov, Sh. Musayev, Z. Karimova, N. Sultonova, A.Soleyev, O. Skorobogatova, T. Sultonov, Sh. Hamroqulova, I. Ergashev, U. Rashidova, P. Redkin, U. Jo'rayeva, L. Asanova, Z. Ibragimov), 87 nafari Ulug'bek, Beruniy, Navoiy nomidagi Davlat stipendiyalarini qo'lga kiritdi. Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan 150 nafarga yaqin talaba universitet stipendiyasi sovrindori bo'ldi[17, 72-73].

**4. Xulosalar:** Xullas, O'zbekistonda mustaqillik yillarida oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lganligi pedagogika yo'nalishi ta'lim muassasalari misolida yaqqol ko'zga tashlandi. Talabalar dunyoqarashini zamonga moslab borishni, talabani tarbiyalashda esa o'ziga xos yondashuvni qaror toptirish zaruriyatini kun tartibiga qo'yildi. Pedagogika yo'nalishidagi ta'lim muassasalarida bu borada olib borilgan chora-tadbirlar o'z samarasini ko'rsatdi. Iqtidorli talaba yoshlar turli tanlovlar, fan olimpiadalarini g'oliblari bo'ldilar.



**Foydalangan manba va adabiyotlar ro'yxati**

1. Toshkent shahar davlat arxivi, 640-fond, 4-ro'yxat, 50-ish, 26-varaq.
2. Toshkent shahar davlat arxivi, 640-fond, 4-ro'yxat, 50-ish, 27-varaq.
3. O'zR OO'MTVA, 2653-fond, 1-ro'yxat, 109-ish, 68–69-varaqlar.
4. Jizzax davlat pedagogika instituti joriy arxivi. Ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limining 2013-yil hisobotlari ma'lumotnomasi papkasi.
5. Andijon davlat universiteti joriy arxivi. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limining 2001-yildan 2006-yilgacha hisobotlari Ma'lumotnomalari papkasidan.
6. Qo'qon davlat pedagogika instituti joriy arxivi. Institut ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limining 2019-yil hisoboti papkasidan. 4-9 varaqlar.
7. Shamsutdinov R. Bobur nomidagi Andijon davlat universitetining tarixiy ildizlari, tashkil topishi va faoliyati. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 310-317.
8. Toshkent shahar davlat arxivi, 640-fond, 5-ro'yxat, 581-ish, 57-varaq
9. O'zbekiston Milliy universiteti joriy arxivi. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limining 2018-yil hisobotlari ma'lumotnomasi papkasi.
10. Vasiyeva D. O'zbekiston universitetlarida ilmiy tadqiqot ishlarining o'rni va xalqaro hamkorlik. – Toshkent, 2020. – B. 23.
11. Toshkent shahar davlat arxivi, 640-fond, 5-ro'yxat, 339-ish, 32-varaq.
12. Qarshi davlat universiteti joriy arxivi. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limining 2013-yil hisobotlari ma'lumotnomasi papkasi.
13. Jizzax davlat pedagogika instituti joriy arxivi. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limining 2013-yil hisobotlari ma'lumotnomasi papkasi.
14. Farg'ona davlat universiteti joriy arxivi. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limining 2016-yil hisobotlari ma'lumotnomasi papkasi.
15. Toshkent shahar davlat arxivi, 640-fond, 5-ro'yxat, 581-ish, 60-varaq/
16. Qo'qon davlat pedagogika instituti joriy arxivi. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limining 2018-yil hisobotlari ma'lumotnomasi papkasi.
17. Istiqlol va SamDU.– Samarqand, 2017.–B.72-73

**BUXORO XONLIGINING IJTIMOIIY MUNOSABATLARIDA  
SUDLOV MASALASI****Shirinov Sardorbek Avazovich**

QarDU, O'zbekiston tarixi kafedrasida tayanch doktoranti

[sardor.shirinov@mail.ru](mailto:sardor.shirinov@mail.ru)

ORCID 0009-0004-5890-9484

UDK 950:321.01:347.90(045)

**Annotatsiya.** Jahon tarixshunosligi tadqiqotlarida turli mintaqalar hamda tarixiy-madaniy viloyatlar davlatchiligidagi markaziy boshqaruvning shakllanishi va rivojlanishi, mahalliy-ma'muriy boshqaruvdagi quyi va yuqori idoralar davlat boshqaruvining huquqiy asoslari, sudlov va sud hokimiyati, huquqning asosiy sohalari kabi masalalar yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi mavqeyining kuchayib borishi AQSh, Rossiya hamda bir qator Yevropa mamlakatlarining ko'plab mutaxassis olimlari tomonidan Buxoro xonligi davlat boshqaruvining siyosiy-huquqiy asoslari borasidagi mavjud ilmiy qarashlar, manbalar ma'lumotlari, asosiy yondashuvlar evolyutsiyasi, ularning qiyosiy tahlili hamda kompleks holatda o'rganishga alohida etibor berilmoqda.

Jumladan, Buxoro xonligining siyosiy tizimi, idora etish tartib-qoidalari, davlat ramzlari, unvon va mansablar haqida ham ko'pgina olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Ushbu tadqiqotlarning tahlillari shuni ko'rsatadiki, shayboniylar va ashtarxoniylar sulolalari hukmronligi davrida shakllanib borgan boshqaruv tizimi va sudlov ishlarida mang'itlar hukmronligi davriga kelib jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmagan. Bu davrda oliy hukmdor garchi amir unvoni bilan hokimiyatni boshqargan bo'lsa-da, Buxoro amirligi ham o'z tizimi, qonun-qoidalari, boshqaruv

tartiblari va butun mohiyati bilan oʻrta asrlar Movarounnahrda musulmon davlatlari, xususan, shayboniylar va ashtarxoniylar davlat tizmidan deyarli farq qilmagan.

**Kalit soʻzlar:** sud tizimi, xonlik, boshqaruv, davlat, qozi, Buxoro, mangʻitlar, ashtarxonlar, shayboniylar, hukmdor, diniy, urf-odat, vaqf, vasiqa, amir, xon, ruhoniyy.

### ВОПРОСЫ СУДОПРОИЗВОДСТВА В ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЯХ БУХАРСКОГО ХАНСТВА

**Аннотация.** В мировой историографии проводятся научно-практические исследования по таким вопросам, как формирование и развитие центрального управления в государственности различных регионов и историко-культурных областей, правовые основы государственного управления нижестоящими и высшими органами местного самоуправления, судопроизводства и судебной власти, основных отраслей права. В связи с усилением позиций Узбекистана в международном сообществе многими учеными-специалистами США, России и ряда европейских стран уделяется особое внимание изучению существующих научных взглядов на политико-правовые основы государственного управления Бухарского ханства, информации из источников, эволюции основных подходов, их сравнительному анализу и комплексному изучению.

В частности, многие ученые занимались исследованиями политической системы Бухарского ханства, процедур управления, государственных символов, титулов и должностей. Анализ этих исследований показывает, что система управления и судопроизводства, сложившиеся в период правления династий Шейбанидов и Аштарханидов, не претерпели существенных изменений к периоду правления мангытов. Хотя верховный правитель в этот период носил титул эмира, устройство Бухарского эмирата мало чем отличалось от государственного строя средневековых мусульманских государств Мавераннахра, в частности Шейбанидов и Аштарханидов.

**Ключевые слова:** судебная система, ханство, правление, государство, казий, Бухара, мангыты, Аштарханиды, Шейбаниды, правитель, религиозный, обычай, вакф, васика, эмир, хан, священник.

**Kirish.** Buxoro xonligida shayboniylar hamda ashtarxoniylar davridagi davlat boshqaruvi tizimining tarixiy omillari va boshqaruvining huquqiy asoslari oʻzaro bogʻliq holda shakllanib keldi. Buxoro amirligining tashkil topishi jarayonida mangʻit hukmdorlarining huquqiy islohotlari ham aynan yuqoridagi ikki sulola boshqaruv tizimiga monand ravishda olib borildi. Buxoro xonligida sudlov va qozilik faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni oʻrganishda A. Sagdullayev va B. Eshov asarlarida, shuningdek, F. Fayzullayevning ilmiy-uslubiy ishlarida maʼlumot berilgan. Bundan tashqari oʻrta asr tarixchi-yozuvchilarining materiallaridan foydalanildi. Xonlikda sud hokimiyati faoliyati masalalari qiyosiy tahlil qilindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Oʻzbek xonliklari ichida dinga moyillik koʻproq Buxoro davlatida kuzatilib, har bir hukmdor oʻz mansabini, xavfsizligini diniy hokimiyat orqali himoyalashga harakat qilgan. Shuning uchun ham davlat siyosatida ruhoniylarning oʻz oʻrni boʻlib, hukmdorlar ularning foydasi uchun ham islohotlar oʻtkazishga majbur edilar. Yoki hukmdorlarning ham diniy urf-odatlariga moyilligi kuchli boʻlib, jumladan, shayboniy hukmdorlardan Ubaydullaxonning oʻzi oʻta dindor ekanligini 1512-yil 7-aprelda Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi oldida oʻtkazgan katta yigʻinidan bilish mumkin. Ubaydullaxonning Ahmad Yassaviyga ixlosi baland edi. Shu yerda Ubaydullaxon “Agarda Movarounnahrni qoʻlga kiritisa, butun umr dindor hukmdor boʻlishga qasam ichadi”. Ubaydullaxonning keyingi hukmdorlik davrida islom diniga boʻlgan hurmati ushbu voqeaning yorqin isbotidir.[1. 44]

Tabaqaviylik tizimi mustahkam ildiz otgan Oʻrta Osiyo xonliklari qatorida, Buxoro xonligida ham asrlardan saqlangan, anʼanaviy tabaqaviy huquq va imtiyozlar bilan himoyalangan, huquq va majburiyatlari odat yoki qonun bilan mustahkamlangan ijtimoiy tabaqa va qatlamlar mavjud edi. Shularning orasida ruhoniylar qatlami koʻp sonli va taʼsir doirasi keng boʻlgan tabaqa hisoblangan. Ruhoniylar aholining oʻziga xos savodli, intizomli, vaqf mulklaridan taʼminot oluvchi tabaqasi sanalib, oʻsha davrda son jihatdan aholining 3% ini tashkil etgan [2. 8].

Ruhoniylar orasida ulamolar, ya'ni islom ilohiyotchilari, huquqshunos va olimlar jamoasi jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida kuchli ta'sirga ega bo'lib qolgan. Zero, islom dini jamiyatning asosiy mafkurasiga aylangan bir sharoitda, jamiyatning barcha sohalarida din va odatlar asosida o'rnatilgan normalar, tartib-qoidalarga amal qilish va ularning barqaror rivojida ulamolarning roli muhim bo'lgan [3. 34].

Shayboniy Abdulloxon II davrida Juybor xojalari xonadonining mavqeyi misli ko'rilmagan tarzda yuksalishi sulola vakillaridan (shayxulislom) Muhammad Islom davrida kuzatiladi. U shayboniy zodagonlar orasida o'z g'ayrati va shijoati bilan ajralib turadigan Abdulloxon II ni (991/15831006/1598) qo'llab-quvvatlaydi va o'z navbatida Abdulloxon II ham unga homiylik qiladi. Muhammad Islomdan keyin uning o'g'li Xoja Sa'dning ham shayboniylar davlatida katta mavqega ega ekanligini ko'rish mumkin. Muhammad Islom o'z o'g'li Xoja Sa'dga katta meros qoldirib ketgan edi. "Matlab ut-tolibin" asarida Xoja Sa'dning mol-mulki Muhammad Islomnikidan ham ziyodaroq ta'riflanadi [4. 10]. Shayboniyxon davrida sud ishlarini boshqarish qozi kalon tomonidan amalga oshirilib, bu mansabda o'sha vaqtning obro'li kishilaridan biri bo'lmish Kamoliddin xo'ja edi. Shayxulislomlik mansabiga esa mashhur sulola vakillaridan Xoja Porsoning avlodlaridan biri Xoja Abu Nasr Porso bo'lgan. Xonning kuchli va boobro' amirlaridan unga turli masalalar bo'yicha maslahat beruvchi tayinlangan. Shayboniyxon o'z davlatida asosan temuriylar davrida mavjud bo'lgan ma'muriy davlat apparati, idora organlarini saqlab qolgan bo'lsa-da, u ham, undan keyingi birinchi shayboniylar ham albatta, nimadir o'ziga xos yangilik yoki "mansab darajalarini" joriy etgan. Sud va sudlov ishlari ham bundan mustasno emas edi. Odatda yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, oliy diniy mansab egalari katta-katta mulklar in'om etib turilgan. Jumladan, Mullo Muso bin Mullo Isoxo'ja Sayramiyning "Tarixi Aminiya" asarida muallifning avlodlaridan Kamoliddin Shayximga Sayram tumanining oliy diniy mansabi – Shayx ul-islomlikni suyrig'ol (bu yerda hadya ma'nosida) qilib berish haqida 1583-yil 27-iyuldagi Abdulloxon II ning yorliq nishoni keltiriladi [5. 76].

Ruhoniylar tabaqasining ijtimoiy-siyosiy, diniy-axloqiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotda tutgan muhim o'rniga muvofiq, hukumat tomonidan bu tabaqaga keng ijtimoiy huquq, imtiyoz va yengilliklar berilgan. Bularning jumlasiga, turli xil vaqf mulklaridan tushgan daromad hamda alohida naqd va natura hisobidagi moddiy ta'minotlar kirgan. Masalan, Amir Shohmurod (1785–1800-yy) davrida vaqf hujjatlari tiklanib, yirik yer mulklarini ruhoniylar foydasiga qaytarish siyosati olib borilgan. Uning vorisi Amir Haydar (1800-1826yy) davrida, davlat tomonidan ta'minlanganlarning faqat 500 tasini nufuzli ulamolar tashkil etib, ular o'z mavqeyidan kelib chiqib 100 dan 300 tanga miqdorigacha haq olishgan ekan [6. 130].

Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda o'z faoliyati davrida sud ma'lum bir ish natijasiga xulosa yoki hukm chiqarishda ishonarli yuridik hujjatlarga tayangan. Yuridik hujjatlar orasida eng ko'p tarqalganlari birinchidan, vaqfnomalar bo'lib, yuzlab yillar o'tganligiga qaramay, bizgacha hatto ularning asl nusxalari yetib kelgan. Ular orasida "Vaqfnoma" yoki "Hazrat Shayboniyxon vaqfnomasi" deb ataluvchi hujjat o'zining davri, ta'sis etilishi, shartlari va tuzilishi jihatidan alohida ajralib turadi, u bizgacha yuz sahifadan ortiq kitobcha shaklida muqovalangan holda yetib kelgan murakkab tuzilishdagi hujjatdir.

Ikkinchisi Vasiqa. Vasiqa ko'p tarqalgan yuridik hujjatlardan bo'lib, unga ko'ra, ma'lum shaxsning muayyan mulkka egalik huquqi qozi tomonidan guvohlantirilib, tasdiqlangan bo'ladi. Ammo vasiqalar faqat shu bilan chegaralanmagan, garchi oqibat- natijada barchasi mulkka borib bog'lansa-da, mulk huquqi masalalari doirasida qolmagan. Avvalgi sud organlaridan notarial harakatlar (guvohlantirish) ajratilmaganligi uchun fuqarolarning huquq va burchlarini vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan yoki bekor qiladigan deyarli barcha yuridik harakatlar (aktlar) sodir etilganligi haqida qozi tomonidan guvohlantirilgan vasiqa berilishi mumkin bo'lgan. [7. 199] Ashtarxoniylar davrida ham din nihoyatda qudratli bo'lib, din vakillari davlatga faol ta'sir etuvchi siyosiy kuchga aylanadi. Davlat din vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, din arboblari esa davlatning madadiga tayanar edilar. Xususan, Imomqulixon ham shaharning xo'jalik hayotida katta rol o'ynagan ruhoniylar, ayniqsa, shayxlarga suyanadi. Uning yurgizgan siyosati ruhoniylar tomonidan butunlay himoya etilgan, shuning uchun ham o'sha davrda yashagan saroy tarixchilari uni adolatli xon deb, ko'klarga ko'taradilar [8. 69].

Tarixda ma'lumki, Buxoro xonligida mang'itlarning hokimiyatga kelishi Ashtarxoniylar sulolasining yemirilishi va yangi o'zbek Mang'itlar sulolasining vujudga kelishi, Muhammad hakim otaliqning hokimiyatni o'z qo'lga olishi bilan bog'liqdir. Abulfayzxon o'ldirilgandan keyin esa, u 1753-yilda amir unvoni bilan Buxoro taxtiga o'tiradi. Bu sulola 1920-yilgacha hukm surib, inqilob natijasida ag'dariladi [9. 337].

Mang'itlar sulolasi davrida ham mustabid hokimiyat shakli mavjud bo'lib, amir huquqi chegaralanmagan oliy hukmdor edi. Ijro etuvchi hokimiyatni bosh vazir – qushbegi boshqargan. U xon bilan bamaslahat ish yuritgan. Jamiyat hayoti shariat qonunlariga asoslangan. Mamlakat murakkab davlat apparati orqali idora qilingan. Masalan, moliya ishlari devonbegiyi kalonga, davlat xavfsizligi ko'kaldoshga, ichki tartib va xavfsizlikni nazorat qilib turish raisga topshirilgan.

Buxoro qozikaloni huzurida qirq a'lam va 12 muftiydan iborat rivoyatlar tuzuvchi muftiylar devoni bo'lgan. Amirlikda musulmon ruhoniylari yuqori mavqega ega bo'lgan. Ular katta yerlarga egalik qilar edi. Shayx ul-islom bosh ruhoniyy va adliya ishlarining sardori hisoblangan. U jamiyat ma'naviy hayotini boshqargan. Sud hokimiyati ruhoniylar qo'lida bo'lgan. Barcha qozilar (qozi-ul-quzzot) qozikalonga bo'ysungan. Davlat boshqaruvida u yoki bu lavozim vazifasiga qarab o'zgarib turgan.

**Natija va muhokamalar.** Amirlikda Shohmurod nomi bilan tanilgan Amir Ma'sum al-Ma'ruf ibn Doniyolbiy otaliq Shohmurodbiy (1785-1800) mazkur sulolaning davlat sohasida ko'plab islohotlarni amalga oshirgan vakili bo'ldi. Shohmurodning davlat arbobi sifatida shakllanishida tasavvuf oqimining ta'siri juda kuchli bo'lib, bu borada, ayniqsa, uning shayx Safarning muridi ekanligi hal qiluvchi rol o'ynagan. U ilm ahlini hurmatlab, ularning ta'minotini yo'lga qo'ygan. Lekin tasavvuf uning qahri qattiq hukmdor amir Shohmurod bo'lib yetishishiga, mang'itlar sulolasining davlat hokimiyatini mustahkamlash borasida bir qancha islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilmadi.

Shohmurod islohotlarining ba'zilarining uning topshirig'iga binoan 1789-yilda Mirzo Bodi Devon tomonidan yozilgan "Majma' al-arqam" ("Raqamlar va ruqumlar") haqidagi asarida keltirilgan. Xususan, unda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ijobiy o'zgarishlar bilan tanilgan hukmdor Amir Shohmurod o'zining davlat boshqaruvi jarayonida turli sohada islohotlar o'tkazgani, ya'ni eng muhimlaridan yer, ma'muriy, soliq, sud sohalarida islohotlar o'kazgani haqida ma'lumotlar bayon etiladi.

Bu islohotlar ichida, ayniqsa, sud islohoti diqqatga sazovordir. Unga ko'ra har bir musulmon, hatto qul ham qoziga o'z shikoyati bilan kelishga va g'ayriqonuniy ish qilayotgan o'z xo'jayinini javobgarlikka tortishga haqlidir deyilgan. Amir Shohmurod Buxoro amirligi davlatchiligi tarixida alohida o'z o'rniga ega bo'lgan hukmdorlardan sanaladi. U turkiy mang'itlar sulolasi hukmdorlari ichida birinchi bo'lib sud-huquqiy islohotlarini amalga oshirdi. Davlatchilik tarixida "Amiri ma'sum" ("Begunoh amir") nomi bilan qolgan Amir Shohmurodning hukmronlik yillari (1785 – 1800) Buxoroda markaziy hokimiyatning nisbatan mustahkamlanishi davri bo'ldi.

Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan sud – huquqiy islohotlar mamlakatda sud ishlaridagi nohaqliklarga chek qo'yilishiga, sudlarda ishlarining erkin olib borilishiga hamda qozilar tomonidan odillik, adolat va insonparvarlik ruhida sud jarayonlarini amalga oshirishga imkon yaratib berdi. Asosiy sud idorasi qozilik mahkamalari hisoblanib, qozikalon butun mamlakatning bosh qozisi (sudyasi) edi. "Majma' al arqom" ma'lumotlariga qaraganda eng oliy diniy mansab qozilar amali bo'lgan.

Buxoro amirligida sud tizimi O'rta Osiyodagi boshqa xonliklar singari bir xil ko'rinishga ega bo'lgan. Xususan, amirlikda sud ishlari shariat asosida olib borilgan, qozi va a'lamlar tarkibiga kiritilgan. Ular amir tomonidan tayinlangan, qozilik faoliyati qozi kalon tomonidan boshqarilgan va u amirlikning qozixonalarida yuritilgan huquqiy sohadagi ishlar haqida ma'lumot beradi. Rasmiy qozilik huquqini beruvchi vasiqalar, fuqarolik ishlari, ulardan tushgan ariza va shikoyatlar, da'vo xatlari, iqror xatlari, tug'ilganlik haqidagi guvohnomalar, nikoh xatlari, taloq xatlari, merosni bo'lish haqidagi hujjatlar ushbu bo'limdan o'rin olgan. [10. 202]

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, bu davrda sud va sud idoralarida amalga oshirilgan islohotlar jamiyatning ma’lum bir sohalarida ijobiy o’zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa Amir Shohmurod tomonidan amalga oshirilgan sud islohoti nafaqat amirlikda, balki boshqa xonliklarda ham sud va sudlovni ijobiylashtirish uchun ulkan qadam bo’ldi. Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, Amir Shohmurod tomonidan o’tkazilgan sud – huquqiy islohotlarining yana bir muhim yangiligi, bu oliy sud palatasida qirq a’lam (qonunshunoslar) ishtirokida ko’rilayotgan arz yoki shikoyatnomada da’vogarning shaxsan o’zi ishtirok etishining talab qilinishi bo’ldi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Fayzullayev Farrux. Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida Ubaydullaxon faoliyatining yoritilishi // O’tmishga nazar. 4-jild, 7-son. –Toshkent, 2021. – B. 44 - 45.
2. Ходжаев Ф.К. истории революции в Бухаре. - Ташкент: Узбекское государственное издательство, 1926. - С. 8.
3. Нормуродова Г. Бухоро amirligida ulamolarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o’rni. Uluslararası Turk Dunyasi Arastirmalari Sempozyumu. Semerkant. 12 - 16 Ekim 2018. – B.34.
4. Абулаббос Мухаммад Толиб ибн Тождидин Хасанхожа ал-Хусайний ас-Сиддикий. Матлаб ут-толибин. Ўзбек тилига таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Фулом Каримий, Эркин Миркомиллов. – Тошкент: 2016. – Б. 10.
5. Муқимов Z. Shayboniylar davlati va huquqi. Tarixiy- huquqiy tadqiqot. – Toshkent, “Adolat”., 2007. – B. 76-84.
6. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва, 1958. – С. 130.
7. Муқимов Z. O’zbekiston davlati va huquqi tarixi. – Toshkent: Adolat, 2003. – B. 199.
8. Barakayev J. va boshqalar. Buxoro tarixi. – Toshkent: O’qituvchi, 1991. – B. 69-83.
9. Eshov B. O’zbekiston davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi. - Toshkent, 2012. – B. 337-356.
10. Sagdullayev A.va b. O’zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000. –202 b.

### XORAZM VOHASI AHOLISINING SUV BILAN BOG’LIQ MADANIYATI VA AN’ANALARI TARIXSHUNOSLIGI

**Karimov Umrbek Davronbekovich**

Ma’mun universiteti NTM, o’qituvchi

[karimovumrbek1@gmail.com](mailto:karimovumrbek1@gmail.com)

ORCID 0009-0001-3875-7952

UDK: 811.512.1(038:)39(=512.1)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm vohasi aholisining suv bilan bog’liq madaniyati va an’analari tarixshunosligi, qadimgi va o’rta asrlar yozma manbalaridagi tadqiqotlari, XX asr xoriyda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va turli nashrlarda suv bilan bog’liq madaniyat va an’analari muammosining yoritilishi va mustaqillik davrida bajarilgan tadqiqotlarda mavzuning o’rganilishi ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotchi Xorazm vohasi o’zbeklarining an’anaviy turmushida suv bilan bog’liq e’tiqodlar va ularning o’zbek xalqi an’anaviy turmush tarzidagi ko’rinishlariga oid bajarilgan tadqiqotlar hamda adabiyotlarni tahlil qilishdan avval ushbu masalaga bag’ishlangan dastlabki va eng asosiy manbalarga to’xtalgan. Bundan tashqari, Mustaqillik sharofati bilan qayta tiklangan madaniy va milliy qadriyatlarining muhim bir yo’nalishi sifatida urf-odat, an’ana va marosimlar tarixini o’rganish yo’lga qo’yildi. Xalq dunyoqarashida suv va daryo bir xil tushunchalar ekanligini alohida aytishimiz lozim, bundan tashqari, suv va daryo borliqning asosiy elementlaridan biri ekanligi, yuqori semiotik maqomga egaligi ko’rsatib berildi. O’z davrida inson va tabiat, ularning o’zaro munosabati, tabiat ne’matlarini, suvni isrof qilmaslikka chorlagan o’rta asr allomalarning ko’plab fikrlari, qarashlari ham bayon qilindi. Bu borada o’tgan davr mobaynida talaygina salmoqli ishlar amalga oshirildi va ular ushbu maqolada ko’rib chiqilib tahlil qilindi.

**Kalit so’zlar:** “Avesto”, zardushtiylik, Yusuf Hamadoniy, xakaslar, ispan nasrida suv, G.P.Snesarev, folklor, Jaloliddin Rumiy, o’zbek madaniyatida suv.

## ИСТОРИОГРАФИЯ ВОДНОЙ КУЛЬТУРЫ И ТРАДИЦИЙ ЖИТЕЛЕЙ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

**Аннотация:** В данной статье представлен научный анализ историографии культуры и традиций жителей Хорезмского оазиса, связанных с водой, их исследования в древних и средневековых письменных источниках, освещения проблемы культуры и традиций, связанных с водой, в зарубежных научных исследованиях и различных публикациях XX века, а также изучения темы в исследованиях, проведенных в период независимости. Исследованию автора предшествовал анализ литературы, посвященной верованиям, связанным с водой в традиционной жизни узбеков Хорезмского оазиса, и их проявлениям в традиционном образе жизни узбекского народа. Кроме того, было положено начало изучению истории обычаев, традиций и обрядов как важного направления культурных и национальных ценностей, возродившихся благодаря независимости. Особо отмечено, что в народном мировоззрении вода и река - это одни и те же понятия, кроме того, было показано, что вода и река являются одними из основных элементов бытия и обладают высоким семиотическим статусом. Приводятся также многочисленные мнения и взгляды средневековых ученых на человека и природу, их взаимоотношения, на блага природы, призывавших человека беречь воду. В связи с этим была проведена значительная работа, которая была рассмотрена и проанализирована в данной статье.

**Ключевые слова:** "Авеста", зороастризм, Юсуф Хамадани, хакасы, вода в испанской прозе, Г.П.Снесарев, фольклор, Джалалиддин Руми, вода в узбекской культуре.

**Kirish.** Suv nafaqat tiriklik manbai, balki hayotning eng ulugʻ, bebaho va beqiyos moʻjizasidir. Oʻrta asrlarda allomalarimizning kitoblarida ham tabiatni, atrof-muhitni, shu jumladan, suv va suv havzalarini toza tutish, ifloslamaslik hamda tejab ishlatish masalalariga eʼtibor qaratganlar. Dehqonchilik bilan juda qadim vaqtlardan buyon muntazam ravishda shugʻullanib kelgan Oʻrta Osiyo xalqlari, shu jumladan, Xorazm vohasi oʻzbeklarining anʼanaviy turmush tarzida suv bilan bogʻliq udumlar va marosimlar aynan tadqiqot obyekti sifatida maxsus oʻrganilgan emas. Lekin mustaqillik yillarida baʼzi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida oʻzbeklarning suv bilan bogʻliq qarashlari bilan bogʻliq kam sonli ilmiy maqolalar va monografiyalar paydo boʻla boshladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xorazm vohasi oʻzbeklarning anʼanaviy turmush tarzi, urf-odat va anʼanalarida suv bilan bogʻliq madaniyat va anʼanalarning oʻrganilishini xronologik jihatdan uch guruhga boʻlish mumkin:

1. Qadimgi va oʻrta asrlar yozma manbalaridagi tadqiqotlar.
2. XX asr xorijda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va turli nashrlarda suv bilan bogʻliq madaniyat va anʼanalar muammosining yoritilishi.
3. Mustaqillik davrida bajarilgan tadqiqotlarda mavzuning oʻrganilishi.

**Natijalar va muhokama. 1. Qadimgi va oʻrta asrlar yozma manbalaridagi tadqiqotlar.** Xorazm vohasi oʻzbeklarining anʼanaviy turmushida suv bilan bogʻliq eʼtiqodlari boʻyicha adabiyotlarni tahlil qilishdan avval ushbu masalaga bagʻishlangan dastlabki va eng asosiy manbalarga toʻxtalib oʻtish lozim. Bu borada, ayniqsa, Turon va Eron xalqlarining islomdan avvalgi asosiy dinlaridan biri boʻlgan zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" muhim oʻrin tutadi.

"Avesto"ning koʻpgina qasidalarida tabiatdagi bogʻlarni, foydali va foydasiz nabotot va hayvonot olamini asrash, suvlarning tozaligini saqlash, suvni muqaddas tutish shartligi, tuproq, olov va boshqalarning softligini asrash haqida qiziqarli fikrlar aytilgan. Atrof-muhit, havo, chorvalar, tuproq - yer, suvni pokiza saqlashni fikrimizdagina emas, balki amaliyotda koʻrsatsak, ezgulik amalini toʻliq bajargan boʻlamiz. "Avesto"da suv hosildorlik maʼbudasi Ardivi, boshqacha aytganda, "Obon - yasht", yaʼni suvlar qasidasi, Savonxi (hayvonlarga homiylik qiluvchi iloh), Farodat - Fshova (mayda hayvonlarga homiylik qiluvchi iloh) - tabiat borligʻining barchasi muqaddas hisoblangan, itni oʻldirish katta gunoh sanalib, oʻsimliklardan turli xilma-xil sharbatlar (tetiklashtiruvchi, yoshartiruvchi, ogʻriqni qoldiruvchi va h.) tayyorlanib, isteʼmol qilingan.

"Oqin suvlar,  
Oʻlik suvlar,

Sarchashmalar

Suvlaridan bahrubarning...” [1]

Tabiiy suvlarning ko‘p sifatiligi o‘sha paytdayoq zardushtlarga aniq bo‘lgani yuqoridagi misralardan ko‘rinib turibdi.

Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi jazosiga mahkum etilgan. Masalan, suvni iflos qilgan yoki ov itini o‘ldirgan kishi 10 000 ruhiyatni tetiklashtiradigan o‘simlik bargi terishi, 1000 echkiemar, 1000 ta suv qo‘ng‘izi va kasallik tarqatuvchi pashshani o‘ldirib, gunohini yuvishi lozim bo‘lgan.

O‘rta asrlarda, xususan, XIII asrda yashagan xorazmlik alloma Chag‘miniyni alohida e‘tirof qilishimiz lozim. Xorazmning Chag‘min qishlog‘ida tavallud topib, 1221-yilda vafot etgan Umar Chag‘miniyning tabobatga oid “Qonuncha” nomli asari orqali ularning atrof-muhit va salomatlik, kasalliklarning kelib chiqish sabablari, jamiyat va tabiat orasidagi muvozanatlar to‘g‘risidagi fikrlari Ibn Sinoning bu boradagi fikrlari bilan hamohang ekanligini ko‘rishimiz mumkin [2]. O‘z davrida tabiat ne‘matlarini, suvni isrof qilmaslikka chorlagan allomalardan yana biri Yusuf Hamadoniy o‘zining “Fi annal–kavna musaxxarun lil-inson” risolasi aynan umumbashariy ekologik muammoga bag‘ishlangan, ekologik muammolar yechimini o‘z vaqtida ko‘ra olib, tabiatni asrashni, ekologik tangliklar oldini olishda chora-tadbirlarga bag‘ishlangan asar, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Buyuk mutafakkir nazarida ehtiyojlarning xilma-xilligiga jiddiy e‘tibor berilganligini ham, ayniqsa, oqilona ehtiyoj (hojating doirasida) ga alohida urg‘u berilgani tahsinga loyiqdir. Ekologik inqirozlar, ekologik xatolik va tangliklardan qutilishning asosiy yo‘li: “...Sen amal qilishing kerak bo‘lgan yo‘l –ularning miqdor va darajasining salohiyati haqida mulohaza yuritish kerak, undan zaruriy va foydali bo‘ladigan miqdorini belgilab, qabul qilib, zarar ko‘rsatuvchi va halok etuvchi ortiqchasini tashlash kerak”[3]. Osmonimizni to‘ldirib turgan havoning ham, daryolar va dengiz, okeanlarimizdagi suvlarning ham sifat va miqdor ko‘rsatkichlari mavjud, ularning barcha-barchasi o‘zining tabiiy sifat darajalariga ega. Yusuf Hamadoniy uqtirgan fikrlar zamonaviy ekologik tilga o‘g‘irilganda: “ekologik komponentlarning asl tabiiy sifati”, “biosferaning hayot ko‘rsatkichlari”, “biosferaning imkoniyat chegarasi”, “toza, tabiiy suv sifati”, “toza havo”, “tabiiy suv havzalari”, “o‘rmon” degan tushunchalarga mos keladi [2].

O‘rta asr allomalaridan yana biri Jaloliddin Rumiy o‘zining boy ma‘naviy merosi va asarlarida inson va tabiat, ularning o‘zaro munosabati, ijtimoiy hayotda insonning tutgan o‘rni, tabiat ne‘matlarining inson hayotini bekam-u ko‘st holda shakllanishida katta ahamiyatga ega ekanligini tushunishimiz mumkin. Xususan, Jaloliddin Rumiy o‘z hikmatlarida suv qadrini ko‘rsatib:

Obi hayvon qiblayi jon, ey rafiq,

Suv ila yashnaydi bo‘ston, ey rafiq.

deb yozadi [5]. XI asrda yashab o‘tgan ijodkor Fahriddin Gurgoni o‘z davrida suvni iflos qilmaslik haqida ulug‘ o‘git sifatida:

“Bugun chashma suvni qilsang agar xor,

Boshqa icholmassan bu suvdan zinhor”,- deb suvni iflos qilmaslik uni asrashga chaqirgan.

Mavlono Jaloliddin Rumiy suvning barcha tirik organizmlar, o‘simliklar va insonlar uchun behad muhimligiga alohida e‘tibor qaratib:

Suv sadosi bong-u Isrofil erur,

Tirgizur hatto o‘lik jonlarni ul [6],

deb suvning tabiatdagi o‘rnini yozgan edi. Ushbu misralar orqali insonlarga, “Qani endi, sen o‘zingni suv deb fikr qil va o‘zingni suv kabi his et. Suv kabi o‘zgacha, suv kabi hayotbaxsh, suv kabi musaffo, suv kabi zarur, suv kabi hayot garovi va suv kabi bitmas-tuganmas ekanligingni xayol qil... Ammo yana suv kabi kichik bir idishga o‘zingni sig‘dira bilginki, toki insonlarning tomirlariga qadar kira olgin. Hayot baxsh et, voz kechilmaydigan bo‘l !” [6]. Mazkur misralar borliqda suvning naqadar yuksak ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

**2. XX asrda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va turli nashrlarda suv bilan bog‘liq madaniyat va an‘analari muammosining yoritilishi.**

Yevropa xalqlari tarixi va etnografiyasini rus etnograf olimi Filimonova Tamara

Dmitrevna tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan, u shimoliy, janubi-sharqiy Yevropa xalqlarining oila va nikoh, xo'jalik an'analari, suv bilan bog'liq taqvimiy marosimlari, urf-odatlarini tadqiq etgan. T.D. Filimonova o'zining ilmiy tadqiqotlarida[8] hozirgi Yevropa hududlarida yashagan ibtidoiy odamlarda paleolit va mezolit davrlaridan boshlab suv bilan bog'liq animistik e'tiqodlar shakllanganligi, suvga sig'inish, unga qurbonliklar keltirish marosimlari bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Qadimgi odamlarning suv ruhlari to'g'risida qarashlari mavjud bo'lib, dengizlar, ko'llar, buloqlar tubi insonga yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin bo'lgan ruhlarga "qarorgoh" ekanligiga ishonishni boshlaganlar va turli xil suv havzalari – daryolar, ko'llar, botqoqliklar va boshqalar uchun qurbonliklar qilingan. Neolit davrida suv bilan bo'lgan odatlarning tabiati o'zgargan. Ishlab chiqarish (ibtidoiy dehqonchilik va chorvachilik) iqtisodiyotining rivojlanishi bilan insonning suvga bo'lgan ehtiyoji ortadi, suv kulti unumdorlik kulti bilan yanada chambarchas bog'liq bo'lib, ko'pincha uning tarkibiy qismiga aylanadi. Bundan tashqari slavyanlar va yevropa xalqlari e'tiqodlariga ko'ra, suv (daryolar, botqoqlar va boshqalar) o'liklar uchun "narigi dunyo" ga yo'l, tiriklar va o'liklar olamini tutashtiruvchi ko'prik sifatida ham qaralgan.

Ilk o'rta asrlarda Daniya, Shvetsiya, Norvegiya, Germaniya (Shlezvigda) hududida yashovchi xalqlar suvga odam qurbonlik qilishgan. Shu orqali daryo, ko'l, botqoqlarda yashovchi yovuz ruhlardan himoyalanişga harakat qilishgan.

Suv bilan bog'liq jonivorlar orasida qurbaqa Yevropa xalqlarida suv ramzi hisoblangan. Qurbaqa o'ldirilsa, yomg'ir yog'ishiga ishonishgan. Yevropa xalqlari mifologiyasida muqaddas buloqlarning paydo bo'lishi va ular bilan bog'liq bo'lgan ko'plab marosimlar, qiziqarli etnografik ma'lumotlar ham bayon qilingan. Fransiyaning Lurd, Italiyaning Bari, Germaniyaning Golsheyn, Bolgariya va ko'plab mamlakatlardagi buloqlar mahalliy aholi uchun suv manbai, shu bilan birga, muqaddaslashtirilgan joy ham sanaladi. XX asrgacha ko'plab ziyoratgohlardagi buloqlar bo'yiga ehtiyojmand kishilar shifo istab, farzand tilab kelishlari suv kulti ma'lum bir darajada mavjudligini, yo'qolib ketmagan ekanligini ko'rish mumkin.

Dunyoning ko'pgina xalqlari singari suv bilan poklash odati ham Yevropa xalqlariga xos xususiyat, odat va an'anadir.

Rus etnografi Burnakov Venariy Alekseyevich Janubiy Sibir xalqlari milliy madaniyati va an'alarini tadqiq qilgan. V. A. Burnakov [9] o'zining maqolasida xakaslarning an'anaviy dunyoqarashidagi suv tasvirini tavsiflagan. Maqolaning xronologik ko'lami XIX asr oxiri – XX asr o'rtalari bilan chegaralangan bo'lib, asosiy manba sifatida - folklor va etnografik materiallar, shuningdek, xakas tilidan olingan ma'lumotlarni keltirgan va ularni ilmiy muomalaga kiritgan. Bundan tashqari xakaslarning suv ("cyр" — xak.) [10] bilan bog'liq dunyoqarash majmuasi qayta tiklangan va tahlil qilingan. Xalqning diniy-mifologik g'oyalarida suv asosiy o'rinlardan biri bo'lganligi isbotlangan. Suv obrazi xilma-xil simvolizm va yuqori semiotik maqomga ega edi. Xakaslarning an'anaviy ongida suv yer yuzida hayotga asos solgan asosiy element sifatida qabul qilingan.

Ushbu maqolada taqdim etilgan materiallar asosida xakaslarning an'anaviy madaniyatida suv va uning tasviri muhim o'rin tutadi degan xulosaga kelishga imkon beradi. Xalq dunyoqarashida suv va daryo bir xil tushunchalar bo'lib, u xakas tilida ham o'z ifodasini topadi [11]. Suv va daryo borliqning asosiy elementlaridan biri bo'lib, yuqori semiotik maqomga ega. U bilan bog'liq asosiy g'oyalar va muqaddas funksiyalar orasida quyidagilar ajralib turadi: suv – kosmik element va hayot manbai, daryo – dunyoning o'qi, daryo – o'zga olamga yo'l, suv va daryo – ayol va Vatan timsoli. Hayot va o'lim haqidagi chuqur g'oyaviy mavzu suv elementi bilan uzviy bog'liqligi bayon qilingan.

Rus filologi Koreneva Elena Vladimirovna [12] "Zamonaviy ispan nasrida suv bilan bog'liq marosimlarning aks etishi" maqolasida zamonaviy ispan nasrida suv bilan bog'liq qadimiy e'tiqodlar, marosimlar va ularning tavsiflarini kiritish masalalarini ko'rib chiqqan. Bu an'alar, ayniqsa, Ispaniyaning shimoliy hududlarida – Galisiya, Basklar mamlakati va Kantabriyada sezilarli.

Suv elementi, birinchi navbatda, salbiy ta'sirlardan tozalash vazifasini bajaradi. Suv bilan bog'liq marosimlar insonning hayotini o'zgartirishi, uni to'ldirishi, ko'plab muammolarni yengishga yordam berishi mumkin.



Yana bir etnograf va madaniyatshunos Dmitriyev Vladimir Aleksandrovich Shimoliy va Janubiy Kavkaz xalqlarining tarixi va etnografiyasini ilmiy jihatdan o'rgangan. V.A. Dmitriyev [13] "An'anaviy va zamonaviy jamiyatda suvga munosabat: Shimoliy Kavkaz xalqlari madaniyati misolida (XIX asrdan - XXI asr boshlarigacha)" maqolasida Shimoliy Kavkaz xalqlarining an'anaviy madaniyatida va zamonaviy modernizatsiya qilingan jamiyat madaniyatida suvga bo'lgan munosabat ko'rib chiqilgan.

Xorazm vohasi aholisining zardushtiylik dini bilan bog'liq an'ana va marosimlarni tadqiq qilishning nazariy-metodologik asoslarini mashhur rus etnografi G.P. Snesarevning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin bo'ladi. G.P.Snesarev Xorazm vohasidagi oilaviy-maishiy marosimlarni tadqiq etib, shu asnoda bola tug'ilishi bilan aloqador udumlarni tasvirlar ekan, dunyoga kelgan bolani besh oqshomda, yigirma kunligi va qirq kunligida qari momolar ko'magida yuvintirish marosimlari o'tkazilishini, bundan tashqari dafn marosimlarida marhumni ham tozalash ishlarida bevosita suv yordamida amalga oshirilishi bilan bog'liq masalalarni o'z tadqiqotlarida asoslab beradi [15].

**3. Mustaqillik davrida bajarilgan tadqiqotlarda mavzuning o'rganilishi.** Mustaqillik yillarida ba'zi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida o'zbeklarning suv bilan bog'liq qarashlari bilan bog'liq kam sonli ilmiy maqolalar va monografiyalar [14] paydo bo'la boshladi. Bu borada o'tgan davr mobaynida talaygina salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, I.M. Jabborov aynan Xorazm vohasi o'zbeklari moddiy va ma'naviy madaniyati tarixini o'rganishga salmoqli hissa qo'shganligini ta'kidlash joiz [4].

Professor A.A. Ashirov tadqiqotlarida asosan, Farg'ona vodiysi aholisi kundalik hayotidagi urf-odat, an'ana va marosimlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo'lsa-da, qiyosiy tahlil nuqtayi nazaridan Xorazm vohasi o'zbeklari, ularning turmush tarzi va urf-odatlari mavzusiga ham ba'zi o'rinlarda to'xtalangan [7].

Tadqiqotchi D.Sh. Qurbonovanning risolasida Xorazm vohasining qadimgi va ilk o'rta asrlar davri ma'naviy madaniyati arxeologik, yozma va etnografik manbalar asosida tahlil qilingan. Asarda Xorazm aholisining Hubbi, ya'ni Amudaryo muakkili bilan bog'liq masalalarni, Jo'mard va Anbar ona kulti bilan bog'liq rivoyat va marosimlarga doir mulohazalari keltirilgan [16].

Yana bir tadqiqot ishini alohida e'tirof qilishimiz lozim. Jumladan, mazkur monografiya xalq donishmandligining metodologik asosi bo'lgan diniy manbalardagi atrof-muhit, tabiat ne'matlariga inson munosabatini me'yorga keltirish, tabiat komponentlarining hosil bo'lishi bilan sarflanishi o'rtasidagi mutanosiblikni chuqur o'rganishga oid g'oyalarni amaliyotga joriy qilish, aholining ekologik tafakkurini, jumladan, ayniqsa suvga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan [17].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilganda, Xorazm vohasi o'zbeklarining qadimiy diniy e'tiqodlarida suv bilan bog'liq an'ana, marosim va urf-odatlar mavzusi turli davrlarda bir necha avlod tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan bo'lsa-da, ushbu muammo hali-hanuz to'la-to'kis o'z yechimini topmaganligini, masalaga qanchalik sinchkovlik va yangi nigoh bilan yondashilsa, shunchalik e'tibordan chetda qolgan, ilmiy tahlillar doirasiga tortilmagan masalalar yuzaga chiqib boraverishi tadqiqot jarayonida o'z isbotini topdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Авесто // Санъат. - Тошкент, 1991. – № 6. – Б.25.
2. Адиллов З. Ю. Диний манбаларда экологик муаммоларнинг ечими: Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Урганч, 2021. – Б. 60-61, 67.
3. Юсуф Ҳамадоний. Рисола ("Фи аннал – кавна мусаххарун лил – инсон). – Истанбул, Кўпрули кутубхонаси, Ф.А.Пошо, № 853. 209а – 212 б.
4. Жабборов И.М. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 312 б.
5. Адиллов З.Ю. Диний ва дунёвий манбаларда сувнинг инсон ва табиат оламида тутган ўрни. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021.
6. Жалолитдин Румий. Ҳикматлар /форсийдан Жамол Камол таржимаси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 18, 34.
7. Аширов А.А. "Авесто"дан мерос маросимлар.... – Б. 32

8. Т.Д.Филимонова. Вода в календарных обрядах: Исторические корни и развитие обычаев // Календарные обычаи и обряды в странах зарубежной Европы. – Москва: Наука, 1983. – С. 130-145.
9. Бурнаков В. А. Вода в традиционном мировоззрении хакасов: образ и символ (конец XIX — середина XX в.) // Народы и религии Евразии. 2019. № 3 (20). – С. 86–100.
10. Хакасско-русский словарь. Новосибирск, 2006. –1114 с.
11. suv (“суғ” — хак.), daryo (“суғ” — хак.) Хакасско-русский словарь. Новосибирск, 2006. –516 с.
12. Е.В. Коренева. Репрезентация ритуалов, связанных с водой, в современной испанской прозе. Вестник культурологи. Научный журнал. Москва, 2021. № 2 (97). – С. 52–62.
13. В.А. Дмитриев. Отношение к воде в традиционном и модернизированном обществах: на примере культуры народов Северного Кавказа XIX - нач. XXI вв. (рецензирована). Ежеквартальный рецензируемый, реферируемый научный журнал «Вестник АГУ». Выпуск 3, (264). 2020. – С. 63-73.
14. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари / С. Рўзимбоев таржимаси. – Урганч: Кувончбек-Машхура, 2018.
15. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари / С. Рўзимбоев таржимаси. – Урганч: Кувончбек-Машхура, 2018.
16. Курбанова Д.Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти (археологик, ёзма ва этнографик манбалар асосида). – Тошкент, 2015. – 212 б.
17. Адиллов З. Ю. Диний манбаларда экологик муаммоларнинг ечими. Бухоро, “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona, 2023. –120 б.

#### TURKISTONDA ADVOKATURA TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR (XX ASR 20-YILLARI)

**Jaynarov Obidjon Hamid o‘g‘li**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti(CHDPU), dotsent  
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

[jaynarov.o@mail.ru](mailto:jaynarov.o@mail.ru)

ORCID 0009-0001-5317-304X

УДК: 93/94,34;340.15

**Annotatsiya.** Maqolada keng turdagi birlamchi manbalar va tarixiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida Turkistonda XX asr 20-yillari boshida advokatura organlari faoliyatida ro‘y bergan o‘zgarishlar yoritib berilgan. Bunda advokatlar tomonidan ko‘rsatilgan yuridik xizmatlar, ularning natijalari, joylarda himoyachilar kollegiyalarining tashkil qilinishi, XX asr 20-yillari boshida advokaturaga oid RSFSR hamda Turkiston ASSRda qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan.

Bundan tashqari maqolada Advokatlar kollegiyasi, xususan, viloyat adliya bo‘limlari huzurida o‘z-o‘zini boshqaruvchi jamoat tashkiloti sifatida faoliyat yurita boshlaganligi, advokatlar kollegiyasining umumiy kengashi kollegiyaning oliy organi sifatida belgilab berilganligi, Kollegiyaning yalpi kengashida advokatlar uyushmasi faoliyati bilan bog‘liq barcha masalalar ko‘rib chiqilganligi haqida masalalar ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, Sovet davlati tomonidan Turkistonda advokatura faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qator tabdirlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, bu davrda ham ularning faoliyati qoniqarsizligicha qolganligi, yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish munosabati bilan advokatlarga sovet hukumati tomonidan mahalliy aholiga inqilobiy qonunchilikning mohiyatini tushuntirish, ularga keng miqyosda bepul yuridik yordam ko‘rsatish vazifasi yuklatilganligi, bolsheviklar tomonidan sovet advokaturasi asoslari yaratilgan bo‘lsa-da, ulardagi asosiy kadrlar imperiya davri adliya xodimlari bo‘lganligi, bolsheviklar davrida faoliyat boshlagan himoyachilarining ko‘pchiligi esa hech qanday yuridik ma’lumot va tajribaga ega bo‘lmagan turli kasb vakillari bo‘lganligi ochib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Turkiston ASSR, Adliya xalq komissarligi, sudlar, jamoat oqlovchilari, himoyachilar, Advokatlar kollegiyasi, yuridik yordam.

## ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ АДВОКАТУРЫ В ТУРКЕСТАНЕ (20-е годы XX в.)

**Аннотация.** В статье на основе широкого круга первоисточников и исторической литературы описаны изменения, произошедшие в деятельности адвокатуры Туркестана после установления Советской власти. Проанализированы юридические услуги, оказываемые адвокатами, их результаты, создание местных коллегий защиты, правовые документы, принятые в РСФСР и Туркестанской АССР об адвокатуре в начале 20-х годов XX века.

Кроме того, в статье показана деятельность коллегии адвокатов, в частности то, что она стала действовать как самоуправляющаяся общественная организация при региональных управлениях юстиции, высшим органом коллегии был назначен Генеральный совет коллегии адвокатов. Все вопросы, связанные с деятельностью Коллегии адвокатов, рассматривались на Генеральном совете Коллегии адвокатов. Также, несмотря на то, что Советским государством был предпринят ряд мер по становлению адвокатуры в Туркестане, их деятельность оставалась неудовлетворительной даже в этот период. Выяснилось, что хоть большевиками и были созданы основы советской адвокатуры, основными кадрами в ней были чиновники юстиции имперского периода, а большинство защитников, начавших работать при большевиках, были представителями различных профессий, не имевшими никакого юридического образования и опыта.

**Ключевые слова:** Туркестанская АССР, Народный комиссариат юстиции, суды, общественные защитники, правозащитников, коллегии защитников, юридическая помощь.

**Kirish.** XX asr 20-yillarning boshida sovet advokaturasi o'z faoliyatini asosan ikkita yo'nalishda olib bordi. Ulardan biri – yuridik maslahat berish ishlarini tashkil qilish bo'lsa, ikkinchisi – sudda oqlovchilik vazifasini bajarishdan iborat bo'lgan. Biroq ko'plab obyektiv va subyektiv omillar natijasida himoyachilar sud majlislarining juda kam qismida qatnashgan. Misol uchun, Samarqand shahar himoyachilar kollegiyasi a'zolari 1920-yil 1-yanvardan 1-sentyabrgacha xalq sudlarida 78 marotaba, sovet xalq sudlari kengashining 37 ta, inqilobiy tribunalning 15 ta sud jarayonida ishtirok etgan bo'lsa, Qattaqo'rg'on himoyachilar kollegiyasi a'zolari esa sud majlislarida 11 marotaba oqlovchilik vazifasini bajargan[1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tarixiy tadqiqotlar olib borishning tarixiylik tamoyillari, obyektivlik, tizimli, qiyosiy tahlil, shuningdek, muammoviy va fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Tahlil qilinayotgan davrda sud jarayonlarida himoyachilarning erkin faoliyati yuritishiga yetarlicha imkon berilmagan. Xususan, Oliy inqilobiy tribunal tomonidan 1919-yil 4-iyunda ko'rib chiqilgan Glebovichning jinoiy ishi bo'yicha sud jarayonida xuddi ana shunday holat kuzatildi[2]. Shuningdek, jamoat oqlovchilari oylik maoshlarning yetishmasligi natijasida o'z mijozlaridan qo'shimcha haq talab qilishi odatiy holga aylanib qoldi.

Umuman olganda 1920 yilning boshlariga kelib himoyachilar kollegiyasi bir vaqtning o'zida ham ayblovchi ham oqlovchi vazifasini bajarishi kerak bo'lgan tizim o'zini oqlamaganligini ko'rsatdi. Bu holatni sovet adliya tizimi asoschilari oshkora tan olishga majbur bo'ldi[3;21].

1920-yil iyunda bo'lib o'tgan Umumrossiya sovet adliya xodimlarining III syezdida himoyachilar kollegiyasi faoliyati sarhisob qilinib, kollegiyani tugatish bo'yicha qaror qabul qilindi[4]. RSFSR MIQ tomonidan 1920-yil 21-oktyabrda qabul qilingan Dekretga ko'ra "himoyachilar, ayblovchilar va fuqarolik protsessida taraflarning vakillari kollegiyasi" faoliyati tugatildi[1;87]. Turkiston o'lkasida ushbu kollegiya faoliyatiga MIQning 1921-yil 18-apreldagi Dekreti[6]. asosida chek qo'yildi.

TASSR Adliya xalq komissarligi tomonidan 1920-yil 28-noyabrda chiqarilgan yo'riqnomada endilikda sud jarayonida oqlovchilik vazifasini adliya bo'limlari, xalq sudlari, xalq sudyalari kengashlari, inqilobiy tribunallar, partiya, kasaba uyushmalari kengashi va boshqa sovet tashkilotlari tomonidan tuzilgan hamda viloyat, shahar ijroiya qo'mitalari tomonidan yilda ikki

marta tasdiqlanadigan ro'yxatga kiritilgan fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatildi. Bunda nomzodning mehnat qilayotgan kasbi, ma'lumot darajasi, ish staji, partiyaviyligiga alohida e'tibor qaratilgan[7]. Ta'kidlash kerakki, bu mezonlar faqatgina jinoiy ishlar bilan bog'liq sud jarayonlarida oqlovchilik qilishga da'vogarlariga nisbatan tatbiq qilinib, fuqarolik ishlariga tegishli sud majlislarida qatnashmoqchi bo'lgan nomzodlarga bunday talablar belgilanmadi. Ushbu holat, shubhasiz, sovet advokaturasi nufuzining pasayishiga, ularga nisbatan aholi ishonchining yo'qolib borishiga olib keladigan asosiy sabablardan biri bo'ldi.

Sovet davlati tomonidan Turkistonda advokatura faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha qator tabdirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu davrda ham ularning faoliyati qoniqarsizligicha qolaverdi. Bu haqda komissarlik mas'ul xodimi Rachinskiy o'zining Farg'ona viloyati adliya organlari faoliyati bo'yicha taftish hisobotida (1921-yil) quyidagicha ta'kidlab o'tadi: "...viloyatda himoyachilar soni faqat qog'ozlarda mavjud, aslida esa ularning faoliyati umuman yo'lga qo'yilmagan"[8]. Sirdaryo viloyati xalq sudlari kengashi a'zosi Aleksin esa o'z ma'ruzasida viloyatda faqat Toshkent shahrida himoyachilar faoliyati to'g'ri tashkil qilinganligi, qolgan uyezdlarda ularning umuman mavjud emasligini bildirgan[9].

Kadrlar yetishmasligi natijasida mehnatga deyarli yaroqsiz bo'lgan xodimlar ham xizmat vazifasidan ozod qilinmaganligini ko'rish mumkin. Xususan, Samarqand shahar jamoat oqlovchilari kollegiyasi a'zosi Zaslavskiyning ko'zlari deyarli ko'rmay, bir oyog'i umuman ishlamay qolgan bo'lsa-da, o'z vazifasida qolaverdi[10].

Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish munosabati bilan adliya komissarligi shu jumladan, mavjud oqlovchilarga sovet hukumati tomonidan mahalliy aholiga inqilobiy qonunchilikning mohiyatini tushuntirish, ularga keng miqyosda bepul yuridik yordam ko'rsatish vazifasi yuklatildi. Himoyachilar faoliyatining yetarlicha tashkil qilinmaganligi oqibatida dastlab ushbu vazifalar o'z vaqtida amalga oshirilmadi.

Yuqorida aytib o'tilgan xato va kamchiliklar sho'ro hukumatiga himoyachilar faoliyatini kengaytirib, ularni alohida davlat organiga aylantirish zarurligini ko'rsatib berdi. Ushbu masala Butunrossiya adliya xodimlarining 1922-yil 26-30-yanvar kunlari bo'lib o'tgan IX syezdida muhokama qilindi[11;38] hamda ushbu syezdda qabul qilingan rezolyutsiya asosida 1922-yil 26-mayda RSFSR MIQ tomonidan "Advokatura to'g'risidagi Nizom" tasdiqlandi [12;21]. Shuningdek, 1922-yil 5-iyulda RSFSR Adliya xalq komissarligi tomonidan "Advokatlar kollegiyasi to'g'risidagi Nizom" ishlab chiqildi [13;11-16]. TASSR hududida ushbu nizomlar MIQning 1922-yil 29-oktyabrda 131-sonli qarori bilan qonuniy kuchga kirdi[14].

Ta'kidlash kerak, ushbu qonun hujjatlarining qabul qilinishi sovet advokaturasi faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, Advokatlar kollegiyasi endilikda viloyat adliya bo'limlari (keyinchalik viloyat sudlari) huzurida o'z-o'zini boshqaruvchi jamoat tashkiloti sifatida faoliyat yurita boshladi. Advokatlar uyushmasining umumiy kengashi kollegiyaning oliy organi sifatida belgilab berildi. Umumiy kengashda advokatlar uyushmasi faoliyati bilan bog'liq barcha masalalar (advokatlar fondiga badallar belgilash, aholiga huquqiy yordam ko'rsatishni tashkil qilish va boshqalar) muhokama qilingan.

Kollegiya faoliyatida bir yil muddatga saylanadigan Advokatlar kollegiyasi Prezidiumi alohida o'ringan ega bo'lgan. Prezidium a'zolari uch nafardan yetti nafargacha bo'lib, ijroiya va ma'muriy organ hisoblangan. U asosan uyushmaga yangi a'zolari qabul qilish yoki ularni chiqarish, kollegiya a'zolari tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilayotganligini nazorat qilish, pullik va bepul yuridik yordam ko'rsatish tartibini belgilash, yuridik yordam ko'rsatuvchi maslahat punktlarini tashkil qilish, kollegiyaning mol-mulki va pul mablag'laridan foydalanish tartiblarini belgilash kabi vaziflarni bajargan[15]. Shuningdek, Prezidium kollegiya a'zolari belgilangan qonun-qoidalarga zid xatti-harakatlarni amalga oshirgan taqdirda ularga nisbatan ogohlantirish berish, hayfsan, kollegiya fondi hisobiga jarima undirish, umrbod yoki ma'lum muddatga kollegiya a'zolidan chetlatish kabi intizomiy jazo choralarini qo'llash vakolatiga ham ega bo'lgan.

"Advokatlar kollegiyasi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq kollegiya a'zolidan sovet adliya tizimida sudya, tergovchi, advokat, sud maslahatchisi lavozimlarida kamida ikki yillik tajribaga ega bo'lgan yoki maxsus komissiya tomonidan tashkil qilinadigan imtihondan o'tgan shaxslar

qabul qilingan [16]. Ammo TASSRda sovet advokatlarning yetishmasligi natijasida bunday tartibga deyarli amal qilinmadi. Hududlarda malakali himoyachilarning doimiy yetishmasligi davom etgan. Bunday holatni 1922-yilda Sirdaryo viloyati himoyachilar kollegiyasi byurosi a'zolari Osipov, Kritskiy, Belyayev va Kartashevlarining viloyatda advokatlarning ahvoli to'g'risida o'lka XKSga yozgan bildirgisida ham ko'rish mumkin [17]. Umuman olganda, 1922-yilda Turkrespublikada 5 ta viloyat, 5 ta uyezd himoyachilar kollegiyasi bo'lib, ularda jami 113 nafar himoyachi faoliyat olib borgan [18]. Advokatlar kollegiyasi a'zolari viloyatlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan: Sirdaryo viloyatining Toshkent uyezdida 45, Avliyootada 3, Chimkentda 2, Turkistonda 22 ta, Samarqand viloyatining Samarqand uyezdida 15, Xo'jandda 1, Kattaqo'rg'onda 2, Farg'ona viloyatining Andijon va Qo'qon uyezdida 3 tadan, Namangan, Marg'ilon, Farg'ona va O'sh uyezdlarida 1 nafardan advokat ish olib borgan [19].

Sud jarayonlarida ishtirok etayotgan advokatlar kollegiyasi a'zolariga ayblanuvchi bilan ko'rishish, ish bilan tanishib undan kerakli ma'lumotlarni olish, zarurat tug'ilganda qo'shimcha guvohlarni chaqirish hamda ekspertizalar o'tkazish haqida iltimosnoma berish, himoya nutqini so'zlash, sud majlisi bayonnomasiga izoh berish, chiqarilgan sud qarori ustidan shikoyat bildirish kabi huquqlar berildi. Tahlil qilinayotgan davrda sud jarayonlarida himoyachilar ushbu vakolatlardan juda ko'p hollarda foydalana olishmagan.

Kollegiya a'zolari sud ishlarida ishtiroki uchun sud tomonidan belgilanadigan muayyan miqdorda haq olgan. U ayblanuvchi tarafidan undirilib, komissarlik smetasi bo'yicha respublika byudjetiga o'tkazilgan. "Advokatlar kollegiyasi to'g'risidagi Nizom"ga ko'ra fuqarolik ishlariga oid sud jarayonlarida ishtiroki uchun advokatlarga 5 (miqdorda haq berilgan bo'lsa, jinoiy ishlar bo'yicha beriladigan to'lov ishning darajasiga qarab belgilangan. Advokatlar har bir sud jarayonidan keyin beriladigan haqning 3 (ini kollegiya fondiga topshirishi lozim edi [20;13].

1923-yil aprelda qabul qilingan "TASSRda sud tuzilishi to'g'risidagi Nizom"da advokatlar kollegiyasi a'zolari sudlarda ishtirok etishdan tashqari komissarlik yoki viloyat sudlari Prezidiumi tomonidan belgilangan joylarda aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish lozimligi belgilab qo'yildi. Maslahat punktlari asosan bozorlar, qizil choyxonalar, zavod va fabrikalar, dehqon uylari, temir yo'l klublarida hamda boshqa aholi gavjum joylarda tashkil qilingan.

Aytib o'tish kerakki, advokatlar kollegiyasi tomonidan bepul yuridik maslahatlar berish tizimining joriy qilinishi aholiga yuridik yordam berish sohasida muhim qadam bo'lgan bo'lsa-da, Turkiston o'lkasida advokatlar tomonidan faqatgina viloyat markazlaridagi aholiga yuridik yordam ko'rsatilgan, xolos[21]. Sirdaryo viloyati himoyachilar kollegiyasi a'zolari sudlov organlari taklifi asosida 1923-yildan 1924-yil fevralga qadar 407 nafar fuqaroga bepul yuridik yordam bergan bo'lib, ularning ko'pchiligi jinoiy ishlar bilan bog'liq edi[22]. Qiyoslash uchun, Yenisey guberniyasi advokatlar kollegiyasi tarkibida 35 nafar a'zo bo'lib, 1924-yilning 4 oyi davomida 223 nafar fuqaroga bepul yuridik xizmat ko'rsatilgan[23;786].

1924-yil 23-aprelda aholiga yuridik yordam ko'rsatishni kuchaytirish bo'yicha RSFSR Adliya komissarligining maxsus sirkulyari e'lon qilindi[24;91]. Ushbu qonun hujjati Turkiston ASSRda aholiga yuridik yordam ko'rsatish ishlarining jonlanishiga xizmat qildi. Xususan, Sirdaryo viloyati Advokatlar kollegiyasi a'zolari tomonidan 12 ta shahar, ovul va posyolkalarda yuridik xizmat bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilishi belgilandi. Shuningdek, Toshkent uyezdi ijroiya qo'mitasi huzurida asosan mahalliy aholiga haftada 4 marotaba yuridik maslahat berish ishlari yo'lga qo'yildi. Bunga kollegiya a'zolari Do'stmuxammedov, Ibragimov, Charkovskiy, Bronshteynlar mas'ul qilib tayinlandi [25].

Aholiga bepul yuridik yordam berish ishlari o'lkaning boshqa hududlariga nisbatdan Toshkent shahrida qisman jonlandi. Xususan, Asaka ko'chasi 10-uyda joylashgan maslahat markazi tomonidan haftada uch marotaba kechki soat 17:00 dan 20:00 ga qadar aholiga huquqiy yordam ko'rsatilgan. Markazda 1924-yil yanvar oyi davomida 61 nafar fuqaroga turli masalalar bo'yicha yuridik maslahatlar berilib, shulardan 51 tasi bepul amalga oshirilgan. Qolgan oylar davomida ham bepul yuridik yordam ko'rsatish darajasi yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin [26].

1-jadval

T/r	Ko'rsatilgan muddat	Bepul	Pullik	Jami
1	aprel	54	25	79
2	may	63	19	82
3	iyun	58	28	86
4	iyul	89	29	118
5	avgust	74	34	108
6	sentyabr	63	17	80
7	oktyabr	68	20	88
8	noyabr	56	17	73

Ushbu jihat sovet hukumatiga proletar qonunchilikni joriy qilishda muhim o'rin tutdi. Biroq bir qator omillar bolsheviklarga bunday tadbirlarni butun o'lka bo'ylab keng yo'lga qo'yishga to'sqinlik qildi.

Bundan tashqari sirkulyarda himoyachilar kollegiyasi hamda uning a'zolarini (birinchi navbatda mahalliy millatga mansub advokatlarini) ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar belgilandi. Biroq o'rganilayotgan davrda mahalliy millatga mansub advokatlar ozligicha qolaverdi. Misol uchun 1924-yilda Sirdaryo viloyati Advokatlar kollegiyasi jami a'zolarining 14.2 foizini mahalliy millat vakillari tashkil qilgan [27].

Shuni ham aytib o'tish joizki, bolsheviklar tomonidan sovet advokaturasi asoslari yaratilgan bo'lsa-da, ulardagi asosiy kadrlar imperiya davri adliya xodimlari edi. Jumladan 1923–1924 yillarda o'lkada faoliyat olib borayotgan advokatlarning 75 foizini ana shunday xodimlar tashkil etgan. Sovet davlati himoyachilarining ko'pchiligi esa hech qanday yuridik ma'lumot va tajribaga ega bo'lmagan novvoy, kotib, o'qituvchi, veterinar, etikdo'z va boshqa kasb vakillari edi.

O'lkada mavjud bo'lgan "Advokatlar kollegiya"si faoliyatini tartibga solish maqsadida 1924-yil 17-martda Adliya komissari Gaziyeving 22-sonli sirkulyari qabul qilindi[28]. Bu davrda Turkiston ASSRda 106 nafar advokat bo'lib, ularni viloyatlar bo'yicha taqsimlaganda Sirdaryoda 52, Samarqandda 18, Yettisuvda 14, Farg'onada 9 ta, Amudaryo viloyatida esa birorta himoyachi ro'yxatga olinmagan edi[29;170].

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib bolshevistik elitaning "burjuaziya advokaturasi"dan tamomila farq qiladigan advokatlik institutini yaratish harakati o'zining kutilgan samarasini bermadi. Oxir-oqibat XX asr 20-yillarning boshlariga kelib kapitalistik davlatlar advokaturasiga deyarli o'xshash bo'lgan tizim faoliyati yo'lga qo'yildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zMA R-38-fond, 2-ro'yxat, 105-ish, 68-varaqning orqasi va 69-varaqlar.
2. O'zMA R-38-fond, 2-ro'yxat, 61-ish, 351-varaqning orqasi.
3. Советская юстиция. – 1937. – № 22. – С. 21.
4. <http://elib.shpl.ru/ru/nodes/51718-vyp-11-12-protokoly-iii-vserossiyskogo-sezda-deyateley-sovetskoy-yustitsii-s-prilozheniem-rezolyutsiy-sezda-pg-1921>.
5. Декреты Советской власти. Т. XI. – Москва: Политиздат, 1983. – С. 87.
6. O'zMA R-344-fond, 3-ro'yxat, 1-ish, 1-5-varaqlar.
7. O'zMA R-38-fond, 4-ro'yxat, 4-ish, 16-17-varaqlar.
8. O'zMA R-38-fond, 2-ro'yxat, 144-ish, 55-varaq.
9. O'zMA R-38-fond, 4-ro'yxat, 6-ish, 74-varaqning orqasi.
10. O'zMA R-38-fond, 2-ro'yxat, 142-ish, 20-varaq.
11. Шаламов М. История советской адвокатуры... – С. 38.
12. Зотов В., Саркисянц Г. На страже законности и прав граждан // Общественные науки в Узбекистане. – 1972. – № 5. – С. 21.
13. Адвокатура: Сборник документов. – М: Дело, 2005. – С. 11–16.
14. O'zMA R-38-fond, 4-ro'yxat, 17-ish, 125-varaq.
15. O'zMA R-38-fond, 2-ro'yxat, 222-ish, 34-varaq va uning orqasi.
16. [http://www.libussr.ru/doc\\_ussr/ussr\\_1353.htm](http://www.libussr.ru/doc_ussr/ussr_1353.htm). (19.12.2019).
17. O'zMA R-38-fond, 2-ro'yxat, 48-ish, 91-92-varaqlar.

18. O'zMA R-25-fond, 1-ruyxat, 945-ish, 215-varak va uning orqasi.
19. O'zMA R-38-fond, 2-ro'yxat, 371-ish, 44-varaqning orqasi.
20. Советское право. – 1922. – № 2. – С. 13.
21. O'zMA R-25-fond, 1-ruyxat, 1802-ish, 19-varak.
22. Toshkent VDA R-282-fond, 1-ro'yxat, 30-ish, 98-varaq.
23. Ежедельник советской юстиции. – 1924. – № 31. – С. 786.
24. Камалова Г. Становление и развитие адвокатуры на Урале (1922–1929 гг.) // Известия Алтайского государственного университета. Серия «История. Политология». – 2008. – № 4/5. – С. 91.
25. Toshkent VDA R-282-fond, 1-ro'yxat, 27-ish, 6-varaqning orqasi.
26. Toshkent VDA R-282-fond, 1-ro'yxat, 30-ish, 8-varaqning orqasi.
27. Toshkent VDA R-282-fond, 1-ro'yxat, 30-ish, 113-varaq.
28. O'zMA R-38-fond, 2-ro'yxat, 463-ish, 20-varaq.
29. Рустамбоев М., Тухташева У. Суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар. Олий ўқув юртлири учун дарслик. (Икки жилдли. 2-жилд). – Тошкент: ILM ZIYO, 2011. – Б. 170.

### **О'ZBEKISTONNING JANUBIY SHAHARLARI KLASSIFIKATSIYASI (1946–1991-yillar)**

**Polvonov Kozimbek Naimovich**

Qarshi davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrası dotsenti, t.f.f.d (PhD),  
[kozimbekpolvonov6@mail.com](mailto:kozimbekpolvonov6@mail.com)  
ORCID-0009-0004-3468-6941  
УДК 950:711.43(012)(045)

**Аннотация:** Ushbu maqolada O'zbekistonning janubiy shaharlari, xususan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shaharlarining 1946–1991-yillardagi klassifikatsiyasi berilib, tahlilga tortilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekistonda, jumladan, uning janubiy hududlarida ham shaharlar miqdori va ulardagi aholi soni ko'payishi natijasida shaharlar toifasida o'zgarishlar bo'lganligi ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va arxiv manbalari asosida yoritib berilgan. Sovet davri va mustaqillik yillarida chop etilgan ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari qiyosiy o'rganilib, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shaharlari klassifikatsiyasidagi o'zgarishlar keltirilgan. Shu bilan birga, sovet davrida nashr etilgan statistik to'plamlarda berilgan ma'lumotlardan unumli foydalanilib, janubiy shaharlarning 1959, 1970, 1979, 1989 va 1990-yillardagi toifasi jadval va diagramma ko'rinishida ishlab chiqilgan. Tadqiqot yillarida shaharlar eng yirik, yirik, katta, o'rta va kichik shaharlar turkumiga ajratilib, respublikaning janubiy shaharlari kichik, o'rta va katta shaharlar toifasiga kirishi, asosan kichik shaharlardan iborat ekanligi dalillangan. Shuningdek, shaharlar – respublika, viloyat, tuman bo'ysunuvdagi shaharlarga bo'linishi berilgan, bu toifadagi viloyat va tumanga bo'ysunuvchi janubiy shaharlar haqidagi ma'lumotlar arxiv hujjatlari asosida aniqlangan hamda ilmiy muomalaga kiritilgan.

**Таянч so'zlar:** Shahar, janubiy hudud, viloyat, janubiy shaharlar, aholi soni, klassifikatsiya, shahar toifasi, kichik shahar, o'rta shahar, katta shahar, yirik va eng yirik shahar.

### **КЛАССИФИКАЦИЯ ГОРОДОВ ЮГА УЗБЕКИСТАНА (1946-1991)**

**Аннотация:** В статье представлена и проанализирована классификация городов юга Узбекистана, в частности городов Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей за 1946-1991 годы. На основе научной литературы, статистических данных и архивных источников освещены изменения в категориях городов Узбекистана в послевоенные годы, в том числе в его южных районах, в результате увеличения количества городов и численности населения в них. Данные научной литературы, изданной в советский период и годы независимости, были сравнительно изучены и представлены изменения в классификации городов Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей. При этом эффективно использовались данные статистических сборников, изданных в советское время, была разработана категория южных городов 1959, 1970, 1979, 1989 и 1990 годов в виде таблиц и схем. За годы

исследования было доказано, что города подразделяются на крупнейшие, крупные, большие, средние и малые, а южные города республики относятся к категории малых, средних и крупных городов, в основном малых. Также приводится деление городов на города республиканского, областного, районного подчинения, данные о южных городах областного и районного подчинения определены на основе архивных документов и введены в научный оборот.

**Ключевые слова:** город, южный район, область, южные города, население, классификация, категория города, маленький город, средний город, крупный город, крупнейший город.

**Kirish.** Ayni paytda O‘zbekistonda (2021-y.) 120 ta shahar bo‘lib, shundan 20 ta shahar, jumladan, Qashqadaryo viloyatida 12 ta, Surxondaryo viloyatida 8 ta shahar joylashgan. Bu shaharlar sovet davrida, xususan, Qarshi 1926-yilda, Termiz va Shahrizabz 1929-yilda, Denov 1958-yilda va Janubiy O‘zbekistonning boshqa kentlari 1972–1982-yillarda shahar maqomiga sazovor bo‘lgan edi. Shaharlarda aholi soni yillar davomida ortib borgan.

Shaharlar aholi soniga qarab turkumlanadi. Bu holat fanda klassifikatsiya deb nomlanib, lotincha “classis – turkum” va “fasio - bo‘laman” “turkumga bo‘laman” degan ma‘noni bildiradi[1:632]. Shaharlarni o‘rganishda ularning katta-kichikligini bilish muhim hisoblanib, juda katta ahamiyatga egadir. Kelajakda sanoat korxonalarini qurishda, ijtimoiy infrastruktura obyektlarini joylashtirishda shaharlar klassifikatsiyasi alohida o‘rin tutadi. Shu sababli shaharlarni turkumlarga ajratib, klassifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada Janubiy O‘zbekiston shaharlarining klassifikatsiyasi ilmiylik va tarixiylik tamoyiliga asoslanib, tizimli ravishda ilmiy adabiyotlar ma‘lumotlari tahlil etilgan. Shuningdek, to‘plamlarda berilgan ma‘lumotlarga tayangan holda statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Natijalar va muhokama.** Sovet davrida shaharlar aholisi soniga ko‘ra besh turkumga bo‘linib, ularda aholi soni quyidagicha belgilangan:

- 1) eng yirik shaharlar – aholisi 500 mingdan ortiq bo‘lgan;
- 2) yirik shaharlar – aholisi 250-500 ming kishigacha;
- 3) katta shaharlar – aholisi 100-250 ming kishigacha;
- 4) o‘rta shaharlar – aholisi 50 ming kishidan-100 ming kishigacha;
- 5) kichik shaharlar – aholisi 50 ming kishigacha bo‘lgan shaharlar[2:15].

1946-yilda O‘zbekistonda 26 ta shahar ro‘yxatga olingan bo‘lsa, 1970-yilga kelib ularning soni 43 taga yetgan. 1989-yilda respublikada 124 ta shahar bo‘lib, ulardan 101 tasi kichik, 7tasi o‘rta, 12tasi katta shaharlar (Angren, Buxoro, Jizzax, Marg‘ilon, Navoiy, Nukus, Olmaliq, Qarshi, Qo‘qon, Urganch, Farg‘ona, Chirchiq), 3 tasi yirik (Samarqand, Namangan, Andijon), 1 tasi eng yirik (Toshkent) shaharlar toifasiga kirgan[3:44]. Respublikadagi shaharlarning 81.4 foizi kichik va 5.6 foizi o‘rta shaharlar turkumiga kirsa, 9.6 foizi katta shaharlar edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekistonda, jumladan, janubiy hududlarda ham shaharlar miqdorida o‘zgarishlar bo‘ldi. 1947-yilda respublikada 27 ta shahar ro‘yxatga olingan bo‘lib, bu ro‘yxatga janubiy hududlar – Qashqadaryo viloyatidan Qarshi va Shahrisabz shaharlari, Surxondaryo viloyatidan Termiz shahri kiritilgan[4:13]. 1958-yilda Surxondaryo viloyatidagi Denov aholi punktiga shahar maqomi berilgan. 1959-yilda Janubiy O‘zbekistondagi jami 4 ta shaharlarning barchasi, jumladan, Qashqadaryo viloyatida Qarshi va Shahrisabz, Surxondaryo viloyatida Termiz va Denov shaharlari kichik shaharlar (aholi soni 50 minggacha) turkumida bo‘lgan. 1970-yilga kelib shaharlar toifasida biroz o‘zgarishlar bo‘ldi, Qarshi – o‘rta shahar (aholi soni 50-100 minggacha) maqomida bo‘lib, Termiz, Denov va Shahrisabz kichik shaharlar (aholi soni 50 minggacha) turkumiga kirgan.

Sovet davrida Butunittifoq aholi ro‘yxati o‘tkazilgan 1979 va 1989-yillarda Janubiy shaharlar aholisida o‘sish kuzatilib, klassifikatsiyasida o‘zgarishlar bo‘ldi. Aholisi 50 minggacha bo‘lgan kichik shaharlar 1979-yilda Qashqadaryo viloyatida 9 ta, Surxondaryo viloyatida 7 tani tashkil etgan bo‘lib, janubiy viloyatlarda Termiz o‘rta shaharlar (aholi soni 50-100 minggacha), Qarshi katta shaharlar (aholi soni 100-250 minggacha) turkumiga kirgan. Shuningdek, bu paytda yirik va eng yirik shaharlar toifasiga kiradigan shaharlar mavjud bo‘lmagan.



## Janubiy O'zbekiston shaharlari tasnifi (1979-y.)

№	Shaharlar pog'onasi	Aholi soni	Shaharlar toifasi	Qashqadaryo viloyatida	Surxondaryo viloyatida
1	I	50 minggacha	kichik shahar	Beshkent, Koson, Kitob, Muborak, Talimarjon, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, G'uzor	Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sharg'un, Sho'rchi, Sherobod
2	II	50 dan 100 minggacha	o'rta shahar		Termiz
3	III	100 dan 250 minggacha	katta shahar	Qarshi	
4	IV	250 dan 500 minggacha	yirik shahar		
5	V	500 mingdan ortiq	eng yirik shahar		
	<b>Jami</b>			<b>10 ta</b>	<b>8 ta</b>

Janubiy O'zbekistonda 1979-yilda jami shaharlar soni 18ta, jumladan, Qashqadaryoda 10 ta, Surxondaryoda 8 ta shahar[5: 13-15, 22-24] bo'lib, ularning 5.6 foizi katta, 5.6 foizi o'rta va 88.8 foizi kichik shaharlardan iborat bo'lgan.


1989-yilga kelib O'zbekistonning janubiy hududlarida shaharlar va ulardagi aholi soni ko'paydi. Xususan, Qashqadaryo viloyatida shaharlar miqdori ko'payib, 12 tani tashkil etgan bo'lsa, Surxondaryo viloyatida shaharlar soni o'zgarishsiz qolib, jami 8 ta shaharlar [6: 33-35, 41-43] bo'lgan. Bu paytda Qashqadaryoda 10 ta kichik, 1 ta o'rta va 1 ta katta shaharlar bo'lib, kichik shaharlarning ulushi 83.3 foizni tashkil etgan. Surxondaryoda esa 7 ta kichik va 1 ta o'rta shaharlar sirasiga kirgan bo'lib, 87.5 foizi kichik shaharlar hissasiga to'g'ri kelgan.

## Janubiy O'zbekiston shaharlari tasnifi (1989 y.)

№	Shaharlar pog'onasi	Aholi soni	Shaharlar toifasi	Qashqadaryo viloyatida	Surxondaryo viloyatida
1	I	50 minggacha	kichik shahar	Beshkent, Koson, Kitob, Muborak, Talimarjon, Chiroqchi, Yangi Nishon, Yakkabog', Qamashi, G'uzor	Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sharg'un, Sho'rchi, Sherobod
2	II	50 dan 100 minggacha	o'rta shahar	Shahrisabz	Termiz
3	III	100 dan 250 minggacha	katta shahar	Qarshi	
4	IV	250 dan 500 minggacha	yirik shahar		
5	V	500 mingdan ortiq	eng yirik shahar		
	<b>Jami</b>			<b>12 ta</b>	<b>8 ta</b>

Jadvalda keltirilganidek, Janubiy O'zbekistonda 1989-yilda 20 ta shahar bo'lib, shaharlar klassifikatsiyasining ko'rinishi quyidagicha bo'ldi: kichik shaharlar 17 ta (jami shaharlarning 85

foizi kichik shaharlardan iborat) bo'lgani holda, Termiz va Shahrisabz shaharlari o'rtta, faqat Qarshi shahri esa katta shaharlar toifasiga kirdi.



O'zbekistonda aholisi 100 mingdan ortiq katta shaharlar soni ko'paydi. Respublikada 1970-yilda bunday shaharlar soni 8 ta bo'lsa, 1979-yilda 13 taga yetdi. 1989-yilgi aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, O'zbekiston hududidagi shaharlarning 15 tasi aholisi 100 mingdan ortiq shaharlar safiga kirgan [7:18]. Bu paytda respublikada poytaxt – Toshkent shahri eng yirik (aholisi 500 mingdan ortiq) shahar bo'lsa, aholi soni 100 mingdan ortiq bo'lgan katta shaharlar viloyatlar kesimida quyidagicha bo'ldi. Toshkent va Farg'ona viloyatlarida 3 tadan (Chirchiq, Angren, Olmaliq va Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon) shaharlar, shuningdek, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Urganch va Qarshi shaharlari kirgan.

**Janubiy O'zbekiston shaharlarining guruhlarga bo'linishi va ulardagi aholi soni  
(1990 yil)**

Shaharlar guruhi	Shaharlar		Ulardagi aholi	
	Jami	Jamiga % hisobida	Jami (ming kishi)	Jamiga % hisobida
Shaharlar, jami	20	100	671.8	100
Shu jumladan:				
Eng yirik shaharlar (aholisi 500 mingdan ortiq)	-	-	-	-
Yirik shaharlar (aholisi 250-500 ming)	-	-	-	-
Katta shaharlar (aholisi 100-250 ming)	1	5	180.8	27
O'rtta shaharlar (aholisi 50-100 ming)	3	15	185	27.5
Kichik shaharlar (aholisi 50 minggacha)	16	80	306	45.5

1990-yilda Qashqadaryoda 12 ta, Surxondaryoda 8 ta katta shaharlar [8:206-207] bo'lib, janubiy viloyatlar shaharlarining 16 nafari kichik, 3 nafari o'rtta va 1 nafari katta shaharlar toifasiga kirgan. 1991-yilda Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrida 168 ming aholi istiqomat qilib, u katta shahar toifasiga, Surxondaryo viloyati markazida esa 90 ming aholi [9:41] yashab, Termiz o'rtta shahar toifasiga kirgan.

Shaharlar – respublika, viloyat, tuman bo'ysunuvidagi shaharlarga bo'lingan. Respublika bo'ysunuvidagi shaharlar sirasiga aholisi 500 mingdan ortiq, yirik iqtisodiy, madaniy markaz hisoblangan shaharlar kirgan.

Viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar qatoriga muhim sanoat ahamiyatiga molik, iqtisodiy va madaniy markaz hisoblangan, aholisi 30 ming kishidan kam bo'lmagan shahar yoki shahar posyolkalari kirgan. Ayrim hollarda, sanoat va madaniy-siyosiy jihatdan alohida ahamiyatga ega bo'lgan hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va aholi o'sishi borasida qulay istiqbolga ega bo'lgan shaharlar aholisi 30 mingdan kam bo'lsa ham, viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar kategoriyasiga kiritilgan.

Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar qatoriga sanoat korxonalari, kommunal xo'jaligi, davlat turar joy fondi, rivojlangan ijtimoiy-madaniy tashkilotlari, savdo-sotiq, va umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari mavjud bo'lgan hamda aholisi 7 mingdan kam bo'lmagan shahar va shahar posyolkalari kirgan [10:31]. Bunday shaharlardagi aholining uchdan ikki qismidan ko'prog'i ishchi va xizmatchilardan iborat bo'lishi lozim bo'lgan.

Sovet davrida Janubiy O'zbekistondagi ayrim shaharlarning demografik salohiyati va iqtisodiy holati e'tiborga olinib, tuman bo'ysunuvidan viloyat bo'ysunuviga o'tkazilgan. Masalan, Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy rivojlanishida Kitob, Muborak va Koson shaharlarining o'rni ortib borgan. Shu sababli 1979-yil 27-noyabrda Kitob [11:32], 1979-yil 14-dekabrda Muborak [12:32] va 1980-yil 30-mayda Koson [13:2] shaharlari viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar toifasiga kiritilgan.

O'zbekistonning janubiy hududlarida 1991-yilda jami 20 ta shahar bo'lib, shundan 7 ta shahar Qashqadaryo viloyatida – Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Koson, Muborak shaharlari, Surxondaryo viloyatida Termiz va Denov shaharlari viloyat bo'ysunuvidagi va 13 ta shahar – Beshkent, Talimarjon, Chiroqchi, Yangi Nishon, Yakkabog', Qamashi, G'uzor hamda Boysun, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sharg'un, Sho'rchi, Sherobod tumanga bo'ysunuvchi shaharlar toifasida bo'lgan.

Janubiy hududlarda, jumladan, Qashqadaryo viloyatida 1946–1991-yillar tahlil qilinganda, viloyat shaharlari klassifikatsiyasida juda katta o'zgarishlar bo'lgan. Aholi soni 50 minggacha bo'lgan kichik shaharlar 1946-yilda ikkitani tashkil etgan bo'lsa, 1991-yilda 10 ta bo'ldi. 1946-yilda o'rta (aholi soni 50-100 minggacha) va katta (aholi soni 100-250 minggacha) shaharlar umuman yo'q edi, 1991-yilga kelib Shahrisabz o'rta shahar, viloyat markazi Qarshi shahri esa katta shahar toifasiga kirdi. Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar 1946-yilda 2 ta bo'lgani holda, 1991-yilda ko'payib, 5 taga yetdi. Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar 1946-yilda umuman yo'q edi, 1991-yilda ular 7 tani tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatida esa 1946-yilda aholi soni 50 minggacha bo'lgan kichik shaharlar 1 tani tashkil etgan bo'lsa, 1991-yilda 6 ta bo'ldi. 1946-yilda o'rta (aholi soni 50-100 minggacha) shaharlar umuman yo'q edi, 1991-yilga kelib Denov va viloyat markazi Termiz shaharlari o'rta shahar toifasiga kirdi. 1946-yilda viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar 1 ta bo'lsa, 1991-yilda 2 ta bo'ldi. 1946-yilda tumanga bo'ysunuvchi shaharlar bo'lmagan, 1991-yilda bunday shaharlar soni 6 tani tashkil qilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xullas, O'zbekistonning janubiy shaharlari klassifikatsiyasi o'ziga xosdir. 1946–1991-yillarda shaharlar toifasida juda katta o'zgarishlar yuz berdi. O'tgan 45 yil davomida aholisi 50 minggacha bo'lgan kichik shaharlar 3 tadan 16 taga ko'paydi. Aholisi 50-100 minggacha bo'lgan o'rta va aholi soni 100-250 minggacha bo'lgan katta shaharlar yuzaga keldi. Mintaqa shaharlari tarkibining asosiy qismini kichik shaharlar egallaydi. Kichik shaharlar jami shaharlarning 80 % ni tashkil etadi. Tadqiqot yillarida Janubiy shaharlar tarkibida viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar miqdori 3 tadan 7 taga ko'paydi, tumanga bo'ysunadigan shaharlar yuzaga kelib, ularning soni 13 ta bo'ldi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 4-жилд. –Т.: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2005. –Б. 632.
2. Тоғаева А. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари ва шаҳар маданияти муаммолари (1950-1990 йиллар). –Т.: Yangi nashr, 2017. –Б. 15.

3. Аҳмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари. –Т.: Ўзбекистон, 1991. –Б. 44.
4. Тоғаева А. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари ва шаҳар маданияти муаммолари (1950-1990 йиллар). –Т.: Yangi nashr, 2017. –Б. 13.
5. Всесоюзная перепись населения СССР-1979. –Т., 1980. –С. 13-15, 22-24.
6. Всесоюзная перепись населения СССР-1989. –Т., 1990. –С. 33-35, 41-43.
7. Тоғаева А. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари ва шаҳар маданияти муаммолари (1950-1990 йиллар). –Т.: Yangi nashr, 2017. –Б. 18.
8. Аҳмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақилик йилларида. –Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2002. –Б. 206-207.
9. Ўзбекистон Республикаси (қискача маълумотнома. –Т.: Ўзбекистон, 1992. –Б. 41.
10. Аҳмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари. –Т.: Ўзбекистон, 1991. –Б. 31.
11. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 17-jamg'arma, 14a-ro'yhat, 1-ish, 32-varaq.
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, R-2454- jamg'arma, 6-ro'yhat, 4031- ish, 32- varaq.
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, R-2454-jamg'arma, 6-ro'yhat, 4092- ish, 2- varaq.

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT MUZEYI FAOLIYATINING  
MUZEY TURIZMDAGI O'RNI  
(XX asr ikkinchi yarmi misolida)**

**Muxamedova Munisa Sabirovna**  
Kamoliddin Behzod nomidagi  
Milliy rassomlik va dizayn instituti  
Muzeyshunoslik kafedrasini professori  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
[munisa.muhammedova@mail.ru](mailto:munisa.muhammedova@mail.ru)  
ORCID 0000-0002-7574-9724  
UDK.069:39(575.1)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Davlat San'at muzeyining XX asr ikkinchi yarmiga oid tarixiy faoliyati negizida muzey turizmining rivojiga oid amalga oshirilgan xalqaro ko'rgazmalar, lektoriylar va xalqaro konferensiyalar tashkilotchisi kabi jarayonlar tadqiq etilgan. XX asrning ilk o'n yilliklarida O'zbekistonda muzeyshunos va san'atshunos mutaxassislarni tayyorlashda tashkil etilgan malaka oshirish kurslari hamda xalqaro tadbirlarning o'tkazilishi borasida faktologik ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Muzeydagi nashr ishlari, kolleksiyalar to'plash jarayonlari hamda kompleks xarakterdagi komplektlashtirish jarayonlari atroflicha tadqiq etilgan. 1974-yilda Toshkentda me'morlar M.A. Rozenblyum, A.K. Nikiforov va I.A. Abdullovlar tomonidan kub shaklining har tomoni oyna bilan o'ralgan zamonaviy ko'rinishda loyihalashtirilib qurilgan muzey binosining qurilishi va zamonaviy ekspozitsiya yechimining ishlab chiqilishiga batafsil to'xtab o'tilgan. 1982-yilda muzey turizmida muhim ahamiyat kasb etadigan muzey pedagogikasi muammolariga doir Butunittifoq muzeylararo konferensiyasining O'zbekiston davlat san'at muzeyida tashkil etilishi jarayonlari va uning natijalari ham yoritib berilgan. Shuningdek, muzeyda ekskursiya ishlarining amalga oshirilishi, xorijiy turistlarni jalb etishdagi ko'chma ko'rgazmalar asosida filial sifatida tashkil etilgan Antikvar-zargarlik fondi muzeyi, Gilam va so'zanalar muzeyi faoliyati O'zbekiston milliy arxivida saqlangan hujjatlar va davriy nashrlardagi manbalar asosida birinchi marotaba ilmiy muomalaga kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** muzey eksponatlari, muzey turizmi, xalqaro va mahalliy ko'rgazmalar, lektoriylar faoliyati, klub, rassom ustaxonalari, maxsus darslar, antikvar zargarlik fondi, Gilam va so'zanalar muzeyi.

**РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ИСКУССТВ УЗБЕКИСТАНА  
В МУЗЕЙНОМ ТУРИЗМЕ**

(на примере второй половины XX века)

**Аннотация.** В данной статье была изучена деятельности Государственного музея искусств Узбекистана по организации международных выставок и конференций, чтения

лекций по развитию музейного туризма во второй половине XX века. Приведена фактологическая информация о курсах повышения квалификации, организованных для подготовки специалистов музееведов и искусствоведов в первые десятилетия XX века в Узбекистане, а также о проведении международных мероприятий. Детально изучены издательские дела в музее, процессы комплектования коллекций, а также процессы комплектования комплексного характера. В 1974 году в Ташкенте архитекторы М.А. Розенблюм, А.К. Никифоров и И.А. Абдуллоев подробно остановились на строительстве и разработке экспозиционного решения здания музея кубической формы, спроектированного и построенного в современном виде. В 1982 году в Государственном музее искусств Узбекистана была проведена Всесоюзная межмузейная конференция по проблемам музейной педагогики, имеющая важное значение для музейного туризма. Впервые в научный оборот на основании документов, хранящихся в Национальном архиве Узбекистана, и источников в периодических изданиях была включена деятельность музея антикварно-ювелирного фонда, музея ковров и сюзане, созданного как филиал на базе передвижных выставок по привлечению иностранных туристов, осуществлению экскурсионной работы в музее.

**Ключевые слова:** музейные экспонаты, музейный туризм, международные и местные выставки, лекционные мероприятия, клуб, мастер-классы художников, специальные занятия, Фонд антикварных украшений, Музей ковров и сюзане.

**Kirish.** Respublikada mavjud badiiy muzeylar ma'naviy-ma'rifiy muassasalarning tarkibiy qismi sifatida jamiyatda o'ziga xos o'rin tutib, ekspozitsiya va ko'rgazma faoliyati bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy va iqtisodiy islohotlarni targ'ib etib kelmoqda. Madaniy meros turli tarixiy davrlarda doimo avlodlarning mafkuraviy taraqqiyotiga zamin, bilimlar manbai, tarbiya va ta'lim vositasi bo'lib xizmat qilib kelgan. O'zbekiston davlat san'at muzeyida kolleksiyalarning to'planishi, saqlanishi va namoyish etilishi tarixi bilan birga, uning muzey auditoriyasi rivojidadagi talqinini faktologik asosda tadqiq etish muhim jarayonlardan sanaladi. Jahon muzeyshunosligida tarixiy-madaniy merosni saqlab qolishning ustuvor yo'nalishlari, ularni ilmiy tadqiq va targ'ib etish orqali muzey kommunikatsiyasini takomillashtirishni bugungi kun tartibiga qo'yimoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jahonda yirik ilmiy tadqiqot markazlari va xalqaro muzeylar kengashi tomonidan tarixiy-madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish hamda muzeylar faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida turizm xizmatlar bozorini rivojlantirish va tarmoq yo'nalishlarini kengaytirishga oid masalalarni o'rganish ilmiy yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. O'zbekiston davlat san'at muzeyi faoliyati va muzey evolyutsiyasiga nazar solsak, 1918–1924-yillar davomida Markaziy badiiy muzey sifatida faoliyat yuritgan. 1924–1929-yillarda Toshkent san'at muzeyi nomi bilan atalgan. 1929–1934-yillarda muzey konservatsiya jarayonlar sababli yopilgan. 1934–1949-yillarda O'zbekiston SSR san'at muzeyi, 1949–1991-yillarda O'zbekiston SSR davlat san'at muzeyi, 1991-yildan boshlab O'zbekiston davlat san'at muzeyi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Maqolada xronolik asosda muzey rivojining faktologik asoslari tizimli tahlil asosida o'rganildi. Muzey faoliyatining tomoshabinlar tashrifi va rivojlanish bosqichlari qiyosiy tahlil etildi.

**Natijalar va muhokama.** 1918-yil 19-aprelda Toshkentda Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining dekretiga binoan san'at maskani tashkil etildi. U 1924-yilgacha Markaziy badiiy muzey, 1924-yildan 1929-yilga qadar esa Toshkent san'at muzeyi nomlari bilan atalib kelinardi. Shu yillarda atigi 350 dona eksponat bo'lib, u ham G'arbiy Yevropa va rus san'ati asarlaridan iborat edi[1].

1929–1935-yillar orasida maxsus bino yo'qligi tufayli muzey vaqtincha ishlamadi. Sharoitga ko'ra 1935-yilda muzey eksponatlarini xalqqa namoyish etishni davom ettirish uchun sobiq fabrika binosi (keyinchalik 1996-yilgacha faoliyat yuritgan Elektrotexnika zavodi) ajratildi. U yana qo'nim topmadi, 1948-yilda Kafanov nomidagi klubga ko'chirildi. Bu bino 1900-yilda teatr tomoshalari uchun arxitektorlar Lexanov va Markevichlar loyihasi asosida qurilgan edi. Shu davrlarda muzeyga rassom A.Volkov, V. Afanasev, U. Ismoilovlar rahbarlik qilishdi. Dastlab, toshkentlik tomoshabinlarni chet el va rus san'ati bilan tanishtirgan muzey xodimlari milliy san'at

namunalarini to'plashga kirishdilar. 1930-yillarda Toshkent va Buxoro hududlariga ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi, ularga etnograf olim M.S. Andreyev va tarixchi N.V. Rusinolar boshchilik qilishdi. Respublikaning ko'pgina hududlari, tuman va qishloqlaridan xalq ijodiyoti namunalaridan to'plandi, amaliy san'at turlari asosida xalq san'ati bo'limlari ochildi. Rus rassomlari R.K. Zomer, I.S. Kazakov, L.L. Bure, O.K. Tatevosyan, A.N. Volkov va ular ustozligida yetishib chiqqan mo'yqalam sohiblari asarlari asosida ko'p o'tmay respublika tasviriy san'at bo'limi ham tashkil etildi[2].

Keyingi yillarda esa qardosh respublikalar va Sharq san'ati bo'limlari vujudga keldi. 1935-yildan O'zbekiston davlat san'at muzeyida, 1980-yildan olti bo'lim tashkil etildi, eksponatlar soni qirq mingdan oshib ketdi. 1946–1956-yillar mobaynida muzeyga jonkuyar rassom Shamsiro'y Hasanova rahbarlik qildi. U badiiy bilim yurtini tugatgach, ijod qilish bilan birga, bir necha yil san'at muzeyining oddiy ekskursavodi bo'lib ishlagan. 1946–1953-yillarda O'zbekiston muzeylarida moddiy-texnik bazasining yetishmasligi tufayli asosan ko'rgazma tipidagi ekspozitsiyalar tashkil etila boshlandi. Shuningdek, 1955-yillarga kelib esa rayon madaniyat uylarida ham ko'chma ko'rgazmalar ochildi. "Bu ko'rgazmalarda rassomlik, haykaltaroshlik va grafikaga doir 100 ga yaqin asarlar namoyish etildi. Bular O'zbekiston San'at muzeyi fondidan olingan bo'lib, asosan rus rassomlari – I.E. Repin, I. Levitan, I. Shishkinning ijodiyoti bilan, shuningdek, sovet rassomlarining ishlari bilan tanishtirar edi" [3].

1961-yildan boshlab, Respublika san'at muzeyida "Tasviriy san'at asoslari" mavzusida lektoriy tashkil qilinib, uning yil ish rejaları va ma'ruzalar nomi "Qizil O'zbekiston" gazetasining "E'lonlar" ruknida nashr ettirib turildi. Lektoriyda "Tasviriy san'atning turlari va janrlari", "Rasmga qanday munosabatda bo'lishi kerak", "Dekorativ va amaliy san'at" va boshqa mavzularda muzeyning ilmiy xodimlari leksiya olib bordi [4]. Ushbu lektoriylar faoliyatida san'atshunos olimlar, filologlar, ekskursavod-gidlar va talabalar ishtirok eta boshladi.

1966-yil muzey binosi tabiiy ofatdan shikastlandi. O'sha yillardagi muzey direktori S. Abdullayev, bosh saqllovchi T. Abdullayev, ta'mirlovchi A. Yo'ldoshev va boshqalar boshchiligida eksponatlar ko'chirila boshlandi. Eksponatlarni beshikast joylashtirishda muzeyning barcha xodimlari, Toshkent teatr va rassomlik instituti talabalari ter to'kib ishladi. Oradan yetti yil o'tgach, eski muzey binosi o'rniga yangi – quyosh nurlarini aks ettiruvchi, oynavand bino qad ko'tardi.

O'zbekiston davlat san'at muzeyi asosiy vazifasi ekskursiya ishi sifatida bo'lib, 1970-yillarga kelib muzeyda sayyohlar oqimi ko'paydi. Muzeyga kunlik tashriflar 300 kishigacha bo'lgan bo'lsa, bayram kunlari 2000 kishigacha yetar edi. Bu jarayon yiliga 100 ming tomoshabin ko'rsatkichigacha yetdi[5]. Muzey rahbariyati bu borada muzeyga xorijiy delegatsiyalar tashrifi ko'pligini inobatga olgan holda muzey tomoshabinlari orasida san'at asarlari va muzey ashyolari targ'ibotida Moskva va Leningrad muzeylaridagi kabi kiosklarni ommalashtirish taklifi bilan chiqadi. Muzeyda 18262 kishiga 234 ta ekskursiya tashkil etildi[6]. O'zbekistonning eng yaxshi rassomlari broshyurasi nashrga tayyorlandi. Muzeyda ekskursavod mutaxassislar yo'qligi tufayli asosan ilmiy xodimlar ekskursiyalar olib borar edilar. Muzey bu vaqtda ikkita binoda faoliyat olib borar edi. Ekspozitsiya va fond obyektlaridan iborat binolarning asosiy fond saqlov qismi va restavratsiya bo'limi shahardan tashqarida Do'rmon qishlog'ining "Qizil O'zbekiston" kolxozi madaniyat saroyida ish olib borar edi. Muzeyning umumiy maydoni 1853 m<sup>2</sup> bo'lib, undan 736 m<sup>2</sup> ekspozitsiyaga band qilingan edi[7].

Bu vaqtda muzeyda quyidagi ilmiy bo'limlar faoliyat olib borar edi:

1. Rus san'ati bo'limi (XV asr boshlari - XX asr.)
2. G'arbiy Yevropa san'ati bo'limi (XIV – XX asr. Italiya, Flandriya, Gollandiya, Fransiya va Angliya san'ati).
3. O'zbekiston amaliy san'ati (I - XX asrlar. Asosiy eksponatlar XIX - XX asrlarga oid bo'lib, faqatgina mayda haykaltaroshlik va keramika ashyolari I, VIII, X asrlar qamrovida berilgan edi).
4. O'zbekiston tasviriy san'ati bo'limi (ikkitadan zaldan iborat bo'lib, 1930-yildan boshlab zamonaviy rassomlar ijodi qamrab olingan edi).

Muzeyda turli universitetlar tingovchilari uchun lektoriylardan tashqari rassom

ustaxonalarida ham maxsus darslar tashkil etila boshladi. Lektoriyda 12 ta mavzuda yiliga 100 dan ortiq leksiyalar o'qilar edi. Muzey ekspozitsiyasining badiiy holati yaxshi bo'lmay, aksariyat shitlar, shkaf va vitrinalar eskiligidan ekspонатning tarixiy badiiy qiymatini ochib bermas edi. 1973-yilga kelib muzeyda ekskursiya ishlari kengaydi, shu yili muzeyga 52 ta xorijiy davlatdan turistlar tashrifi qayd etildi [8].

1982-yilda muzey turizmida muhim ahamiyat kasb etadigan muzey pedagogikasi muammolariga doir Butunittifoq muzeylararo konferensiyasi tashkil etildi[9]. 11-oktyabr kuni Toshkentda ochilgan konferensiya "Muzey va bolalar" mavzusida bo'lib o'tdi. Unda qatnashgan moskvalik, leningradlik, shuningdek, qardosh respublikalardan kelgan san'atshunoslar, rassomlar, pedagoglar asosan san'at muzeylarining bolalar bilan ishlash nazariyasi, metodikasi va praktikasiga doir aktual masalalarini ko'rib chiqdilar. "Uchrashuv Davlat Tretyakov galereyasi va O'zbekiston SSR Davlat san'at muzeyining tashabbusi bilan uyushtirildi. Milliy va jahon san'atining badiiy durdonalari asosida estetik tarbiya sohasida katta ish olib borayotgan O'zbekiston muzeylari bu tajribaga katta hissa qo'shdilar. Respublika maktablarining badiiy galereyalari ochildi, mo'yqalam ustalari ularga o'zlarining yuzlab asarlarini tortiq qildilar.

Shu boisdan ham bu mavzudagi birinchi konferensiyani O'zbekiston poytaxtida o'tkazishga qaror qilindi"[9]. Konferensiya ishining birinchi kunida Davlat Tretyakov galereyasining ilmiy sekretari V.M. Petyushenko, O'zbekiston xalq rassomi A. Abdullayev, SSSR Pedagogika fanlari akademiyasi Badiiy tarbiya ilmiy-tadqiqot institutining bo'lim mudiri B.P. Yusov va Toshkent uchrashuvining qatnashchilari so'zga chiqib, nafasat dunyosi bilan muloqotda bo'lishni katta hayot yo'liga kirib kelayotgan insonning zaruriy ehtiyojiga aylantirishga ko'maklashayotgan, uni ma'naviy boyitayotgan, his-tuyg'ularini shakllantirayotgan muzeylar ishidan misollar keltirdilar. Ko'rsatib o'tilgan misollar orasida Yerevandagi jahonning birinchi Bolalar surat galereyasi tajribasi xususida ham ma'lumotlar keltirib o'tildi. Bu surat galereyasi estetik tarbiyaning markazi bo'lib qoldi. Moskvadagi A.S. Pushkin nomli tasviriy san'at muzeyining tajribasi ham diqqatga sazovor edi. Bu yerda 4-5 yoshli bolalar uchun eksperimental gruppа ochilgan. "Leningrad Rus muzeyining xodimlari hunar-texnika bilim yurtlari o'quvchilarini otaliqqa olishgan, muzey xazinasida saqlanayotgan 360 mingta tasviriy san'at, haykaltaroshlik, grafika, xalq va dekorativ amaliy san'ati asarlari bilan muloqotda bo'lish quvonchini his etishga yordam berdi [9]". Bir necha kun davom etgan konferensiya qatnashchilari yosh avlodni estetik jihatdan tarbiyalash ishining samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalarini ishlab chiqishga qaratildi.

O'zbekiston Ministrlar Sovetining 1984-yil 19-martdagi №23-28-14 sonli qaroriga asosan Qabullar uyi (Pionerlar saroyi) O'zSSR Davlat San'at muzeyiga filial sifatida beriladi[10]. Bu yerda muzeyning Antikvar-zargarlik fondi ko'rgazmasi tashkil etilishi nazarda tutilgan edi. Bu davrda muzeyning 3 ta filiali mavjud bo'lib, ular – O'rol Tansiqboev uy muzeyi, Gilamlar va so'zanalar ko'rgazmasi hamda Romanov saroyidagi Antikvar-zargarlik fondi ko'rgazmasi edi.

Antikvar-zargarlik fondi ko'rgazmasi 899, 25 m<sup>2</sup> ni tashkil etib, 376 m<sup>2</sup> 9 ta xona ekspozitsiya uchun va umumiy 123m<sup>2</sup> ega 6 ta xona xodimlar uchun ajratilgan edi. Muzeyni qo'riqlash tizimini tashkil etishda Ermitajning zargarlik ashyolari fondi, Qurol- aslaha palatasi va Tbilisining oltin xazinaxonasi fondlarining tajribasi o'rganildi. 1984-yilning oxiriga kelib Samarqanddagi Tillaqori madrasasida Xalq me'morchiligi muzeyi ham tashkil etildi. Sobiq "Sharq" mehmonxonasi binosida esa Gilam va so'zanalar muzeyi ham tashkil etildi [11]. 1984-yil mobaynida O'zbekistondagi mavjud 33 ta muzeylarga 5,5 mln tomoshabin tashrifi qayd etildi. Ulardan badiiy muzeylarga - 300.000 kishiga 8 mingdan ortiq ekskursiyalar va 100 dan ortiq ko'chma ko'rgazmalar tashkil etilgan edi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu muzeyni keng propaganda qilish yo'lida ko'pdan beri kutilgan filiallari ochilishi ham tomoshabinlar oqimini oshirdi. 1979-yilda muzey fondidan saralab olingan asarlar asosida SSR xalq rassomi O'rol Tansiqboevning uy-muzeyi tashkil etildi. 1984-yilda esa sobiq sovet ittifoqida yagona gilam va so'zanalar muzeyi ochildi. Muzey avval Turkiston harbiy frontining shtabi va keyinchalik "Sharq" mehmonxonasi bo'lgan binoga joylashtiriladi. Binoni O'zbekiston SSR Madaniyat ministrligiga qarashli "Me'mor" ilmiy ishlab

chiqarish birlashmasi xodimlari qaytadan restavratsiya qildilar. Muzeysga besh yuzga yaqin eksponatlar qo'yilgan bo'lib, bu eksponatlarining aksariyati XIX asrga oid bo'lib, o'zbek xalqining gilamdo'zlik va kashtachilik tarixidan hikoya qiladi. Muzeyning birinchi qavatidan Samarqand, Surxondaryo va Sirdaryo gilamlari o'rin olgan. Xiva gilam kombinati mahsulotlariga esa alohida ekspozitsion zal ajratilgan edi. So'znanalar muzeyning ikkinchi qavatiga qo'yilgan bo'lib, asosan Farg'ona vodiysi hamda buxorolik chevarlar tomonidan tikilgan so'znanalar xorijiy turistlarda katta taassurot qoldirdi [12].

Antikvariat va zargarlik san'ati muzeyi nomi va mustaqil badiiy va ilmiy muzey statusi 1988-yil may oyida O'zbekiston SSR Madaniyat vazirligining 1988-yil 25-may № 18 sonli qarori bilan tasdiqlandi. Rasman muzey o'z faoliyatini 1988-yil 25-maydan boshladi. Muzey hududagi yagona shu tipdagi muzeylardan sanalar edi. Bu yerda ilmiy, tarixiy va badiiy ahamiyatga ega xalq amaliy bezak san'ati namunalari, qimmatbaho metall va toshlardan ishlangan zargarlik buyumlari joy olgan edi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 16-yanvardagi №35 sonli qaroriga binoan muzey faoliyati tugatildi.

Badiiy muzeylar orasida O'zbekiston davlat san'at muzeyi eng yirik badiiy muzey sanalib, bugungi kunda o'zining ilmiy-oqartiruv, ekspozitsiya va nashr ishlari bilan jonli faoliyat yuritmoqda. Madaniy turizm rivojida turli xil kategoriyadagi tomoshabinlar, muzeylarga tashrif buyuruvchilar bilan ishlash, ularning hayotiy mavqeyini ijodiy faolligi va ma'naviyati rivojiga e'tibor qaratish asosiy o'ringa qo'yiladi. O'zbekiston davlat san'at muzeyi bugungi kunda muzey turizmida tarixiy, badiiy, estetik va ilmiy savodni oshirishga xizmat qiluvchi maskandir. Turli davr, tarix va jamiyatlarning izlari muhrlangan eksponatlarining qiziqarli namoyishi bilan birga, muzey faoliyatiga doir tarixiy jarayonlarning faktologik asosda o'rganilishi ham muhim jarayonlardan sanaladi.

#### Foydalanilgan manbalar ro'yhati

1. Дўстоев Т. Хазина (Ўзбекистон ССР давлат санъат музейи 50 ёшда). Ўзбекистон Совет Ўзбекистони санъати. 6/1988. Б. 22.
2. Дўстоев Т. Хазина (Ўзбекистон ССР давлат санъат музейи 50 ёшда). Ўзбекистон Совет Ўзбекистони санъати. 6/1988. Б. 22
3. Кўчма бадий виставкалар. Қизил Ўзбекистон. 1956 йил 3 январь.
4. Худойберганов К. Музейда лекторий. Қизил Ўзбекистон. 21 февраль. 1961 йил.
5. Ўзбекистон миллий архиви. Ф 2296. Рўйхат 6. Йиғмажилд 98. 2 варрак. (Отчёты и справки о работе отдела по развитию изобразительного искусства УзССР).
6. Ўзбекистон миллий архиви. Ф 2296. Рўйхат 6. Йиғмажилд 102. 2 варрак. (Отчёты и справки о работе отдела по развитию изобразительного искусства УзССР).
7. Ўзбекистон миллий архиви. Ф 2296. Рўйхат 6. Йиғмажилд 98. 12-13 варрак. (Отчёты и справки о работе отдела по развитию изобразительного искусства УзССР).
8. Ўзбекистон миллий архиви. Ф 2296. Рўйхат 5. Йиғмажилд 25. 23 варрак. (Главное управление искусств Министерства культуры и искусства. Отчёты и справки о работе отдела по развитию изобразительного искусства УзССР).
9. Маҳкамов С. Музей ва болалар. Ўзбекистон маданияти. 1982 йил. 15 октябрь. №42.(2678)
10. Ўзбекистон миллий архиви. Ф-2296. Рўйхат 7. Йиғмажилд 299 а. 115 варрак. (Документы о создании Антикварно-ювелирного фонда Гос. Музея искусств УзССР (приказы, акты, списки, справки)).
11. Ўзбекистон миллий архиви. Ф-2296. Рўйхат 7. Йиғмажилд 299. 3 варрак. (Справки о развитии музейного дела в республике за 1984 года).
12. Гиламдўзлик ва каштачилик музейи. Ўзбекистон маданияти. 21 декабрь. №51. (2791)



**ПРОБЛЕМЫ КОЛОНИЗАЦИИ В АНГЛИЙСКОЙ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ В XVI-XVII ВВ.****Вайсова Нодирабегим Авазовна,**

и.о.доцента (PhD),

Национального Университета Узбекистана

им. Мирзо Улугбека

[vaisovanodirabegim86@gmail.com](mailto:vaisovanodirabegim86@gmail.com)

ORCID 0009-0002-5459-2227

УДК 93/94,327,339.9

**Аннотация.** В данной статье приводятся сведения о проблемах колонизации в английской общественно-политической жизни в XVI - XVII вв. Отмечается, что торговцы были первыми, кто начал настоящую колонизацию. У купцов была гораздо более ясная мотивация, чем желание приобрести охотничьи угодья для дворянства, а главное, у них имелось готовое средство для осуществления колонизации. Отдельное внимание уделено проблемам колонизации в английской общественной жизни в XVI - XVII вв. Христианство, действительно, стало важным фактором для колонизации, когда в нее включились пуритане и другие религиозные диссиденты. Как известно, первые торговые компании были основаны в Англии в средние века. Следовательно, это государство имеет многовековой опыт в области торговли и экономики.

Внешняя торговля и политика торговых компаний Англии являются образовательной системой, сочетающей в себе важнейшие тенденции экономики, что может послужить построению нового, объективного мировоззрения в обществе, дипломатических отношений с государствами в сфере торговли и внедрению новых инвестиций, процветанию среднего и малого бизнеса.

**Ключевые слова:** колонизация, торговля, экспедиция, реформация, коммерция, личная свобода.

**Аннотация.** Ushbu maqolada Angliya davlatida XVI - XVII -asrlarda jamoat va siyosiy hayotidagi mustamlakachilik muammolari haqida ma'lumotlar mavjud. Qayd etilishicha, savdogarlar birinchi bo'lib haqiqiy mustamlakachilikni boshlaganlar. Savdogarlar zodagonlar uchun uy joylarini egallash istagidan ko'ra aniqroq motivatsiyaga ega edilar va eng muhimi, ular mustamlakachilikni amalga oshirish uchun tayyor vositalarga ega edilar. XVI - XVII -asrlarda inglizlar ijtimoiy hayotida mustamlakachilik muammolariga alohida e'tibor berilgan. Xristianlik puritanlar va boshqa diniy dissidentlar qo'shilganda mustamlaka uchun muhim omil bo'ldi. Ma'lumki, savdo kompaniyalari Angliyada o'rta asrlarda birinchilardan bo'lib tashkil etilgan. Demak, bu davlat savdo va iqtisodiyot sohasida ko'p asrlik tajribaga ega.

Angliya savdo kompaniyalarining tashqi savdosi va siyosati-bu jamiyatdagi yangi, obyektiv dunyoqarashni qurishda xizmat qilishi mumkin bo'lgan iqtisodiyotning eng muhim tendetsiyalarini birlashtirgan ta'lim tizimi. Shu bilan birga, bu savdo va yangi investitsiyalarni joriy etish, o'rta va kichik biznesning gullab-yashnashi sohasidagi davlatlar bilan diplomatik munosabatlarga yordam beradi.

**Калит so'zlar:** mustamlaka, savdogarchilik, ekspeditsiya, islohot, tijorat, shaxsiy erkinlik.

До 1580-х гг. колонизация не занимала умы англичан. Философы и публицисты концентрировались на проблемах Реформации и королевской власти, а также на бурных социальных процессах внутри самой Британии. Стабилизация политической обстановки при Елизавете I, экспедиции Фрэнсиса Дрейка и других корсаров, противостояние с испанцами, торговые успехи английских купцов изменили эту ситуацию. Елизаветинские интеллектуалы наконец обратили внимание на Новый Свет. Публицисты стремились распространить интерес к колонизации при дворе и среди влиятельных купцов. Они чувствовали, что их держава, первая среди протестантских государств, опоздала с освоением Америки и потому неизбежно проигрывает как католическому миру в лице Испании и Португалии, так и дружественным Соединенным Провинциям. Они предпо-

лагали также, что большая часть внутренних проблем Англии коренится в этом опоздании.

Наиболее яркими авторами колониальной литературы в конце XVI в. стали кузены Хаклюйты (оба носили имя Ричард) и сэр Уолтер Рэйли.

Наиболее плодовитым был младший Ричард, который собирал материалы об открытиях Нового Света и в 1590 г. издал масштабную «Книгу путешествий», а также писал проекты устройства будущих колоний и петиции к королеве. Рэйли сконцентрировал свое внимание на испанских текстах, стремясь использовать свои знания для того, чтобы найти земли, которые Англия могла бы занять, не привлекая внимание католических монархов [1].

Эти авторы были одновременно и историками колонизации, и ее главными пропагандистами. Складывалась односторонняя ситуация: узнать об истории освоения новых земель можно было только от людей, которые настаивали на необходимости англичан включиться в эту гонку. Трудности колонизации не замалчивались, но описывались только в качестве препятствий, преодоление которых должно было еще больше увеличить славу короны и престиж путешественника [2].

Критики колониционных проектов были либо пессимистами, которые сомневались в успехах столь трудного предприятия, или сторонниками освоения Ирландии, которая была ближе и, якобы, по праву принадлежала английской короне [3]. Можно сказать, что необходимость колонизации быстро стала общим местом публицистической литературы.

Аргументы, которые высказывались за то, чтобы англичане обратили свое внимание на Новый Свет, были самыми разнообразными. Часто повторялись общие слова о славе нации и короны, об изобилии американских континентов, о перенаселенности Англии, которая нуждается в новых территориях. Некоторые авторы доходили до комических деталей. Например, один из них указывал, что в Америке много диких зверей, а это сможет удовлетворить потребность джентри в охоте [4]. Но с первых практических шагов колонизации подобные абстрактные аргументы потеряли всякое значение. Требовалось нечто большее, чем наивные планы и расплывчатые обещания. Люди, отправлявшиеся в Новый Свет, в полную неизвестность, хотели точно знать, что им предстоит там делать.

Напутствуя виргинскую экспедицию 1585 г., старший Хаклюйт писал о конечных целях экспедиции следующее: «Распространять христианство. Вести торговлю. Завоевывать. Или делать все это вместе» [5]. Однако до 1585 г. англичане никогда не реализовывали ни один из пунктов этой программы. Их влияние в Новом Свете базировалось исключительно на пиратских рейдах на испанские и португальские суда, шантаже южноамериканских форпостов и рыбных промыслах в Нью-фаундленде, которые не играли для англичан большой роли до начала XVII в [6].

Пассаж о завоевании (conquest) отсылает нас к опыту Испанской империи. К 1580-м гг. ее успехи были ошеломляющими. Богатства Нового Света позволили этой католической державе господствовать в Европе, вести многочисленные войны и преследовать протестантизм везде, где только можно. Англичане стремились всячески очернить испанцев, воодушевленно распространяя сообщения об их зверствах в Америке, но игнорировать эти результаты они не могли.

Заемствованный из арсенала католических королей термин «завоевание» далеко не всегда был обязательным атрибутом колонизации.

Так, для голландцев главным принципом колониального владения была торговля, а португальцы настаивали на том, что владеют Новым Светом по праву первооткрывателей [7]. В случае с Испанией завоевание было основным инструментом как осуществления, так и оправдания колонизации. Оно не было просто актом войны, а предполагало разработанный протокол, включавший в себя обязательное зачитывание специального текста «Требования», в котором коренным жителям предлагалось добровольно признать власть испанской монархии, папы римского и католической церкви. В таком случае туземцы сохраняли свободу и даже могли не обращаться в католицизм до поры до времени. При отказе завоеватели обещали поработить и уничтожить всех, кто встанет у них на пути.

Вина тогда ложилась на тех, кто отказался от первой части «требования». Хотя многие испанцы критиковали этот документ как жестокий и противоречивый (в том числе известный миссионер и историк Бартоломео де Лас Касас), протокол соблюдался неукоснительно. Перед ночным рейдом или неожиданной атакой капитан испанцев обязательно зачитывал «Требование» [8].

Практическим результатом такого завоевания становилось включение коренных жителей в систему подданства (пусть и неравноправного) той державы, что осуществляла колонизацию. У завоеванных народов, если они покорялись немедленно, оставалось имущество и личная свобода, а обязанность выплачивать налог и признать господство короля и церкви оборачивалось определенными правами.

Идея о приобретении вместе с новыми землями и новых покорных подданных была привлекательна для английской монархии. Парадные выходы и театральные постановки-маски часто включали экзотических персонажей-туземцев, которые выражали покорность короне и несли дары Нового Света. Но не все английские теоретики колонизации восприняли эту идею завоевания [9].

Несмотря на однозначное мнение Хаклюйта, завоевание на испанский манер не было возможно в условиях английской колонизации. В случае с испанцами эта практика родилась в результате столкновения воинственного иберийского дворянства и организованных государств южной и центральной Америки. Малочисленные английские колонисты первых экспедиций не могли и не стремились повторить рыцарские подвиги конкистадоров.

Более того, некоторые авторы, такие как Уолтер Рэйли, считали, что англичане должны предложить жителям Нового Света нечто противоположное завоеванию. Культивируя «черную легенду» о жестокости испанского владычества, английские теоретики часто говорили о защите индейцев от католических держав и заключении с ними союзов [10]. Подобную практику успешно применяли французы, которые приобретали земли на основании якобы добровольных просьб коренных жителей о подданстве и подписания союзнических договоров [11]. Но в реальности непрочные союзы с индейцами часто оборачивались катастрофой, и чем дальше, тем больше жители Британии и даже монархи теряли интерес к коренным жителям как к подданным.

Однако утопическая идея об английских джентри, которые правят покорными индейцами, еще возникнет в Новой Англии в поселении Томаса Мортон, которое составляло конкуренцию колонии отцов-пилигримов, Новый Плимут.

Рядом с завоеванием говорится о торговле. Коммерция действительно была предметом заботы английских купцов и многих дворян, показателем успеха колониального предприятия. Но идея торговли не принадлежала испанцам. Они подчиняли местное население и заставляли его платить подати, а сами присваивали богатства в виде драгоценных металлов и обширных земель под плантации. Торговля была краеугольным камнем двух других держав того времени- Португалии и Голландии. Последняя активизировалась на волне Войны за независимость.

Если истории о завоевании американских империй импонировали прежде всего джентри, то купцы крупных английских городов и, в первую очередь, Лондона видели своим идеалом основателей торговых факторий в Новом Свете и Индии. Даже образы, связанные с колонизацией, различались при дворе и в Сити. Во время парадных выходов лорд-мэра в Лондоне.

Использовались аллегии богатства и колониальных товаров (прежде всего специй), добытых в Новом Свете [12].

Торговцы были первыми, кто начал настоящую колонизацию. У купцов была гораздо более ясная мотивация, чем желание приобрести охотничьи угодья для дворянства, а главное, у них имелось готовое средство для осуществления колонизации: речь идет об акционерных компаниях. Если самые первые экспедиции были частными авантюрами при поддержке королевской власти, то впоследствии по образцу Московской и Левантийской

компаний были созданы объединения, кото-рые собирались получить прибыль от освоения территорий Северной Америки [13].

Однако не стоит думать, что устремления торговцев Лондона и других крупных городов шли в разрез с идеями Хаклюйта или Рэйли. Торговля в колониях должна была не только принести чистую прибыль, но и способствовать усилению позиций Англии, снизить ее зависимость от испанского табака, португальского сахара, от пеньки и других товаров из Московского царства. Этот меркантилистский подход игнорировал риторику завоевания или подданства коренных жителей, но был напрямую связан с тем патриотическим подъемом, что охватил Англию, когда она обратила свое внимание на колонии.

Этот подъем не исключал и идеализма. Торговля, которую прославляли в лондонском Сити, иногда была не меньшей абстракцией, чем владения и завоевание. Например, внимание, уделявшееся английскими купцами экспедициям в Северную Америку и Ньюфаундленду, было результатом попытки найти северный путь в Китай и Индию, то есть осуществить замысел Колумба. Более того, Джон Кэббот, первооткрыватель Ньюфаундленда, утверждал, что действительно нашел этот проход и был при дворе «Великого хана» [14].

В некоторых предприятиях идеализм купцов соединялся с рыцарскими поисками придворных фаворитов. Именно торговцы финансировали экспедицию Уолтера Рэйли в Гвиану, целью которой было найти золотой город Эльдорадо [15].

Этот и также тот факт, что большинство акционерных компаний были убыточны, а представления о том, какой именно торговой деятельностью надо заниматься на той или иной территории, абстрактны: они характеризуют рационализм и прагматичность торговцев на этом этапе колонизации. Все, что требовалось в Америке, по мнению сторонников торговой колонизации, - это приложить немного усилий, а дальше предприятия без всяких проблем начнут приносить прибыль.

Образцом для подобной торговой деятельности англичан были успехи португальцев и голландцев в Индии и Индонезии. Предполагалось, что американские индейцы жаждут включиться в процесс обмена товарами, нужно лишь построить торговые фактории, и богатства Нового Света потекут в Англию сами собой. Идея факторий была привлекательна и с точки зрения экономии средств. Сплоченная общность горстки колонистов, которая бы не тратила время ни на что другое, кроме как на торговлю или добычу ресурсов, должна была стать идеальной моделью получения прибыли. На практике же такой подход тормозил развитие настоящих поселений [16].

Фрэнсис Бэкон в своем эссе о колонизации обвинял купцов в том, что в рамках такого проекта у колонистов не останется сил на развитие поселения и что они оказываются в полной материальной зависимости от метрополии [17]. Опасение философа подтвердилось на практике. Те, кто выращивал табак в Виргинии, чуть не умерли с голоду, так как пренебрегли продовольственными культурами. Многие фактории быстро попадали в зависимость от коренных жителей, которые поставляли им и продукты питания, и богатства для отправки в метрополию. Моральное состояние колонистов от многих дней безделья и изоляции часто было удручающим. Все же идея такого колониального предприятия была самой популярной в начале XVII в., и даже отцы-пилигримы должны были стать участниками торговой фактории.

#### Список использованной литературы

1. Hakluyt R. The Principall Navigations, Voiages, and Discoveries of the English Nation. London, 1589;
2. Jones H.M. Reviewed The Colonial Impulse: An Analysis of the «Promotion» Literature of Colonization. //Proceedings of the American Philosophical Society. 1946. Vol. 90. No. 2. P. 140.
3. Джон Уайт описал аргументы тех, кто был сторонником Ирландии: «Если у нас есть лишние люди, Ирландия будет лучшим местом для них, чем Новая Англия. Так как она (Ирландия. — К.С.): 1. Ближе. 2. Принадлежит нам. 3. Во многом не заселена. 4. Плодородна». См.: John White's Planters plea. London, 1630.P. 15.

4. Armitage D. The Ideological Origins of the British Empire. Cambridge; New York, 2000. P. 41.
5. The Original Writings and Correspondence of the Two Richard Hakluyt's / Ed. by Taylor E.G.R. London, 1935.
6. Cell G.T. English Enterprise in Newfoundland 1577–1660. Toronto, 1969.
7. Seed P. Ceremonies of Possession in Europe's Conquest of the New World, 1492–1640. Cambridge, 1995. P. 100, 149.
8. Seed P. Ceremonies of Possession in Europe's Conquest of the New World, 1492–1640. P. 69–72.
9. Bach R.A. Colonial Transformations: The Cultural Production of the New Atlantic World, 1580–1640. New York, 2000. P. 151.
10. Harcourt R. A Relation of a Voyage to Guiana. P. 74.
11. Seed P. Ceremonies of Possession in Europe's Conquest of the New World. P. 41–43.
12. Bach R.A. Colonial Transformation: P. 149–151.

#### QO'QON XONLIGINING XVIII-XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA BO'LGAN DAVRDA QO'NG'IROTLAR BILAN O'ZARO SIYOSIY ALOQALARINING AHAMIYATI

**Dusaliev Muysin Tura o'g'li**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Tarix” kafedrası o'qituvchisi

[muysin454@gmail.com](mailto:muysin454@gmail.com)

ORCID 0009-0007-5427-4161

UDK 94(575.1)

**Annotatsiya.** Ma'lumki, O'rta Osiyoda mavjud uch xonlikda o'z davrida hokimiyat tepasida hukmron sulolalar almashinib turgan. Har bir hukmron sulolaning qo'shni xonlikdagi hukmron sulolalar bilan o'zaro tashqi aloqalari turli davrda turli jarayonda kechgan. Bunga, albatta, hukmron sulola vakillarining qo'shni mamlakatlarga nisbatan siyosiy qarashlari turli xil bo'lganligi sabab bo'lgan. Xuddi shu tarzda Xiva xonligida ham XVIII asrning 70-yillarida hokimiyat tepasiga Shayboniylarning o'rniga Qo'ng'irotlar keldi. Xonliklarning mintaqada gegemonlikni qo'lga kiritish uchun harakat qilayotgan bir davrda Buxoro va Xiva xonliklari o'rtasidagi siyosiy muhit Qo'qon xonligini Xiva xonligida hokimiyat tepasiga kelgan Qo'ng'irotlar bilan yaqinlashtirdi. Bu yaqinlashish, albatta, Buxoroning qaramligidan butunlay ozod bo'lishga harakat qilayotgan Qo'qon xonligiga juda ham maqbul tushgan edi. O'rta Osiyoda mavjud xonliklar tepasida hukmron sulolalarning siyosiy boshqaruvi, o'zaro siyosiy aloqalari tarixini o'rganish, tadqiq qilish, albatta, bugungi kunda juda ham muhim ahamiyatga ega va dolzarb. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada Qo'qon xonligining Xiva xonligida XVIII asrning 70-yillarida hokimiyat tepasiga kelgan Qo'ng'irotlar sulolasi vakillari bilan o'zaro aloqalari tarixi tahliliy asosda o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'ng'irotlar, Firdavs ul-iqbol, Tarixi jahonnamoyi, Tarixi Turkiston.

#### РОЛЬ ВЗАИМОПОЛИТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА С КУНГРАТАМИ В ПЕРИОД ДО 70-Х ГОДОВ XVIII-XIX ВВ.

**Аннотация.** Известно, что в трёх существовавших в Средней Азии ханствах правящие династии чередовались. Внешние связи каждой правящей династии с династиями соседних ханств в разные периоды осуществлялись по-разному. Это, безусловно, было вызвано тем, что представители правящей династии имели разные политические взгляды по отношению к соседним странам. Так в 70-х годах XVIII века в Хивинском ханстве к власти вместо Шейбанидов пришли Кунграта. В то время ханства пытались добиться гегемонии в

регионе, политическая обстановка между Бухарским и Хивинским ханствами сблизила Кокандское ханство с Кунгратами, пришедшими к власти в Хивинском ханстве. Это сближение, конечно, было очень приемлемо для Кокандского ханства, пытавшегося полностью освободиться от зависимости от Бухары. Изучение и исследование истории политического управления и взаимоотношений правящих династий ханств Средней Азии, безусловно, сегодня очень важно и актуально. С этой точки зрения в данной статье на аналитической основе изучена история взаимоотношений Кокандского ханства и представителей династии Кунграт, пришедшей к власти в Хивинском ханстве в 70-х годах XVIII века.

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, Бухарский эмират, Хивинское ханство, Кунграта, Фирдавс уль-икбал, мировая история, история Туркестана.

**Kirish.** XIX asrda Xiva xonligining Qo‘qon xonligi bilan diplomatik aloqalarida Buxoro davlati bilan bo‘lgani kabi surunkali elchilik aloqalari kuzatilmagan bo‘lsa-da, ikkala davlatda keskin ziddiyatli muammolar ko‘rinmaydi. Lekin mazkur davlatlar o‘rtasida o‘zaro do‘stona hamkorlik munosabatlari o‘rnatilgan. XIX asr boshlarida Qo‘qon xonligi qo‘shni davlatlar bilan aloqa o‘rnatib, ularga o‘z elchilarini ham yuboradi. Qo‘qon xonligining Xiva, Sharqiy Turkiston, Buxoroga yuborgan elchilari haqidagi ma‘lumotlar manbalar orqali bizgacha yetib kelgan [1]. Ushbu maqolada mavzuni yoritishda tarixiylik, xronologik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** XIX asr boshida Qo‘ng‘irotlar sulolasi Xiva taxtida o‘z hukmronligini endigina boshlayotgan bir davr edi. Xuddi shu davrda Qo‘qon xonligida Olimxon hukmronlik qilardi. 1810-yildan esa Qo‘qonda Umarxon hukmronligi davri boshlanadi. Bu hukmdor davrida Qo‘qon xonligida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xonlikdagi rivojlanishlar uning kuchini oshirdi. Umarxon o‘z saltanati davrida Qo‘qon xonligini shu vaqtgacha Buxoro xonligiga qaram bo‘lib kelishdan uzoqlashtirib, alohida kuchga ega davlat bo‘lishi uchun harakat qila boshlaydi. Ayni maqsad yo‘lidagi urinishlar natijasida Buxoro xonligi Qo‘qon xonligiga nisbatan raqobatchi, keyinchalik dushmanlik kayfiyatida bo‘la boshlaydi. Mana shunday sharoitda Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyodagi uchinchi katta xonlik – Xiva xonligi bilan yaqinlashish siyosatini olib boradi. Bu harakat ortida Qo‘qon xonligining mavqeyini oshirish uchun urinish yotgandi [2]. Masalan, “Firdavs ul-iqbol” asarida Xiva xoni Muhammad Rahimxon I (1806–1825) saltanatining o‘ninchi yili (ya‘ni, 1816-yil) haqida gap ketganda quyidagi gaplar keltiriladi: “Va yana ulkim, hazrati podshohi mag‘fur rabi al-oxir oyining yigirma beshinji (1815-yil 6-aprel) kunikim, panjshanba erdi, Xivanik oriqlin qozdurmoq uchun rukub qilib, kecha Sayyod havolig‘a nuzul qildi. Juma kuni Sorbonto‘paga borib, qozuvchig‘a chek berdi. Beshinji kunikim, seshanba erdi va jumoda-l-avval oyining ikkinji (1815-yil 12-aprel) kuni erdi, tamom bo‘ldi. Qozuvg‘a chiqmasdin burung‘i seshanba kuni Berdi inoq Buxoro elchisi bila keldi. Yakshanba kunikim, xoni mag‘fur qazuv boshida erdi, Qo‘qon hokimi Umarxondin Sayyid Muhammad hoji elchi bo‘lub kelib, mulozimatg‘a yetti” [3]. Demak, 1810-yillar o‘rtalariga kelib, Qo‘qon va Xiva xonliklari o‘rtasidagi munosabatlar yaxshilanuvi kuchayib boshlangan ekan.

F. Nazarovning 1813–1814-yillarda Qo‘qon xonligiga qilgan sayohati natijasida, 1821-yilda “Zapiski o nekotoryx narodax i zemlyax sredney chasti Azii” asarini yozadi. Asar tarixiy-etnografik xarakterga ega bo‘lib, unda qo‘qonliklarning Koshg‘ar, Xitoy, Xiva, Buxoro va Sharqiy Eron bilan savdo aloqalari haqida xabar berilgan. U Qo‘qon xonining elchilarini qabul qilish marosimida ishtirok etib, qabul marosimi paytida Xitoy, Xiva, Buxoro va boshqa o‘lkalar elchilarini ko‘rgan [4]. Qo‘qon xonligida yaratilgan Mirzo Qalandar Mushrifning “Shohnomai nusratpayon” asarida 1821-yilning may oyida Qo‘qon hukmdori Umarxon (1810-1822) saroyiga Xiva xoni Muhammad Rahimxon I (1806-1825) nomidan rasmiy maktub bilan kelgan elchilik va uning oqibatlarini xususida so‘z boradi. Bu voqea Avaz Muhammad Atorning “Tarixi jahonnamoyi” asarida davriy jihatdan 1813–1814-yil voqealari ichiga joylashtirilgan. Buxoro va Xiva saroy tarixchilari asarlarida bu elchilik haqida hech qanday ma‘lumot keltirilmagan. Lekin ayni shu elchilikdan so‘ng Xiva va Qo‘qon xonligi tomonidan Buxoro amirligi chegara hududlarida olib borilgan harbiy harakatlar o‘sha yildagi asosiy voqea sifatida birinchi o‘ringa chiqarilgan.

Umarxon (1810–1822) Qo‘qon xonligida ichki barqarorlikni ta‘minlab, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni taraqqiy ettirish hamda mustaqil tashqi siyosat yuritishga intilgan. Natijada o‘z mavqeyini mustahkamlab olgan xon nafaqat Buxoro amirligining ta‘siridan butunlay qutulish, balki o‘rtadagi hududlarni o‘z tasarrufiga kiritish masalasida u bilan raqobat qila boshlagan edi. Y.K. Meyyendorfnig “Umarxon qo‘shni xonliklarda katta hurmatga ega edi” degan fikrini mulohaza qilar ekan B.Bobojonov “ushbu ma‘lumot Umarxon hukmronligining boshlariga, ya‘ni qo‘shnilari bilan aloqalarini yo‘lga qo‘yish masalasi haqiqatda ahamiyatga ega bo‘lgan davrga to‘g‘ri kelishi kerak”, deb qayd etadi. Olim bu borada fikr bildirib: “Zero, Umarxonning bu harakati diplomatik legitimatsiyaga bo‘lgan intilish, ayniqsa, Buxoro amiri Haydar bilan munosabatlari ziddiyatli bo‘lgan holatda qo‘shni davlatlar, ayniqsa, musulmon olamining nufuzli hukmdorlari orasida o‘z maqomini qonuniylashtirib olish maqsadi bilan bog‘liq edi”, deb ta‘kidlaydi [5].

**Natijalar va muhokamalar.** XIX asr boshida taxt tepasiga kelgan uchta hukmdor – Amir Haydar, Muhammad Rahimxon va Umarxon o‘rtasidagi munosabatlar mahalliy manbalarda turlicha yoritilgan. Masalan, Amir Haydar Umarxonga taxtga o‘tirishi munosabati bilan tabriklab, hadyalar jo‘natib, do‘stlik taklif qilgani haqidagi matn saqlanib qolgan. Balki Amir Haydar davlatlararo munosabatlar rasmiy an‘anasiga amal qilgan holda shunday xat jo‘natgandir. O‘rta Osiyo mintaqasida asosiy ta‘sirga ega hukmdor mavqeyini egallash borasida ham Amir Haydar va Umarxon o‘rtasida kurash Qo‘qon va Xiva xonliklari yaqinlashishiga turtki bo‘lgan. Amir Haydar hukmronligining boshlaridanoq Usmonli turklar davlati bilan aloqalarini yaxshilab, Qo‘qon va Xiva xonliklarini turk Sultoni bilan yaqinlashishiga to‘sqinlik qilib turadi. Umarxon bilan Muhammad Rahimxon davrida Xiva – Qo‘qon munosabatlari ancha yaxshi bo‘lganligi ma‘lum. 1822-yil bahorida turk sultoni Sulton Mahmudxonning huzuridan qaytayotgan (1808–1839) Umarxon elchisi Hojimirqurbon xoja Xorazm orqali kelgan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon uning xavfsizligini ta‘minlash uchun ikki elchini hamroh qilib yuborgan. Bundan oldinroq ham, ya‘ni 1819-yildagi Umarxonning Turkiyaga yuborgan Hojimirqurbon boshchiligidagi elchilar Xivada to‘xtashadi [6].

Muhammad Rahimxonning Buxoroga qarshi kurashish uchun Qo‘qon bilan ittifoq tuzishini tushunsa bo‘ladi. Chunki, birinchidan, Muhammad Rahimxonga Umarxondan boshqa amaliy yordam ko‘rsata oladigan ittifoqchi topish qiyin edi. Qolaversa, Dashti Qipchoq bo‘ysundirilgach, Qo‘qon bevosita Xorazm hududi bilan chegaradosh davlatga aylanib, kelgusida Xiva saroyida tinch qo‘shnichilik munosabatlarini kafolatlash masalalari ko‘ndalang turardi. Umarxon Muhammad Rahimxonning taklifini qabul qilib Xiva elchilariga Abduxoliq qarovulbegini hamroh qilib sovg‘a-salomlar bilan jo‘natadi. Bu hol Buxoroga qarshi rasman Xiva – Qo‘qon harbiy ittifoqining tuzilganidan darak beradi. Ayniqsa, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi munosabatlarning XIX asr 40-yillari boshlarida yomonlashuvi Qo‘qon va Xiva xonliklari o‘rtasidagi munosabatlarning yanada yaqinlashuviga asos bo‘lgan. Umarxon Xiva xonligi bilan munosabatlarini yo‘lga qo‘yishga katta e‘tibor bergan edi. “Firdavs ul-iqbol”da 1814/1815- yilda Muhammad Raximxon huzuriga Qo‘qon xoni Umarxondan elchi bo‘lib kelib, Xiva xonining “mulozamatiga yetgan” Sayyid Muhammad hoji haqida ma‘lumot beriladi [7]. Buxoro hukmdori Amir Nasrullo (1826 – 1860) ning Qo‘qonga hujumi va Qo‘qon shahrini egallagan davrida Xiva xoni Olloqulixon (1825 – 1843) ning Buxoroga hujumi aynan shu do‘stona elchilik munosabatlarining mevasi desak bo‘ladi. Qo‘qon manbalarida ham Amir Nasrullo Qo‘qon xonligiga yurish qilgan vaqtda Xiva xoni Olloqulixon yordam uchun qo‘shin yuborganligi qayd etilgan. [8] Shu jihatdan, Buxoro amiri Qo‘qon xoni bilan kurash olib borar ekan, hamisha uchinchi tomon, ya‘ni Xiva xonligining aralashuvidan xavotirda bo‘lgan. Xiva va Qo‘qon o‘rtasidagi diplomatik aloqalar to‘g‘risida Xiva xonligi tarixchilari asarlarida ham ko‘plab ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Toshkent hamda Turkiston masalasida Qo‘qon va Buxoro hukmdorlari o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyatli vaziyatda ham Xiva xonligi ta‘sir etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘lgan. Jumladan, bir necha marta elchilik amalga oshirilishiga qaramay, ikki raqobatlashuvchi tomon bir qarorga kelishi mushkul bo‘lib turgan vaqtda, “Anjum at-tavorix”da qayd etilganidek, “yaxshi bir tasodif bilan Xorazm xonining bir talay lashkar bilan Buxoro tarafiga yurish qilgan”ligi

to'g'risidagi xabar vaziyatni o'zgartirib yuborgan. Asarda "bu xabar yetishgach, ba'zi umaro va ulamoning mubashirradi (boshchiligi) bilan orada sulh va yarash osongina voqe' bo'ldi" deb ta'kidlanadi. Buxoro amiri zudlik bilan O'ratepaga Berdiyorbek dodxohni hokim etib tayinlab, shoshilganicha Buxoroga qaytgan. U yerga yetib borganda Xiva xonining yo'lga ham chiqmaganligini eshitgan Buxoro amiri Qo'qon xoni bilan tuzgan sulhidan pushaymon bo'lib, kelasi yil yana lashkar tortish uchun tayyorgarlik ko'ra boshlagan. Shu jihatdan, Amir Nasrullo Xorazm chegaralaridagi qal'alarni katta zaxiralari va sipoh bilan ta'minlay boshlagan, bu esa Qo'qon xonligi bilan bo'lg'usi janglarda Xiva xoni tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan yordam kuchlarini to'sib qolishga qaratilgan chora-tadbir edi [5].

Xiva xonligida Rahimqulixon saltanati (1843–1846) davriga kelib Qo'qon – Xiva munosabatlari yanada kuchayadi. Bu davr Xiva xonligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi elchilik munosabatlarining rivojlanishida Qarobosh dodxoh degan mansabdorning roli katta bo'lganligiga manbalar guvohlik beradi. Bunga Rahimqulixon saltanati tarixiga bag'ishlab Ogohiy tomonidan yaratilgan "Zubdatu-t-tavorix" asaridan quyidagi misollarni keltirish mumkin: "Ul hazrat hamul kun ...Sadvar otlig' manzilg'a vorid bo'lub, muaskar qildi. Seshanba kuni andin nahzat qilib, Suduk to'g'oyig'a tushdi. Hamul kun Xo'qand viloyatining hokimi Sheralixondin Qarobosh dodxoh otlig' bir muazzaz va mo'tabar kishisi elchi bo'lib kelib, aning ixlosnomasin ostoni oliy mulozimlarining nazari anvari mutolaasig'a yetkurdi va karami sultoni aning ahvolig'a shomil bo'lub, osoyish tahsili uchun Xivaqg'a yibordi". Ayni asardan boshqa bir misol: "Alar kelmasdin burunroq, zulq'ada oyining o'n to'rtida chahorshanba kuni ul hazrat Xo'qand elchisi Qarobosh dodxohg'a Bobobekni elchilik yo'suni bila qo'shub, muhabbatnoma bila Xo'qand viloyatig'a irsol qildi". Yana shu tarixiy asardan ikkita misol: "Alar kelmasdin o'n kun burun, mazkur oyning o'n oltisida Xo'qandning so'nggi elchisiga Yaxshimurodbekni elchi qilib qo'shub yibordi". "Ramazonu-l-muborak oyining oltisida, chahorshanba kuni Xo'qand elchisi Qarobosh dodxohg'a ostoni oliyshon mulozimlaridin Yusufbekni elchi yo'sunliq qo'shub, Xo'qand viloyatig'a irsol qildi" [3]. Ya'ni bu va boshqa elchilik faoliyatlari haqidagi ma'lumotlar, xonlar saroyidagi va qo'shni davlatlar bilan munosabatlardagi o'zgarishlar, yangi bir imorat qurilganligi, farzand tug'ilganligi haqidagi kabi yangiliklarni ikki davlat rahbarlari bir-birlariga ma'lum qilib turishgan. Bu yillarda Amir Nasrullo tomonidan harbiy sohada bir muncha o'zgarishlar qilinib muntazam sarbozlar qo'shini va to'pchilar bo'linmalarini ancha takomillashtirgan edi. Qo'qon xoni uchun bunday dushmanga qarshi turish uchun biror ittifoqdosh zarur edi. Shu sababli ham Olloqulixon va Sheralixon o'rtasida bir necha bor elchilik almashinuvlari amalga oshirilgan edi.

Ta'kidlab o'tish joizki, harbiy-ittifoqchilik yoki ma'naviy qo'llab-quvvatlashdan tashqari Xiva xonligi do'st Mamlakat hududi sifatida Qo'qon xonining Eron va Usmoniylar davlati bilan aloqalarida ham o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. Xususan, Umarxon O'ratepa masalasida Buxoro amiri bilan kurash olib borgan bir paytda "... zamona xalifasi, barcha musulmonlarning homiysi" deb bilgan turk sultoni Sulton Mahmud (1808 – 1839) bilan do'stona aloqalarni yo'lga qo'yishga intilgan. Shu bois o'zining elchisi hoji Mir Qurbonni Istanbulga yuborgan. Elchi ketishda ham (1819/1820), yurtiga qaytish chog'ida ham (1821/1822) Xorazm hududi orqali o'tar ekan, Xiva xonining hurmat va ehtiromiga sazovor bo'lgan. "Anjum at-tavorix"da ko'rsatilishicha, Xiva xoni Muhammad Rahimxon mazkur hojining kelayotganidan xabar topgach, uni munosib tarzda kutib olib, o'zining elchisini qo'shgan holda Qo'qon xoni huzuriga yuborgan. Bu xabarni eshitib juda xypsand bo'lgan Umarxon ularni kutib olish uchun odam yuborib, munosib o'ringa joylashtirishni buyurgan [9].

Ogahiy "Jome ul voqeati sultoni" asarining "Hazrati sulton Gitistonning julusi humoyunning oltinchi yilining voqeoti" nomli bobida shunday yozadi: "Ul jumladin ulkim, Xo'qand viloyati voliysining elchisi Bekmuhammadbiykim ostonbo'slig' sharafig'a ixtisos topmish erdi, andog'kim yuqorida mazkur bo'ldi, anga amri oliy mujibi bila siperhmartaba xodimlaridin Rahmatullo Qorako'zni elchilik tariqasi birla mashub bo'lib, sana ming ikki yuz oltmish yettida, muharram oyining avoyilida murojati ruxsati berildi". O'sha yili zulqada oyining 15ida /1851-yil 11-sentabrda ham Eronga, ham Qo'qonga elchi yuboradi [10]. Shuningdek, Xiva xonligi ko'p hollarda Qo'qon xonlari sulolasining halokatga uchragan vakillari uchun siyosiy boshpana sifatida ham ahamiyatga ega bo'lgan. Qo'qon xoni Murodxon ichki siyosiy vaziyat,



aniqrog'i, o'zining "noloyiq xatti-harakatlari tufayli" arkoni davlatning noroziligiga uchrab, mamlakatdan chiqib ketgach, qariyb o'ttiz yil g'arib diyordalarda ovora" bo'lib yurgan kezlarida (1844) Xorazmdan ham panoh topgan edi. Xiva – Qo'qon o'rtasidagi o'ziga xos ittifoqchilik Buxoro amirini ko'p hollarda tang ahvolga solar, Xiva – Buxoro munosabatlarining tez-tez buzilishiga sabab bo'lar edi. Bulardan tashqari, Ogahiy Qo'qon xonligining Xudoyorxon davridagi murakkab siyosiy vaziyati haqida ham to'xtalib shunday yozadi: "Yana ulkim, necha yildin beri Xo'qand viloyatining voliyi Xudayorxonning ba'zi umaro va aholisi Xudayorxonning ilkidan hukumat ixtiyorin olib har biri o'z royicha hukmronlig' surub, atrof-u javonibg'a zulm-u taaddi uzotib, hamul viloyatg'a ko'p futur va vayronlig' yetkurmish erdilar. Xudoyorxonda mahzi xonlig' otidin o'zga narsa yo'q erdi. Ushbu yil Xudoyorxon baxt-u iqbol bozusining quvvati bila siyosat tig'in surub, borcha fasad va inod ahlig'a kamoyanbog'li go'shmol berib jazosig'a yetkurdi va mamlakatning ixtiyori zimomin iqtidori naqtiga olib, istiqbol tariqasi bila hukmronlig' masnadida o'lturdi. Bu behjatasar xabarning e'lomi uchun o'z davlatxohlaridan bir mo'tabar kishini elchi qilib tuhfa va hadyalar bilan irsol qildi. Hamul elchi mazkur o'ning 14 da seshanba kuni dorilxilofan Xivaqg'a vorid bo'lub, ostonbo'slik sharafig'a yetdi". Chunonchi, 1269/1853-yil Qo'qon xoni Xudoyorxon yuborgan elchilarga Xiva xoni amaldorlaridan Shukrullo oqani Qo'qon tomon yuboradi. Xivadan Qo'qonga yuborilgan ushbu elchilar Otaniyozbek va Shukrullo oqalar ancha payt Qo'qonda ushlanib qoladilar. Bunga sabab, Chor Rossiyasi tomonidan Oqmasjid qal'asini bosib olish payiga tushgani edi. Ya'ni elchilarga xavfsizlik nuqtayi nazaridan ketishga ruxsat berilmayotgan edi. Xudoyorxon Oqmasjid mudofaasi uchun qo'shin yuboradi. Shundan keyingina Xiva elchilariga Muhammadkarim bahodirboshini qo'shib Xivaga qaytishga ruxsat beradi. Bu elchilikka javoban 1272/1855-yil Xiva xoni Qo'qonga Qubodxo'jani yuboradi. Bu payda xon soriq va solur, takya urug'larining o'zboshimchaligini bartaraf etish bilan mashg'ul edi. Qayd etish lozimki, Xiva xonligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlarining keskinlashuvi, o'z navbatida, Xiva – Qo'qon aloqalarining mustahkamlanishiga olib kelgan. Rahimqulixon nomdor sarkardalarini Buxoro turktoziga buyurib, o'zi ham safarga chiqqan vaqtda Qo'qon xoni SHERALIXON nomidan elchi bo'lib kelgan Qorabosh do'xoh o'z hukmdorining "ixlosnomasini" taqdim etgan. Xiva xoni elchini dam olishi va kerakli izzat-ikrom ko'rsatilishi uchun poytaxt Xiva shahriga yuborgan. "Zubdatu-t-tavorix" asarida bayon qilinishicha, Buxoro yurishiga ketgan qo'shin ortga qaytmasidan oldin Xiva xoni o'zining mulozimlaridan Bobobekni Qo'qon xoni elchisiga qo'shib Qo'qonga yuborgan. Manbadan anglash mumkinki, bu orada Qo'qon xonligidan yana bir elchilik kelgan. Xiva xoni bu safar Qo'qon elchisiga o'zining mulozimlaridan Yaxshimurodbekni qo'shib Qo'qon xoni huzuriga yuborgan. Bu vaqtda Qo'qon xonligi taxtida o'tirgan SHERALIXON ham Xorazm elchilari Bobobek va Yaxshimurodbekka qo'shib, o'z nomidan Qorabosh do'xohni yana elchi qilib, munosib peshkashlar bilan Xorazmga qaytargan. Xiva xoni Rahimqulixon esa Qorabosh do'xohga saroy mulozimlaridan Yusufbekni qo'shib elchi sifatida Qo'qonga yuborgan [5].

Sayyid Abdulloxon davrida ham Qo'qon xonligi bilan elchilik aloqalari davom etdi. Hukmronligining dastlabki yilidan, ya'ni 1855- yilda Qo'qondan O'rinxo'ja Mirsaid boshchiligidagi elchilar tashrif buyurishadi. Xususan, xon Qo'ng'iro't bekdorlaridan Otaniyozbekni Xo'qandga yuborgan edi. Va u Qulmuhammadbiy ismli Qo'qon elchisi bilan qaytib kelgan edi [10]. Keyingi xon Sayyid Muhammadxon davrida ichki ziddiyatlar, boshboshdoqliklar tus oldi. Ammo shunday bo'lsa-da, qo'shni davlatlar bilan elchilik aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatmadi. Muhammad Rahimxon II (1864–1910) Xiva xonligiga hukmronlik qilgan davrda ham bu xonlik va Qo'qon xonligi o'rtasida elchilik munosabatlari mavjud edi. Ayni munosabatlar Xiva xonligi Rossiya tomonidan bosib olinishidan (1873-yil) avvalgi davrga to'g'ri kelib, ular Ogahiyning so'nggi va yagona nusxada yetib kelgan "Shohidu-l-iqbol" asarida aks etgan. "Shohidu-l-iqbol"da Xiva xonligidan Buxoro va Qo'qon xonligiga borgan va bu mamlakatlardan Xivaga kelgan elchilar nomlari hamda elchilik munosabatlariga doir faktlar keltirilgan. 1281-yil 2-jumadus soniy /1864-yil 3-oktabr voqealari o'rinda shunday ma'lumot mavjud: "Xo'qand viloyatining elchisi kelib, o'rus lashkari Turkiston qal'asin g'alaba bila olg'an xabarin kelturub ko'mak tiladi..." [11]. "Shohidul iqbol" asaridan yana ko'plab bunday misollarni topish mumkin. Jumladan, Xorazmdan Qo'qonga borgan Do'st Niyoz mahramning elchilik faoliyati haqida ham

yoziqib, bunda xon saroyida va qo'shni davlatlar bilan munosabatlardagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni ikki davlat rahbarlari bir – birlariga ma'lum qilib turishgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Qo'qon va Xiva xonliklari orasida do'stlik va qo'shnichilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan.

**Xulosa.** XIX asrda Xiva va Qo'qon xonliklari orasida diplomatik aloqalar vujudga keladi hamda mavjud siyosiy vaziyatlarga mos ravishda rivojlanib boradi. Xivaga Qo'qon xonligi tomonidan elchilarning bir necha marta kelganligi bayoni ayni munosabatlarda Qo'qon xonligi faol bo'lganligini ko'rsatadi. Ana shu tarzda xonliklar o'rtasida uzluksiz bordi-keldilarning amalga oshirilib kelganidan, tabiiyki, ularning poytaxtlarida har birining muqim elchixonasi va doimiy vakilining qaror topishiga ehgiyoj tug'ilmagan ko'rinadi. Bu yerda o'zaro masofalarning yaqinligini ham nazarda tutish lozim bo'ladi. Ammo Turkistondan tashqaridagi xorijiy davlatlar bilan bo'lgan aloqalarda bunday izchillik ko'rinmaydi. U mamlakatlardan kelgan elchilarga ham elchi qo'shib jo'natish qoidasiga rioya qilingan. Ammo bu yerdan borgan elchi yolg'iz qaytib kelgan taqdirda aloqalar ma'lum muddatga, ularga zarurat tug'ilgunga qadar uzilib turgan. Solnomalardagi ma'lumotlarga qaraganda, elchilar poytaxtga kirish oldida xon tomonidan tayinlangan e'tiborli ayon tomonidan kutib olingan. Xivada xorijdan kelgan elchilarning istiqomat qilishi uchun barcha sharoitlar hozir qilingan maxsus elchixonaga bo'lib, chet ellardan kelgan rasmiy vakillar to' o'z yurtlariga qaytgunga qadar ana shu joyda yashashgan. Masalan, Bayoniy 1846-yilda Buxorodan Xivaga kelgan elchilar haqida ma'lumot berar ekan, jumladan, quyidagilarni yozadi: "Muhammad Aminxonning amri bila shig'ovulbek elchilarning oldig'a chiqib, e'zoz va ikrom ila kelturub elchixonaga tushurdi".

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений по исторической географии Восточной и Срединной Азии. – Чебоксары, 1960. –С. 178
2. Polvonov N.T., Sheripov U.A., Qo'qon va Xiva xonliklarining o'zaro elchilik aloqalari tarixiga doir (XIX asr). Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2019. – B. 55-60.
3. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix: tarixlar sarasi. Toshkent: O'zbekiston, 2009, 137-bet.
4. Филипп Назаров. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. –М.: Наука. 1968.
5. Allayeva, Nigora. Xiva xonligining diplomatiyasi va savdo aloqalari ((XVI- XIX ACPJAP)) – T.: Akademyashr, 2019. – 495 b.
6. Muhammad Xakimto'ra. Muntaxab ut tavorix. –T.: Yangi asr avlodi. 2008. – B.175-176.
7. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. –T.: Yangi asr avlodi, 2010. –520 b.
8. Ogahiy Muhammad Rizo. Riyozud - davla – 419 b.
9. Xudoyorxonzoada. Anjum at-tavorix. –Toshkent, 2014. – 348 b.
10. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Jome ul-voqeati sultoni, VI jild. – T.: G'.G'ulom, 1980. – 208 b.
11. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Shohidu-l-iqbol (Iqbol shahodati). Nashrga tayyorlovchi N.Shodmonov. –T.: Muharrir, 2009, –47-bet.

#### KASPIYORTI VILOYATINING TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN

**Buriyev Zavqiddin Toshpo'lat o'g'li,**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsent v.b.,  
NDKTU akademik litseyi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

[boriyevzavqiddin@gmail.com](mailto:boriyevzavqiddin@gmail.com)

ORCID 0009-0007-9297-0862;

UDK 93/94

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Kaspiyorti hududlarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinish sabablari, bu hududning imperiya tarkibiga kiritilishi, unda podsho Rossiyasining boshqaruv tizimi joriy etilishi, mustamlaka davrida Kaspiyorti viloyatining ijtimoiy, iqtisodiy,

siyosiy ahvoli xususida ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Rossiya Kaspiyorti hududlariga egalik qilgan 83 yil davomida ushbu hududning huquqiy maqomi to'rt bosqichda o'zgartirilgan: Orenburg davri, Kavkaz davri, alohida ma'muriy birlik davri hamda Turkiston general-gubernatorligi tarkibida bo'lgan davri. Maqolada Turkiston general-gubernatorligining boshqa viloyat rahbarlaridan o'ziga xos farqli tomoni ham tahlil qilingan bo'lib, bu viloyatni harbiy gubernator emas, balki viloyat boshlig'i boshqargan. Uning o'lkadagi boshqa gubernatorlarga nisbatan nufuzi balandroq, vakolatlari esa kengroq bo'lib, anchayin mustaqil harakat qilish huquqiga ham ega bo'lgan. Kaspiyorti viloyati boshlig'i lavozimining mavqeyi Rossiya guberniyalari gubernatorlari darajasiga tenglashtirilgan hamda unga chegarani qo'riqlash va diplomatik faoliyat olib borishga ruxsat berilgan. Ta'kidlash lozimki, Kaspiyorti viloyati ma'muriy-huquqiy boshqaruvi bir necha bor o'zgarishlarga duch kelgan. Bu o'zgarishlardan Harbiy vazirlikning maqsadi Turkiston o'lkasining chegaralarini o'zgartirish emas edi, balki bu muammo tashqi siyosiy manfaatlardan kelib chiqqan holda Sibir va Markaziy Osiyo harbiy okruglari chegaralarini isloh qilish kabi muhim masalaning bir qismi ham bo'lgan. Harbiy vazirlik nuqtayi nazaridan Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy chegaralarining o'zgartirilishi ulkan ahamiyatga ega edi. Natijada ushbu o'zgarishlar Turkiston Harbiy okrugi qo'shinlarini butun o'lka bo'ylab erkin joylashtirish imkonini berardi.

**Kalit so'zlar:** Kaspiyorti viloyati, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik, Axaltekin okrugi, Krasnovodsk pristavligi, Mang'ishloq pristavligi, Turkiston general-gubernatorligi, siyosiy-ma'muriy boshqaruv, ijtimoiy-siyosiy hayot, "Vaqtli Nizomlar", strategik reja.

#### ИЗ ИСТОРИИ ОРГАНИЗАЦИИ КАСПИЙСКОГО РЕГИОНА

**Аннотация:** В статье представлена информация о причинах завоевания Каспийского моря Российской империей, включения этой территории в состав империи, введения системы управления Царской России, о социально-экономическом и политическом положении Каспийского моря в колониальный период. В частности, за 83 года владения Россией Каспийским регионом правовой статус этого региона менялся в четыре этапа: оренбургский период, кавказский период, период отдельной административной единицы и период нахождения его в составе Туркестанской губернии. Также проанализировано отличие Туркестанской губернии от других регионов. Эту область возглавлял не военный губернатор, а региональный глава. По сравнению с другими губернаторами страны он обладал более высоким авторитетом и более широкими полномочиями, а также имел право действовать независимо, с определенными свободами. Должность главы Каспийского региона приравнена к уровню губернаторов российских губерний, ему было разрешено охранять границу и осуществлять дипломатическую деятельность. Следует отметить, что административно-правовое управление Каспийского региона претерпело ряд изменений. Целью Министерства обороны при этих изменениях не было изменение границ Туркестана, но эта проблема была частью важного вопроса реформирования границ Сибирского и Среднеазиатского военных округов исходя из внешнеполитических интересов. С точки зрения Министерства обороны большое значение имело изменение административных границ Туркестанской губернии. В результате эти изменения позволили войскам Туркестанского военного округа свободно дислоцироваться по всей территории страны.

**Ключевые слова:** Закаспийская область, Российская империя, колониализм, Ахалтекинский округ, Каспийский префект, Мангышлакский префект, Туркестанское генерал-губернаторство, политико-административное управление, общественно-политическая жизнь, «Временное положение», стратегический план.

**Kirish.** Kaspiy dengizi g'arbiy sohilida Rossiya imperiyasining hukmronligi 1558-yilda Astraxanni zabt etishdan boshlangan bo'lsa-da, uning sharqiy sohili ancha vaqt ruslar e'tiboridan chetda qolgan. 1714-yilning kuzida rus qo'shinining Xivaga yurishi paytida Kaspiy dengizining sharqiy sohilida Avliyo Pyotr, Aleksandrovsk, Krasnovodsk istehkomlari barpo etilgan [1]. Ular Rossiyaning Xiva xonligi bilan savdo-sotiq ishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan [2].

Kaspiyorti viloyati hududining Rossiya tomonidan bosib olinishining bosh siyosiy, strategik maqsadi bu yerda Hindiston tomon siljib borish uchun tegishli sharoitlarni barpo etish

bo'lgani holda, butun O'rta Osiyoning harbiy – strategik ahamiyati va boshqa maqsadlar sabab imperiya oliy doiralari bu yerda o'z hukmronliklarini mustahkamlashga qaror qildilar. Quyida Kaspiyorti viloyatining tashkil etilishini Rossiya imperiyasi davriga doir manbalar asosida yoritishga harakat qilindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kaspiyorti viloyatining tashkil etilishi tarixiy manbalar asosida tahlil etilib, Rossiya imperiyasi ma'muriy birliklari orasida alohida jihatlari bilan ajralib turishi xolislik va tarixiylik jihatdan o'rganildi. Kaspiyorti viloyatining tashkil etilishi, uning huquqiy maqomi to'rt marotaba o'zgarishi jarayonlari tarixiy obyektivlik, tizimlashtirish, muammoli-xronologik tahlil, dinamik, qiyosiy-tipologik, statistik tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan holda, arxiv materiallari hamda ushbu davrga oid tadqiqot manbalari yordamida asoslab berilgan.

**Natijalar va muhokama.** Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasi markaziy hududlari bosib olinib, u yerlarda ma'muriy-boshqaruv tizimi tashkil etilgach, endi navbat Kaspiyorti hududlariga yetdi. Kaspiyorti viloyati hududiy jihatdan shimoliy tomondan Rossiya imperiyasining Ural viloyati hamda Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lib, g'arbdan Kaspiy dengizi, sharqdan Buxoro amirligi, janubdan juda katta qismi Eron mulklari bilan chegaralangan. Kaspiyorti viloyatining iqlimi keskin kontinental bo'lib, juda katta hududi qumlik va sahrolardan iborat. Viloyat tabiiy iqlimining noqulayligi, suv zaxiralarning kamligi bu yerga aholi joylashuvini qiyinlashtirgan. Faqatgina Kopetdog' tizmalaridan boshlanadigan kichik daryo va suv resurslari orqali Axaltekin vohasi bir muncha suv bilan ta'minlangan. Bu davrda viloyatda 10000 dan ziyod suv quduqlari, korizlar mavjudligi bu yerda naqadar suv muammosi og'irligidan dalolat beradi.

Kaspiyorti viloyati tabiiy zaxiralarga boy bo'lib, bu yerda neft, ozokerit, osh tuzi (Cheleken va Bolaishem stansiyalari yaqinida), mis va temir, gips (Krasnovodsk shahri yaqinida) konlari ko'plab topilgan. Bu esa viloyatda Rossiya savdo va sanoat korxonalarini ko'plab qurilishiga olib kelgan.

Kaspiyorti yerlarining bosib olinishi bilan bir vaqtda zabt etilgan hududlarni boshqarish uchun rus ma'muriy idoralari ham shakllana bordi. Ular keyinchalik Kavkaz harbiy okrugi bo'ysundirilib Kaspiyorti bo'limiga birlashtirildi. Kaspiyorti Harbiy bo'limi tuzildi (ZVO). Axaltekin vohasi ko'p sonli aholisi bilan bosib olingach, 1881-yil yozida Kaspiyorti viloyati tuzildi. Kaspiyorti viloyatining 1881-yilga qadar ma'muriy-hududiy bo'linishi quyidagicha bo'lgan: 1874-yilda 2 ta pristavlik tuzilgan: Krasnovodsk pristavligi – markazi Krasnovodsk shahri; Mang'ishloq pristavligi – markazi Ford-Aleksandrovskiy shahri; 1879-yili Chat va Chikishlyar pristavliklari tuziladi: Chat pristavligi – markazi Chat shahri, Chikishlyar pristavligi – markazi Chikishlyar shahri. Kaspiyorti harbiy bo'limining (1874-yil martidan 1881 -yil 6-maygacha) markazi Krasnovodsk shahri bo'lgan [3]. Viloyatning umumiy yer maydoni 501 696 kv.km. bo'lib, aholi soni 372 193 nafarni tashkil etgan [4]. Viloyatning chegara liniyasi 5.325 km ni tashkil etgan, shundan 2650 km Kaspiy dengizi bo'ylab o'tgan.

Keyinchalik viloyat Mang'ishloq, Krasnovodsk, Ashxobod, Marv va Tajan uyezdlaridan iborat bo'lib, 5 ta uyezd shahri hamda 6 ta tuman (Tejen, O'tamish, To'xtamish, Vostochniy, Krasnovodsk), 7 ta uyezd pristavligi (Qoraqal'a, Chikishlyar, Saraxs, Durun, Atek, Iloatan, Penda), 29 qishloq va posyolkalardan iborat bo'lgan. 1914-yil ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda 527970 nafar aholi istiqomat qilgan[5].

Rossiya imperiyasi 1834-yildan boshlab Kaspiyorti yerlariga 83 yil davomida egalik qildi (1917-yilning bahoriga qadar). Ushbu davr mobaynida Kaspiyorti hududi birin-ketin uchta general-gubernatorlik tarkibida bo'lgan (Orenburg, Kavkaz, Turkiston) va ma'lum vaqt to'g'ridan to'g'ri imperiya harbiy vazirligiga bo'ysundirilgan alohida ma'muriy birlik hisoblangan. Shunga asoslanib Rossiya imperiyasi tarkibidagi ushbu hudud huquqiy maqomi to'rt bosqichga bo'linib, turli darajada o'zgarib turgan[6].

Birinchi bosqich: 1834–1870-yillarni o'z ichiga olgan Orenburg bosqichi. Bu davrda Rossiya imperiyasining Kaspiyorti viloyatida amalga oshirilgan harbiy-ma'muriy siyosatining asosiy tamoyillari yaratildi. Harbiy joylashuvi jihatidan o'ta noqulay hisoblangan Novo-Aleksandrovska istehkomining 1846-yilda Mang'ishloq yarimoroliga ko'chirilishi Orenburg

bosqichi davrining eng muhim voqealaridan biri bo'lgan. Novo-Aleksandrovsk qal'asi joylashuvi jihatidan dengizda ham, quruqlikda ham hech qanday ahamiyat kasb etmagan. Shuning uchun yangi Orenburg harbiy gubernatori general V.A. Obruchev (1795-1866) 1846-yil Mang'ishloq yarimorolidagi yangi istehkomga ko'chgan. Yangi istehkom dastlab Novopetrovsk, keyinchalik esa Fort-Aleksandrovsk deb qayta nomlangan. Ma'muriy jihatdan Fort-Aleksandrovsk unga tegishli hududlar bilan avval Orenburg guberniyasiga, so'ngra 1868-yildan boshlab Orenburg general-gubernatorligining Ural viloyatiga qarashli bo'lgan.

Rossiya hukumatining ushbu hududdagi birinchi darajadagi vazifasi aloqa yo'llarini ta'mirlash va Darja yarim orolida savdo manzilgohlarini joriy etish bo'lgan. Harbiy ma'muriyat tomonidan mahalliy xususiyatlarni hisobga olib ushbu hududda zavodlar qurish, baliqchilikni rivojlantirish, yerosti qazilmalarini izlab topish, obro'li xonlarga maosh tayinlash, ularni "prikazchik"ka aylantirish, kambag'al qatlamni mehnat bilan band qilish, boshqalarini savdo-sotiqqa jalb qilish kabi vazifalar belgilandi. 1869-yilning oxirlarida rus armiyasining Kavkaz qo'shini polkovnigi N.G. Stoletov (1831-1912) tomonidan Krasnovodsk shahriga asos solingan. Aleksandr II ning (1855-1881) 1870-yilning 2-fevralidagi farmoyishi bilan Mang'ishloq uyezdi Fort-Aleksandrovskiy bilan birgalikda Orenburg general-gubernatorligidan ajratilib, to'g'ridan to'g'ri Kavkaz noibliqi qaramog'iga o'tkazilgan [7].

Orenburg general-gubernatorligi va Mang'ishloq uyezdi chegarasi O'likqo'ltiqdan Orol dengiziga qarab Ustyurtning shimoliy chegarasidan o'tgan.

Ikkinchi bosqich: 1870-yil fevralidan Kaspiy dengizining butun sharqiy sohili Kavkaz noibliqi tasarrufiga (1870-yil fevral-1890-yil fevral) o'tkazilgan. Dastavval Kaspiyortidagi pristavliklar o'zaro bog'liq bo'lmagan. Mang'ishloq pristavligi Dog'iston harbiy gubernatori, Krasnovodsk pristavligi esa Kavkaz armiyasi qo'mondonligi shtab boshlig'i tasarrufida bo'lgan. Bunday holat 1874-yil 15-martdagi farmoyish bilan bartaraf etilgan. 1874-yil 9-martda yangi tuzilgan Kaspiyorti harbiy bo'limini boshqarish haqidagi Vaqtli Nizom tasdiqlangan[8]. Unga binoan, Kavkaz harbiy okrugi tarkibida ikki pristavlikdan – Mang'ishloq va Krasnovodskdan iborat Kaspiyorti harbiy bo'limi tashkil etilgan. Kaspiyorti viloyati boshliqlarining rahnamolari bo'lmish Kavkaz noiblari dastavval M.S. Voronsov va A.I. Baryatinskiylar, keyinchalik imperator Aleksandr II ning kichik ukasi knyaz Mixail Nikolayevich bo'lganligi Turkiston general-gubernatorligining boshqa viloyatlari oldida Kaspiyorti viloyati boshliqlarining nufuzini oshirgan[9].

Kaspiyorti viloyati bo'lim maqomida 1874-yil 31-martda ochilgan, bo'lim boshlig'i etib general-mayor N.P. Lomakin (1830-1902) tayinlangan. 1881-yil 10-iyunda Kaspiyorti viloyati boshqaruvi haqidagi Nizom tasdiqlangan. Yangi tuzilgan viloyat Kavkaz harbiy okrugi tarkibiga kiritilgan. Viloyat tashkil etilgach, P.F. Rerberg uning birinchi boshlig'i etib tayinlangan. Ungacha P.F. Rerberg Kavkaz harbiy okrugi tarkibidagi Kaspiyorti bo'lim boshlig'i lavozimida ishlagan[10].

Viloyatning ikkinchi boshlig'i general-leytenant Aleksandr Vissarionovich Komarov (1883-1890) bo'lgan [11]. Uning boshqargan vaqtini Kaspiyorti viloyati birinchi yillarini jamlash davri deb atash mumkin. Asosan 1884, 1885 va 1886-yillarda yangi yerlarni bosib olish hisobiga viloyat hududi asta-sekin kengaydi.

Marv va Tajan okruglariga uyezd maqomi berildi, Axaltekin uyezdi esa Ashxobod nomiga o'zgartirildi. 1890-yili uchta pristavlik yangidan shakllantirilgan: 1) Ashxobod uyezdi tarkibida Durun pristavligi (1890-yil 20-avgust); 2) Krasnovodsk uyezdida Qoraqal'a pristavligi (1890-yil 13-sentabr); 3) Krasnovodsk uyezdida Chiqishlyar pristavligi (1890-yil 25-sentabr). Viloyat boshlig'i etib general-leytenant A.N. Kuropatkin tayinlangach (1890-1898), hududdagi ichki va tashqi siyosat masalalarida, hokimiyat tizimini tashkil etishda keng vakolatlarga ega bo'lgan[12]. Kaspiyorti viloyati boshlig'ining lavozimi Rossiya guberniyalari gubernatorlari darajasiga tenglashtirilgan hamda unga chegarani qo'riqlash va diplomatik faoliyat olib borishga ruxsat berilgan. Viloyat boshlig'i uyezdagi politsiya amaldorlari ustidan umumiy boshqaruvni amalga oshirgan va politsiya vakolatlariga ega mahalliy amaldorlarni ham nazorat qilgan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rsa bo'ladiki, Kaspiyorti viloyati hududlarini ma'muriy idora qilish uchun tizimli va tartibli ravishda qonun-qoidalar ishlab chiqilmagan hamda mintaqani boshqarish uchun

turli xil o'zgarishlar amalga kiritilgan bo'lib, bu tizim yagona siyosiy-huquqiy hujjatlarda aks etmagan.

1882-yil "Kaspiyorti viloyatini boshqarish to'g'risidagi vaqtli Nizom" tasdiqlangan. Ushbu nizom 1890-yilda qayta ko'rib chiqilgan. Kaspiyorti yerlarini boshqarishga oid normativ hujjatlar o'lkani harbiy hamda mahalliy ma'muriyatining huquq va majburiyatlarini aniq belgilab bermagan. Shu asosda 1890-yil Kaspiyorti viloyatini boshqarish to'g'risida yangi Nizom kuchga kirdi. Unga ko'ra, Kaspiyorti viloyati Kavkaz noibliigi tarkibidan chiqarilib, bevosita Rossiya Harbiy vazirligiga bo'ysundirilgan[13].

Uchinchi bosqich: 1890-yilning fevralida Kaspiyorti viloyati tarixida hududning ma'muriy-huquqiy maqomi rivojlanishining 1899-yil iyuligacha davom etgan yangi davri boshlandi. 1890-yil 6-fevralda tasdiqlangan Vaqtli Nizom asosida Kaspiyorti viloyati Kavkaz harbiy okrugi tarkibidan chiqarilib yangi tuzilmaga aylantirilib, alohida ma'muriy va harbiy birlikni tashkil etgan. Uning boshlig'i to'g'ridan to'g'ri Harbiy vazirlik Bosh shtabining Osiyo bo'limiga bo'ysunadigan qilib tartib o'rnatilgan[14]. Viloyatning markaziy hokimiyatga bevosita bo'ysunishi davrida (1890-yil fevral-1899-yil iyul) o'lkani Rossiya imperiyasi tarkibiga to'liq moslashtirishni o'ziga maqsad qilib olgan bir qator tashkiliy-xo'jalik tadbirlar amalga oshirilgan.

Kaspiyorti viloyatidagi boshqaruv ma'muriyati ish faoliyatida katta huquqlarga ega bo'lib, bu xususiyat mustamlaka tartiblarini amalga oshirishda asosiy rol o'ynagan. Ular amalga oshirgan qonunbuzarliklar hajmi ko'pincha xalqning sabr kosasini to'ldirib yuborgan, bu haqdagi ma'lumotlar mahalliy aholining ko'p sonli arizalari orqali oliy hukumat idoralarigacha yetib borgan. Shunday keskin vaziyatni yumshatish uchun ko'pincha Harbiy vazirlik senatning yuqori lavozimli amaldorlari orqali taftishlar o'tkazgan. Norozi xalq g'alayonlarining oldini olish maqsadida Kaspiyortida juda ko'plab tekshiruvlar uyushtirilgan. Eng muhim va xalq xotirasida chuqur iz qoldirgan taftishlar 1889–1890-yillardagi general Maksimovskiy taftishi (Marv va Tajan uyezdlaridagi tartibsizliklar haqidagi ishni tekshirgan) [15] hamda 1908-1909-yillardagi senator K.K. Palen taftishi (bu taftish Turkiston o'lkasining barcha viloyatlaridan ko'ra Kaspiyorti viloyatiga katta e'tibor qaratgan, chunki bu yer taftish tayinlanishining bosh "aybdor"i bo'lgan) [16] edi.

Kaspiyorti viloyati boshliqlari tez-tez almashib turgan. Birinchidan, shu bilan Rossiya imperiyasining hukmron doiralari mahalliy aholining noroziligini vaqtinchalik yumshatishga erishgan, ikkinchidan, aholi nazdida oq podshoning putur ketgan obro'yini tiklagan, uchinchidan, ma'lum tartibni o'rnatgan, busiz esa mustamlaka o'lkani boshqarish mumkin bo'lmagan [17]. A.N. Kuropatkin viloyatdan ketgach, viloyatning yangi boshlig'i G.L. Bogolyubov kelguniga qadar, ya'ni 1897-yil oxiri – 1899-yilning birinchi yarmiga qadar viloyat boshlig'i vazifasini general-mayor knyaz N.E. Tumanov (1844-1917) bajargan[18]. Viloyat Rossiya Harbiy vazirligiga to'qqiz yarim yil davomida bo'ysungan. Vazirlar Qo'mitasining 1899-yil 11-iyunda tasdiqlangan qaroriga binoan Kaspiyorti viloyati Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilgan.

To'rtinchi bosqich: 1899-yil iyul oyidan boshlab 1917-yil fevral oyigacha davom etgan 18 yillik davrni qamrab oladi. Bu davrda Kaspiyorti viloyati alohida ma'muriy birlik maqomidan chiqarilib, bevosita Turkiston general-gubernatorligiga bo'ysundirilgan. U hali ham avvalgi "Vaqtli nizom" asosida boshqarilgan. Kaspiyorti viloyati boshlig'i harbiy boshqaruv vakolatlaridan mahrum etilgan edi. Bu davrda imperiya hukumati va harbiy-siyosiy boshqaruvning yuqori organlari "xonlik" usulini inkor etib, Turkiston o'lkasini umumimperiya ma'muriy-boshqaruv tizimiga kiritish vazifasini o'z oldiga qo'ydi. Garchi Kaspiyorti viloyati 1899-yil Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilgan bo'lsa-da, Kaspiyorti viloyatida viloyat boshqaruvi alohida Nizom asosida yuritilgan. Imperiya markazi tomonidan tuzilgan Toshkent komissiyasi viloyatni Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvining umumiy qoidalariga yaqin kelajakda bo'ysundirishning hech qanday imkoni yo'q, degan xulosaga kelgan. 1901-yilda A.N. Kuropatkin Kaspiyorti viloyati boshqaruv Nizomi (1890-yil)ni yana 5 yilga amal qilishini so'rab hukumatga murojaat qilgan (1906-yil 18- dekabrgacha). 1906-yil 9-iyunda Vazirlar kengashining qarori bilan bu muddat 1908-yil 1-yanvargacha cho'zilgan[19]. Turkiston davrining (1899-1917) muhim bo'lgan ajralib turuvchi jihati Kaspiyorti viloyatidagi xorijiy fuqarolar

to'g'risida qoidalarning viloyat boshlig'i bilan Turkiston general-gubernatori o'rtasida ishlab chiqilganligi bo'ldi. Ta'kidlash lozimki, ma'muriy bo'linishlarga ham tez-tez o'zgartirishlar kiritib borilgan. 1882-yilda viloyatdagi okrug va pristavliklar uyezdlariga o'zgartirildi. Natijada 1882-yil 10-iyunda Kaspiyorti viloyati 3 uyezdga bo'lingan: 1) Axaltekin uyezdi – markazi Ashxobod shahri; 2)Krasnovodsk uyezdi – markazi Krasnovodsk shahri; 3)Mang'ishloq uyezdi – markazi Ford-Aleksandrovskiy shahri bo'lgan.

1884-yil 1-fevralda Marv va Tajan okrugi tuziladi [20].

– Marv okrugi - markazi Marv shahri.

– Tajan okrugi - markazi Tajan qo'rg'oni bo'lgan.

1890-yilda Marv va Tajan okruglari uyezdlariga o'zgartirildi. Shu bilan bir vaqtda Ashxobod uyezdida Durun, Krasnovodsk uyezdida Kara-kala va Chikishlyar pristavliklari tashkil etildi. 1891-yil Ashxobod uyezdidan Atek pristavligi va Marv uyezdidan Saraxs pristavliklari ajratilib, Tajan uyezdi tarkibiga kiritildi. Ma'muriy jihatdan bunday bo'linish 1917-yilga qadar saqlanib qoldi.

Kaspiyorti viloyati 1890-yil 6-fevralda 5 ta uyezdadan iborat bo'lgan[21]:

№	Uyezd nomi	Uyezd markazi
1	Ashxobod uyezdi (Durun pristavligi)	Ashxobod
2	Krasnovodsk uyezdi (Chikishlyar va Karakalinsk pristavliklari)	Krasnovodsk
3	Mang'ishloq uyezdi	Ford-Aleksandrovskiy
4	Marv uyezdi (Pendin va Iolatan pristavliklari)	Marv
5	Tejen uyezdi (Seraxs va Atek pristavliklari)	Tejen qo'rg'oni

General Duxovskiy boshqaruvi davrida Turkiston ma'muriy hayotidagi eng yirik voqea Rossiya imperiyasi Vazirlar qo'mitasining 1899-yil 11-iyunidagi qaroriga asosan Kaspiyorti viloyati Turkiston general-gubernatorligi tasarrufiga o'tkazilishi bo'ldi. Shu yili 4-iyuldagi № 98 buyruqqa binoan Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga Kaspiyorti viloyati kiritildi[22].

Imperiya Vazirlar qo'mitasining ta'kidlashicha, Turkiston uchta front: Afg'oniston, G'arbiy Xitoy, Eronga nisbatan mudofaa va hujum qilish majburiyatlariga ega faol mintaqaga aylangan. 1897-yil 26-dekabrda imperatorning farmoni bilan Yettisuv hamda Kaspiyorti viloyatlari Turkiston o'lkasi tarkibiga kiritilgan[23].

Viloyat o'ziga xos geosiyosiy xususiyatlari sababli uning boshlig'i boshqa uyezd va pristavliklar boshliqlari kabi Rossiya imperiyasi zobitlarida tayinlangan bo'lib, katta vakolatga ega edi. 1890-yili ma'muriy apparatning quyi pog'onasidagi mansabdor shaxslar almashinuvining saylov tartibi e'lon qilingan. Ungacha oqsoqollarni tayinlash bevosita yuqoridagi boshliqlarning buyrug'i bilan amalga oshirilgan. Ovul starshinalari, mirob, qozi, aminlarning ovullar yig'inida bo'lib o'tadigan "saylov"lari odatda bir rasmiyatchilik edi, xolos, chunki viloyat boshlig'i saylagan starshina nomzodlarini, uyezd boshliqlari esa mirob, amin, qozilarni tasdiqlashi lozim edi.

Kaspiyorti viloyati boshlig'i A.N. Kuropatkin Harbiy vazir bo'lgach ham viloyatga o'z e'tibori va davlat mablag'larini ayamagan. Armiyaning favqulodda zaruriyatlari uchun ajratilgan vazirlik fondidagi davlat mablag'larini ham viloyatga yo'naltirgan, Turkiston qonunchiligini takomillashtirishga harakat qilgan. Biroq 1904-yilning fevralida A.N. Kuropatkin Harbiy vazir lavozimidan chetlashtirilgan. Shu yili Toshkentda Turkiston general-gubernatori N.A. Ivanov ham vafot etgan. Uning izdoshlari N.N. Tevyashev (1904-1905) va D.I. Subbotichlar (1905-1906) davrida biron bir faol o'zgarishlar bo'lmagan. 1906-yilning 17-aprelida Turkiston o'lkasining boshqaruvi Harbiy vazirlik tasarrufidan Ichki ishlar vazirligiga berildi[24].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyoni, ayniqsa, uning eng boy va strategik jihatidan eng muhim mintaqasi – Kaspiyorti viloyatini zabt etish, mustamlakaga aylantirish Rossiyaning kelajakka mo'ljallangan keng strategik rejalarining bir qismi bo'lgan. Faqatgina Sharq va G'arb davlatlarining, xususan, Avstriya-Vengriya, Germaniya, Fransiya va, ayniqsa, Buyuk Britaniyaning keskin qarshiligiga uchrashdan xavfsiragan hamda bosib olingan

hududlarda tub xalqlarning kurashi bilan mashg'ul bo'lishini bilgan Rossiya imperiyasi qulay payt kelguncha shu eng katta mustamlaka bilan kifoyalanishni lozim topdi. Rossiya imperiyasining qo'l ostidagi boshqa hududlar va qaram mamlakatlardan ko'ra Turkiston o'lkasining strategik, ijtimoiy-iqtisodiy tomondan ahamiyati juda yuqori hisoblangan. Kaspiyorti viloyatida o'rnatilgan harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimi, viloyatga joylashtirilgan ko'p sonli harbiy qismlar hamda ko'chirib olib kelingan rus, asosan, nasroniy diniga mansub bo'lgan aholi Rossiya imperiyasining harbiy-strategik mavqeyini barqarorlashtirish, kelajakdagi tashqi siyosiy rejalarni qo'llab-quvvatlashga, hududdan olib ketiladigan moddiy va madaniy boyliklarni imperiya manfaatlariga ko'proq foyda berishiga xizmat qilishlari kerak edi.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Абашин С.Н. и др. Центральная Азия в составе Российской империи. – М., 2008. – С. 116.
2. Историческая справка о развития края // Обзор Закаспийской области за 1899 год. - Ашхабад, 1900. – С.3.
3. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. <http://wwhr.ru>
4. Гейер И.И. Путеводитель по Туркестану. - Ташкент, 1901. – С.73.
5. Обзор Закаспийской области 1914 г, Г.Асхабад, 1915 г. С.-17.
6. Аминов И.И. Этапы развития правового статуса Закаспийской области в составе Российской империи (1834-1917гг.) // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. – Тамбов, 2013. №2. Ч.1. – С.12.
7. Историческая справка о развития края // Обзор Закаспийской области за 1899 год. Ашхабад, 1900. – С. 3-4.
8. Гродеков Н.И. Война в Туркмении. Поход Скобелева 1881-1881 гг.: в 4т. – СПб, 1883-1884.Т.1. –С. 112.
9. Центральная Азия в составе Российской империи. – Москва, 2008. (Авторский коллектив: Абашин С.Н., Арапов Д.Ю. и другие) – С.117.
10. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. <http://wwhr.ru>; Павлов Н. История Туркестана. – Ташкент, 1910. – С. 219-226.
11. Историческая справка о развитии края//Обзор Закаспийской области за 1899 год. – Асхабад. – С. 5.
12. Инструкция Александра II М.Д. Скобелеву от 15 марта 1880г. // Гродеков Н.И. Война в Туркмении. Поход Скобелева 1880-1881гг.: 4т. – СПб, 1883-1884. Т.1. Прил. №9 – С.63-68.
13. Тимошевская А.Д. Создание Туркестанского генерал-губернаторства и формирование его полицейской системы во второй половине XIX – начале XX в. //Труды МВД России. 2014. №4 (32). – С. 94// <https://cyberleninka.ru/20.05.2020>
14. Пален К.К. Краевое управление. Отчёт по ревизии Туркестанского края. – С-Петербург, 1910. – С. 33.
15. Давлетов Дж. Туркменский аул в конце XIX - начале XX века. – Ашхабад, 1977. - С.54.
16. Pahlen С.С. Im Auftrag des Zaren in Turkestan. – Berlin, 1966.
17. Давлетов Дж. Туркменский аул в конце XIX - начале XX века. – Ашхабад, 1977. - С.55.
18. Историческая справка о развитии края // Обзор Закаспийской области за 1899 год. – Асхабад, 1900. – С.7.
19. Пален К.К. Краевое управление. Отчёт по ревизии Туркестанского края. – С-Петербург, 1910. – С. 33-34.
20. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. <http://wwhr.ru>; Павлов Н. История Туркестана. В связи с кратким историческим очерком сопредельных стран. – Ташкент, 1910. – С. 224-225; Историческая справка о развитии края // Обзор Закаспийской области за 1899 год. –Асхабад, 1900. –С. 6.
21. Давлетов Дж. Туркменский аул в конце XIX – начале XX века, ч.1. – Ашхабад, 1977. – С. 39-40.
22. Пален К.К. Краевое управление. Отчёт по ревизии Туркестанского края. – С-Петербург, 1910. – С. 66-67.
23. Шушкова М.Е. Организация управления Туркестаном в начале XX века. – М., 2016. – С.



**DAVLAT BOSHQARUVI USHLUBLARI TUSHUNCHASI VA XUSUSIYATLARI**

**Rustamaliyev Mirjalol Hayrullo o'g'li,**  
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi  
[mirjalolrustamaliyev@gmail.com](mailto:mirjalolrustamaliyev@gmail.com)  
ORCID ID: 0009-0001-2990-5650  
UDK 323.2

**Annotatsiya.** Insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki, jamiyatdek murakkab tizimni boshqarishda davlatdan-da afzal, samarali kuch yo'q. Va yaqin kelajakda bu borada uning o'rnini egallaydigan, u bilan hatto raqobatga qodir biror bir institut ijtimoiy jarayon maydoniga chiqishi shubhali. Uning voqelik hamda imperativ ekanligini sayyoraning deyarli hamma joylarida ro'y berayotgan xavfli voqea-hodisalar, kutilmagan, inson aqliga ba'zida sig'maydigan tabiiy va antropogen xavf-u xatarlar, jumladan, shu lahzalarda ham bartaraf etilmagan koronavirus tufayli yo'qotishlar yaqqol tasdiqlamoqda. An'anaviy tanish ofatlarning oldi olingan bo'lishi asnolarida genezisi, oqibatlarini anglanmagan, sarhisob qilinmagan yangilari yuzaga qalqib chiqmoqda. Bashariyat, bir tomondan, istiqbolga ishonch, boshqa bir tarafdin, qandaydir tashvish orasida yashamoqda. Darhaqiqat, inson umrguzaronligiga aslida shunday holat immanent va uni to'g'ri qabul qilmoq ham donolik. Tadqiqotda boshqaruvlar iyerarxiyasi pillapoyasining eng yuqori va shuning bilan birga kundalik boshqaruvni ham, u yerdagi mas'uliyat yukini ham qamrab oluvchi, aniqrog'i, odamzotni, jamiyatni, hamjamiyatni hayot va faoliyatning ko'p hollarda tasavvur qilish behad murakkab, har biri alohida, biroq o'zaro organizmik bog'liqlik jihati, pog'onasi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Antropogen xavf-u xatar, immanent, millenium, boshqaruvlar iyerarxiyasi, korporativ manfaat, globallashuv, gumanitar harakat, Kovid-19 pandemiyasi, politolog.

**ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ СТИЛЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УПРАВЛЕНИЯ**

**Аннотация.** История человечества свидетельствует о том, что в управлении такой сложной системой, как общество, нет более предпочтительной и эффективной власти, чем государство. И сомнительно, что в ближайшее время на арену общественного процесса выйдет какой-нибудь институт, который займет в этом плане его место, способный даже конкурировать с ним. О том, что такая система реальна, а также императивна, наглядно свидетельствуют опасные события, происходящие практически везде на планете, неожиданные, порой несовместимые с человеческим разумом природные и антропогенные опасности и риски, в том числе потери из-за коронавируса. В ходе предотвращения привычных бедствий всплывают новые, генезис которых не осознан, последствия которых не суммированы. Человечество живет между верой в будущее, с одной стороны, и какой-то тревогой, с другой. На самом деле, это состояние имманентно человеческой жизни, и правильно принять это тоже мудрость. В исследовании рассматривается высшая ступень иерархии управления, а вместе с ней и повседневное управление, и бремя ответственности за него, а точнее представление о человеке, обществе, сообществе в большинстве случаев жизни и деятельности, каждая из которых представляет собой отдельный, но взаимосвязанный аспект, ступеньку.

**Ключевые слова:** антропогенный риск, имманентный, Миллениум, иерархия управления, корпоративный интерес, глобализация, гуманитарное движение, пандемия covid-19, политолог.

**Kirish.** Ma'lumki, jamiyat bir joyda qotib turmaydi u rivojlanishda, yangilanishda. Bu esa o'z navbatida boshqaruvning eskirgan qolip va strukturasining barham topishi va yangilari yaratilishini taqozo etadi. Ayrim makonlarda an'anaviy zamonaviy tuzilma-yu uslublar bir muddat parallel ravishda bir-birini to'ldirish holatida bo'lishi mumkin. Bu odatiy hol.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ochiq aytish kerak — hozirgi kunda davlat apparatida takrorlanish ko'p, keraksiz shtatlar bor. Markazlashuv

yuqori. Oqibatda, bugungi murakkab masalalarga to'g'ri yechim topish uchun ortiqcha vaqt, kuch va resurs sarflanmoqda. Vazirlarning Hukumat qabul qilayotgan qarorlarda, ta'bir joiz bo'lsa, "ovozi yo'q". Ya'ni, ularning ushbu qarorlarni tayyorlash va hayotga joriy qilishdagi ishtiroki va mas'uliyati yetarli emas", – deb takidlashi bejiz emas [1].

Bunday nisbatan osoyishtalik bugun barham topdi. Bashariyat o'z rivoji maromida murakkablikka, "qizil chiziq"qa keldi. Barcha ijtimoiy ishlanmalar, tartibot ustunlari yaroqsiz, yangilanishga muhtojlik sezmoqda. "Endi dunyoni qayta ta'mirlashning foydasi yo'q. Uning zamiridagi qadriyatlar, intilishlar-u mo'ljallar va manfaatlar, obraz va oriyentirlari-yu maqsadlari va boshqalar faoliyatining tabiiy sikli umrini o'tab bo'ldi, chilparchin holatda botin sari yuzlangan. Uning o'rnida benihoya katta kuchga ega yangi ma'nolar, yangi qadriyatlar quvvati ko'zga tashlanmoqda. Yashashning yangi gorizonti kengaymoqda" [2], – deb metaforik tarzda tavsiflaydi taniqli olim E. Kochetov.

Boshqaruv shakli (ijro hokimiyati yoki boshqaruv harakatlari shakli) masalasi bilan tanishib chiqish, boshqa huquqiy hodisaning – *boshqaruv uslublarini* ham aniqlash lozimligini ko'rsatadi. Uslub – bu amaliy faoliyatning usuli, vositasi hisoblanadi. Boshqaruv shakllari va boshqaruv uslublarini bir-biridan ajratmagan holda ko'rib chiqish lozim.

Ma'muriy huquqning tartibga solish uslubi va ma'muriy huquqiy (boshqaruv) uslublar, nomlanishi jihatidan bir-biriga juda yaqin turadi. Lekin bu holat ularning faqatgina tashqi ko'rinishidan yaqinligini ko'rsatadi. *Tartibga solish uslubi* – ma'muriy huquqning asosiy funksiyasi bo'lib, boshqaruv munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi vosita hisoblanadi. *Davlat boshqaruvi uslubi* esa, boshqaruv subyektlari (ijro hokimiyati organlari) oldida turgan barcha vazifalarni, shu jumladan, tartibga solishni ham, amaliy hal etish vositasi hisoblanadi [3].

Davlat boshqaruvi uslubi – ma'muriy huquq har qanday subyektining emas, balki ma'lum bir sohada boshqaruvni (ijro hokimiyatini) amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan subyektning funksiyasi hisoblanadi.

Boshqaruv organlari normativ tusdagi hujjatni qabul qilganida, bu ikkala vosita bir-biriga mos kelishi mumkin. Lekin tartibga solish uslubi o'zining mazmun-mohiyati va ahamiyati bilan davlat boshqaruvi uslublaridan ajralib turadi. Huquqiy tartibga solish hamma vaqt normativdir. Shu sababli, uning vositalari (ko'rsatma berish, taqiq, vakolat berish) tartibga solinadigan munosabatlarning barcha subyektlariga nisbatan qo'llaniladi. Boshqaruv uslublari esa bunday vakolatga ega bo'lgan ijro hokimiyati organi (mansabdor shaxs) tomonidan qo'llaniladi hamda ular yakka-asosiy tashkilatga aylantirilgan, ya'ni individuallashtirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi jamiyatda ijtimoiy hayot barqarorligini ta'minlashga qaratilgan davlatning ijrochilik funksiyalarining ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ochib berishdan iborat bo'lib, maqolada tarixiylik va mantiqiylik, kuzatuv va tahlil hamda zamonaviylik institutsional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Ilmiy manbalarga asoslangan holda, qolaversa, umuman boshqaruvga nisbatan mavjud ta'rifu umumlashmalarni bir-biri bilan taqqoslash orqali ushbu fundamental politologik tushunchalar yoki kategoriyaga oid quyida o'z shaxsiy fikrimizni quyida havola qilsak. Ilmiy jamoatchilik doirasida: "davlat – bu hokimiyat tashkil etilishi va taqsimlanishiga doir turli turli xil institutlar, qoida-yu ko'rsatmalar va amaliy faoliyatlarining ma'lum bir kombinatsiyasi" [4], degan qisqa ta'rif bo'yicha umumiy qandaydir kelishuv mavjud. Davlat, boshqaruv xususida ta'rifu tavsiflar son-sanoqsiz. Tarixchilar o'z fikrini bersa, huquqshunoslar va politologlar ham ulardan qolishmaydi. Har bir ta'rif, yondashuvda fan tarmoqlari metodologiyasi, yo'nalishi, funksiyasi; tadqiqot diskursi va qolaversa, muallifning milliy-madaniy ustuvorligi hamda motivatsiyasi, hatto tadqiqotga buyurtma bergan muassasaning mo'ljallari yaqqol sezilib turadi. Ta'rif va yondashuvlarning turli-tumanligi, ba'zida biri-biriga monand emasligi va oxir-oqibat noaniqliklar soni oshib borayotganligining tub sababi, turtkilari aynan shu reallikda, deb bilamiz. Shu boiski, davlatning jamiyat boshqaruviga doir faoliyati, demakki, boshqaruv bo'yicha ham vaziyat shunga monand.

Bizning o'ylashimizga ko'ra, avvalambor, davlat muloqotning aynan o'zi va shundan kelib chiqqan. Ya'ni davlat zimmasidagi vazifa – jamiyatni boshqarishi uchun boshqariluvchilar bilan muloqot sari borishi kerak. Bu muloqot shunchaki oddiy umr, vaqtni o'tkazish emas, jamiyat

a'zolarini strategik maqsad sari jamuljam qilish. XVI - XVII asrlar orasida yashagan. J.J. Russo nazdida individlarning yolg'iz yashashi deyarli ilojisizligidan boshqalar bilan yaqinlashishga tabiiy (demak, imperativ) majburligiga borib taqaladi. Bu yerda e'tiborga loyiq bir jihat ko'zga tashlanadi. Shu muloqot ham davlat shakllanishi va ham davlat tomonidan boshqarilishdek ikki muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning bir paytda sinxron boshlanganligini anglash zarur. Dastlabki xulosa shuki, bir tomondan – davlat va boshqa tomondan, ijtimoiy-siyosiy boshqaruv bir-birini immanent taqozo etadi.

O'z-o'zidan stixiy tarzda solum (jamiyat, davlat, hamjamiyat)ni boshqarish muammosi davlatning zimmasiga tushmoqda. U uchun bundanda mas'uliyatli vazifa (u barcha jabhada mas'ul) bo'lmasa kerak. Ammo davlat tomonidan ijtimoiy-siyosiy boshqarish uchun zarur moddiy-madaniy, ma'naviy shart-sharoit ham bo'lmog'i kerak. Zero, hozirgi pallada bu borada barcha imkoniyatlar mavjud deb bo'lmaydi va bu yerda, jumladan, davlat hokimiyati e'tiborini talab qiladigan jihatlar ham yo'q emas. Bu barcha infratuzilmadan to fuqarolar ongi va tafakkuriga bo'lgan makonda ko'zga tashlanadi. Demak, davlat hokimiyati fuqarolar, fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda ish olib borishi kerak ekan. Ilmiy jamoatchilikda muhim bir fikr shakllangan. Gap shu haqdaki, "milliy davlat hududida fuqarolar o'rtasida nechog'lik "nosiyosiy", ya'ni davlat aralashmagan (u yerda ba'zi cheklovlar bo'lishi tabiiy) "bordi-keldi", samarali muloqot, kelishuvlar yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shu davlatning kuch-qudrati, boshqaruv salohiyati, bilimi, imkoniyati shuncha keng bo'lar ekan".

**Adabiyotlar tahlili.** Davlat paydo bo'libdiki, uning mohiyati, ma'no-mazmuni, harakatga keltiruvchi qadriyatlar tizimi, maqsadi, burch hamda mas'uliyati bilan bog'liq har doim dolzarb muammolar Sharqda ham G'arbda ham ilmiy tafakkur ahlining e'tiborini o'ziga jalb etgan.

Muammoni o'rganish darajasiga keladigan bo'lsak, shuni aytish joizki, mustaqillik davrida ushbu ilmiy muammoga bo'lgan e'tibor, tabiiyki alohida ko'rinish kasb etdi. Jumladan, Birinchi Prezident I. Karimovning asarlarida zamonaviy o'zbek davlatchiligining nazariy-konseptual asoslari yaratildiki, yurtimiz ijtimoiy-gumanitar ilm-fan vakillari (huquqshunoslar, tarixchilar, sotsiologlar, siyosatshunoslar va faylasuflar) tomonidan mustaqillik yillarida chop etilgan ilmiy tadqiqotlar uchun u ma'lum ma'noda metodologik yo'nalish bo'lib xizmat qildi, deyish mumkin. Siyosatshunos mutaxassislardan Sh. Paxrutdinov, I. Ergashev, A. Qodirov, A. Asqarov, R. Jumayev, Q. Nazarov T. Alimardonov, E. Rtveladze, A. Saidov, A. Muminov, M. Rahmonqulov, T. Jo'rayev ilmiy ishlari predmeti va obykti nuqtayi nazaridan ushbu mavzuni yoritib bergan.

Bashariyat, bir tomondan, istiqbolga ishonch, boshqa bir tarafdan, qandaydir tashvish orasida yashamoqda. Darhaqiqat, inson umrguzaronligiga aslida shunday holat immanent va uni to'g'ri qabul qilmoq ham donolik. Shu paytgacha u yoki bu darajada asqotgan jahon tartibotiga sezilarli darz ketishi, "sochilish", parokandalik boshlandi. O'z paytida xitoylik atoqli mutafakkir Kan Yuvey davlatlarni "bosh prinsip"dan chetlashmaslikka bejiz da'vat qilmagan edi. Lekin hozirgi bosqich, tabiiyki, boshqacharoq, uning istiqboli hozircha aniq emas. Bunday sharoitda aqli rasolar, ijtimoiy-siyosiy mas'ullar va shuningdek, ilmiy jamoatchilik sabablarini, yechim yo'llarini odatdagidan jiddiyroq izlashga intiladi. Nega bunday, jarayonlarni tabiiy o'zaniga tushirish yo'lida nimaga asosiy e'tibor qaratmoq lozim, eng samarali amaliyot va nihoyat qanday kuch-instrument uni uddalay oladi, shu va shunga o'xshash muammo-yu savollar ko'paygandan ko'payib qoldi. Taqdir taqozosi, ayniqsa insonning o'zi e'tiborsizligi bois bir xil vaziyatga tushgan dunyoning aksar davlatlari – mutasaddilari, ilmiy jamoatchilik turli-tuman tavsiya-yu loyihalar yaratishmoqda. Ular ham tahsinga sazovor. Xullas, yangi asr, millenium va qolaversa, insoniyatning elita qismi, jamiki murakkabliklar solumni, jahon jamjamiyatini boshqarish vayronkor kuchlarga monand (adekvat) emasligi, qolaversa, shunchaki ta'kidlashdan nariga o'tilmayotganida ekanligida, degan muhim xulosaga keldi.

Ma'lum va mashhur I. Veber so'zi bilan ifodalasak, sehr, jodudan xalos bo'lmagan, organizmida azaliy biogenetik qusurlardan qutulmagan odamzodni "yo'lga solish" oson kechmaydi. Sababi, individ odatda onglilik va ongsizlik qurshovida faoliyat yuritadi. Qaysi bir jihatdan kundalik amaliyotni to'qnashuvlar, nomutanosibliklar maydoni, deb hisoblash ham mumkin. Shu bois ham insoniyat qadim zamonlardan qandaydir umumlashtiruvchi institutga

ehtiyojmand bo'lgan. Bu yo'lda u adolatli va qattiqqo'l hukmdorga, huquq va mas'uliyatga qaratilgan hujjatlar majmuasiga, qolaversa, axloqiy me'yorlarga, va nihoyat, Yaratganning muruvvati va mukofotiga umid bog'lagan. Jamiyatni qandaydir tartibga tushirishning u yoki bu uslublarini yaratishda davom etgan. Natijada sosiumni boshqarishning har xil shakl va tartiboti (qon-qardoshlik, urug'doshlik, qabiladoshlik, ixtiyoriy kelishuv)larga asos solishgan.

Bunday nisbatan osoyishtalik bugun barham topdi. Bashariyat o'z rivoji maromida murakkablikka, "qizil chiziq"qa keldi. Barcha ijtimoiy ishlanmalar, tartibot ustunlari yaroqsiz, yangilanishga muhtojlik sezmoqda. "Endi dunyoni qayta ta'mirlashning foydasi yo'q. Uning zamiridagi qadriyatlar, intilishlar-u mo'ljallar va manfaatlar, obraz va oriyentirlari-yu maqsadlari va boshqalar faoliyatining tabiiy sikli umrini o'tab bo'ldi, chilparchin holatda botin sari yuzlangan. Uning o'rnida benihoya katta kuchga ega yangi ma'nolar, yangi qadriyatlar quvvati ko'zga tashlanmoqda. Yashashning yangi gorizonti kengaymoqda", – deb metaforik tarzda tavsiflaydi taniqli olim E. Kochetov.

**Natijalar va muhokama.** Boshqaruvning maqsad va vazifalariga erishish majburlash xususiyatidagi choralar yordamida ham ta'minlanishi mumkin. Bu holatda, boshqaruv obyeksi, normativ huquqiy aktlarda ko'rsatib o'tilgan tartibda harakat qilishga majbur bo'ladi.

Agar, shaxslarning harakati huquqiy aktlarning talablariga mos kelmasa, davlat, uning organlari va mansabdor shaxslar majburlov choralari qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Ba'zi vaqtlarda bu choralar huquqiy tartibotni, jamoat tartibini, harakatlarni amalga oshirishning o'rnatilgan tartibini ta'minlovchi choralar sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqaruv uslublari mazkur uslublar yo'naltirilgan shaxslarning ongiga, irodasiga va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Bu uslublarni amalga oshirish huquq subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy ta'sirni, moddiy-mulkiy natijalarni keltirib chiqarmaydi.

Yuqoridagi "umidbaxsh" xalqaro jarayonlardan ayrimlari ijtimoiy-ma'naviy intilishlar uchun hatto to'siqqa aylanmoqda. Jumladan, globallashuv jarayoni dastlabki bashoratlarga ko'ra, davlatlarni, xalqlarni, umuman olganda, yaqinlashtirish, planetar garmoniyaga turtki bo'lmog'i nazarda tutilgan edi. Ammo kutganday bo'lmadi, bashariyatga kutilgan samara keltirmadi. Katta olimlarning tahlili va taxminiga qaraydigan bo'lsak, globallashuv keyingi paytlarda Birinchi, Ikkinchi va Uchinchi dunyolarning o'zaro yiroqlashish, ijtimoiy-madaniy rivojlanish nuqtayi nazaridan ular o'rtasida "jarlik", ya'ni tengsizlikni kuchaytirdi [5]. Nufuzli xalqaro ilmiy anjumanlarda qayd etilayotganidek, ushbu negativ holat jarayonlarni izdan chiqarib, boshqaruvdan davlatning siqib chiqarilishiga sababchi bo'lmoqda [6].

Ilmiy manbalarga asoslangan holda, qolaversa, umuman boshqaruvga nisbatan mavjud ta'rifu umumlashmalarni bir-biri bilan taqqoslash orqali ushbu fundamental politologik tushunchalar yoki kategoriyaga oid quyida o'z shaxsiy fikrimizni quyida havola qilsak. Ilmiy jamoatchilik doirasida: "davlat – bu hokimiyat tashkil etilishi va taqsimlanishiga doir turli xil institutlar, qoida-yu ko'rsatmalar va amaliy faoliyatlarining ma'lum bir kombinatsiyasi" [7], degan qisqa ta'rif bo'yicha umumiy qandaydir kelishuv mavjud. Davlat, boshqaruv xususida ta'rif-u tavsiflar son-sanoqsiz. Tarixchilar o'z fikrini bersa, huquqshunoslar va politologlar ham ulardan qolishmaydi. Har bir ta'rif, yondashuvda fan tarmoqlari metodologiyasi, yo'nalishi, funksiyasi; tadqiqot diskursi va qolaversa, muallifning milliy-madaniy ustuvorligi hamda motivatsiyasi, hatto tadqiqotga buyurtma bergan muassasaning mo'ljallari yaqqol sezilib turadi.

Bizning o'ylashimizga ko'ra, avvalambor davlat muloqotning aynan o'zi va shundan kelib chiqqan. Ya'ni davlat zimmasidagi vazifa – jamiyatni boshqarishi uchun boshqariluvchilar bilan muloqot sari borishi kerak. Bu muloqot shunchaki oddiy umr, vaqtni o'tkazish emas, jamiyat a'zolarini strategik maqsad sari jamuljam qilish. XVI - XVII asrlar orasida yashagan. J.J. Russo nazdida individlarning yolg'iz yashashi deyarli ilojsizligidan boshqalar bilan yaqinlashishga tabiiy (demak, imperativ) majburligiga borib taqaladi. Bu yerda e'tiborga loyiq bir jihat ko'zga tashlanadi. Shu muloqot ham davlat shakllanishi va ham davlat tomonidan boshqarilishdek ikki muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning bir paytda sinxron boshlanganligini anglash zarur [8]. Dastlabki xulosa shuki, bir tomondan – davlat va boshqa tomondan, ijtimoiy-siyosiy boshqaruv bir-birini immanent taqozo etadi.

O'z-o'zidan stixiy tarzda sosium (jamiyat, davlat, hamjamiyat)ni boshqarish muammosi

davlatning zimmasiga tushmoqda. U uchun bundanda mas'uliyatli vazifa (u barcha jabhada mas'ul) bo'lmasa kerak. Ammo davlat tomonidan ijtimoiy-siyosiy boshqarish uchun zarur moddiy-madaniy, ma'naviy shart-sharoit ham bo'lmog'i kerak. Zero, hozirgi palada bu borada barcha imkoniyatlar mavjud deb bo'lmaydi va bu yerda, jumladan, davlat hokimiyati e'tiborini talab qiladigan jihatlar ham yo'q emas. Bu narscha infratuzilmadan to fuqarolar ongi va tafakkuriga bo'lgan makonda ko'zga tashlanadi. Demak, davlat hokimiyati fuqarolar, fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda ish olib borishi kerak ekan. Ilmiy jamoatchilikda muhim bir fikr shakllangan. Gap shu haqdaki, "milliy davlat hududida fuqarolar o'rtasida nechog'lik "nosiyosiy", ya'ni davlat aralashmagan (u yerda ba'zi cheklovlar bo'lishi tabiiy) "bordi-keldi", samarali muloqot, kelishuvlar yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shu davlatning kuch-qudrati, boshqaruv salohiyati, bilimi, imkoniyati shuncha keng bo'lar ekan" [9].

Boshqaruvning iqtisodiy uslublari, ma'muriy uslublarning singari, faqatgina normativ hujjatlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Boshqaruv bu uslublarning tartibga solish ta'siri – boshqaruv sohasidagi ularning muhimligi, ahamiyatliligi va samaradorligi bilan ifodalanishi kerak.

Ba'zi huquqshunos olimlar tomonidan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan egri (iqtisodiy) tartibga solishning quyidagi elementlari ham ko'rsatib o'tiladi: davlat axboroti va prognozi; davlat dasturlari, kontraktlar va buyurtmalar; baho, daromad, aholi bandligi, professional tayyorgarlikni tartibga solish; soliq va amartizatsiyaviy siyosat.

Ma'muriy va iqtisodiy uslublarning turlicha mazmunga va ahamiyatga ega bo'lsalar ham, amaliyotda ular chambarchas bog'liqdir. Ular boshqaruv mazmuniga ega ekanligi; qo'llash subyektlari; boshqaruv ta'sirining obyekti; boshqaruvning maqsadiga erishish va vazifalarini bajarish; boshqaruv ta'sirini amalga oshirish shakli (ma'muriy yoki boshqaruvning huquqiy aktini qabul qilish) bo'yicha umumiy xususiyatlarga egadir. Shu bilan birga davlat boshqaruvining turli sohalarida u yoki bu boshqaruv uslublariidan foydalanish ko'p uchrab turadi. Masalan, davlat xavfsizligi organlari yoki ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda ma'muriy uslublarning ko'proq qo'llaniladi; ta'lim, fan va sog'liqni saqlash sohalarida ma'muriy uslublarning bilan bir qatorda, iqtisodiy uslublarning katta ahamiyatga ega bo'ladi; sanoat sohasida ma'muriy uslublarga qaraganda, iqtisodiy uslublarning ko'proq qo'llaniladi.

Ma'muriy va iqtisodiy uslublarning birgalikda boshqaruv ta'sirining tegishli usullar va vositalar tizimini tashkil etadi.

Ma'muriy-huquqiy uslublarning (boshqaruv uslublari) turli ko'rinishlarda: xulq-atvor qoidalarini o'rnatishda; aniq vazifalarni berishda; ma'lum bir harakatlarni sodir etishni belgilashda; lavozimga tayinlashda; boshqaruv munosabatlari ishtirokchilarining qonuniy talablarini qondirishda; ma'lum bir harakatlarni taqiqlashda; turli xildagi ruxsatnomalar berishda; ro'yxatga olish faoliyatini amalga oshirishda; kontrol va nazorat olib borishda; moddiy va axloqiy rag'batlantirishda; moddiy sanksiyalarni qo'llashda; ma'muriy nizolarni hal etishda; davlat buyurtmalarini rasmiylashtirishda; ma'muriy majburlor choralarini qo'llashda va h.k.larda namoyon bo'lishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Bugungi bosqichda jamiyat boshqaruvida davlatdan-da yuqoriroq, afzalroq institut yo'q ekan. Hozircha bu borada uning o'rinini bosishga qodir biror bir kuch yo'q.

Ilmiy manbalarga asoslangan holda, qolaversa, umuman boshqaruvga nisbatan mavjud ta'rif-u umumlashmalarni bir-biri bilan taqqoslash orqali ushbu fundamental politologik tushunchalar yoki kategoriyaga oid o'z shaxsiy fikrimizni quyida havola qilsak. Ilmiy jamoatchilik doirasida: "davlat – bu hokimiyat tashkil etilishi va taqsimlanishiga doir turli turli xil institutlar, qoida-yu ko'rsatmalar va amaliy faoliyatlarning ma'lum bir kombinatsiyasi" [10], degan qisqa ta'rif bo'yicha umumiy qandaydir kelishuv mavjud. Davlat, boshqaruv xususida ta'rif-u tavsiflar son-sanoqsiz. Tarixchilar o'z fikrini bersa, huquqshunoslar va politologlar ham ulardan qolishmaydi.

Qaysi jamiyatda xavfsizlik xususida nisbatan gap-so'z kam bo'lsa, bilingki, u yerda davlat boshqaruvni o'z qo'lga olishning uddasidan chiqqan bo'ladi. Demakki, milliy davlat o'z salohiyati, resurslari va birinchi galda milliy-madaniy, tarixiy tajriba hamda an'analarni uddaburonlik bilan ishga tushirar ekan, o'sha joyda jamiyatni boshqarish ham namunali bo'ladi. Holbuki, aynan davlat hokimiyati faoliyatida bir necha ming yillik dunyo tajribasi bilan milliy

salohiyat uyg'unlashadi, shu orqali uning nufuzi uzoq muddat saqlanib qoladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (References)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni xalqimizga va Oliy Majlisga murojaatnomasi nutqidan. // <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/20/administration/>.
2. Кочетов Э. Диалог. – М., 2011. – С. 27.
3. Х.Т. Odilqoriyev, В.Е. Qosimov. Ma'muriy huquq. – 2010. С.22.
4. Каспэ С.И. Центры и иерархии. – М., 2007. – С. 276; Каспэ Святослав. Жизнь, смерть и государство: о новых сопряжениях политического и сакрального // Россия в глобальной политике. Том 26.– Январь-февраль 2022. – №1 (113). – С. 8.
5. Федотова В.Г. Меняющаяся современность: всемирность и социальность // Вопросы философии. – 2020. – №11. – С. 9-10.
6. Кудина М.В., Ищев К.А., Ленков И.И. Государственное управление: современные вызовы // Вестник Моск. ун-та. Серия 12. Управление (государство и общество). – 2022. – №1. – С. 182.
7. Каспэ С.И. Центры и иерархии. – М., 2007. – С. 276; Каспэ Святослав. Жизнь, смерть и государство: о новых сопряжениях политического и сакрального // Россия в глобальной политике. Том 26.– Январь-февраль 2022. – №1 (113). – С. 8.
8. Руссо Ж.-Ж. О причинах неравенства // Онтология мировой философии. В четырёх томах. – М., 1970. – С. 93-94
9. Гришин Л. Генезис государства как сооставная часть процесса перехода от первобытности к цивилизации // Философия. Общество. – 2006. – №2. – С. 21.
10. Каспэ С.И. Центры и иерархии. – М., 2007. – С. 276; Каспэ Святослав. Жизнь, смерть и государство: о новых сопряжениях политического и сакрального // Россия в глобальной политике. Том 26.– Январь-февраль 2022. – №1 (113). – С. 8.

#### ABU ALI IBN SINO TASAVVUFİY QARASHLARIDA KAMOLOT BOSQICHLARI

**Nigina Karimovna Shamsutdinova,**

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsent v.b. PhD

[nigina1@mail.ru](mailto:nigina1@mail.ru)

ORCID 0000-0002-2618-6371

UDK: 1.11. 130.3

**Annotatsiya.** Maqolada Ibn Sino tasavvufiy qarashlarining mohiyati ochib berilgan. Ya'ni "Oliy Haqiqat"ni bilish tamoyilini yuqori baholagan. Tasavvufda so'fiylar boshqa narsani qabul qilmaydi va faqat haqiqatga tayanadi. Muallif fikricha, bilish va axloqiy go'zallikning yuksak shakliga erishgan shaxs "komil inson" sifatida namoyon bo'ladi. Ibn Sino o'zining allegorik risolalarida har bir shaxs "komil inson" bo'lishi mumkinligini aytib o'tgan. Bu yo'l axloqiy poklanishda va axloqiy fazilatlarining namoyon bo'lishida ko'rinadi.

Muallif Ibn Sino tasavvufiy ta'limotining sir-asrorlari, "olami akbar"ni qalb ko'zi ila ko'rish mumkinligi, hol ilmi orqali so'fiy botinini anglashi mumkinligiga alohida e'tibor qaratadi.

Shuningdek, maqolada Ibn Sinoning allegorik asarlarida bayon etilgan ruhiy holatlar qiyosiy tahlil etilgan. Mutafakkir fikricha, komil inson o'z ruhini tug'ma fazilatlar va axloqiy tamoyil bilan ko'paytiradi. Shunda komil inson fazilatli, karomat sohibi bo'la oladi, degan xulosaga keladi. Bunday inson o'z ruhini poklash orqali o'ziga xos irfoniy tug'ma qobiliyatini ishga soladi va pirovardida mukammallikning eng yuksak bosqichiga erishadi degan xulosaga keldi.

**Kalit so'zlar:** Komil inson, karomat, axloqiy poklik, tasavvuf, irfon, tariqat, tazkira, makomot, haqiqat.

#### ЭТАПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ В МИСТИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ

#### АБУ АЛИ ИБН СИНЫ

**Аннотация.** В статье раскрывается сущность мистических взглядов Ибн Сины, а

именно высокая оценка принципа познания "высшей истины". В суфизме суфии не принимают ничего другого и полагаются только на истину. Человек, достигший, по мнению автора, высшей формы познания и нравственной красоты, предстает как "совершенный человек". Ибн Сина в своих аллегорических трактатах упоминал, что каждый человек может быть "совершенным человеком". Этот путь заключается в нравственном очищении и проявлении нравственных качеств.

Также автор обращает особое внимание на тайны мистического учения Ибн Сины, на то, что "совершенный мир" можно увидеть глазами души, постичь суфийскую сущность через познание.

В статье также представлен сравнительный анализ душевных состояний, описанных в аллегорических произведениях Ибн Сины. Мыслитель считает, что совершенный человек воспроизводит врожденные качества и нравственное начало своей души. Тогда совершенный человек приходит к выводу, что он может быть добродетельным, обладающим совершенством. Такой человек, очищая свою душу, задействует свои особые врожденные способности, и в конечном итоге достигнет высшей стадии совершенства.

**Ключевые слова:** совершенный человек, нравственная чистота, мистицизм, предания, истина, суфий, аллегорический трактат, добродетель.

**Kirish.** So'fiylik ta'limoti oliy haqiqatni anglashga intilishda har qanday shaklda namoyon bo'lmagan: intuitiv bilimmi, transsendent ekstazmi yoki umumiy kosmik muhabbatmi – har qanday holatda ham, ushbu faoliyatning hal qiluvchi sharti va subyekti ilohiy mohiyat bilan inson o'zining axloqiy kamoloti qadamlarini birlikning ezgu maqsadiga ko'tarishdir. Tasavvuf ta'limotida Ibn Sinoni uning gumanistik yo'nalishi, inson tabiatning tirik jonzotlarining turlaridan biri sifatida emas, yuqori ilohiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan mavjudot sifatida qiziqtiradi.

Tasavvufiy ta'limotning mukammal ma'naviy yo'lga kirgan inson juda qattiq talablarga to'qnash keladi. Bundan tashqari, so'fiy, so'fiydan farq qiladi; har qanday odam singari u fe'l-atvori, aqliy qobiliyatlari va voqelikni estetik idrok etishi, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ibn Sino tasavvuf ta'limotining muqaddasligi va unda gnostik-oriflarning roli haqidagi mulohazalari bilan o'z o'quvchilarining mishmishlarini xush ko'rmasdan shunday deb yozgan edi: "Oliy haqiqat, unga boradigan yo'l, unga kiradigan har bir kishi uchun ochiq bo'lishi va hamma uni birma-bir bilishi juda ulug'dir"[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan ikki yuz qirqta asaridan aksariyati tibbiyot va falsafa sohasiga tegishli bo'lsa-da, ularda tasavvufiy mohiyat [2, s.103] mavjudligi jahon olimlari tomonida e'tirof etilgan. Jumladan, M. Guashon[3, s.240], Sh. Osman[4, s.184] va V. Karralarning[5, s.202] asarlarida Ibn Sinoning ruh va inson qalbi haqidagi qarashlarini to'g'ri anglashda, uning ontologik ta'limotini tizimli o'rganish muhim metodologik masala ekanligi to'g'risida ilmiy xulosalar keltirilgan. M. N. Boltayev[6, s.164]. Ibn Sino falsafiy merosidagi mantiq va gnoseologiyaning o'zaro aloqadorligi xususida fundamental izlanishlar olib borgan va olim tomonidan salmoqli natijalar qo'lga kiritilganligini alohida ta'kidlash lozim.

Tasavvuf ta'limotiga tegishli muammolarni bir butun falsafiy ta'limot va dunyoqarash pozitsiyasi sifatida keltirib o'tish va shu bilan Ibn Sinoni so'fiylar safiga joylashtirish soddaroq bo'lar edi. Yoki, aksincha, uning tasavvufiy qarashlarini darhol rad etib, buni faqat Haqiqatni izlovchi dononing oddiy qiziqishi bilan tushuntiradi. Uning so'fiylikka bo'lgan munosabati davrning urf ishtiyoqi yoki falsafiy tizimining tubdan o'zgarishi emasligi shubhasiz.

**Tadqiqot metodologiyasi** Maqolani yozishda tapixiy-falsafiy, qiyosiy va tizimli tahlil, analiz va sintez, kompleks yondashuv usullari va tarixiylik, mantiqiylik hamda vorisiylik metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Abu Ali Ibn Sinoning bilim faoliyatida tasavvuf ta'limoti xazinasidan qanday axloqiy saboq va ilmiy g'oyalarni olganligi va ularning inson va umuman, insoniyatning ma'naviy-axloqiy mukammallanishi uchun qanday foydasi va ta'siri borligi muhimdir. Haqiqatni izlab, Ibn Sino har qanday xushyoqishni va antipatiyani rad etdi va uni ijodida fidokorona himoya qildi. Ibn Sino o'zining so'fiylikka munosabatini xarakterlovchi falsafiy tadqiqotining maqsadini quyidagicha umumlashtiradi: "Bu ilmning tarkibidagi bilimlar johillarga kulgili tuyuladi, lekin u

ilmga chanqoqlarga ibrat bo‘lib xizmat qiladi. Uning haqiqatini eshitgan, lekin yuzini undan o‘giran har bir kishi, u go‘yo unga munosib emasligini aytib, o‘z ruhiga tuhmat qiladi”. Kitobxonga o‘z ta‘limotini falsafadan bexabar bo‘lgan soxta faylasuflar va falsafaning boshqa hamrohlari tomonidan o‘zboshimchalik talqin qilishdan himoya qilish talabi bilan murojaat qilgan mutafakkirning so‘zlari dono ogohlantirishdir: “Ey birodar! Darhaqiqat, men sen uchun bu “Ko‘rsatmalar” da haqiqat mag‘zini berdim va og‘zingizga eng nafis so‘zlar bilan hikmat taomini solib qo‘ydim. Uni johil va razil odamlardan va otashin onga ega bo‘lmagan, falsafada tajriba va mahoratga ega bo‘lmaganlardan, ehtiyot qilgin” [7].

Ibn Sinoning tasavvufiy qarashlarining cho‘qqisi “Hay ibn Yaqzon”, “Solaman va Absol”, “Risolat at-tayr” kabi irfoniy asarlarida so‘fiylikning asosiy g‘oyalari badiiy-majoziy shaklda aks ettirilgan. Asarlarda u inson ruhining sirini ochib berishga, insonning o‘rni va maqsadini aniqlashga, uni qadimgi yunonlarning qadimiy falsafasida haqli ravishda egallagan munosib joyiga qaytarishga qodir edi. Xuddi shu nomdagi “Hay haqida” risolasidan oqsoqol Hay (donishmandlik timsoli) o‘z suhbatdoshiga koinot sirlarini tushuntirishi, ayniqsa, uni “Fiziognomiya”ga – inson tabiati muammolari bilan shug‘ullanuvchi fanga bag‘ishlashi bejiz emas. Fiziognomiya – bu “inson tabiatining xususiyatlarini namoyon qiladigan, har kim boshqalardan sir saqlashga intiladigan”[8] fanlardan biridir. Uning funksional vazifasi nafaqat insonning fe‘l-atvori va xarakterining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, balki uni axloqiy barkamollik yo‘lidan olib borish edi. Shu sababli, amaliy fan sifatida fiziognomiya insonni yerdagi mavjudotning yomon xususiyatlari va odatlaridan xalos qilish va aqliy mavjudotlar dunyosiga yo‘l ochish uchun mo‘ljallangan tibbiy-psixologik va axloqiy bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, G‘arbdan (moddiy dunyodan) Sharqqa (ma‘naviy dunyoga) sayohat qilish (ya‘ni, axloqiy takomillashtirish va haqiqatni bilish) uchun tayyorlanar ekan, inson qayerga bormasin, unga hamroh bo‘ladigan uchta muqarrar yovuz yo‘ldoshlarini bo‘ysundirishi shart. Bu obrazli ifodalangan “hamrohlar” insonning o‘zidir. Bu, birinchidan, yolg‘onchi va gapdon sifatida harakat qiladigan odamning tasavvuridir; ikkinchidan, janjalchi deb nomlangan g‘azab kuchi va uchinchidan, nafratlangan badnafslilik bilan hisoblangan shahvat kuchi. Inson ulardan xalos bo‘lmaguncha, uning sayohati asosiy ehtiroslar dunyosi va ma‘naviy substansiyalar dunyosi o‘rtasida o‘zgarib, maqsadiga erisha olmaydi. Va faqat “o‘z ona yurtlaridan va hech kim oyoq bosolmaydigan yurtga qochish”[9] uni ulardan qutqarishi mumkin. Ammo hamma ham noma‘lum, ulardan biri G‘arbdan tashqarida, ikkinchisi Sharqdan tashqarida joylashgan o‘lkalarga bunday sayohat haqida qaror qabul qilmaydi. Ular yerning ikkita noma‘lum hududini tashkil qiladi, ularning har biri taqiqlangan chegaraga ega va “faqat tanlanganlar tabiatan odamlarga hyech qachon berilmagan kuchga ega bo‘lib, ulardan hatlab o‘tishi mumkin”[10]. Bu kuch esa insonga “turg‘un hayot chashmasidan uncha uzoq bo‘lmagan o‘ziga xos shaldiraydigan chashma”da yuvinish orqali beriladi. Unda cho‘milgan har bir kishi, albatta, poklanadi va agar u suvning hayotbaxsh ta‘mini tatib ko‘rsa, unda “insonning butun vujudiga bunyodkorlik kuch tarqaladi, bu esa unga o‘sha sahrodan o‘tish uchun yetarli tetiklik beradi va u dengiz-ummonga cho‘kib ketmaydi, Qof tog‘ining tik jarliklari uni toliqtirmaydi va jahannam qo‘shinlari uni jahannamga yumalatmaydi va oxir-oqibat u shu paytgacha undan tashqarida bo‘lgan ikki chegaralardan biriga chiqadi”[11]. Oqsoqol Hay o‘z sherigini xavfli va qiyin sayohatga tayyorlar ekan, o‘tishi kerak bo‘lgan har bir hududni o‘ziga xos tabiiy va iqlim sharoitlari bilan tasvirlaydi, bu yerda turli xil samoviy va yerdagi mavjudotlar (farishtalar, iblislar, jinlar, shayton qo‘shinlari) istiqomat qiladi, so‘zlay olmaydigan hayvonlarning har xil turlari: suzadigan, sudralib yuradigan, yuradigan va uchadigan, tug‘iladigan va o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan, shuningdek, o‘ziga xos odatlari va hayot shakllariga ega bo‘lgan odamlar, xalqlar va mamlakatlarning turli xil shaxslari, oxir-oqibat borish uchun qutb va o‘zlarini abadiy saodat olamida topadilar. Ushbu astrologik sayohat o‘ziga xos ramziy ma‘noda so‘fiyning tariqat yo‘liga kirishini, uning ruhining axloqiy va intellektual mukammallik orqali Yorug‘lik va Ezgulik saltanatiga erishishga bo‘lgan intilishlarini aks ettiradi.

Insonning ma‘naviy faoliyatida inson kashf etishi kerak bo‘lgan sir va jumboqlarga to‘la. Sayohatga taklif qilib, Oqsoqol Hay maftun bo‘lgan suhbatdoshi oldida noma‘lum bilim va ilm olamini ochadi, u go‘yo maqsadga erishish yo‘lidagi co‘fiyning qat‘iyati va maqsadi uchun mukofot sifatida Yuksak Haqiqatning yorqinligi haqida fikr yuritish bilan yakunlanadi. Bilishda



insonning axloqiy xususiyatlari, ya'ni past ehtiroslaridan va axloqsiz xatti-harakatlaridan voz kechish va haqiqat yo'lida duch kelgan shaytoniy kuchlarning vasvasalariga berilmaslik qanchalik muhim ahamiyatga ega. Eng Yuksak Haqiqat ramzi bo'lgan qutbga erishish uchun, oqsoqol Hay boshchiligidagi insonning oqilona ruhi (donolik ramzi, faol ong) oldindan qandaydir "shaldiraydigan chashma"da poklanishi kerak, ya'ni Ibn Sino mantiqni nazarda tutgan zarur metodologiya bilan qurollanish. Aynan u turg'un hayot chashmasi (intelektual sezgining ramzi) bilan bir qatorda, G'arbdan (jismoniy dunyo) Sharqqa (aqliy mavjudotlar dunyosi) cho'zilgan tabiiy va kosmik olamlarning sirlarini bilishda inson ongining yo'lini yoritadi. O'zining allegorik risolalariga so'fiylik ramziyligini bergan Ibn Sino, baribir, uning dunyoqarash yo'nalishidagi asosiy narsani – borliq va insonni nazariy tushunishda ong va falsafaning oliy ilohiy fan sifatida rolini tan olishni o'zgartirmadi. Tasavvuf ramziyligi uning falsafiy konstruksiyasiga yetishmayotgan rang-baranglik va nafislikni berdi

Intelektual mukammallik va axloqiy poklikning eng yuqori darajasiga erishgan inson Xudo bilan birlashadi. Ibn Sinoning so'zlariga ko'ra, "muhabbatning oliy subyekti muhabbatning oliy obyektini bilan, ya'ni Parvardigorning oliy va muqaddas mohiyati bilan bir xildir" va buyuk so'fiy Halloj kabi: "Anal-haq" ("Men haqiqatman") deb xitob qilishi mumkin. Ibn Sinoning tasavvufiy qarashlarida insonni ilohiy Mutlaq bilan birlashtirish va unga qorilib ketish (*fano fillah*), uning muhim asosini yo'qotish va yo'qlikka sho'ng'ish degani emas, balki o'zining haqiqiy mavjudligini topgan inson o'z-o'zini anglashning yuksak darajasini ifodalagan. Ibn Sinoning allegorik risolalarida inson ikki dunyoning xabarchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, tabiatning evolyutsion rivojlanishi mahsuli sifatida – u jismoniy dunyoning tashuvchisi, boshqa tomondan esa, ilohiy emanatsiya mahsuli sifatida kosmik prinsipni anglatadi. Ammo ruhiy tushunish jarayonida u mavjudligining ikkilanishi va uzilmasligini bartaraf etadi. O'zi bilan kosmik dunyo o'rtasidagi parchalangan uyg'unlikni tiklaydi. Aynan Sharq va G'arb o'rtasidagi qarama-qarshilikda, Yorug'lik va Zulmat, Yaxshilik va Yomonlikning ramzi bo'lib, inson ong va ijtimoiy adolat g'alabasini ta'minlashda uning ishtiroki bilan chaqirilgan asosiy qahramonga aylandi. Ibn Sino allegoriyalar orqali insonning shaxsiyati va qadr-qimmatini o'z-o'zini tasdiqlashga qaratilgan ichki izlanishlarining asl ma'nosini to'liq ifodalashga, shaxsni yolg'on, zulmat va ikkiyuzlamachilik olamidani qutqarish yo'llarini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.

Shunday qilib, yer kurrasi va transsendent dunyoning xususiyatlarini o'zida mujassam etgan dunyo jarayonining markazi bo'lib, inson oliy qadriyat deb e'lon qilinadi. Uning ma'naviy mukammalligida "uning mohiyati haqiqat qarshisidagi porloq ko'zguga o'xshatiladi. Uning uchun oliy lazzatlar mavjud bo'ladi. U ularda haqiqatning namoyon bo'lishini ko'rish uchun o'zidan quvonadi. U bir qarashni haqiqatga va boshqasini ruhiga burib, biridan ikkinchisiga o'tib ketadi".

Ibn Sino Aristotel ratsionalizmining eng yaxshi an'alarida tarbiyalangan va "haqiqatdan qadrliroq narsa yo'q" tamoyiliga sodiq qolgan bo'lib "Oliy Haqiqat"ni anglash tamoyilini yuqori baholagan. Tasavvufda so'fiylar boshqa narsani qabul qilmaydi va faqat haqiqatga tayanadi. "chunki u ibodatga loyiq va uning uchun muborak sajdagohdir. U orzu qiladigan va qo'rqadigan narsasi, faqat uning intiladigan eng oliy maqsadidir".

Shunday qilib, bilish va axloqiy go'zallikning yuksak shakliga erishgan shaxs "Men" so'fiylar tilida "komil inson" sifatida belgilangan umuminsoniy mavjudotga aylanadi. Ibn Sino o'zining allegorik risolalarida har bir shaxs "mukammal shaxs" darajasiga ko'tarila oladi. Bu yo'l axloqiy poklanish, bilim va fanlarni, birinchi navbatda falsafani egallash orqali yotadi, degan fikrni o'z izdoshlari ongiga yetkazishga harakat qiladi. Ammo shaxsning shakllanishi jarayoni bir lahzali yorug'lik harakati emas, balki samoviy sohalar singari, iyerarxik ravishda qurilgan va mukammallik bosqichlarini yengib o'tish va maqsadga erishish uchun aql bovar qilmaydigan kuch, o'zini tuta bilish, irodali harakatlarni talab qiladigan piramidal shakllanishdir.

"Mukammal shaxs" ga shakllanish jarayoni bir vaqtning o'zida o'zini anglash jarayoni bo'lib, bu insonning yaxshilik va yomonlik o'rtasida ongli tanlov qilish qobiliyatidir, bu mas'uliyatni shaxsga o'z irodasiga muvofiq harakat qilish uchun yuklaydi.

Lekin bu shaxsiyat xususiyati so'fiylik idealining aniq nusxasi emas. U so'fiy elementlarini Sharq peripatetiklarining mumtoz tasvirlari bilan birlashtiradi, ularning ildizlari antik davrning ratsionalistik an'alariga, ayniqsa Arastu falsafasining ma'naviy qadriyatlariga borib

taqaladi. Albatta, Ibn Sino bizga “komil inson”ning to’liq, keng qamrovli qiyofasini qoldirmagan. Ammo uning so’fiylik maktabi tarafdorlari xarakterining o’ziga xos xislatlarini individual tavsiflariga ko’ra, u odamlarda ideal sifatida ko’rishni istagan ba’zi xususiyatlarni fahmlash va takrorlash mumkin, boshqacha aytganda, bu xislatlar umumiy ahamiyatli xarakterga ega. Hatto sof tasavvufiy ko’ringan asarlarda ham, u ko’rib chiqqan shaxs turlari hech qanday konfessiyalardan faqat bittasi vakiliga tegishli emas edi; xuddi masalan, Soloman, Ibn Sinoning aytishicha, “sening xilma-xilligingdan, Absol esa tasavvufdagi darajalaringdan biri”dan boshqa hech kim emas edi.

Oxir-oqibatda komil insonning so’fiy qiyofasiga ko’tariladigan o’z-o’zini takomillashtirishning tasavvufiy yo’lini qabul qilib, shunga qaramay, Ibn Sino so’fiylik prinsiplarini oqilona qayta ishlashga duchor qiladi. Va bu paradigmadagi inson haddan tashqari asketizm va haqiqiy hayotdan ajralish doirasida qololmadi yoki bironing qo’lida o’yinchoq bo’la olmadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mutafakkir ijodidagi so’fiylik ramzi mutafakkirning tasavvuf doirasida o’z falsafiy tamoyillarini takomillashtirganligi va qarashlarining o’ziga xos tarzda bayon etganligidan dalolat beradi. Ya’ni tasavvufiy g’oyalarni tushunarli tarzda taqdim etishning o’ziga xos ko’rinishi edi. Ibn Sinoning so’fiylikka murojaat qilishi, insonning Yuksak Haqiqatga tasavvufiy ko’tarilishi g’oyasi uning oqilona ruhi orqali haqiqatga yo’l ochadigan inson haqidagi tasavvufiy g’oyaga mos edi. Shuningdek, ko’tarilgan va iyerarxik tabiatga ega: uning harakatini amaliy ongdan boshlab, ongli ruh aktual ong bosqichidan o’tadi va yuksak nazariy shaklga erishgandan so’ng, uning harakatining yakuniy bosqichida mavhum shakllar va g’oyalarni o’ylab topishda muhim ahamiyatga ega bo’lgan ongga aylanadi. Bu jarayonda - inson shaxsining o’zini o’zi bilish jarayoni sifatida “intelektual sezgi” orqali zaruriy-mavjudlikning mohiyatini tafakkur qiladigan “orttirilgan ong” o’zining yuksak mukammalligiga erishadi, “jonli mavjudotlar jinsini tojlaydi” va oxir-oqibat u bilan yagona substansial prinsipga qo’shib, aslida “butun jahon Logosi”ga aylanadi. So’fiy “o’zini bilish orqali haqiqatni bilish” [12] tamoyiliga amal qilgan holda, u o’zining dunyoqarashidagi asosiy narsaga – ongning rolini tan olishga va shuning uchun falsafani Mutlaq Haqiqatni anglashda va insoniy “Men”ning anglashda yuksak tasavvur qilingan faoliyat sifatida tan olishga sodiq qoladi.

Shuni hisobga olish kerakki, Ibn Sino so’fiylikka munosabatini ifodalab, uni shakllantirishning dastlabki bosqichidan boshlagan. Bu davrda tasavvufiy ta’limot hali islom dinining rasmiy mafkurasiga moslashtirilmagan edi, uning mustaqil isyonkor ruhi Yuksak Haqiqatga erishish uchun shaxs erkinligi va qadr-qimmatini ana shunday fidoyilik bilan himoya qilgan uning tarafdorlarining antropotsentrik intilishlari va radikalizmiga asos bo’ldi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

- 1.Ибн Сина. Указания и наставления. - Избр. произ. Т.1.- С.318.
- 2.Ибн Сино . Китоб ул- Ишороти. ЎЗР ФА ШИ фонди инв №2213, 11 б. II varaq. ; Ибн Сино . Рислоилу хукамо. ЎЗР ФА ШИ фонди инв №2385, varaq 101 б.-103 б. *Изоҳ: (“Юсуф”. “Саломон ва Ибсол” киссалари кетма кет келган).*
- 3.GoichonA.-M.. La distinction de l'essence et de l'existence d'après Ibn Sina (Avicenne). Paris: Paris: Desclée de Brouwer, 1937.240 p.
- 4.Osman Chanine. Ontologie et théologie chez Avicenne. - Paris: Maisonneuve, 1962. - 184 p.
- 5.Carra de Vaux. Avicenne (Les grands philosophes). - Paris : Felix Alcan, 1900.VII u. 202
- 6.Болтаев М.Н. Абу Али ибн Сина - великий мыслитель средневекового Востока, - Ташкент: Фан, 1980, с. 164.
- 7.Ибн Сина. Указания и наставления. - Избр. произ. Т.1. - С.140.
- 8.Ибн Сина. Указания и наставления. - Избр. произ. Т.1.- С.326.
- 9.Ибн Сина. Трактат о Хайе, сыне Якзана. В кн.: Сагадеев А.В. Ибн Сина. - С. 222.
- 10.Ибн Сина. Трактат о Хайе, сыне Якзана. В кн.: Сагадеев А.В. Ибн Сина. - С. 222.
- 11.Ибн-Сина. (Авиценна). Избранные философские произведения (Жизнеописание, Книга знания, Указания и наставления, Книга о душе) / Отв. ред. Асимов М.С. - М.: Наука. 1980.
- 12.Степанянц М.Т. Суфийские элементы в философии Ибн Сины // Торжество разума. - Душанбе, 1988. - С.64.

13. Шамсутдинова Н.К. Абу Али Ибн Сино тасаввуфий қарашларининг иррационал моҳияти. // Journal of central Asian renaissance // <https://www.tadqiqot.uz/index.php/renaissance/article/view/8419/801> volume 4, issue 2. 2023. P. 47-54.

14. Safarova, N. O. Philosophy of the algorithm of Abu Raikhan Beruniy. // Theoretical & Applied Science. 12(104) 2021.- Pages 419-421. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.12.104.28>

## O‘ZBEKISTONDA TA’LIMNI ISLOH QILISH VA RIVOJLANISHNING TENDENSIYALARI

**Vaxobova Marguba Abduxamidovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

“Ijtimoiy- gumanitar va aniq fanlar  
kafedrasikatta oqituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

[vahobovama@gmail.com](mailto:vahobovama@gmail.com)

ORCID 0009-0006-7050-5110

UDK: 378(575.1)

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola O‘zbekistonda ta’limni islohot qilish va rivojlanishining tendensiyalari haqida ma’lumot beradi. Maqolada O‘zbekistondagi ta’lim tizimi va undagi o‘zgarishlar, o‘qituvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar, dasturlash va texnologiyalar sohasidagi rivojlanishlar, ilmiy tadqiqotlarning o‘ziga xos yo‘nalishlari keltiriladi. Maqola O‘zbekiston ta’lim tizimining joriy holati va kelajagi uchun muhim yo‘nalishlarini belgilab beradi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarga intilishni ta’kidlaydi. Ilmiy tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish, jumladan, milliy va xalqaro miqyosda kasbiy qayta tayyorlash dasturlari va tajriba almashish bo‘yicha sa’y-harakatlarni aniqlaydi va ta’lim sifatini oshirishga hissa qo‘shadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda ta’lim tizimida ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ilmiy loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirish innovatsion texnologiyalar va ilmiy kashfiyotlar rivojiga xizmat qilmoqda, bu esa mamlakatning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va jahon ta’lim hamjamiyatiga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Shu boisdan, ilmiy tadqiqotlar O‘zbekistonda zamonaviy dunyo chaqiriqlariga samarali javob berishga va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qodir raqobatbardosh ta’lim tizimini yaratishga qaratilgan ta’limni isloh qilish va rivojlantirishning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, ta’lim, islohotlar, rivojlanish, dasturlash, texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar, ta’lim tizimi, yo‘nalishlar.

## ТЕНДЕНЦИИ РЕФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация:** Данная статья расскажет о тенденциях реформирования и развития образования в Узбекистане. В статье представлены система образования в Узбекистане и ее изменения, новые возможности для преподавателей и студентов, разработки в области программирования и технологий, конкретные направления научных исследований. Статья определяет важные направления для текущего состояния и будущего системы образования Узбекистана. Исследования в данной области подчеркивают стремление к современным подходам и инновациям образовательного процесса. Исследования также выявляют усилия по повышению квалификации педагогического персонала, включая программы профессиональной переподготовки и обмен опытом как на национальном, так и на международном уровнях, что способствует повышению качества образования.

Акцент делается на стимулирование научных исследований в рамках образовательной системы. Государственная поддержка и финансирование научных проектов содействуют развитию инновационных технологий и научных открытий, что способствует укреплению научного потенциала страны и ее интеграции в мировое образовательное

сообщество. Таким образом, научные исследования подтверждают стратегическое значение реформ и развития образования в Узбекистане, направленных на создание конкурентоспособной системы образования, способной эффективно реагировать на вызовы современного мира и обеспечить устойчивое развитие общества.

**Ключевые слова:** Узбекистан, образование, реформы, развитие, программирование, технологии, научные исследования, направление.

**Kirish.** O'zbekistonda bugungi kunga kelib, ta'lim sohasini kompleks isloh qilishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Zero, ma'lumotlar tahliliga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan XX asrda butun dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida ta'limning o'rnini va roli bilan bevosita bog'liqligini ko'rish mumkin. Va bu jarayonlar nafaqat G'arb mamlakatlariga, balki an'anaviy ravishda Sharq mamlakatlariga ham konservativ ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, O'zbekistonda yuqori darajadagi ta'lim olish imkoniyatlari dunyoda qabul qilingan rivojlangan mamlakatlar standartlaridan prinsipial jihatdan farq qilmaydi, ammo milliy rivojlanishning o'ziga xos omillari bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar mavjud.

Islohotlarning asosiy omillari: – Mamlakatning milliy xususiyatlari va zamonaviy insoniyat jamiyatining rivojlanish tendensiyalarini umumiylikni idrok etish istagini olg'a suradi. Shu munosabat bilan mamlakatda ta'lim sohasining kompleks rivojlanishi bir qator o'zaro bog'liq muammolarni hal qilishga ham bog'liqdir. Darhaqiqat, mamlakatimizda mustaqillik yillarida davlat tomonidan ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga, fuqarolarning ta'lim olish uchun konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimini demokratlashtirish amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishning noyob konsepsiyasi bo'lib, davlatning sifatli inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan siyosatini o'z ichiga oladi. Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur strategiyasini amalga oshirish (qabul qilingan kundan boshlab nisbatan qisqa vaqt ichida) ta'lim tizimining tarkibiy o'zgarishlari, ta'limning uzluksizligini amalga oshirish va unga eng zamonaviy jahon ta'lim tizimlarini shakllantirish orqali isloh qilishda aniq natijalarni berdi. Xususan, ta'limni rivojlantirishning huquqiy bazasi yaratildi.

Ta'limni boshqarish tartibi, o'qituvchilarning huquq va majburiyatlariga o'zgartirish kiritildi, o'nlab yangi darsliklar, dasturlar, o'quv qo'llanmalari paydo bo'ldi, yangi turdagi ta'lim muassasalari, shu jumladan, xususiy universitetlar ochildi, maktabgacha, kasb-hunar va o'rta maxsus ta'limni boshqarish funksiyalari belgilandi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim ham jadal o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Universitet ta'lim xizmatlari bozori tez o'sishi natijasida talabalar sonining oshishi kuzatilmoqda. Respublikaning akademik va moliyaviy avtonomiyani kuchaytirishga intilishi mehnat sharoitlarini tubdan o'zgartirib, boshqaruv tizimida samarali tuzatishlar kiritishni taqozo etmoqda. Bunday tub o'zgarishlar davrida universitetning individual raqobatbardoshligini oshirish va ta'lim sohasini rivojlantirish asosiy maqsaddir. Bu O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashni taqozo qiladi.

Jahon tajribasi oliy ta'limning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Tadqiqotchi A.V. Troximchuk zamonaviy iqtisodiy manzarasini tavsiflab, ta'lim xizmatlari muhim sohaga aylanganini ta'kidlaydi [2]. Ta'limning yalpi ichki mahsulotga ta'siri yaqqol namoyon bo'lib, inson kapitali sifatiga va natijada olingan daromadga ta'sir qiladi. Jamiyatshunos R.A. Ataxanov ta'limni iqtisodiy o'sishga va umuman texnologik taraqqiyotga yordam beruvchi omil sifatida ta'kidlaydi [3].

Olim R. Sharma zamonaviy iqtisodiyotda shaxslarni asosiy kapital deb e'tirof etish bilim va ko'nikmalarni to'plash va yangilash uchun shart-sharoit yaratish zarurligini ta'kidlaydi. Uzluksiz ta'lim konsepsiyasiga urg'u berish va barcha fuqarolarning oliy ta'lim olishdan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash ushbu yondashuvning hal qiluvchi jihatlari hisoblanadi [4]. Ushbu siljish nafaqat yosh avlod, balki ish beruvchilar o'rtasida ham ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirib, yuqori malakali ishchilar uchun ish o'rinlarini yaratish va ularni ichki mehnat bozoriga jalb qilish zarurligini aniqlashga turtki bo'lmoqda.

Ta'kidlash lozimki, Yevropada universitetlarning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy strategiyasi masofaviy ta'limni qabul qilishni o'z ichiga oladi. Bunga yaqqol misol sifatida faqat masofaviy ta'limga bag'ishlangan Germaniyaning birinchi va yagona davlat sirtqi universiteti bo'lgan Xagen sirtqi universitetidir. Fernstudium Check. Denemis portali Germaniyadagi masofaviy ta'limni taklif etuvchi eng yaxshi ta'lim muassasalari reytingini muntazam e'lon qiladi [5]. Maykrosoftning hamkor kompaniyasi Jedium mutaxassislari onlayn ta'lim an'anaviy yuzma-yuz bilim olishdan tobora ko'proq soya solayotganini ta'kidlamoqda. Jumladan, onlayn ta'lim masofaviy ta'limning mantiqiy davomi sifatida qaraladi, bu yerda "onlayn" atamasi bilimlarni o'zlashtirish usulini va o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqani anglatadi. Bu davlatlarning, xususan, O'zbekiston Respublikasining ta'lim xizmatlarini jadal rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi [6].

**Adabiyotlar tahlili.** Tadqiqot oliy ta'lim sohasidagi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari va tavsiyalaridan kelib chiqqan nazariy va uslubiy asoslarga asoslanadi. Muammolarni hal etishning uslubiy asoslari 2030-yilgacha oliy ta'limni rivojlantirish trayektoriyasini belgilovchi milliy konsepsiyadan kelib chiqadi. Shuningdek, milliy universitetlarning iqtisodiy va akademik mustaqilligini berishga doir qarorlar, tegishli materiallar va ekspert hisobotlari bilan bir qatorda, ushbu tadqiqotning muhim qismi bo'lib xizmat qiladi. Maqolani yozishda turli tadqiqot usullari, jumladan, kuzatish va faktlarni to'plash, modellash, ilmiy abstraksiya usuli va tizimli tahlil qilishda mahalliy va xorijiy olimlarning ishlaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim samaradorligini, jumladan, ta'lim xizmatlari bozorida faoliyat yuritayotgan alohida universitetlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha boshqa mamlakatlar tajribasini faol o'rganmoqda. Avvalo, oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi, infratuzilmani rivojlantirish konturlari va aniq vazifalar belgilandi. Ta'limning muqobil turlari va shakllarini ishlab chiqish va joriy etishga alohida e'tibor qaratildi.

Onlayn ta'limni joriy etish.

O'zbekistonda 2019-2020-o'quv yilidan maxsus sirtqi bo'lim talabalari uchun masofaviy onlayn darslar o'tkazila boshlandi. Onlayn o'quv platformasining o'zi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi oliy ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish markazi tomonidan amalga oshirildi. Maxsus sirtqi ta'lim uchun elektron darsliklar tayyorlandi. Shuningdek, universitetlarda sirtqi va kechki ta'lim shakllari uchun masofaviy ta'limni joriy etish rejalashtirilgan edi [7]. Koronavirus pandemiyasi sharoitida O'zbekistonning istalgan nuqtasidan Belarus va Rossiya universitetlarida masofaviy formatda ta'lim olish imkoniyati paydo bo'ldi. Shu maqsadda O'zbekistondagi masofaviy ta'lim markazi "Postupi.uz" bakalavriat va magistratura yo'nalishlarining ayrim dasturlari bo'yicha masofaviy ta'lim fakultetlari tashkil etildi [8]. Masofaviy ta'limni joriy etish bo'yicha xorijiy va mahalliy mutaxassislarning materiallarini, bir qator oliy o'quv yurtlarining ushbu jarayonni tashkil etish amaliyotini o'rganish natijasida muallif bir qator dastlabki xulosalarga keladi:

1. Koronavirus pandemiyasi davrida aynan onlayn ta'limning joriy etilgani ilg'or tajribalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga turtki bo'ldi.

2. Respublika oliy ta'lim sohasida xalqaro tajribani faol o'zlashtirish bilan bir qatorda o'z amaliyoti ham tashkillashtirildi.

3. O'zbekiston milliy ekspertlari uchun onlayn ta'limni joriy etish natijalarini, uning afzalliklari va kamchiliklarini tanqidiy baholash uchun keng imkoniyatlar maydoni ochildi. Universitet xizmatlari bozorini kengaytirish. 2021-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni [9] imzolangan bo'lib, u respublikaning bozor islohotlariga sodiqligini tasdiqladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda – Konsepsiya) oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida,

shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.[9]

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha boshqa davlatlar tajribasini faol o'rganmoqda, alohida e'tibor alohida universitetlarning ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi infratuzilmani rivojlantirish konturlarini belgilab, vazifalarni belgilab bergan muhim qadam bo'ldi. Ayniqsa, ta'limning muqobil turlari va shakllarini, jumladan, onlayn ta'limni joriy etishni ishlab chiqish va joriy etishga e'tibor qaratildi. O'zbekistonda 2019-2020 o'quv yilidan boshlab, koronavirus pandemiyasi boshlanishi arafasida maxsus sirtqi bo'lim talabalari uchun masofaviy onlayn darslar o'tkazish boshlandi. Onlayn o'quv platformasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish markazi tomonidan amalga oshirildi. Shu bilan birga sirtqi maxsus ta'lim uchun elektron darsliklarni ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlarida sirtqi va kechki ta'lim shakllari uchun masofaviy ta'limni joriy etish bo'yicha ishlar boshlab yuborildi.

Koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan muammolarga javoban O'zbekiston fuqarolari Belarus va Rossiya universitetlarida masofadan turib ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. "Postupi.uz" nomi bilan mashhur O'zbekistondagi Masofaviy ta'lim markazi bakalavriat va magistratura yo'nalishlari bo'yicha masofaviy ta'lim dasturlarini taklif etuvchi fakultetlarga qabulni osonlashtirishda muhim rol o'ynadi.

Masofaviy ta'limni joriy etish bo'yicha xorijiy va mahalliy ekspertlarning materiallarini, shuningdek, turli universitetlar amaliyotini tahlil qilib, muallif tomonidan bir qator dastlabki xulosalar chiqarildi:

1. Zamon imperativi masofaviy ta'limni keng joriy etishni taqozo etdi, bu tendensiya Covid-19 pandemiyasi davrida kuchaydi.
2. Pandemiya sharoitida onlayn ta'limning joriy etilishi ilg'or tajribalar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'z ichiga kiritish uchun katalizator bo'lib xizmat qildi.
3. Respublika oliy ta'lim sohasida xalqaro tajribalarni faol o'zlashtirish bilan bir qatorda mahalliy amaliyotlar ham vujudga keldi.
4. Onlayn ta'limning joriy etilishi O'zbekistondagi milliy ekspertlar uchun ushbu ta'lim yondashuvining natijalari, afzalliklari va kamchiliklarini tanqidiy baholash uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Ta'lim shakllarining diversifikatsiyasi:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU) misolida, asosiy ta'lim shakllarining diversifikatsiyasi kengroq oliy ta'lim tizimidagi yaqqol tendensiya hisoblanadi. "Bakalavriat + magistratura" tizimida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Sirtqi ta'lim "Ikkinchi mutaxassislik", "Masofaviy ta'lim" kabi shakllar joriy etilgan holda faol kengaymoqda. 2023-2024 o'quv yili boshlanishiga ko'ra respublikaning bir qancha oliy o'quv yurtlarida ta'limning yangi (muqobil) shakllari ulushi 60 foizdan oshdi.

Yangi bozor sharoitida kengaytirilgan ta'minot bozori: Rivojlanayotgan bozor sharoitlari ta'limga o'sib borayotgan talabni qondirish uchun kengaytirilgan taklif bozorini yaratdi. Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ta'lim bilan bir qatorda pullik ta'limning ham mavjudligi, sirtqi formatlarning paydo bo'lishi umumiy ta'lim darajasining yuksalishiga olib keldi. Ushbu kengayish ilgari istisno qilingan shaxslar uchun oliy ta'lim olish imkoniyatini osonlashtiradi [11].

Xalqaro tendensiyalarga moslashish:

Xalqaro ekspertlar pullik va masofaviy ta'limning (so'nggi 25 yil ichida 15 foizga o'sish) tarqalishining bosqichma-bosqich o'sib borayotganini qayd etishmoqda. O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirish tendensiyalari ana shu global jarayonlarga hamohang bo'lib, xalqaro ta'lim siljishlari bilan rezonansni aks ettiradi.

Axloqiy va psixologik omillar: Bu jarayonning muhim omili axloqiy va psixologik omildir. Diplomga ega bo'lmagan shaxslarni stigmatizatsiya qilish, o'qishga bo'lgan shaxsiy motivatsiyalar bilan birgalikda jamoaviy maqsad – ijtimoiy tabaqalanish va quyi ijtimoiy sinfga tushib qolish xavfini oldini olish uchun oliy ma'lumotga ega bo'lish bilan yakunlandi. Bu

motivatsiya O'zbekiston oliy o'quv yurtlari talabalari keltirgan asosiy sabablar qatorida yaqqol ko'rinadi [12].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa natijasida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasida 2017-yilda boshlangan va 2023-yilda sezilarli sur'at kasb etgan oliy ta'limning o'zgaruvchan yo'li jadal va ilg'or manzarani aks ettiradi. Ushbu tadqiqot, mamlakatdagi ta'lim rivojlanishining hayotiyliigi va dolzarbligini ta'kidlaydigan rivojlanayotgan tendensiyalarni qamrab oldi.

O'zbekiston oliy ta'lim yo'nalishlarining global siljishlarga mos kelishi, xususan, pullik va masofaviy ta'limning bosqichma-bosqich oshirilayotgani mamlakatning xalqaro ta'lim paradigmalariga integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Ushbu kelishuv O'zbekistonni rivojlanayotgan global ta'lim landshaftining faol ishtirokchisi sifatida ko'rsatadi. Muhim jihati shundaki, tadqiqot ta'lim jarayonidagi asosiy harakatlantiruvchi omillar sifatida axloqiy va psixologik omillarni belgilaydi. Ijtimoiy tabaqalanishdan qochish va yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lish istagidan kelib chiqqan holda oliy ma'lumotga ega bo'lishdek ijtimoiy maqsad O'zbekiston universitetlari talabalari orasida aks-sado bermoqda. O'zbekiston Respublikasi bozor islohotlari, universitetlarga, jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga akademik va moliyaviy mustaqillik berishda davom etar ekan, oliy ta'lim sohasi yanada o'sish va innovatsiyalarga tayyor. Ushbu sayohat nafaqat ta'limning mukammalligiga intilish, balki odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga mazmunli hissa qo'shishga intilishni ham aks ettiradi. Ushbu tadqiqotdan olingan ma'lumotlar O'zbekiston oliy ta'limining dinamik manzarasini muhokama qilish va strategik rejalashtirish uchun qimmatli asos bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [lex.uz/ru/docs/4545884#4547607](http://lex.uz/ru/docs/4545884#4547607)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. [yuz.uz/ru/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliymajlis-va-ozbekiston-xalqiga-murojaatnomasi](http://yuz.uz/ru/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliymajlis-va-ozbekiston-xalqiga-murojaatnomasi)
3. Ataxanov R.A. Ta'limga investitsiyalar: nazariya va metodologiya // Fundamental tadqiqotlar. Iqtisodiyot fanlari (08.00.00), -2018 yil 1-son, 1-bet. 25".
4. Sharma R. Digital literacy and knowledge societies: A grounded theory investigation of sustainable development Telecom munications Policy. – 2016. – № 40. – p. 628-643.
5. Distance learning in Germany. [https://studynote.ru/studgid/study\\_abroad/distantsionnoe\\_obrazovanie\\_v\\_germanii/](https://studynote.ru/studgid/study_abroad/distantsionnoe_obrazovanie_v_germanii/)
6. В. Чащин, А. Сарафанов, С. Кудрявцев. Современное онлайн-обучение: проблемы и тенденции <https://habr.com/ru/company/microsoft/blog/418111/>
7. В вузах Узбекистана вводится дистанционное заочное обучение, 2018-yil 24-may. <https://uznews.uz/posts/52487>
8. Высшее дистанционное образование. [postupi.uz/](http://postupi.uz/)
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлатнинг молиявий мустақиллигини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони”, 2021 йил 24 декабрдаги ПҚ-61-сон.
10. Trokhimchuk A.V. The impact of education on the economy in a post-industrial society // Scientific and methodological electronic journal "Concept", 2017, vol. 14, p. 294.
11. Shirinkina E.V., Baksheev S.L. The role of higher education in the formation of human capital // Fundamental research. -2016. - No. 10. - p. 223-227.
12. [telegra.ph/Toshkent-davlat-transport-universiteti-rasman-REPORTER-maqomiga-va-nishoniga-ega-boldi-10-13](https://telegra.ph/Toshkent-davlat-transport-universiteti-rasman-REPORTER-maqomiga-va-nishoniga-ega-boldi-10-13). <https://text.ru/spelling/ unauthorized>
13. Vakhobova M.A. Structural reforms in Uzbekistan: supporting future-oriented learning and teaching [cyberleninka.ru/article/n/innovative-methods-of-the-distance-learning-process-in-modern-universities](http://cyberleninka.ru/article/n/innovative-methods-of-the-distance-learning-process-in-modern-universities)

**MILLIY G'URUR VA MILLIY O'ZLIK - MILLIY QADRIYATLARIMIZGA  
AYLANGAN FAZILAT****Qurbonov Tohir Hamdamovich**Qarshi davlat universiteti falsafa va sotsiologiya kafedrası  
dotsenti, falsafa fanları nomzodi.[tohir-qurbonov1969@mail.ru](mailto:tohir-qurbonov1969@mail.ru)

ORCID.0009-0008-3283-7274

УДК 392.0 (045)

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakatimizda sodir bo'layotgan yirik ijtimoiy o'zgarishlarni yanada jadallashtirmoq, yoshlarning bunday inqilobiy o'zgarishlarga ishtiroklarini faollashtirmoq uchun, eng avvalo, ularning milliy ongida tub sifatli burilish yasamoq zarurligi ilmiy tahlil etilgan. Chunki milliy ong qancha tez rivojlansa, inson o'zini o'zi ko'proq anglaydi, jamiyatda, jamoada, oilada tutgan o'rnini yanada tiniqroq tasavvur qiladi. Bir ibora bilan aytganda, o'zining qadr-qimmatini tushunib yetadi, ya'ni milliy g'ururi uyg'onadi. Bunday murakkab ijtimoiy jarayonlar haqida to'laroq tasavvurga ega bo'lmoq uchun milliy ong va milliy g'urur orasidagi dialektik aloqadorlik mexanizmini chuqur tahlil qilmoq darkorligi asoslab berilgan.

Milliy ong har qanday millatga xos xususiyat ekanligi, voqelikning inson miyasidagi umumlashgan aksi, zamon sadosi, u har bir kishining millat manfaatini, taqdirini anglab yetishi, oldindan ko'ra bilishi, millat faoliyatini regulyatsiya qilishini o'zida mujassamlashtirishi ifodalanadi. Milliy ong murakkab ijtimoiy fenomen ekanligi, millatning eng muhim xarakteristikasidir. Millatning ushbu xarakteristikasi zamonlar o'tishi, millat manfaati o'zgarishi bilan o'zgarib, taraqqiy etib borishi ijtimoiy-falsafiy kontekstida tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy g'urur, milliy ong, qadr-qimmat, milliy manfaat, ma'naviyat, totuvlik va hamkorlik, o'zligi anglash, ona tili va adabiyotni qadrlash, milliy axloq-odob.

**НАЦИОНАЛЬНАЯ ГОРДОСТЬ И НАЦИОНАЛЬНОЕ САМОСОЗНАНИЕ -  
КАЧЕСТВА, СТАВШИЕ НАЦИОНАЛЬНЫМИ ЦЕННОСТЯМИ**

**Аннотация.** В статье дан научный анализ необходимости радикального качественного перелома в национальном сознании, прежде всего, для того, чтобы еще больше ускорить масштабные социальные изменения, происходящие в нашей стране, активизировать участие молодежи в этих изменениях. Потому что чем быстрее развивается национальное сознание, тем больше человек осознает себя, тем яснее представляет свое место в обществе, коллективе, семье, одним словом, осознает свою ценность, то есть в нем пробуждается национальная гордость. Чтобы получить более полное представление о таких сложных социальных процессах, была обоснована необходимость глубокого анализа механизма диалектической связи между национальным сознанием и национальной гордостью.

Национальное сознание выражается в обладании качествами, присущими любой нации, обобщенном отражении действительности в человеческом мозгу; в том, что оно воплощает в себе осознание, предвидение каждым человеком интересов, судьбы нации, регулирует деятельность нации. Национальное сознание - сложное социальное явление, важнейшая характеристика нации. Эта характеристика анализируется в социально-философском контексте того, как она меняется и развивается с течением времени, с изменением интересов нации.

**Ключевые слова:** национальная гордость, национальное сознание, достоинство, национальные интересы, духовность, гармония и сотрудничество, самосознание, признание родного языка и литературы, национальная мораль.

**Kirish.** Yangi O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatning taqdiri bugungi yigit-qizlarning jismoniy, ruhiy-ma'naviy, professional qiyofasi bilan bevosita bog'liq.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarni yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, yoshlarning bunday o'zgarishlarga ishtiroklarini faollashtirmoq uchun ularda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish zarur. Buning uchun esa, eng avvalo, ularning milliy ongida tub sifatli burilish yasamoq zarur. Chunki milliy ong qancha tez rivojlansa, inson o'zini



o'zi ko'proq anglaydi, jamiyatda, jamoada, oilada tutgan o'rnini yanada tiniqroq tasavvur qiladi. Bir ibora bilan aytganda, o'zining qadr-qimmatini tushunib yetadi, ya'ni milliy g'ururi uyg'onadi. Milliy g'ururi baland shaxsgina o'z millatining maqsad va manfaatlari yo'lida xizmat qila oladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz – g'ururi, oriyati ma'naviyati baland xalqmiz. Bu, hech shubhasiz, katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yo'qotib qo'ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi.

Aksincha, bu fazilatni xalqimiz, millatimizni birlashtiradigan eng kuchli tamoyilga aylantirishimiz kerak. Negaki, milliy g'ururi baland xalqning qadr-qimmatini ham baland, ma'naviyati, irodasi kuchli bo'ladi. Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga yetish mumkin" [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Milliy g'urur va milliy o'zlik dialektik aloqadorligini tahlil etishda, xususan, Markaziy Osiyo xalqlarining ilmiy-falsafiy merosi muammolarini o'rganishda Xodjayeve D.Y. [2], Q. Nazarov[3], A. Choriyev[4] amalga oshirgan ilmiy-tadqiqot ishlari ahamiyatga molikdir. Milliy g'ururni baholashda tarixiy haqiqatni, xususan milliy qadriyatlarni tiklash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash muammolarini yoritishda E.Y. Yusupov[5], A.P. Erkayev[6]; yoshlar ijtimoiy qiyofasiga ta'siri, ularda chinakam insoniy fazilatlarini shakllantirish muammolari G.N. Najimov[7], Sh. Tog'ayev[8]larning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Ushbu muammo xorij manbalarida ham ma'lum darajada tahlil etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot maqsadiga erishish va ilmiy qiymatga ega bo'lgan xulosalar chiqarish uchun, eng avvalo, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev asarlarida, ma'ruzalarida ma'naviyat, tarbiya va ta'lim, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash borasida olg'a surilgan g'oyalar, qoidalar, ko'rsatmalarga suyanildi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy sohadagi islohotlarning yoshlar ijtimoiy qiyofasiga ko'rsatgan ta'sirini o'rganishda o'zaro ta'sir va o'zaro aloqadorlik, tarixiylik va obyektivlik prinsiplariga amal qilinganligi, shuningdek, tarkibiy-funksional tahlil, fakt va argumentlarni bir-biriga taqqoslash, emperik dalillarni tahlil qilish uslublariga tayanildi.

**Tahlil va natijalar.** Milliy g'urur inson ongi va faoliyatining biri ikkinchisi bilan bog'liqligini, ushbu o'zaro ta'sir, o'zaro aloqadorlik mexanizmining xarakterini ifodalaydi. Boshqacha aytganimizda, milliy g'urur nafaqat inson milliy ongi rivojlanishi darajasining, uning amaliy faoliyatining asosiy ko'rsatkichidir.

Milliy ong har qanday millatga xos xususiyat bo'lib, voqelikning inson miyasidagi umumlashgan aksi, zamon sadosidir. U har bir kishining millat manfaatini, taqdirini anglab yetishi, oldindan ko'ra bilishi, millat faoliyatini regulyatsiya qilishini o'zida mujassamlashtiradi. Milliy ong murakkab ijtimoiy fenomen bo'lib, millatning eng muhim xarakteristikasidir. Millatning ushbu xarakteristikasi zamonlar o'tishi, millat manfaati o'zgarishi bilan o'zgarib, taraqqiy etib boradi.

Milliy ong – bu milliy madaniyatning tarkibiy qismi, uning cho'qqisidir. Milliy ong millat manfaati, istiqboli, taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan muammolarning inson ongidagi in'ikosidir. Milliy ongning shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, milliy madaniy meros zaminida vujudga keladi va rivojlanadi. Milliy madaniyati rivojlanmagan, milliy totuvlik, milliy birdamlik va milliy hamkorlik tuyg'ulari zaif bo'lgan xalqlarda milliy ong bo'lishi amri maholdir. Totuvlik va hamkorlik, o'zligini anglash, ona tili va adabiyotini qadrlash, milliy axloq-odob va urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosim-bayramlarni saqlash – milliy ong negizini tashkil etadi. O'z navbatida, xuddi shu unsurlar yagona butunga birlashib, milliylikni vujudga keltiradi.

Milliylik deganda o'z millatini ulug'lash va uning manfaatlarini himoya qilish, milliy g'urur va milliy nafsoniyat tuyg'ulari, o'z ona tili, adabiyoti, madaniyati va san'ati, dini, tarixi va urf-odatlari, rasm-rusumlari, bayram-u sayillari, bir so'z bilan aytganda, madaniy-ma'naviy qadriyatlarini qadrlash, o'zi tug'ilib, voyaga yetgan ona diyorini ardoqlash, uning tabiati, daryolari, ko'llari, musaffo osmoni bilan faxrlanish tushuniladi[4].

Milliylik bir millatga mansub kishilarning ijtimoiy-etnik barqarorligini ta'minlovchi buyuk qudratdir. Milliylikda milliy va baynalmilliy qadriyatlar uyg'unlashadi. Ushbu uyg'unlik insonning ijtimoiy qiyofasida o'z ifodasini topadi. Milliylikda milliy o'ziga xoslik, ya'ni milliy

mansublik ustuvorlik qiladi. Inson ijtimoiy qiyofasidagi milliylik turli tuyg'ularda, his-hayajonlarda, kayfiyatlarda, tasavvurlarda namoyon bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham milliylik insondagi barcha tabiiy his-tuyg'ular, belgi va xususiyatlar, kayfiyat va tasavvurlarning yig'indisidir.

“Milliylik” tushunchasi “millat” tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, undan ajralmasdir. Chunki har qanday millatning shakllanishi o'zining uzoq tarixiga ega bo'lishi bilan bir vaqtda bir millatning ikkinchisidan farq qiladigan o'ziga xos tomonlari, xususiyatlari bo'ladi. Bunday xususiyatlar milliy ruhiyatda o'z aksini topadi. Chunonchi, o'zbek, rus, ukrain, ingliz, fransuz millatlari bir-biridan o'ziga xos xususiyatlari (masalan, o'troqligi, ko'p bolali oilalar sonining ko'pligi, oilaning barqarorligi, qishloq aholisining ko'pligi) bilan ajralib turadi.

Milliylik milliy g'ururda o'z ifodasini topadi. Milliy g'ururi baland inson millat, xalq, davlat, jamiyat manfaatini o'z manfaatidan hamisha ustun qo'yadi. Millatim, elim, yurtim, xalqim, Vatanim deb yashaydi. Butun hayotini milliy istiqbol istiqboliga baxshida etadi. Ko'pchilikka foyda keltirish, kishilar dardi-tashvishi bilan yashash bunday odamlar faoliyatining mag'zini tashkil etadi. Bunday millatparvar, xalqparvar kishilar soni qancha ko'p bo'lsa, insonparvar, demokratik jamiyat qurish jarayoni shuncha tezlashadi. Milliy g'ururi baland kishilar soni ko'p bo'lgan mamlakatda millatlararo hamkorlik, totuvlik, ahillik rivoj topadi.

Milliy g'urning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri – milliy o'zligini anglashdir. Milliy o'zlik milliylikka mansub barcha xususiyat va belgilarni o'zida mujassamlashtiradi. Har bir shaxsning milliy o'zligini anglashga intilishi tabiiy jarayondir. O'zi mansub bo'lgan millat, elatga xos milliy xususiyatlar, belgilarni saqlab qolish, uni yanada rivojlantirish yoki qayta tiklash borasidagi sa'y-harakatlarining ifodasidir. Xuddi shuning uchun ham “milliy o'zligini anglash” “millat” tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. Boshqacha aytganimizda, o'zbek kishisining milliy o'zligini anglashga intilishi o'zbek millatining shakllanish jarayonini bilishga intilishining debochasidir.

Milliy o'zlikni anglash deganda har bir kishi o'zining qanday millatga mansubligini, o'zi mansub bo'lgan millatning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasini mukammal bilishi, milliy qadriyatlarga sadoqati, millat ehtiyojlari va manfaatlarini to'la tasavvur etishi, ana shu borada ko'rsatgan fidoyiligi tushuniladi. Milliy o'zligini anglamoq uchun qadimdan o'z davlati, madaniyati va qadriyatlariga ega xalq ekanligini, o'ziga xos milliy davlatchilik an'analari borligini bilishi buyuk ajdodlar tarixini o'rganishi va ularning bebaho merosidan bahramand bo'lish lozim. O'z millatiga daxldor barcha haqiqatlardan xabardor bo'lish, chunonchi, uning umumbashar taraqqiyotiga qo'shgan hissasini anglash har bir kishida shu millatga mansubligi bilan faxrlanish tuyg'usi darajasini kengaytiradi.

**Xulosa.** Milliy g'urur – Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, sadoqat, bir so'z bilan aytganda, vatanparvarlikda namoyon bo'ladi. Bu Vatanni sevish haqidagi balandparvoz gaplar, chaqiriqlar, shiorlar emas, balki haqiqiy vatanparvarlik, el-yurtning porloq kelajagi uchun, Vatan, xalq, millat farovonligi yo'lida chinakamiga halol mehnat qilishdir. Ona zaminni chin dildan sevmok, uning manfaati yo'lida butun bilim, qobiliyat, kuch-quvvatini safarbar qilmoq vatanparvarlik alomatidir. Xuddi shuning uchun ham vatanparvarlik yuksak e'tiqod, Vatan va millat oldidagi mas'uliyat, yuksak burchni anglashdir. Ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan “Vatanni sevmok iymondandir” degan hadis zamirida ham xuddi shunday mazmun mujassam.

Milliylikdan ajralgan, milliy o'zligini anglash jarayonidan tashqarida turadigan vatanparvarlik yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Chunki vatanparvarlik tuyg'usi insoniyat bosib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonida qaror topadi va rivojlanib boradi. Vatanparvarlik tuyg'usi milliy jipslashish harakatida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, vatanparvarlik tuyg'usi faqat O'zbekistonda yashovchi kishilarda emas, balki undan uzoqda – xorijda yashovchi vatandoshlarimizda ham mavjud bo'ladi.

Milliy g'ururi balqib turgan kishi uchun dunyoda o'z Vatandan, vatandoshlaridan aziz, mo'tabar qudratning o'zi yo'q. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev yozganidek: “Biz yoshlarimizni haqiqiy vatanparvarlik, azm-u shijoat, mardlik va jasorat ruhida tarbiyalashda muhtaram ziyolilarimiz, faol va fidoyi olimlarimiz hamda ijodkorlarimizning yordamiga tayanamiz. Ayniqsa, buyuk sarkarda bobolarimizning hayoti va jangovar faoliyati, harbiy merosini o'rganish hamda

yoshlarimiz o'rtasida targ'ib etish katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi taniqli olim va ijodkorlarni jalb etgan holda, "Buyuk sarkardalarimizning jasorati va harbiy merosi" turkumida tarixiy-badiiy risolalarni tezroq tayyorlab, ko'proq adadda nashr etishni yo'lga qo'yishi lozim"[1].

#### **Fodalanilgan adaiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023. 275- b.
2. Nazarov Q.N. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. –T., 1998.
3. G.N.Najimov. Narodniy traditsiya i kultura. –T.:1992.
4. Najimov G. Madaniyat va xalq an'analari. –T.: O'zbekiston, 1992. - 120 b.
5. D.Y.Xodjayeva. Ibrohim Mo'minov ilmiy merosida ijtimoiy falsafa muammolari. – T.: 2000.
6. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Yozuvchi, 1996. - 272 b.
7. Otamurodov S.,Otamurodov S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish (sotsial-falsafiy tahlil). – T.: Yangi asr avlodi. 2003.
8. Choriyev A.Ch.,Choriyev S.A. Millatlararo munosabatlar madaniyati. – Qarshi, 1993.- 68 b.
9. Choriyev A.Ch. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. Ikkinchi kitob. –T.: Chinor, 2002. -286 b.
10. Человек и культура межнационального общения. – T.: Узбекистан, 1995. -118 с.
11. Yusupov E. Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi roli. –T.: 1995.
12. A.P.Erkayev. Ma'naviyat – millat nishoni. –T.: 1999.
13. Sh.T.Tog'ayev. O'zbek xalqining milliy g'ururini shakllantirishda madaniy merosning roli. – T., 2002.
14. Yusupov E va boshqalar. Milliy masala bo'yicha falsafiy suhbatlar. –T.: Fan, 1990. - 144 b.
15. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. –T.: Universitet, 1998. - 184 b.

### **YOSHLARNING MA'NAVIY RIVOJLANISHIDA BO'SH VAQTNING ROLI**

**Saidov Baxtiyor Jamolovich**

QarshiDU falsafa va sosiologiya kafedrası dotsenti,  
falsafa fanlari nomzodi.

[odil.toshpulatov@mail.ru](mailto:odil.toshpulatov@mail.ru)

ORCID 0009-0004-2935-0546

UDK 331.32-053.81 (575.1)

**Annotatsiya.** Maqolada muallif vaqt byudjeti, ish vaqti va ishdan keyingi vaqtning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida mulohaza yuritgan. Bo'sh vaqtning vaqt byudjetidagi o'rni va ahamiyatini aniqlab bergan. Bo'sh vaqt tarkibi va uni optimallashtirish bilan bog'liq falsafiy mulohazalar tahlil qilingan va umumlashtirilgan. Bunda yoshlarning ma'naviy kamoloti ustuvor vazifa bo'lib, ularning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishi katta ahamiyat kasb etadi. Yosh shaxsning ko'plab ijtimoiy fazilatlarini ularning bo'sh vaqtida shakllanadi. Binobarin, bo'sh vaqt yoshlarning axloqiy fazilatlarini rivojlanishi yoki deformatsiyalanishi mumkin bo'lgan vaqtinchalik makondir. Tadqiqot obyekti Qashqadaryo viloyati va Qarshi shahrining 17 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlaridan (talabalar, ishchilar, qishloq aholisi) iborat bo'lib, birinchidan respublikamizda yoshlar jamiyatning eng ko'p sonli va dinamik qismini tashkil etadi. Ikkinchidan, yoshlarning bo'sh vaqtdan optimal foydalanish muammosi ularning jamiyatni ma'naviy yangilashdagi faol ishtiroki tufayli juda dolzarbdir. Uchinchidan, yoshlar tomonidan bo'sh vaqtdan maqbul foydalanish ma'naviy ehtiyojlarning yuksalishiga va shaxs ma'naviy dunyosining shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Biz bo'sh vaqtning chuqur ijtimoiy mohiyatini jamiyatning haqiqiy boyligi sifatida uni oddiy faoliyatdan ozod qilishimiz shart emas, ammo bunday vaqtning asosiy sharti uning mustaqillik qimmatini va harakatning ichki maqsadga muvofiq bo'lishidir.

**Tayanch so'zlar:** ish vaqti, ishdan tashqari vaqt, bo'sh vaqt, bo'sh vaqt strukturasi, bo'sh vaqtni optimallashtirish, yoshlar.

### **РОЛЬ ДОСУГА В ДУХОВНОМ РАЗВИТИИ МОЛОДЕЖИ**

**Аннотация.** В статье автор прокомментировал особенности бюджета времени, рабочего и вне рабочего. Определена роль и значение свободного времени в бюджете

времени. Проанализированы и обобщены философские соображения, связанные с составом свободного времени и его оптимизацией. Духовная зрелость молодежи является приоритетом, и большое значение в этом имеет эффективное использование ее свободного времени. Формирование многих социальных качеств молодого человека происходит в свободное время. Поэтому свободное время – временное пространство, где моральные качества молодежи могут развиваться или деформироваться. Объектом исследования являются молодые люди (студенты, рабочие, сельчане) Кашкадарьинской области и города Карши в возрасте от 17 до 30 лет. Это связано с тем, что, во-первых, в нашей республике молодежь – самая многочисленная и динамичная часть общества. Во-вторых, проблема оптимального использования свободного времени молодежи весьма актуальна в связи с ее активным участием в духовном обновлении общества. В-третьих, оптимальное использование молодыми людьми свободного времени напрямую влияет на рост духовных потребностей и формирование духовного мира человека.

**Ключевые слова:** рабочее время, вне рабочее время, свободное время, структура свободного времени, оптимизация свободного времени, молодёжь.

**Kirish.** Respublikamizda islohotlarning amalga oshirilishi ham iqtisodiy, ham ijtimoiy sohadagi ko‘plab vazifa va muammolarni hal etish zarurati bilan bog‘liq.

Mustaqillikning o‘tgan yillari milliy davlatchilik asoslarini barpo etish, respublikani moddiy va ma‘naviy inqiroz holatidan olib chiqish, iqtisodiyotni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish yillari bo‘ldi.

Shuningdek, bu yillar iqtisodiy tobelikdan qutulish, mustaqil davlat huquqini qo‘lga kiritish, tariximizni chuqur bilish, jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnimizni anglab olish yillari bo‘ldi.

Vaholanki, iqtisodiy va boshqa dolzarb vazifalar bilan bir qatorda intellektual va ma‘naviy salohiyatni rivojlantirish vazifalari ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning millat manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Biz bu yo‘lda islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan jamiyatimiz a‘zolarining bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, butun azm-u shijoatimizni ishga solishimiz lozim. Shundagina mamlakatimiz xalqimiz orzu qilgan, jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan, har tomonlama obod va farovon davlatga aylanadi”, [1.3-b.] deb ta‘kidlagan edi.

Bunday vaziyatda yoshlarning ma‘naviy kamoloti ustuvor vazifa bo‘lib, ularning bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishi katta ahamiyat kasb etadi.

Yosh shaxsning ko‘plab ijtimoiy fazilatlarining shakllanishi bo‘sh vaqtda sodir bo‘ladi. Binobarin, bo‘sh vaqt yoshlarning axloqiy fazilatlarini rivojlanishi yoki deformatsiyalanishi mumkin bo‘lgan vaqtinchalik makondir.

Tadqiqot obyekti Qashqadaryo viloyati va Qarshi shahrining 17 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlaridan (talabalar, ishchilar, qishloq aholisi) iborat bo‘lib, bu tasodifan tanlanmagan.

Birinchiidan, respublikamizda yoshlar jamiyatning eng ko‘p sonli va dinamik qismini tashkil etadi. Bu bo‘sh vaqtdan foydalanish va uni optimallashtirish muammosini ko‘rib chiqishda e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarning mavjudligi bilan bog‘liq. Ikkinchiidan, yoshlarning bo‘sh vaqtdan maqbul foydalanish muammosi ularning jamiyatni ma‘naviy yangilashdagi faol ishtiroki tufayli juda dolzarbdir. Uchinchiidan, yoshlar tomonidan bo‘sh vaqtdan maqbul foydalanish ma‘naviy ehtiyojlarning yuksalishiga va shaxsning ma‘naviy dunyosining shakllanishiga bevosita ta‘sir qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tadqiqotdagi empirik ma‘lumotlar davriy nashrlardan, maxsus ilmiy sosiologik jurnallardan, arxivlardan, hukumat hujjatlaridan, shuningdek tarixchilar, faylasuflar, sotsiologlar, siyosatchilar, huquqshunoslarning asarlaridan to‘plangan. Shuningdek, mamlakat Prezidentining yoshlar hamda ma‘naviy tiklanish va rivojlanish masalalariga oid asarlaridan ham foydalanilgan.

Ijtimoiy ta‘limotlar tarixida bo‘sh vaqtdan foydalanish muammosi dastlabki utopik

qarashlarda paydo bo'lgan, ammo bugungi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ko'pgina ma'lumotlar munozarali va noaniqdir.

Hozirda madaniyat markazlari (ko'ngilochar muassasalar, diskobarlar, videosalonlar va hokazolar)ning tijoratlashuvi tufayli yoshlarning bo'sh vaqtidagi mashg'ulotlarni tanlashga bo'lgan mas'uliyati va munosabatining tarbiyasi muammosini hal qilish hali-hanuz juda dolzarbligicha qolmoqda.

Yoshlarning bo'sh vaqtlari tarkibini, ma'naviy ehtiyojlarini o'rganish va tahlil qilishning dolzarbligi shundan iboratki, millatning ma'naviy tiklanishiga umid va mas'uliyat aynan yoshlar zimmasiga yuklangan. Davlatimiz rahbari o'zining Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi nomli asarida "Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning o'qishi, mehnat qilishi, bilim olishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdamiz. Chunki butun xalqimiz qatori yoshlar ham – yangi O'zbekiston bunyodkorlaridir.

Yosh avlodning fuqarolik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar, yetuk mutaxassislar etib tarbiyalash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni olib bormoqdamiz" [2,B-49-50] degan edi.

Ijtimoiy-siyosiy va falsafiy adabiyotlarda umuman yoshlar masalalariga, xususan, bo'sh vaqtdan foydalanish muammosiga doimo qiziqish bo'lgan. Shunga qaramay, "Bo'sh vaqt sotsiologiyasi"da ko'plab hal qilinmagan muammolar va bahsli masalalar mavjud.

Bu birinchi navbatda, ushbu mavzuga bag'ishlangan zamonaviy adabiyotlarda uning tasnifi bo'yicha yagona nuqtayi nazar mavjud emasligi bilan izohlanadi. Aksariyat mualliflar, masalan G.A. Prudenskiyning [3] fikriga ko'ra vaqt byudjeti ishlaydigan va ishlaymaydigan kishilarga bo'linadi, bunda bo'sh vaqt mustaqil toifa sifatida ajratiladi.

Ilgari utopik sotsialistlar T. Mor, T. Kampanella va boshqalar, ijtimoiy mehnatdan keyingi vaqtni tashkil etish masalasini ishlab chiqib, uni "o'z xohishiga ko'ra" ishlata olish, lekin bu vaqtni beparvolik bilan o'tkazmaslik, balki hunarmandchilikdan xoli soatlarni o'z xohishiga ko'ra boshqa ishlarga sarflash ajralmas shart deb hisobladi" [4, C-184-185].

Ushbu mashg'ulotlarga ilm bilan shug'ullanish, suhbatlar, mutolaa qilish, qisqa hikoyalar yoki xatlar yozish, yurish, aqlni va tana qobiliyatini rivojlantirish, faol o'yinlar, musiqa, qo'shiq aytish va boshqalar kiradi. Eng muhimi, ushbu bo'sh vaqtdan inson o'ziga va jamiyatga foyda keltiradigan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi muhim, deb hisoblaganlar [5,C-70,184-185,222,76-80].

Tanqidiy utopiya vakillari, shuningdek, ilm tomonidan olingan bilimlardan maksimal darajada foydalanish, ushbu bilimlarni to'plash va takomillashtirish, fan, san'at va hunarmandchilikning barcha yutuqlarini yanada rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydilar. Shunga qaramay, Sen-Simon bo'sh vaqtni ideal tashkil etish davlat lavozimlarini egallagan va jamiyat qaysi yo'nalishga borishi kerakligini belgilab beradigan ayrim odamlar tomonidan boshqarilmasligi kerak, deb hisoblaydi. Insonparvarlik boshqaruvi ijtimoiy organizmning o'zi tomonidan amalga oshiriladi, u bir shaxsga bog'liq emas va yetarli bilimga ega bo'lgan har bir kishi uchun ochiqdir [6, C-445-446].

B.A. Grushin, kunni ish va ishdan tashqari qismlarga ajratadi, bunda u vaqtning o'zgarimas (bajarilishi shart bo'lgan) xarajatlarini, band va bo'sh bo'lmagan vaqt elementlariga aniqlik kiritadi. Bo'sh vaqt deganda, u ishdan tashqari vaqtning yuqorida ko'rsatilgan barcha xarajatlarni chegirib tashlagandan so'ng qolgan qismini bo'sh vaqt deb tushunadi [7]. Bizningcha, bu bo'sh vaqtning eng optimal ta'rifi.

Biz V.I. Bolgov va V.D. Patrushev asarlarida ham shunga o'xshash fikrlarni uchratamiz. Biroq V.D. Patrushev ishlaymaydigan odamlarga nisbatan bo'sh vaqt tushunchasini qo'llash mumkin emasligini ta'kidlab, "ishdan tashqari vaqt" tushunchasini olib tashlashni taklif qiladi.

Bizningcha, yoshlarning ijtimoiy-demografik guruh sifatidagi vaqt byudjetini ish va ishdan tashqari vaqtlarga bo'lish to'liq oqlangandek tuyuladi, chunki ish vaqti deganda asosiy vazifalarni bajarishga sarflangan vaqt va ishdan tashqari vaqtda esa doimiy bajarilishi shart bo'lgan yumushlar yig'indisi tushunilishi mumkin. Ana shu ishdan tashqari vaqtning bir qismi bo'sh vaqtdir.

Shu munosabat bilan biz bo'sh vaqt va bo'sh vaqt mazmunini belgilashda yetarlicha aniqlik yo'qligiga e'tiborni qaratmoqchimiz. B.A. Grushin, V.D. Patrushev, V.N. Orlov, V.N. Pimenova va boshqa bir qator mualliflar asarlarida bo'sh vaqt tizimli ravishda alohida ajratilmaydi va ishdan tashqari vaqtni bo'sh vaqt, deb hisoblaydilar [8]. Bu qisman tadqiqotimizning maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Shuningdek, V.I. Bolgov, Y.I. Derebin, S.A. Shavel dam olish va hordiqni bo'sh vaqtning bir qismi sifatida ta'kidlaydi (ushbu asar muallifi ham shu fikrda), lekin shu bilan birga ularning har biri ushbu qarash asosiga turli xil mazmun qo'yadi.

Mazkur tadqiqotda XX–XXI asr olimlarining asarlari keltirilgan. O'zbekiston olimlaridan V.M. Terexov, M. Abdullayev, A. Choriyev, S. Choriyev, D. Norqulovlarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu olimlarning izlanishlari yoshlarning bo'sh vaqtdan foydalanishiga bevosita tegishli ekanligi bilan ham diqqatga sazovordir.

Shuni ta'kidlash lozimki, tadqiqot davomida O'zbekistonning ko'plab ijtimoiy fan vakillari yoshlar masalalari bilan shug'ullanganiga amin bo'ldik. Eng katta hissa qo'shgan olimlar: T. Abdushukurov, S. Otamuratov, M. Abdullayev, A. Valiyev, A. Geldiyeva, I. Tolibov, X. Po'latov, O. Umurzoqova, X. Shayxova, S. Shermuxammedov, A. Choriyev, E. Yusupov va boshqalar.

XX asrning 80-yillarida juda ko'p o'zbek olimlari yoshlar mavzusi bilan shug'ullanganligi tahsinga sazovordir. Bunga V. Xayrullayev, I. Abbosova va A. Gayzbullayevalarni misol tariqasida keltirish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda ilmiy manbalar tahlili, sintez, taqqoslash va umumlashtirish uslublaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Axloqiy tarbiya masalalariga oid ko'plab asarlar mavjud bo'lib, ular nafaqat mavzuning yangiligi, balki muammoni talqin qilishning yangi yondashuvlari bilan ham ajralib turadi. Ushbu asarlar mualliflari ma'naviyat, ma'naviy madaniyatni tiklashning ahamiyati va alohida dolzarbligini ko'rsatishga muvaffaq bo'lishdi, ular bizning e'tiborimizni bunga erishish nihoyatda qiyin ekanligiga qaratmoqdalar. Ba'zan endi biz faqat iqtisod bilan shug'ullanishimiz kerak, ma'naviyat, madaniyat va an'analarni tiklashni keyinroq qoldirilishi mumkin, degan noto'g'ri fikr paydo bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan asarlar bunday bayonotlarning noto'g'ri ekanligini isbotlaydi.

Endilikda giyohvandlik, pornografiya, dahshat va zo'raonlik filmlari, huquqiy nigilizm, yoshlarning milliy-madaniy meros va an'analardan begonalashib qolishi kabi salbiy illatlarga qat'iy barham berish vaqti keldi, bunday illatlar yoshlarning ma'naviy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, hozirda ushbu mavzuga qiziqish o'sib bormoqda. Biroq adabiyot va manbalarni o'rganish jarayonida tadqiqotchilar tomonidan e'tiborsiz qolgan fikrlar mavjudligi ma'lum bo'ldi. Bular, bizning fikrimizcha, bo'sh vaqtni optimallashtirish muammolari ma'naviy ehtiyojlarni qondirish hamda hozirgi zamon yoshlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish va rivojlantirishning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lishi kerak. Ta'kidlash joizki, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida bo'sh vaqt muammosini ishlab chiqish ko'p yillar davomida ilm-fan vakillari tomonidan amalga oshirilgan. Yillar davomida ijtimoiy-siyosiy nazariya bir necha bor qiyin davrlarni boshdan kechirdi va sezilarli deformatsiyalarga duch keldi. Shuningdek, u bo'sh vaqt tushunchasi va uni "haqiqiy boylik"ga aylantirish imkoniyati bilan bog'liq ba'zi muhim fikrlarni o'rtaga tashladi. Albatta, bu sohada yutuqlar bor, ammo muammoni har tomonlama, kompleks o'rganish va uni samarali hal qilish imkonini beradigan yutuqlar yetarli emas. Bu bizni bo'sh vaqt muammosiga yangicha va ehtimol unutilgan, eski muqobil yondashuvni izlashga majbur qiladi.

Bo'sh vaqtni tashkil etishga bunday yondashuv zarurligini falsafiy tushunish uchun tadqiqot jarayonida foydalanadigan asosiy tushunchalarni aniqlashtirish muhimdir. Avvalo, bu "bo'sh vaqt" tushunchasi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu ijtimoiy hodisaga oid turli ma'lumotlarini topish mumkin. Ushbu ta'riflarga turli xil yondashuvlar, mezonlar va muhim xususiyatlar mavjud. Tadqiqotchilarning asosiy qismi bo'sh vaqtning mohiyatini, tartibga solinmagan inson faoliyati tizimiga mos keladigan muayyan faoliyatni belgilaydi. Ushbu tizim maishiy va shaxsiy yordamchi xo'jalikdagi ishlarni va fiziologik ehtiyojlarni qondirish vaqtini istisno qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bo'sh vaqtni malakaviy baholash uning xarajatlarini tarkibi orqali taklif etiladi [9, C-16].

Vaqt byudjeti tuzilmasi quyidagicha ko'rinadi: kun, hafta, oy va boshqalar davomida odamning barcha vaqti muayyan funksiyalarni bajarish davrlariga bo'linadi. Agar biz kunlik vaqt byudjetini oladigan bo'lsak, unda soddalashtirilgan holda u ikkita teng davrdan iborat bo'ladi. Birinchisi ish vaqti deb ataladi va to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq. Ikkinchisi ishdan tashqari vaqt bo'lib, bu ish jarayondan tashqari vaqt hisoblanadi. Ishdan tashqari vaqt, o'z navbatida, undagi harakat turini yoki yo'nalishini belgilaydigan kichikroq davrlarga bo'linadi. Masalan, ishdan tashqari vaqtga ish bilan bog'liq bo'lgan vaqt kiradi: ishga tayyorgarlik, unga borishga ketadigan vaqt, ish vaqtidagi tanaffus, sanitariya-gigiyena vaqtlari va boshqalar. Ishdan tashqari vaqtga davriga uy xo'jaligi va shaxsiy yordamchi xo'jalikda ishlash, bolalarni tarbiya berish vaqti, ularga g'amxo'rlik qilish, fiziologik ehtiyojlarni qondirish vaqti va shaxsiy bo'sh vaqt kiradi.

Bo'sh vaqtdagi harakatning aynan mustaqil qiymatga o'tishi, bizningcha, insonning o'z vaqtini tashkil qilishda tashabbuskorligi va ijodiy yondashuvi shakllanishiga imkon beradi. Shu sababli, amalda inson obyektining bo'sh vaqtini ratsionalizatsiya qilishdan voz kechish va inson subyektiga bo'sh vaqtini optimallashtirish imkoniyatlarini taqdim etish mumkin, ya'ni uni o'z intilishlari va manfaatlariga moslashtirish, bu vaqtni chinakam shaxsiy vaqtga aylantiradi. Axir, sevgi, rahm-shafqat, zavq, sog'inch kabi tuyg'ular mantiqsiz va umume'tirof etilgan tasniflarga kirmaydi, shunga qaramay, bu his-tuyg'ularning aksariyati har qanday vaqtda inson xatti-harakatlarini belgilaydi va uning o'zini qimmatli qiladi yoki aksincha.

**Xulosa va takliflar.** Bo'sh vaqt tushunchasini aniqlashning turli yondashuvlarini tahlil qilish bizni shunday xulosaga olib keldi: o'zining bo'sh vaqtini qadrlovchi inson xatti-harakati va biror-bir faoliyat yoki hissiy holat bilan to'ldirilgan vaqt, uning ichki va tashqi kechinmalari mohiyatini maksimal darajada aks ettiradi, shuningdek, uning axloqiga zid bo'lmaydi.

Shunga asoslanib, biz bo'sh vaqtning chuqur ijtimoiy mohiyatini jamiyatning haqiqiy boyligi sifatida uni oddiy faoliyatdan ozod qilishimiz shart emas, ammo bunday vaqtning asosiy sharti uning mustaqil qiymati va harakatning ichki maqsadga muvofiq bo'lishi kerakligidir. Bo'sh vaqtni optimallashtirish jarayoni sifatida ijtimoiy va shaxsiy javobgarlikka asoslangan samarali ijtimoiy nazorat tizimi bilan bo'sh vaqtda eng yaxshi model va faoliyat rejimini individual ravishda qimmatli yorqin tanlash (optimallashtirish) jarayonining muhimligini ta'kidlashimiz lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022. –B. 3,49–50.
2. Пруденский Г.А. Проблемы рабочего и свободного времени. – М.: Наука, 1972.
3. Мор Т. Утопия. – М.: Наука, 1978. –С.184–185.
4. Кампанелла Т. Город Солнца. –М., 1954. –С.70.
5. Уинстэнли Д. Избранные памфлеты. – М.-Л., 1950. –С.222.
6. Морелли Я. Кодекс природы или истинный дух её законов. – М.-Л., 1956. – С.76–78 и др.
7. Сен-Симон А. Избр. соч., 1948, Т.1. – С. 445–446.
8. Грушин Б.А. Свободное время. Актуальные проблемы. –М.,1967. – С. 14–15.
9. Орлов В.Н. Культура и досуг. – М., 1984.
10. Пименова В.Н. Свободное время и всестороннее развитие личности. – М.
11. Щавель С.А. Свободное время и духовное обогащение личности. – Минск,1989.
12. Патрушев В.Д. Время как экономическая категория. – М.,1968. – С.16.
13. Соколов Э. В. Свободное время и культура досуга – М., 2011.
14. Nazarova N.J., Hasanov M.N. Talabalarda bo'sh vaqtdan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. //Academic research in educational sciences, 2022, №6. –752-758 b.
15. Nurmammedjanov A. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda bo'sh vaqtdan foydalanish. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, №10.-442-446-b.
16. Жамсуева О.С. Свободное время: теоретический аспект. // Вестник Бурятского государственного университета. Философия, 2013, №14. – С.107–110.
17. Рудакова, Ю. Е. Эффективная организация свободного времени человеком в условиях современного общества (сквозь призму социологии досуга) // Молодой ученый, 2017, № 3. – С. 519–521.

## FARZANDLARGA MILLIY OILAVIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA INTERNET VA MA'NAVIY TARG'IBOTNING O'RNI

**To'rayeva Aziza,**  
QarDU katta o'qituvchisi  
[aziza.torayeva@mail.ru](mailto:aziza.torayeva@mail.ru)  
ORCID.0009-0006-9002-1869  
O'DK: 371.398:170(0454)

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi globallashuv sharoitida farzandlarga milliy oilaviy qadriyatlarni singdirishning zaruriyati ochib berilgan. Bu borada Internet va ma'naviy targ'ibot eng ta'sirchan vosita ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki XXI asr axborot texnologiyalarining bemisl taraqqiyoti yoshlar ongu shuuriga behad ta'sir o'tkazmoqda. Bu ta'sir ikki: ijobiy va salbiy yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar tarbiyasini buzishga qaratilgan salbiy ta'sirlar-behayolik, zo'ravonlik, beparvolik, oson daromad topishga o'rgatuvchi, milliy qadriyatlarni kamsituvchi xurujlar soni oshib bormoqda. Oqibatda yoshlar ongining buzilishi ortidan butun bir millat va jamiyatning ma'naviy inqirozi yuzaga kelmoqda, oilaning turli nomaqbul shakllari paydo bo'lmoqda. Jamiyatda qadriyatlar tizimi va ijtimoiy mo'ljallar o'zgarimoqda, gumanizm o'rnini antigumanizm, individualizm o'rnini egotsentrizm egallamoqda. Ana shunday vaziyatda farzandlarga milliy qadriyatlarni umuminsoniy negizda singdirish orqaligina oilaviy muhitni yanada sog'lomlashtirish mumkin bo'ladi. Shularni hisobga olgan holda muallif oilaviy muhitni yanada sog'lomlashtirish uchun internet va ma'naviy targ'ibotdan foydalanishning samarali yo'llarini taklif etgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, oila, oilaviy muhit, oilaviy qadriyatlar, milliy oilaviy qadriyatlar, Internet, internet madaniyati, ma'naviy targ'ibot.

## РОЛЬ ИНТЕРНЕТА И ДУХОВНОЙ ПРОПАГАНДЫ В ПРИВИТИИ ДЕТЯМ НАЦИОНАЛЬНЫХ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

**Аннотация:** В статье раскрывается необходимость привития детям национальных семейных ценностей в современных условиях глобализации. В связи с этим особое внимание уделяется тому, что Интернет и духовная пропаганда являются наиболее эффективными средствами, потому что беспрецедентное развитие информационных технологий XXI века оказывает огромное влияние на сознание молодежи. Этот эффект проявляется двояко: положительно и отрицательно. Увеличивается количество негативных воздействий, направленных на срыв образования молодежи, в социальных сетях – непристойность, насилие, беспечность, обучение лёгкому заработку, оскорбление национальных ценностей. В результате разращения сознания молодёжи возникает моральный кризис всей нации и общества, различные неадекватные формы семьи. В обществе меняются система ценностей и социальные цели, гуманизм заменяется антигуманизмом, индивидуализм - эгоцентризмом. В такой ситуации улучшить здоровье семейной среды можно будет только путем привития детям национальных ценностей на всеобщей основе. Принимая это во внимание, автор предложил эффективные способы использования Интернета и духовной пропаганды для оздоровления семейной среды.

**Kirish.** Globallashuv jarayoni axloqsizlikni targ'ib qiluvchi axborot va ma'lumotlarning ko'payishiga, mamlakatimizga nosog'lom turmush tarzini yorituvchi filmlarning kirib kelishiga, ota-ona va farzandlarning qadriyatlar sistemasi o'rtasida tafovut paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu omillar esa farzandlarning oiladagi xulq-atvorining o'zgarishiga olib kelmoqda. Shu bois ushbu jarayonlar farzandlarga milliy oilaviy qadriyatlarni singdirish masalalarini yangi voqelik kontekstida mufassal tadqiq etish, uning samaradorligini oshirish omillarini o'rganish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda. Davlatimiz rahbari o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida yangi ma'naviy makonni yaratishda oilaviy qadriyatlarga bepisand va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsiz qarash kabi illatlarga barham berishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb ekanligini ta'kidlagani ham bejiz emas [1.23].



Biroq o'tgan asrning so'ngida avj olgan globallashuv jarayoni milliylikning barcha elementlariga tahdid sola boshlagani kabi milliy oilaviy qadriyatlar tabiatiga ham raxna solmoqda. Masalan, "g'arbona turmush tarzining azaliy nasroniy qadriyatlari sanalgan fidoyilik, mehribonlik, sadoqat, iymon-e'tiqod kabi fazilatlarining faqat shaxs manfaatlarining qondirilishiga qaratilgan individualistik qarashlar tomonidan siqib chiqarilgani" [9.21] G'arb olamida oila-nikoh munosabatlari inqiroziga olib keldi. Globallashuv jarayoni esa jadallik bilan rivojlanib borayotgan yangi axborot texnologiyalari yordamida ushbu illatni butun sayyora bo'ylab tarqatmoqda. Bu illat esa nafaqat o'zbek xalqining, balki barcha xalqlarning oilaviy qadriyatlariga tahdid solmoqda.

Ko'rinib turibdiki, globallashuv sharoitida ijtimoiy voqelikning jadallik bilan o'zgarib borayotgani milliy oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish bilan bog'liq yangi va yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Buning natijasida adabiyot va san'atning, kino va teatrning, televideniye va radioning, gazeta va jurnalning, Internet va ma'naviy targ'ibot sistemasining farzandlarga oilaviy qadriyatlarni singdirish borasidagi imkoniyatlarining yangi qirralarini izlab topish zarur bo'lmoqda. Yangi asrda o'zbek oilasidagi muhitni sog'lom xarakterda saqlab qolishning samarali yo'li ham shunda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asari maqolani tayyorlashda nazariy-metodologik asos vazifasini bajardi. Taniqli o'zbek olimi A. Erkayev o'zining "Ma'naviyat-shunoslik" kitobida zamonaviy ommaviy madaniyat kishilar ongi bilan manipulyatsiya qilish, uni boshqarishning yangi texnik imkoniyatlari va vositalari bilan boyib borayotganligi xususida mulohaza yuritadi. Tadqiqotchi V.P. Petrov esa virtual olamda inson ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayoni kuchayib borayotganligiga e'tibor qaratadi, virtual olamning axborotga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilayotganligini ta'kidlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Globallashuv jarayonining yoshlar ongiga ta'sirini aniqlashda dialektika uslublari va usullari, prinsiplari va imperativlari, ilmiy manbalarni tahlil qilish uslubidan foydalanildi. Oilaviy muhitni yanada sog'lomlashtirish yo'llari va choralarini ishlab chiqishda nazariy-mantiqiy va gnoseologik uslublarga tayanildi.

**Talqin va natijalar.** XXI asrning uchinchi o'n yilligiga kelib Internetning jadallik bilan rivojlanib borayotgani farzandlarga milliy oilaviy qadriyatlarni singdirishda uning imkoniyatlaridan ham foydalanish zaruriyatini kun tartibiga qo'ymoqda. Bugungi kunga kelib Internet eng samarali va ta'sirchan ommaviy axborot vositalaridan biriga aylanib ulgurdi. Eng muhimi, bugun Internet insoniyat madaniyatini rivojlantiruvchi omil vazifasini o'tamoqda. Uning sharofati bilan XXI asrga kelib "yopiq madaniyatlar" deyarli qolmadi, milliy madaniyatlar o'rtasidagi dialog kuchaydi va intensivlashdi. Internet fenomeni insoniyat madaniyati taraqqiyoti uchun yangi istiqbollarni ochib bermoqda.

Internet o'z tarmog'iga borgan sari ko'proq foydalanuvchilarni tortmoqda. Buning e'tiborga loyiq sabablari bor, albatta. Masalan, Internet virtual suhbat chog'ida shaxsning anonimligini saqlab qoladi, unga o'z obrazini o'zi istagan xususiyatlar asosida yaratish imkonini beradi. Shuningdek, Internet orqali zaruriy materiallarni qisqa muddatda izlab topish, ma'lumotlar olish, turli klublarga a'zo bo'lish, mahsulotlar xarid qilish imkoniyatlari katta. Axborot davri madaniyatining o'ziga xos xususiyati ham shunda: biz virtual reallik orqali ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etamiz, o'z ehtiyojlarimizni qondiramiz [11.50].

O'zbekistonda ham keyingi yillarda Internetdan foydalanuvchilar soni keskin oshdi. Jumladan, 2022-yilga kelib mamlakatda Internet xizmatidan foydalanuvchilar 31 million kishidan oshdi [12]. Kelajakda ushbu ko'rsatkichning yanada o'sishi kutilmoqda. Chunki mamlakatda Internet xizmatini ko'rsatish tariflari bosqichma-bosqich kamaytirib borilmoqda. Optik tola orqali internetga ulanish xizmatining yo'lga qo'yilishi esa foydalanuvchilar uchun yangi qulayliklarni taqdim etmoqda. Aynan foydalanuvchilar sonining yildan yilga oshib borayotgani Internetni milliy oilaviy qadriyatlarni farzandlar ongiga singdirishning muhim vositasiga aylantirmoqda.

Lekin bu imkoniyatlardan foydalanish masalasiga kelsak, ko'plab kamchiliklar va e'tiborsizlik ko'zga tashlanadi. Xususan, hanuzga qadar Internet tarmog'i orqali milliy qadriyatlarni targ'ib etish ishlari sistemaviy xarakter kasb etgani yo'q. Bu hol milliy oilaviy qadriyatlar targ'ibotiga ham xalal bermoqda.

Farzandlar ongiga milliy oilaviy qadriyatlarni singdirish borasida Internet imkoniyatlaridan kengroq foydalanish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

a) "Oila" ilmiy-amaliy markazining saytida o'zbek oilasi tarixini, oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini, ota va onaning oiladagi nufuzini, milliy oilaviy qadriyatlar mazmunini, bugungi kunda o'zbek oilasiga tahdid solayotgan omillarni yoritib beruvchi materiallarni muntazam suratda joylashtirib borish zarur;

b) "Oila" nomli elektron jurnal tashkil qilish ham maqsadga muvofiq. Asosiy vaqtini Internet yordamida o'tkazishga, masofaviy ta'lim uslub va usullari orqali kasb egallashga, axborotlarni elektron shaklda olishga tobora moslashib borayotgan o'zbek yoshlari uchun bu jurnal oilaviy qadriyatlarni o'zlashtirish manbaiga aylanadi;

v) Internet sahifalari orqali tarqatilyotgan ayrim bo'htonlarga zudlik bilan javob berish mexanizmining shakllantirilishi ham muhim ahamiyatga ega. Bunda bo'htonga javob tariqasida tayyorlangan maqola sarlavhasi opponent maqolasining sarlavhasidek qo'yilishi va bo'htonni tarqatayotgan saytda joylashtirilishi, ayniqsa, samara beradi. Bunga o'xshash tadbirlar farzandlar ongidan milliy oilaviy qadriyatlarni surib chiqarishga qaratilgan sa'y-harakatlarni puchga chiqaradi;

g) yoshlarda Internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish ham dolzarblashib ketdi. Bu vazifani bajarish uchun yoshlarga media ta'limdan tahsil berish jarayonining samaradorligini oshirish, axborot makonidagi asosiy subyektlar va ularning maqsadlari to'g'risida ma'lumot berish talab qilinadi.

Internet xizmatidan foydalanuvchilarning katta qismi yoshlardan iboratligini inobatga olsak, yuqoridagi tavsiyalarning jiddiy ijtimoiy ahamiyatga egaligi ma'lum bo'ladi.

Zamon milliy oilaviy qadriyatlarni singdirishni ma'naviy targ'ibot ishlarining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirishni taqozo qilmoqda. Chunki ko'plab rivojlangan mamlakatlarda oilani ijtimoiy institut sifatida yemirib yuboradigan, undagi qadriyatlarni tanazzulga eltadigan omillar ko'paygandan ko'paymoqda. Masalan, Amerikada "ota" va "ona" so'zlarini "tug'uvchi №1" va "tug'uvchi №2" so'zlari bilan almashtirishga urinishlar yuzaga kelmoqda. Shvetsiyada esa bolalarni jinsiy belgilari bo'yicha bo'lmaydigan bolalar bog'chalari ochilmoqda. Vaholanki, bola 4-5 yoshidayoq o'zini shaxs sifatida identifikatsiya qilishi, o'z jinsini yaxshi bilishi zarur. Aks holda uning shaxsining degradatsiyasi boshlanadi [12.32]. Yigirmaga yaqin [2.275] mamlakatda bir jinslilar nikohi qonunlashtirib qo'yildi. Ammo bu fakt shu bilan tugamayapti, balki bunday holatlarning tajovuzkor, majburan tiqishtirilayotgan tashviqoti yanada xavfli tus olmoqda. Fransiyada tegishli qonun qabul qilinganidan keyin ilk bora rasmiylashtirilgan bir jinslik nikohni ro'yxatga olish marosimi 2013-yil may oyining oxiri iyun oyining boshiida "Euronews" kanallari orqali to'xtovsiz ravishda bir hafta davomida ko'rsatildi. Bu kabi bema'ni takliflar va "innovatsiyalar" ko'payib borayotgan bir sharoitda puxta rejalashtirilgan ma'naviy targ'ibotgina milliy oilaviy qadriyatlarni har tomonlama himoya qila oladi.

Har yili 800 mingdan ortiq bola tug'iladigan davlatimizda (Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida qariyb 900 ming tug'ilish qayd etilgan) [14] maktabgacha yoshdagilarning soni 5 milliondan oshib ketadi. Shuncha bola uchun respublikamizda milliy tarbiyaga oid yaratilgan multfilmlar kichkintoylar tomosha qilayotgan filmlarning juda kam foizini tashqil qilishi ham ayni haqiqat. Holbuki, rivojlangan davlatlarda multfilm yoshlar ong-tafakkuriga sayqal berishning qulay va ommalashgan usuli hisoblanadi.

Mustaqilligimizning yangi bosqichida ham ma'naviy targ'ibot ishlariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 26- martda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining qabul qilinishi shundan dalolat beradi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi tuzilmasidagi o'ziga xos o'zgarishlar qatorida "Raqamli targ'ibot" bo'limi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatining tuzilishi, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining tashkil qilinishiga oid vazifalarning belgilab berilishi, ma'naviy targ'ibot uslub va usullariga bag'ishlangan adabiyotlarning nashr etilishi va hokazolar shundan dalolat beradi. Davlatimiz rahbari tomonidan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarining ilmiy jamoatchilikka taqdim qilinishi esa bu yo'nalishdagi tadbirlarga yangicha ruh, yangicha mazmun baxsh etdi. Bugungi kunda

mamlakatimizda ma'naviy targ'ibot ta'siri yetib bormagan birorta shahar yoki qishloq qolmadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Keyingi yillarda O'zbekistondagi ma'naviy targ'ibot tadbirlari sistemaviy tus olgani ham diqqatga sazovor.

Ayni paytda ma'naviy targ'ibotning hali yetarlicha e'tibor qaratilmagan jabhalari ham mavjud. Jumladan, milliy oilaviy qadriyatlar targ'iboti ma'naviy ishlarining muhim yo'nalishiga aylanib ulgurgani yo'q. Ma'naviy tadbirlarda yangi axborot texnologiyalardan foydalanilishi ham zamon talablaridan yiroq. Eski, samara bermaydigan uslub va usullarning saqlanib qolayotgani ham tadbirlar samarasini tushirmoqda.

Ma'naviy targ'ibot samarasini oshirish, farzandlar ongi va faoliyatiga milliy oilaviy qadriyatlarni singdirish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

a) milliy oilaviy qadriyatlar targ'iboti viloyatlarda amalga oshirilayotgan ma'naviy targ'ibot ishlarining muhim yo'nalishidan biriga aylanmog'i darkor;

b) yoshlarning axborot texnologiyalaridan foydalanishga moyilligini e'tiborga olgan holda ma'naviy tadbirlarda elektron vositalarni qo'llashni yo'lga qo'yish zarur;

v) Ma'naviyat targ'ibot markazi negizida "Ma'naviy targ'ibotning zamonaviy uslub va usullari" nomli manbalar bankini vujudga keltirish, unda jahonning eng samarali ma'naviy targ'ibot metodikalarini umumlashtirib borish kerak.

Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi farzandlar ongiga milliy oilaviy qadriyatlarni singdirishda qatta imkoniyatlarni yuzaga keltiradi, oila institutini hozirgi zamon ma'naviy tahdidlaridan himoyalaydi.

**Xulosa.** Xulosa qiladigan bo'lsak, globallashtirish jarayonining salbiy ta'sirining oldini olish va oilaviy muhitni yanada sog'lomlashtirish uchun farzandlar ongi va faoliyatiga milliy oilaviy qadriyatlarni singdirish masalalariga alohida e'tibor berish zarur. Buning uchun internet va ma'naviy targ'ibotning potensial imkoniyatlaridan kengroq foydalanish taqozo etiladi. Bu imkoniyatlarning voqelikka aylanishi farzandlarning oiladagi va jamiyatdagi xulq-atvorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.:Ўзбекистон, 2021.
2. Эркаев А. Маънавиятшунослик. Биринчи китоб. –Т.: Маънавият, 2018, 275-б.
3. О. Мусурмонова. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Т.: Маънавият, 2008.
4. Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Т.: Маънавият, 2009.
5. Oila psixologiyasi. / G'. Shoumarov tahriri ostida. – Т.: Sharq, 2008.
6. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 2000.
7. Чиниева С. Ўзбек оилаларида китобхонлик воситасида ўсмирлар маънавиятини шакллантириш: Пед.ф.н. ... дисс. – Тошкент, 2006.
8. Шодмонова Ш. Оилада кичик мактаб ёшидаги болаларни миллий қадриятлар асосида ахлоқий тарбиялашнинг педагогик асослари: Пед.ф.н. ... дисс. – Тошкент, 2001.
9. Зокир Б. Ғарб тамаддуни: инқироз аломатлари. // Тафаккур. – 2007. –№2. – 21 б.
10. Шаропова М., Шаропов Ж. Оилада ёш авлод тарбияси – жамият кудрати мезони. // Фуқаролик жамияти. – 2009. – №4., –41-б.
11. Петров В.П. Интернет в мировом информационном пространстве // Основы безопасности жизнедеятельности. - 2008. - № 8.- С.50.
12. "Оно" пошло в детский сад.// Аргументы и факты – 2011 - №29 – С.32.
13. <https://www.gazeta.uz>. 2022/12/15.
14. <https://kun.uz/36748101>.

**ADDIKTIV AXLOQ EGALARI MUAMMOLI FAOLIYATINING  
FALSAFIY TAHLILI****Toshpo'latov Dostonjon Nodir o'g'li**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrası o'qituvchisi[toshpulatov@gmail.com](mailto:toshpulatov@gmail.com)

ORCID: 0009-0005-2422-1152

UDK: 301.085:15:171/179(045)

**Annotatsiya:** Muallif ushbu maqolada jamiyatdagi axloqsizlikning shakllaridan biri hisoblangan addiktiv axloq ya'ni kashandalik, ruhiy to'belik, shaxsning biron predmetga qaram bo'lishi va ushbu ob'yekt shaxs ustidan hukmronlik qilishi haqida yozadi. Axloq - bu odamlar va jamiyatlarni to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarni farqlashda boshqaradigan tamoyillar yoki qadriyatlar to'plami. U inson xulq-atvorining turli tomonlarini, jumladan, harakatlari, niyatlari, fikrlari va hissiyotlarini qamrab olishi mumkin. Lekin axloqning yana bir shunday shakli borki, shaxsni halokatli yo'lga olib kiradigan va o'z kelajagiga o'zi bolta uradigan addiktiv axloq shakli hisoblanadi. Shaxs axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bunday illatlar bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanmoqda.

**Kalit so'zlar:** Axloq, shaxs, addiksiya, axloqiy madaniyat, farmokologik-substansional qaramlik.

**Abstract:** In this article, the author writes about addictive morality, which is considered one of the forms of immorality in society, that is, addiction, mental dependence, a person's dependence on an object and the domination of this object over a person. Morality is a set of principles or values that guide people and societies in distinguishing between right and wrong behavior. It can encompass various aspects of human behavior, including actions, intentions, thoughts, and emotions. But there is another form of morality, which is an addictive form of morality that leads a person down a destructive path and destroys his own future. Such vices, which have a negative impact on personal morals, are considered one of the most urgent issues of today.

**Key words:** Ethics, personality, addiction, moral culture, pharmacological-substance dependence.

**Kirish** Biz axloq, xulq, odob haqida bog'chada ham, maktabda ham, oilada ham, ma'raka-yig'inlarda ham ko'p eshitgansiz, radio-televideniye, matbuot doim axloq to'g'risida gapiradi. Hadislar-u rivoyatlar, mashhur imom-xatiblarning va'zlari-yu she'r-u romanlar, masal-u matallar hammasi bitta narsaga qaratilgan: inson bolasi yuksak axloq egasi bo'lmog'i lozim.

Bugungi kunda jamiyatda yaxshilikka intilib, yomonlikdan tiyilish, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish, zo'ravonlikdan voz kechish va hayotni hurmat qilish, hamjihatlik va ijtimoiy adolatga asoslangan tartib o'rnatish, sabr-toqat va bag'rikenglik, burch va ma'suliyat bilan inson omilini to'liq ro'yobga chiqarish qadriyat darajasiga ko'tarildi va bunday ma'naviy muhitni qaror toptirish ahamiyati kun sayin o'sib bormoqda. Chunki, axloqiy ong va munosabat, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy siyosiy muloqot va o'zini o'zi anglash, o'z- o'zini tanqid orqali o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini takomillashtirish zarurati jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitini, uning qiyofasini va ijtimoiy taraqqiyotining yo'nalishlarini belgilab beradi.[1]

**Tadqiqot metodologiyasi** Maqolada addiktiv axloq egalari muammoli faoliyatining falsafiy tahlili mohiyati o'rganilishida analiz va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Natijalar va muhokama** Axloq - bu odamlar va jamiyatlarni to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarni farqlashda boshqaradigan tamoyillar yoki qadriyatlar to'plami. U inson xulq-atvorining turli tomonlarini, jumladan, harakatlari, niyatlari, fikrlari va hissiyotlarini qamrab olishi mumkin. Lekin axloqning yana bir shunday shakli borki, shaxsni halokatli yo'lga olib kiradigan va o'z kelajagiga o'zi bolta uradigan addiktiv axloq shakli hisoblanadi.

Addiktiv axloq (inglizcha addiction) – kashandalik, qaramlik, ruhiy tobelik ma'nolarini anglatadi. Addiktiv axloq – deviant (og'uvchi) axloqning ba'zi moddalarni qabul qilish yoki

e'tiborini doimiy ravishda shiddatli hissiyotlarini rivojlantirish va qo'llab turishga yo'naltirilgan faoliyatning ma'lum bir turiga qaratish vositasida o'z ruhiy holatini o'zgartirish yo'li bilan voqelikdan qochishga intilish hosil bo'lishi shakllaridan biridir.[2] Bu jarayon kishini shunchalik qamrab oladiki, hatto uning hayotini boshqara boshlaydi. Kishi o'z ishtiyoqi oldida nochor bo'lib qoladi. Iroda kuchi zaiflashadi va addiksiyaga qarshilik ko'rsatishga imkon bermaydi.

Berilgan ma'lumotlarga muvofiq addiktiv axloqning quyidagi shakllari mavjud:

Kimyoviy bog'liqlik (chekish, taksikomaniya, giyohvanglik, dorilarga muxtojlik, ichkilikka bog'liqlik);

Ovqatlanish axloqining buzulishi (ko'p yeyish, ochlik. Taomlardan voz kechish);

Geymbling – sportga va turli xil o'yinga tobelik (kompyuterga bog'lanib qolish, azart o'yinlar);

Jinsiy addiksiya (zoofiliya, fetishizm, vuayerizm, nekrofiliya, sadomazoxizm);

Ish yoki mehnatga qaramlik va boshqalar.

Bog'lanib qolgan (addiktiv) axloq shaxs deviant axloqining turi sifatida, o'z navbatida, addiksiya obyekti bo'yicha ayniqsa, differensiyalanadigan ko'plab turchalarga ega. Nazariy jihatdan (ma'lum bir sharoitlarda) bular qanday obyekt yoki faollik shakllari bo'lishi mumkin? - kimyoviy moddalar, pul, ish, o'yinlar, jismoniy mashqlar yoki jinsiy aloqa.

Ma'lumki, umuminsoniy tajriba, ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar, bilimlar va faoliyat usullari shaxs tomonidan boshqa odamlar bilan muloqotlar jarayonida o'zlashtiriladi, addikt esa o'zini bu jarayonlardan to'xtatadi. O'z hayotiy tajribasini boyitishdan to'xtaydi, shu orqali muloqotning eng muhim vazifalarini buzadi. Addiktning boshqa odamlar bilan birgalikdagi faoliyati jarayonida o'zaro qiyinchiliklar yuzaga keladi. Muloqotning disfunktsional jarayonlari bilan bir qatorda shaxslararo persepsiyaning identifikatsiya, empatiya, refleksiya kabi ahamiyatga ega bo'lgan mexanizmlari buziladi, o'zgarib ketadi va o'z qiymatini yo'qotadi. Demak, o'zini hamkor o'rniga qo'yib ko'rish, qo'shib qayg'urish, o'zini atrofdagilar qanday qabul qilishini tasavvur etish layoqati yo'qoladi.[3]

Addiktiv xulqning rivojlanishi sezilmasdan kechadi. Boshida addiktiv xulq shaxs ehtiyojlarini qondirishda ko'rinadi. Keyin asta-sekinlik bilan shaxs o'zi nazorat qila olmaydigan xulq-atvorga aylana boshlaydi. Addiktiv xulqning davomiyligi shaxsning qabul qilayotgan moddasiga qarab, uning yoshi, jinsi, individual xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Addiktiv shaxs qiyin hayotiy vaziyatdagi muammosining yechimini topishga emas, balki undan qochishga harakat qiladi. Adaptatsion imkoniyatlar ham psixojismoniy darajada buzilishni boshlaydi.

Birinchi bosqichda shaxsda psixologik diskomfort yuzaga keladi. Har bir shaxs o'zining kayfiyatini birdan tushib ketishiga har xil qaraydi. Ba'zilar qiyin hayotiy vaziyatga tabiiy qarshilik yuzaga keladi, ya'ni sodir bo'layotgan voqea, qabul qilingan qaror uchun javobgarlikni bo'yniga olmaslik kuzatiladi. Ba'zilar esa qiyin hayotiy vaziyatdan chiqish uchun bor kuchlarini sarflaydilar chunki oqibatda muammoni yechish imkonsiz bo'lib qolishini tushunadilar.

Addiktlar esa og'ir hayotiy vaziyatni boshdan kechirishda qiyinchiliklarni unchalik ham xis qilmaydilar. Bunday odamlar muammodan halos bo'lish uchun ongini sun'iy ravishda o'zgartirishga va ijobiy hissiyotlarni olishga intiladilar. Bundan keyin shaxsda muammoni hayoliy illyuzion yechimi paydo bo'ladi. Ushbu usul muammolarni hal qilishning boshqa usullaridan ustun turishga qodir. Bu esa shaxs xatti-harakatlarida osongina o'rnatiladi va muammoni tabiiy usulda hal qilishga xalaqit beradi. Shuningdek ushbu usul muammoni hal qilishda oson kechishi bilan addikt o'ziga jalb etadi. buning oqibatida shaxsda muammolaridan izolyatsiya bo'lish, muammolarni va o'zini qiynayotgan narsalarni shunchaki unutish kuzatiladi.

Addiktiv xulq egasida yaqin insonlari bilan muloqotda ham muammolar kuzatiladi, yaqinlariga yengil munosabat seziladi. Addikt yolg'izlik va chekinish (o'zi-bilan o'zi) bo'lishni xohlaydi.

Addiktiv axloq insonning o'z ong holatini o'zgartirish orqali o'zi yashab turgan real hayotidan qochishi yoreallikni shu orqali tark etishidir.

Axloqning addiktiv shakliga ega bo'lgan shaxslarning quyidagi psixologik xususiyatlari alohida ajratiladi:

1. Inqirozli vaziyatlarga yaxshi chidamlilik bilan bir qatorda qiyinchiliklarga chidamlilikning pastligi. Bunga shaxsda gedonistik yo'l-yo'riqlar mavjudligi – darhol qoniqishga ega bo'lish, o'z istaklarini qondirishga intilish sabab bo'ladi. Agar istaklar qondirilmasa, unda addiktlar yoki salbiy hissiyotlarning portlashi, yoxud paydo bo'lgan muammolardan qochish orqali munosabat bildiradilar.

2. Tashqaridan namoyon qilingan ustunlik bilan uyg'unlashgan nomukammallikning yashirin kompleksi. Kayfiyatning tez-tez o'zgarishi, ishonchsizlik, ularning layoqatlari ob'ektiv ravishda tekshirilishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan qochishda o'z aksini topadi.

3. Yolg'on gapirishga intilish. Addiktlar ko'pincha o'z va'dalarida turmaydilar, subutsizliklari, qoidalarga rioya qilmasliklari bilan ajralib turadilar.

4. Mustahkam his-hayajonli muloqotlar oldidagi qo'rquv bilan uyg'unlashgan tashqi ijtimoiy munosabatlar.

5. Ular boshqalarning aybsizligini bilib tursa-da, ayblashga intiladilar.

6. Qarorlar qabul qilishda javobgarlikdan qochishga intilish. Javobgarlikni boshqalarga ag'darish, zarur vaqtda oqlovchi dalillarni izlash.

7. Axloqning stereotipligi, takroriyliigi. Axloqning yuzaga kelgan stereotipini oldindan bilsa bo'ladi, lekin uni o'zgartirish qiyin.

8. Tobelik. Addiktiv yo'nalishli boshqa odamlar ta'siriga bo'ysunish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ba'zan passivlik, mustaqillikning yo'qligi, madad olishga intilish kuzatiladi.

9. Xavotirlilik. Nomukammallik, tobelik kompleksi bilan mahkam bog'liq. Buning o'ziga xosligi shundaki, krizisli vaziyatlarda xavotirlilik ikkinchi o'ringa tushib qolishi mumkin, bunday vaqtda u oddiy turmushda yoki tashvishlar uchun haqiqiy sabab bo'lmaydigan voqealarda yaqqol sabablarsiz yuzaga keladi.[4]

O'zini o'zi yemiruvchi axloqning eng Keskin shakli o'zini o'zi asrash yoki hayotini asrash instinkting buzilishida namoyon bo'ladi. Bu instinkt hayvonot olami va insoniyat turmushida muhim ro'l o'ynaydi, chunki uning ta'siri tirik organizm faoliyatining asosiy stimullari – "jazo, lazzat" stimullariga asoslangan. Shuning uchun uning buzilishi gomeostaz – hayotiy muhim funksiyalarni ta'minlash va muvozanatlash kompleksining buzilishi bilan bog'liq.

Gomeostaz – biron-bir tizimning ushbu muvozanatini buzuvchi ichki va tashqi omillarga qarshi ta'sir ko'rsatish yo'li bilan saqlanadigan muvozanatli holatidir.

**Xulosa** Haqiqatdan ham, garchi ular hayvonot olamida odamlardagiga nisbatan kamroq uchrasada, o'zini o'zi o'ldirish holatlarini hayvonlarda, masalan, o'zini o'zi o'ldiruvchi kitlarda ham kuzatish mumkin. Jonivorlar ko'pincha sherigini yo'qotish, erkinlikdan mahrum bo'lish va hatto egasini yo'qotish oqibatida yuzaga keladigan og'ir hissiy holatlarda o'zini o'zi o'ldirishga urinadilar. Ba'zan shunday holatda ular oziqlanishdan bosh tortadilar, o'zlariga shikast yetkazishga intiladilar. Odam o'z hayot yo'lining chegarasini aniq tasavvur etuvchi yerdagi yagona mavjudot hisoblanadi. Uning o'limga munosabati g'oyat murakkab va ko'p ma'nolidir: U huddi doimo unga tayyorlangandek bo'ladi va shu bilan bir vaqtda hech qachon uzil-kesil tayyor bo'lmaydi. Bu ambivalent munosabatlar bir qator badiiy asarlarda o'z aksini topgan. Shuning uchun kishining o'zini o'zi o'ldirishi muammosi shuningdek, ratsional – ongli va irratsional – ichki his bilan sezish bilimlarining nisbatiga bog'liq. Bu jihatdan kishi uchun o'zini o'zi o'ldirish vaqtinchalik chora hisoblanmaydi. Axir hech narsani hech narsaga almashtirib bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdulla Sher "Axloqshunoslik". Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent - 2010

2. B.M.Ochilova "Axloq falsafasi" Toshkent "IJOD-PRINT" 2019.

3. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. -T.: Universitet, 1998. - 184 b.

4. I.M.Xakimova "Deviant xulq atvor psixologiyasi" o'quv qo'llanma. Toshkent - 2014.

5. Choriyev A. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. Ikkinchi kitob.- Toshkent: Chinor, 2002.

6. Choriyev A.CH. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. Ikkinchi kitob. -T.: Chinor, 2002. -286 b.

7. D.Y.Xodjayeva. Ibrohim Mo'minov ilmiy merosida ijtimoiy falsafa muammolari.- T.: 2000.

8. Человек и культура межнационального общения. -Т.: Узбекистан, 1995. -118 с.

**FALSAFIY TA'LIM VA TARBIYA – JAMIYATNI DYEMOKRATIK TARZDA  
BARQAROR RIVOJLANTIRISH OMILI****Yuldashyev Rustam Daniyrovich**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha  
birinchi prorektor, dotsent, falsafa fanlar doktori (PhD)[rustam\\_yuldashev78@mail.ru](mailto:rustam_yuldashev78@mail.ru)

ORCID: 0009-0004-1479-9279

UDK: 301.085:15:171/179(047)

**Annotatsiya:** Ilmiy maqolada globallashtirish sharoitida jamiyatni rivojlantirishning muqobil yo'llarini topishda falsafiy ta'lim va tarbiyaning o'rni, uning mamlakatimiz ta'lim va tarbiya tizimini demokratik tarzda isloh qilishning metodologik ahamiyati, kishilik jamiyatining barqaror tarzda rivojlanib borishi, ta'lim va tarbiya tizimiga bog'liqligi, uning mohiyati yoritilgan. Shuningdek, jamiyatni barqaror rivojlantirish konsepsiyasini takomillashtirishda, uning obyekt va subyektlari o'rtasidagi bog'lanishlarning ko'p o'lchovli ekanligini tadqiq qilish zarurligi, ta'lim va tarbiya jarayoniga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazuvchi ijtimoiy tendensiya sifatida bozor fundamentalizmi shakllanganligi hamda jamiyatimizning barqaror rivojlanishini ta'minlash omillaridan biri bo'lgan ta'lim va tarbiya masalasi falsafiy jihatdan tizimli ravishda tadqiq qilish haqida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** rivojlanish, barqarorlik, beqarorlik, falsafiy ta'lim, falsafiy tarbiya, barqaror rivojlanish, qadriyat, bozor fundamentalizmi.

**Аннотация:** В научной статье описывается роль философского образования и воспитания в поиске альтернативных путей развития общества в условиях глобализации, его методологическое значение для демократического реформирования системы образования и обучения нашей страны, а также необходимость исследования многоаспектности связей между ее объектами и субъектами в совершенствовании концепции устойчивого развития общества. Излагаются философские идеи, имеющие научное и практическое значение.

**Ключевые слова:** развитие, стабильность, нестабильность, философское образование, устойчивое развитие, ценности, рыночный фундаментализм.

**Kirish.** XXI asr insoniyat tarixi sahnasiga misli ko'rilmagan va kutilmagan yangi narsa, voqea, hodisa va jarayonlar: moddiy ishlab chiqarish jarayonini sun'iy intellektga asoslangan robototexnologiyalar, nano-texnologiyalarning egallashi; eski texnika va texnologiyalar bilan ishlab chiqarish yetarlicha modernizatsiya qilinmasdan tabiat resurslaridan oqilona foydalanmaslik oqibatida insoniyat ekologik xavf ostida qolayotganligi; rivojlangan mamlakatlar o'rtasida bo'lingan dunyoni qaytadan bo'lib olish, jahonda yagona yetakchi kuchga aylanish uchun ochiqchasiga kurashni avj oldirayotganligi; odamlarning ongi-shuurini g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan egallab "manqurt"ga aylantirish uchun ma'naviy-mafkuraviy kurashni raqobot maydoniga aylantirib, ma'naviy qadriyatlarning oyoq-osti qilinayotganligi; ilm-fan sohasining katta va kichik biznes maydoniga aylanish jarayonining tobora chuqurlashib borayotganligi; ularga qarshi kurashuvchi progressiv kuchlarning tizimli ravishda harakat qilmayotganliklarda ko'rish mumkin. Ko'rinib turibdiki, bunday salbiy hodisalar kishilik jamiyatining barqaror rivojlanishiga halaqit berib jahonda iqtisodiy, ekologik, axloqiy-ma'naviy inqirozlarni keltirib chiqarmoqda. Qisqa qalib aytganda, bo'larning barchasini insoniyatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi global xavf deb atash mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bunday global xavf-xatarlar haqida Sh.M.Mirziyoyev: "Iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda ayniqsa jiddiy sezilmoqda. Tuproq yemirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo'ronlari odatiy holga aylandi. Ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo'qolishi, qishloq xo'jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda. Bu global

xavflar keng mintaqamizda xatarli nuqtaga yetib kelmoqda. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish lozim." [1], - degan edi.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakatimizni bunday global xavfdan qutqazib, barqaror rivojlanishini ta'minlash asosida Yangi O'zbekiston orzusi bo'lgan – Uchinchi Renessans paydovorini qurish uchun nima qilishimiz kerak, degan savol tug'ilishi tabiiydir. Xo'sh, barqarorlik va beqarorlik nima? "O'zbek tilining izohli lug'ati" da: "Barqarorlik – qaror topgan, qat'iy, uzil-kesil o'rnashgan, ustuvor, doim birdek turadigan, o'zgarimas, muqim" [2.], - degan ma'nolarni anglatadi deyilgan. Shunga ko'ra, barqarorlik – bu biror narsa, hodisa, jarayonning hech qanday o'zgarish ta'sir etmaydigan, doimo birdek turadigan, tinch, o'zgarimaslik holatidir. Mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatiga falsafiy jihatdan qaraydigan bo'lsak: "Barqarorlik – olamning nisbiy tinchlik holati, tabiat va jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, moddiy, ma'naviy va ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko'rsatish imkoniyati"dir. [3.] *Beqarorlik – bu narsa, hodisa, voqea, jarayonlarning bir joyda qo'nim topmaydigan, ichki va tashqi omillar ta'sirida doimo o'zgarib turadigan holatidir.* Barqarorlik ham, beqarorlik ham mutlaq xarakterga ega emas. Ular rivojlanishning o'ziga xos atributlaridan biridir. Rivojlanish – bu tabiat, jamiyat hodisalari va inson tafakkurining bir sifat holatidan ikkinchi, yuqori sifat holatiga o'tish, o'sish, yuksalish, taraqqiy etish, ravnaq topishdir. Demak, barqaror rivojlanish nima? Bu savolga iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan D.A.Kotelnikov: "Barqaror rivojlanish bu insoniyatning oldinga qarab intilish modeli bo'lib, bunda hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish va kelajak avlodni bunday imkoniyatdan mahrum bo'lmasligini ta'minlashdir" [4], V.G.Gorshkov "Barqaror rivojlanish – bu eng avvalo iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanish vazifalarini amalga oshishiga imkon beradigan aholining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy xavfsizligi ta'minlash zaruriyati" [5], V.Xlobistov: "Barqaror rivojlanish bu milliy ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga qaratilgan metodologik mo'ljal" [6], M.Djeykobs: "Barqaror rivojlanish – jamiyat rivojlanishining bir ko'rinishi bo'lib, bunda rivojlanishning atrof-muhitga ta'siri biosferaning iqtisodiy imkoniyatlari doirasida qoladi va insoniyat faoliyatining tabiiy asoslari buzilmaydi" [7], L.S.Griniy: "Barqaror rivojlanish – noosfera konsepsiyasini amalga oshirish orqali ekologik va iqtisodiy tizimning barqaror ishlashini ta'minlashdir" [8], degan ta'riflarni berishgan. Ularning barchasini falsafiy jihatdan umumlashtirib, soddaroq qilib barqaror rivojlanish – bu tabiat in'omlaridan ekologik vaziyatga zarar yetkazmasdan, ilm-fan yutuqlari asosida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda tejamkorlik bilan unumli foydalanish, ma'naviy ne'matlarni yaratishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar prinsiplariga mos ravishda insoniyatning porloq kelajagini ko'zlab jamiyatni har tomonlama ravnaq toptirishga qaratilgan faoliyatlar tizimidir, deb tariflash mumkin.

Yuqorida keltirilgan ta'rif va tavsifning ratsional mag'zini chaqadigan bo'lsak, kishilik jamiyatining barqaror tarzda rivojlanib borishi, ko'pincha ta'lim va tarbiya tizimiga bog'liq bo'lib, uning mohiyati esa insoniyat olamining abadiyligini ta'minlashga qaratilganligi bilan belgilanadi. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonini ijtimoiy falsafiy jihatdan tadqiq qilish masalasi: birinchidan, insoniyat tomonidan yaratilgan barcha bilimlarning qadriyat sifatida ta'lim va tarbiya vositasi maqomiga ega bo'layotganligi; ikkinchidan, ilm-fanning ishlab chiqarish bilan tez sur'atlarda integrallashib moddiy kuchga aylanayotganligi; uchinchidan, informatsion texnologiyalarning «chegara bilmas» darajada harakatlanayotganliklari bilan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda-ki, bu esa o'z navbatida, ta'lim va tarbiya jarayonining tabiat haqidagi fanlar rivoji va iqtisodiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlardan orqada qolib ketayotganligidan darak beradi.

Bugungi kunda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy omillaridan biri (qolaversa, atributi deyish ham mumkin- Yu.R.D.) bo'lgan ta'lim va tarbiya jarayoniga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazuvchi ijtimoiy tendensiya sifatida bozor fundamentalizmi shakllangan bo'lib, u rivojlanish borasidagi barcha narsalarni:

a) jahonda o'sib borayotgan ekologik inqirozga qaramasdan asosiy istiqbolli tabiiy resurslarni ayovsiz tarzda ishlatib tugatish;

b) insonning hayoti oliy qadriyat ekanligini, shu jumladan umuminsoniy va milliy madaniyatni ham qadr-qiyamatini pastga urish (mensimaslik);

v) davlatlarning suverenitetini tan olmasdan ularning tabiiy boyliklariga ko'z olaytirish;



g) hokimiyatlar almashishi bilan ularning ideallariga xizmat qiluvchi qandaydir bir o'zgacha yangi avlodni «qayta yaratish»ga urinish;

d) «yangi avlod»ni bozor qoidasiga muvofiq xizmat ko'rsatishga asoslangan «ijtimoiy» institutlarda tarbiyalash kabilarni amalga oshirgan holda barcha narsalarni «moddiy boylik» orttirish mezonlari bilan o'lichamoqda.

Bunday sharoitda ijtimoiy rivojlanishning ta'lim va tarbiyaga asoslangan muqobil yo'llarini izlab topish haqli ravishda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan ziddiyat va inqirozlar davrida, undan chiqib ketishning muqobil yo'nalishlaridan biri - bu davlat arboblari va olimlar tomonidan ilgari surilayotgan jamiyatni barqaror rivojlantirishning ta'lim va tarbiyaga asoslangan konsepsiyasidir [9].

Bunda barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy maqsadi: qashshoqlik va ocharchilikni tugatish; aholining sog'ligini saqlash va turmush sharoitini yaxshilash; sifatli ta'lim va tarbiya tizimini shakllantirish va rivojlantirish; gender tengligiga erishish; toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish; arzon toza energiyaga ega bo'lish; yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy farovonlikka erishish kabilardan iborat.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy prinsiplariga quyidagilar: jamiyatni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ekologik jihatlarini integratsiyalashtirish; har bir mamlakatning o'zida mavjud bo'lgan tabiiy boyliklaridan mustaqil ravshda halqaro huquq doirasida foydalanish; ilm-fanni o'zlashtirishda avlodlar o'rtasida va avlodlar ichkarisida tenglikka asoslangan uzviylikni ta'minlash; xalqaro shartnomalarni bajarishda yoki ularga qo'shilishda ehtiyot choralarini ko'rish; jamoat ishlarida faol ishtirok etish hamda erkin tarzda axborot olish kabilari kiradi. Umuman olganda, bu prinsiplar qayta-qayta aniqlanib muntazam ravishda to'ldirilib borilayeradi.

Zero, shunday ekan hozirgi davrda Yer sayyorasida barqaror rivojlanish qanday kechmoqda degan savol tug'iladi. Ma'lumki, hozirgi kunda butun insoniyat olami, shu jumladan bizning mamlakatimiz ham ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz domiga duchor bo'lmoqda. Bundan har bir odamni, oilani, jamoani o'z domiga torayotgan global inqirozlardan faqat texnotonik vositalar va usullar (texnik, texnologik, iqtisodiy, boshqaruv va boshqalar) yordamida qutilib bo'lmaydi. Buning uchun odamlarning milliy mentalitetini, ularning g'oyaviy va akseologik hayotiy majburiyatlarini o'zgartirish kerak. Bu vazifani bajarish barcha faylasuflarning nafaqat butun jamiyatni global doirada moslashtirish, balki alohida mamlakat, ijtimoiy qatlam va guruhlarni, asosan o'sib kelayotgan yosh avlodlarni ham qamrab oladigan tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Jamiyatni barqaror rivojlantirishda, uning tarkibiy qismi sifatida ta'lim va tarbiya sohasi katta rol o'ynaydi, chunki aynan ta'lim va tarbiya insonning ilmiy-amaliy qobiliyatlarini rivojlanishi borasida ijtimoiy maqsadlarni ko'zlagan holda moddiy, ma'naviy, tashkiliy sharoitlarni yaratish, uni hozirgi globallashtirilgan davr hayotiga tayyorlash uchun javobgar hisoblanadi. Uzluksiz falsafiy ta'lim va tarbiyaning hosilasi sifatida qaror topgan davlat va jamiyat arboblari rahbarlik qiladigan davlatning xalqchil boshqaruv apparati siyosat, iqtisod, moliya, mafkura, ta'lim va tarbiya, ijtimoiy va tabiiy fanlar, madaniyat, axborot va kommunikatsiyalarning barcha muhim masalalari bo'yicha to'g'ri xalqchil qarorlar qabul qila olish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Zero, shunday ekan har qanday sharoitda ham to'g'ri qabul qilingan qarorlar va uning ijrosi kelajakda yangicha bir «xalq manfaatlarini hamma narsadan ulug' bo'lgan»[10] «ijtimoiy, huquqiy, suveren, demokratik, dunyoviy davlat»ni [11] qurish uchun poydevor vazifasini o'tashi, shubhasizdir.

Shu munosabat bilan ta'lim va tarbiya jarayonini jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida o'rganish juda dolzarb hisoblanadi, chunki aynan ta'lim va tarbiya jamiyatning turli darajadagi sohalarini moslashtiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, yangi a'zolarini o'qitish va tarbiyalash orqali ularning dunyoqarashini o'zgartiradi, qanday madaniyat sohibi bo'lishi kerakligini belgilab berishga xizmat qiladi. Ayni paytda, shu orqali jamiyatni ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlarini shakllantiradigan va amalga oshiradigan bilimlar bilan qurollantiradi. Bularning barchasi ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy-

falsafiy tahlil qilish zaruriyatidan kelib chiqqan holda jamiyat barqaror rivojlanishini ta'minlashning yangicha falsafiy modelini yaratishga asos bo'ladi. Bu esa ta'lim va tarbiya haqidagi konseptual g'oyalarni chuqur o'rganishni, jamiyatning global miqyosda ham, mamlakat miqyosda ham ijtimoiy falsafiy mazmunga ega bo'lgan barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yadi.

Falsafiy ta'lim va tarbiya zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida shu sohani rivojlantirish uchun yangidan yangi konsepsiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda falsafiy ta'lim va tarbiya garchand ta'lim va tarbiya muammolarini o'rganish uchun yetarli, samarali nazariy va uslubiy asos bo'lishiga qaramasdan, yetarlicha tadqiqot ishlari olib borilayotgani yo'q. Falsafiy ta'lim va tarbiyaning nazariy va amaliy fan sifatidagi uslubiy funksiyasi ta'lim va tarbiya muammolarini tahlil qilish bilan bog'liq holda, u shaxsni ijtimoiylashtiruvchi omil sifatida ilmiy bilishning umumiy tamoyillari va usullari tizimini ishlab chiqishda o'zini namoyon qilib boraveradi.

Zero, shunday ekan bizning fikrimizcha *falsafiy ta'lim* - bu kishilarda zamonaviy ta'lim jarayonlarining eng umumiy va muhim qonuniyatlari va bog'liqliklaridan kelib chiqqan holda tabiat, jamiyat va inson borlig'ining turli sohalarida (iqtisodiy, siyosiy, texnologik, pedagogik, psixologik, axloqiy)gi o'zgarishlar haqida muayyan bir falsafiy fikrlash tarzini shakllantiradigan ilmiy-amaliy bilimlar tizimi bo'lsa, *falsafiy tarbiya* - esa bu insoniyat yaratgan barcha moddiy va ma'naviy qadriyat maqomiga ega narsalarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda odob-axloq, xislat va fazilatlariga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan ish-amallar majmuidir.

Falsafiy ta'limdan asosiy maqsad: birinchidan, insoniyatning umumiy muammolari fonida ta'lim haqiqatini (borliqni) tahlil qilishdan; ikkinchidan, falsafiy ta'lim va boshqa ta'lim nazariyasi o'rtasidagi munosabatni o'rganishdan; uchinchidan, ta'lim munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning maqsadlari, vositalar, ideallar, ijtimoiy funksiyalar va boshqalarni ajrata bilishdan iborat.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan demokratik islohotlar sharoitida ta'lim jarayoni sohasida yuzaga kelayotgan ta'lim muammolarini falsafiy jihatdan butun ta'lim sohasini umumiy kontekst (lotincha contextus-qo'shilish, ulanish, bog'lanish)ida o'rganib, undagi afzallik va kamchiliklarni ajrata bilish kerak. Falsafiy ta'lim sohasida olib boriladigan tadqiqotlarning afzalligi - ta'lim muammolarini umumiy tarzda tahlil qilish imkoniyati, ya'ni uning praktsiologik, aksiologik va boshqa jihatlarini hisobga olgan keng qamrovliligi bilan belgilansa, kamchilligi esa jamiyatda yuzaga kelgan muammolar qatori, ta'lim sohasida o'z yechimini kutayotgan muammolarni "xiralashish" darajasiga tushirib qo'yishi ham mumkin. Chunki, bunda bo'lgan voqelik va yuklangan ijtimoiy majburiyatlar tufayli ko'pincha ta'lim tizimining texnologik masalalarini o'rganishga ustunlik berilgan bo'ladi.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim va tarbiya tizimini demokratik tarzda isloh qilish masalasi ta'lim va tarbiya jarayonining murakkab va ko'p qirrali muammolari yuzasidan fanlararo tadqiqotlarni olib borishni talab qiladi. Bunda, birinchi navbatda bu tizimni ijtimoiy falsafa metodologiyasi asosida tahlil va tavsif qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki, bunday metodologiya turli jihatlarga ega bo'lgan ta'lim va tarbiya muammolarini kompleks (lotincha complexus- aloqa, bog'lanish, qo'shib, qamrab olish), ya'ni sotsiologik, psixologik, pedagogik va boshqalar jihatidan har tomonlama o'rganish uchun zarurdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ta'lim va tarbiyaning pedagogik jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, biroq uning falsafiy, sotsiologik, psixologik jihatlari hali yetarli darajada o'rganilganicha yo'q.

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayoni ta'lim va tarbiya jarayonini chetlab o'tmasligi hammaga ma'lum. Chunki u mavjud bo'lgan ta'lim va tarbiya tizimini yangi mazmun bilan to'ldiradi. Bu esa, o'z navbatida, maxsus falsafiy tadqiqotlar olib borishni talab qiladi. Bular jumlasiga ta'lim va tarbiya jarayonida uning ob'ekti va sub'etlari o'rtasidagi muloqotlar tizimini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ta'lim va tarbiyada ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi muloqotning izchil uzluksiz tarzda tarixiy ma'naviy yoki moddiy meros shaklida kechishi ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlasa, undan voz kechish esa ta'lim va tarbiya

tizimining izdan chiqishiga, axloqsiz bir shaklda namoyon bo'lib milliy qadriyatlarning oyoq-osti bo'lishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz va xorijiy adabiyotlarda ta'lim sohasining jamiyatning ijtimoiy rivojlanishdagi, inson va tabiatning o'zaro bog'lanishlarini ochib berishdagi o'rnini aniqlash masalasida turli xil fikrlar mavjud. Masalan, B.Ziyamuhamedov: "Ta'lim – bilimni ma'lum bir tartibda berish va uni olish jarayoni" [12], L.Yu.Nikolayeva: "Ta'lim – organik predmet–tizimni shakllantirish va modernizatsiyalash jarayonidir" [13], degan fikrni bayon qilganlar. Yuqorida bildirilgan fikrlar jamiyatning barqaror rivojlanishi konsepsiyasidan qat'i nazar, ijtimoiy jarayon sifatida ta'lim g'oyasi bilan ifodalangan bo'ladi.

Barqaror rivojlanishning mohiyati, shart-sharoitlari va mumkin bo'lgan ssenariylarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan va konsepsiyalar ilgari surilgan bo'lib, ularning barchasida birinchidan, ushbu konsepsiyalarning nazariy kelib chiqishi, xususan, undagi falsafiy, sotsiologik va tabiiy fan g'oyalarining barqaror rivojlanish yo'nalishlarini o'zgartirish xususiyatlari ochib berishga [14]; ikkinchidan, barqaror rivojlanish g'oyalariga biron bir tarixiy jarayon sharoitida ma'lum bir izchillikni berishga [15]; uchinchidan, barqaror rivojlanish mezonlariga muvofiq inson faoliyatining turli sohalarini – fan, ta'lim, iqtisodiyot, texnologiya va boshqalarni o'zgartirishning uslubiy masalalari tadqiq qilishga qaratilganligini ko'rish mumkin [16].

Aslini olganda, jahonda ta'lim va tarbiya sohasini, barqaror rivojlanish konsepsiyasini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab salmoqli ishlar amalga oshirilganligiga qaramay, hozirgi kunga mamlakatimizda tub demokratik islohotlar olib borilayotgan bir vaqtda jamiyatimizning barqaror rivojlanishini ta'minlash omillaridan biri bo'lgan ta'lim va tarbiya masalasi falsafiy jihatdan tizimli ravishda yetarlicha tarzda tadqiq qilish yo'lga qo'yilganicha yo'q. Yangi O'zbekiston orzusini bu ishni yo'lga qo'ymasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Bizning fikrimizcha, mazkur muammoni o'rganishda umumiy tarzda ijtimoiy falsafa metodologiyasidan, xususi tarzda esa shuningdek, ta'lim falsafasi metodologiyasidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, ta'lim falsafasi tarbiya jarayonlarini dialektik yoki sinergetik tarzda tushunish uchun uslubiy maslakdoshidir. Ta'lim falsafasi - bu ta'lim va tarbiya haqidagi bilimlarni falsafiy konsepsiya shakliga keltirib, tarbiya bilan aloqador bo'lgan barcha bilimlarni konseptual, umumlashtirilgan shaklda birlashtirish imkonini beradi. Ta'lim falsafasi fanlar o'rtasidagi bir soha sifatida tarbiyani jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash omili sifatida yaxlit tahlil qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, bunda qiyosiy tahlil uslubiyotining elementlari, tizimli va fanlararo yondashuvlaridan foydalanishni hisobga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlil bizga jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash omili sifatida ta'lim va tarbiyaning umumiy fazoviy hamda vaqtinchalik asoslarini o'rganishga, shu bilan birga alohida davrlar va mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Tizimli yondashuv ta'lim va tarbiyaning tizimli xususiyatini sub'ektiv omillar bilan birlikda inson mavjudligining ob'ektiv sharoitlari vaqtida barqarorlikni ta'minlash omili sifatida aniqlashga, ushbu sohadagi inson harakatlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Fanlararo yondashuvdan foydalanish zarurati tadqiqotda ijtimoiy va siyosiy falsafa, pedagogika, ta'lim falsafasi, kibernetik epistemologiya, tabiat falsafasi va boshqalar chorrahasida bir qator masalalar o'rganilganligi bilan bog'liq bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida bayon qilingan barcha fikrlarni xulosalab, shuni aytish mumkinki, falsafiy ta'lim va tarbiyaga xos bo'lgan barcha xususiyatlar jamiyatni barqaror rivojlantirishda ilmiy-amaliy jihatdan metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun esa birinchi navbatda, falsafa va ta'lim-tarbiya sohasida jahon mutafakkirlari qoldirgan ma'naviy merosdan dialektik tarzda unumli foydalanib falsafiy ta'lim va tarbiya berishning metodologik asosi bo'lgan "Ta'lim falsafasi" va "Tarbiya falsafasi" nomli ilmiy tadqiqotlar dasturini yaratib, olingan natijalar asosida monografiya, darslik, o'quv qo'llanma va boshqa ilmiy-amaliy ishlanmalarni yaratish va hayotga tatbiq qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev yozganidek: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik,

jaholat va albatta to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Eng katta boylik – bu aql – zakovat va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir” [17].

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Иқлим ўзгариши бўйича конференциясидаги (COP28) нутқи. 01.12.2023.// <https://president.uz/uz/lists/view/6897>
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.И. – Т.:” Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2006. – Б.173.
3. Назаров Қиём. Жаҳон фалсафаси қомуси.1-қитоб. – Т.:”Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2023. –Б.146.
4. Котельников, Д.А. Интеграция России в процесс достижения устойчивого развития: анализ проблем и перспектив // Потенциал и перспектива современной науки: материалы III Всероссийской научно-практической конференции (19 января 2016). – Геленджик: Кубанский гос. ун-т, 2016. – С. 105-113.
5. Горшков В. Г. Физические и биологические основы устойчивости жизни / В. Г. Горшков. – М. : ВИНТИ, 1995. – 256 с.
6. Хлобистов С. В. Екологічна безпека трансформаційної економіки / С. В. Хлобистов. – К.: Чорнобильінтерінформ, 2004. – 336 с
7. Jacobs M. Sustainable Development: Greening the Economy/ Fabian Society. 1990.
8. Гринив Л. С. Концептуальні засади просторової парадигми екологічно збалансованої економіки / Л. С. Гринів // Регіональна економіка. — 2001. — № 4. — С. 54–63.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2018 йил 20 октябрда "2030 йилгача булган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тугрисида"ги 841-сонли қарори//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.12.2020 й., 09/20/777/1620-сон.
10. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри.- Тошкент:” О‘zbekiston” нашриёти,2022. – Б.25.
11. О‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent:”О‘zbekiston” nashriyoti, 2023.- В.5.
12. Зиямухамедов Б. Педагогика. –Т.: “ТАМАДДУН”, 2014 – Б.100.
13. Николаева Л.Ю. Философия образования. Часть 1. Учебное пособие – М.: Мир науки, 2014. – С.17,38.
14. Казначеев В. П. Проблемы живого вещества и интеллекта: этюды к теории и практике медицины III тысячелетия // Вестник МИКА. – 1995. – Вып. 2. – С. 9–20. 35. Урсул А. Д. Устойчивое развитие цивилизации и ноосферно-экологическое образование // Ноогенез и образование. Построение ноосферной школы: тезисы межрегиональной конференции (23–26 марта 1995 г.). – Красноярск, 1995.
15. Кудашов В. И., Кудашова И. В. Социальные функции образования в ситуации его кризиса // Байкальский психологический и педагогический журнал. – 2005. – № 1–2 (5–6). – С. 39–48
16. Мантатов В. В. Устойчивое развитие: прогресс нравственных задач // Наука и образование в интересах устойчивого развития. – 2006.- С-55-56., Бобров В. В. Социальное развитие: сущность, условия и критерии устойчивости. – Новосибирск, 2005. – 230 с.
17. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри.- Тошкент:” О‘zbekiston” нашриёти,2022. – Б.23.

## INGLIZ-O'ZBEK TILLARIDA "SHART-EHTIMOL" PARADIGMASI

**Mengliyeva Munira,**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti, doktorant

[muniramengliyeva@gmail.com](mailto:muniramengliyeva@gmail.com)

ORCID: 0000-0003-1800-7158

UO'K: 415=943.75(045)

**Annotatsiya.** Linqvistikada funksional semantik maydon tushunchasiga asos solinganidan buyon til xodisalarini ushbu yondashuvda tadqiq etish tobora ommalashmoqda. Bugungi kunga qadar tilshunoslar tomonidan *zamon*, *aspektuallik*, *modallik*, *taksis*, *miqdor-daraja*, *harakat tarzi* kabi funksional semantik maydonlar aniqlangan. Ushbu funksional semantik maydonlarning qurilishi va tarkibi turli tizimli tillar, xossatan, ingliz va o'zbek tillarida bir-biridan farqlanadi. Grammatik ma'no ifodalovchilarni "shakldan mazmunga" tamoyili asosida grammatik kategoriyalarga ajratgan holda o'rganuvchi an'anaviy tilshunoslikdan farqli o'laroq strukturalizm aspektida shakllangan funksional lingvistik til fenomenlarini tadqiq etishda "mazmundan shaklga" tamoyili asosida ish ko'radi hamda ularni turli mazmuniy maydonlarga ajratadi. Ingliz tilida batafsil tahlil qilingan funksional semantik maydonlardan yana biri "shart-ehtimol" paradigmasi hisoblanadi. Ushbu maydon elementlari mazmunan biror voqea-hodisaning yuz berishi muayyan shart-sharoitni taqozo qilishini anglatadi. Shu gipersemali birlikdan kelib chiqqan holda paradigмага nisbatan umumlashtirib "shart-ehtimol" istilohini qo'llash mumkin. O'zbek tilshunosligida "shart-ehtimol" mazmuniy maydoni funksional-semantik paradigma shaklida tadqiq etilmagan. Ushbu tizim grammatik kategoriya sifatida shart mayli deb va sintaktik struktura sifatida ba'zi murakkab gap konstruksiyalariga ajratib o'rganilgan. Har ikki tilda ushbu funksional-semantik maydon qiyosiy tahlili assimetriyalar va paralellarni aniqlash imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** funksional semantik maydon, morfologiya, shart, ehtimol, sintaksis, fe'l.

CONDITION-PROBABILITY PARADIGM IN ENGLISH AND  
UZBEK LANGUAGES

**Annotation.** Since the introduction of the functional semantic field notion in linguistics, this technique to studying language phenomena has grown in popularity. To date, linguists have identified functional semantic fields including tense, aspectuality, modality, taxis, quantity-degree, and mode of action. The creation and composition of these functional semantic fields differs amongst system languages such as Khosa, English, and Uzbek. In contrast to traditional linguistics, which divides grammatical expressions of meaning into grammatical categories based on the principle of "from form to content," functional linguistics, developed in the context of structuralism, studies linguistic phenomena and divides them into different meaningful areas based on the principle of "from content to form." Another functional semantic field that has been thoroughly investigated in English is the "condition-probability" paradigm. The content of the items in this field indicates that the occurrence of an event is dependent on specific conditions. The term "condition-probability" may be generalized to refer to the paradigm based on this hypersemal unity. In Uzbek linguistics, the content area of "condition-probability" has not been examined using a functional-semantic paradigm. This system was explored by splitting it into several sophisticated sentence constructions based on grammatical category and syntactic structure. Comparing the functional-semantic field in both languages reveals asymmetries and parallelism.

**Key words:** functional semantic field, morphology, condition, probability, syntax, verb

**Kirish.** Lingvistik birliklar ikki tur, ya'ni leksik-semantik maydon va funksional-semantik maydon (FSM)larga ajraladi. Bu ikki paradigma bir biridan nafaqat qamrovi va ko'lami ko'ra, balki tarkibiga ko'ra ham farqlanadi. Ma'lumki, leksik-semantik maydon bir ma'no atrofida jamlangan, tilda muayyan semantik mazmuni namoyon etuvchi leksemalarning iyerarxik tarzda tartiblangan ko'rinishidir [10]. Iyerarxik tartiblangan leksik-semantik maydonlar tarkibi yadro,

markaz va periferiyadan tashkil topgan. Maydonning yadrosi giperleksemadan iborat. O'z navbatida, ushbu qismni tashkil etuvchi gipersemali birlikli birlik eng keng ko'lamli leksik birlik hisoblanishi lozim, quyi tabaqada ushbu gipersemali birlik bir necha kichik mikromaydonlarga ham tarmoqlanib ketishi mumkin. Bu gipersemali birlik bilan aynan ma'nodosh yoki zid ma'noli bo'lgan lug'aviy birliklar leksik-semantik maydon markazidan o'rin oladi; maydon markazi va yadrosidagi umumiy semadan yiroq, uni qisman o'zida tashiydigan birliklar, ya'ni mazmuniy maydon asosiy gipersemali birligini qisman ifodalay oladigan lug'aviy birliklar paradigma chegaralarida, periferiyadan o'rin oladi. Chegarada, eng chetda joylashganligi bois, bu birliklar boshqa paradigma tarkibiga kirib ketishi, hech bo'lmaganda, qo'shni maydon elementlari bilan semantik munosabatga kirishishi mumkin. Demak, leksik-semantik maydon bir arxisema atrofida turli so'zlarni birlashtiradi, maydon markazidagi elementlarda ushbu arxisema denotativ ma'no tarkibida bo'lsa, maydon chetidagi so'zlarda ushbu bosh ma'no konnotativ sema hisoblanadi deyish mumkin.

FSM esa qamroviga ko'ra birgina leksik sath vositalari bilan cheklanmaydi. Unda turli sathlar jam bo'lganligi sabab maydondagi yadro va periferiyalar tarkibi leksik-semantik paradigmaga o'xshamaydi. Aytish joizki, funksional-semantik paradigma elementlari ham iyerarxik tartibda tabaqalanadi va maydon asosida, albatta, semantik birlik o'laroq ushbu semantik invariant tildagi turli sath vositalarini umumlashtirib, ularning o'zaro sintagmatik yoki assosiativ munosabatga kirishishini taqazo etadi. Biroq leksik-semantik maydondan farqli ravishda FSM yadrosini grammatik kategoriyalar tashkil etadi. Muayyan ma'noning qanday morfologik birlik va sintaktik qoliplar yordamida ifodalanishiga qarab FSMlar bir yadro atrofida markazlashgan (monotsentrik) yoki politsentrik xarakterga ega bo'lishi mumkin. Birinchi tur monotsentrik maydonlar bir butun grammatik yadroga ega va o'z asosini bir grammatik kategoriyadan oladi. Ikkinchisi esa monotsentrik, biroq geterogen yadroga ega maydon. Ularda bir grammatik kategoriya emas, balki bir necha kategoriya va sintaktik konstruksiyalar asos bo'lishi mumkin. Bunday maydonlar til tizimining turli sathlarida joylashgan elementlar hisobiga tashkil topadi [5]. Har ikki holatda ham FSM yadrosidan o'rin olgan til birligi, deylik, grammatik kategoriya yadro gipersemali ifodalashga maksimal darajada moslashgan birlik hisoblanadi. Bular, qaysi tilda bo'lmasin, FSMni xarakterlovchi umumiy xususiyat. Turli tizimli tillarda bir ma'no atrofida markazlashgan FSMlar tarkibiga ko'ra bir birini takrorlamasligi haqiqat, ushbu tafovutlarni keyingi o'rinlarda ingliz va o'zbek tillari kesimida ko'rib o'tamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Funksional tilshunoslikning nazariy asosi tilshunoslar A.Bondarko, M.Hellidey, tomonidan yaratildi [1, 4]. Ingliz tilshunosligida funksionalizm tadqiqi G.Tompson, R.Robins tomonidan amalga oshirilgan [2, 3.]. O'zbek tilshunosligida funksional yondashuv H.He'matov, B.Mengliyev hamda A.Nurmonov tadqiqotlarida kuzatiladi [7,8,9]. Grammatik ma'no ifodalovchilarni "shakldan mazmunga" tamoyili asosida grammatik kategoriyalarga ajratgan holda o'rganuvchi an'anaviy tilshunoslikdan farqli o'laroq strukturalizm aspektida shakllangan funksional lingvistika til fenomenlarini tadqiq etishda "mazmundan shaklga" tamoyili asosida ish ko'radi hamda ularni turli mazmuniy maydonlarga ajratadi. Funksional yondashuvda paradigmaning asos gipersemasi tanlanib, yadroda morfologik kategoriya, markazda yondosh morfologik kategoriya va sintaktik elementlar joylashadi. Leksik va uslubiy sath vositalari maydon periferiyasidan o'rin egallaydi. Qiyosiy nuqtai nazardan funksional semantik maydon gipersemasi tahlili va maydon tarkibi ikki til orasida chog'ishtirilib o'xshash hamda farqli jihatlar aniqlanadi.

**Natijalar va muhokama.** Umumiy gipersemali birlik grammatik vositalar, leksik-grammatik va sof leksik vositalar yordamida ifodalana olishi maydon turli til sathlarini qamrashidan dalolat beradi [4, 5, 10]. Ingliz tilida shart-ehtimol paradigmasi yadrosini sintaktik sathdagi bir necha konstruksiyalar tashkil etadi. Ushbu konstruksiyalar formal ingliz tilshunosligida conditional structures (shart strukturalari) deb nomlanib, har bir struktura voqelikning sodir bo'lishi ehtimoli qay darajada ekanligini shart orqali turli darajalarda ifodalaydi. Masalan, *if+present simple+present* qolipi *simple* yoki uning *present simple+if+present simple* shaklidagi ko'rinishi biror voqea-hodisaning sodir bo'lishi muqarrar ekanligini anglatadi. Ya'ni, gapdagi hodisa sodir bo'lishi aniq, bunday holat doimiy takrorlanib kelgan qonuniyat. Ikkinchi

qolip *if+present simple+future simple/future simple+if+present simple* esa ma'lum bir shart-sharoit bo'lsa, harakat yoki hodisa kelajakda sodir etilishini anglatadi, bu qolipda muqarrarlik semasi yo'qolib, ehtimollik birinchi planga chiqadi. *If+past simple+would infinitive/would infinitive+if+past simple* hodisa o'tmishda yuz berishi mumkin bo'lgani biroq amalga oshmaganini ifodalagani holda *if+past participle+would present participle/would present participle+if+past participle* qolipi biror voqea hodisa hech qachon amalga oshmaydigan, buning haqiqatdan yiroqligini anglatadi [6]. Ushbu to'rt konstruksiya ingliz tilida "shart-ehimol" FSMi yadrosini tashkil etadi. Qolaversa, paradigmaning markaziy qismi ham mavjud. Markaziy qismni leksik-grammatik vositalar, morfologik kategoriya bo'lgan modallarning ba'zilar tashkil etadi. Jumladan, gap tarkibida *must, should, ought, will-would, can-could, may-might, need* modal fe'llaridan birining qo'llanishi "shart-ehimol" ma'nosini anglatishga xizmat qiladi. Albatta, ushbu modal fe'llar doim ham nutqda qo'llanganda ayni ma'noni anglatmaydi. Ularning ushbu semani anglatish yoki ifodalamasligi yondosh birliklar ma'nosiga ham bog'liq. Shuning uchun modal fe'llarni paradigma yadrosida emas, uning markazida joylashadi deyish o'rinli xulosa. Modal fe'llardan tashqari ushbu maydon leksik sathni ham qamrab oladi. *Zero, certainly, of course, indeed, perhaps, happily - unhappily, evidently, luckily - unluckily, maybe, no doubt, naturally, possibly, probably, fortunately - unfortunately, obviously, surely, apparently, really, actually, assuredly, undoubtedly* kabi leksemalar voqelik sodir bo'lishi ehtimoli, muqarrarligi, aniqligi, shart yoki zarurati haqidagi turli ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu ma'nolar sanab o'tilgan leksemalarning asosiy denotativ semasi hisoblanganligidan ularni yaqin periferiya deb baholaymiz. "Shart-ehimol" ma'nosini kontekstual ifodalay oluvchi so'zlar va frazeologizmlar ham mavjud, ushbu ma'no ularning ifoda semasida yashirin va faqat nutq sharoitida voqelanishini hisobga olib, uzoq periferiya sifatida qaraymiz.

O'zbek tilshunosligida "shart-ehimol" mazmuniy maydoni funksional-semantik paradigma shaklida tadqiq etilmagan. Ushbu tizim grammatik kategoriya sifatida shart mayli deb va sintaktik struktura sifatida ba'zi murakkab gap konstruksiyalariga ajratib o'rganilgan [11]. Shart-ehimol mazmunini ifodalovchi vositalar turli sathlarda aniqlanib bir maydonga iyerarxik tartibda joylashtirilmagan. Biroq buning imkoni mavjud. Chunki o'zbek tilida voqea-hodisaning amalga oshish sharti va ehtimolini anglatuvchi sintaktik konstruksiyalar mavjud. Ushbu konstruksiyalar murakkab gap ko'rinishini hosil qila oladi. Demak, mazmunan o'zbek tilida ham ushbu maydon yadrosini sintaktik elementlar tashkil etishi mumkin. Ma'lumki, modal fe'llar kategoriyasi o'zbek tilida mavjud emas, biroq "shart-ehimol" gipersemasi morfologik sath vositalari bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunday ma'noni fe'l+ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l qurilmasi anglatadi. Albatta, bunda shart-ehimol semasi qurilma tarkibidagi markaziy bo'lak, asosiy fe'lning lug'aviy ma'nosiga bog'liq. O'zining tobelik xususiyati kuchliligi sabab fe'l+ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l qurilmasi maydon yadrosidan emas, markazidan o'rin oladi. O'zbek tilida ham xuddi ingliz tilida bo'lgani kabi ravish, sifat, ot yoki fe'l so'z turkumiga oid turli leksemalar orqali anglashilishi, ushbu leksemalarda "shart-ehimol" ma'nosi lug'aviy sema bo'lagi hisoblansa, yaqin periferiyani, agar leksemalarda bu ma'no ifoda semasi bo'lsa, uzoq periferiya deyilishi mumkin. Masalan, *muqarrar, zarur, shart, balki, bo'lishi mumkin, taxminan, kerak, haqiqatga yaqin, ehtimoldan holi* kabi birliklar ma'lum darajada "shart-ehimol" ma'nosini tashiydi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi tahlillardan anglashiladiki, o'zbek va ingliz tili qurilishiga ko'ra bir-biridan keskin farqlanishi sabab bir tilda FSM yadrosini morfologik vositalar, ikkinchi tilda esa sintaktik qurilmalar tashkil etishi mumkin. FSMlar turli sathlarni qamrab olishi bilan birga murakkab strukturaga ham ega bo'lishi, ya'ni politsentrik xususiyatli bo'lishi mumkin. Ingliz tilida ikki yadrodan tashkil topgan funksional-semantik paradigma o'zbek tilida ham huddi shu strukturada bo'lishi possessivlik maydoni misolida isbotlandi. Paradigmalar orasida struktur va tarkibiy jihatdan ayni bir-biriga simmetrik bo'lgan maydonlar ham mavjud, chunonchi, lokativlik, shart-ehimol maydonlarida aniqlangan paralellar buni yaqqol dalillaydi.

Aytganidek, ingliz tilshunosligi til hodisalarini FSMlarga ajratib o'rganishda ancha ilg'or, bu borada ko'plab amaliy tadqiqot bajarilgani holda, o'zbek tilshunosligi funksionalizm masalasiga asosan nazariy jihatdan yondashgan. Tildagi yirik FSMlar tarkibi va strukturasi batafsil

aniqlanmagan, vositalarning sathlararo munosabatlari o'rganib chiqilmagan. Bu o'zbek struktur va funksional tilshunosligida o'z yechimini kutayotgan dolzarb dilemmalardan biri bo'lib qolmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Halliday, M.A.K. 1961. Categories of the Theory of Grammar. Word. 17(3). pp. 241-92. Reprinted in Full in On Grammar: Volume 1 of the Collected Works of M.A.K. Halliday. London and New York: Continuum. p. 40.
2. Robins R.H. J.R. Firth: a Reconsideration of His Place in Twentieth-Century Linguistics // Allgemeine Sprachwissenschaft Sprachtypologie und Textlinguistik. Festschrift fur Peter Hartmann. – Tubingen: Gunter Narr Verlag, 1983. – P. 259–267. 7.
3. Thompson G. Systemic-Functional Grammar // Key ideas in Linguistics and Philosophy of Language. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2009. – P. 225-232.
4. Бондарко А. Теория функциональной грамматики: Локативность. Бытийность. Посессивность. Обусловленность [Текст] / А.В. Бондарко. - СПб., Наука, 1996. – 225 с.
5. Бондарко А. Теория функциональной грамматики. – СПб.:Наука,1996. – 257 с.
6. Ирискулов М., Қўлдошев А. Инглиз тили назарий грамматикаси – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2008 – 192 б.
7. Менглиев, Б. Тил яхлит тизими сифатида / Б. Р. Менглиев. – Тошкент, 2010.
8. Нейматов Х. Лингвистик тадқиқот методикаси, методологияси ва методлари.- Бухоро, 2005.
9. Нурмонов А. Структур тилшунослик: Илдизлари ва йўналишлари. Тошкент – 2008. 88 б.
10. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили: ўқув қўлланма – Тошкент, 2006 – 391 б.
11. Федосеева Л. Функционально-семантическое поле локативности в современном русском языке: система языковых и контекстуальных значений // Вестник Сургутского государственного педагогического университета. 2011. №2. – С.50

#### NAMANGAN VILOYATI OYKONIMIYASIDAGI O'ZGARISHLARNING SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI

**Ne'matova Yulduz Odiljanovna**–

Qarshi davlat universiteti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası dotsenti

[nematovaulduz7@gmail.com](mailto:nematovaulduz7@gmail.com)

ORCID ID:0009-0007-5334-4818

UDK 801.81

**Berdiyarova Maxfuza Ilhom qizi**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

4-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Bugungi kunda o'zbek tilshunosligi, jumladan, toponimikasi oldiga zamonaviy taraqqiyot tamoyillariga asoslangan istiqloq davri toponimik siyosati asosida yangi tadqiqotlar yaratish vazifasi qo'yilmoqda.

Oykonimlarning leksik-semantik, nominatsion-motivatsion xususiyatlarini va yasaliş usullari hamda modellarini sotsiolingvistik, etnolingvistik tadqiq etish ana shunday vazifalar sirasiga kiradi. Tilning taraqqiyotiga jamiyatning, aksincha jamiyat rivojiga tilning ta'siri, buning omillari, qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi soha sotsiolingvistika (ijtimoiy tilshunoslik) deb yuritilmoqda. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan qaraganda, nomlanish ham lingvistik hodisa sanaladi. Oykonimlar boshqa toponimlar kabi tilning onomastik birligi sifatida nominatsion-motivatsion belgi-xususiyatlar, lisoniy me'yorlar asosida, til birliklari vositasida shakllanadi. Har bir oykonim atoqli otlar kabi fonetik, leksik-semantik, grammatik xususiyatlarga ega. Shuningdek, toponimlarning paydo bo'lishi, turg'unlashishi yoki aksincha, almashinishi, ma'nosida turlicha o'zgarishlarning sodir bo'lishi jamiyat taqdiri bilan bog'liq. Har qanday toponimik o'zgarish



jamiyatda amalda bo'lgan til qonuniyatlari doirasida sodir bo'ladi. Oykonimlar ham semiotik jihatdan belgi hisoblanadi, biroq boshqa belgilardan farqlanadi. Oykonimlar aholi manzillarini ko'rsatish-ajratish, aniqlash-farqlash vazifasini bajaradi. Oykonimlar ko'rsatish, atash, ifodalashdan tashqari, ijtimoiy-siyosiy, estetik, etnik vazifalarni ham bajaradi.

**Kalit so'zlar:** oykonim, onomastik birlik, atoqli ot, sotsiolingvistika, etnolingvistika, lisoniy me'yor.

### СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИЗМЕНЕНИЙ В ОЙКОНИМИИ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

**Аннотация:** Сегодня перед узбекской лингвистикой, в том числе топонимикой, ставится задача проведения новых исследований топонимической политики периода независимости, основанной на принципах современного развития.

К числу таких задач относятся социолингвистическое, этнолингвистическое исследование лексико-семантических, номинативно-мотивационных свойств, способов и моделей образования ойконимов. Область, изучающая влияние языка на развитие общества, и наоборот, влияние общества на развитие языка, его факторы, закономерности, называется социолингвистикой (социальной лингвистикой). С социолингвистической точки зрения именование также считается лингвистическим явлением. Ойконимы как ономастическая единица языка, как и другие топонимы, образуются на основе номинативно-мотивационного признака - языковых критериев, опосредованных языковыми единицами. Каждый ойконим имеет те же фонетические, лексико-семантические, грамматические особенности, что и имена собственные. Также с судьбой общества связано возникновение, или, наоборот, смена топонимов, появление различных изменений. Любое топонимическое изменение происходит в рамках языковых законов, действующих в обществе. Ойконимы также считаются знаками, но отличаются от других знаков. Ойконимы выполняют функцию указания-выделения, идентификации-дифференциации адресов населения. Помимо указания, наименования, выражения, ойконимы выполняют и социально-политические, эстетические, этнические функции.

**Ключевые слова:** ойконим, ономастическая единица, имя собственное, социолингвистика, этнолингвистика, языковая норма.

**Kirish.** O'zbek onomastikasining asoschisi E. Begmatov: "Tilda shunday vositalar – lisoniy birliklar mavjudki, ularning tabiati, paydo bo'lishi, vazifalari, rivojlanishi, o'zgarishi hamda ma'no qirralarini faqat til nuqtayi nazaridan yondashib tadqiq qilish yetarli bo'lmaydi. Mana shunday lug'aviy hodisalardan biri – onomastik material, ya'ni atoqli otlardir. Shu sababli ham tilning atoqli otlar tizimi bilan nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, etnopsixologiya, etnomadaniyat, sotsial psixologiya, folklorshunoslik, mifologiya, semiotika kabi sohalar ham qiziqadi va undan o'zlari uchun kerakli materialni axtaradi. Mana shunday sohalar orasida atoqli otlarni sotsial nuqtayi nazardan o'rganishda sotsiolin-vistika alohida o'rin tutadi.[1]

V.D. Bondelatov sotsiolingvistikaning onomastikaning tadqiq qilish bilan bog'liq muammolariga quyidagilarni kiritadi:

1. Onomastik leksikaning umuman va alohida ko'rinishlarini (antroponimlar, toponimlar va boshqalar) ularning bajaradigan vazifalari, buning xarakterini ularning lisoniy va ijtimoiy omillarini hisobga olgan holda belgilaydi.
2. Antroponimiya, toponimiya va boshqa onomastik guruhlarining turli ijtimoiy-tarixiy davrdagi taraqqiyot xususiyatlarini o'rganadi.
3. Alohida xalqlar (elatlar) hamda davlatga xos madaniy-ma'noviy, diniy va etnografik an'analarni ifodalanishini o'rganadi.
4. Turli tillar materiali asosida (jumladan, sotsial dialektlarni ham) intralingvistik, shuningdek, ekstralingvistik ko'rsatkichlarni (dalillarni) hisobga olgan holda qiyosiy-tipologik tadqiq qiladi [2].

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan qaraganda, nomlanish ham lingvistik hodisa sanaladi. Toponimlar, jumladan, oykonimlarda tilning atash vazifasi yuzaga chiqadi. Oykonimlar ko'rsatish, atash, ifodalashdan tashqari, ijtimoiy-siyosiy, estetik, etnik vazifalarni ham bajaradi [3], ya'ni ma'lum aholi punktini nomlash, uni shunday boshqa joylardan farqlash barobarida, o'zi nomlab

kelayotgan aholi maskanini qanday ma'muriy-hududiy birlik (mahalla, qishloq, shaharcha, shahar) ekanligini, aholiga xos etnik, sotsial belgi-xususiyatlarni ham ifodalaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tasviriy, tarixiy, qiyosiy-chog'ishtirma, statistik, areal tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Namangan viloyati 1941-yil 14-martda tashkil etilgan (1960-yil 25-yanvarda Andijon va Farg'ona viloyatlari tarkibiga qo'shib yuborilgan. 1967-yil 18-dekabrda qayta tashkil etilgan). Maydoni 7,44 ming kv. km, aholisi 3 066,100 ming kishi, shundan shaharda 1 millionga yaqin ming kishi, qishloqlarda 2 853,7 ming kishi istiqomat qilmoqda [4].

Viloyat respublikaning sharqida, Farg'ona vodiysining shimoli-g'arbiy qismida Chotqol va Qurama tog' tizmalariga yaqin joylashgan.

Tarkibida 11 qishloq tumani: Kosonsoy, Mingbuloq, Davlatobod, Norin, Pop, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, Yangiqo'rg'on; 8 ta shahar: Namangan, Kosonsoy, Pop, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, Haqqulobod; 12 ta shaharcha: Jomasho'y, Navbahor, Oltinkon, Oqtosh, Toshbuloq, Uychi, Uyg'ursoy, Uchqo'rg'on, Chorkesar, O'nhayat, Xalqobod, Yangiqo'rg'on; yuzlab qishloqlar bor. [5] "Namangan viloyati" qomusi uchun tuzilgan so'zlikda qayd etilishicha, mustaqillikning ilk yillarida Mingbuloq tumanida 24 ta, Kosonsoy tumanida 58 ta, Namangan tumanida 47 ta, Norin tumanida 50 ta, Pop tumanida 70 ta, To'raqo'rg'on tumanida 56 ta, Uychi tumanida 84 ta, Uchqo'rg'on tumanida 14 ta, Chortoq tumanida 30 ta, Chust tumanida 58 ta, Yangiqo'rg'on tumanida 83 ta, jami 575 ta qishloq bo'lgan. [6] Bugungi kunda Namangan viloyati oykonimiyasida 403 ta qishloq, 773 ta mahalla (423 ta shahar va 335 ta qishloq mahallalari), 7 ta shahar nomlari mavjud.

Bu Namangan viloyati toponimiyasi oykonimlarga boyligini ko'rsatadi.

E. Begmatov tilning vazifalari xususida fikr yuritib, "Tilning asosiy kommunikativ vazifasini inkor etmagan holda shuni ta'kidlash kerakki, uning boshqa ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy, didaktik va ta'limiy, etikaviy, estetik, regional-hududiy, ruhiy, badiiy va ilmiy, emotsional-estetik tomonlar bilan bog'liq ijtimoiy-lisoniy qirralari mavjud", – deb yozadi. [7] Bu, albatta, oykonimlarga ham xos.

Istiqlolga erishgach, mustaqil O'zbekiston davlati o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarini tiklash, xalqning o'zligini anglash, mustaqillikning sharofatini chinakamiga sezish ishiga juda katta e'tibor bera boshladi. Joy nomlari, ayniqsa, tarixiy toponimlar, milliy qadriyatlar milliy tilning bebaho boyligi hisoblanadi. Buning ustiga, O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda eski tuzum g'oyalari mafkurasini eslatuvchi nomlar barcha yerlarda o'zini ko'z ko'z qilib turardi. Natijada, O'zbekiston hukumati, joylardagi hokimiyat organlari joy nomlarini o'zgartirish, yangilash, ya'ni mustaqillik davri talablariga moslash ishiga kirishdi. Bu ish ham ilmiy, ham tashkiliy, ham amaliy jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yildi.

Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida **Respublika toponimiya komissiyasining** tuzilgani, uning respublikada toponimik obyektlarga nom berish masalalari bilan jiddiy shug'ullana boshlagani, viloyat, tuman va yirik shaharlarda ham toponimiya komissiyalari tuzilgani muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Respublikadagi tabiiy-geografik obyektlarga yangi nom berish, ular nomini o'zgartirish bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Bu tadbirlarning qabul qilinishi va amalga oshishida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik obyektlarning nomini tartibga solish to'g'risida" 1996-yil 31-mayda qabul qilingan qarori va 203-sonli qarori bo'yicha Tavsiyalari (1996-yil 31-iyul), shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustdagi Qonuni muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu borada Namangan viloyati va tumanlar hokimliklaridagi toponimik komissiyalar tomonidan bir qator ibratli ishlar amalga oshirildi. Ular quyidagilarda yaqqol ko'rinadi:

1. Viloyat, tumanlar toponimik komissiyalari muntazam ish olib bordi va olib bormoqda.

2. Tarixiy ahamiyatga molik nomlarni tiklash, eski tuzum bilan bog'liq nomlarning joylardagi saqlanib qolgan qoldiqlarini tugatish, joy nomlarini davlat tili (o'zbek tilida, hozirgi joriy lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yozish an'anasi amaliyotga kirdi.

3. Joylarni nomlashda ularga shaxs nomlarini berishning ba'zi me'yorlari ishlab chiqildi.

4. Joylarga kishi nomlarini berishni cheklash bo'ldi. Ushbu munosabat bilan joylarga avvallari shoshilinch ravishda qo'yilgan va kishi nomlaridan iborat bo'lgan toponimlarni joyning tabiiy-geografik holatini ifoda etadigan, istiqloq mafkurasiga javob beradigan nomlar bilan almashtirildi, bir qancha hududlarning oldingi tarixiy nomlari tiklandi. Milliy istiqloq yillari davomida respublikamizning viloyat, shahar, tumanlarida eski tuzum mafkurasiga bilan bog'liq bo'lgan, mustamlaka davri g'oyalari targ'ib qiluvchi, hech qanday milliy ma'no, xususiyat kasb etmaydigan nomlar bilan atalib kelingan yuzlab qishloq, mahalla, guzar nomlari fuqarolarning taklif va mulohazalari asosida mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda o'zgartirildi. Viloyat hokimining 2008-yil 3-martdagi 53-sonli qaroriga asosan 200 dan ziyod obyektlar qayta nomlandi. Masalan,

**Mingbuloq tumani bo'yicha:** *G'alaba ko'chasi – Uzumzor, Stadion ko'chasi – Charog'on, M. Ahmedova ko'chasi – Yangidavr, T. Usmonov ko'chasi – Ezgulik;*

**Namangan tumani bo'yicha:** *Vaysinov ko'chasi – Serfayz, Lager ko'chasi – Oromgoh, S. Budyoniy ko'chasi – Chuqurko'cha (tarixiy nomi);*

**Uychi tumani bo'yicha:** *G'alaba MFY Oqtosh MFY, Ittifoq MFY Obod MFY;*

**Uchqo'rg'on tumani bo'yicha:** *Oxunboboyev MFY nomi – Yorqin hayot, XBK-17 ko'chasi – To'qimachi;*

**Chortoq tumani bo'yicha:** *Oxunboboyev ko'chasi – Razzoq baxshi, U. Yusupov ko'chasi – Tolko'cha deb qayta nomlangani kabi.*

Bir qancha tarixiy, qadimiy nomlar tiklandi. Masalan, Naymancha (avvalgi O.Jo'raboyev ko'chasi), Lashkar (avvalgi T. Shermatov ko'chasi), Oltiog'ayni (avvalgi I.Nabiyev ko'chasi), Olchinmazor (To'ra.t. avvalgi M. Haqnazarov ko'chasi), Chuqurko'cha (To'ra.t. avvalgi S. Budyoniy ko'chasi), Arg'amchilik (To'ra.t. avvalgi R.To'raboyev ko'chasi), Buloqboshi (Chor. t. avvalgi S. Rahimov ko'chasi), Qirqqiz (Chor. t. avvalgi H. Olimjon ko'chasi), Sultonsaid (avvalgi S. Rahimov ko'chasi), Eshonko'cha (avvalgi U. Yusupov ko'chasi), Yangitong (Nor. t. avvalgi U. Yusupov MFY), Obod (To'ra.t. avvalgi G'alaba MFY) kabi.

Joy nomlari tizimidagi takroriylik masalalari ko'rib chiqildi va bunga barham berildi.

O'zbekiston Respublikasidagi toponimik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasi Majlisining 2009-yil 21-avgustdagi 07-5-30-sonli yig'ilishi qaroriga asosan viloyatning ayrim tumanlaridagi takroriy joy nomlari quyidagicha o'zgartirildi:

– Pop tumani hududidagi **Iskovut** (takroriy) shaharcha fuqarolari yig'ini Qo'riqobod shaharcha fuqarolari yig'ini;

– Uychi tumani hududidagi **Axsi** (takroriy) shaharcha fuqarolari yig'ini **Yuksalish** shaharcha fuqarolari yig'ini;

– Yangiqo'rg'on tumani hududidagi **Sangiston** (takroriy) shaharcha fuqarolari yig'ini **Hurriyat** shaharcha fuqarolari yig'ini kabi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyulda "O'zbekiston Respublikasidagi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 120-sonli maxsus qarori qabul qilingan. Bu qarorda "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholi maskanlari bo'yicha qabul qilingan standartlariga mos ravishda qishloq aholi punktlarini ro'yxatdan o'tkazish va zarur hollarda ularni shaharchalar toifasiga kiritish bo'yicha iltimosnomalar taqdim etish vazifasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklariga yuklatildi.[8]

Bu qonun va qarorlar nafaqat toponimlar, balki toponimik, jumladan, oykonimik indikatorlar doirasida o'zgarish hamda yangilanishlarga ham olib keldi: oblast, rayon, posyolka

kabi lugʻaviy birliklar isteʼmoldan chiqib ketdi. Jumladan, oʻzbek tilida faol qoʻllanib kelingan, posyolka soʻzi asli ruscha boʻlib, asosiy qishloq yoki shahardan uzoqda boʻlmagan kichik qishloq degan lugʻaviy maʼnoga ega. Mazkur soʻz oʻzbek tilida aynan shu maʼnoda qoʻllanibgina qolmasdan, koʻp maʼnolilik xususiyatiga ega boʻlib, 1990-yillarga qadar “shahar tipidagi katta qishloq” maʼnosida ham qoʻllandi.[9] Masalan, Yangiqoʻrgʻon posyolkasi, Navbahor posyolkasi, Uygʻursoy posyolkasi kabi. Oʻzbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, oʻzbek tiliga rus va Yevropa tillaridan oʻzlashgan soʻzlarning oʻzbekcha muqobillari yaratilishi natijasida hozirda posyolka oʻrnida shaharcha soʻzi faol qoʻllanmoqda.

Shaharcha soʻzi ensiklopedik lugʻatda quyidagicha izohlanadi: “Shahar-cha – maʼmuriy-hududiy birlik, shahar aholisi manzilgohlari tiplaridan biri”. Demak, shaharcha oykonimik indikator shahar, -cha maʼnoli qismlaridan tarkib topgan boʻlib, hozirda arxaik soʻzlar qatlamiga oʻtgan oʻzlashma posyolka soʻzining sinonimi boʻlib, shahar tipidagi, biroq undan kichikroq aholi manzilini anglatadi.

Shaharchalar dunyoning barcha mamlakatlarida ham mavjud emas. Oʻzbekistonda 113 ta, Namangan viloyatida esa 12 ta shaharcha bor. Jomashoʻy shaharchasi, Toshbuloq shaharchasi, Navbahor shaharchasi, Oltinkon shaharchasi, Uygʻursoy shaharchasi, Uychi shaharchasi, Chorkesar shaharchasi, Oʻnhayat shaharchasi, Yangiqoʻrgʻon shaharchasi, Oqtosh shaharchasi kabi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi Prezident qarori ijrosini taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martdagi 68-sonli “Oʻzbekiston Respublikasidagi aholi punktlarining maʼmuriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan Respublika boʻyicha 966 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berildi. Jumladan, Namangan viloyatidagi 12 ta qishloq aholi punktlari shaharcha maqomini oldi. Bundan koʻrinadiki, yerning tili boʻlgan toponimlar, jumladan, oykonimlar tizimida doimo yangilanish, miqdor va sifat oʻzgarishlari roʻy bermoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социолінгвистик аспекти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011. – №4. – Б.43.
2. Бондалетов В.Д. Ономастик и социолінгвистика // Антропонимика. – Москва, 1970. – С. 23.
3. Бонделатов В.Д. Русская ономастика. – Москва: Просвещение, 1983. – С.54.
4. Янгиланаётган Наманган. – Наманган, 2011.– Б.3.
5. Ўзбекистон Республикаси (энциклопедик маълумотнома). – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. – Б.104.
6. Наманган вилояти қомуси сўзлиги. – Наманган, 1992. – Б. 14-33. Изоҳ: Мазкур китоб лойиҳалигича қолиб кетган.
7. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентриқ тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – №3. – Б.36.
8. Ўзбекистон Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2005, июль. – № 28-29.
9. Ўзбек тилининг изоҳи луғати, 1-т, 599-бет.
10. Namangan viloyati statistika boshqarmasi maʼlumotlari.

#### BADIIY ASARLARDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASINING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

**Batirxanova Madina**

Fargʻona davlat universiteti, katta oʻqituvchi(PhD)

[mbatirxanova@mail.ru](mailto:mbatirxanova@mail.ru)

ORCID 0009-0003-9593-2459

UDK: 811.413:418

**Annotatsiya.** Nutqda frazeologizmlarning kommunikativ-pragmatik jihatlari milliy ong hamda milliy madaniyatni voqelantiradi. Maʼlumki, har qaysi xalqning madaniyati, urf-odat,

an'analari tilda ham aks etadi. Kommunikativ jarayonda FBlar turli ma'no anglatadi. Shu ma'noni frazeologizmlarning pragmatik funksiyalari belgilaydi. Muloqotda turli vaziyatlarda FBlar bir xil ma'no ifoda eta olmaydi. Shuning uchun ma'lum bir FBlarning kommunikativ-pragmatik funksiyalari kontekstda farqlanadi. SFB faqatgina qadimiy turkiy tildagina emas, balki qardosh bo'lmagan tillar – rus va ingliz tillarida ham ifodalanganligi, shuningdek, agar umumiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, FBlar ham o'z xususiyatlariga ko'ra lingvistik, tarixiy, milliy va madaniy shaklda tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib berildi. Pragmatik adekvatlikka ko'ra, SFBlar tarjimasining muqobil variantlarini izlash, ko'pincha pragmatik nomuvofiqlikka olib keladi. Bu masalada tarjimonning tilda SFB ekvivalenti bo'lmaganda, muqobil, tasviriy hamda leksik tarjima usulidan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Somatik FBlarni tarjima matnida ifoda etishda ularning matn kontekstida bajaradigan aniq vazifasidan kelib chiqish tarjima amaliyotida yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Tarjima muqobil uslubiy xususiyat kasb etib, uni o'qigan kitobxon asliyat sohibi asar mutolaasidan oladigan taassurot darajasida ta'sirlanadi, tarjimaning asliyatga pragmatik adekvatligi asliyat va tarjima sohiblarining bir xil axborotga ega bo'lishlari bilan belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** pragmatik munosabatlar, semantik munosabatlar, kommunikativ vazifa, kommunikativ ta'sir, pragmatika, konnotativ bo'yoqdorlik, pragmatik adekvatlik, ekvivalent, muqobil variant, emotsional-ekspressivlik.

#### КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

**Аннотация.** Коммуникативно-прагматические аспекты фразеологизмов в речи реализуют национальное сознание, а также национальную культуру. Как известно, культура, обычаи, традиции любого народа отражаются и в языке. В коммуникативном процессе ФЕ имеют разные значения. Это значение определяется прагматическими функциями фразеологизмов. Было показано, что соматические ФЕ выражаются не только в древнетюркском языке, но и в неродственных языках – русском и английском, а также, если рассматривать их с точки зрения общего языкознания, они по своим характеристикам в лингвистической, исторической, национальной и культурной формах приобретают важное значение в лингвистике. Согласно прагматической адекватности, поиск альтернатив переводу СФЕ часто приводит к прагматическому несоответствию. Желательно, чтобы переводчик использовал альтернативный, описательный, а также лексический метод перевода, когда язык не имеет эквивалента СФЕ. При выражении соматических ФЕ в тексте перевода следование конкретной функции, которую они выполняют в контексте, может привести к лучшим результатам в практике перевода. Перевод приобретает альтернативный стилистический характер, на него влияет уровень впечатления, которое читатель получает от чтения произведения, прагматическая адекватность перевода оригиналу определяется тем фактом, что обладатели оригинала и переводчик обладают одинаковой информацией.

**Ключевые слова:** прагматические отношения, смысловые отношения, коммуникативная задача, коммуникативный эффект, прагматичность, коннотативная окраска, прагматическая адекватность, эквивалентность, альтернативность, эмоциональная выразительность.

**Kirish.** So'nggi yigirma yillikda badiiy tarjimaga pragmatik nuqtayi nazardan yondashishga qiziqish ortib bormoqda, chunki pragmatika ham, tarjima ham kommunikativ vaziyatlar bilan bog'liq. Badiiy tarjimadagi pragmatik munosabatlar semantik munosabatlar ustiga qo'yilgan bo'lib, asl matnni tahlil qilish va tarjima tilidagi ekvivalent matnni yaratishda bir xil darajada muhim rol o'ynaydi. Komissarov va Koralyovanning fikricha[1], so'zlar semiotik belgi sifatida predmetlarning befarq belgisi emas, ular ma'lum ma'noga ega bo'lib, ma'lum nazariyalar, e'tiqodlar, yoqtirish va yoqtirmaslik bilan bog'liq bo'lib, odamlarda ularga nisbatan muayyan munosabatlarning hosil bo'lishidir.

FBlarning turli kommunikativ sharoitlarda ishlashi bilan bog'liq masalalarga qiziqish yanada kuchaydi. Bu o'rinda FBlar yordamida nutq faoliyatini o'rganishga qaratilgan

frazeologiyani kommunikativ-pragmatik jihatlarini o'rganish alohida o'rin tutadi. Nutq faoliyati voqeliklardan biri sifatida qarala boshlandi. "Til nafaqat dunyoning manzarasini chizadi, balki til va nutq voqelikdagi ko'plab hodisalarni tushunish kalitini ham beradi"[2]. Munosabatlarning bu yo'nalishi pragmatik tadqiqotlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Tarjimashunoslikda frazeologizmlar muammolarini Sh. Balli, V.V. Vinogradov, B.A. Larin, Q. Musayev va N.M. Shanskiy, Retsker, S. Vlixov va F. Florin, A. Narziqulov kabi tilshunos olimlar tadqiq etganlar[3].

FBlarning kommunikativ va pragmatik xususiyatlaridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, ularning asosiy pragmatik parametrlari ekspressivlik, konseptuallik va subtekst(yashirin) ma'lumotlardir. Har bir FB ma'lum kommunikativ vazifani bajaradi.

O'rganilayotgan birliklar tarjimasining kommunikativ va pragmatik muvofiqlik hamda nomuvofiqlikda amalga oshirilganligi, bu birliklarning badiiy matndagi tarjimasida tarjimashunoslik nazariyasi asosida – ekvivalent, muqobil, tasviriy izoh, leksik bayon usullari orqali amalga oshirilganligi aniqlanadi.

Somatik frazeologik birliklar tarjimasida pragmatik muvofiqlikni ta'minlash uchun ekvivalent va muqobil tarjima usullaridan foydalanish zarurligi namoyon etiladi.

FBlar ko'pincha tilning so'zlashuv qatlamiga mansub bo'lib, bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi. Asar muallifi badiiy asarda FBlarni qo'llaganda muallif va o'quvchi o'rtasida o'zaro bir-birlarini anglash paydo bo'lib, o'quvchi asarda sodir bo'layotgan voqealarga sho'ng'ib, muallif tasvirlayotgan voqea-hodisalarga yaqinlashish sodir bo'ladi. Bu esa o'quvchining badiiy asarga real yondashuviga turtki bo'ladi. Badiiy asardagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalar sun'iy, faqat asarda tasvirlangan holda emas, balki haqiqiy, o'quvchining bevosita o'zi ishtirokidagi voqealardek tuyula boshlaydi. Shuning uchun badiiy asarlarda oddiy xalqning o'ziga xos xususiyatlarini bevosita namoyon etish uchun rang-barang til vositalari qo'llaniladi. Ushbu til vositalaridan biri FBlardir. FBlar milliy mentalitetni tasvirlovchi vositalardandir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** J. Layons pragmatikaning predmetini aniqlash va belgilashga urinib, shunday deydi: "Pragmatika tinglovchining ma'lumotni so'zlovchini xohlagan qabul qilishga undash uchun muloqotda tegishli til birliklaridan foydalanishini tavsiflaydi"[7]. Demak, pragmatiklar shaxslararo muloqotda tilning rolini aniqlash bilan shug'ullanadilar.

Demak, mutarjim tarjima jarayonida o'z e'tiborini til vositalarining ma'nosi bilan birga, ushbu til vositalari anglatayotgan madaniy tushunchalarni ham yetkazib bera olishga qaratmog'i kerak. A.A. Golev tarjima jarayonida FBlarning ikki turini ajratib beradi: ya'ni ularning o'zaro farqi ko'zga tashlanmasligini, ikkala tilda ham bir xil ifodalanishini, madaniyatlarining turlichaligini ifodalovchi FBlar har qaysi tilda o'zgachaligi bilan ajralib turishini[9]. Shuning uchun aynan madaniyat bilan bog'liq bo'lgan SFBlarning tarjimasida madaniyatga xos tushunchalar boshqa tilning tushunchalari orqali ifodalanishi kerak. Kontekst metaforik ma'no yoki asl, ya'ni to'g'ri ma'noda ifodalanishi kerak. SFBlar beradigan metaforik ma'no boshqa tilga o'girilayotganda hammavaqt ham metaforik ma'noni anglatmaydi, ayrim holatda metaforik ma'no anglatayotgan FB boshqa tilda to'g'ri ma'no anglatuvchi leksemalar orqali ifodalanadi.

A.M. Yaxina pragmatik aspektdagi tahlil jarayonida FBlarning turli ma'nolarini ajratadi, jumladan: baholash, his-tuyg'u jarayonini ifodalovchi, ya'ni ekspressiv. FBlar konnotatsiyalari doirasida ekspressivlikning ifodalanishida olima quyidagi guruhlarini ajratib chiqadi: muloqotda qatnashuvchilarning ijtimoiy mavqeyi; tinglovchiga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish; so'zlovchilarning emotsional holati; kommunikativ-pragmatik vaziyatlarning namoyon etilishi[10].

**Natijalar va muhokama.** Tarjima pragmatikasi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotga qaratilganligi, muloqot ishtirokchilarining esa ma'lum bir madaniy, milliy guruhlariga tegishlilik ushbu madaniyat va millatning o'ziga xos xususiyatlari muloqot jarayonida namoyon bo'lishi mumkinligini hamda tarjimada asl matn mohiyatini ko'rsatib, muloqot qiluvchilarning madaniy va milliy o'ziga xos xususiyatlarini yetkaza olishi muhim masalalardan biridir[12].

Ma'lumki, o'zbek tilida "ko'z" komponentli SFBlar soni talaygina. Ushbu komponentli SFBlar badiiy matnda ham ko'p qo'llangan. Ularning rus tiliga tarjima qilish usullari hamda pragmatik ta'sir tushunchasiga e'tiborimizni qaratamiz.

Shu o'rinda G'.G'ulomning "Shum bola" asarini tahlil qilgan holda, ularga rus va ingliz tillaridagi o'zimizning muqobil variantlarimizni keltirib o'tamiz[13]. Ushbu qissada "ko'z" komponentli juda ko'p iboralar qo'llangan. Jumladan, ko'z tikmoq, ko'ziga issiq ko'rinmoq, ko'zi to'yamaydi, ko'zi tor, ko'zi yoridi, ko'zini moshdek ochmoq, ko'zlari uchib turmagan, ko'ziga qon to'lgan, og'zimdanda tushmaydi, boshimdan kechirganlarim, qulog'imdan ketmaydi, quloq solib kabi iboralar hamda ushbu gapdagi: "Novcha yigit suzgan bo'zadan ozgina tatib ko'rib, birinchi oyoqni Sultonga uzatdi." Iboraning rus tiliga tarjimasida "Потом он попробовал процеженное питье на вкус и протянул чашу Султану" tarzida berilgan. Pragmatik ta'sirni ta'minlash uchun tarjimon *чаша* so'zidan foydalanmoqda. Lekin, bizning fikrimizcha, oyoq so'zining o'rniga rus tilidagi *роз* so'zini olgan ma'qulroq edi. Tarjimada tarjimon kalka usulidan foydalandi, lekin ilgari vaqtlarda hayvonlarning oyoq yoki shoxidan ichimlik idishi yasalgan. *Чаша* so'zi esa oltin, kumush, mis kabi turli metallardan yasalgan idish ma'nosini ifodalaydi (muallif tarjimasida).

FBlar tarjimasida biz ularning yashirin ma'no beruvchi xususiyatlariga alohida e'tibor berishimiz zarur. Har qaysi til millatning o'ziga xos betakror fikrlash jarayoni, mentalitetini ifodalaydi. Ayrim holatda FBning o'rniga qo'llanayotgan so'zlar tarjima qilina yotgan tilning xususiyatlarini namoyon eta olmaydi. Shuning uchun o'girilayotgan tilda kontekstning ma'nosini to'liq bera oladigan til vositalaridan foydalanish zarur. Quyidagi kontekstda ifodalanayotgan SFBning rus tilida tarjimasiga e'tibor qaratamiz:

*Boy ortiq chidab turolmadi. Hushidan ketib yiqildi. Men ham qamchi o'rimidan yeydigan kaltakni nasiya qilib jo'nab qoldim. Mendan biror soatlardan keyin tulpor saman otda barlari osilib ketgan, alpang-talpang, bir ko'zi yerda, bir ko'zi osmonda, egar qoshiga qamchi dastani tirab, yig'lab boy kelib qoldi[15].*

*Этого бай не вынес: он без сознания повалился на курпачу. Я не стал терять времени и тут же уехал. Такие добрые вести стоят не одного удара плетью, но я, по своей скромности, решил обойтись без этой честно заслуженной награды[14].*

O'zbek tilida keltirilgan bir ko'zi yerda, bir ko'zi osmonda SFBsi o'tning tez chopganini ko'rsatadi. Lekin tarjimon rus tilidagi matn ma'nosini butunlay o'zgartirib, frazeologik ibora berayotgan bo'yoqdorlikni ta'riflay olmagan. Tez chopayotgan tulpor, uchqur ot ma'nosini rus tilida *со всех ног, высунув язык, во все лопатки, сломя голову/ноги, очертя голову, не чувствуя под собой ног, ноги едва касаются земли, мчатся как на крыльях, мчатся во весь опор, мчатся стремглав* kabi FBlar berishi mumkindir (muallif tarjimasida). Ushbu kontekstda tarjimon FBlardan umuman foydalanmasdan, kontekst ma'nosini o'zgartirib yuborgan. Rus tilidagi kontekst asl ma'noda ta'riflangan. Bizningcha, ingliz tilida "at rapid-fire pace", "like a bat out of hell", "headlong", "blindly" kabi iboralar orqali tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Asardan keltirilgan quyidagi misollarimizda adib somatik FB'larni konnotativ ma'nosini kuchaytirgan holda quyidagicha izohlaydi:

**Chang bosgan kipriklar tagidagi qo'y ko'zlar** menga juda tanish. Yo'lning gard-g'ubori qoqilmagan namatdek qilib yuborgan bu bashara **ko'zimga issiq-issiq ko'rinadi**. Lekin egnidagi qozoqi chakmon bilan boshidagi teskari ag'darilgan telpak, qo'lidagi boshi cho'qmor kaltagi menga tanish emas. Undan ko'zimni uzmay tikilib turaman. U ham menga g'ilt-g'ilt etib tikilib turardi.

Tarjimon A.Naumov esa uni leksik tarjima orqali quyidagicha ifodalagan: *Потом я пошел на скотный базар — что-то меня туда потянуло — и начал прицениваться к большому **крутолобому барану с рогами**, закрученными, как чалма у воспитанника медресе. И вдруг мелькнула передо мной какая-то **вроде знакомая физиономия**. Я огляделся. Около стада баранов, связанных одной веревкой, стоял парнишка в казахском чекмене и вывернутой наизнанку меховой шапке. В руках он держал дубинку с утолщением на конце. Ей-же-ей, никто из моих друзей такой одежды не носил, и все же очень знакомо мне это лицо, от пыли и солнца ставшее похожим на кошму, и эти карие глаза под пыльными ресницами, которые и сами-то вдобавок всматриваются в меня с надеждой...*

O'zbek tilidagi matnda muallif qo'yular podasi o'rtasida turgan bolani tasvirlar ekan, u bolaning ko'zini qo'y ko'zlar somatik birligi orqali ta'riflaydi. Qo'y ko'zlar iborasi inson

nigohidagi yumshoqlik va qoʻrquvni ifodalaydi. Muallif bolaning tanishligini koʻz komponentli ikki ibora vositasida koʻrsatib bergan: qoʻy koʻzlar menga tanish; koʻzimga issiq-issiq koʻrinar edi. Yozuvchi takrordan foydalanar ekan, u bolaning tanishligini oʻquvchiga yorqin koʻrsatib bera olgan. Ana shu jihatdan oʻzbek tili xalqona konnotatsiyalarga boyligi bilan ajralib turadi va bu tarjimada yaqqol koʻzga tashlanadi. Bu borada rus va ingliz tillari oʻzbek tilidagi kabi ekspressivlik bilan taʼriflanmaydi. Maʼlumki, FBlar tasnifida toʻliq ekvivalentlik holatlari kamdankam uchraydi. Agar ikki tilda FBlarning ekvivalenti topilsa, kontekst ham ikki tilda bir xil boʻlishi mumkin: Mazkur gapda “Shu tobda Sultonning koʻzi men bilan Omonga tushib qoldi” “koʻz” komponentli SFB rus tiliga kalʼkalash usuli orqali quyidagicha tarjima qilinadi: *Тут взгляд Султана, бродивший по толпе, наткнулся на нас с Аманом.*

Ushbu misralardagi tarjima oʻrinli, deya olamiz. Shunga qaramasdan, asliyatdagi maʼno qoʻpol tarzda tarjima qilinganligi bois, biz bu oʻrinda “*бросить взгляд на...*” degan iborani taklif qilgan boʻlar edik va leksik yoki kombinatsiya tarjima metodlaridan foydalanishni oʻrinli, deb hisoblaymiz. Ingliz tilidagi *cast an eye on, throw one’s eye on, cast a look at, glance at* iboralarni analog tarjima orqali bersa boʻladi.

Keyingi iboralarning tahliliga oʻtamiz: ... *koʻzlari qinidan chiqib, hovliqib ketgan edilar//... У них от испуга глаза на лоб полезли.*

Yuqoridagi “koʻz” komponentli SFBning oʻzbek va rus tilida bir xil ekvivalenti mavjud: *koʻzlari qinidan chiqdi – глаза вылезли из орбит.* Lekin shu bilan birga, rus tilida ushbu maʼnoni beruvchi yana bitta SFB mavjud: *глаза на лоб полезли*; ingliz tilida esa quyidagi ekvivalent orqali ifodalashimiz mumkin: *made my eyes pop out, eyes popped out of one’s head.* Har ikki ibora ham bir xil konnotativ maʼnoga ega. Lugʼatda SFBlarning sinonim holatlarini taʼrifladik, kontekstda esa FBlar sinonimlaridan mosini tanlab olish zarur. Bunda tarjimonning mahoratini, ikki tilning ichki xususiyatlarini qay darajada bilishini tarjima jarayonida asosiy mezonlardan biri, deb hisoblashimiz mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Koʻrinib turibdiki, hamma vaqt ham tarjimada FBlardan foydalanish mos ekvivalentni bera olmaydi hamda kontekst maʼnosini butunlay oʻzgartirib yuborishi mumkin.

Xulosa qilishimiz mumkinki, pragmatik omillar ekvivalentlikning tarkibiy qismi boʻlib, ularning qayta yaratilishi tarjimaning asliyatga kommunikativ jihatdan toʻliq mosligini taʼminlaydi. Tarjimaning asliyatga pragmatik adekvatligi asliyat va tarjima sohiblarining bir xil axborotga ega boʻlishlarini taʼminlaydi.

Tillararo diskursiv munosabatda pragmatik muammolar yuzaga kelar ekan, mutarjimning vazifasi tarjima jarayoni maqsadini toʻgʻri anglagan holda, uni tarjima talabi, meʼyori asosida qayta yaratishdan iboratdir. Har qanday tarjimaning pragmatik vazifasini amalga oshirish tarjimondan axborot qabul qiluvchining estetik taʼsirlanish darajasini birinchi oʻringa qoʻyishini talab qiladi. Zero, haddan ortiq aniqlik pragmatik noaniqlikka olib kelishi, yozuvchi koʻzda tutgan taʼsirchanlikni yaratishga ojizlik qilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Комиссаров В.Н., Коралова А.Л. Практикум по переводу с английского языка на русский. – Москва: Высшая школа, 1990. – С.74.
2. Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Вступительная статья // Новое в зарубежной лингвистике. Лингвистическая прагматика. Вып. XVI. – М., 1985. – С.504.
3. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1955. – С.316; Виноградов В.В. Лексикология и лексикография: избранные труды – М.: Наука, 1986. – С.212; Ларин Б.А История русского языка и общее языкознание. – М., 1977. – С.124; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б.152.
4. Нарзикулов А. Французская фразеология и вопросы француско-узбекского художественного перевода: АКД. – Л., 1969. – С.18.
5. Рахимов Ф. Таржима назарияси ва амалиёти: дарслик-мажмуа / Муалл. Ф.Рахимов. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б.106.
6. Carnap Rudolf. Der logische Syntax der Sprache. – Vien, 1934. –P.175; Morris Ch. Signs, language and behaviour / Ch. Morris. – N.Y.: Pretence Hall, 1946. – P.165; Моррис Ч.У.



Основания теории знаков / Ч.У. Моррис // Семиотика: сб. статей; пер. с англ., франц., испанск. – М.: Радуга, 1983. – С.37-89.

7. Austin John Langshaw. How to do things with words. – Oxford: At the Clarendon Press, 1962. – P.85; Серль Дж., Вандервекен Д. Основные понятия исчисления речевых актов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVIII. – М.: Прогресс, 1986. – С.242–263.

8. Soyibnazarov N. The role of pragmatics in translation. [Journal.jspi.uz](http://Journal.jspi.uz) Jizzakh, – 2021. – P.8.

9. Комиссаров В.Н. Прагматические аспекты перевода // Сб. научн. тр. МГПИИЯ им. М. Горького. вып. 193. – М., 1982. С. – 57,62.

10. Гольев А.А. Лингвокультурологические и лингвотипологические критерии в переводе: аспекты функциональной взаимосвязи (на материале переводов произведений Я. Гашека на английский, русский и эстонский языки): Дисс. ... канд.фил. наук: 10.02.20

11. Яхина А.М. К вопросу о прагматическом аспекте фразеологических единиц (на материале английского языка), 2013. – С. 221

12. Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. Международные отношения, 1980. – С.67.

13. Neubert, Albrecht. Pragmatische Aspekte der Übersetzung. In: Fremdsprachen, Beiheft II. – Leipzig: Enzyklopädie, 1968. – Б.21-33.

14. Гафур Ғулом. Шум бола. Қисса. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. – Б.72.

15. Наумов А. Озорник. – 1984. – *Издания*: ВСЕ . – С.142.

16. Мусаев К. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б.152.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА АМИРА ТЕМУРА В РУССКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ИСТОРИКО-ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ

Пардаева Дилфуза

Каршинский государственный университет, доцент

[paradise.dil13@gmail.com](mailto:paradise.dil13@gmail.com)

ORCID 0000-0002-8313-6186

УДК: 82

**Аннотация:** Изучение образа Амира Темура - легендарной исторической личности - невозможно без обращения к истории. Данное исследование представляет собой типологический анализ образа Амира Темура в русской художественной литературе и историографии. Оно раскрывает, как изменялось восприятие этой исторической фигуры с XV века до современности, начиная с «Повести о Темир Аксаке». Анализ включает творения русских писателей, исследуя, как литературные произведения формировали образ Темура в культурном сознании. В исследование также включены работы таких историков, как Н.М. Карамзин, С.М. Соловьев, В.О. Ключевский, а также советских учёных, включая А. Якубовского и И. Муминова. Особое внимание уделяется анализу «Уложений Темура» и их роли в отображении Темура в русской культуре. Часто, «писанная» жизнь искажает истинный образ и достижения великих людей, преобразуя их на основе идеологических, культурных или политических взглядов тех, кто их описывает. В этом контексте интересно рассмотреть образ Амира Темура, известного также как Тамерлан, в художественной литературе на русском языке. Методы исследования включают историографический и литературно-критический подходы, обеспечивая глубокое понимание этой влиятельной исторической личности.

**Ключевые слова:** Амир Темур, русская литература, историография, типологический анализ, культурное восприятие, Золотая Орда, средневековье, Уложения Темура.

### RUS BADIY ADABIYOTIDA AMIR TEMUR OBRAZINI TALQINI:

#### TARIXIY-ADABIY TAHLIL

**Annotatsiya:** Afsonaviy tarixiy shaxs bo'lmish Amir Temur obrazini o'rganishni tarixga murojaatsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Ushbu tadqiqot rus badiiy adabiyoti va tarixshunosligida Amir Temur obrazining tipologik tahlilidan iborat. Unda XV asrda yaratilgan "Temir oqsoq qissalari" dan boshlab to hozirgi kungacha bu tarixiy shaxs haqidagi tasavvur qanday o'zgarganligi ochib beriladi. Tahlil rus yozuvchilarining asarlarini o'z ichiga oladi, adabiy asarlar Temur

obrazini madaniy ongda qanday shakllantirganini o'rganadi. Tadqiqotga N.M. Karamzin, S.M. Solovyov, V.O. Klyuchevskiy kabi tarixchilarning asarlari, shuningdek, sovet olimlari, jumladan, A.Yakubovskiy va I. Mo'minov asarlari ham kiritilgan. Shu bilan birga "Temur tuzuklari" tahlili va ularning rus madaniyatida Temur tasviridagi o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Ko'pincha "yozma" hayot ulug' zotlarning asl qiyofasini, erishgan yutuqlarini buzib, ularni tavsiflovchilarning g'oyaviy, madaniy yoki siyosiy qarashlaridan kelib chiqib o'zgartiradi. Shu nuqtayi nazardan, rus tilidagi badiiy adabiyotdagi Temur nomi bilan mashhur Amir Temur obrazini ko'rib chiqish qiziq. Tadqiqot usullari tarixshunoslik va adabiy tanqidiy yondashuvlarni o'z ichiga oladi, bu esa mashhur tarixiy shaxs haqida chuqur tushuncha beradi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, rus adabiyoti, tarixshunoslik, tipologik tahlil, madaniy idrok, Oltin O'rda, O'rta asrlar, Temur tuzuklari.

**Введение.** В истории человечества часто встречается интересное явление: великие личности обладают двумя параллельными жизнями – одна является их реальной, фактической жизнью, полной практических действий и реальных событий, в то время как другая – это жизнь, описанная в литературных произведениях, которая может сильно отличаться от истинных событий. Часто эта «писанная» жизнь искажает истинный образ и достижения этих великих людей, преобразуя их на основе идеологических, культурных или политических взглядов тех, кто их описывает. В этом контексте интересно рассмотреть образ Амира Темура, известного также как Тамерлан, в художественной литературе на русском языке.

В периоды колониального и коммунистического правления в Узбекистане образ Амира Темура часто подвергался искажению, преуменьшению его значимости и достижений. Его фигура ассоциировалась с отрицательными качествами, такими как жестокость и разбойничество, что находит корни в средневековых былинах и фольклоре. Эти представления, как правило, отражают больше времена, когда они были созданы, и их авторов, нежели самого Темура.

Однако, с обретением независимости Узбекистана, произошел пересмотр и оценка значимости Амира Темура. В новом контексте он начал ассоциироваться с национальной гордостью и уважением, подчеркивается его важная роль в истории и культуре страны.

Важно, что историческая оценка таких личностей, как Темур должна основываться на объективности и всестороннем анализе, особенно в контексте таких стран, как Россия, история которой тесно связана с его деяниями. В связи с этим необходимо уделять особое внимание объективному изучению его наследия, выходя за рамки старых стереотипов и предвзятых представлений, чтобы по-настоящему отдать должное его великой и многогранной личности.

**Методология исследования.** В рамках исследования первостепенным является изучение начального появления имени Темура в русских источниках. Это имя стало известно в России в XV веке, прежде всего благодаря «Повести о Темир Аксаке», где Темур изображен как антагонистическая фигура. Этот образ, сочетающий в себе черты «безбожного и зловредного царя», заложил основу его восприятия в русской историографии, создав устойчивый стереотип.

Методологический подход к изучению этого вопроса включает анализ изменений в восприятии образа Темура в разные исторические эпохи. Русские историки XIX и начала XX веков, такие как Н.М. Карамзин, С.М. Соловьев и В.О. Ключевский, в значительной степени укрепили негативное восприятие Темура, не придавая важности его роли в российской истории. Такой подход отражает пренебрежительное отношение ко многим азиатским народам.

В рамках раздела, используется комплексный подход, включающий историографический и литературно-критический анализ. Историографический метод охватывает анализ работ ведущих историков, таких как Н.М. Карамзин, С.М. Соловьев, В.О. Ключевский, А. Якубовский и И. Муминов, для понимания того, как изменялось восприятие образа Темура в различные исторические периоды, особенно в советский период, когда акцент сместился на жестокость завоеваний Темура и возникли противоречия в его оценке.

Литературно-критический анализ применяется к «Повести о Темир Аксаке» и другим художественным произведениям, отражающим образ Темура и его эпоху. В этом контексте также анализируются «Уложения Темура», переведенные на русский язык А.Г. Зайончаковской, С.А. Проневским, Д.Ройтманом и В.Степановым под руководством А.Ф. Проневского, для оценки их влияния на восприятие Темура в русской культуре и литературе.

Исследование также включает сравнительный анализ взаимоотношений между Золотой Ордой и русскими княжествами, а также их влияния на политическую и социальную структуру Руси. Особое внимание уделяется анализу влияния ордынского управления, включая образование ханов в Хорезме, их интеллектуальный уровень, а также изменения в политической культуре, связанные с торговлей ханскими ярлыками.

Борьба за независимость Руси, освещаемая в работах С.М. Соловьева, и последствия Куликовской битвы также входят в сферу анализа. Они исследуются для понимания их влияния на политический и социальный ландшафт того времени и подчеркивают сложность отношений между Русью и Золотой Ордой.

Синхронизация подходов, используемых в разделе, позволяет всесторонне исследовать образ Темура и его эпохи в различных контекстах русской художественной литературы и исторической мысли, обеспечивая глубокое понимание его влияния и наследия. Дополнительно используется сравнительный анализ, чтобы понять, как изменялась интерпретация образа Темура в различных исторических контекстах, от средневековья до современности. Целью является выявление общих тенденций и уникальных аспектов в развитии восприятия Темура как исторической личности в русской литературе и культуре.

В результате этого мультидисциплинарного подхода ожидается получение более полного и объективного понимания образа Амира Темура и его времени, что не только способствует более глубокому пониманию его исторической роли, но и обогащает культурное наследие, связанное с его личностью и эпохой.

**Обсуждения и результаты.** Имя Темура стало известно в России в XV веке благодаря произведению «Повесть о Темир Аксаке», авторство которого остается неизвестным. В этом произведении, Темур представлен как «безбожный и зловерный царь Темир Аксак» (что означает хромой - Г.Х.), происходящий из низших слоев общества среди «заяицких татар» и обладающий чертами разбойника и грабителя. Автор рассказывает о сражении Темура Аксака с царем Тохтамышем на Ораинском поле, где Темур победил и изгнал Тохтамыша, а затем замыслил напасть на Русскую землю. Этот образ Темура, полный оскорблений и негативных качеств, заложил основу его восприятия в русской историографии и превратился в устоявшийся стереотип, определяющий его место в истории.

Такое восприятие Темура в русской истории было дополнительно закреплено молчанием русских историков XIX и начала XX века, таких как Н.М. Карамзин, С.М. Соловьев, В.О. Ключевский, которые не придавали значимости роли Темура в российской истории, что отражало скорее пренебрежительное отношение к азиатским народам в общем.

В советскую эпоху подход к изображению Темура изменился. Советские историки начали признавать «большой государственный ум» Темура, однако делали упор на жестокость его завоеваний и грабительскую природу его политики. В 1946 году А. Якубовский подчеркнул важность победы Темура над Тохтамышем для освобождения Руси от монгольского ига, но, когда узбекский философ И. Муминов попытался предложить более сбалансированную оценку Темура, он подвергся идеологическому преследованию, его обвинили в идеализации прошлого и искажении истории. Это отражает двойные стандарты коммунистической идеологии: то, что было допустимо в Москве, не принималось в национальных республиках.

Важно отметить, что в период власти Золотой Орды над Русью, которая длилась более 150 лет, ордынские ханы не навязывали русским княжествам своих порядков,

ограничиваясь сбором даней. Этот факт подчеркивает сложность и многоуровневость взаимоотношений между различными культурами и народами в истории.

Анализируя образ Амира Темура и его времени в контексте русской художественной литературы, стоит упомянуть, что отношения между Золотой Ордой и русскими княжествами оказали значительное влияние на восприятие и изображение этих взаимоотношений в историографии. В русских княжествах проводилась перепись населения (включая «людей» и «сохи»), и ордынские баскаки строго контролировали сбор налогов. Русские князья, в свою очередь, стали активными посредниками в этом процессе, обеспечивая своевременную доставку налогов. Такая система взаимодействия между Золотой Ордой и русскими княжествами была часто воспринята как истощение ресурсов Руси, угнетение крестьянства и длительное экономическое и социальное подчинение.

Особое внимание в этом контексте заслуживает морально-нравственное влияние Орды на русских князей. Например, ханы Орды, начиная с Берке, брата Батые, обучались в Хорезме – одном из ведущих культурных центров исламского мира, где они получали образование в области политики и экономики и принимали ислам. Высокий интеллектуальный и культурный уровень ханов позволял им эффективно управлять русскими князьями, что иллюстрируется, например, в фильме Андрея Тарковского «Андрей Рублев».

Ситуация с княжескими престолом в Руси во времена Золотой Орды также достойна внимания. Ханские ярлыки, дающие право на княжение, стали объектом торговли и политических игр. В.О. Ключевский в «Курсе русской истории» подчеркивал, что княжества Северной Руси тогда были не независимыми, а подданными татарским «улусам», а князья рассматривались как холопы ордынского хана. Примеры Александра Невского и Даниила Галицкого иллюстрируют сложные и противоречивые отношения между русскими князьями и Ордой.

В контексте борьбы за независимость отмечается роль Московских князей. Иван I (Калита) добился у хана Узбека права на сбор даней на Руси, что способствовало укреплению Москвы и активизации борьбы за независимость. Важным моментом в этой борьбе стала Куликовская битва в 1380 году под руководством Дмитрия Донского. Однако, как отмечает С.М. Соловьев, следует не преувеличивать значение этой победы, поскольку она имела серьёзные последствия. Несмотря на триумфальную победу над войсками Орды, русские потери были огромны: из 400 тысяч воинов выжило только 40 тысяч, погибли четверо князей и тринадцать бояр. С.М. Соловьев подчеркивает, что из-за этого потрясающего истощения военных сил Руси, татары все еще сохраняли преимущество над победителями на Куликовом поле. Это иллюстрирует, что, несмотря на важный шаг в борьбе за независимость, Русь все еще находилась в положении уязвимости.

Эти события и их восприятие в русской исторической литературе являются ключевыми при анализе образа Амира Темура и его времени. Хотя Темура не принимал непосредственного участия в этих событиях, его эпоха совпадает с периодом, когда формировался образ Золотой Орды и её взаимоотношений с русскими княжествами. Важно понимать, как современное восприятие Темура и Золотой Орды в русской литературе и историографии складывалось под влиянием этих исторических обстоятельств.

Кроме того, эти события подчеркивают важность типологического анализа в изучении исторических фигур и периодов. Изучение образа Темура в различных исторических контекстах позволяет лучше понять, как менялись взгляды на его личность и деяния в зависимости от исторических, политических и культурных условий того или иного периода. Такой подход обогащает понимание истории, позволяя увидеть, как общие тенденции, так и уникальные аспекты в развитии восприятия важных исторических личностей, таких как Амир Темура, в русской литературе и культуре.

Можно восхищаться стратегическим видением и правлением Амира Темура, отраженным в его способности управлять разнообразным обществом на принципах законности и равенства. Такой подход не только способствовал социальной стабильности, но и способствовал цветению культуры, науки и экономики в Мовароуннахре и Туркестане.

Образ Темура, как великого строителя и патрона наук, актуален и для современного Узбекистана, переживающего период реформ. Его уроки управления и развития государства служат вдохновением для современных политических и социальных преобразований. В его «Уложениях Темура», переведенных на русский язык учителями Ташкентской женской гимназии А.Г. Зайончаковской и С.А. Проневским и учениками мужской гимназии Д.Ройтманом и В.Степановым под руководством А.Ф. Проневского, Темура подробно описывает принципы, которыми он руководствовался в управлении государством.

Академик И.М. Муминов описывал Темура как фигуру, необходимую своему времени, и это видение поддерживалось другими учеными, такими как А.Ю. Якубовский, который отмечал образованность Темура и его любовь к науке и искусству. Эти качества делают образ Темура идеальным объектом для литературного и исторического анализа, особенно в контексте русской литературы, где он может быть изображен в различных оттенках – от великого правителя и покровителя искусств до стратегического мыслителя, оставившего заметный след в истории.

**Выводы и предложения.** Подводим итоги изучения многогранного и сложного образа Амира Темура, а также его эпохи, как они отображаются в русской литературе и историографии. Анализ разнообразных исторических источников, включая «Повесть о Темире Аксаке», работы Н.М. Карамзина, С.М. Соловьева, В.О. Ключевского, А. Якубовского и И. Муминова, а также «Уложения Темура», переведенные на русский язык, раскрывает противоречивый и изменчивый характер образа Темура в русской культуре.

Исследование показывает, что образ Темура и его эпохи в русской литературе и историографии испытал значительные изменения на протяжении веков. В советскую эпоху особенно заметно изменилось отношение к Темуру, где, несмотря на признание его государственных заслуг, в центр внимания вышли жестокость его завоеваний и диктаторские методы управления. Кроме того, случай с И. Муминовым и его попытками более сбалансированного исследования Темура свидетельствует о сложности исторической интерпретации и влиянии идеологических рамок на научное понимание.

Особое внимание в исследовании уделено изучению влияния взаимоотношений между Золотой Ордой и русскими княжествами на политическую и социальную структуру Руси. Анализ показывает, что эти взаимоотношения были сложными и многогранными, что, в свою очередь, отражается и в изменении образа Темура в русской историографии.

Исследование также подчеркивает важность применения комплексного подхода, объединяющего историографический и литературно-критический анализы, для полноценного понимания исторических личностей и их эпохи. Это исследование не только способствует более глубокому осмыслению исторической роли Темура, но и обогащает наше понимание культурного и исторического наследия, связанного с его образом в русской культуре и литературе.

#### **Список использованной литературы:**

1. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://nuz.uz> > Мои узбекистанцы/ (дата обращения: 31.10.2023).
2. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://www.samuzinfo.net/>
3. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://xreferat.com/35/7437-1-amir-temuristoricheskaya-lichnost.html/>
4. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана/ Соч. – М., 1963. Т. II (1). – С. 109-166
5. Вебер Г. Всеобщая история. – М., 1887. Т. VIII. – С. 541-549.
6. Гиббон Э. История упадка и разрушения Римской империи/ Перевод с англ. В.Н. Неведомского. Ч. VII. – М.: Изд-во К.Т. Солдатенкова, 1888. – С. 170-172;
7. Грановский Т.Н. Лекции по истории средневековья, - М.: Наука, 1986. Лекция 1849/50г, с. 47

8. Иванин М.И. О военном искусстве и завоеваниях монголо-татар и среднеазиатских народов при Чингисхане и Тамерлане// под ред. Князя Н.С.Гольцина СПб.: Типография товарищества «Общественная польза», 1875.
9. Конрад Н.И. Средневековое возрождение и Алишер Навои. М.: Иностранная литература, 1969, -№2
10. Муминов И. Роль и место Амир Темура в истории Средней Азии. Ташкент. Фан, 1968.
11. Новосельцев А.П. Об исторической оценке Тимура // Вопросы истории. – М., 1973. – №2. – С. 3-20.
12. Шлоссер Ф. Всемирная история. – СПб., 1876. Т. III. – С. 503-504
13. Якубовский А.Ю. Мастера Ирана и Средней Азии при Тимуре// Иранское искусство и археология. III Международный конгресс. – М.–Л., 1939

### “ALISHER NAVOIY” ROMANIDA PORTRET TASVIRI

**Shomurotova Charos Ravshan qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

[charosshomurotova9@gmail.com](mailto:charosshomurotova9@gmail.com)

ORCID 0009-0000-4589-2653

UDK. 8-31:7.041.5(045)

**Annotatsiya:** Hayot adabiyotning predmetidir, asosidir, ustunidir. Ayni shu holatda adabiyot uchun hayotni tasvirlash imkonini beruvchi vosita bu portretlardir. Portret adabiyotning rol ijro etuvchisidir. Shu jihatdan portretlar muallif badiiy maqsadining yuzaga chiqishida, jumladan, adabiyotning ustuni bo‘lmish hayotni tasvirlab berishda nihoyatda katta ahamiyatga ega. Portretlar adabiy qiyofa bo‘lib, badiiy xarakter yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o‘taydi. Tarixiy portret yaratish har bir yozuvchiga alohida mas’uliyat yuklaydi. Jumladan, Isajon Sultonning “Navoiy” romanida portret yaratish alohida tayyorgarlik asosida vujudga kelganini bir qancha omillar asnosida o‘rganishimiz mumkin. Ayni shu holatda muallif tarixiy shaxs portretini yaratar ekan, eng avvalo, bu portretning asl qiyofasini buzmagani holda uni tasvir etishi va romanda tarixiy portretlar bilan bir qatorda, badiiy to‘qima portretlar ham yozuvchi tasavvuridan kelib chiqib o‘quvchiga go‘zal yetkazib berilgan. Yozuvchi tarixiy portretlarni yaratar ekan, tarixdan va u yashagan makon zamondan ajralmagan holatda boshqa ijodkorlar yaratgan portretlarni takrorlamaslikka harakat qilgan va bu vazifaning uddasidan chiqqan. Ushbu maqolamizda “Navoiy” romanida keltirilgan portretlarni (tarixiy, badiiy to‘qima portretlar, yetakchi, yordamchi portretlar kabi) bir qancha guruhlariga bo‘lgan holda tadqiqot markaziga oldik.

**Kalit so‘zlar:** portret, adabiyot, yozuvchi mahorati, adabiy tasvir, badiiy xarakter, roman.

### ПОРТРЕТНОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ В РОМАНЕ "АЛИШЕР НАВОИ"

**Аннотация:** Жизнь - предмет, основа, столп литературы. Главным средством, позволяющим изобразить жизнь для литературы, являются портреты. В этом отношении портреты имеют исключительное значение для достижения художественной цели автора, в том числе для описания жизни. Портреты - это литературные образы, служащие основой для возникновения художественного характера. А создание исторического портрета возлагает на каждого писателя особую ответственность. В частности, в романе Исаджана Султана “Навои” мы можем узнать, что создание портрета произошло на основе особой подготовки, основанной на нескольких факторах. В этом случае автор создает портрет исторической личности прежде всего потому, что этот портрет изображает ее без искажения первоначального облика, а в романе наряду с историческими портретами художественная фактура портретов красиво передается читателю, исходя из фантазии писателя. Создавая исторические портреты, писатель старался не повторять портретов, созданных другими

художниками, а показать его в том состоянии, когда история и пространство, в котором он жил, неотделимы от времени, и с этой задачей справился. В статье мы взяли в центр исследования портреты, представленные в романе «Навои», разделенные на несколько групп, таких как исторические, художественно фактурные портреты, ведущие, вспомогательные портреты.

**Ключевые слова:** портрет, литература, мастерство писателя, литературный образ, художественный характер, роман.

**Kirish.**“Hayot adabiyotning predmetidir, asosidir, ustunidir,yuragidir” [1-355]. Ayni shu holatda adabiyot uchun hayotni tasvirlash imkonini beruvchi vosita bu portretlardir. Portret adabiyotning rol ijro etuvchisidir. Shu jihatdan portretlar muallif badiiy maqsadining yuzaga chiqishida (adabiyotning ustuni bo‘lmish hayotni tasvirlab berishda) nihoyatda katta ahamiyatga ega. Portretlar adabiy qiyofa bo‘lib, badiiy xarakter yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o‘taydi. Jumladan, Isajon Sultonning “Navoiy” romanida portret yaratish alohida tayyorgarlik asosida vujudga kelganini bir qancha omillar asnosida o‘rganishimiz mumkin. Eng avvalo, ta’kidlash joizki, tarixiy roman yaratish jarayonida muallif uchun bir qancha ijodiy mushkulliklar mavjud:

*Birinchi*dan, tarixiy romanlardagi bosh qahramonlarning portreti deyarli hamisha aniq tasvirlangan, qolaversa, tarixiy shaxslar portreti bir necha ijodkorlar tomonidan badiiy asarlarda tasvir etilgan. Ayni shu holatda muallif tarixiy shaxs portretini yaratar ekan, eng avvalo, bu portretning asl qiyofasini buzmaganda uni tasvir etishi, biroq u yaratayotgan portret boshqa ijodkorlar yaratgan portretlarning takrori bo‘lmasligi joiz. Aks holda asarning badiiy saviyasiga putur yetishi barobarida, yangi portret ham yaralmaydi. Zero, bitta shaxs har bir asarda alohida portret bo‘lib qayta yaralishi, boshqa asarlardan farq qiluvchi alohida ruhga – xarakterga ega bo‘lishi joiz.

*Ikkinchi*dan, har bir asardagi qahramon portreti muallifning uslubini, ijodiy metodini, mahoratini o‘zida aks ettirgani holda, o‘quvchi ko‘z o‘ngida yashab qolish xususiyatini o‘zida namoyon etishi joiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.**“Navoiy ” romanidagi portret va xarakter masalasi o‘rganilganda, tahlilni portretlarga to‘xtalishdan boshlash joiz. Chunki romanda portretlar xarakterlarning yaralishi uchun ildiz vazifasida keladi. Asardagi portretlarni o‘rganish jarayonida dastavval ularni *hayotiy asosga egaligiga ko‘ra* tasniflarga ajratish joiz:

- 1) tarixiy portretlar;
- 2) badiiy to‘qima portretlar;

**Tarixiy portretlar.** Tarixiy portretlarga faqatgina bir ijodkor murojaat etmaydi. Masalan, Temur, Bobur, Navoiy kabi tarixiy shaxslarning portreti o‘zbek adabiyotidagi eng ko‘p murojaat etilgan portretlardir. Mualliflar bu portretlarni yaratish jarayonida tarixga tayanadilar, uni mukammal darajada o‘rganadilar va tarixiy haqiqatga tayangan holda, tarixiy asoslarni buzmasdan tarixiy shaxslar portretlarini yaratadilar. Ammo bu tarixiy portretlar muallif individual tafakkuridan butunlay xoli degani emas. Birgina Navoiy adabiy portretini o‘nlab, yuzlab ijodkorlar yaratishi mumkin, lekin bu portretlar hech qachon aynan bir xil, bir-birining takrori bo‘lishi mumkin emas. Ularning har birida muallifning shaxsiy imzosi, uslubi, o‘ziga xos tafakkur uchqunlari mavjud. “Portret – personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo‘lmish tavsifning bir ko‘rinishidir” [2-185] degan fikrga tayanadigan bo‘lsak, badiiy portretning asosida so‘z yotadi. Muallif ayni shu so‘zlarni tanlash mahorati bilan o‘zi yaratayotgan portretitiga minglab portretlar orasida individuallik baxsh etadi. Isajon Sulton ham Navoiy romanida tarixiy shaxslar portretini yaratar ekan, tarixni buzmaganda holda o‘zi yaratayotgan portretlariga boshqa portretlardan farqlilik xususiyatini yuklaydi. Isajon Sulton tarixiy portretlarni yaratishda *qisqalik, aniqlik, ravonlik* va badiiylikka u qadar berilmagan holda *konkretlikni* tanlaydi.

Adabiyotshunoslar portretning ikki turi mavjudligiga urg‘u berishadi:

- a) statik; b) dinamik.

“Statik deyilishiga sabab shuki, portretning bu turida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to‘xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirib chiziladi. Odatda, bunday portretlar personaj asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan pallada beriladi” [2-185]. Isajon Sulton esa, “Navoiy” romanida statik portretga deyarli murojaat etmaydi. U syujetni to‘xtatib turgan holda, asarning biror bir o‘rnida uzundan uzoq portretlarning tasvirini yaratmaydi. U asosan dinamik portretlarga murojaat etishni eng maqbul obraz yaratish usuli sifatida tanlaydi. “Dinamik portret deganda mufassal tasvir emas, balki voqea va dialoglar tasvirida, ya’ni harakat davomida berib boriluvchi personaj tashqi ko‘rinishiga xos ayrim detallar nazarda tutiladi. Bunday portret detallari (yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakati, qiliqlari) ko‘proq remarkalardan joy oladi va personajning ayni paytdagi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi” [2-185].

Bu usul tarixiy portretning yanada ishonchli va aniq bo‘lishiga yordam beradi.

– *Inida polaponi bo‘lsa-chi? – deb javob qildi ustiga kalta olacha to‘n va bejirim etikcha kiyib olgan, oq tiniq yuzli, xiyol qiyiq ko‘zli, g‘ayratli bolakay.*

Bu o‘rinda dinamik portret dialog yordamida vujudga keltirilmoqda. Syujet voqeasi davom ettirilgani holda, bola Alisher qiyofasiga yozuvchi bir qadar to‘xtalib o‘tmoqda. Yana bir o‘rinda asarning bosh qiyofasi bo‘lmish Navoiyning Samarqanddan Hirotda qaytish portretini shunday yaratadi: *Qushuchar balandlikdan qaralsa, bu kichik karvondagilar orasida pishiq gavdali, mayda qavima to‘n kiyib, ixcham salla o‘ragan yigitni ham ko‘rsa bo‘lardi. U Alisher Navoiy edi.* Ko‘rinib turganidek, portret juda qisqa va aniq. Muallif portret yaratayotganida eng muhim deb hisoblagan xususiyatlarga e’tibor qaratadi. Qisqa tasvirda qahramon haqida aniq tasavvur hosil qilishga intiladi. Eng muhimi esa, portret yaratayotganida uning ruhiy holati, yashash sharoiti, syujetning qanday borayotgani – barcha voqelikni inobatga olgani holda portret yaratadi va shu vaziyatlarga mos bo‘lgan, portretni yoritishga yordamchi omil bo‘lib xizmat qilgan badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanadi. Jumladan, yuqorida keltirilgan Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotda qaytish jarayonidagi portretini yaratarkan, portretni peyzaj bilan uyg‘unlashtiradi va bu holat badiiylikni ta’minlaydi. Tarixiy portretlarni yaratish jarayonida yozuvchi asosan aniqlik va qisqalikka rioya qilgan deya ta’kidlagan edik. Ayni shu holatga badiiylikni qo‘shish uchun, portret tasviri quruq va hissiz bo‘lib qolmasligi uchun muallif badiiy tasvir vositalariga katta ahamiyat qaratadi. Navoiyning yuqorida keltirilgan portret tasvirini endi badiiy tasvir vositasi peyzaj bilan birgalikda qayta mutolaa qilamiz: *Qushuchar balandlikdan qaralsa, bu kichik karvondagilar orasida pishiq gavdali, mayda qavima to‘n kiyib, ixcham salla o‘ragan yigitni ham ko‘rsa bo‘lardi. U Alisher Navoiy edi. Nozu ne‘matini ayamagan, zumrad kuzi, nuqra qishi, zabarjad bahori-yu, simobiy yozi ila har turluk ne‘matlarini beminnat tutgan Samarqand Hiriya fasohat bilimlarini olgan, qora kunlarida cheriklik qismatiga rozi bo‘lib kelgan Alisherni o‘z yurtiga olim qilib qaytarmoqda edi.* Ana endi o‘quvchida tamomila yangi taassurot, yangicha kayfiyat hosil bo‘ladi. Qaysidir ma’nodo portret endi yanada to‘liqroq bo‘lgandek ko‘rinadi, estetik ta’siri ortadi. Bu holatni muallifning portret yaratish jarayonidagi o‘ziga xos yangicha yo‘li, usuli deyish mumkin. Tarixiy portretlarni aniq va qisqa tasvirlagani holda, ularga badiiy tasvir vositalari orqali badiiylikni yuklaydi. Yana bir tarixiy shaxs, Abulxayrxon portretini yaratish jarayoniga ham deyarli yuqorida ta’kidlaganimiz kabi usuldan foydalanadi. Navoiy portretini yaratishda dastavval Navoiy portretini, keyin peyzajni keltirib badiiylikni hosil qilgan bo‘lsa, Abulxayrxon portretini yaratishda ayni shu usulning teskarisidan foydalanadi. Eng avval, qisqagina peyzaj bilan o‘quvchi ko‘z o‘ngida o‘sha lahzaning qiyofasini gavdalantirib keyin portret yaratadi: *Qudratli Temuchin avlodiga mansub Abulxayrxon shu kez ko‘z yetmas olislarga yastanib ketgan Dashti Qipchoq ovullaridan birida istirohatda edi.* Kitobxon ko‘z oldida Dashti Qipchoqning nihoyatda cheksiz, bir tomoni yuksak osmonlarga tutashgan, tabiatning butun qudratini o‘zida mujassam etgan keng yaylovlari jonlanar ekan, hali portreti berilmagan Abulxayrxon qudratini, qiyofasini bir qadar anglagandek bo‘ladi: *Abulxayrxon o‘rta bo‘yli, yelkalari keng, pishiq gavdali, qisiq ko‘zli kishi bo‘lib, kentlarda o‘tirmoqni xush ko‘rmas, aksar hollarda qo‘shin bilan yotib turar, davlat ishlarini ham sayyor holda yuritardi.* Uning shaxsiyati va tashqi ko‘rinishi uyg‘unlikda tasvir etilgan portreti o‘quvchini e’tiborsiz qoldirmaydi. Ayni shu tariqa Isajon Sulton “Navoiy” romanida tarixiy shaxslar portretini yaratishda o‘ziga xos bo‘lgan



yangicha usullarni, novatorlikni namoyish etadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, yozuvchi tarixiy obrazlarga ko'proq portret sifatida emas, xarakter sifatida yondashishga intiladi va romanda obrazlarning ruhiyati, ko'ngli, o'y-fikrlari tahlili va tasviri yetakchilik qiladi. Muallif bosh qahramonni va tarixiy obrazlarni badiiy xarakter sifatida o'quvchiga yetkazib berishni ma'qul topadi.

**Natijalar va muhokama. Badiiy to'qima portretlar.** Romanda muhim badiiy funksiyaga ega bo'lgan badiiy to'qima obrazlarning ham portretlari mavjudki, muallif ularni yaratish jarayonida ma'lum bir o'ziga xos bo'lgan an'anaviy tendensiyalarga tayangan holda badiiy yangiliklar yaratadi. Eng avvalo, ta'kidlash joizki, adabiyotda badiiy to'qima obrazlarning portretlari ko'pincha tipik qiyofaga ega. Chunki mualliflar badiiy to'qima portretlarga o'zlarining qandaydir his-tuyg'ularini ifodalovchi, badiiy asarda ma'lum bir vazifani bajaruvchi portret sifatida yondashadilar. Lekin unutmash joizki, "Hayotdagi tipiklik bu umumiy va individualning obyektiv yashash birligi" [5-295]. Bu tipiklik zamirida individuallik mavjudligi bu muallifning uslubi, badiiy tafakkuri, portret yaratish mahorati bilan bog'liq bo'lgan hodisadir. Zero, to'qima obrazlarning portretlarini tamomila hayotdan uzoq, jamiyatda yo'q yoki uchramaydigan, real hayotda mavjud bo'lmagan obrazlar emas, shunchaki bu portretlarda bir qancha qiyofalarning umumlashmasi mavjud deyish mumkin. Aslida badiiy to'qima nima va u qanday paydo bo'ladi? Bunga quyidagicha javob berishimiz mumkin: "Real voqelikdan kelib chiqib yaratilgan yangi, badiiy fakt badiiy to'qima deyiladi. Uning asosida ehtimollik va zaruriyat turadi. Badiiy to'qima asardagi kemtik joyni to'ldiradi, tasvir va qismlarni bir-biriga ulaydi, ular o'rtasida ko'prik bo'ladi" [5-296]. Badiiy to'qimaning zaruriyat natijasi o'laroq vujudga kelishini, asardagi kemtik o'rinlarni to'ldirishini, badiiy mukammallikni yuzaga keltirishini inobatga olsak, badiiy to'qima portretlarning shunchaki yaralmasligiga va ularning bajaradigan funksiyasi nihoyatda ulkanligiga, ularni yaratish muallifdan alohida tayyorgarlik bilan bir qatorda iste'dod ham talab qilishiga guvoh bo'lamiz.

Yuqorida portretlarning mavjud yoxud to'qimaligiga ko'ra ularni *tarixiy* va *badiiy to'qima* kabi ikki guruhga ajratgandik. Endi esa portretlarning asarda bajaradigan vazifasiga ko'ra ham ikki guruhga ajratib tahlil qilish joiz deb bildik:

**Bosh (yetakchi) portretlar** – bunday portretlar asardagi bosh obrazlarning portretlaridir. Ular asarning boshidan oxirigacha ishtirok etuvchi, asar dinamikasida muhim funksiya bajaruvchi portretlar bo'lib, bu portretlar syujet va kompozitsiya rivojida ham muhim o'rin tutadi. Biz yuqorida tahlilga tortgan tarixiy portretlarning aksariyati asarda bosh obraz ekanligiga ko'ra *bosh (yetakchi) portret* vazifasida keladi. (Jumladan, Navoiy, Husayn Boyqaro kabi obrazlarning portretlari.) Yetakchi obrazlar asosan xarakter bo'lib keladi.

**Yordamchi portretlar** – bu portretlar asardagi ikkinchi darajali obrazlarning portretlari bo'lib, ularning asar rivojida muhim o'rni mavjud. Muallif bu portretlarni yaratishdan ma'lum bir maqsadni ko'zlaydi va syujetning rivoji uchun xizmat qildiradi. "Navoiy" romanida bir qancha yordamchi portretlar bo'lib, ularning aksariyati badiiy to'qima obrazlarning portretidir. Masalan, Navoiy ustoz boshchiligida madrasadagilar bilan sayrga chiqadi va u yerda Farhod ismli yigitni uchratadi. Bu yigit suv qazish bilan shug'ullanadi, Shirin degan qizni sevadi. Romanning birgina o'rnida ayni shu yigitning portretiga yozuvchi bir ozgina to'xtalib o'tadi va asardagi asosiy maqsadi Navoiyning "Xamsa" yozish holati uchun manba yaratadi. Navoiy bolalik chog'ida uchratgan bu yigitcha kelajakda uning dostoni uchun bosh obraz bo'lishini, buyuk shoirning asarlar yaratishi uchun go'zal bolalik xotiralari asos bo'lganini qistirib o'tadi. Bu birgina o'rinda uchrovchi yordamchi portret Isajon Sultonning badiiy maqsadini ochib berish uchun xizmat qiladi. Lekin shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, hamma badiiy to'qima obrazlar portreti ham har doim yordamchi portret vazifasida kelavermaydi. Shunday badiiy to'qima obrazlar borki, ular hatto yetakchi obraz bo'lib kela oladi, ya'ni asarning asosiy bosh qahramoni vazifasini bajaradi.

Isajon Sulton portretlarni yaratish jarayonida *monolog*, *dialog*, *turli badiiy tasviriy vositalarni (o'xshatish, sifatlash, qarshilantirish)* qo'llagani holda, o'z uslubiga xos adabiy yangiliklarni yaratadi. Ayni shu jihatlarga ko'ra u yaratgan portretlar o'quvchining yodiga mustahkam tarzda joylanadi. "Navoiy" romanida portretlar yaratish usuli ikki xil:

- 1) muallif tili orqali yaratilgan portretlar;
- 2) obrazlar tili orqali yaratilgan portretlar.

Asardagi mudarris portretiga ahamiyat qarataylik: *Mana buni ko'ring, tag'oyi, – dedi Alisher zavqlanib, bir qizg'aldoq boshiga chopib borib. – O'zi jimitgina-yu, dastorini katta o'rabdi. Shu turishi bilan maktab muallimimiz Abu Abdulloh Kulohiyga o'xshab qolibdi. To'ni yashil, dastori sariq, ho'v narida esa qizili ham bor ekan.* Bu o'rinda mudarris Abu Abdulloh Kulohiy portreti **obrazlar tili orqali yaratilgan portretlar** sirasiga kiradi. Mudarrisning portretini bola Alisher obrazi tilidan chizib beradi va bu jarayonda o'xshatish usulidan mahorat bilan foydalanadi. Alisher Navoiy tilidan ustozining kichik jussali, yashil to'n kiyib yuradigan, sariq dastorli kishi bo'lganini bilib olishimiz mumkin. Aynan qizg'aldoqni ko'rgandagi bolaning hayrati, ayni shu lahzada ustozini xotirlashi va uning portretini bolalarcha til va hayrat bilan yaratilishi portretning tabiiy va esda qolarli chiqishiga sabab bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Muallif asardagi vaziyatga, syujetning kechishi va badiiy maqsadiga ko'ra portretlarni qanday, kimning tilidan yaratishni tanlaydi. Romanda Bulduruq Bahodir portreti mavjud. Bu portretni **muallif tili orqali yaratilgan portretlar** sirasiga kiritishimiz mumkin: *Bu qovog'i soliq kimsaning ko'rinishi vahm uyg'otardi. Uzun qoramtir yuzi, burun yonidan to jag'igacha tushgan chuqur chiziqlar, peshanasi va ikki qoshi o'rtasidagi o'yiqlar, qirra burni, har yon o'sgan patak soqoli, keng yelkalari, boshini sal pastga egib, xuddi ot ustidagiday chayqalacha-yurishidan g'olib bir qo'shinning lashkarboshisiday tuyilardi.*

Biz yuqorida romandagi portretlarning asosiy qismi dinamik portret ekanligini, Isajon Sulton kamdan kam hollarda syujetni to'xtatgan holda, batafsil biror portretni yaratishga ahamiyat qaratganini ta'kidlagan edik. Lekin Bulduruq Bahodir portreti yozuvchi alohida e'tibor qaratgan, shu bilan bir qatorda, romanda kam sonli statik xarakterga ega bo'lgan portretlardan biridir. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Bulduruq Bahodir kim? U tarixiy obrazmi yoki badiiy to'qima obrazmi? Nega yozuvchi asarning bosh qahramonlari qiyofasini yaratishda dinamik portretni tanladi-yu, *Bulduruq Bahodir* portretini yaratishda statik portretni tanladi? Buning muhim asosi bor nazdimizda, chunki aslida bu portret ijtimoiy muhitning, temuriy hukmdorlar davrida toj-u taxt talashish natijasida jang-u jadallardan ortmayotgan jamiyatning portreti edi. Bulduruq Bahodir obrazi aslida tarixiy yoki badiiy to'qima obrazmi, u qadar ahamiyatli ham emas. Uning tashqi ko'rinishidagi *burun yonidan to jag'igacha tushgan chuqur chiziqlar, peshanasi va ikki qoshi o'rtasidagi o'yiqlar* birlasha olmayotgan temuriy hukmdorlar, qalbida Bulduruq Bahodir yuzidagi jarohatlardan ham ko'p jarohatlari bor millat kishilarining umumlashma portreti edi deyish mumkin. Ayni shu jihatdan Isajon Sultonning portret yaratishdagi novatorligiga urg'u berganimiz holda, uni o'zbek adabiyotida *ijtimoiy holatni o'zida aks ettirgan ramziy portret* yaratuvchisi sifatida e'tirof etishga to'la haqlimiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Umurov H. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. –T.: Yangi asr avlodi, 2011. –B.355.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr, 2010. – B. 185
3. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr, 2010. –B. 185
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr, 2010. –B. 185
5. Umurov H. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. T. Yangi asr avlodi, 2011. –B.295.
6. Umurov H. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. –T.: Yangi asr avlodi, 2011. – B.296.
7. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: Til va adabiyot instituti, 2002.
8. Yoqubov O. So'z. Birinchi kitob. – T: Sharq.
9. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. Ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar. – T.: Sharq, 2007.
10. Erkinov A. Navoiy peyzaj ustasi. –T.: Fan, 1988.

**BUXORO ASHTARXONIYLAR HUKMDORI, OLIM VA SHOIR SUBHONQULIXON HUZURIDAGI ADABIY ANJUMANLAR**

**Sherxon Qorayev,**  
“TIQXMMI” MTUning  
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti.  
[sherxonqorayev@gmail.com](mailto:sherxonqorayev@gmail.com)  
ORCID 0009-0009-0463-1663  
UDK:94 (575) (045).

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ashtarxoniylar sulolasi vakili, Buxoro xonligi hukmdori Subhonqulixon ijodi, she'riyati va turli xil ilmlar bo'yicha yozgan asarlari haqida so'z yuritiladi. Subhonqulixon Nishoniy taxallusi bilan she'rlar yozgan bo'lib, ayrim manbalarda uning devon tuzgani aytiladi. Ashtarxoniylar hukmdori ilm bilan ham shug'ullanib, astrologiya, astronomiya hamda tibbiyot sohasiga oid asarlar yozib qoldirgan. Ayniqsa, Subhonqulixonning tibbiyotga oid asarlari alohida ahamiyatga ega.

Subhonqulixon folga oid “Ramali Subhoniy” nomli asar ham yozgan. Uning farmoniga binoan “Fatovoiy Subhoniy” nomli fatvolar to'plami ishlab chiqilgan. Ilmi nujumga oid “Lub-lavoih al – qamar fi-l- ixtiyorat” (“Oy nurining ixtiyorat uchun mohiyati”) nomli risola ham xon qalamiga mansub. U bir necha lavhalar, ikki maqola va xotimadan tashkil topgan.

Xon Jaloliddin Rumiyning masnaviyalariga fors tilidagi “Risola dar ma'naviyi bayti “Masnaviy” nomli sharh yozgan. Subhonqulixon saroyida ko'plab shoirlar xizmat qilgan va ashtarxoniylar sultoniga bag'ishlab, tarixiy asarlar, dostonlar, qasidalar yozganlar.

Hukmdor huzurida shoirlar ishtirokida o'tkazilgan she'riyat kechalari va uning mumtoz adabiyotimiz rivojiga ta'siri tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Taxallus, tatabbu', tib ilmi, ilmi nujum, masnaviy.

**ЛИТЕРАТУРНЫЕ ВЕЧЕРА ПРИ БУХАРСКОМ ПРАВИТЕЛЕ АШТАРХАНИДОВ, УЧЕНОМ И ПОЭТЕ СУБХАНКУЛИХАНЕ**

**Аннотация.** В статье рассказывается о творчестве, поэзии и трудах Субханкулихана, правителя Бухарского ханства, представителя династии Аштарханидов.

Субханкулихан писал стихи под псевдонимом Нишани, и некоторые источники говорят, что он составил диван.

Правитель Аштарханидов также занимался наукой, написав труды по астрологии, астрономии и медицине. Особое значение имеют медицинские труды Субханкулихана.

Субханкулихан также написал работу под названием "Рамали Субхани". По его указу был составлен сборник фетв под названием “Фатовой Субхани”. Трактат «Сущность лунного света» также принадлежит перу хана. Он состоял из нескольких отрывков, двух статей и письма.

Хан написал комментарий к бейтам Джалалиддина Руми на персидском языке.

При дворе Субханкулихана служили многие поэты и писали исторические произведения, эпосы, касыды, посвященные султану Аштарханидов.

В статье анализируются вечера поэзии, проводимые в присутствии правителя с участием поэтов, и их влияние на развитие нашей классической литературы.

**Ключевые слова:** литература, поэзия, медицина, наука.

**Kirish.** Dunyo adabiyotshunosligi tarixida adabiy jarayonlar, adabiy muhitlar, saroy adabiyoti vakillari merosini tadqiq etish yuzasidan olib borilayotgan izlanishlar fan tarixi asosida uning nazariyasi taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbek adabiyoti tarixini o'rganish va uni yangi ma'lumotlar bilan boyitish, ayniqsa, sobiq ittifoq davrida sinfiylik nuqtayi nazaridan o'rganilmagan saroy adabiyoti hamda hukmdorlar ijodi va sultonlar huzuridagi adabiy majlislar tarixini tadqiq etish, adabiyotni umumadabiy jarayon bilan bog'lab, muayyan tarixiy aspektda xolis o'rganish ustuvor vazifalardan biri. Mamlakatimizda ham mustaqillik yillarida o'zbek mumtoz adabiyotini tadqiq etishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishilgani hech kimga sir emas, jumladan, hukmdor-shoirlar va saroy adabiyoti vakillari ijodi keng ko'lamda o'rganildi, ijodkorlarning devonlari nashr etildi. Albatta, o'zbek mumtoz adabiyotining katta qismi saroyda

yaratilganidan hamda adabiy yig'inlar milliy adabiyotni rivojlanishida muhim omil bo'lganligidan kelib chiqsak, saroy adabiyoti va adabiy yig'inlarni chuqur va har tomonlama o'rganish payti keldi. Binobarin, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, adabiy yig'inlar hamda mumtoz adabiyot vakillari qoldirgan adabiy meros hozirgi kunda ham ma'naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda hamda "O'zbekiston -2030" strategiyasidagi belgilangan ta'lim va fan sohasini yanada rivojlantirish bilan bog'liq vazifalar ijrosini ta'minlanishiga xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'rta asrlarning muhim manbalaridan biri Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy" asari ashtarxoniy hukmdori Subhonqulixon davri tarixidan hikoya qiladi. Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" tarixiy risolasi zimdanda "Tarixi Muqimxoniy"ning davomidek tuyulsa-da, u Subhonqulixon va Ubaydulloxon hukmronlik davri haqida so'z yuritadigan risolalardan biridir. Ashtarxoniy sulolasida xizmat qilgan Muhammad Amin Buxoriyning "Muhit at-tavorix" asarida ham Subhonqulixon davri batafsil yoritilgan. Mavzumizga doir Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-muluk" asari Subhonqulixon davrining muhim tarixiy manbalaridan sanaladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Subhonqulixon qoshida 1692-yilda Muhammad Bodi as-Samarqandiy tomonidan Buxoro poeziyasining antologiyasi tuzilgan. Bu antologiyada o'sha davr adabiy arboblardan 150 nafari haqida biografik ma'lumotlar berilgan. Saroy shoiri Muhammad Balxiyning 5000 baytli "Subhonqulixonoma" nomli dostoni hamda Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Tarixi Subhonqulixon" kitobi kabi qator asarlar ham shu davrda yozilgan [14, 81].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans davri poydevori barpo etilayotgan bir paytda dunyo adabiyotshunosligida yuzaga kelgan ilg'or metodologik usullar asosida milliy adabiyotimiz va tariximiz mezonlarining yangicha tamoyillarini shakllantirish, o'zbek adabiyoti tarixida saroy adabiyoti va adabiy majlislarni tadqiq etish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maqola mavzusini yoritishda tarixiy izchillik, tarixiy-qiyosiy, kontekstual va kompleks tahlil, xronologik tasniflash hamda tavsiflash kabi qator usul va metodlardan foydalanilgan.

**Natijalar va muhokama.** Buxoro xoni, shoir va olim Subhonqulixonning to'la ismi Saidmuhammad Subhonqulixon ibn Saidnadr Muhammadxonidir [1, 92]. Xoja Samandar Termiziy yozganidek, "*karam sohibi, Jamshid mulki vorisi, Farrux shavkatli*" Subhonqulixon (1625–1702) she'rlar yozgan. Subhonqulixon o'z adabiy yig'inlarida va turli xil voqea-hodisalar munosabati bilan she'rlar aytgan. Muhammad Amin Buxoriyning yozishicha, Xiva xoni Anusha Urganjiyning taxtdan ag'darilishi va ko'ziga mil tortilishi xabarini eshitgan Subhonqulixon "*shodlik labini tabassumga ochib bu baytni o'qidi: (Mazmuni):*

*Agar mulkka (biror kishi) rahna solsa,  
Boshini olib tashlagan yaxshi.  
Lashkar ishonchsiz bo'lsa tarqatib yuborgan yaxshi.*

*Hazrat yuzlarini amirlarga qaratib bu nazmni aytdilar:  
Ey, uning (Xudoning) karami jahon ishini yaratdi,  
Mensiz va sensiz hamma narsani oxiriga yetkazdi [4, 92-93]."*

Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy" asarida Subhonqulixonning quyidagi she'ri keltirilgan:

*Qaddam zi g'ami hajri tu chun sham' shud, ammo  
Tore zi visoli tu ba changam narasida.  
Dar dida fitad kosh, Nishony, guli ro'yash,  
Aftodani gul garchi ziyon ast ba dida [5, 117].*

(Mazmuni: *Sening hajring g'amidan qadamim shamdek bo'ldi, lekin, Sen tufayli to'rli o'rmonda to'r yo'q. Nishoniy, gulni yuzingda ko'r, Gullarning tushishi yo'qotishdir.*)

Ashtarxoniy hukmdor Subhonqulixon Nishoniy saroyda o'tkazilgan mushoiralarda o'zi ham o'z she'rlarini aytgan va boshqa shoirlarni ham mushoiraga chorlagan

[<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/ozbekiston-hukmdorlari/subhonqulixon/>]. Xonning atrofida doimo ko‘plab shoirlar bo‘lgan [9, 38]. Bu davrning madaniy hayotida, ayniqsa, adabiyotda ikki oqim mavjud edi. Biri saroy adabiyoti bo‘lib, uning tepasida Subhonqulixonning o‘zi turar edi. “Maleho” taxallusi bilan mashhur samarqandlik shoir Muhammad Bade’ ibn Muhammad Sharifning yozishicha, bu vaqtlarda saroyda 150 ga yaqin shoir bo‘lgan [9, 85]. Chunki Subhonqulixonning adabiyotga ishtiyoqi baland edi va o‘z atrofiga shoir va olimlarni yig‘ib, adabiy majlislar va ilmiy suhbatlar o‘tkazishni xush ko‘rgan.

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida adabiyot, she‘riyat fors va o‘zbek (ko‘proq Xivada) tillarida rivojlangan [10, 38]. “Ayn at-tavorix” (“Tarixlar chashmasi”) asari muallifi hoji Abdulazim Shar‘iy Subhonqulixonning adabiy faoliyatiga yuqori baho berib shunday yozgan edi: “*She’rga ta’bi ham baland edi. “Nishoniy”ni taxallus qilgan edilar. Shoir Kamol baytiga tatabbu’ aytgan edilar* [4, 9]”.

Abdulazixon saroyida xizmat qilgan Turdi Farog‘iy Subhonqulixon taxtni egallagach, hukmdor yuritgan siyosatni keskin tanqid ostiga oladi va saroydan ketadi. Umid Bekmuhammadning yozishicha, “*U ham xuddi Subhonqulixon kabi shoir bo‘lib, Turdi Farog‘iy taxallusi bilan ash’orlar bitar, yozganlari o‘sha vaqtda odat tusini olgan maishiy, muhabbat mavzusidan ko‘ra, ijtimoiy ahamiyat kasb etardi.*

*Garchi Subhonqulixon shoir va tabib bo‘lib, Buxoroda ilmiy-madaniy markazni yuksaltirib, ijodkorlarga, xususan, Turdiga yordam berishga intilsa-da, Turdibek o‘z shaxsiyati, ijodi qadrlanishidan ham ko‘ra, urug‘lar o‘rtasidagi nizolarga, aymoqchilikka barham berishni istardi. Turdi saroyda ortiqcha qololmasligini sezib, “Xon eshikinda bir kishi qolmadi, bir sohibi fan, Bori bir necha suqum qaydi mahzi kardan, Kelmas qo‘llaridin ish, hamma oshxo‘r, garzan”, deb she‘r bitib, o‘z urug‘i orasiga ketadi* [<https://kh-davron.uz/kunubxona/uzbek/umid-bekmuhammad-saroyga-sigmagan-shoir.html>]”.

*Bir sari azm ayla, joyi nomusulmondur bu mulk,  
Fitnai avbosh, zulm-u kufri tug‘yondur bu mulk.  
Bir kalima hurmatidin lek islom oti bor,  
Mutlaqo kirdori xayli kofiristondur bu mulk.  
Dur ahdu tang chashm-u besar-u ya’juj vaz’,  
Muxtalif mazhab guruhi O‘zbekistondur bu mulk.  
Naqdi jon bersang topilmas istasang bir zarra aysh,  
Mehnatu anduhni so‘rsang, farovondur bu mulk,  
Joyi islomu musulmonlig‘, Farog‘iy istama,  
Poytaxti kishvari Subhonqulixon dur bu mulk.*

Turdi Farog‘iy “Subhonqulixon to‘g‘risida hajviya” nomli asarini 1691-yilda bitgan. Ungacha olti yil yurtni sarson kezib yurgan shoir xalqning ahvolini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. Turdi Farog‘iy o‘zi yashagan davr hukmdorini tanqid ostiga olib, ma‘rifat uchun kurashgan sanoqli shoirlardan biri edi [<https://shosh.uz/ibrat-ila-boq-kuzing-tufroqqa-tolmasdan-burun/>]”.

Muhammad Amin Buxoriyning yozishicha, saroy shoirlari, “*shirin so‘z, nodira suxan shoirlar ul Hazratning qarshisida* [4, 52]” mushoira qilib, unga bag‘ishlab, qit‘alar va qasidalar o‘qishgan. Qit‘a (Mazmuni):

*Oy sening ostonangdan ketguncha, ey janob kayvon,  
Zarrin oftob o‘z tanini supurgi qilib ketadi.  
Kayvon manzillik podshoh, Iskandar Rumiysan o‘zing,  
Sening g‘ayrat dengizingdan yettinchi osmon bir ko‘prikdir,  
Xuddi porlab turgan quyosh qarshisida xira yulduzdek,  
Jamshidga nisbat qilsam oliy podshohni ko‘raman.  
Shoh Abu-l-G‘oziy jahon shohi Subhonquli,  
Dinu dunyoning ulug‘ nodir podshohi.*

Subhonqulixonning she‘riyat kechalarida saroy shoiri mavlono Nayniy Balxiy quyidagi qasidasini o‘qigan: (Tarjimasi)

*Hazrat Subhonqulixon davlati bilan,  
Turon shohidan taxtni tortib oldi.*

*Shohning nomi bilan falak sikka urdi,  
Xatiblar birakay xutba o'qidilar.  
Tashrif qadamini xalq o'rab oldi,  
Shahar shodligidan boshqa ziynat topdi...  
Dushmani unga qanday ro'baro' bo'lsin.  
Men aql piridan tarix so'rasam,  
Dedi, bulbuli go'yo maddoh,  
Degil uning podshoh bo'lgani tarixini,  
"Movarounnahr mulkiga yetakchi" (deb) [4, 53].*

Subhonqulixon Nishoniy o'z qoshida adabiy majlislar uyushtirishni xush ko'rgan.

Subhonqulixon shuhrat qozonish maqsadida o'z saroyiga ko'pgina ilm ahlini to'plagan. O'zi ham tibbiyot ilmi bilan shug'ullangan. Abdulazim Shar'iyning yozishicha, *"Tib ilmida tengi yo'q edilar. Chunonchi "Tibbi Subhoniy" buning qat'iy dalilidir"*. Muhammad Amin Buxoriy esa bu haqda *"nihoyatda buyuklik cho'qqisi va ulug'lik asosi bu podshoh tib olimi (bo'lganligidir), [4, 91]* degan.

Subhonqulixon tibbiyotga oid qator ilmiy kitoblar yaratgan. Herman Vamberining yozishicha, "Subhonqulining o'zi ilmsevar kishi edi. Hatto katta yoshdalik vaqtida ham mashhur ulamolardan dars olishdan tortinmas edi. Nishoniy taxallusi bilan nihoyat go'zal va teran ma'noli she'rlar yozib, noyob iste'dod egasi ekanligini ko'rsatgan. Dunyoviy ilmlardan u tib ilmiga alohida muhabbat bilan qaragan. Uning tomonidan tuzilgan tib kitobi fikrimizga ochiq dalildir. Bu asarning go'zal qo'lyozma nusxasini men Hirotda sotib olish bilan baxtiyor bo'ldim. Muxtasar so'zboshida olim xon shunday deb yozadi: *"Diqqat etmoq kerakkim, qadimgi tib olimlari arab va fors tillarida o'zlaridan keyin asarlar qoldirganlar. Turk tilida yozilgan tib kitobi shu kungacha mening qo'limga tushgani yo'q. Shu bois kaminai kamtarin Sayyid Muhammad Subhonqulixon Sayyid Nadrmuhammadxon o'g'li (Uni Alloh rahmat qilsin) bu kitobni yozdim. Har turli kasalliklar uchun anda davolar ko'rsatildi va shoyad ko'p kishilar undan foyda topsalar?!"*. Binobarin, adabiyotshunos Rustam Jabborov ham bu asar haqida Vamberi fikrlarini to'ldirib, shunday degan: "Subhonqulixonning tibbiyotga bag'ishlangan yana bir asari – "Xulosatul-hukamo" risolasining yagona nusxasi Vengriya Fanlar akademiyasi kutubxonasida saqlanadi. Mazkur qo'lyozma eski o'zbek tilining o'ziga xos nodir namunasi sanaladi. Asar shu tarzda boshlanadi: *"Bismilloh, valhamdu vas – sano ul qodirg'a loyiqtururkim, dunyo va mo'fiyo haif va tavononing xilqati va aning qudrati durur. Lahul-mulku va lahul-ham va huva kulli shay'in qodir. Durudi noma'dud ul oxiruz-zamon payg'ambarig'a sazovor tururkim, shari'at nozaninlarini oshkor qilib, shohu gadoni zalolatdin chiqorib, ihdinas – sirotal – mustaqiymg'a, ya'ni islom yo'lig'a hidoyat qildi. Va'ala olihi va as'hobihi ammo ba'd. Bilgil va ogoh bo'lg'ilkim, har kim o'tkan va bo'lg'an hukamolar hikmat bayonida o'ziga yarasha arabiy va forsiy tili birla kitoblar tasnif qilibturlar. Ammo turkiy tili birla hikmat bayonida kitob nazarimizg'a kirmadi. Aning uchun turkiy tili birla bu niyozmandi dargohi ilohiy, Sayyid Subhonquli Muhammad Bahodurxon ibn Abulg'oziy Sayyid Nadrmuhammad Bahodurxon (navvarallohu ta'olo marqadahu) bu kitobni muvashshah va muzayyan qildim"*. Ushbu qo'lyozmani mashhur venger olimi va tadqiqotchisi Arminiy Vamberi Xurosonga qilgan sayohati asnosida (yuqorida aytganimizdek) Hirotdan sotib olgan va o'zining 1867-yilda Leypsigda bosilgan "Chig'atoy tili saboqlari" kitobiga kiritgan. O'z xalqining sihat-salomatligi uchun kuyib-pishgan bu hukmdor timsoli haqiqatda go'zal namuna! [2, 144-145]"

Subhonqulixon tibbiyotga oid "Tibbi Subhoniy" dan boshqa (yuqorida aytganimizdek) fors tilida "Ihyo ut tibbi Subhoniy" ("Subhonqulining tabobatni jonlantiruvchi kitobi") kitobini ham yozgan. Bu asarning qo'lyozma nusxasi (Inv. №2101, 301 varaq) Sharqshunoslik institutida saqlanadi [4, 10]. Asar sakkiz bobdan iborat bo'lib, unda turli dorilar haqida ma'lumot berilgan, xon o'z asarini yozishda "Shifo ul-alil" dan keng foydalangan. "Ihyo at-tib Subhoniy" kasalliklarni bayon qilishga, ularni topish va tashxis qo'yishga, davolash va hakoazolarga bag'ishlangan. U kirish, muqaddima va sakkiz bobdan iborat. Har qaysi bob 4 faslga bo'linadi. Subhonquli o'z asarini yozishda zamonasining arab va fors tillarida yozilgan ko'pgina e'tiborli kitoblarini o'qidi va o'rgandi, unga o'zining shaxsiy tajribalarini qo'shdi. Subhonquli bu asarida inson badanining

“boshdan tovongacha” bo‘lgan barcha a‘zolarining kasalliklarida qo‘llanadigan sodda va murakkab dorilarni batafsil sharhlaydi. Muqaddima: “Tabobat chegarasini bayoni haqida” deb atalgan bo‘lib, 10 qismdan iborat. Bu qismlarda muallif davolovchi tabibning vazifalari, inson sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan “Oltita sharoitlar”, to‘rt unsur va inson tabiati haqida gapiradi. Xususan, inson salomatligiga iqlimning, kiyim, ovqat va yoshning salbiy va ijobiy ta‘sirini ta‘kidlaydi.

I bob to‘rt fasldan iborat. Birinchi faslda sodda dorilarning ta‘rif va tavsifi alifbo tartibida berilgan. Shuningdek, dori nomlari, iste‘mol qilish miqdorlari va har xil mamlakatlarda iqlim sharoitlariga qarab iste‘mol qilinishi aytilgan. Bir sodda dori qaysi murakkab dori tarkibiga kirishi va bu haqda boshqa tibbiy asarlardan olingan ma‘lumotlar berilgan.

Ikkinchi fasl dorivor o‘simliklarni yig‘ib olishga bag‘ishlangan hamda ovqat va ichimliklar mizojga qarab taqsimlangan. Uchinchi fasl – o‘lchov birliklari haqida. To‘rtinchisi – murakkab dorilar tushunchasini bayon qilish va ularning tarkibini o‘rgatish haqida. V – VIII fasllar har xil kasalliklarga qarshi ishlatiladigan murakkab dorilarga bag‘ishlangan. Bizgacha yetib kelgan bu asarning bir nusxasini 1797-yili kotib O‘zbek Xo‘ja Mir Haydariy 135 varaqda ko‘chirgan (AR № 122) [16, 95].

Subhonqulixon folga oid “Ramali Subhoni” (O‘zFA ShI, inv №4260) nomli asar ham yozgan. Uning farmoniga binoan “Fatovoiy Subhoni” nomli fatvolar to‘plami ham ishlab chiqilgan [18, 93]. Ilmi nujum (astronomiya)ga oid “Lub-lavoih al – qamar fi-l- ixtiyorat” (“Oy nurining ixtiyorat uchun mohiyati”) nomli risola ham xon qalamiga mansub [9, 75]. U bir necha lavhalar, ikki maqola va xotimadan tashkil topgan. 1855-yilda Xiva xoni Sayyid Muhammadxonning vaziri Muhammad Ya‘qubga atab, Muhammad Yusuf Rojij o‘zbek tiliga tarjima qilgan va o‘zi kitobat qilgan. (Qarang: O‘RShI – 1, №1205) [17, 185].

Xon Jaloliddin Rumiyning masnaviylariga fors tilida “Risola dar ma‘naviyi bayti “Masnaviy” nomli sharh yozgan. Mazkur sharh Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanmoqda [9, 87].

**Xulosa va takliflar.** Muxtasar aytganda, Subhonqulixon ijodi va adabiy majlislari o‘z davri ilm-u fani va mumtoz adabiyot taraqqiyotiga xizmat qilgan.

XVII – XVIII asr ashtarxoniylar davri adabiy majlislari musulmon Sharqi mamlakatlari, xususan temuriylar va shayboniylar zamonida shakllangan an‘analarini o‘zida mujassam etganiga va bu an‘analar yanada rivojlantirilganiga, adabiyot va adabiy muhit, adabiy jarayonlarning taraqqiy etishiga xizmat qilgan, deyish mumkin. O‘zbek adabiyoti tarixining tarkibiy qismi hisoblangan bunday yig‘inlar keyingi davrlar qalam ahli uchun o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tagan.

Albatta, Subhonqulixon davri adabiy muhitini o‘rganish va tadqiq etish o‘zbek adabiyoti tarixini yangi-yangi ma‘lumotlar bilan boyishiga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Irisova A., Nosirov A., Nizomiddinov I. O‘rta Osiyolik qirq olim. –T.: Fan, 1961.-B.92.
2. Vamberi Arminiy. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Ikkinchi jild. –T.: Info Capital Group, 2019. –B. 159.
3. Mir Muxammad Amin-i Buxari. Ubaydulla-name. Per s tadj, predisl., prim. I ukaz A.A.Semenova. –Toshkent: Izd-vo Akad. Nauk UzSSR, 1957.-S.30
4. Muhammad Amin Buxoriy. Muhit at-tavorix. Tarjima, kirish va izohlar muallifi D. Yusupova va U. Hamroyev. –T.: Fan, 2020. –B.92-93.
5. Ayniy S. Namunai adabiyoti tojik. –Dushanbe: Adib, 2010. – B.117.
6. Sultonov F., Bozorboev F. O‘zbekiston hukmdorlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zMKN, 2007.-B.49.
7. Abduraxman – i Tali. Istoriya Abulfeyz-xana. Perevod s tadjikskogo, predisl., prim., primechaniya i ukazatel professora A. Semenova. –T.: Izdatelstvo AN Uzbekskoy SSR, 1959.-B.170.
8. Zamonov A., Subhonov F. Buxoro xonligining ashtarxoniy hukmdorlari. –T.: Bayoz, 2021.-B.85.
9. O‘zbekiston xalqlari tarixi. II jild. –T.: Fan, 1991. – B.38.

10. Fitrat A. Tanlangan asar. II jild. Ilmiy asarlar. –T.: Ma’naviyat, 2000. –B.64.
11. Barakayev J., Haydarov Y. Buxoro tarixi (Eng qadimgi davrlardan ulug‘ oktabr inqilobigacha). –T.: O‘qituvchi, 1991.-B.81.
12. Sharq tabobati. Nashrga tayyorlovchi, tarjimon, maqolalar va sharhlar muallifi. –T.: Meros, 1994.-B.95.
13. Erkinov A., Polvonov N., Aminov H. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehrisi. –Toshkent, 2009.-B.185.
14. Irisova A., Nosirov A., Nizomiddinov I. O‘rta Osiyolik qirq olim. –T.: Fan, 1961. – B.93.
15. Qorayev Sh. O‘zbek xonliklarida adabiy kechalar (Muhammad Shayboniyxon va shayboniy davri misolida). –T.: “LESSON –PRESS”, 2022. –B.114.
16. Qorayev Sh. O‘rta asr manbalarida o‘zbek xonliklari adabiy kechalari tarixi (Muhammad Shayboniyxon va shayboniy davri misolida). –Qarshi: Intellect, 2023. –B.148.
17. Qorayev Sh. Shayboniy sultonlar tazkisasi. Monografiya. – Qarshi: Intellect, 2023. – B.206.
18. Qorayev Sh. O‘zbek sultonlari tazkisasi. Monografiya. – Qarshi: Intellect, 2024. – B.264.
19. Qorayev Sh. The History of Literary nights of Subhonqulikhan, ruler of Bukhara Khanty, scientist and poet//Multidisciplinary and multidimensional Journal//Impact Faktor. 9.1.Vol.3, No. 1, January 2024.-P.53-57.
20. Qoraev Sh. Ashotxoniyalar sultoni Subxonqulixon adabiy majlislar tarixi va ijodi.// –Toshkent, ЎЗМУ xabarları, 2024.-№ 1/1/1. –B.20-22.

#### O‘ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGIDA METODOLOGIK O‘ZGARISHLAR VA MATYOQUB QO‘SHJONOVNING ILMIIY-TANQIDIY MEROSI

**Yo‘ldoshev Dilmurod Ne‘mat o‘g‘li**  
Qarshi DU o‘qituvchisi  
[kumushshamshir0404@gmail.com](mailto:kumushshamshir0404@gmail.com)  
ORCID: 0009-0008-4706-9634  
UDK: 894.375(018)(045)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola O‘zbekistonda adabiy tanqidchilikning tarixiy rivojlanishi va uning sovet davridan mustaqillik davrigacha bo‘lgan o‘zgarishlarini tahlil qiladi. Asosiy e‘tibor M.Qo‘shjonovning ilmiy-tanqidiy ishlariga qaratilgan bo‘lib, uning adabiyotga qo‘shgan hissasi va o‘ziga xos uslubi, shuningdek, adabiy tanqidagi metodologik yondashuvlari yoritilgan. Maqola sotsialistik realizmning adabiyotga ta’siri va uning cheklovlari, shuningdek, mustaqillik davridagi adabiy tanqidchilikning yangilanish jarayonlari haqida bahs yuritadi. Muallif adabiy tanqidchilikning o‘zbek adabiyotidagi roli va ahamiyatini, jumladan, janrlarning kengayishi va ijodiy fikrlarning rivojlanishini ham ta’kidlaydi.

**Kalit so‘zlar:** milliy mafkura, **akademizm**, kompozitsion qurilish, komponentlar, naturalistik kartinalar, sotsialistik realizm, metodologiya, psixologik dramatism.

#### METHODOLOGICAL CHANGES IN UZBEK LITERARY CRITICISM AND THE SCHOLARLY-CRITICAL LEGACY OF MATYOQUB QO‘SHJONOV

**Annotation.** This article analyzes the historical development of literary criticism in Uzbekistan and its changes from the Soviet era to the era of independence. The main focus is on the scholarly-critical works of M. Qushjonov, highlighting his contribution to literature and his unique style, as well as his methodological approaches to literary criticism. The article debates the influence and limitations of socialist realism on literature, as well as the processes of renewal in literary criticism during the period of independence. The author emphasizes the role and significance of literary criticism in Uzbek literature, including the expansion of genres and the development of creative virtues.

**Key words:** national ideology, academism, kompositional structure, components,



naturalistic images, socialist realism, methodology, psychological dramatism.

**Kirish.** O'zbek adabiy tanqidchiligi tizimi avvalgi bosqichida adabiy tanqid nazariyasiga oid ilmiy fikrlar sust rivojlangan edi. Shuning uchun bu borada jahon tanqidchiligidagi yutuqlar bilan birga, ayrim shablon va sxemalar ham to'g'ridan to'g'ri kirib kelganligini ko'ramiz. Bu holatning sabab va mohiyatini jiddiy o'rganish bugungi kunda qonuniy bir holdir. "Adabiy tanqidning yaqin o'tmishdagi teran ilmiylik, chinakam mantiqiylik bobida erishgan yutuqlarini tahlil qilish, shu bilan birga, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, badiiy adabiyotga bir tomonlama va soxta yondashuvlarning qay tartibda maydonga kelganligi xususida bahs yuritish bugungi kun adabiy tanqidini to'g'ri yo'lga qo'yishda asqotishi o'z-o'zidan ayon"[1]. Qolaversa, XX asr 60–80-yillar adabiy tanqidchiligi bosib o'tgan yo'lni bugungi istiqbol va mustaqillik tafakkuri va milliy mafkurasi nuqtayi nazaridan turib tadqiq qilish kelajak ilmiy-tanqidiy tafakkuri uchun yangi imkoniyatlar ochadi, adabiy tanqid tarixi tafakkurini kengaytiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** M. Qo'shjonov badiiy asar tahliliga kirishar ekan, o'zining nihoyatda salmoqli ilmiy fikrlarini o'quvchiga yetkazishda aksariyat hollarda zerikarli bo'ladigan akademizm usulidan bormaydi, o'quvchi huzur qilib o'qiydigan, zerikmaydigan o'ziga xos qiziqarli uslubiy yo'nalishdan boradiki, bu yo'nalish faqatgina M. Qo'shjonovgagina xos bo'lgan mahorat qirralaridir. Shuning uchun ham munaqqidning o'ziga xos jozibali va haqqoniy tanqidini boshqa adabiy tanqidchilar uslubi, yondashuvi bilan chalkashtirib yoki almashtirib bo'lmaydi. M. Qo'shjonov o'zining adabiy-tanqidiy fikrlarining salmog'ini yanada oshirishda Belinskiy, Chernishevskiy va Dobrolyubovlar ijodiga tez-tez murojaat qiladi, ularning ilmiy-nazariy fikrlariga tayanib ish ko'radi.

**Natijalar va muhokama.** M. Qo'shjonov badiiy adabiyotda detallar va faktlarning ahamiyatini, ularning muvofiqligi yoki nomuvofiqligi, umuman, asarning kompozitsion qurilishi haqidagi fikrlarini bayon etishda N.G. Chernishevskiyning bu sohadagi ta'limotiga suyanadi. M. Qo'shjonov badiiy asar kompozitsiyasidagi muvofiqlik va nomutanosibliklar haqida fikr yuritar ekan, N.G. Chernishevskiyning asar kompozitsiyasi, komponentlari va syujet bo'laklarining muvofiqligi haqidagi quyidagi obrazli tasvirini "Ma'no va mezon" kitobida keltirib, unga asoslanadi: "... eng yorqin, eng chiroyli libos ham qoziqqa ilib qo'yilsa, juda ko'rimisiz bo'lishi mumkin. U faqat xushbichim va sog'lom jonli inson kiygandagina chiroylidir" [2].

M. Qo'shjonov adabiy-tanqidchilikdagi muhim muammolar haqida fikr yuritar ekan, o'zi bahs-munozara yuritayotgan masalaning nazariy asoslarini ko'rib chiqishga va o'z fikrlari bilan boyitishga harakat qiladi. U eng avvalo, badiiy ijoddagi muvofiqlik va nomuvofiqlik haqida to'xtalib, bu sohadagi nazariy qarashlarni o'z mulohazalari bilan mustahkamlaydi va o'zi bayon etayotgan nazariy fikrlarni badiiy asarlarning konkret tahliliga kirishib, o'z qarashlarini amaliy jihatdan ham boyitishga harakat qiladi. M. Qo'shjonov o'zi bahs yuritayotgan badiiy ijoddagi muvofiqlik va nomuvofiqlik masalasida ham nazariy, ham amaliy fikrlar aytish bilan chegaralanmaydi, balki tanqidchining mazkur masalani ko'tarib chiqishdan ko'zlagan niyati uning mana bu fikrlarida ham bo'rtib turadi: "Ayrim yozuvchilarimiz, ayniqsa, yosh yozuvchilarimizning so'nggi vaqtlarda yaratgan asarlarida tumanli, ba'zan naturalistik kartinalar, ya'ni nomuvofiq fakt va detallar anchagina borligi sezilib turadi. Bunday avtorlar muvofiqlik tuyg'usi bilan hisoblashmayotirlar. Ular ko'zlari tushgan har bir narsa to'g'risida qanday bo'lmasin yozib, o'z asarlarining hajmini kattaroq qilishga harakat qilmoqdalar. Ularning nazarida povestdan ko'ra roman, hikoya yoki ocherkdan ko'ra povest yaxshiroq, lekin bu asarlarda qanday mazmun mavjud ekanligi bilan ularning ishlari yo'q. Ba'zan ocherkka mos bo'lgan mazmun sun'iy ravishda cho'zib ifodalanadi va uni avtor povest yoki roman deb ataydi. Bunday roman va povestlarning avtorlari asar hajmini sun'iy ravishda qappaytirish natijasida unga katta zarar keltirishini tushunmaydilar. Badiiy ijod prinsiplariga ko'ra, yomon yozilgan romandan yaxshi yozilgan hikoya a'lo ekanligi ma'lum-ku, axir"[3].

**Xulosa va takliflar.** Sobiq Ittifoq davrida, xususan, 60-70-yillar adabiy tanqidchiligida ham sotsialistik realizm nazariyasi xususida tanqidchilar tinmasdan bahs-munozara qilib keldi, chunki sotsialistik realizm metodi sovet adabiyoti asosiy mezoni sifatida qabul qilingan edi. Sotsialistik realizm metodi badiiy adabiyotni cheklab qo'ydi, uni partiyaviylik siyosatiga qul bo'lib qolishiga munosib xizmat qildi. Sotsialistik realizm metodi tartib-qoidalari ko'pincha

ro'yxat qilinib, ba'zida har qanday yetuk badiiy asar ham, agar u sotsializm manfaatlaridan biroz chekingan yoki to'g'ridan to'g'ri uni himoya qilmasa, kommunizm g'oyasi bo'rtib turmasa, "quloq" qilingan, ko'plab siyosiy ayblar qo'yilgan. Shuning uchun sotsialistik realizm nazariyasi ustida tez-tez bahslar ko'tarilib turgan, mafkura tazyiqi hamda hukmronligi asnosida matn g'oyaviy ildizlariga jiddiy e'tibor berilgan. Odatda, adabiy tanqid metodologiyasi shunday asoratlar iskanjasida yashadi.

M.Qo'shjonov har bir ilmiy-nazariy farazni jonli misollar, amaliy talqinlar asosida isbotlab ham beradiki, bu uning o'ziga xos individual uslubidan darak berib turadi. Munaqqid uslub haqidagi ilmiy-nazariy fikrlarini Uyg'un, Oybek, G'.G'ulom asarlari uslubiy jilolarini o'ziga xos tarzda tahlil etish orqali ifoda etadi. Olim 20-yillar adabiyotida muhim o'rin tutgan Botu, Elbek kabi ijodkorlarning ham ilk bor ijodiy portretlarini yaratadi. Adabiy jarayonning qaysi bir muammosi haqida fikr yuritmasin, badiiy adabiyot davrga xos eng muhim nuqtalarini belgilaydi, badiiy ijodning oddiy o'quvchi ilg'amaydigan sehrli jihatlarini ochib beradi.

Munaqqid janr doirasi betinim kengayib borishi qissa va roman janrida yanada yaqqol ko'rinayotganligini qayd etib, o'zbek adabiyotida badiiy shakl tadriji ijtimoiy-psixologik, ma'naviy-ma'rifiy, memuar-esdalik, detektiv, fantastik, satirik yo'nalishlari kengayib, rivojlanayotgan bo'lsa, o'zbek romanlaridagi chuqur lirizm, tahliliylik, voqelik bilan ichki psixologik dramatism chuqurlashuvi, axloqiy-psixologik tahlil kuchayishi, qiziqarli syujetlilik kabi ijodiy fazilatlar janr tobora serqirralik, serfazilatlilik kashf etishiga olib kelayotganligini isbotlab beradi.

O'zbek adabiy tanqidchiligi xalqimizning ilmiy-estetik tafakkuri qanday sharoitlarda shakllanib voyaga yetdi, qanday jarayonlarni boshidan kechirdi, o'zining rivojlanish bosqichiga qanday bilim va malakalar bilan kirdi, qanday muammolarni o'rta qo'yib, baholi qudrat hal qilib berdi, degan masalalar bu ishning markazida turadi. Muhokamaga olingan masalalarni sanaydigan bo'lsak, ular: "Inqilobdan oldingi o'zbek tanqidchiligi izlanishlarida an'ana va novatorlik", "Turkistonda yangi o'zbek adabiy-estetik tafakkurining tug'ilishida rus adabiy tanqidi tajribasining ahamiyati", "O'zbek tanqidchiligi metodologik prinsiplarining shakllanishi", "Realizm va o'zbek tanqidi", "O'zbek tanqidchiligida shaxs muammosi", "Adabiy qahramonni baholashda yangi izlanishlar" kabilarda ko'rinadi.

Adabiy tanqid adabiyotni tahlil qilish, baholash vositasida elga tanitadi. Adabiyotni tanitadigan adabiy tanqidning o'z-o'zini tanishi ham g'oyat muhim masala. Bugungi o'zbek tanqidchiligi o'zini yaxshi taniydi, fan sifatida his qiladi, o'z missiyasini yaxshi angelaydi. Bu – yetuklik alomati. M. Qo'shjonov ishlarida tanqidchilik tadrijiy rivoji bilan birga, ana shu balog'at nuqtasi ham tahlil etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qo'shjonov M. Saylanma. I kki jildlik, 1-jild. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1982. – B. 3.
2. Qo'shjonov M. Mahorat sirlari. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1968. – B. 16.
3. Qo'shjonov M. Qalb va qiyofa. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978. – B. 52.
4. Qo'shjonov M. Qalb va qiyofa. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978. – B. 52.
5. Yo'ldoshev B. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. – Toshkent: Fan, 2023. – B. 57.
6. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2016. – B. 290-291.
7. Bursov B. I., Kritika kak literatura. L., 1976;
8. Nazarov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi: g'oyaviylik, metod, qahramon. – Toshkent, 1979.

## UILYAM FOLKNER SHE'RIYATI

**Jumayeva Nilufar G'ulomovna**

Qarshi davlat universiteti, f.f.f.d., katta o'qituvchi

[jumayeva.nilufarg@gmail.com](mailto:jumayeva.nilufarg@gmail.com)

ORCID 0000-0001-7079-2363

UDK -820(73)-9(021)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahonga mashhur, amerikalik modernist yozuvchi Uilyam Folkner ijodining ilk qadami bo'lgan she'riyati o'rganilgan va tahlil qilingan, shuningdek, ikkita to'plamidagi she'rlarining badiiy xususiyatlari ochib berilgan. Folkner o'z ijodini she'r yozishdan boshlagan, ammo tanqidlarga uchragach u o'zini nasrda sinab ko'radi va roman, hikoyalar yozish unga muvaffaqiyat keltiradi. Biroq she'rlari tanqidchilar tomonidan ko'p muhokama qilingan bo'lsa-da, Uilyam Folkner ijodi davomida ikki jildli she'rlar to'plamini nashr ettiradi. Uning she'riyati pastoral janrida yozilgan bo'lib, dehqonchilik, tabiat, yaxshilik va yomonlik hamda boshqa turli mavzularni qamrab olgan. Uning she'riyatining stilistik va sintaktik jihatlari ham ushbu maqolada tahlil qilingan. Maqolada obyekt sifatida Uilyam Folknerning she'rlari tanlangan, uning predmetini esa Uilyam Folkner ilk ijodida janr xilma-xilligi tasviri va talqini bilan bog'liq badiiy xususiyatlar tashkil qiladi. Tanlangan mavzuning dolzarbligi shundaki, ko'p adabiyotshunos olimlar Folkner ijodida uning romannavislik xususiyatlarini tahlil qilishgan, bu maqola adibning ilk ijodi, ya'ni nazmda qo'ygan qadamini, yozgan she'rlaridan ayrimlarini tahlil qilishga qaratildi. Shuningdek, mazkur maqolada lingvopoetik, tavsiflash, badiiy matn tahlili kabi tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Kalit so'zlar:** she'riyat, sintaktik tahlil, tekstura, tasvir, tabiat, ijod, favn.

## ПОЭЗИЯ УИЛЬЯМА ФОЛКНЕРА

**Аннотация:** В статье исследуется и анализируется поэзия всемирно известного американского писателя-модерниста Уильяма Фолкнера, которая является первым шагом в его творчестве, а также раскрываются художественные особенности его стихов в двух сборниках. Фолкнер начал свое творчество с написания стихов, но, столкнувшись с критикой, он пробует себя в прозе, и написание романов и рассказов приносит ему успех. Однако, хотя его стихи широко обсуждались критиками, Уильям Фолкнер публикует двухтомный сборник стихов на протяжении всей своей карьеры. Его поэзия написана в пасторальном жанре и охватывает такие темы, как сельское хозяйство, природа, добро и зло, а также некоторые другие. Стилистические и синтаксические аспекты его поэзии также были проанализированы в статье. В качестве объекта исследования статьи выбраны стихи Уильяма Фолкнера, а его предмет составляют художественные особенности, связанные с изображением и интерпретацией жанрового разнообразия в раннем творчестве Уильяма Фолкнера. Актуальность выбранной темы заключается в том, что многие литературоведы проанализировали в творчестве Фолкнера его романистические черты, эта статья была посвящена анализу ранних творений писателя, то есть некоторых из написанных им стихотворений. Также в данной статье использованы такие методы анализа, как лингвопоэтический, описательный, анализ художественного текста.

**Ключевые слова:** поэзия, синтаксический анализ, текстура, образ, природа, творчество, favn.

**Kirish.** Jahon adabiyotshunosligida XX asr Amerika adabiyotida yuz bergan janriy, shakliy-uslubiy o'zgarishlarni o'rganishga qiziqish kuchaymoqda. XX asrda adabiy jarayon yanada tezlashdi, ko'plab yangi yo'nalishlar, yangi adabiy maktablar paydo bo'ldi. Janr jihatdan rang-barang bo'lgan Amerika adabiyotining ildizlari uzoq davrlarga borib taqalmasa-da, mavzu-mohiyati, janr xususiyatlari, tasvir uslubi, poetikasi jihatidan ziddiyatli va murakkabdir. XX asr Amerika adabiyotining mashhur namoyandalari Teodor Drayzer, Jek London, Ernst Xeminguey, Uilyam Folkner, Jon Steynbek kabi adiblar hikoya, qissa, roman, pamflet kabi janrlarda samarali ijod qildilar. Ana shu adiblar qatorida Uilyam Folkner ijodi ham Amerika adabiyotida tub burilish

yasay oldi. Shu ma'noda, Uilyam Folkner ijodi, xususan, qisqa muddatda qalam tebratgan she'riyatining o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Folkner garchi ijodini she'rlar yozishdan boshlab, shu bilan bir qatorda yettita roman va o'ttizga yaqin qisqa hikoyalar va qissa yaratgan bo'lsa-da, uning she'rlari tanqidchilar tomonidan deyarli e'tiborga olinmadi [2].

Uilyam Folknerning "Marmar favn" she'riy to'plamida juda murakkab she'rlar to'plangan bo'lishiga qaramasdan, uning she'rlari yoshlikda qilingan mashqlar deb e'tirof etilgan. Folkner yozgan she'rlar, Fil Stoun (Phil Stone 1893-1967) o'zining kitobi so'zboshida aytganidek, "yoshlik she'rlari" bo'lib, ammo ular o'sha davrda istiqbolli bo'lgan. Ushbu kitob muvaffaqiyatsizlikka uchradi, lekin muvaffaqiyatsizlikning asosiy sababi yosh shoir o'z oldiga qo'ygan deyarli imkonsiz vazifalar edi. Adabiyotshunos olim Ingening fikricha, Uilyam Folknerning mazkur to'plami garchi omadli bo'lmagan bo'lsa-da, qisman muvaffaqiyatli she'rlar bitilgan kitobdir. "Marmar favn" ko'plab ajoyib she'riy parchalarni o'z ichiga oladi. Kitob o'zining yetukligi bilan Uilyam Folknerning tug'ma shoir ekanligini, ajoyib qobiliyatga ega ekanligini isbotlaydi [6].

Adibning ikkinchi to'plami "Yashil novda" tanqidiy doiralarda abstrakt she'riyatga ehtiyoj nisbatan kam bo'lgan bir paytda paydo bo'ldi, bu asosan "ma'naviy go'zallik"ni yetkazish bilan bog'liq edi. Kitobga bo'lgan e'tirozlarning aksariyati Morris V. Shappesning "Folkner shoir sifatida" taqrizida keltirilgan. Shapps Folkner she'riyatida dolzarb ijtimoiy muammolar yo'qligidan xavotirlanib, Folkner hech bir she'rda Missisipidagi "proletariat" muammosiga to'xtalmaganini qayd etgan. She'rlarning siyosiy emas, balki badiiyligidan bezovtalanib Folknerni noaniqligi uchun tanqid qildi. "Muqarrar ravishda, – deb yozgan Shappes, – bu she'rlar shaxsning tashqi dunyo bilan munosabatlarining lirik ta'rifi emas, balki shunchaki hissiy qiyofasi degan taassurot paydo bo'ladi". Shoir uchun she'r yozishning o'zi kifoya emas, u "yaxlit shaxs"ni ham taklif qilishi kerak [7]. Uilyam Rouz Benet "The Saturday Review of Literature" nomli jurnalda "Folkner shoir sifatida" nomli ocherkida xuddi shunday kamchilikni aniqladi va unga "ta'sirlar"ning yetishmasligini qo'shdi. Benet, Folkner she'rlarida kashf etgan barcha kuchlarni faqat sehgargina qo'llashi mumkin. Ular orasida Eliot, Xausmen, Kammings, Xart Kreyn, Rossetti va Svinbern bor, – deydi [8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Uilyam Folkner o'zining keng qamrovli nasriy asarlariga qo'shimcha ravishda, "Marmar favn" (1924) va "Yashil novda" (1933) nomli ikki jildli she'rlar to'plami hamda 1919-yildan 1933-yilgacha nashr etilgan alohida yigirma beshta she'rlarning muallifi ekanligini o'rgandik. "Marmar favn" pastoral (dehqonchilik, chorvachilikka xos she'rlar) janrida yozilgan bo'lib, o'z ichiga o'n to'qqizta she'r, muqaddima va epilodgan iborat.

Folkner she'riyati aks-sado va tashbehlar tilida yozilgan, adib o'ziga xos musiqa tartibida tartiblangan mifologik she'r yaratishga harakat qilgan, nom berilmasdan alohida-alohida yozilgan she'rlar o'rtasidagi munosabatni o'rnatish uchun to'rt fasl va kunning soatlaridan foydalangan holda ingliz ekologiyasining an'anaviy konvensiyalarini aniqlagan. Yuqorida aytilgandek, ushbu to'plamda mavjud o'n to'qqizta she'r nafislik, tushkunlik kayfiyatini berib, shoir o'lim emas, balki shaxsiy yo'qotish tuyg'usilarini ifoda etadi.

Shoir she'rlarida marmar favn shaxsida nola qiluvchi ruhga murojaat qiladi, ba'zan "atrofi marmar bilan o'ralgan", "fayzsiz bir eski bog'" makonida xayolan o'tmish va kelajakka nazar tashlaydi, shuningdek, yaxshilik va yomonlikning qaytishi haqida gapiradi. "Marmar favn"ning muvaffaqiyatsizligi shundaki, undagi til strukturasi va sintaksisda tez-tez uchrab turadigan arxaizmlar, inversiyalar va eskicha poetikalarning natijasi edi. She'rning ichki dialektikasida qarama-qarshi obrazlar, olov va muz, raqs va harakatsizlik, sukunat va musiqa, yoshlik va keksalik, bahor va qish, tun va kunduz kurashi tasvirlangan. U endi boshlanganidayoq tugaydi, muqaddimaning dastlabki ikki qofiyasi epilodning oxirgi ikki qofiyasiga mos keladi.

She'r turli uzunlikdagi misralardan iborat bo'lib, iambik tetrametr qatorlarida qofiyalangan juftliklarda tuzilgan, shunday bo'lsa-da, shaklda sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi. Asosiy bayt o'n ikki, ba'zan o'n to'rt misradan iborat, lekin oltidan yigirma oltinchi misragacha bo'lgan o'n to'rt xil bayt birliklari mavjud. Ritm satr oxiridagi to'liq bo'lmagan sintaksis, ya'ni bir satrdan

ikkinchisiga tinish belgilarisiz “yugurib” o‘tishi bilan o‘zgaradi. Xuddi shunday qofiyada ham bir oz farqlarni ko‘rishimiz mumkin, ya’ni bir nechta qofiyasiz misralar ham uchraydi.

*The ringed moon sits eerly  
Like a mad woman in the sky,  
Dropping flat hands to caress  
The far world’s shaggy flanks and breast..*

Folkner “Marmar favn – 1919-yil aprel, may, iyun” yaratilgan sanadan nashr etilgan vaqtgacha nazm bilan bir qatorda nasrni ham davom ettirdi. Bu vaqt ichida nashr etilgan she’rlar “Marmar favn”da namoyon bo‘lgan manfaatlarning birlashishini ko‘rsatadi. 1919–1920-yillarda Mississipida nashr etilgan o‘n uchta she’rdan to‘rttasi Verlen (Paul-Marie Verlaine, 1844–1896)ning simbolizm she’riyatining mavhum lirikasiga doimiy qiziqishini ko‘rsatadi. Bu vaqtda Folkner universitetda fransuz tilini o‘rganayotgan edi va u juda yaxshi o‘zlashtiradigan talabalardan bo‘lgan.[5] Kitobning tuzilishi, umumiy mavzu bilan birlashtirilgan alohida she’rlar va ularning tarkibiy birligini yaratish muammolarini anglashdan dalolat beradi. Folkner prozasining shakli butun faoliyati davomida tizimli eksperimentning xilma-xilligi va nozikligi bilan ajralib turadi.

Folknerning dastlabki chop qilingan she’ri “L’Apres-Midi d’un Faune” 1919-yil 6-avgustda “Yangi respublika”(“New Republic”) jurnalida nashrdan chiqdi. “Marmar faun” va “Yashil novda” oralig‘idagi yillarda Folkner nasr bilan band bo‘lganida ham she’riyatiga biroz vaqt topdi, o‘n to‘rtta she’ri davriy matbuotda chiqdi. Bundan tashqari, Folkner o‘zining ikkita romanida ham o‘z she’rlaridan foydalangan. “Askar mukofoti” romanining epigrafida “Yashil novda”dan, “Moskitlar” romanining bir nechta betlarida keltirilgan misralar ham shu she’riy to‘plamdan olingan. Umuman olganda, bu misralar xilmaxillik, istehzo va ba’zi hollarda satira bilan takomillashtirilgan [9].

**Natijalar va muhokama.** Folknerning she’riyat haqidagi eng aniq bo‘lgan fikri “O‘tmish va yangi tug‘ilish: Ziyorat” avtobiografik essesda “ma’naviy go‘zallik”ni yetkazishi kerak, deb hisoblagan hamda an’anaviy she’riyat tarafdori bo‘lgan.[10] U Shelli (Percy Bysshe Shelley, 1792-1822) va Jon Kits (John Keats, 1795-1821) ijodidan ta’sirlanib qalam tebratgan. Folkner nazdida she’r bu ruhiy go‘zallik bilan muloqotidir. U o‘z she’rlari ustida qayta-qayta ishlab nashr ettiradi.

Folknerning “Contempo” nomli adabiy jurnalda chop etilgan “Bahor” she’ri, “Yashil novda” to‘plamida XXXVI sonli she’r bo‘lib, uning umumiy ta’sirini kuchaytirish uchun tayyor she’r ustida qanday ishlaganini batafsil ko‘rsatib beradi.

Spring  
Gusty trees windily lean on green  
Eviscerated skies, the surging wind  
Against the sun's gold collar stamps, to lean  
His weight. And once the furrowed day behind,  
The golden steed browses the field he breaks  
And full of flashing teeth, where he has been,  
Trees, the waiting mare his neighing shakes,  
Hold his heaving shape a moment seen.  
Upon the hills, clashing the stars together,  
Stripping the tree of heaven of its blaze,  
Stabled, richly grained with golden weather . . .  
Within the trees that he has reft and raped  
His fierce embrace by riven boughs is shaped,  
While in the lonely hills he stamps and neighs.[4]

A Green Bough, XXXVI

Gusty trees windily lean on green  
 eviscerated skies, the stallion, Wind,  
 against the sun's gold collar stamps, to lean  
 his weight. And once the furrowed day behind,  
 the golden steed browses the field he breaks  
 and full of flashing teeth where he has been  
 trees, the waiting mare his neighing shakes,  
 hold his heaving shape a moment seen.  
 Upon the hills, clashing the stars together,  
 stripping the tree of heaven of its blaze,  
 stabled, richly grained with golden weather—  
 within the trees that he has reft and raped  
 his fierce embrace by riven boughs in shaped,  
 while on the shaggy hills he stamps and neighs.

Ikkala variant o'rtasidagi farq shundaki, qayta ko'rib chiqilgan versiyada alohida satrlarni ko'rsatish uchun bosh harflardan foydalanilmaydi hamda birinchi she'r ikkinchi qatoridagi *surgin wind* va oxirgi qatoridagi *lonely hills* so'zlari qayta ishlanganda *stallion winds*, *shaggy hills* so'zlari bilan almashgan. *Kuchli shamol ayg'ir shamollari*, ya'ni *mistral shamollarga* almashtirilgan, chunki odatda bu turdagi shamol bahor faslida ko'p esishini shoir inobatga olgan, *yolg'iz adirlar* esa *serbuta*, *daraxtzor tepaliklar* so'zlari bilan qayta ishlangan. Bu o'zgarishning o'ziga xos ta'siri bor: satrlarda davomiy sifat ortib, alohida bayt satrga emas, balki sonet birligiga aylanadi. Shuningdek, mazkur she'rda tasvirlangan harakatning kuchayishi, shamolning harakati va kuchi va bahorning kelishi ritm, tekstura va tasvirda uzatiladi.

Bunchalik qayta ishlab chiqishdan maqsad she'rning asl maqsadini kuchaytirish edi. Boshqa yana bir o'zgarishlardan biri "Bir marta sevishimni bilardim" sonetidan butun-bir to'rt misrali baytni olib tashlab, kichik o'zgartirishlar bilan "Yashil novda" to'plamidagi o'n qatorli XXXIII she'rini shakllantirish bo'lgan.

Folknerning "Yashil novda" nomli she'riy kitobida ham badiiy-tasviriy vositalardan unumli foydalanilgan va adabiyotshunoslar tomonidan yaxshi e'tiroflarga loyiq ko'rilgan. Uning she'rlarida azaliy qadriyatlar, ezgulik va yovuzlik, abadiylik va o'tkinchilik, muhabbat, xiyonat, oshiqlik, vafodorlik, sadoqat kabi tuyg'ular kuylangan. Masalan, adibning ushbu she'riy to'plamidagi "Kulrang kun" misrasi bilan boshlanadigan XXX raqamli she'rida, yovuzlik ustidan ezgulikning g'alaba qozonishi, yil fasllari muttasil o'zgarib turishi misoli inson hayotida turli holatlar, ya'ni yaxshi-yu yomon kunlar bo'lishi mumkinligiga ishora qiladi. Misol:

Gray the day, all the year is cold,  
 Across the empty land the swallows' cry  
 Marks the southflown spring. Naught is bowled  
 Save winter, in the sky.  
 The hushed plaint of wind in stricken trees  
 Shivers the grass in path and lane  
 And Grief and Time are tideless golden seas—  
 Hush, hush! He's home again[1].

Ma'nosi:

Kulrang kun, butun yil sovuq,  
 Bo'sh yer bo'ylab qaldirg'ochlar faryodi  
 Bahor yaqinligini bildirar ammo hech narsa yo'q  
 Osmonda qishni asrang.  
 Shamol urgan daraxtlarda jimjit  
 Yo'laklarda o'tlar titraydi.  
 Qayg'u va vaqt - to'lqinsiz oltin dengizlar -  
 Jim, jim! U yana qaytdi.

**Xulosa va takliflar.** Uilyam Folknerning she'rlarini kuzatganimizda, aksariyati badiiylikdan yiroq ekanligini, his-tuyg'ularning quruq ifodalanganini ko'ramiz. Uning oxirgi to'plamidagi avvalroq "Qabrtoshga bitilgan yozuv" va "Bu o'lka" nomi bilan nashr etilgan "Yashil shox" XLIV yakuniy she'ri Folknerning shoir sifatidagi faoliyatini sokinlik va o'z ildizlariga qaytishi bilan yakunlaydi. Adibning "Yashil novda" she'riy to'plami har doim ham muvaffaqiyatli, yaxshi malakaga ega bo'lmagan, so'z, ritm, tasvir, tekstura va birinchi navbatda, tuzilish qiymatini biladigan shoirni namoyish qiladi va bizga mashhur afsonadan farqli o'laroq, maktub an'alaridan va eng yaxshi zamonaviy asardan xabardor yozuvchini ko'rsatadi. Folkner hech qachon she'riyatda oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olmadi.

Uilyam Folknerning "Yashil novda" to'plami doimo omadli, muvaffaqiyatli, biroq mahoratsiz shoirni namoyon qiladi. Folkner hech qachon she'riyatda muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Ijodkorning o'zi shunday deb yozadi: "Men muvaffaqiyatsiz shoirman. Balki har bir romannavis avval she'r yozishni orzu qilar, yoza olmasligini bilgach, she'riyatdan keyin eng qiyin janr bo'lgan hikoya yozishga harakat qiladi va bu ishda ham muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan keyingina u roman yozishni boshlaydi." [3]

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Faulkner, William. "A Green Bough". New-York, 1933-P.-53.
2. Brooks, Cleanth. William Faulkner: The Yoknapatawpha Country. - Louisiana State University Press, Baton Rouge, 1991.- P.-518.
3. Garrett, Jr., George P. "An Examination of the Poetry of William Faulkner." *The Princeton University Library Chronicle*, vol. 18, no. 3, 1957.
4. William Faulkner. *Contempo*, I, No. 17 (Feb. 1, 1932).
5. Я.С. Линкова, "Осмысление и создание поэтики символизма в творчестве Стефана Малларме" // *Литературоведческий журнал*. 2013. № 33 – С. 124-142.
6. Inge MT, ed. *The Marble Faun (1924)*. In: *William Faulkner: The Contemporary Reviews*. American Critical Archives. Cambridge University Press; 1995:1-8.
7. Morris U. Schappes, "Faulkner as Poet" *Poetry*, XLIII, No. 1 (Oct., 1933), 48-52.
8. W.R. Benet "Faulkner as Poet," *The Saturday Review of Literature*, IX, No. 41 (Apr. 29, 1933) p 565
9. Faulkner, W "Verse Old and Nascent: A Pilgrimage" (6 *The Double Dealer*, VII, No. 43 (Apr., 1925)

#### BADIIY ADABIYOTDA VALIY OBRAZI

**Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna**

Xalqaro innovatsion universitet o'qituvchisi

[m.ortiqova93@mail.ru](mailto:m.ortiqova93@mail.ru) 97.631.58.94

ORCID 0009-0001-7149-0989

UDK: 82'04

**Annotatsiya:** Aqid ilmda bahsli masalalardan biri valiylarning Alloh tomonidan yuborilgan karomat sohibi bo'lishi aqidasi. Alisher Navoiyning 1495–1496-yillarida yozilgan mil. avv. VIII–XV asrning oxiriga qadar Osiyo, Afrika va Yevropa qit'alarida yashab o'tgan 770 ta avliyo ularning hayoti, faoliyati va karomatlarini kichik hikoyatlarda badiiy tasvirlar orqali "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida keltirilgan. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" da valiylarning karomatiga dalil qiluvchi hikoyat va rivoyatlar keltirib izohlaydi. Valiylarning karomati haqida fikrlar boshqa badiiy adabiyot namunalari, xususan, Fariddun Attorning "Tazkirat-ul avliyo" tazkirasida ham uchraydi. Ushbu maqolada valiy obrazining genezisidan farqli o'laroq, dastlab, valiy tushunchasining nazariy jihatdan qaysi manbalarda o'rganilishi, qaysi adabiyotlarda bu tushunchaning qaysi ma'noda qo'llanilishi kabi masalalar atroflicha yoritilib, valiylarda karomat zohir bo'lishi, valiylarning karomati haq ekanligi, karomatlarining turlari va xususiyatlari haqida asoslar bilan aytib o'tilgan. Valoyat tushunchasi, valiy obrazi Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida misolida badiiy jihatdan asarda keltirilgan

hikoyatlar orqali tahlil qilingan. Shu bilan birga, valiy obrazining badiiy adabiyotdagi o'zni va xususiyatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Valoyat, karomat, valiy, aqid, mo'jiza, karomati tabiiy, karomati kasbiy, "Nasoyim ul-muhabbat"

### ОБРАЗ ПРАВЕДНИКА В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

**Аннотация:** Одним из спорных вопросов в исламе является догмат о том, что праведники должны обладать особым даром, посланным Аллахом. В книге Алишера Навои «Насоим уль-мухаббат», написанной в 1495-1496 годах, посредством художественных изображений в небольших рассказах описываются жизнь, деятельность и благочестивые дела 770 святых, живших на азиатском, африканском и европейском континентах в VIII-XV веках. Сведения о чудесах, сотворенных праведниками, встречаются и в других образцах художественной литературы, в частности, в «Тазкират-уль-авли» Фаридиддуна Аттора. В статье подробно рассматриваются такие вопросы: в каких источниках понятие «праведник» изучается теоретически, в какой литературе это понятие используется в каком смысле? Понятие «праведность», образ праведника были художественно проанализированы в произведении Алишера Навои «Насоим уль-Мухаббат». Также в статье идет речь о месте и особенностях образа праведника в художественной литературе.

**Ключевые слова:** праведность, дар, праведник, чудо, дар естественный, дар профессиональный, «Насоим уль-мухаббат»

**Kirish.** Tasavvuf adabiyotida, badiiy adabiyotda valiylik obrazini tahlil qilishdan oldin aqida ilmida valiy inson va karomat tushunchasi qanday ta'riflanadi? Izohli lug'atda qanday? Istilohda qanday ma'noda qo'llanadi? Ushbu masalalarga izoh berish lozim. Islom aqidasi har bir musulmon kishi uchun o'rganilishi va e'tiqod qilinishi lozim bo'lgan masalalarni o'z ichiga olib, bu ilmning o'rganilishidan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri, diniy aqidalarni qati'y dalillar bilan isbotlash va bu aqidalarga bo'lgan shubhalarni aritish hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, tarixiylik va umumiylik usulidan foydalanildi. Shuningdek, badiiy adabiyotda valiy obrazi, valiylikning karomati haq ekanligi, valoyat tushunchasi tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. A.M. Nasafiyning "Tabsiratul adilla", Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Aqidatut tahoviya sharhining talhiysi" asarlari va boshqa adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan mualliflarning ilmiy-nazariy qarashlari ilgari surilgan ilmiy maqolalar metodologik manba bo'lib belgilandi.

**Natijalar va muhokama.** Aqid ilmida ana shunday bahsli masalalardan biri valiylikning Alloh tomonidan yuborilgan karomat sohibi bo'lishi aqidasi. Bu borada valiylik va ularning sohibkaromat ekanliklarini o'rganib, yetarlicha isbotlab bera olgan va bu bilan aqida ilmiga o'z hissalarini qo'shgan ba'zi olimlarning izlanishlariga e'tibor qaratsak. Bunday manbalarning avvalida Sa'duddin Taftazoniyning "Sharh al-Aqid-an Nasafiya" asariga murojaat qilamiz. Asarda ushbu xususda shunday bayon qilinadi: "Valiylikning karomatlari haqdir. Bunda karomat uzoq masofani qisqa muddatda bosib o'tish, muhtoj paytda oziq-ovqat va kiyim-kechaklarning paydo bo'lishi, suv ustida yurish, havoda uchish, jonsiz va tilsiz narsalarning gapirishi, kelgan musibatni qaytarish, dushmanlarni daf qilish kabi narsalar valiylikda g'ayri oddiy yo'l bilan zohir bo'ladi" [4; 57] Asarda dastlab "Valiy" tushunchasiga ta'rif beriladi: "Valiy bu allohni va uning sifatlarini mumkin bo'lgan darajada biluvchi, toatlarda doim qoim bo'luvchi, gunohlardan uzoq bo'luvchi, shahvatlar va lazatlarda harom amal qilishdan saqlanuvchi bandadir" [4; 57].

Valiylikning karomati haqida fikrlar badiiy adabiyot namunalari ham o'z talqinlarini topgan. A. Navoiyning 1495-1496-yillarida yozilgan mill.avv VIII-XV asrning oxiriga qadar Osiyo, Afrika va Yevropa qit'alarida yashab o'tgan 770 ta avliyolarning hayoti, faoliyati va karomatlarini kichik hikoyatlarda badiiy tasvirlar orqali "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida keltirganlar. Masalan, Abu Zaar Tirmiziyni xojatini faqat allohdan so'rgan orif sifatida keltirilgan hikoyat quyidagicha: "Oriflarning biri debdurkim, biz bir-birimiz bilan suhbat tutib yuradigan bir jamoada edik. Har qaysimizga bir nima kerak bo'lib qolsa, Abu Zaar turib namoz o'qirdi. Tangri



ul nimani o'sha zahoti yetkazardi". Ushbu hikoyatdagi jarayon siz-u biz kabi insonlar uchun aql bovar qilmas hodisa. Ammo bu valiylarning oddiy insonlarda uchramaydigan eng oddiy karomati deyish mumkin. Chunki yuqorida aytilganidek, valiylar ollohning nazari va inoyatiga sazovor bo'lgan ollohning do'stlari ekan.

S.Taftazoniy fikrlariga ko'ra karomatlar haqiqatiga dalil, egasidan ko'p to'xtovsiz zohir bo'lishi va u yerdan uzoq bo'lganlar tomonidan uni inkor qilish mumkin bo'lmasligidir. Xususan, o'xshash bo'lgan ish va tafsilotlari bittadir, deydi. Asarda karomatni va uning juda aqlga sig'maydigan qismlarining ba'zi tafsilotlarini ochib beruvchi gapni keltirgan. Ya'ni, karomat aql bilan qabul qilinmaydigan holatligini aytadi. Shundan so'ng alloma "Uzoq masofani qisqa muddatda bosib o'tish" karomatini dalillash uchun Qur'oni karimda Maryam (r.a.) va Sohibi Sulaymon (a.s.)dan karomat zohir bo'lganini keltiradi: "Sohibi Sulaymon (a.s.) bajargan ishi karomat kabitir. U mashhur Osif ibn Barhiyodir. U Bilqis taxtini chekka dushman hududidagi uzoq masofadan keltirgan. Sharh daliliga Maryam (r.a.) misolida, Oli Imron surasi 37- oyatni keltiradi: "Zakariyo har gal (Maryamning) oldiga – masjidga kirganida, oldida rizq turganini ko'rar edi. U: "Ey, Maryam, bu narsalar senga qayoqdan keldi?" – deb so'rasa, (Maryam): "Bular Alloh huzuridan", – deb javob berar edi. "Suv ustida yurish" xususiyatini "Ko'plab avliyolar haqida naql qilingan", – deb izohlaydi.

"Havoda uchish" jumlasini "Sahoba Jafar ibn Abu Tolib, Luqmon as-Saraxsiy va ulardan boshqalar haqida naql qilingan", – deb sharhlaydi. "Jonsiz va tilsiz narsalar gapirishi" haqida "Jonsiz narsaning gapirishi, rivoyat qilingani kabi Salmon va Abu Dardlarda yog'och tovoq bo'lgan. U esa madh qilgan va uning tasbihini u ikkisi eshitganlar", deydi. "Tilsiz jonivor esa, "Ashob ul-Kahf itining gapirishi kabitir" deb sharhlaydi. "Kelgan balolarni daf qilish va dushmanlardan yetadigan ofatlarga kifoya qilish" bunga esa Umar ibn Xattob (r.a.) haqidagi rivoyat misol bo'ladi. U Madina shahrida masjid minbarida edi. Uning qo'shini esa "Nahovand" jang maydonida bo'lgan. Boshqa joyda bo'la turib qo'shini amirini tog'ning orqasidagi dushman pistirmasidan ogohlantirib "Ey, Soriya, tog'ga, tog'ga" degan va uzoq masofadan soriya Umar (r.a.) gapini eshitgan", – deb keltiradi. S.Taftazoniy yana sahoba Xolid ibn Valid (r.a.)ning zahar ichib, undan zaharlanmaganligi haqidagi rivoyatni keltiradi. Yuqoridagi dalillarni keltirib alloma valiylar va ularning sohibkaromat ekanliklari haqidagi fikrni asoslab beradi.

Valiylarning karomatini yo'q deb tan olmaydigan ba'zi oqim vakillariga bu ayni haqiqat ekanligini dalillash uchun Abu Muin Nasafiyning "Tafsiratul adilla" asaridagi aniq ma'lumotlarni ham ko'rishimiz mumkin. "Ahli haq ko'plab xabarlar, mustafiz hikoyalar vorid bo'lganligi sababli karomatning sobit ekaniga hukm qilishadi. Xabar va hikoyalardan biri –Sulaymon (alayhissalom)ning hamrohlari ko'z ochib yummasdan Bilqisning taxtini olib kelgan xabari; yana biri – Madinada minbarda o'tirgan Umar (r.a.) Nahovanddagi qo'shinni ko'rib: "Ey, soriya, tog'ga, tog'ga deganlari. Soriya esa salkam besh yuz farsah masofada turib bu ovozni eshitgani va tog'ga chiqib, u yerdan dushmanga pistirmadan hujum qilgani. Bu esa g'alabaga sabab bo'lgani; Xolid ibn Valid (r.a.) zahar ichsa-da, zarar ko'rmaganligi; Umar (r.a.)ning Nil daryosi borasidagi xabarlar shular jumlasidandir. Tobein va solihlardan behisob karomatlar rivoyat qilingan (ko'rilgan). Ularni inkor qiluvchi kishi, umumiy ma'noda, ko'rinib turgan narsani rad qiluvchilar qatoriga kiradi. Mutazaliylar ularni inkor etishadi. Chunki bid'atlarining shumligi sabab karomatni man qilishadi. Imondan chiqishdan qo'rqib, ibodatlarda va gunoh-ma'siyatlardan tiyilishda qattiq jiddu-jahd qilishlariga qaramasdan, o'z mazhablarining botilligi, e'tiqodlarining fosidligiga karomatlarini man etishlari yetarli, boshqa dalil kerak emas. Ularning: "Avliyolar qo'lida karomatning zohir bo'lishi anbiyo (alayhissalom)larning mo'jizalari botil bo'lishini keltirib chiqaradi", degan da'volari haqni botildan, to'g'rini fasoddan ajratadigan mezon bo'lmish aqlga ko'ra ish tutmasdan, o'ylamasdan gapirish. Chunki tafakkur qilgan kishi valiyning har bir karomati (valiyning) nabiyisi (alayhissalom)ning mo'jizasi ekanini biladi. Albatta, karomatning zohir bo'lishi bilan u kishining valiy ekani bilinadi. Uning valiy ekani aqidasi haq ekaniga dalildir. Mo'jiza bilan karomat aralashib ketishi mumkin emas. Mo'jiza risolat (payg'ambarlik) da'vosi ortidan namoyon bo'ladi. Agar avliyo risolat da'vo qilsa, o'sha vaqtdayoq valoyatdan tushadi. Mo'jiza sohibi mo'jizasini yashirmaydi. Aksincha, uni oshkor qiladi. Karomat sohibi esa imkon

qadar karomatini yashiradi, ko'pincha unga suyanmaydi, ishonmaydi".

Ko'rinadiki, har ikkala asarda ham valiyning karomati bor haqiqat. Berilgan ma'lumotlar, namunalar deyarli o'xshash. Aqoid ilmining yana bir yirik manbalaridan bo'lgan "Al Fiqh al-akbar" asarida ham shunga o'xshash ma'lumotlar beriladi: Payg'ambarlarning mo'jizalari, avliyolarning karomatlari haqdir. Ammo Allohning dushmanlari – Iblis, Fir'avn, Dajjol kabilarda bo'lgan va bo'ladigan odatdan tashqari ishlarni mo'jiza ham, karomat ham deb atamaymiz. Bularni biz ularning hojatlarni chiqarish deb ataymiz. Chunki Alloh dushmanlarini dunyoda g'ururda, oxiratda azobda qolishi uchun hojatlarni ravo qiladi. Ular bu bilan mag'rurlanib, kufr-u tug'yonda haddan oshib ketadilar". Yuqoridagi fikrlarning ma'noviy davomi va mo'jiza bilan karomatning bir-biridan farqi, ularni aralash emasligini bayon etish uchun Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Aqoid darsligi"dan quyidagilarni keltiramiz: "Mo'jizalar payg'ambarlar uchun sobitdir va karomatlar avliyolar uchun haqdir. Ammo Alloh taoloning dushmanlari uchun bo'ladigan, masalan, Iblis, Fir'avn va Dajjol kabilardan sodir bo'lganligi va (bundan keyin) bo'lishligi xabarlarda rivoyat qilingan narsalarni mo'jiza ham, karomat ham demaymiz. Lekin o'sha narsalarni ular uchun qazoi-hojat deymiz. Chunki Alloh taolo dushmanlarining ham hojatlarni ularga istidroj va uqubat uchun ro'yobga chiqaradi. Ular bundan aldanib qoladilar va tug'yonu kufrda ziyodalashaveradilar.

Bunday narsalarning barchasi joiz va mumkindir. Mo'jizalar payg'ambarlar uchun sobitdir va karomatlar avliyolar uchun haqdir. Mo'jiza – ismi foil bo'lib, lug'atda "ojiz qoldiruvchi" degan ma'noni bildiradi. Shariatimiz istilohida esa: "Payg'ambarlarning haqiqatdan ham Alloh taolo tomonidan yuborilgan elchilar ekanligiga dalil-hujjat sifatida ro'y beruvchi va boshqalarni o'jiz qoldiruvchi ish-mo'jiza deyiladi." Alloh taolo o'zining yuborgan payg'ambarlariga ularning payg'ambarliklarini tasdiqlash uchun xilma-xil mo'jizalar bergan. Masalan: Muso alayhissalomning hassalari ajdarga aylanib u zotning haqiqiy payg'ambar ekanliklarini tasdiqlagan bo'lsa, Iso alayhissalomga og'ir kasallarni bir nafasda tuzatish, murdalarni tiriltirish kabi mo'jizalar berilgan. Payg'ambarlarning ulug'i, oxirgi zamon payg'ambari Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vassallamga o'tgan payg'ambarlarga berilgan mo'jizalarning deyarli barchasi va yana o'zlariga ham alohida mo'jizalar berilgan. O'sha mo'jizalarning eng ulug'i, to qiyomatgacha boqiy turadigan Qur'oni karimdir. Mo'jizadan farqli ravishda karomat "izzat-ikrom", "qadr-qimmat", "oliyanoblik" kabi ma'nolarni bildiradi. Istilohda esa, "Alloh taoloning o'zi sevgan bandalariga qilgan izzat-ikromi karomat deyiladi". Valiy lug'atda "yaqin", "do'st" kabi ma'nolarni bildirib, ko'plikda "avliyo" deyiladi. Demak, valiy ollohning yaqin do'stlari, shuning uchun ham ularda inson ishonishi qiyin bo'lgan g'ayri oddiy xususiyatlar zohir bo'lishi, ya'ni karomat hosil qilishi tangrining do'stlariga bergan inoyati ekan. Bunday karomatlar ham bir-biridan farq qiladigan turi mavjud deyiladi.

"Karomat ikki xil bo'ladi: 1. Tabiiy. 2. Kasbiy (erishiladigan, mehnat bilan topiladigan). Jibilliy karomatga dalil; Alloh taolo al-Isro surasining 70-oyatida shunday xabar bergan; "Darhaqiqat, biz Odam bolalarini aziz-mukarram qildik va ularni barru-bahrda – quruqlik va dengizda (ot-ulov va kemalarga) chiqarib qo'ydik hamda ularga halol pok narsalardan rizq-u ro'z berdik va ularni o'zimiz yaratgan juda ko'p jonzotlardan afzal, ustun qilib qo'ydik. Masalan, Kasbiy karomatga dalil; Alloh taolo Hujurot surasining 13-oyatida quyidagicha xabar bergan; "Albatta sizlarning Alloh nazdidagi eng hurmatlirog'ingiz, taqvodorrog'ingizdir". Karomat esa faqat taqvodor mo'minlarda hosil bo'ladi (chunki ular bu karomatni mo'minlarga xos e'tiqod va harakatlar bilan topadilar). Yana bir boshqa manbalarda esa karomatni kavniy va ilmiy kabi turlaydilar.

Karomati kavniy: qisqa fursatlarda ro'y beradigan favqulodda g'ayritabiiy hodisalar, masalan, havoda uchish, suv ustida yurish, uzoq yo'lni bir fursatda bosib o'tish kabi. Karomati ilmiy: ilm, irfon, ma'rifat, ibodat va taqvo, ma'naviy kamolot orqali yuzaga kelgan turli shakllardagi g'ayritabiiy hodisalar. Bunga esa bir qator tasavvuf shayxlarida zohir bo'lgan karomatlarini aytish mumkin. Karomatning g'ayrioddiy ishlarga nisbatan qo'llanishi esa majoziydir. Zero, Alloh taolo ana shunday g'ayrioddiy ishlarni taqvodor mo'min uchun izzat-ikrom sifatida zohir qiladi. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida avliyolarning karomati va qay tariqa zohir bo'lishi haqida shunday yozadilar: "Va ul ko'pdur avliyoullohning

marotibidek. Ul jumladin bir nechasi bulardurlar: Ma'dum ijodi va mavjud i'domi va mastur amr izhori va zohir amr istori va duo istijobati va oz muddatda ba'ida masofat qat'i va hisdin g'oyib ishlarga ittulo' va andin xabar etmoq va vohid zamonda muta'addid va muxtalif makonga hozir bo'lmoq va mavto ihyosi va ihyo imotasi va jamodot va nabotot va hayvonot kalominiy samo'i va maoniysig'a vuquf topmoq, tasbihdin va g'ayridin va at'imayu ashriba izhori hojat vaqti besabab zohir bo'lmoq va suv ustida yurumoqdek va havoda sayr qilmoqdek va yemak ul nimaniki, odatan ul g'izo bo'lmag'ay va hayvonot tasxiri va badanda mufrit quvvat izhori andoqki, daraxtni tubidin qo'ng'ormoq, samo' vaqtida. Va devorni barmoq ishorati bila shaq qilmoq va ilik ishorati birla muxolifning boshin uchurmoq va daryolarda g'arq bo'ladurg'on kemani tutub, qiroqg'a chiqarmoq va olam hayulosida har ne nav' tasarrufiki, har ne tilasa qilmoq, misli yomg'ur yog'durmoq va yel esturmoq va sel kelturmoq va daf' qilmoq va chuvurka ofatini daf' qilmoq va har surat bila mutamassil bo'lmoq. Biyobonda sargashta va ovora bo'lg'onlarg'a rahnamoyiliq qilmoq" Ko'rinadiki, Navoiyda ham yuqoridagi adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar o'xshash. Masalan, suvda yurmoq, havoda sayr qilmoq, yomg'ir yog'dirmoq va yel estirmoq, sel kelturmoq va daf' qilmoq va shu kabi. "Nasoyim ul-muhabbat"da keltirilgan har bir valiyni o'ziga xos xususiyatlari, berilgan karomatlari bilan ta'rif beradi. Bunda har bir valiyning karomati, valiyni ekanligining belgisi bo'lib ko'rinadi. A.Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da valiylarning karomatiga dalil qiluvchi hikoyat va rivoyatlar keltiradi. Masalan, Habib Ajamiy haqida quyidagi hikoya keltiriladi: Qotillikda ayblangan bir kishini dorga osayotgan edilar. Habib o'tayotgan chog'da unga ko'zi tushdi. Kechasi tushda dorga osilgan qotilni jannatda ko'rdilar.

So'radilar:

– Sen ul qilmishing bilan bu martabaga nechuk erishding?

Dedi: – Meni qatl etayotgan chog'da Habib Ajamiy o'tib borayotgan edi. Nazari menga tushibdi. Bu darajaga uning bir nafasi barakatidan yetishdim. Hikoyaning mazmuni ham valiyning karomatiga dalil bo'ladi.

Yana aytiladiki, valiylarning avval ishlari tavbadir. Undan keyin, shariat rioyati, yana biri zakot, biri saloti xamsa, yana biri ro'za, tariqat odobi, hilm va burdbog'lik, rizo, sabr, sidq, azim riyozat. Navoiy valoyatni ta'rif etar ekan, valiylar haqidagi ilk tasavvurlarga to'xtalib o'tadilar. Avvalida Hakim at-Tirmiziyning "Xatm ul-avliyo" asari turadi. Asarda Hakim at-Tirmiziy o'zi haqda shunday keltiradi: "Menga nisbat berishlarini o'ylab biror harf yozmadim. Faqatgina yuragim siqilgan, ishlarim yurushmagan kezlari tasalli topish uchun yozar edim, kimki, bandalik sifatlarini bilmasa, Haq sifatlarini bilmaydigan nodonroqdir." "Nasoyim ul-muhabbat" da bu ulug' ustoz ko'p hadisi va karomati bor deb keltirilgan. A.Jomiyning "Nafahot ul-uns min-hazorot il-quds" asari, F.Attorning "Tazkirat-ul avliyo" asarini keltiradi. Ushbu asarlarda Mo'jiza, karomat tushunchalari va ularni payg'ambar va valiylarda zohir bo'lishi aytilgan. Demakki, karomat vali-yavliyolarga berilgan ollohning inoyati. Payg'ambarlarga ularning payg'ambarliklarini tasdiqlash uchun berilgan odatdan tashqari, o'zgalarni ojiz qoldiruvchi ish – mo'jiza, deyiladi. Alloh taoloning O'z do'stlariga qilgan izzat-ikromi – karomat, deyiladi. Alloh taoloning dushmanlari tarafidan sodir bo'lgan g'ayri oddiy ishlarni, masalan, Iblisning bir lahzada mashriq-u mag'ribga borib kishilarni vasvasaga solishi, odam bolalarining qonlarida aylanishi, qiyomatga yaqin chiqadigan Dajjolning birovni o'ldirib tiritirishi kabi g'ayri oddiy ishlarning barchasi mo'jiza ham, karomat ham deyilmaydi. Chunki mo'jiza va karomatlar faqatgina Alloh taoloning do'stlariga beriladigan narsalardir. Lekin o'sha narsalarni ollohning dushmanlari uchun qazoi-hojat deymiz. Chunki Alloh taolo dushmanlarining ham hojatlarini ularga istidroj va uqubat uchun ro'yobga chiqaradi. Ya'ni o'sha g'ayrioddiy ko'ringan narsalar kofir-u fojirlar uchun qazoi-hojat bo'ladi. Chunki Alloh taolo o'z dushmanlarining razilona istaklarini ham ularning oxiratdagi uqubatlari uchun bu dunyoda darajama-daraja amalga oshirishlariga imkon beradi.

**Xulosa va takliflar.** Anglashiladiki, karomat Allohning taqvo va ibodatda qoim bo'lgan, o'zini dunyoning o'tkinchi havas va nafslaridan yiroq tutgan, ruhiy va ma'naviy kamolotga erishgan yaqin do'stlariga yuborgan ehsoni. Karomat ato etilgan ollohning do'sti esa, shubhasiz, valoyatga erishgan valiylardir. Chunki valiylarning ilk belgisi karomatdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Muhammad Sodiq, Muhammad Yusuf. Aqidatut tahoviya sharhining talhiysi. – T.: Hilol, 2021.
2. Nasafiy A.M. Tabsiratul adilla. 3-jild. – T.: Movarounnahr, 2018.
3. Navoiy, A. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 10-jild. – T., 2013.
4. Palvanov U. Sa‘duddin Taftazoniy va uning “Sharh al-aqoid an-Nasafiya” asari. – T.: Islom universiteti, 2015.
5. Rahmatulloh R. Masnaviyi ma‘naviy. 1- kitob, 3-4-juz. - T.: Hilol, 2021.
6. Sirojiddinov Sh, Davlatov O, Yusupova D. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2019.

**ADABIYOTSHUNOSLIKDA PAHLAVONQULI RAVNAQ  
IJODINING O‘RGANILISHI**

**Mohidil USMONOVA,**  
QarDU, Filologiya fakulteti talabasi.  
[mohidilusmonova365@gmail.com](mailto:mohidilusmonova365@gmail.com)  
УДК 87:8-14(045)

**Annotatsiya:** O‘zbek mumtoz adabiyotining atoqli vakili Pahlavonquli Ravnaq Xorazm adabiy muhitining zabardast vakillaridan biri. Zullisonayn shoir sifatida o‘zbek va fors-tojik tillarida yaratilgan g‘azal, muxammas, mustazod, qasida kabi lirik janrlarda barakali ijod qildi. Lirik asarlarini to‘plab devon tuzgan. Biroq mustaqillikka qadar yaratilgan ilmiy adabiyotlarda shoir hayoti va adabiy merosi nisbatan kam o‘rganilgan. She‘rlarining mavzu ko‘lami, janriy tasnifi va badiiy xususiyatlari bir yoqlama tahlil qilingan. Maqola Ravnaq ijodining o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi masalasi tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda o‘zbek adabiyotshunoslarining shoir hayoti va ijodi to‘g‘risidagi tadqiqotlari tahlil qilindi. Maqolalardagi bahstlab masalalarga munosabat bildirildi. She‘rlarining matni O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondidagi №922/I raqamli nusxasida kelgan o‘zbekcha g‘azallari qiyosiy manbashunoslik asosida o‘rganildi. Lirik asarlar matnining qo‘lyozma va nashrlardagi variantlari o‘rtasida kuzatilgan tafovutlar asosida tadqiq qilindi. Aniqlangan matniy farqlar to‘g‘risida atroflicha ilmiy xulosalar bayon qilindi. Ilmiy adabiyotlardagi shoir ijodiga oid ma‘lumotlar adabiyotshunoslikning so‘nggi yutuqlariga tayanib tahlil qilindi. Maqolalardagi Ravnaq hayoti va ijodi bilan bog‘liq munozarali mulohazalarga munosabat bildirildi.

**Kalit so‘zlar:** adabiy muhit, g‘azal, bayoz, ta‘rix, tadqiq va talqin.

**ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА ПАХЛАВОНКУЛИ РАВНАКА  
В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ**

**Аннотация:** Выдающийся представитель узбекской классической литературы Пахлавонкули Равнак - один из самых ярких представителей литературной среды Хорезма. Как поэт он проявил себя в таких лирических жанрах, как газель, касыда, созданных на узбекском и персидско-таджикском языках. Однако в научной литературе, созданной до обретения независимости, жизнь и литературное наследие поэта изучены сравнительно мало. Предметный размах, жанровая классификация и художественные особенности его стихов подвергнуты одностороннему анализу. Статья посвящена исследованию вопроса изучения творчества Равнака в узбекском литературоведении. В ней были проанализированы исследования узбекских литературоведов о жизни и творчестве поэта. Текст его стихов был изучен на основе сравнительного источниковедения узбекских газелей, поступивших в Фонд рукописей Института востоковедения Академии наук Узбекистана №922/І. Лирические произведения были исследованы на основе наблюдаемых различий между вариантами их текста в рукописях и публикациях. Были сделаны подробные научные выводы об обнаруженных текстовых различиях. Информация о творчестве поэта в научной литературе анализировалась с опорой на последние достижения литературоведения. В статье были даны ответы на спорные вопросы, связанные с жизнью и творчеством поэта.

**Ключевые слова:** литературная среда, газель, образование, исследования и интерпретация.

**Kirish.** O‘zbek mumtoz adabiyotida o‘ziga xos estetik hodisa hisoblangan Xorazm adabiy muhitining zabardast vakillaridan biri Pahlavonquli Ravnaqdir. Shoir hayoti va ijodiy merosi sho‘ro davri adabiyotshunosligida V. Abdullayev, O.Rasulova singari olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. She‘rlari tahlilga tortilgan, hayotiy faoliyati tadqiq qilingan. Biroq mumtoz ijodkorlarimiz hayoti va adabiy merosi qaytadan tadqiq qilinayotgan bugungi davrda ham Ravnaq ijodini adabiyotshunosligimizning so‘nggi yutuqlari asosida qayta o‘rganish zaruriyati borligi ayon bo‘lmoqda. Negaki, mustaqillikdan avval yaratilgan tadqiqotlarda olimlarimiz mumtoz adabiyotimiz namoyandalari merosini hukmron mafkura tazyiqi bilan imkoniyatlari darajasida o‘rganishgani sir emas. Shu ma‘noda, Pahlavonquli Ravnaq merosini ham qaytadan o‘rganish lozim deb hisoblaymiz.

Shermuhhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy, Ahmad Tabibiy, Komil Xorazmiy kabi ijodkorlar bilan bir qatorda Pahlavonquli Ravnaq ham Xorazm adabiy muhitida o‘ziga xos o‘ringa ega.

**Adabiyotlar tahlili.** Ravnaq hayoti va ijodi to‘g‘risida u qadar ko‘p manba saqlanib qolmagan.

Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari to‘g‘risida qimmatli manbalarni yozib qoldirgan Hasanmurod Laffasiy o‘zining “Tazkirai shuaro” nomli tazkirasida “*Ravnaqiy Xiva shoirlaridan biri bo‘lib, u haqda ma‘lumot topilmadi*”, deb yozadi[3:16].

Boshqa ilmiy manbalarda yakdil qayd etilishicha, Pahlavonquli Ravnaq 1725-yilda Xorazmda tavallud topgan. Maxtumquli, Ajiniyoz singari so‘z ustalari qatorida “Sherg‘ozixon” madrasasida tahsil olgan. Shoir, asosan, g‘azal, muxammas, qasida va mustazod kabi lirik janrlarda ijod qilgan. Uning ijodiga o‘z davridan boshlab jiddiy e‘tibor qaratilgan. Jumladan, Shermuhhammad Munis o‘zining “Firdavs ul-iqbol” asarining ikki o‘rnida Ravnaq haqida to‘xtalib, uning qalamiga mansub baytlardan misollar keltiradi:

1) Temurg‘ozixon ibn Muhammad Rahim sultonga bag‘ishlangan qismida quyidagi satrlarni keltirib o‘tadi: “Va Bichan yili Muhammadamin *mehtar* bila xon orasida ba‘zi umuri mulkiy jihatdin vahshat tushti. Bu sababdin aning buyruqi bila Safar dasturxonchi va Abdusattor boy xonni o‘ldirdilar. Aning (Temurg‘ozixonning – M.U) favtig‘a mavlono Pahlavonquli Ravnaq ta‘rix aytibdurkim. **Ta‘rix:**

*Shoh Temurg‘ozi jahondin borg‘ach,  
Bo‘ldi ta‘rix anga “xurshid janob” [4:106-107]*

Ko‘rinib turibdiki, bu o‘rinda shoir Xiva xoni Temurg‘ozixonning vafot yilini nazarda tutuvchi ta‘rixda “xurshid janob” (خورشید جناب) so‘zlarini moddayi ta‘rix sifatida keltiradi. Abjad hisobi bo‘yicha undagi harflar yig‘indisi 1177 ni tashkil etadi. Bu esa hijriy sanani ifodalaydi. Uni milodiyga aylantirsak, 1763–1764-yillar, ya‘ni Temurg‘ozixonning vafoti sanasiga to‘g‘ri keladi.

Asarda keltirilgan ikkinchi ma‘lumot:

2) Jonmurod inoq va Bobobekning uchinchi marotaba Buxorodan Xivaga kelganligi va Muhammadamin inoq bilan ular o‘rtasidagi ziddiyatlar haqida bayon etar ekan, Munis yana bir karra Ravnaqni eslab o‘tadi:

“Bir necha kundan so‘ng Bobo bekkim, moddai fasod va xamirmoyayi inod erdi, *takadin* Zamonbek va *solur*din Otqiron Bahodirni yuz kishi bila o‘z inisi Abdurahmon bekning mulozimatida Jonmurod *inoq*‘a madad uchun yubordi. Mavlono Pahlavonquli Ravnaq bu bobda taarruz (tegajog‘lik) yuzidin bu baytni aytib yubordi. **Bayt:**

*Qo‘rqutma mani Sorito-yu, Butu Buroqingdin,  
K...g‘a ne g‘am Otqironu Angg‘iloqingdin.*

Ma‘lum bo‘lsinkim “Angg‘iloq”din iborat Zamonbekdir” [4:155].

Yuqoridagi misrada “K...” misrada deb Ravnaq erlik, erkaklik, mardlikni nazarda tutgan. Munisning ta‘kidlashicha, Jonmurod *inoq*ning do‘sti va hammaslagi bo‘lgan qozi

Muhammadniyoz Nishotiy Ravnaqning ushbu baytiga javob yozgan. “Va qozi Muhammadniyoz Nishotiykim, Jonmurod inoqning anis va jalisi erdi, bu baytni aning javobida aytib yubordi. **Bayt:**

*Qo‘rqutma mani Boynazaru, Bekpo‘lotingdin,  
K...g‘a ne g‘am turkmanu, chovdiru, sholotingdin”. [4:155-156]*

“Firdavs ul-iqbol”dagi ushbu ma’lumotlarga tayangan holda aytish mumkinki, Ravnaq xonlikdagi hech bir siyosiy voqelikka befarq bo‘lmagan va hamisha ularga ijodiy munosabat bildirgan. Qolaversa, mazkur ma’lumotlar shoirning yana bir ijodkor Muhammadniyoz Nishotiy bilan baqamti ijod qilganini dalillashi bilan ahamiyatli.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar akademik V. Abdullayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida ham keltirib o‘tilgan bo‘lsa-da, ularda ayrim chalkashliklar kuzatiladi. Masalan, olim Temurg‘oziyxonning vafot sanasini “Firdavs ul-iqbol”dagi ta’rix yechimida hijriy “1176-yil” deb ko‘rsatadi [1:174]. Shunga qaramay, olimning Ravnaq to‘g‘risida keltirgan ma’lumotlari keyingi tadqiqotlar uchun qimmatli ahamiyat kasb etadi. Xususan, Ravnaq hayoti va ijodini tadqiq qilishga xizmat qiladigan manbalarni tasniflab ko‘rsatishi, shoir she‘rlarining yaratilishida Alisher Navoiy, Lutfiy, Muhammad Fuzuliy, Boborahim Mashrab, Davlatmamed Ozodiy singari sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodining adabiy ta’siri masalasida ilmiy asoslangan mulohazalari shular jumlasidandir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda soha bo‘yicha dunyo olimlari erishgan ilmiy yutuqlarni o‘zbek adabiyotshunosligi va matnshunosligiga tatbiq etish dolzarb vazifalardandir. Tadqiqotni yozishda adabiy merosni o‘rganishda sinalgan, katta samara berib kelayotgan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Garchi Ravnaq shaxsiyati bilan bog‘liq bir qator masalalar ochiq bo‘lsa-da, uning ijodiga bir qancha olimlar tomonidan munosabat bildirilgan. Bu borada Vohid Abdullayevning ishlari e’tiborga loyiq. Olim o‘zining “XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o‘zbek adabiyoti” nomli doktorlik dissertatsiyasida Ravnaq ijodiga ham to‘xtalib, bir qancha g‘azallaridan namunalar keltirib, ularni mazmuniy va poetik jihatdan sharhlab beradi. Xususan, olimning quyidagi fikrlari e’tiborga molik: “Pahlavonquli Ravnaq XVIII asrda yetishgan atoqli so‘z san’atkorlaridan biridir. Uning ijodiyoti Andalib, Roqim, Nishotiy, Muhammad Xoksor kabi peshqadam zamondoshlarining ijodi bilan jo‘r va hamohangdir. ....u zamondoshlari va keyingi davrda o‘tgan bir qator adabiyot ahllarining ijodiyotiga samarali ta’sir etdi” [1:174].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashrga tayyorlangan “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh tomligining 3-tomida Ravnaq hayoti va ijodi to‘g‘risida ilmiy izlanishlar olib borgan O. Rasulovning “Pahlavonquli Ravnaq” sarlavhali maqolasi ham bugunga qadar ayni mavzuda yaratilgan tadqiqotlarning salmoqlisi bo‘lib turibdi. Unda olim Ravnaq hayoti va adabiy merosi, lirikasining janr xususiyatlari, she‘riyatining mavzu ko‘lami va g‘oyaviy motivlari, poetik xususiyatlari to‘g‘risida atroflicha ilmiy mulohaza yuritgan [6:262-285].

Xorazm ijodkorlari tadqiqotchisi Yunus Yusupov (Ayyomiy)ning ushbu adabiy muhitida faoliyat yuritgan shoirlar ijodiga bag‘ishlangan “O‘t chaqnagan satrlar” nomli kitobida ham biz Ravnaq to‘g‘risidagi ayrim ma’lumotlarga duch kelishimiz mumkin. Xususan, Ayyomiy Ravnaq yashagan davrda Xorazmda Kiromiy boshchiligidagi Navoiy maktabi mavjudligini hamda Ravnaqning ushbu maktab peshqadam shoirlaridan biri bo‘lganligini ta’kidlaydi [5:45]. Shuningdek, asarda keltiriladiki: “Mazkur adabiy muhitning ijodiy mahsuli o‘laroq qator devonlar, bayozlar yuzaga keldi. Kiromiy, Nishotiy, Ravnaq, Roqim, Fig‘oniy va Saidolarning she‘rlaridan tarkib topgan juda katta hajmdagi “Majmuayi ash‘or” yaratildi” [5:25]. Ayyomiy ta’kidlagan ushbu bayoz Ravnaq ijodini o‘rganish bo‘yicha muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Ravnaq ijodi xorijiy tadqiqotchilarning ham e’tiborini tortgan. Jumladan, sharqshunos olim Herman Vamberi o‘zining “Очерки Средней Азии” asarida Alisher Navoiy, So‘fi Olloyor, Boborahim Mashrab, Muhammad Fuzuliy singari ijodkorlar qatorida Ravnaqni ham tilga oladi [2:337-338]. Vamberi Ravnaq qalamiga mansub g‘azallardan birining sharhini keltiradi. Asarning rus tilidagi nashrida keltirilgan sharhdan ma’lum bo‘lishicha, “Ohista-ohista” radifli g‘azal deb taxmin qilish mumkin. Negaki, sharh mazmuni shunday xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Ikkinchidan, “Ohista-ohista” radifli g‘azallar Xorazm adabiy muhiti ijodkorlarining deyarli

barchasida uchraydi. Shoir lirik asarlari borasidagi izlanishlarimizda ushbu gʻazal matni toʻgʻrisida toʻxtalib oʻtamiz, albatta.

Lola Azimova “Oʻzbek mumtoz lirikasida diniy gʻoyalar talqini” nomli maqolasida Nishotiy, Turdi Farogʻiy, Pahlavonquli Ravnaq ijodida ilohiy muhabbat koʻproq dunyoviylik, reallik kasb etishini, yaʼni insonga muhabbat orqali ilohiy ishqqa qarab borilishini aytadi [10]. Bu fikr bir jihatdan toʻgʻri, chunki Ravnaq sheʼrlarida ham Navoiyga ergashish kuzatiladi. Uning Navoiy bir nechta gʻazaliga bogʻlagan muxammaslarida ham buni koʻrish mumkin. Xususan, Navoiyning “Oʻn sekiz ming olam oshubi agar boshindadur”, “Gar jafo qil, gar vafo kim, dilsitonim sen mening” misralari bilan boshlanuvchi gʻazallariga Ravnaq bogʻlagan taxmislar alohida eʼtiborga molik [7]. Shuningdek, “Devoni Ravnaq”dagi koʻpchilik gʻazallarining tub negizida tasavvufiy gʻoyalar, irfoniylar tushunchalar oʻz ifodasini topgan. Ayniqsa, shoir lirikasidagi hamd va naʼt gʻazallarda bu jihatlar yaqqol koʻzga tashlanadi. Boshqa tomondan qaraganda, Ravnaq lirikasida zamon nafasi, ijtimoiy hayot va davr voqeliklari yaqqol aks etib turadi. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, Ravnaq sheʼriyati mavzu va gʻoya jihatdan rang-barangdir.

**Xulosa va takliflar.** Mustaqillikdan soʻng Ravnaq ijodini oʻrganish boʻyicha deyarli ilmiy ishlar, izlanishlar amalga oshmadi. Shoiring “Devon”i oʻz tadqiqotchilarini kutmoqda. Ilmiy adabiyotlarda Ravnaqning taxminan turli lirik janrlarda 286 ta sheʼr yozgani maʼlum. Biroq, afsuski, ulardan 10-15 tasigina keng oʻquvchilarga havola etilgan. Aynan mana shu kam sonli sheʼrlaridan ham Ravnaq sheʼriyatining kamolotini sezish mumkin. Pahlavonquli Ravnaq devonidan oʻrin olgan lirik asarlarning barchasini tabdil qilish, ularni ilmiy tahlilga tortish va mumtoz adabiyotimiz ixlosmandlari hukmiga havola etish adabiyotshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biri deb hisoblaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev V. Oʻzbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – Toshkent, 1967. 384 b.
2. Вамбери А. Очерки Средней Азии. – Москва: Типография А.И. Мамонтова и К Большая Дмитровка, 1868. 384 стр.
3. Laffasiy. Tazkirai shuaro. – Urganch: Xorazm, 1992. 120 b.
4. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. 520 b.
5. Yusupov Y. (Ayyomiy). Oʻt chaqnagan satrlar. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1963. 184 b.
6. Oʻzbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1978. 380 b.
7. Oʻzbek sheʼriyati antologiyasi, 5 tomlik, 3-tom. – Toshkent: Oʻzadabiynashr, 1961.
8. Oʻzbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. Tuzuvchi: O.Sharafuddinov. II tomlik, II tom, – Toshkent, 1945.
9. <https://ziyouz.uz/ozbek-she'riyati/ozbek-mumtoz-she'riyati/ravnaq/>
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-mumtoz-lirikasida-diniy-g-oyalar-talqini-XVII-XVIII-asr/viewer>

#### QOʻRGʻON DOSTONCHILIK MAKTABI VA ERGASH SHOIRNING BADIY-ESTETIK QARASHLARI

**Ochilov N.K.**

Qarshi davlat universiteti dotsenti, f.f.d (DSc)

[nasim.ochilov@mail.ru](mailto:nasim.ochilov@mail.ru),

ORCID: 0009-0005-6540-6567

УДК: 39(575.1) 08

**Annotatsiya:** maqolada oʻzbek xalq dostonchilik maktablari, ularning oʻziga xosligi, ijro xususiyati, doimiy aloqalari, baxshi tayyorlash anʼanasi, ustoz-shogirdlik munosabati, baxshi-shoirlarning badiiy-estetik qarashlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Umumoʻzbek baxshichilik maktablari qadimiy asosiga, ijro xususiyatlaridagi umumiy jihatlarga ega boʻlsa-da, ularni bir-biridan ajratib turuvchi usul va yoʻllariga ham egaligi Qoʻrgʻon dostonchilik maktabi va uning talantli baxshisi Ergash Jumanbulbul oʻgʻli badiiy-estetik qarashlari asosida koʻrsatib berildi. Xalq dostonchilarining zamondosh va shogirdlariga, soz va soʻzga, epik repertuarga,

ijrochi va tinglovchiga, doston voqealariga, epik an'anaga bo'lgan munosabati ularning badiiy-estetik qarashlarini anglatadi. Qo'rg'on dostonchilik maktabi baxshilari repertuari va epik dunyoqarashida muhim o'rin tutgan dostonchilik an'alarini yuksak maqomda saqlash, doston syujet va kompozitsiyasining yaxlit bo'lishi, har bir motivning epik mantiq talablariga uyg'un kelish holatlariga doir qarashlari Ergash shoirning terma va dostonlari misolida ko'rsatib berildi.

**Kalit so'zlar:** dostonchilik maktabi, baxshi, ustoz-shogird, an'ana, doston, epik ijro, epik muhit, badiiy-estetik qarash.

#### THE ARTISTIC AND AESTHETIC VIEWS OF THE KURGON EPIC SCHOOL AND THE FOLLOWING POET

**Abstract:** The article analyzes the Uzbek folk epic schools, their uniqueness, performance features, permanent connections, tradition of preparing bakhshi, teacher-student relationship, artistic and aesthetic views of bakhshi-poets on a scientific and theoretical basis. Although all-Uzbek schools of bakhshiki have an ancient basis and common features of performance, they also have methods and ways that distinguish them from each other. It was shown on the basis of artistic and aesthetic views. The attitude of folk epic writers to their contemporaries and students, to music and words, to the epic repertoire, to the performer and the listener, to the events of the epic, to the epic tradition represents their artistic and aesthetic views. The views of the Ergash poet on the preservation of epic traditions, which have an important place in the repertoire and epic outlook of the Kurgan school of epics, the integrity of the epic plot and composition, and the compatibility of each motif with the requirements of epic logic and it was shown on the example of epics.

**Key words:** epic school, bakhshi, master-disciple, tradition, epic, epic performance, epic environment, artistic-aesthetic vision.

**Kirish.** Epik ijodiyotda dostonchilik maktablarining o'rni katta bo'lib, ularga xos an'anaviy ijro usullari va doston kuylari baxshi-shoirlar mahorati orqali yetib kelgan. Doston ijro etish va u bilan bog'liq xususiyatlar ko'pchilik xalqlar ijodiyotida mavjud bo'lsa-da, ular ijroning umumiy jihatidan o'xshashliklarga ega. Dostonchilik maktablari o'rtasidagi farqli xususiyatlar, asosan, ijro yo'llari va usullarida ko'rinadi. Mana shunday farqli tomonlarni inobatga olib, olimlar "dostonchilik maktabi" atamasini qo'llaydilar. Dostonchilik maktabining o'ziga xosligi va ijro xususiyatlari borasida bir qator nazariy qarashlar mavjud. Jumladan, A. Lord, V. Chicherov, B. Putilov, K. Rayxl, V. Jirmunskiy, A. Novikov, H. Zarifov, T. Mirzayev va boshqa ko'plab olimlarning tadqiqotlarida poetik maktab va uning ijro yo'llari, epik ijrochining barqaror an'analarda davom etgan ustoz-shogirdlik munosabatlari, doston aytish usullari va ijro san'atining umumiy hamda xususiyligi ilmiy-nazariy qarashlarda ko'rsatib o'tilgan [1].

Demak, dostonlarning ma'lum bir poetik guruhlar doirasida yaratilishi va ijro etilishi dostonchilik maktablarini yuzaga keltirgan hamda ularning shu maktab doirasida ustoz-shogird munosabatlarini shakllantirgan. Dostonchilik maktablarining ma'lum geografik joylarga nisbatan bog'lanishi o'sha hududlarda qachonlardir bir ijoddoshlik asosida doston ijro etishning takomillashganligi, qolaversa, iqtidorli ustoz baxshilarning faoliyat yuritgani va shogirdlarning ushbu san'at turini o'rganishi hamda davom ettirganligidandir. Dostonchilik maktablari haqida fikr yuritganda ma'lum hududning shartli asosda poetik markazga bog'lanishi, qolaversa, o'sha hududda baxshilar ijrosining shakllanishi va epik repertuarining takomillashib borishi bilan bog'liq holatlardan hisoblanadi. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha respublikamizda biror baxshi nomi bilan bog'liq dostonchilik maktablari bugungi kunda mavjud emas. Turkiy xalqlar dostonchilik maktablarining nomlanishi borasida fikr yuritgan Selami Fidakor Qoraqalpoq va Turkiyada ijrochilar nomi bilan bog'liq maktablar mavjudligini qayd etadi. "Ma'lum bir mashhur baxshining nomiga bog'liq holda doston maktablariga nom berish Qoraqalpog'iston va Turkiya hududidagi dostonchilarga xos an'anadir" [2].

Tadqiqotchining fikri bir tomondan o'rinli, albatta. Ammo dostonchilik an'alarining paydo bo'lishi, taraqqiyoti turli davrlarda mavjud bo'lganligi, qolaversa, har bir hududda ham iste'dodli ijrochilarning yetishib chiqqani, ular an'anaviy ta'lim berish asosida shogirdlarni tarbiyalab yetishtirgani shu hudud baxshichilik san'atini ustoz baxshi nomi bilan bog'lashiga sabab bo'lgan. Talantli baxshilarning doston ijro etishdagi o'ziga xosliklari, individual ijro bilan bog'liq mahoratlari mavjud bo'lsa-da, ular barqaror an'alar asosida yuzaga kelganligi ma'lum.



Shulardan kelib chiqqan holda epik ijroning tarqalish jarayoni turli hududlarda turlicha kechib, u ijtimoiy-maishiy hayot zarurati asosida yo rivojlanib, yo so'nib boraveradi. Dostonchilik maktablari esa ma'lum hudud nomlari bilan bog'liq bo'lib, ushbu atama folklorshunosligimizda H.Zarifov tomonidan olib kirilgan. "G'oyaviy yo'nalish va sinfiy mansubiyatda bir bo'lgan bu shoirlar repertuarlari, poetik priyomlari, ijro usullari jihatidan bir-biridan farq qiladilar. Xalq baxshilarining o'zlariga xos poetik yo'llar bilan bir-biridan ajralishlarini men fanda dostonchilik maktablari deb ataganman" [3].

T. Mirzayev dostonchilik maktablariga xos xususiyatlar "...umumlashgan puxta epik an'ana doirasida ma'lum baxshi yoki baxshilar guruhiga xos individual ijodiy xususiyatlar, yo'llar, uslublar o'zgachaligi, ustoz-shogirdlik munosabatlari mavjud" [4] bo'lganligi, ularning farqli va o'xshash jihatlari mana shunday tomonlarda ko'rinishi borasida fikr-mulohazalarini bildiradi. Dostonchilik maktablari umumiy nomda yuritilishidan qat'iy nazar, har bir hududning o'ziga xos ijro xususiyatlari mavjud. Bu kabi holatlarni biz Qo'rg'on dostonchilik maktabi an'alarida Ergash shoirning o'rni va badiiy-estetik qarshlari misolida ko'rib chiqsak.

Tadqiqot metodologiyasi. Xalqimizning bebaho ma'naviy boyligi hisoblanmish folklor namunalari orasida xalq dostonlari alohida o'rin tutadi. Doston kuylash, ya'ni baxshichilik san'ati esa o'zining qadimiy ildizlariga ega. Bu san'at ustozdan shogirdga, avloddan avlodga bevosita jonli ijro orqali o'tadi. Folklorshunoslarimizning XX asr davomida olib borgan ilmiy kuzatishlari respublikamizda bir qator dostonchilik markazlari mavjud bo'lganligini ko'rsatdi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo dostonchilik maktablari buning yorqin misolidir. Dostonchilik an'analari o'zbek folklorida so'z san'atining eng qadimiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, juda yuksak darajada rivojlangan, asrlar davomida xalqning badiiy-estetik ehtiyojlarini qondirib kelgan. Garchi har bir hudud dostonchilik an'alarining o'ziga xos ijro usuli, yo'llari bo'lsa-da, ularni ajratib turuvchi xususiyatlar ham mavjud. Ayniqsa, bu o'rinda Samarqand viloyatiga qarashli Qo'rg'on, Bulung'ur va Narpay dostonchilik maktablarining o'ziga xos o'rni bor. Qo'rg'on dostonchilik maktabi an'analari va ularning ustoz-shogird, doston ijro etish usuliga xos xususiyatlar, badiiy-estetik qarashlari Ergash shoir Jumanbulbul o'g'li repertuarida ko'zga tashlanadi. Qo'rg'on dostonchilik maktabi va baxshilari ijro repertuari borasida ba'zi tadqiqotlar mavjud[5]. Ammo ularda Qo'rg'on dostonchilik an'analari tizimli asosda tadqiqot obyekti bo'lmagan. Shulardan kelib chiqqan holda, Qo'rg'on dostonchilik maktabi, baxshilar repertuari, ijro uslubi va badiiy-estetik qarashlari borasida fikr yuritsak. Tadqiqotning metodologiyasini yuqorida ko'rsatilgan ustoz folklorshunoslarning nazariy qarashlari, tadqiq usullari tashkil etadi.

**Natijalar va muhokama.** Xalq dostonchilarining ustoz va salaflari, zamondosh va shogirdlariga munosabati, soz va so'zga, epik repertuarga qarashi, u yoki bu variantning ayrim epizod va motivlar talqiniga nisbatan tasdiq yoki inkori, tinglovchi va yozib oluvchilarga nisbatan do'stona munosabatlari ifodasi ularning badiiy-estetik qarashlarini ifodalaydi [6]. Garchi ijodkor va epik ijro jarayoniga xos badiiy-estetik qarashlar umumiy tarzda qayd etilgan bo'lsa-da, epik ijodga bo'lgan estetik qarashlar ijodiy jarayonda davom etadi va baxshi-shoirlar ushbu holatga alohida e'tibor qaratganlar. "Baxshining ustoz, repertuari, asar kuylayotgan yoxud yozilayotgan paytdagi kayfiyati haqida folklorshunoslar va folklor to'plovchilarto'g'risida kuylanayotgan yoxud yozib olinayotgan asarlar matni orasidagi qistirmalar-chekinishlar deyarli barcha baxshi shoirlarda uchraydi. Ergash shoir esa ularning barchasidan farq qilib, bu boradagi mulohazalarini nihoyatda kengaytirdi, uning repertuari va ijodiga butunisicha nazar tashlasak, u dostonlar va dostonchilikni xalqqa xos estetik ravishda baholovchi xalq donishmandi sifatida maydonga chiqadi" [7]. Demak, baxshi va uning auditoriyasi, soz va so'zga, repertuar yaxlitligi, epik muhitga munosabati badiiy-estetik dunyoqarash uyg'unligida anglashiladi. Bunday ijodiy jarayon esa dostonchilik an'analari doirasida davomiyligini saqlaydi. An'ana va an'anaviylik folklor ijodkorligining asosiy belgilaridan hisoblansa-da, an'anaga nisbatan bir taraflama qarashlar mavjud. An'ana yoxud an'anaviylik faqatgina ijrochi va u o'zlashtirgan asarning yaxlit bir tizimi bo'lmasdan, epik muhit va tinglovchi bilimi nuqtayi nazaridan ham baholanishi lozim. Buni Qo'rg'on dostonchilik maktabi va Ergash shoir estetik qarashlari misolida ko'rish mumkin.

Badiiy-estetik qarash dastlab baxshilar ijrosi va ijodkorligining bosh mezonini hisoblanib,

uning dastlabki ko‘rinishi so‘z va uning mohiyatini anglash, unga amal qilishni dildan his etish deb hisoblaganlar. So‘z qadriga nisbatan e‘tiborsizlik baxshilar nazdida maqbul ish emasligi alohida ta‘kidlangan. Ergash shoir ushbu masalaga alohida urg‘u qaratgan:

So‘z degan bir qimmatbaho gavhardir,  
So‘zni farq qilmagan do‘stlar, bekordir.

Demak, shoirlikni, dostonchilikni yuksak maqomda saqlash, badiiylik mezonlariga e‘tibor qaratishni baxshichilik san‘atidagi muhim omillardan ekanligini ta‘kidlaydi. Shuning uchun ham “Ergash shoirdan yozib olingan yoki o‘zi yozib bergan asarlaridagi har bir so‘z, har bir ramz va izohga alohida e‘tibor berish zarur. Bu zakovatli inson badiiy so‘zni juda yuksak darajada qadrlagan. Aytayotgan so‘zini hech mahal yelga bermagan, shamolga uchirib yubormagan. So‘z va soz, suxan haqidagi qarashlariga doir maxsus termalar yaratish bilan birga ularni o‘rni-o‘rni bilan dostonlarning qat-qatiga ham singdirib yuborgan” [7]ligini T.Mirzayev alohida ko‘rsatib o‘tadi.

Epik ijodda an‘ana va badihago‘ylik muhim o‘rin tutishi dostonchilikning yetakchi omili hisoblanadi. Qo‘rg‘on dostonchilari tadqiqotchilar e‘tirof etganidek, “dostonlarni suluv” qilib aytishga alohida e‘tibor qaratganlar. Ayniqsa, baxshilar doston syujeti va kompozitsiyasining yaxlit bo‘lishi, har bir motivning epik mantiq talablariga mos kelishi, qahramonlar, ularning nomini ulug‘lash, badiiy qiymatiga bo‘lgan o‘lchovlari ijodiy jarayonlarining bosh mezonini hisoblangan. Bu o‘rinda Qo‘rg‘on baxshilarining ustozlar an‘anasi, ularning hayoti, epik ijroga bo‘lgan munosabati, shoirlik mas‘uliyati, odob-axloqi, fazilatlar borasidagi qarashlarini ham alohida ta‘kidlab o‘tish joizdir. Qo‘rg‘on dostonchilari repertuarida “Go‘ro‘g‘li” dostonlari bilan bir qatorda “Kuntug‘mish” alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, ushbu dostonni Ergash shoir maroq bilan kuylaganligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan ham e‘tirof etiladi. Dostonda Xolbekaning farzandlaridan ayrilish arafasidagi ruhiy holati, vaziyati baxshi tomonidan shunday tasvirga tortilgan:

...Erta bilan uyqusidan turgan yo‘q,  
Hali och-da, oq sutimga to‘ygan yo‘q,  
Ikki nodon begunohga rahm ayla,  
Yangi turdi, nodonlarim emgan yo‘q.  
O‘zi nodon, alvon-alvon do‘ngan yo‘q,  
Hali bular yetimlikka ko‘ngan yo‘q.  
Qancha edi norastamning gunohi,  
Qorni ochdir, erta bilan emgan yo‘q [9].

Baxshi farzandlaridan ayrilayotgan, hadsiz zulmga duchor bo‘lgan onaning ruhiy iztirobini badiiy yuksak tarzda bera olgan. Doston voqealaridagi ruhiy tasvir jarayonlari u kuylagan ko‘plab namunalar kabi “Ravshan”da ham ko‘zga tashlanadi. Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi, ayniqsa, Ergash shoir ijrosidagi ifoda usullarida ham badiiylik mezonlari ko‘zga tashlanadi. Shoir ijrosidagi yetakchi usullardan biri she‘riy ifodalarni to‘rtlik shaklda berishdir. To‘rtlik shakl qahramonlar ruhiyatida kechayotgan holatlarni tasvirlashda rang-baranglik ifoda etib, ohang yo‘larida ravonlikni yuzaga chiqaradi. Demak, Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi baxshilarining ijro yo‘li, badiiy-estetik qarashlari ular ijro etgan har bir doston voqealari, qahramonlar ruhiyati, obrazlar olami va ijodiy jarayonga bo‘lgan an‘analar tizimida shakllanib, ular alohida tadqiqotlarni talab etadi.

**Xulosa va takliflar.** Baxshichilik san‘atida ustoz va shogird, baxshi shaxsi va uning doston ijrosi, an‘ana va badiha, epik qahramon tushunchasi, jamoa va individual ijod, so‘z va sozning badiiy ta‘sir kuchiga e‘tibor kabi masalalarni Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi baxshilari repertuari misolida qiyosiy o‘rganish umumo‘zbek baxshichilik san‘atiga xos badiiy-estetik ijro xususiyatlarini tadqiq etish masalalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лорд А. Сказитель. – М.: Восточная литература, 1994; Чичеров В.И. Школа сказителей Заонежья. – М, 1982; Путилов Б. Эпическое сказительство. – М.: Восточная

литература, 1997; Новиков Ю.А. Сказитель и билинная традиция. -СПб, 2000; Райхл К. Тюркский эпос: традиция, формы, поэтическая структура. -М.: Восточная литература, 2008; Zarifov H. Fozil shoir-mashhur dostonchi // Fozil shoir. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 3-kitob. -Toshkent: Fan, 1974; Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. -Toshkent: Fan, 1979.

2. Fidakar Selami. O'zbek dostonchilik an'anasida va boshqa turkiy xalqlar dostonchilik maktablarida nomlash va tasnif // "Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi" mavzusidagi xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent, 2009. - B.40.

3. Zarifov H. Fozil shoir - mashhur dostonchi // Fozil shoir. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 3- kitob. - Toshkent, 1976. - B.9.

4. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. - Toshkent: Fan, 1979. - B.39.

5. Жимрунский В.М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. - М., 1947; Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. -Toshkent: Fan, 1979; Qo'shmoqov M. Baxshilar xazinasi. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981.

6. Qahhorova Sh. Epik an'ana va "Ollonazar Olchinbek" dostoni. - Toshkent: Muharrir, 2010. -B.18.

7. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. -Toshkent: Fan, 1979. -B.42.

8. Mirzayev T. Hodi Zarif suhbatlari. -Toshkent, 2013. -B. 201.

9. Kuntug'mish. Doston. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li. Nashrga tayyorlovchi Hodi Zarif. - Toshkent: Sharq, 2011. - B.82

## JADIDCHILIK VA MILLIY ADABIYOT

**Gulnoza Ernazarova,**

Qarshi davlat universiteti

Filologiya fanlari doktori, professor

[ernazarovagulnoza818@gmail.com](mailto:ernazarovagulnoza818@gmail.com)

ORCID 0009-0004-4184-7221

UDK: 894.375(045)

**Annotatsiya.** Maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyodagi milliy ozodlik harakatining g'oyaviy yo'l boshchisi bo'lgan jadidchilik harakatining millat tafakkuri shakllanishidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Jadidchilik harakati tashkilotchilari va namoyandalari Turkiston, Turkiya va Rusiya musulmonlarining ziyolilari hamda adabiyot vakillari bo'lganligi sababli umumturkiy va milliy adabiyotlarda mazmunan islohotlar qilish, millat va adabiyot tushunchalarining bir-biriga mushtarak bo'lishiga intilish aynan shu davrda boshlandi.

Aslida turkiy xalqlar folklori va mumtoz adabiyotida ham millatparvarlik shuurining sodda ko'rinishlarini payqash mumkin. Milliyat (millatparvarlik) qarashlari Turkistonda millatning ruhi va ongini o'zgartirish, ma'rifiy kamolotga yetkazish, o'zligini tanitishni birlamchi vazifa deb bilgan ijodkorlarni o'z atrofiga birlashtirgan. Millatning uyg'onishi bilan ijtimoiy va siyosiy islohotlarning ro'y berishi muqarrar bo'lganligi sababli, jadidlar teatr va matbuot vositasida ilmsizlikka, feodal qoloqlikka qarshi kurashni kuchaytirdilar. O'tish davriga xos bo'lgan xarakterli jihatlardan biri ommaning ruhiy psixologik holati murakkablashib, depressiya va ruhiy taranglashuvning kuchayishidir. Bu davrda aynan san'at va badiiy adabiyot jamiyatni tushkunlik kayfiyatidan chiqarish hamda kelajakka ishonch uyg'otish vazifasini o'z zimmasiga olgan va sharaf bilan uddalagan. Chunki millatning o'zligini anglash jarayonida adabiyotning hamda san'atning boshqa sohalari o'rni beqiyosdir.

**Kalit so'zlar:** millat, milliyat, islomiyat, jadidchilik harakati, adabiyot, milliy tafakkur, jamiyat, siyosat, ilm va madaniyat, jadid teatri.

## ДЖАДИДИЗМ И НАЦИОНАЛЬНАЯ ЛИТЕРАТУРА

**Аннотация.** В статье размышляется о значении движения джадидизма, идеологического ориентира национально-освободительного движения в Центральной Азии конца 19-го - начала 20-го веков, в формировании национальной мысли. Поскольку



kirib bora oldi va “Adabiyotning o‘z nima?! U qanday bo‘lmog‘i lozim?!” degan savolni qo‘yib, “Uning vazifasi xalqni uyg‘otmoq, millatni birlashtirmoq” – degan g‘oyani ilgari surdi. “Adabiyoti o‘lmog‘i va adabiyotning taraqqiyosiga chalishmag‘on va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Muni inkor qilib bo‘lmas. Inkor qilg‘on millat o‘zini inqirozda ekanun bildirur” [5:35]. Cho‘lpon bu fikrlari bilan adabiyotning aynan o‘tish davrida millat hayotida tutgan o‘rnini ko‘rsatib beradi. Fitrat: “Adabiyot fikr-tuyg‘ularimizdagi to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordamida tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqinlarni yaratmoqdir” [6:22] – degan fikrlari bilan jadid adiblarining niyati adabiyot vositasi bilan o‘z “fikr” va “tuyg‘ularini” millat shuurida ham uyg‘otish ekanini qisqa qilib ifodalaydi. Savodi yo‘q xalq millatparvarlarning ozodlikka chorlovchi hayqirig‘ini eshitishi uchun adabiyotning bevosita muloqot o‘rnata oladigan poeziya va dramaturgiya janrlari yetakchi kuchga aylandi.

Turkistonning mustabid Chor Rusiyasi va bolsheviklar zulmi ostida ezilgan xalqini ma‘rifat va milliy ozodlik erishish bilan qullikdan qutqarish Hamza, Fitrat, Behbudiy, Avaz O‘tar, Avloniy, Sidqiy Ajziy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi yangi avlod zimmasiga tushdi. Ular adabiyotga yangi ruh, yangi mazmun kiritdilar. Adabiyotning mavzu doirasi kengaydi, mazmuni tamoman ijtimoiy dard bilan to‘yintirildi. Jadid she‘riyatida ma‘rifat mavzusi millatparvarlik g‘oyalari bilan birikib ketganini payqash qiyin emas, masalan Abdulla Avloniy “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” to‘plamidagi deyarli barcha she‘rlarida millat ahvoli, ma‘rifatsizligi, “fandan, ziroatdan, sanoatdan xabarsiz, besamar” ekanligidan kuyinadi va:

Yotursan tobakay g‘aflat quchog‘inda, uyon (uyg‘on) millat,

Jaholat jomasin ustingdan irg‘it, tur, zamon, millat,

deya uyg‘onishga chorlaydi. Hamza she‘riyatida esa millat manfaati mavzusi bir davriylik kasb etdi. Uning 1905-yildan 1915-yilga qadar yozgan she‘rlarida bosh mavzu darajasiga ko‘tarildi. U:

Esiz, esiz Turkiston, qani avvalgi holi?

Olamga ziyo bergan ul xurshidi iqboli?

Abri g‘aflat qurshadi, tun bo‘ldi istiqboli,

Xor bo‘lsa millatimiz, tutmasmikan uvoli. [8:58]

misralarida Turkistonning, millatining najot yo‘lini izlaydi. Mazlumsevar shoir Avaz O‘tar ijodida yurt qayg‘ulari, ezilgan el ahvoliga chora izlash motivlari yanada kuchayganini uchratamiz:

Topar erkan qachon, yorab, hayoti jovidon millat?

Topib ilmu hunar birla maorifdin nishon millat? [7:33]

deya iztirobga tushgan millat ertasiga umidni qaydan topishni bilmagan shoir o‘z haq huquqini talab qilish, javobgarlar izlash darajasiga o‘sadi. Xalqni zulm bilan azoblayotganlarga:

Bizni aylab xor-u zor notavon etmak uchun,

Bermayin osori hurlik bandi zindon etdingiz,

Bu falokatlar uchun mas‘ul o‘lursiz oqibat,

Zulm-u istibdod ila millatni vayron etdingiz. [7:92]

1905-yildan boshlab tom ma‘noda yangi adabiyot – milliy uyg‘onish adabiyoti paydo bo‘ldi va xalq qalbiga kirib bordi. Yangicha qarashlar adabiyotning poeziya janrida Furqat, Muqimiy, Anbar Otin ijodida XIX asr oxirlarida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, XX asrning boshlariga kelibgina jadid adabiyotiida yetildi va to‘laligicha milliyatchilik shuuri bilan sug‘orildi. 1910-yillarga kelib millat ijtimoiy-siyosiy ongini o‘zgartirish uchun faqatgina mavjud adabiy tur va janrlarning o‘zi kifoya qilmay qoldi. Jadidlar o‘zlarining haqiqatlari – millatni uyg‘otishni yanada tezlashtirish uchun o‘z harakatlarining birinchi bosqichidayoq (ma‘rifatchilik davri nazarda tutilmoqda) sahna adabiyotini yarata boshladilar.

Jadid shoiri Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon (1897-1938-yy) 1917-yilga kelib Turkistonda yetilib kelayotgan Erk va Ozodlik ehtiyojini to‘liq anglagan, uni voqelikka aylantirish tadbirlari haqida tasavvurga ega bo‘lgan shaxs, iste‘dodini shu g‘oyalar tantanasiga bag‘ishlangan ijodkor darajasiga ko‘tarilgan edi. Shuning uchun ham u umid ko‘zini tikkani Turkiston muxtoriyatining bolsheviklar tomonidan vahshiylarcha tugatilishini Chor Rusiyasi o‘rniga

bolshevizm mustamlakasining kelishi sifatida qabul qildi:

Aytarlarkim, sovuq, g'amli, qora qish  
O'tib ketib, kelmish chiroylik bahor.  
Gulga oshiq bo'lib sayrar emish qush  
Gul ham u qushlarga nozlanib qarar.

/ "Sharq qizi", 1920./[11:79]

Darhaqiqat, "sovuq, g'amli, qora qish" Chor Rusiyasi mustamlakasining tugatilishi va millatning bahori kelishini zo'r orziqish bilan kutgan shoir yangi bir shaklda boshiga tushgan erksizlikni ruhiyati mazlum xalq ruhiyatiga yaqin bo'lgan Sharq qizi timsoli orqali ko'rsatishga urinadi. Sharq qizining:

Faqat, men bir o'zim, Sharqning bir qizi,  
Bahor kelganini ko'rmay qolamen,  
Uzun, qora qishning ketmasdan izi  
Uning "do'sti" kuzni kutib olamen.[11:239]

degan nolasi Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy ahvoldning lirik manzarasi haqida aniq tasavvur bera oladi. Qishi tugamay, kuzni kutgan Vatanning bahoridan yanada uzoqlashgani, shoirmi "Sharqning o'zidek" "butun tani" va "joni"ni Bahorning – erkning "xayol"iga tutqin qilib qo'ydi.

1919-yildayoq o'zining "Go'zal"dek milliy poeziya durdonasiga aylangan she'rini yozgan shoir Cho'lpon uchun ijtimoiy mavzuni poeziyada ifodalash zo'rma-zo'rakiliksiz, she'riyatning azaliy qonunlariga zid bo'lmagan tarzda kechgani tabiiy holdir. Bu o'rinda haqiqiy iste'dodning o'z imkoniyatlarini namoyon qilishidan o'zga sir ham yo'q aslida. Cho'lpon she'riyati inson qalbini obrazlar tili bilan zabt etadi:

Sharq qizi "o'ylangan ma'no" Erk istashni o'z erksizligi bilan yorqin aks ettira oladi. Obraz holatining Turkistonning ahvoli bilan uyg'unligi esa mohiyati yanada chuqurlashtiradi, she'r ta'sir kuchini oshiradi.

She'r o'quvchi qalbini o'ziga yaqin va tanish obraz Sharq qizining erksiz siymosi bilan zabt etadi, ruhi va tafakkurini nolalarga yo'g'rilgan umid bilan uyg'ota oladi.

Erkin anglash va anglatish shoir she'riyatining bosh maqsadiga, sarbon tuyg'usiga aylanishining asosiy sababi shundaki, 20-yillarga kelib "Cho'lpon o'z ideali, ya'ni milliy muxtoriyatni amalga oshirishning iloji yo'qligini anglab yetgan edi. Shoir yangi voqelik va yangi til talablariga mutanosib ravishda, o'zining intilishlarini "xayol" deb ataydi" [9:2-3]. Shoir yuzmayuz turgani hayot haqiqatiga milliy istiqloq va jumhuriyatchilik haqiqatini qarshi qo'yar ekan, hayot haqiqati oldida o'z orzu-istaklari "Xayol"ga aylanayotganini tan oladi. Chunki 20-yillarning boshiga kelib siyosiy hayotda bolsheveklarning g'alabasi aniq bo'lib qolgan edi. "Sharq qizi"ning "o'ylar"dan shodlik topishi, jism-u jonining "xayol" bilan ovunishining sabablari ham shundadir.

Ko'ngildagi muhabbatning uchqunin  
Xayolimning bir burchida berkitdim.  
Ul uchqunning kuchligidan siyamda  
Hech tuzalmas, og'ir yara bor etdim. [11:125]

Milliy muxtoriyat umidini xayolining bir burchida berkitgan shoir millat ozodligi orzusini siynasidagi "tuzalmas, og'ir yara" deb bildi. Uning og'rig'i bir dam bo'lsa-da vujudini, dilini tark etmadi.

She'rlari ham og'riq azoblaridan o'rtanib bedor o'tkazgan tunlarida tug'ildi. Bu og'riq uning ruhiyatidagi tinimsiz kurashlarga sabab bo'ldi.

Qullikning og'ir kishanlarini ustidan ilib otmay mudrayotgan millat fojeasining sabablarini u tarixdan izlaydi. Kimning xatosi jabrini tortayapmiz deya iztirob chekadi:

Go'zal yulduz, nurli yulduz, tez so'zla  
Otalarning tarixdagi xatosin.  
Shul xatodan osuflanib yovlarning  
El ko'ksida surgan ishrat, safosin.

/ "Yorug' yulduzga", 1921 y/[11:155]

Eng mudhish xato Rusiya istilosi ekanligini, dushmanning yurtini g'orat qilmog'iga yo'l qo'yilmaganida millat "boshqalarga qul bo'lib, chet oyoqlar tovonida" ezilmasligini Cho'lpon

anglab yetgan edi.

Falokatni ko'rgan ota-bobolar  
Istiqbolning qimmatini bilmagan.  
El va yurtni saqlar uchun so'ng xonlar  
Tuzikkina chora-tadbir qilmagan. [11:97]

Shoir millatni istiqbolga eltuvchi eng to'g'ri yo'l otalar xatosini tuzatish ekanini teran his etadi. Balki shu sabab Fitrat taklifiga binoan "Buxoro axbori" gazetasiga muharrirlik qilish uchun otlangan shoir yangi umid va kuch-quvvat bilan to'liq edi. She'riyatida ham ruhiyatidagi shiddat o'z aksini topdi. Millat tafakkuridan Ozodlik va Erk qayg'usining chekinishi, uning o'rnini esa uzliksiz ocharchiliklar sababli non qayg'usi egallayotgan ijtimoiy qullikdan fojialiroq bo'lgan oqibat shuuriy qulikka olib kelishini anglagan shoir Ozodlik va Erkini oliy ideal darajasiga ko'tardi. Endi uning she'rlaridagi har bir so'z Erk va Ozodlik nafasini tashiydi. U tom ma'nodagi Erkparastga aylandi. Erk – muqaddas tuyg'u. Uni bo'lar-bo'lmas so'z va tushunchalarda ifodalash qiyin. Cho'lpon Erkni sevishini, sog'inishini uning uchun ko'rashishini samimiy shoir bo'lib ifodalay oldi. Erk shoir uchun shunchaki balandparvoz chaqiriq emas, balki Cho'lpon faoliyatining asosi, uning hayotdan, yashashdan maqsadi, umidi, shuurini zabt etayotgan xayoli:

Xayol, xayol... yolg'iz xayol go'zaldir,  
Haqiqatning ko'zlaridan qo'rqamen,  
Xayoldagi yulduzlarkim amaldir,  
Olovimni alar uchun yoqamen. [11:85]

deya izhori dil qilar ekan, shoir xayolidagi Erkni sho'ro haqiqatining ko'zlaridagi tutqunlik va o'lim sharpalaridan qo'rqib sog'inadi. Haqiqatning ko'zlari esa "1919-yilda millatning asl farzandlari "bosmachi" degan haqoratimiz nom ostida milliy ozodlik kurashini boshladilar va faqatgina Farg'onaning o'zidayoq aholining uchdan biri qirilib ketdi" [10:26] deya qonga to'lib boqardi. She'rdagi umid va umidsizlik orasida o'zligini qidirayotgan sargardon ruh asl vatanini ishqdan topishi bejiz emas.

Men oshiqman, men  
Men sodiqman, men  
Sevgidan boshqa  
Istama mendan.[11:43]

So'fiyona iqrar. Jaholat, zulm, zo'ravonlik avj olgan saltanatda ishqdan panohtopish, o'z oliy idealiga chin oshiq bo'lib uni kuylash O'rta Osiyoning islomiy qarashlar qon-qoniga singib ketgan shoirlari uchun tabiiy holdir. Cho'lponning yangicha qarashlar bilan to'liq she'riyatida milliy tafakkurning aynan tasavvufiy tarzda yuzaga chiqishi shundan. Ishq va oshiqlik haqidagi o'z dunyo qarashlariga ega millat ruhiyatiga uyg'un ma'no kasb etdi.

Zarafshon ishqdir...  
Tog'lar, yuksak tog'lar oshiqdirlar...  
Quyosh, zo'r dengizlar – ma'shuqalardir...[11: 46]

Shoir o'z ruhiyatidagi Erkni sog'inish tuyg'usi bilan tabiatning Erkka oshnolik xususiyatida tiriklikning buyuk qonuniyatini ko'radi:

Cho'lpon 20-yillar o'zbek she'riyatiga yangi bir xususiyat yukladi. U tabiatni insonlashtirdi. Bu bilan inson dardi, istak va orzularini tabiat hodisalariga, manzaralariga bog'lab o'z poetik maqsadini amalga oshirdi. Tabiatning o'zi kabi serjilo, jonli, tabiiy va samimiy bu poeziyada sirli haqiqat va xayol ramzlar vositasi bilan o'quvchi shuurida shoir anglagan Erk va Istiqbol mohiyatini ochishga xizmat qildi. "XX asr boshidagi o'zbek she'riyatiga davr shiddatiga mos ohanglar, shiddatli fikr va tuyg'ular ifodasiga muvofiq shakllar zarur edi. Yangi she'riyatni yaratish yo'lida asrimiz boshida maydonga kirgan ko'plab ijodkorlarimiz izlandilar. Shu izlanishlarning eng yaxshi jihatlari Abdulhamid Cho'lpon she'riyatida o'zining mujassam ifodasini topdi. Shu bois ham biz Cho'lponni haqli ravishda novator shoir deb ataymiz" [13:28]. Dastavval fransuz adabiyotida, XIX asrning birinchi yarmidan rus adabiyotida qo'llanila boshlagan ramziy lirika XX asrning boshlarida Turkiya adabiyotida ham yetakchilik qilgan edi. Rus va Turk adabiyotining juda yaxshi bilimdoni bo'lgan Cho'lpon uchun ramziy lirika o'z fikrlarini, shaxsiy hukmini ifodalashning eng qulay vositasi bo'lib xizmat qildi. 1921-yilda

yoʻzilgan “Yoʻl esdaligi” safarnomasidagi lirik chekinishlarda shoir oʻz maqsadlari, ruhiy iztiroblari, oʻzligini topish jarayonlarini yoritishda ramziy lirika bilan Sharq tasavvuf adabiyotini bir-biriga payvandlab betakror poetik maqsadga erishadi.

**Xulosa.** Choʻlpon jamiyatida roʻy berayotgan oʻzgarishlarni shunchaki kuzatmaydi, koʻngil koʻzi bilan kuzatadi, tafakkur shuʻlalarida angʻlaydi. Shu sababli ham oʻz sheʻriyati bilan yangi maktab yarata oldi. Bu maktab milliy oʻzlikni tanish taʻlimini, milliy istiqloq falsafasini, millatga muhabbat tarbiyasini xalq shuuriga singdirishga urinadi. “Yoʻl esdaligi”dagi sheʻrlarda ham uning ana shu qarashlari ustivorlik qiladi. Shoir tasavvuf adabiyotida keng qoʻllangan “oshiq” va “yor” sifatlariga ijtimoiy-siyosiy mazmun ortadi. Uning talqinidagi “maʻshuqa”, “yor” yurt ozodligi – Erk boʻlsa, oshiq – erk istagida oʻrtangan kurashchi. Syujetda ham tasavvuf adabiyoti yoʻnalishi aks etadi: “maʻshuqa”ni yigʻlab, ezilib izlaganicha “yoʻl”ga kirgan “oshiq” shu yoʻlda oʻzligini angʻlaydi, oxir-oqibat “maʻshuqa” vasliga yetadi. Shoir kuylangan ishq botinidagi millat Erki va uning istiqloqi, orzusi lirik qahramon ruhiyatidagi chuqur drammatizm, ikkilanishlar, bezovtaliklar bilan yanada kuchaytirilgan.

Choʻlpon ijodidagi muhabbat mavzusi hayot mavzusidan ajralmasdir. U “qalandardek” “dunyoni kezib” yorini topa olmay alam va faryodlar bilan “yerga botdim” deya boʻzlasa-da bu oʻlim Choʻlpon uchun hayot mohiyatini chuqurroq ochish, maʻshuqasi Erkin tasavvuf falsafasida maʻshuqa – ollohni his etgan kabi his etish uchun vositadir. Shoirning “sevgim ham shu quyosh kabimi botar?” – degan qoʻrquvi ham shu “sevgi”siz hayoti oʻz maʻnosini yoʻqotishini, bu hayot oʻlimga tengligini angʻlatadi. Shu oʻrinda taʻkidlash joizki, “Choʻlpon sheʻriyati milliy zamini juda mustahkam sheʻriyat. Shoir sheʻrlarining umumiy ruhi, ohang va obrazlarida Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab anʻanalarining taʻsir izlari aksini topgan”[12:36].

Biroq, Choʻlpon oʻz ajdodlari sheʻriyatidagi ollohga, yor va dildorga atalgan ishq-muhabbat tushunchasini isloh qildi. Uning mazmun mohiyatini kengaytirdi. Bu kabi hodisa 20-yillar jadid shoirlari ijodida keng qoʻllanilgan edi. Ularning “shaxsiy men”i “milliy men” darajasiga koʻtarilgani boisidan ishq-muhabbat tushunchalari ham Vatan, yurt, millat, Erkka atalgan buyuk tuygʻuga aylangandi.

Ziddiyatlarga va qarama-qarshiliklarga toʻla davrda ham adabiyotdan eng avvalo estetik zavq beradigan asl goʻzallik, yuksak badiyat talab qilinadi. Shu sabab ham adabiyotning hech qaysi janrida soxtakorlikka yoʻl qoʻymaslikka harakat qilindi. XX asrga qadar sharq sheʻriyatida tasavvuf (sofizm) mazmunidagi sheʻrlardagi quyosh, yulduz, oy kabi anʻanaviy obrazlar erk va ozodlik ramzi, simvoli sifatida jadid sheʻriyatida ikkinchi umrini boshladi. Mustamlaka zulmini ifoda etuvchi qor, qish, qora qargʻalar, xazon kabi yangi ramzlar galereyasi yaratildi.

Milliy istiqloq gʻoyalari ruhan taslim boʻla olmaydigan shoirlar sheʻriyatidagi misralarda botiniy mazmun kasb etdi. Bunday sheʻrlarni ham hamma shoirlar yozganlari yoʻq, albatta. Bunday sheʻrlar A.Fitrat ijodida va asosan Choʻlpon ijodida salmoqli oʻrin tutadi. Tamoman yangi boʻlgan bu adabiyotning maydonga chiqishida quyidagi faktorlar muhim oʻrin egallaydi:

1. Turkiy xalqlar ruhiyatidagi milliyatchilik shuurining qadim asoslari mavjudligi.
2. Yevropa madaniyatining milliy tafakkurning uygʻonishiga turtki berganligi.
3. Chor Rossiyasi va soʻngroq shoʻro hukumatining ruslashtirish siyosatiga qarshilik qilish maqsadi.
4. Jadidchilik harakatining millatparvarlik yoʻlidan ketganligi.
5. Mustamlaka tuzumidan qutilib mustaqil davlat qurish intilishlari.

Milliyat masalalarning adabiyotda bunday keskin va koʻndalang qoʻyilishi asosan 1925-yillarga qadar davom etdi. Shoʻro tuzumining siyosiy qatagʻonlari 1938-yilda avj olgan boʻlsa-da, uning qora sharpasi adabiyot ahli, ziyolilar ustiga 20-yillarning oʻrtalaridayoq koʻlanka tashlay boshlagan edi. Chunki bu davrda oʻzining isteʻdod qudratini namoyon qila olgan adabiyot ahlining aksariyati jadidchilik harakatidan oʻsib chiqqan va milliy istiqloq tarafdori boʻlgan ijodkorlar edi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш.Ризаев. Жадид драмасы. – Т.: Шарк, 1997.
2. Б.Қосимов . Излай, излай топганим... – Т.: Ф. Фулом, 1984.
3. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафқураси: филол. фан. докт. ... дисс. автореф. –Тошкент, 10-бет.
4. А.Тўқай. Асарлар тўрт томлик. 3-том. –Қозон, 1976.



5. А.Чўлпон. Адабиёт надири. –Т.: Чўлпон, 1994.
6. А.Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Т.:Ўқитувчи, 1994.
7. Аваз. Сайланма. – Т.: Ёш гвардия, 1984.
8. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий.Тўла асарлар тўплами. – Т., 1989.
9. Ингеборт Балдауф. Ҳақиқат ахтариб./ “Миллий тикланиш” газетаси, 1998.
10. Ю.Попоров. Сахро кўёши чароғонми? // “Ёшлик” журнали, 1990, 5-сон.
11. Яна олдими созимни. Т., 1991; Асарлар [3 ж.], 1-2-ж., 1999; Адабиёт надири, Т., 1993.
12. И.Ҳаққулов. Адабият фарзандлари. –Т,1990й.
13. Куронов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. –Т.: Ўқитувчи, 1997. 28-бет.
14. Чўлпон. Йўл эсдалиги. // “Билим ўчоғи” журнали. 1922 йил, 1-сон.

### NISHOTIYNING FUZULIY G‘AZALIGA TAXMISI: ASLIYAT VA NASHR QIYOSI

**Marjona SHOMURODOVA,**

Qarshi davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

[marjonashomurodova879@gmail.com](mailto:marjonashomurodova879@gmail.com)

УДК 894.375:8-1(045)

**Аннотация.** Sharq mumtoz adabiyotining zabardast vakili Muhammad Fuzuliy lirikasining turkiy adabiyotga sezilarli ta’siri bo‘lgan. Xususan, o‘zbek adabiyotida ham Fuzuliy g‘azallariga yuzlab naziralar yozilgan. Deyarli har bir ijodkorda Fuzuliy g‘azaliga bog‘langan taxmislarni uchramiz. Muhammadniyoz Nishotiy lirik merosida ham Fuzuliyning “Do‘st beparvo, falak berahm, davron besukun” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga bog‘langan besh baytdan iborat taxmis mavjud. Ushbu muxammasning Nishotiy she’rlari nashrlaridan o‘rin olgan matnlarini qo‘lyozma manbalar bilan qiyosiy o‘rganilsa, ular orasida bir qator jiddiy matniy tafovutlar ko‘zga tashlanadi. Maqolada ushbu muxammasning shoir devoni qo‘lyozmasi va 1960-yilda amalga oshirilgan “Husn va dil. Doston. She’rlar” nomli nashridan joy olgan matnlari o‘zaro qiyoslandi. Noshirlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklar aniqlanib, mazmuni tahlil qilindi. Tahlil jarayonida har bir band alohida o‘rganilib, matniy tafovutlar aniqlandi. Xatolikka sabab bo‘lgan jihatlarning har biri to‘g‘risida to‘xtalib, ularga sharh berildi. Noto‘g‘ri berilgan so‘z va iboralar tuzatildi. Shuningdek, tuzatish asosida she’r matnida yuz beradigan mazmun tavsifi keltirildi. Tadqiqot natijasida asosli xulosalar chiqarildi. Aniqlangan nuqsonlarni tuzatish borasida takliflar berildi.

**Kalit so‘zlar:** devon, g‘azal, muxammas, qo‘lyozma, nashr, matniy tadqiq, matniy tafovut.

### ПОДРАЖАНИЕ НИШОТИ ГАЗЕЛИ ФУЗУЛИ: СРАВНЕНИЕ ОРГИНАЛА И ПУБЛИКАЦИИ

**Аннотация.** Значительное влияние на тюркскую литературу оказала лирика представителя восточной классической литературы Мухаммада Фузули. В частности, в узбекской литературе написаны сотни вариаций на тему газелей Фузули. В лирическом наследии Мухаммаднияза Нишати есть также стихотворение из пяти строф, связанное с газелью Фузули. При сравнительном изучении текстов этого стихотворения, содержащихся в печатных изданиях, с рукописными источниками выделяется ряд существенных текстовых расхождений между ними. В статье представлены результаты изучения рукописи поэта и изданной в 1960 году книги “Husn va dil. Doston. She’rlar”. Были выявлены ошибки, допущенные издателями, и проанализировано содержание. В процессе анализа каждый пункт изучался отдельно, выявлялись текстовые расхождения. Были затронуты и прокомментированы каждый из аспектов, вызвавших ошибку. Исправлены неправильные слова и фразы. Также на основе исправления было дано описание содержания текста стихотворения. В результате исследования были сделаны обоснованные выводы, даны предложения по исправлению выявленных ошибок.

**Ключевые слова:** диван, газель, рукопись, публикация, текстовое исследование, текстовое различие.

**Kirish.** Mumtoz adabiyot durdonalarini ijodkor so‘z san’atining bor bo‘y-basti bilan keng

kitobxon ommasiga tushunarli qilib yetkazishda matnshunoslik, xususan, eski o'zbek yozuvidagi matnlarni tabdil qilish bilan shug'ullanuvchi matnshunoslarning o'zni beqiyos. Qo'lyozma matnlarni eski o'zbek yozuvidan joriy alifbo yozuviga o'girib, hozirgi adabiyot sahnasida namoyish qilish mazkur soha vakillarining muhim xizmatlaridan biridir. Sohada hozirgacha qilingan ishlar yuzasidan yutuqlar bilan bir qatorda ba'zi kichik xatoliklar ham ko'zga tashlanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Masalaning ahamiyatli jihati shundaki, mumtoz lirik asarlar bilan bog'liq nashrlarda bir qarashda juz'iy, ammo qo'lyozma matn bilan, yoxud chop etilgan nashrlararo sezilarli tafovutlar mavjud. Bu, albatta, yaratilgan asarning asl mazmuniga putur yetkazmasdan qolmaydi. Jumladan, mumtoz adabiyot tarixida XVIII asr Xiva adabiy muhitining yirik namoyandasi Muhammadniyoz Nishotiy asarlarining o'rganilishi jarayonida qo'lyozmalarni o'qish orqali tabdil qilingan va turli yillarda nashr etilgan variantlaridagi tafovutlarni misol qilish mumkin. Shoir o'zidan salmoqli va bebaho lirik meros qoldirgan bo'lib, unga qiziqish o'tgan asr boshlariga borib taqaladi. Xususan, Nishotiyning tanlangan asarlari ilk marta "G'azaliyoti Lutfiy, Husayniy, Nishotiy" nomi bilan kotib Muhammad Yusuf tomonidan (hijriy 1321-yil) milodiy 1903-yilda ko'chirilgan (mazkur qo'lyozma "Xamsa-i Nishotiy" nomi bilan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti 1117, 7054, 1266 raqamlari bilan saqlanmoqda). Sovet davrida esa ilk bor Nishotiy asarlaridan namunalar adabiyotshunos Olim Sharafiddinov tomonidan tuzilgan "O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi"ning 2-tomida beriladi[3:5]. Yuqoridagi qo'lyozma matnlar va chop etilgan nashrlar orasidagi ayrim tafovutlar borasida fikrimiz isboti o'laroq, Nishotiyning birgina Ozarbayjon mumtoz adabiyotining zabardast vakili Fuzuliy qalamiga mansub "Do'st beparvo, falak berahm, davron besukun..." deya boshlanuvchi g'azaliga bog'langan muxammasni olaylik. Ushbu muxammas Nishotiyning hozirda Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi Qo'lyozmalar fondida saqlanuvchi "Devon"i [1] tarkibidan bo'lib, shoirning boshqa lirik asarlari bilan bir qatorda kitob shaklida bir necha bor, jumladan, 1960-yilda Valijon Mirzayev tomonidan nashrga tayyorlangan "Tanlangan asarlar" [3:75] nomi bilan, keyinchalik 1967-yilda "Husn va Dil. Doston. She'rlar" [2:432] nomi bilan chop etilgan. Quyida bu muxammasni bevosita qo'lyozma nusxadagi [1] va aynan shu qo'lyozma orqali qilingan 1967-yildagi nashr tabdili [2:432] bilan qiyoslashga harakat qilamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Soha bo'yicha dunyo olimlari bugungi kunda erishgan ilmiy yutuqlarni o'zbek adabiyotshunosligi va matnshunosligiga tatbiq etish dolzarb vazifalardandir. Maqolada adabiy merosni o'rganishda sinalgan va katta samara berib kelayotgan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Muxammas umumiy hisobda 5 banddan iborat bo'lib, nashrda uning dastlabki bandi quyidagicha:

Aql ma'dum, xush nodon-u, xirad norahnamun,  
Ishq g'olib, shavq muhliq, betarahum charxi dun,  
Yor g'ofil, dard mushkul, hajr qotil, ashki xun,  
Do'st beparvo, falak berahm, davron besukun,  
Dard cho'x, hamdard yo'x, dushman qaviy, tole' zabun.[2:432]

**Mazmuni:** Aql – yo'qolgan (ma'dum), es-hush – nodon, idrok – yo'l ko'rsatolmas, ishq – g'olib, o'rtanish (shavq) – halok qiluvchi (muhlik), teskari aylanuvchi falak (charxi dun) esa rahmsiz; yor – beparvo, dard – og'ir, ayriliq – qatl qiluvchi, ko'z yoshi – qondir. Do'st – loqayd, falak – beshafqat, davron beqaror; dard ko'p (cho'x), hamdard yo'q (yo'x), dushman – kuch-qudratli, taqdir esa ojiz.

Dastlab mazkur bandning birinchi misrasiga diqqat qiladigan bo'lsak, misrada mazmunga muvofiq "es", "ong", "shuur" ma'nolarini beruvchi "hush" so'zi o'rniga "xush" (fors. "yoqimli, yaxshi") so'zi qo'llangani va misraning shu qismida mazmunan mantiqsizlik paydo bo'lgani ko'rinadi. Keyingi misrada o'zgarishlar garchi mazmunga ta'sir etmagan bo'lsa-da, xato ekani tez ko'zga tashlanadi. Ya'ni "halok qiluvchi, yo'q qiluvchi" ma'nosidagi "muhlik" so'zining "muhliq", "betarahum" (rahmsiz, beshafqat) so'zining "betarahum" (vaholanki, qo'lyozma matnda aynan shu so'zning yuqori qismida tovushni ikkilantiruvchi tashdid belgisi (˘) aniq ko'rsatilgan) shaklida xato yozilgan. Bandning 3-misrasi so'ngidagi "ashk" (ko'zyosh) va

“xun”(qon) soʻzlarining izofiy birikma (“ashk-i xun”) tarzida berilishi ham mantiqan xatodir. Yaʼni, shoirning misra avvalidan lirik qahramon boʻlmish yorni gʻofil, dardni mushkul, hajrni qotil deya taʼriflab, misra soʻngini “ashki xun” (“qonning koʻz yoshi” yoki “qon yoshi”) deya tugatishi ham shaklan, ham mazmunan gʻalizdir. Aslida esa mazmunga va, albatta, qoʻlyozma matnga muvofiq, hech qanday izofasiz “ashk – xun” (koʻz yoshning qonga oʻxshatilishi) deb yozish lozim edi.

Ikkinchi band:

Hamdam oh-u, hamnafas afgʻon, baloligʻ band-band,  
Ruh mahzun, jon hazin, xotir gʻamin, sihat gazand.  
Marg – hamsuhbat, davo noyob-u, marham mustamand,  
Aql dun, himmat sadoyi taʼna, bir-birdan zabun,  
Baxt kam, shafqat baloyi ishq kun-kundan fuzun. [2:432]

Nishotiy tomonidan qoʻshilgan uch misralikning mazmuni: Eng yaqin doʻst oh-u, figʻon hamnafas, “baloligʻ” (musibat) “band-band” (tugun; oʻta chigal maʼnosida), ruh – gʻamgin, “jon” (qalb) qaygʻuli, “xotir” (oʻy-xayol) mungli, sogʻlik – “gazand” (zaharlangan maʼnosida). Oʻlim – suhbatdosh, bunga davo kamyob, lekin “marham” (yaraga qoʻyiladigan dori) ham kuchsizdir. Diqqat qilinsa, nashrdagi bu uch misra matni asliyat bilan farqlanmaydi. Biroq Fuzuliy gʻazalidagi bayt notoʻgʻri talqin qilingan. Bizningcha, buning quyidagi shaklda berilishi toʻgʻri boʻladi:

Aql – dunhimmat, sadoyi taʼna bir-birdan baland,  
Baxt – kamshafqat, baloyi ishq kun-kundan fuzun.

Birinchi misrasi soʻngida qoʻllangan “zabun” soʻzi oʻrnida Fuzuliy devonidagi kabi “baland” soʻzi yozilishi lozim edi [4:241]. Negaki, bandning qofiyalanish talabi (*band-band*, *gazand*, *mustamand* soʻzlari) ham shuni taqozo qiladi. Bundan tashqari, “dunhimmat” (past himmatli), “kamshafqat” soʻzlarining ajratib, uyushiq boʻlaklar shaklida berilishi bayt mazmunini toʻlaqonli tushunishga xalal beradi.

Fuzuliy devoni tarkibidagi mazkur gʻazal matniga hamda 1960-yilda Nishotiy “Devon”ining boshqa bir qoʻlyozmasi asosida tabdil qilinib, “Tanlangan asarlar” nomi bilan chop etilgan nashridagi muxammas matniga tayangan holda ayta olamizki, xatoga shoir emas, balki koʻchiruvchi kotib yoʻl qoʻygan va buning ortidan qilingan xato ushbu nashr tabdilida ham yuzaga chiqqan boʻlishi mumkin.

Taxmisning uchinchi bandi nashrda quyidagicha:  
Vah, nechuk aylay gumon oʻzni bu holatda hayot,  
Xokaro pinhonman andoq axtarib topmas mamot,  
Oʻt aro purgohdek aql-u xiradgʻa yoʻq najot,  
Yelda bargi loladek tamkin-u donish besabot,  
Suvda aksi sarvdek taʼsiri davlat vojudun.[2:432]

Nishotiy uchligidagi ikki soʻzning qoʻllanishi gʻaliz. Birinchisi, “Xokaro” soʻzi ajratib “xok aro” tarzida qoʻllanishi mantiqan toʻgʻri boʻladi. Ikkinchisi, uchinchi misrada qoʻllangan va hech qanday maʼno anglatmaydigan “purgoh” soʻzi. Aslida bu soʻz – “bir koh” (somon). Bu oʻrinda nastaʼliq xatida “bir” (بیر) soʻzidagi nuqtalarning bir oʻrinda (پر tarzida) jamlab berilishi, qolaversa, qoʻlyozma matnlarda “par”, “pur”, shu jumladan, “bir” soʻzlarining bir xil koʻrinishda hamda “kof” va “gof” harflarining farqsiz yozilishi xato tabdilga sabab boʻlgan. Bunday hollarda tabdil qiluvchi matnning mazmuniga tayanishi lozim boʻladi. Matn tuzatilsa, mazmun oydinlashadi: – *Oʻt ichida bir somon parchasiga najot boʻlmagani kabi aqlu xiradga ham najot yoʻq.*

Nashrda taxmisning toʻrtinchi bandi nisbatan xatoliklardan xoli. Biroq soʻnggi badda ayrim matniy tafovutlarga duch kelamiz:

To koʻngil bogʻida tutti maskan ul nozik nihol,

Bog‘bonning *ta’bi* bo‘ldi gul kibi rangin xayol,  
Istabon bu vajah ila topmay Nishotiydek maqol,  
Chehrayi zardin Fuzuliyning tutubtur ashki ol,  
Ko‘r, anga ne ranglar chekmish sipehri nilgun.[2:432]

*Mazmuni:* “Ul nozik nihol” (ma’shuqa) ko‘ngil bog‘ida maskan tutdi va bundan bog‘bonning “tab’i” (tabiati, borlig‘i) gul kabi rangin tus oldi. Bu sababdan istasa-da, Nishotiydek so‘z topolmay, Fuzuliyning “chehrayi zard” (sariq yuz)ini “ashki ol” qizil rangli ko‘z yoshlari egallabdir. Ko‘rginki, unga “sipehri nilgun”(moviy osmon) qanday ranglar bermish.

Yakuniy bandning ikkinchi misrasida nisbatan sezilmas, ammo qo‘lyozma matn bilan qiyoslaganda yaqqol ko‘zga tashlanuvchi xatolik mavjud. Ya’ni, insonning fe‘l-atvori, tabiati ma’nolarini beruvchi arabcha “tab” so‘zi muvofiq ma’no bermaydigan “ta’b” tarzida yozilgan. Vaholanki, qo‘lyozma matnning aynan shu qismida ushbu so‘z “to”, “be” harflari va undan so‘ng “ayn” harfini yozish orqali (طبع shaklida) ifodalanganini ko‘ramiz.

**Xulosa va takliflar.** Mumtoz adabiyot namunalarini to‘g‘ri va asosli tabdil qilish kelgusida adabiyotshunoslik doirasida tadqiqot qiluvchilar, o‘quvchilar uchun mumtoz asarlar shakli va mazmuni bo‘yicha bir qator anglashilmovchiliklar yuzaga kelmasligida juda muhimdir. Professor Nurboy Jabborov ta’kidlaganidek, “mumtoz asarlar qo‘lyozmalarini o‘zaro qiyosiy tahlil etish negizida aslyatga muvofiq, ishonchli matnlarini tiklamay turib, muallifning ijodiy laboratoriyasi, asar badiiyati, tasvir metodlari kabi alohida ahamiyatga molik mavzu yo‘nalishlarining birortasi ustida ham asosli tadqiqot olib borib bo‘lmaydi”[5:5]. Zero, mumtoz adabiyot vakillari, xususan, Muhammadniyoz Nishotiy ijodi borasidagi tadqiqotlarning ishonchli ilmiy asosga ega bo‘lishi uchun matn tabdili bexato bo‘lishi lozim. Bu matnshunosdan qo‘lyozma matn tabdili jarayonida asar shakli, so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi, janriy va badiiy xususiyatlari borasida yanada diqqatliroq bo‘lishni talab etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Devoni Nishotiy. Qo‘lyozma. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi Qo‘lyozmalar fondi. No.156.
2. Nishotiy. Husn va dil. Doston. She’rlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.
3. Nishotiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘z.SSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.
4. Muhammad Fuzuliy. Asarlar. 2 jildlik. 1-jild. Devon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.
5. Jabborov N. Matnshunoslikning ayrim nazariy masalalari.// O‘zbek matnshunosligining nazariy va amaliy muammolari. Respublika ilmiy anjumani materiallari. – Qarshi, 2019
6. Recai Kiziltunç. Muhammed Niyaz Nisati. DIVAN. – Ankara: Fenomen yayincilik, 2019

**BO'LAJAK O'QITUVCHILAR KREATIV KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI****Rasulova Zilola Durdimurotovna**BuxDU Pedagogika kafedrası doktoranti,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent[zrasulova383@mail.ru](mailto:zrasulova383@mail.ru)

ORCID 0000-0001-5657-356X

UDK: 37.013.8 (575.1)

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kreativ shaxs sifatida tayyorlashning pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash mazmuni, fanlarning zamonaviy o'qitish mexanizmlarini yaratish, hamda amaliyotga tatbiq etish yo'llari ifodalangan. Ijodiy bilimlarni rivojlantiradigan zamonaviy ta'lim muhitini yaratish bilan o'quv jarayonlarning sur'atini o'zgartirish, faollashtiruvchi metod va vositalarga asoslangan innovatsion pedagogik jarayon tuzilmasi taqdim qilingan. Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish muammolari va o'quv-tarbiyaviy jarayonining sifat ko'rsatkichlarini oshirish omili ekanligi bayon etilgan. Ularning kreativ-pedagogik bilmilarini takomillashtirish asosida hayotiy vaziyatlarga moslashtirish shakl va usullari, kreativ kompetentlik sifatleri, o'z ustida ishlash bosqichlari, o'zini o'zi rivojlantirish, kreativ fikrlashni talab etuvchi mustaqil topshiriqlar keltirilgan. Ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati innovatsion faoliyatga tayyor, zamonaviy, moslashuvchan bo'lajak ijodkor o'qituvchini tayyorlash maqsadida o'qitishning zamonaviy usullari va vositalaridan samarali foydalanishning yangi imkoniyatlarini taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, kreativ kompetentlik, kreativ shaxs, ijodkor o'qituvchi, innovatsion faoliyat, zamonaviy usullar, vositalar, rivojlanish.

**ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

**Аннотация:** В статье изложено содержание педагогических и дидактических основ подготовки студентов высших учебных заведений как творческих личностей, пути создания и внедрения в практику современных методов преподавания дисциплин. С созданием современной образовательной среды, развивающей творческие знания, представлена инновационная структура педагогического процесса, основанная на изменении картины учебных процессов, активизирующих методах и приемах. Сформулированы проблемы развития творческой компетентности будущих педагогов и факторы повышения качественных показателей учебно-воспитательного процесса. Приведены формы и методы адаптации их креативно-педагогических знаний к жизненным ситуациям на основе совершенствования, качества креативной компетентности, этапы работы над собой, самостоятельные задания, требующие саморазвития, креативного мышления. Практическая значимость данного исследования представляет новые возможности эффективного использования современных методов и средств обучения в целях подготовки современного творческого педагога, готового к инновационной деятельности.

**Ключевые слова:** креативность, креативная компетентность, креативная личность, креативный педагог, инновационная деятельность, современные методы, средства, развитие.

**Kirish.** Jahon miqyosida ta'limning integrasiyalashuvi jarayonida bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy rivojlantirish, oliy ta'lim tizimida fanlarning zamonaviy o'qitish mexanizmlarini yaratish, pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq haligacha dolzarb muammolardan biridir. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologik yondashuv va zamonaviy usullar asosida loyihalash, amalga oshirish va takomillashtirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sohasidagi

islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-son Qarorida ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, davlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'lim sohasidagi kadrlar salohiyatini oshirish, ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonlari va xizmatlar ko'rsatishni yangi tamoyillar asosida tashkil etish, ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, islohotlarni yanada jadallashtirish pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ta'lim dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy kreativ ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish kabi bir qancha ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan [1].

Yuqorida qayd etilgan islohotlarni yanada mustahkamlash va bardavom bo'lishini ta'minlash, yoshlarning uzluksiz ta'lim olishga bo'lgan imkoniyatlarini mustahkamlashni taqozo etmoqda. Islohotlarni amalga oshirish uchun ta'lim berish sifatiga e'tibor qaratish va ushbu sohada ishlashning jozibadorligini doimiy ravishda oshirishib borish, oliy ta'lim o'quv jarayonlarining sur'atini o'zgartirish, zamonaviy metod va texnologiyalarga asoslangan ta'lim jarayonini qurish zarurati tug'iladi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2023- yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb nomlanishi ham mamlakatimizda ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, inson kamolotini ulug'lash asosiy tamoyilga aylanganini ko'rsatadi. Zero, millat va xalqning rivoji, uning intellektual va kreativ salohiyatini oshirish o'qituvchilar faoliyatiga bog'liq. Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy g'oyasi bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish omili sifatida ijodiy rivojlanayotgan ta'lim maydonini yaratishdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Tadqiqotchi olimlar tomonidan har xil turdagi kompetentsiya va malakalarni shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan: respublikamiz olimlaridan O. Jamoliddinova, O. Musurmonova, M. Urazova, N. Egamberdiyeva, E. Yuzlikayeva, Sh. Sharipov, Sh. Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning bo'lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o'ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta'minoti, pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan[3]. N.A Muslimov, M.H. Usmonboyeva, D.M Sayfurov, A.B. To'rayevlar tomonidan "Pedagogik kompetentlik" tushunchasining mohiyati, pedagogga xos kompetentlik sifatleri, ularni rivojlantirish yo'llari, pedagogik mahoratning tarkibiy asoslari, pedagogik kreativlikning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati mazmunan ochib berilgan [2].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.A. Bolotov, M.B. Bashkin, E.F. Zeer, A.D. Ivanov, I.A. Zimnyaya, V.V. Serikov, A.B. Xutorskoy, D.V. Shadrikov, O.E. Lebedev, Y.G. Tatur, S.Y. Shishov, I.G. Agapov va boshqalar tomonidan kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar nazariyasi va metodologiyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shilgan [4, 5, 8]. A.V.Xutorskoy ta'lim kompetensiyasini alohida tuzilma sifatida va uni voqelik obyektlariga nisbatan shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan talabaning o'zaro bog'liq semantik yo'nalishlari, bilimlari, qobiliyatlari, ko'nikmalari va tajribasi majmui sifatida belgilaydi [9]. Nazariy va amaliy jihatdan, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asoslari A.A. Verbitskiy, T.A. Barisheva, O.U. Larionova, T.G. Kiseleva, M.L. Zuyeva, N.A. Shaydenko, G.A. Chomayeva kabi olimlar tomonidan o'rganilgan [6, 7, 10].

Xorijiy davlatlar olimlaridan R. Epstein, K. Kaminaka, V. Phan, R. Uda nazariyalari shuni ko'rsatadiki, shaxslarning ijodiy yangi xulq-atvori ilgari o'rnatilgan xatti-harakatlar o'zaro bog'langanligi sababli paydo bo'ladi va o'zaro bog'liqlik jarayoni ham tartibli, ham bashorat qilish mumkin [12].


**Tadqiqot metodologiyasi.** Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradigan axborot-ta'lim muhiti mazmunini aniqlash muammosi bo'yicha mavjud o'rganish natijalarini nazariy tahlil qilish. Zamonaviy texnologik baza bo'lajak o'qituvchilarning axborot-ta'lim muhitida ijodiy tayyorgarligini qo'llab-quvvatlovchi yangi

yondashuvlar, modellar, usullar va vositalar orqali ularning kreativ kompetentligini rivojlantirish. Faollashtiruvchi metod, shakl va vositalar asosida ta'lim shaklini takomillashtirish ilmiy bilimlarning yaxlitligi, aloqasi, tuzilishi va tashkil etilishi, darajalari va ularning ierarxiyasi, boshqaruvi, maqsadi va maqsadga muvofiq xatti-harakati, o'zini-o'zi tashkil etishi, ishlashi va rivojlanishi bilan tavsiflangan tizim kabi o'zgaruvchan tarkibiy qismini aniqlashga imkon beradi.

**Natijalar va muhokama.** Ta'lim sohasida bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy tayyorlash o'qitishning amaliy ishida ko'rsatilgan usul va shakllarning mazmunini mustahkamlagan holda o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirish va ishlab chiqarish qobiliyatini nazarda tutadi. Ta'lim sohalari orasida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ shaxsini shakllantirish va rivojlantirish" alohida ta'kidlangan bo'lib, unda o'qituvchilar tayyorlashning boshlang'ich nuqtasi iste'dodni takomillashtirish jarayoni hisoblanadi. Xususan, oliy ta'lim muassasalari axborot-ta'lim muhitida turli xil texnika va vositalar yordamida bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishni ta'minlaydigan kashf etilgan sohalar g'oyasi asosiy qiziqish uyg'otadi.

Drapeau Patti o'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi, deydi [11].

Demak, kreativlik – bu bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim olishga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga beradigan va uni qiziqarli qilishiga yordam beradigan o'rganishning muhim jihati bo'lib, shaxsga kundalik hayotiy muammolarni hal qilish va samaraliroq bo'lish imkonini beradi. Kreativlik talabalarining amaliy fikrlash ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi, bu esa yaxshi ta'limning muhim natijalaridan biridir. O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirish zarur. Chunki darsning texnologik tuzilmasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarining imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.





Bunday darsning loyihagini tuzish uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, interfaol metodlarni, ularni to'g'ri qo'llay olish usullarini bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihasi bog'liq, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Shuning uchun pedagoglar kreativlikni rivojlantirishga yordam beruvchi turli usullarni dars jarayonlarida qo'llashlari maqsadga muvofiqdir. Talabalar o'zlari tasavvur qilgan narsalarni yaratganda, ular haydovchi o'rindig'ida misolida bo'lishadi. Talabalar yangi narsalarni tezda o'rganishga moyildirlar, ularni ijodiy ishlar bilan shug'ullanirish yanada ijodiy bo'lish motivatsiyasini oshirishi mumkin.

**Pedagogik jarayon komponentlari mazmuni:**

**Kreativlikni ifodalovchi tamoyillar.** Talabalarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon eta olishi, ularning o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi metod va vositalardan foydalana olishi, innovatsion yondashuv va pedagogik muammolarning yechimini topishga kreativ yondashishga yordam beradi.

*Muammolilik xarakterga egalilik tamoyili:* talabalarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar tafakkurida muammoli vaziyatlar hosil qilinadi. Ularni tadqiqotlar o'tkazishga undash imkoniyatlari kengaytiriladi. Ushbu o'rinda talaba o'z tajribasi va mantiqiy xulosalariga tayangan holda muammolarni yechish, tadqiqotlarni amalga oshirish uchun o'zida yetishmaydigan bilimlarni mustaqil izlashga harakat qiladi.

*Ijodiy yo'naltirilganlik tamoyili:* talabalarga mutaxassislik ularni uslubiyat asosi va ilmiy ijodkorlik tajribasini o'rgatish orqali bajariladi. Talabalarda ilmga yo'naltirilganlik ijodiy qobiliyatni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

*Izchillik va tizimlilik tamoyili:* ushbu tamoyil o'qitishni shunday tashkil etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi. Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni izchillik bilan egallab boradilar va amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar.

**Tashkiliy shakllar.** *Zamonaviy ma'ruza:* mazmunan ketma-ketligi, nazariy va ilmiy asoslanganligi, tushunarligi, talabalarning yosh va individual xususiyatlaridan kelib chiqib yoritilishi, taqdimot shaklida namoyish etilishi.

*Amaliy mashg'ulot:* o'qituvchi va talabalarni hamkorlikda faol suhbatga kirishishga yo'naltirilganligi, jamoaviy va individual usullarda tashkil etilishidir. Amaliy mashg'ulotning ahamiyatli jihati shundaki, unda jonli muloqotni amalga oshirish imkoniyati bo'ladi, muammoli vaziyatli fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi, talabalar ko'proq mustaqil, ijodiy izlanishadi, kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

*Seminar-treninglar:* ushbu shaklda nazariy ma'lumotlar tartibga solinadi va mustahkamlanadi, mavjud bilimlar kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi, talabalarning amaliy hamda tadqiqot ko'nikma, malakalari rivojlantiriladi, ularning o'quv-biluv faoliyati nazorat qilinadi, fikrlar almashiniladi.

*Mustaqil ta'limda:* talabalarning erkinligi, ularning ijodiy faoliyat yuritishga, eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyoji shakllanadi. Talaba mustaqil bilim olishda ko'proq yuqori natijalarga erishadi, o'zini-o'zi kreativ shaxs sifatida namoyon eta oladi.

**Yondashuvlar.** *Maqsadli-motivatsion yondashuv:* ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi.

*Tizimli yondashuv:* talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatga oid bilim va ko'nikmalarni shaxsiy-intellektual jihatdan yuqori darajada shakllanishini ta'minlash, ilmiy-ijodiy tadqiqot ko'nikmalarining shakllanishi va bunga mos mustaqil fikrlash tarzini paydo qilish, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy-pedagogik faoliyatga oid yangiliklar kirita olish qobiliyatini rivojlantirish.

**Kreativ salohiyatning muhim darajalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:**

*Yuqori daraja:* muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyib etib boradi, kreativ jihatdan eng faol, izlanuvchanlik darajasi.

*O'rta:* Ba'zan u yoki bu tashabbuskorlikni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo'lmasa-da, ammo namoyon bo'ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo'lishga intiladi.

*Past:* Yetarlicha asoslanmagan bo'lsa-da, tashabbusni ilgari surishga intiladi, kreativ tafakkuri yetarlicha namoyon bo'lmaydi, izlanuvchan bo'lishga intilmaydi.

**Kreativ salohiyatni aniqlovchi mezonlar.** *Tashabbuskorlik* – talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, chuqur bilim berish, yuksak ma'naviyat egasi etib tarbiyalash, ularni kelajak hayotga tayyorlash, ilmiy va ijodiy faoliyatga, qo'shimcha kasb-hunarga o'rgatish, ularda kasbkorlik ko'nikmalarini shakllantirish kabi vazifalar ularni ijodiy mustaqillik, fidoyilik, tashabbuskorlik, salohiyatga xolisona va adolatli baho berish, bilim va tajribaning omixtaligini ta'minlash, maqsadni aniq belgilash, ishchanlikni qo'llab-quvvatlash, javobgarlik hissini kuchaytirib borish, burch va mas'uliyatni anglatishga yordam beradi.

*Kreativ faollik:* talabalarda kreativ fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, ular tomonidan bayon qilingan turli fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir ta'lim oluvchida uning ijodiy fikrlashga qodirliqi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish.

*Izlanuvchanlik:* o'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiruvchi o'qitish texnologiyalari va interfaol usullar asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lim olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish talabalarning izlanuvchanlikka va yaratuvchanlikka yo'naltirishning amaldagi mexanizmlarini yanada rivojlantiradi.

**Metodlar tavsifi.** *Guruhlashtirish metodidan* foydalanganda talabalar o'quv materialini mazmunan yoki unda faol qo'llanilayotgan tayanch tushunchalar asosida guruhlariga ajratib oladilar. Bu usul o'quv materialining kichik bo'lagida ilgari surilgan g'oyalarni puxta o'zlashtirib olish asosida navbatdagi bo'lak matni bilan ishlashga asoslanadi. Guruhlashtirishda dastlabki bo'lak o'quv materiali mohiyatini chuqur anglamay turib, keyingi bo'lak matni bilan ishlashga yo'l qo'yilmaydi. Zaruriyat bo'lsa, har bir bo'lak materiali talabalar tomonidan takroran o'rganiladi. Guruhlashtirish reja tuzish usuli uchun dastlabki asos bo'la oladi.

*Turkumlashtirish metodi:* pedagogik bilimlarni muayyan yo'nalishlar, jihatlar yoki muhim belgilariga muvofiq turkumlashtirish ularning talabalar tomonidan ma'lum tizim asosida ijodiy o'zlashtirilishiga imkon beradi.

*Innovatsion metodlar:* talabalarning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganishga, tahlil qilishlariga, kreativ go'yalarni ilgari surishga, ya'ni masalaga ijodiy yondashishga, xulosalar qilishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.

*Texnologik:* taqdim etilayotgan axborot resurslari ishonchli, tegishli sohaning hozirgi holatiga mos, tizimli, ketma-ket, amaliyot bilan bog'liqligi, taqdimot materiallari mantiqiyliqi, optimal variantlilik, talaba ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

**O'qitish vositalari.** *O'quv-didaktik:* zamonaviy o'quv-uslubiy (darslik, qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatmalar, ilmiy nashrlar, gazetalar) vositalar asosida o'qitish, talabalarning bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ularning mustaqil ishlash qobiliyatlari va amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishda ijobiy samara beradi.

*Ko'rgazmali:* ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish talabalarning pedagogik, psixologik muammolarga oid bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda hamda ularga oid muammolarning yechimini topishda katta yordam beradi. Talabalarning mavzuni o'rganishlarida ularning diqqatini to'plash, darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'zlariga bo'lgan ishonchni uyg'otish hamda ko'rgazmalilik va tarqatmalilik asosida ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat.

*Texnik vositalari:* o'quv materiallarini chuqurroq o'rganishga, ko'proq ma'lumot berishga va idrok qilish vaqtdan unumli foydalanishga yordam beradi.

Ushbu innovatsion dars tuzilmasining maqsadi – ta'lim oluvchilar tafakkurini rivojlantirish, muammolarni yechishga jalb qilish, mavjud bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda rivojlantirish, shuningdek, ularning o'z faoliyatlarini mulohaza qilishlari, ijodiy fikr yuritishlari hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

**Xulosa.** Bunday tashkil etilgan pedagogik jarayon o'ziga xos bo'lib, ularga talabaning dars davomida befarq bo'lmasligini, mustaqil fikrlashini, ijod etishi va izlanishga majbur qiladi. Talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlaydi,

ularning yangi g'oyalarni o'ylab topishga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytiriradi, o'qituvchi va talabalarning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etadi.

*Talabalarni kreativ shaxs sifatida tayyorlashda quyidagilar tavsiya etiladi.*

1. Talabalarni kasbiy faoliyatida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion pedagogik modelini ishlab chiqish.

2. O'quv faoliyatini amalga oshirishning samarali usullarini o'zlashtirish, nostandart pedagogik muammolarni hal qilishning zamonaviy shakllari, vositalari va usullaridan ijodiy foydalanish.

3. Pedagogik jarayonlarni loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish maqsadga muvofiq sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-son Qarori.

2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Toshkent, 2015. – 120 b.

3. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss.–T., 2012. – 264 b.

4. Брякова И. Е. Формирование креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза: Монография / И.Е.Брякова. - Мин-во образования и науки РФ, Оренбург. гос. пед. ун-т. Оренбург: Изд-во ОГПУ, 2010. - 380 с.

5. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе / В.А.Болотов, В.В. Сериков // Педагогика. – 2003. – №10. – С. 8–14.

6. Барышева, Т. А. Креативность. Диагностика и развитие: монография / Т. А. Барышева. - СПб.: изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, -2002. - 205 с.

7. Вербицкий А.А. Контекстно–компетентностный подход к модернизации образования // Высшее образование в России. – 2010. – № 5. – С. 32–37.

8. Зимняя И.А. Ключевые компетенции новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. 2003. № 5. –С. 32–34.

9. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образование // Народное образование. 2003 № 2 –С. 58–64.

10. Шадриков В.Д. Базовые компетенции педагогической деятельности / Шадриков В.Д.// Сибирский учитель. – 2007. – N 6. – С. 5–15.

11. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

12. Epstein, R., & Phan, V. (2012). Which competencies are most important for creative expression? Creativity Research Journal, 24(4), 278–282.

13. Gralewski, J. Teachers' beliefs about creative students' characteristics: A qualitative study /J. Gralewski // Thinking Skills and Creativity. - 2019. - V. 31. – P. 138–155.

#### **ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION IN THE PEDAGOGICAL FIELD IN MODERN FORM AND METHODS**

**Rashidova Oynisa Khusniddin kizi**

Master student of Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

[aoynisaa@gmail.com](mailto:aoynisaa@gmail.com)

ORCID: 0009-0004-3470-5399,

UDC: 378.18

**Annotation.** Today, around the world, great changes are taking place in the field of education. Every change in the field of education will undoubtedly have a positive effect on the development of society. These changes are considered as an important factor in raising the intellectual potential of our country and training mature, competitive personnel who can meet the requirements of modern world education standards. The role of independent education, which is an

integral and most important part of the modern educational process, is incomparable in the preparation of such personnel. The pursuit of independent knowledge in any field is a characteristic feature of the educational process and the basis of learning. Also, it is important to properly organize the independent education of students and pupils in higher educational institutions, but also in school education processes and to achieve the intended goal. Therefore, this article shows the important pedagogical conditions for the organization of independent education in a modern, systematic and optimal form that can meet world educational standards. In addition, the goals and tasks of organizing independent education are studied in depth. At the same time, information is given about the methods used for effective independent education of students.

**Key words.** Independent education, pedagogical conditions of organizing independent education, goal, task, methods of independent education.

#### **PEDAGOGIK SOHADAGI OLIY TA'LIM MUASSASI TALABALARINING MUSTAQIL TA'LIMINI ZAMONAVIY SHAKL VA METODLARDA TASHKIL ETISH**

**Annotatsiya.** Bugungi kunda, dunyo bo'ylab, ta'lim sohasida katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Ta'lim sohasidagi har bir o'zgarish jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Ushbu o'zgarishlar mamlakatimizning intellektual salohiyatini yuksaltirishda zamonaviy dunyo ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. Bunday kadrlarni tayyorlashda zamonaviy o'quv jarayonining ajralmas va eng muhim qismi bo'lgan mustaqil ta'limning o'rni beqiyosdir. Har qanday sohada mustaqil bilim olishga intilish ta'lim olish jarayonining o'ziga xos xususiyati va bilim olish asosidir. Shuningdek, Oliy ta'lim muassasalarida balki maktab ta'lim-tarbiya jarayonlarida ham talaba va o'quvchilarning mustaqil ta'limini to'g'ri tashkil etish va undan ko'zlangan maqsadga erishish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, ushbu maqolada jahon ta'lim standartlariga javob bera oladigan, zamonaviy, tizimli va optimal shakldagi mustaqil ta'limni tashkil etishning muhim pedagogik shartlari ko'rsatiladi. Bundan tashqari, mustaqil ta'limni tashkil etishning maqsad va vazifalari chuqurroq o'rganiladi. Shu bilan birgalikda, talabalarning mustaqil ta'limi samarali bo'lishi uchun qo'llaniladigan metodlar haqida ma'lumot berib o'tiladi.

**Kalit so'zlar.** Mustaqil ta'lim, mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik shartlari, mustaqil ta'lim maqsadi, vazifasi, metodlari.

**Introduction.** Uzbekistan is carrying out many systematic works and reforms to create a national education system that can meet the requirements of the world education standard. An example of these reforms is the concept of the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030, which was adopted on October 8, 2019. In the chapter of this concept entitled "Strategic goals and priorities of the development of the higher education system" "Increasing the share of independent education study hours, students' independent learning, critical and creative thinking, systematic analysis, education it is said about the orientation of the learning process, the educational process, the formation of practical skills, the use of advanced pedagogical technologies, new innovative methods and tools in this regard [1]. In order to ensure the implementation of this chapter, according to the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 31, 2020, the regulation "On the procedure for introducing the credit-module system into the educational process in higher education institutions" [2] was approved. According to this regulation, in the last three years, all higher education institutions in the country have been completely transferred to the credit-module system. One of the main tasks of this credit-module system is to increase the share of independent education of students during the educational process. At the same time, this modular system gives students opportunities to work with more information, to analyze it, to strengthen the knowledge gained during the educational process and, most importantly, to develop the ability of independent work.

Independent education is organized based on the topics of a specific subject, lecture, practical, seminar classes, and its main task is to strengthen students' theoretical knowledge, develop understanding, expand their worldview, increase their interest in creative activities, and help to form independence in educational activities. Independent work of students occupies an important place in the system of training mature, knowledgeable, qualified personnel, increasing the importance of the educational process. Many studies show that independent work not only improves students' knowledge, but also develops their independent work skills. In addition, the

individual activity of the student in educational activities increases through independent work, and the knowledge acquired in lectures, seminars, and practical training is ensured.

**Research Methodology.** The student's independent work serves to develop the Owner's thinking of any future profession. In general, it can be said that it is a type of training that increases the cognitive activity of students and encourages them to think independently. Independent education plays an important role in student activity. For this reason, each university determines the forms of independent education based on the characteristics of the subject being studied and the student's mastery level.

The goal of organizing independent education is to form and develop the knowledge and skills necessary for the student to independently perform certain educational tasks and work independently.

The main tasks of independent education:

- ✓ Searching for the requested information, studying it and identifying convenient methods and means of strengthening it;
- ✓ Learning to use information sources and addresses, work with electronic educational literature and information;
- ✓ Working with traditional educational and scientific literature, regulatory documents;
- ✓ Acquiring the skills of independent assimilation of new knowledge;
- ✓ Purposeful use of the Internet, learning to choose the optimal solution for a given task;
- ✓ To be able to separate the necessary information from the received information;
- ✓ Briefly describe the knowledge acquired for oneself in the conclusion;
- ✓ Justification and protection of the developed solution, project or idea in a team of experts.

The main method of independent education is individual work on literature. This method forms the ability to find the most important information in the flow of information, give it the correct assessment, and use this information in one's professional activity. It allows you to use independent training methods based on the obtained information. The use of this method provides necessary quality indicators in practical activities [3]. It is understood that in order for independent education to be effective for students, it is necessary to organize independent education that requires work on literature and works individually.

In addition, case-study (analysis of problematic situations) and Th.R.E.G (Thought, Reason, Example, Generalization) method also help to make independent education effective[4]. The general scheme of the Th.R.E.G method:

Th – state your opinion;

R - give a reason justifying your opinion;

E - give an example confirming your reason;

G - summarize your opinion.

Example. Topic: "Diffusion"

**Thought:** The phenomenon of spontaneous joining of molecules.

**Reason:** It appears as a result of continuous and irregular movement of molecules. As the temperature increases, the rate of diffusion increases. Diffusion occurs rapidly in gases, it is slower in liquids, and much slower in solids, because in solids the molecules of the bodies are densely packed.

**Example:** The smell of perfume spreads quickly. The heat of the food. Formation of kandchoy. Meat salting Solon preparation.

**Generalization:** Diffusion is a spontaneous mixing of molecules is a departure event. This phenomenon is a result of the continuous and disordered movement of molecules appears. Diffusion depends on temperature. Diffusion as the temperature increases the speed also increases. The phenomenon of diffusion is faster in gases, slow in liquids, solids it is very slow in bodies.

The case study method is an important teaching and learning technique as an analysis of a specific situation or problem.


**Example.** Below, I offer a case that can be used in a seminar organized by the subject "General pedagogy"; Babur, a student of the 9th grade, had an argument with the teacher in the history lesson. The history teacher hit Babur for talking back. Babur's comrades took him and argued with the teacher. The teacher said that he will punish the students for what they did. When they were passing the state exams in history, the teacher gave a grade of "3" to the students who

were studying for a grade of "5". After that, the students hated the history teacher.

Case questions: 1. How should the teacher behave in such a situation? 2. In this situation, which of the educational methods should the teacher be able to use effectively? Recommended resources for students: Educational methods, literature on the use of educational methods in the pedagogical process. Case Analysis: The case is based on a very sensitive issue. The teacher has two options: 1) it is necessary to convince the student that it is not good for well-behaved children to talk back to adults, that "a teacher is as great as a father" through narrations and the teachings of our scholars; 2) who treated the students unfairly during the exam, teach their friends that "strength is united" during the lesson, respect adults, help their friends if they make a mistake, if it affects the students It was necessary to ask the head of the class for help Cases are required to be based on real events and situations and to be problematic situations that the student may encounter in his future work and life. In this method, students study and analyze specific problems and situations in the independent study task and develop various alternative solutions to overcome this situation and have to choose the most specific solution among them. This method helps the future teacher to find optimal solutions for the problem and to form the skills of choosing the most optimal solution in the conditions of an alternative competition. It is also the basis for the development of students' skills such as working with information, analysis, problem solving, critical and creative thinking. The success of cases prepared for independent study depends on compliance with the following three requirements:

1. Sufficient size of the initial database.
2. Participation of experts from practice in the development of cases.
3. The existence of a situation or problematic situation that allows the use of different methods of analysis in the search for a solution to the problem.[5]

The third main method is the Th.R.E.G. This method is a method that makes independent education interesting for students and encourages them to think freely. First of all, during the study of the topic in the independent study assignment, students express their opinions on the issues related to it, then give the reasons justifying those opinions and give an example to prove the reasons, and finally give conclusions summarizing them. This method teaches students to think freely, to defend and to convey their opinion, the culture of debate, the main thing is to analyze the knowledge acquired during the educational process and to determine and evaluate the level of mastery.



**Fig. 1.** Pedagogical conditions for effective organization of independent education.

A student does not become knowledgeable only if he/she studies in practical and seminar classes, he can deeply absorb the knowledge he has acquired in his memory only if he/she always works independently on himself and makes independent work the habit. The future teacher's knowledge, skills, abilities and necessary skills are sufficiently formed in the process of independent education and practical activity.

In the organization of independent education of students in a higher education institution, it is organized based on their mastery level and ability to perform. They are developed in the following 4 stages:

1. The simplest stage. In this case, the student performs the given task according to the model and the assignment law. Example: synopsis, abstract, etc.

2. Variable stage. In this stage, the student will be able to choose one of several rules and definitions and apply it in the process of performing the task given in independent education. For example: tests, questions, etc

3. Partial search phase. In this stage, the student develops the ability to choose a solution based on the existing laws and rules of solving a specific problem. For example: cases, problem-based learning technologies.

4. Creative search stage. At this level, the student's skills such as knowledge and understanding are formed. In addition, the student's creative, critical thinking develops. For example: writing an article, thesis, essay.

Bachelor students of higher education institutions receive education for 4 years, and their independent education is organized at 4 different levels based on their knowledge, skills, and abilities. During these periods, students systematically implement all the goals of independent education and become qualified specialists who meet the requirements of today's times.

**Discussions and results.** Also, the independent educational tasks organized in the academic subject should be structured in such a way that they should encourage students to freely search and think during the task.

According to famous scientists, the essence of higher education institutions is characterized by independent scientific work. Therefore, every student should master the effective method of scientific work, develop the ability and readiness for independent creative activity, independently acquire and improve scientific knowledge, and develop the ability to creatively apply it in practice. Continuous improvement of scientific activity and education should become a personal need of every specialist with higher education. The main goal of these is to familiarize students with the rules and methods of successful creative activity from the first year of study.

In addition to these, the organization based on the above-mentioned modern methods, pedagogical conditions, goals and tasks contributes enough to the effectiveness of independent education of students. It helps them to be able to think freely, creatively, meaningfully, to strengthen their acquired knowledge, to connect their knowledge with practice, to be able to solve a specific problem, and most importantly, to become a mature specialist of their profession.

**Conclusion/Recommendations.** In short, a highly educated person who can meet the requirements of today's times must have his own independent opinion and knowledge. Independent education serves as the basis for the formation of future pedagogues. Therefore, in this study, the goals and tasks of independent education in the modern form, methods, and its pedagogical conditions were highlighted. It is believed that the given information will help to organize the independent education of students. It also causes students to develop the ability to work independently on themselves as a daily habit. Just like sleeping at night.

#### References.

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi PF-5847 -T., 2019 yil 8 oktyabr

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2020-yil, 31-dekabr,824-son qarori

3. Shukurillo Yuldashev Abdulhoshim o'g'li, " O'zbekiston ta'lim tizimida mustaqil ta'limni fin ta'lim tizimi asosida tashkil etish va boshqarish" nomli tezis, "Raqobatbardosh kadrlar

tayyorlashda fan - ta'lim - ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023-yil 22-noyabr, [doi.org/10.5281/zenodo](https://doi.org/10.5281/zenodo).

4. R.Tuxtashva tuzuvchi, "O'quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirish asoslari" nomli o'quv uslubiy majmua, Samarqand-2022.

5. Gulsanam Shomansurova Muxametjon qizi, "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida Finlandiya ta'lim dasturlari va darsliklari", Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке», № 10 (100), часть 2 май, 2023, 1097-1002-b.

6. Begmatova D.M., Rashidova O.X. "Organizing the independent education of students in higher education institutions on the basis of a creative approach", « Journal of new century innovations" international interdisciplinary research journal, 2024, 25-31-b, DOI: [doi.org/10.5281/zenodo.10618051](https://doi.org/10.5281/zenodo.10618051)

7. Rashidova O. "The use of innovative methods and tools in the organization of independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, volume 3, issue 10, 2023, 261-270-b

8. Qo'chqarova M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini singdirib borish - davr talabidir" tezisi, "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti" mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, 2023-yil, 31-mart

9. Qodirov D. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashga o'rgatishga maxsus tayyorlash zaruriyati", UDK: 373:371doi:10.34920/so/vol\_2022\_issue\_8\_7

10. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. diss. – T., 2007. – 315 b.

11. Qurbanova B.N "Modern forms of organizing students independent work as a pedagogical problem" International scientific journal volume 2 issue 2 february 2023 uif-2022; 8.2| issn: 2181-3337| scientists.uz.

12. Odilova Mahfuza, Buxoro davlat universiteti Biologiya kafedrasida o'qituvchisi. "Oliy o'quv yurtlarida talabalarining mustaqil ta'lim jarayonini tashkil qilishda gat texnologiyalaridan foydalanish muammolari". ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2022 год №6)

13. O.Y Mahmudova "Innovative organization of independent education of students and tools" maqolan NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX - ko'p tarmoqli tengdoshlar tomonidan ko'rib chiqilgan jurnal ISSN №: 2581 -4230 9-JIM, SON, mart -2023

## ETNOPEdagogik ASARLARDAN FOYDALANISHDA O'QUVCHILARNING YOSH XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH

**Negmatova Zulayho Shermatovna,**

Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

[negmatovazulayxo9@gmail.com](mailto:negmatovazulayxo9@gmail.com)

ORCID: 0009-0005-6540-6567

UDK:373,3.016:74

**Annotatsiya:** ushbu maqolada etnopedagogik asarlardan foydalanishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishning ilmiy-nazariy muammolari, ta'lim jarayonidagi ahamiyati, milliy-etnopedagogik xususiyatlari borasida fikrlar bildirilgan. Etnopedagogik asarlar xalqimiz ijod namunalari asosida yaratilgan madaniy obidalar hisoblanib, ular yosh avlodni odob-axloq, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim manba vazifasini o'taydi. Etnopedagogik asarlarni o'rgatishda yosh xususiyatini e'tiborga olish o'quvchilarning, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan "O'qish savodxonligi" darsligida keltirilgan materiallar asosida tahlil qilish o'quv-biluv jarayoni mazmuni va sifatini yaxshilashda ahamiyatli hisoblanadi. Maqolada biz maqol, topishmoq va tez aytish kabi etnopedagogik asarlardan foydalanib, ularning boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatilishi, o'rgatish jarayonidagi metodik yondashuv, asarning g'oyaviy



mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati hamda yosh avlod ta'lim-tarbiyasida tutgan o'zni kabi masalalarni tizimli tahlil qilish asosida ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** etnopedagogika, asar, o'quvchi, o'quv-biluv, ta'lim, yosh xususiyat, maqol va topishmoq.

#### **TAKING INTO ACCOUNT STUDENTS' AGE CHARACTERISTICS WHEN USING ETHNO-EDUCATIONAL WORKS**

**Abstract:** In this article, the scientific-theoretical problems of taking into account the age characteristics of students in the use of ethno-pedagogical works, their importance in the educational process, national-ethno-pedagogical characteristics are expressed. Ethno-pedagogical works are considered cultural monuments created on the basis of examples of creativity of our people, and they serve as an important resource in educating the young generation in the spirit of manners and love for the motherland. Taking into account the age characteristic in the teaching of ethno-pedagogical works is important in improving the content and quality of the learning process, based on the materials presented in the "Reading Literacy" textbook, especially for primary school students is considered. In the article, we use ethnopedagogical works such as proverbs, riddles, and quick sayings to discuss their teaching to primary school students, the methodical approach in the teaching process, the ideological content, educational significance of the work, and its role in the education of the younger generation. Such issues were shown on the basis of systematic analysis.

**Key words:** ethnopedagogy, work, student, learning, education, young character

**Kirish.** Ta'lim jarayonida etnopedagogik asarlarni o'rgatish, ulardan samarali foydalanishda yosh xususiyatlarini e'tiborga olish har qanday pedagogik tarbiyaning bosh omili hisoblanadi. Chunki o'quvchi yoshiga mos bo'lmagan matn ham, o'qitish usuli ham uni qiziqishiga sabab bo'lmaydi. Natijada nafaqat o'qitish samaradorligi, balki o'quvchining mavzuga doir qiziqishi ham amaldagi ijobiy xususiyatdan zararli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Har qanday ta'lim va tarbiyadan ko'zlangan maqsad esa o'quvchilarni mavzularni yaxshi o'zlashtirish orqaligina tevarak-atrof hodisalariga ijobiy munosabat bildirish, mustaqil bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, eng asosiysi esa intellektual qobiliyatni shakllantirish asnosida jamiyatga foyda keltiradigan avlodni shakllantirishdir. Bu esa etnopedagogik materiallar asosida o'quvchilarning axloqiy-estetik tafakkurini o'stirishda muhim vosita hisoblanadi. Yosh xususiyati bilan bog'liq o'quv-biluv jarayonini tashkil etish va etnopedagogik matnlardan foydalanishning o'ziga xos ilmiy tamoyillari mavjud bo'lib, ularni boshlang'ich ta'lim "O'qish savodxonligi" (1-4-sinflar) darsligi matnlari asosida ko'rsatib o'tamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Etnopedagogik asarlar ta'lim va tarbiya jarayonida muhim bir ahamiyatga ega ma'naviyat xazinasidir. Etnopedagogika yoxud xalq pedagogikasi sifatida e'tirof etilayotgan fan xalqimiz yaratgan ijobiy namunalari bo'lib, ulardan ko'zlangan maqsad yosh avlodga o'git berish, ularni to'g'ri yo'lga boshlash va tom ma'nodagi yurtparvar avlod sifatida kamol toptirishdir. "Xalq pedagogikasi xalq ommasining turli davrlar obaynida turmush faoliyati jarayonida to'plagan boy tajribalari, axloqiy, ma'rifiy, ma'naviy yetuklik borasidagi qarashlari va xulosalarini ifodalaydi, etnologiya, etnografiya, etnopsixologiya va etnopedagogika, qadrshunoslik, qadimshunoslik (arxeologiya), udunishunoslik va xalq og'zaki ijodining barcha yo'nalishlarini qamrab oladi, ulardagi axloqiy-ma'rifiy g'oyalarni o'rganadi. Xalq pedagogikasi asrlar davomida minglab avlodlarni tarbiyalash jarayonida yuzaga kelgan ilg'or axloqiy g'oyalar va tajribani o'zida umumlashtirgani uchun faqat tarixiy-madaniy qadriyat sifatidagina emas, balki zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishda ham muhim ahamiyatga egadir"[1,3]. Shunday ekan, etnopedagogik asarlarni o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'rgatish ishlari ta'lim jarayonidagi muhim muammolardan hisoblanadi. Chunki o'quvchilar etnopedagogik asarlar orqaligina milliy ruh, vatanparvarlik tuyg'ularini his etish, mustaqil fikrlaydigan aqliy tafakkur egasi sifatida kamol topadi. Ayniqsa, etnopedagogik asarlar g'oyasi, mazmuni, ularda tasvirga tortilgan voqelikni anglash, xulosa chiqarish esa, avvalombor, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tibor olish orqali ularga singdirib boriladi.

O'quvchi o'qigan, bilgan, o'zlashtirgan narsalarining xulosasi esa ijobiy xususiyat kasb etishi, salbiy qusurlardan voz kechish ko'nikmasini shakllantirish orqali uning aqliy tafakkurida rivoj topadi. Etnopedagogik asarlarni yosh xususiyatiga ko'ra o'rgatishning metodologik asosini

etnopedagogik muammolarni o'rganishga qaratilgan bir qator darslik, o'quv qo'llanma va tadqiqot ishlari tashkil etib, qiyosiy-taqqoslash, tahliliy sintetik, diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), pedagogik eksperiment kabi metodlar tizimida amalga oshirildi.

**Natijalar va muhokama:** Etnopedagogik asarlarning yosh xususiyatga ko'ra o'rgatishdan kutilgan natijalar o'quvchilarning asar yuzasidan mustaqil, erkin fikr bildirish orqali kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish, ijodkorlik tuyg'ularini o'stirishga qaratilganligidir. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda etnopedagogik asarlarni o'rgatishning bir qator nazariy asoslari ko'zga tashlanadi.

Birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan "O'qish savodxonligi" darsligida keltirilgan matnlar o'quvchilarning pedagogik-psixologik yosh xususiyatlari nuqtayi nazaridan hisobga olinishi lozim. Bunda ularning olimlar tasniflagan "kichik maktab yoshidagi o'quvchilar" tarzida yosh xususiyatlari nazarda tutiladi va ular 6-10 yoshni qamrab oladi.

Ikkinchidan, bu yoshdagi o'quvchilar yetakchi faoliyati o'qishdan iborat bo'lib, bolalarning bilish qobiliyati va intellektual salohiyati shiddat bilan o'sib borish jarayoni e'tiborga olinadi.

Uchinchidan, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarining bosh maqsadi bolalarga o'qishga, kitobga va adabiyotga qiziqish uyg'otish orqali badiiy-estetik tuyg'ularini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Bunda etnopedagogik matnlarning integrativlik xususiyatlari hisobga olingan holda o'quvchilarda muayyan ma'naviy sifatlarni uyg'unlashtirilishi nazarda tutilishi lozim.

To'rtinchidan, etnopedagogik asarlarning nafaqat didaktik nuqtayi nazardan balki o'quvchilarda hissiy ta'sirchanlik, tasavvur va sezgilar boyligi, ijodiy fantaziya, nutq ravonligi, o'qish texnikasi hamda ko'nikmalariga mos keladigan matnlar tavsif qilinishi jihatidan tanlab olinishi kerak.

Kichik o'quvchilik – atrof olam haqidagi son sanoqsiz bilimlarni o'zlashtirish, singdirish va to'plash davridir. Bu yoshda kattalardan eshitilgan gaplar va ko'rilgan usullarga qilingan taqlid bolaning intellektual riqojiga katta o'rin tutadi. Kichik o'quvchilardagi ishonuvchanlik, ta'sirchanlik, faollik, harakatchanlik singari sifatlarni ularning shaxs o'laroq shakllanishida qo'l keladi[2:84]. Bu yosh o'quvchilariga mo'ljallangan asarlar qiziqarli, ixcham, syujetining qisqaligi, tili sodda va ravon bo'lishini talab etadi.

Chunki "Kichikintoylarga bag'ishlangan asarlar syujetining muhim xususiyatlaridan biri, o'quvchi diqqatini tutib turuvchi qiziqtiruvchanligidir. Chindan ham badiiy asarning syujeti qiziqarli bo'lsagina o'z vazifasini to'la bajarishi mumkin. Kitobxonni zerikarli voqealar tasviri orqali dunyoni bilib olishga majbur qilib bo'lmaydi. Bunday asarning yosh avlod uchun hech qanday manfaati yo'q. Demak, qiziqtiruvchanlik o'z-o'zicha bo'lmay, balki ijodkor g'oyasining kitobxon hissiyotiga faol ta'sir ko'rsatishiga mo'ljallanishi bilan xarakterlanadi. Avvalo, qiziqarlilik, - deb yozgan edi bolalar adabiyotining tadqiqotchisi I.Motyashov, - kitob qaysi yoshdagi bolalarga mo'ljallab yozilgan bo'lsa, ularni qiziqtirishi lozim. Tushunarli bo'lmagan va zerikarli kitob yaxshi, muhim narsalar haqida hikoya qilishiga qaramay, jonsizdir. Ikkinchi haqiqa. Bolalar kitobi o'ziga xos oyna bo'lib, yosh kitobxon dunyoni birinchi marta shu oyna orqali kuzatadi... Bolalar hayotni qanday bo'lsa, shunday – go'zal va xunuk, quvonchli va qayg'uli, yorqin va qabih tomonlarini ko'ra bilsin"[3.68]. Bu yosh o'quvchilarda diqqat, idrok etish, tafakkur, xotira, xayol kabi ruhiy jarayonlar to'liq rivojlanmaganligi bois kattaroq hajmli asarlarni qabul qilishda qiynaladilar.

Shu boisdan "O'qish savodxonligi" darsligida keltirilgan matnlar yuqorida e'tibor qaratilgan tamoyillar doirasida tanlab olinadi va o'quv-biluv jarayonida amaliy hamda nazariy jihatdan o'rgatiladi. Misol uchun 2-sinf "O'qish savodxonligi"[4] darsligida etnopedagogik matn sifatida keltirilgan maqol, topishmoq va tez aytishlar o'quvchilarning har tomonlama fikr yuritishi, o'yga tolishi, muammoni anglash ko'nikmasini shakllantirish bilan bir qatorda matn orqali tegishli xulosa chiqarish, uning tez o'qiy olish malakasini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bunday etnopedagogik matnlar yordamida o'quvchilarning tez o'qish, yod olish ko'nikmalari o'stirilib, ta'sirchanlik doirasi kengaytirib boriladi. Ayniqsa, darslikning 2-bo'limi sarlavhasida keltirilgan "Kitob – noyob xazina, bilim – tunganmas boyluk" mavzusida keltirilgan matnlarda kitobning

o'quvchi kamolotining yuksalishiga xizmat qilishi bilan bog'liq mavzularning tanlab olinganligi diqqatni tortadi.

Ma'lumki, maqollar etnopedagogik asarlarning eng qisqa, eng ommabop hamda mazmunining lo'nda, aniq va tugal ekanligi bilan ajralib turadi. U voqealarni hukmdan ekspozitsiya tomon harakat qilishini ta'minlab, xalqning uzoq asrlik kuzatuvlari, tajribasi va dono qarashlarining badiiy umumlashmasidan iborat asardir. Darslikda keltirilgan "Bilmagandan bilgan yaxshi, To'g'ri ishni qilgan yaxshi", "Bilimlarga dunyo yorug', Bilimsizga – qorong'u" kabi maqollarda ham kitob o'qish orqali bilimli bo'lish, tajriba to'plash va hayot sirlarini anglash mezonlari qisqagina jumalarda tasvirlangan. O'quvchilar ushbu matnlarni o'qish va yod olish asnosida bilimning imkoniyati keng ekanligini his etadi, mushohada qiladi. Bilimli kishigina dunyo sirlarini, ilmlarini anglasa, bilimsiz kishi esa hech narsani ko'rmaydi, unga dunyo sirlari qorong'u tarzda badiiy ifodasini topadi. O'quvchi ushbu holatlarni badiiy fikrlash asnosida qiyoslaydi. Chunki o'quvchi maqolning mazmunidan kelib chiqqan holda o'zida yuzaga kelgan tuyg'uni, asarning tarbiyaviy ahamiyatini, obrazlari va mazmuni ifodalangan mohiyatni anglay boshlaydi[5]. Bu esa o'quvchilarning tuyg'u va fikrlarining faollashuvini ta'minlash bilan bir qatorda tevarak-atrof voqea hodisalarini kuzatish imkoniyatini ham hozirlaydi. Birgina maqolda keltirilgan voqeaning – mazmunning izohlatish orqali turli didaktik vositalardan foydalanish mumkin.

Ikkinchidan, ushbu yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarning ma'nolarini qiyoslash asosida nutq malakasi, so'z ma'nosi, fikr tezligiga erishish mumkin. Dunyoning yorug' va qorong'u tasvirlanishi antiteza sifatida qo'llanilib, maqolning mazmunini to'ldirib keladi. Bu antiteza bilimli va bilimsizlikning chegarasini muvoziy jihatdan teng taqqoslash usulini ham beradi. Darslikda keltirilgan matnlar esa nafaqat hajmining qisqaligi, balki o'quvchilarning yosh xususiyatlari qamrab olinganligi, ularning bilim va ko'nikmalarining asta-sekinlik bilan o'sib borish amaliyotini ham o'taydi. O'qituvchining bu boradagi vazifasi o'quvchilarning qiziquvchanligini intiluvchanlik faoliyati bilan uyg'unlashtirish, o'rganilgan matn voqealarini o'rganib qolmasdan, balki ularning sababi borasida o'ylashga yo'naltirishdan ham iboratdir. Bu esa ta'lim jarayoniga xos uyg'unlashuv bo'lib, darsning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

**Xulosa va takliflar:** Boshlang'ich sinf "O'qish savodxonligi" darsligida adabiy, ilmiy-ommabop va badiiy matnlar keltirilgan bo'lib, ularni mumtoz asarlar bilan boyitish texnologiyasini ishlab chiqish lozimligi ko'rinmoqda. Ikkinchidan, etnopedagogik matn sifatida xalq dostonlari, jumladan, qahramonlik dostonida keltirilgan vatanparvarlik, do'stlik va oliyjanoblikni ulug'lovchi matnlarni yosh xususiyatiga doir tanlab kiritish ishlarini yo'lga qo'yish kerak.

Etnopedagogik asarlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh xususiyatlariga qarab tanlash, o'qitishdan ko'zlangan maqsad ularda estetik did, ta'sirchan hissiyot va nozik tuyg'ularni qaror toptirish orqali narsa va hodisalarning yaxshi va yomon xususiyatlarini anglash, tasavvur uyg'otish singari sifatlar shakllanishiga yo'naltiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mutalipova M. Xalq pedagogikasi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. –B.3.
2. Мухина В. Возрастная психология. – 4-е изд. –Москва: Академия, 1999. –С.84
3. Safo Matjon. Kitob o'qishni bilasizmi? –Toshkent: O'qituvchi, 1993. –B.68.
4. Aydarova U. O'qish savodxonligi. 2-sinf. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. –Toshkent, 2023.
5. Negmatova Z. Etnopedagogik manbalarning turlari va tarbiyaviy imkoniyatlari // Xalq ta'limi, 2024 №4. –B. 22-26.
6. To'rayeva D. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish (Integrativ yondashuv asosida) // Xalq ta'limi, 2023 №5. –B.31
7. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari.: Ped. fan. dok. ... diss. – Тошкент, 2003. – 280 b..
8. Nurullayeva Sh.U. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi.: ped. fan. nom. ... diss. – Qarshi, 2008. –145 b.
9. Sariyev Sh. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish. – Toshkent, 2010.

**BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARIGA "INFORMATIKA VA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI" FANININI O'QITISHDA ULARNING TASAVVURLARINI VA  
IJODIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.**

**Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qitvchisi

**Ilmiy rahbar: G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

[muxiba8083@mail.ru](mailto:muxiba8083@mail.ru)

ORCID 0009-0009-5083-2511

UO'K: 004.371.373.167.1

**Annotatsiya.** Maqolada birinchi sinf o'quvchilariga "Informatika va axborot texnologiyalari" faninig "Biz olamni qanday qabul qilamiz?" bobini o'qitish davomida tasavvur va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning samarali usullardan biri "Intellekt xarita"lardan foydalanish ekanligi haqida fikr yuritilgan. "Bosh miya yarimsharining mutaxassisliklarga aloqadorlik kashfiyotiga" asosan tasavvur va "nostandart fikrlash" bosh miya o'ng yarimsharining mahsuli ekanligi o'rganilib, asosiy axborot ongostida saqlanishi va u ota-onadan "meros qilib olingan" (DNK lar orqali o'tgan) va hayot davomida idrok qilingan ma'lumotlarning mavjudligi o'rganilgan. Tahlillar natijasida bolalar ma'lumotlarni yaxshi idrok qilishlari uchun ularni vizuallashtirish lozimligi va vizuallashtirishning samarali vositasi intellekt xaritadan foydalanish mumkinligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada "Tasavvur" nomli intellekt xaritasida 1-sinf o'quvchisi yordamida o'zi yaxshi ko'rgan mevasi orqali bosh miya chap va o'ng yarim sharlarida ma'lumotlarni tasavvur qilinishini ko'rsatilgan bo'lib, u o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda yangi g'oyalar tug'ilishi, diqqatlarini jamlash, muammoning asl mag'zini aniqlab olish va verbal ma'lumotlarni vizual ko'rinishda ifodalash imkonini berishi haqidagi ma'lumotlar yoritib o'tilgan. Bundan tashqari, o'quvchilarning tasvurini aniqlash usullari va baholash mezolari haqida ham natijalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Informatika, axborot texnologiyalari, tasavvur, fikrlash, nostandart fikrlash, ijodiy fikrlash, verbal ma'lumotlar, vizuallashtirish, intellekt xarita.

**ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ВООБРАЖЕНИЯ И НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО  
МЫШЛЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПЕРВОКЛАССНИКОВ ПРЕДМЕТУ  
"ИНФОРМАТИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ"**

**Аннотация.** В статье рассматривается вопрос о том, что одним из эффективных способов развития воображения и творческого мышления у первоклассников при изучении раздела «Как мы воспринимаем мир?» предмета «Информатика и информационные технологии» является использование «интеллектуальных карт». После открытия связи полушарий головного мозга со специальностями было установлено, что воображение и «нестандартное мышление» являются продуктом правого полушария головного мозга, что основная информация хранится в сознании и что она наследуется от родителей (передается через работу ДНК), и что информация воспринимается на протяжении всей жизни. В результате анализа было высказано предположение, что для того, чтобы дети хорошо воспринимали информацию, ее необходимо визуализировать, и что эффективным средством визуализации является интеллект-карта. Также в статье показано, что интеллект-карта под названием "Представление" визуализирует информацию в левом и правом полушариях головного мозга, что позволяет развивать навыки творческого мышления учащихся, рождать у них новые идеи, концентрироваться, выявлять истинную суть проблемы и визуально выражать вербальную информацию. Кроме того, представлены результаты определения уровня творческого мышления учащихся и критерии оценки.

**Ключевые слова:** информатика, информационные технологии, воображение, мышление, нестандартное мышление, творческое мышление, вербальные данные, визуализация, интеллект-карта.

**Kirish.** Inson faoliyatining barcha sohalarida: xoh u ishlab chiqarish bo'lsin, xoh madaniyat va san'at, xoh ilmiy yoki pedagogik faoliyat bo'lsin, ijodiy faoliyat rag'batlantiriladi.

Chunki u mehnat samaradorligining ortishiga olib keladi. Shuning uchun ham ijodiy fikrlash ko'nikmalariga ega mutaxassislar doimo yuqori baholanib kelinadi. Ayniqsa, hozirgi jadal rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar davrida ularning bahosi yanada ortmoqda. Ijodiy fikrlashga o'rgatish esa ta'lim jarayonida amalga oshiriladi.

Ta'limda ijodiy fikrlash, o'quvchilarga yangi tushunchalarni va tahlillarini yaratish, o'zlarining fikrini ifodalash va masalalarga yangi yechimlar qidirish bo'yicha imkoniyatlar berishga oid jarayonlarni ifodalaydi. Bu, o'quvchilarga qoniqish va o'ylashni o'rganishga, o'z fikrlarini ifodalashga, muammo va vaziyatlarga yaratuvchi yechimlarni topishga ko'maklashadi.

Ijodiy fikrlash ta'limda o'quvchilarni o'ylash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularning mustaqil fikrlarini ifodalash va yangi yechimlarni topishga o'rgatadi. Bu jarayon ta'limni dinamik va amaliyotga yo'naltiradi, shuningdek, o'quvchilarning kreativlik va innovatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talim jarayonida ijodiy fikrlashni o'rgatishga yo'naltirilgan uslublar zarur. Fikrlashning aniq uslublarini o'zlashtirish miya energiya iste'molining kamayishiga, fikrlash samaradorligining esa ortishiga olib keladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Doimo yangilanib boryotgan olamda muvaffaqiyatlarga erishishi uchun o'quvchilari qanday ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak? Bu ko'nikmalar qanday shakllantiriladi?!

Yangi asr ta'limi bolalarga butun umr davomida o'qish, o'rganish va o'zgaruvchan dunyoda o'zlarining munosib o'rinlarini egallash, ilg'or fikrlar bilan uni o'zgartirishga o'z hissalarini qo'sha olish ko'nikmalariga ega qilib tarbiyalashi lozim.

Odatda bolalalik davrida kuchli taassurot qoldirilgan narsa yoki voqea shaxsda shu narsaga doimiy qiziqish paydo qiladi.

O'quvchilarga ta'lim olishga intilish kelgusidagi orzu-umidlari bilan bog'lanishi yaxshi motivatsiya bo'ladi. Bu o'ziga xos ichki-umid motivatsiyasidir. Bolalarni porloq kelajakka umid qildirish kerak. Umid va orzu insonni eng katta ilhomlantiruvchi, muvaffaqiyatlarga boshlovchi kuchdir.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 15-maydagi 125-sonli "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024- o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq 1-sinf o'quvchilariga "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish nazarda tutilgan [13]

Bu fanni birinchi sinf o'quvchilariga o'qitishdan maqsad ularda yangilikka intilish ishtiyoqini oshirish, kelajakka yaxshi orzular bilan intilish motivatsiyasini kuchaytirish va raqamli iqtisodiyot davrida o'quvchilarda:

– dastlabki ma'lumotlar olinadigan atrofda olamning yaxlitligi haqida ma'lumotlar berish;

– bu ma'lumotlarni qabul qilish, idrok qilish orqali ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

– ma'lumotlarni olish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va ulardan foydalanish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

– raqamli jamiyatda xavfsiz axborot faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshi (7-11 yoshlar) ijodiy faollikni shakllantirish uchun eng qulay hisoblanib, bu davrda o'quvchilar faol va tabiatga ko'ra qiziquvchan bo'ladilar [12]. Shuning uchun ham ularning ijodiy faolliklarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu yoshlarda o'quvchilarda nostandart fikrlash ko'nikmalari shakllantiriladi. Buning uchun o'qituvchi mashg'ulotda o'quvchini qiziqtirishi, uni ijodiy faoliyatga yetaklovchi muhit vujudga keltirishi lozim. Boshqacha aytganda, ularni ijod qilishga "ijodiy fikrlash"ga o'rgatishlari lozim. Buning uchun "ta'limning faol usullaridan" foydalanish taqozo qilinadi. Bunday mashg'ulotlarda:

– o'quvchilarni fikrlash faoliyatlari rag'batlantiriladi;

– kreativ xususiyatlarning namoyon bo'lishiga imkon yaratiladi;

– ular o'zlariga ishonch hosil qiladilar;

– kommunikativ ko'nikmalari shakllanadi;

– "ijodiy fikrlash" ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Fikrlash o'zining o'zini ifodalash, qabul qilish, tahlil qilish, muhokama qilish va o'zning tushunchalarini va g'alatli qarorlarini ko'rib chiqish jarayoni. Bu jarayonda odam o'z hayotining muammolari, savollar, talablar yoki mavzular bo'yicha o'ylab ko'radi.

Fikrlash jarayonida odam o'z ko'zga olinadigan muammolarni yechish, muammosiz xulosa qilish, rivojlanish uchun fursatlar va yo'nalishlar topish uchun ishlaydi.

Nostandart fikrlash – tanlangan yo'ldan to'g'ri harakat qilmasdan turli yondashuv va imkoniyatlarni tekshirishdir. U ijodga bevosita aloqador. Nostandart fikrlash uchun tasavvur, metafora (istiora), analogiya va intuitsiya muhimdir. Metafora va analogiya ma'lum bir sohadagi g'oyalarni butunlay boshqa sohalarga tadbqiq etishga imkon beruvchi usullardir. O'quvchilarga bu usullarni o'rgatish kelgusida ularni nostandart fikrlovchilar bo'lishlarini ta'minlay oladi.

**Natijalar va muhokama.** Yaqin kelajakda robotlar (kompyuterlar) mantiqiy fikrlash elementlariga ega bo'lishlari mumkin. Lekin ular sabab va oqibat zanjiriga asoslanmagan nostandart fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lolmaydilar. Bu esa insonning robotlardan ustunligini ta'minlovchi yagona xususiyatdir [1].

Sperry Rodjerning “bosh miya yarimsharining mutaxassisliklarga aloqadorlik kashfiyotiga” asosan tasavvur va “nostandart fikrlash” bosh miya o'ng yarimsharining mahsulidir [17].

Bosh miya o'ng yarimsharini faollashtirish, har ikkala yarimsharlar faoliyatlarini muvofiqlashtirish “ijodiy fikrlash” ko'nikmalarini rivojlantirish, miya faoliyati unumdorligini oshirishga imkon beradi. Bosh miya po'stlog'i har ikkala yarimsharlarining hamkorlikda faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlaydi. Chap va o'ng yarimsharlarning birgalikdagi faoliyatiga, ya'ni miyaning birgalikdagi fikrlashiga – to'la fikrlash (whole brain thinking) deyiladi [15].

Chap yarimshar detallarni analiz qilsa, o'ng yarimshar to'laligicha talqin qiladi va voqealarni bir butunga aylantiradi. Chap yarimshar – mantiq, analiz, til qobiliyati, nutq, matematika uchun mas'ul. O'ng yarimshar – intuitsiya, fazoviy orientatsiya, analogiya, metafora, ma'lumotlarni parallel qayta ishlash uchun mas'ul.

Informatsion davrdan – konseptual davrga o'tishda o'ng yarimshar bilan fikrlash muhimroq bo'ladi. Chap yarimshar ma'lumotlarni ketma-ket qabul qilsa, o'ng yarimshar ularni ketma-ket vizual talqin qiladi va tasavvurni shakllantiradi.

Psixologlarning fikricha asosiy axborot “ongosti” deyilguvchi axborot-energetik tizimda saqlanadi. Unda ota-onadan “meros qilib olingan” (DNK lar orqali o'tgan) va hayot davomida idrok qilingan ma'lumotlar mavjud. Ular insonning kelajagiga katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardir (fol ko'rish va kelajakni oldindan ko'ra bilish (bashorat) ham shu bilan izohlanadi).

Bolalikda katta taassurot qoldirgan voqea ongostida shu payt nuqtayi nazaridan saqlab qolinadi va kelgusi hayotga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, xotira ham ongosti qaramog'ida bo'ladi. Unda sensor kanallari orqali keladigan ma'lumotlar (hayotimiz haqidagi film) suratga olinib saqlanadi. Bu filmlar ma'lum voqealar ta'sirida tiklanishi mumkin [9].

Ong va ongosti o'rtasida muvofiqlik, uyg'unlik bo'lishi lozim. Shunday ekan, ta'lim jarayonida o'quvchilarga ko'proq chap va o'ng yarim sharlar faoliyatlari uyg'unligida to'la fikrlash usullarini o'rgatish kerak. Chunki idrok qilinadigan barcha ma'lumotlar shu ichki olam ta'sirida talqin qilinadi. Natijada ular ulkan energiyaga ega fikrlash imkoniyatlarini yangiliklarni yaratishga yo'naltiradilar.

O'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish ularga beriladigan vazifalarga ham ma'lum talablar qo'yadi. Ular o'quvchilarni o'ylashga, mulohaza yuritishga undashi lozim:

- Masala (muammo)ning aniq qo'yilishi;
- Shartning tanlangan uslubga mosligi;
- Masalaning turli yechimlarining mavjudligi;
- O'quvchining yosh xususiyatlariga mos kelishi;
- Fanlar bo'yicha o'quv dasturiga mos kelishi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga beriladigan topshiriqlar oldinlari yechilgan muammolarga aloqador bo'lishi maqsadga muvofiq.

Ma'lumotlarni o'ziga xos ilmiy izlanish ko'rinishida olish (to'plash) o'quvchilarni qiziquvchanligini va ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi. Shuning uchun ham topshiriqlarning izlanuvchanlikka undaydigan bo'lsa yaxshi natija beradi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashda (tahlil qilishda) energiyani kam sarflashning sermahsul usuli visual obrazlardan foydalanishdir.

Miya bir-biridan farq qiluvchi ikki turdagi rejimda ishlaydi. Birinchisi diqqat rejimi bo'lsa, ikkinchisi dam olish holati bo'lib, parishonlik rejimi deyiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlash nuqtayi nazaridan ham katta potensialga ega bo'ladi. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilarida vizual va vizual-timsolli (rolli) fikrlash ustun bo'ladi.

Inson miyasi vizual ma'lumotlarni verbal ma'lumotlarga qaraganda oltmish ming marta tez qayta ishlaydi. Shu bilan birga ular bolalar xotirasida yaxshi qabul qilinib uzoq vaqt saqlanadi. Demak, bolalar ma'lumotlarni yaxshi idrok qilishlari uchun ularni vizuallashtirish lozim. Bu maqsadda vizuallashtirishning samarali vositasi intellekt xaritadan foydalanish mumkin [8].

Xorijiy mamlakatlarda 1-sinf o'quvchilarga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarda "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish sohasida ma'lum ishlar qilingan: jumladan AQShdagi 21 asr ko'nikmalari uchun hamkorlik (Partnership for 21 st Century) tashkiloti (Batelle Kids – bolalar uchun Batelle tashkilotining bir qismi) ta'limga 4K ko'nikmalarini (4C – Communication, Colloboration, Critical thinking and Creativity) 2000-yillarda joriy qilishni taklif qilgan. BMT ning bolalar fondi (YuNISEF) ning "XXI asr ko'nikmalari" dasturida yumshoq ko'nikmalar sifatida ijodiy fikrlash ko'nikmalari keltirilgan. Iqtisodiy hankorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) "Kelajak ta'limi va ko'nikmalari" (ta'lim 2030) hujjatida o'quvchilarda kreativ fikrlash, moslashuvchanlik, qiziquvchanlik, muammolarni yecha olish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muammolari xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ko'p vaqtlardan buyon o'rganib kelingan Abraxam Maslounning fikriga ko'ra, ijodkorlik barcha bolalarga xos xususiyat, lekin ko'pchilik uni tashqi muhit ta'sirida yo'qotadi. N.A.Berdyayev insonni inson qiladigan yagona faoliyat ijodiy faoliyat deb hisoblagan. Shuningdek, D.Xalperi, E.Bono, M.Zdenek, A.Serdon, Dj.Buner, M.Vertmeyer, D.Dyui, N.Gardner, Dj. Medina, T.K.Gordonlarning ishlari ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga bag'ishlangan. [4-11,14,15,19]

Lekin ular o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida atrofimizdagi olamni o'rganish jarayonida o'quvchilarning tasavvur va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda intellekt xaritadan foydalanish imkoniyatlarini o'rganmaganlar.

"Intellekt xarita" o'quvchilarning "tasavvur" qilish, va "to'la fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Intellekt xarita (IX) dan foydalanish birinchi sinflar uchun ham ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki u bosh miya o'ng yarim sharini faollashtiruvchi usul bo'lib bolalarning har ikkala bosh miya yarim sharlardan ham unumli foydalanishlari, "to'la fikrlash" jarayoniga erishishlarini ta'minlaydi.

Intellekt xarita muammoning to'la tasvirini ko'rsatishi va ma'lumotlarni xotirada saqlashning sermahsul vizual usuli bo'lishi bilan birga bilish jarayonlarini ham rag'batlantiradi. Intellekt xaritani tuzish o'quvchilarning ma'lumotlar orasida yangi bog'lanishlar (assotsiyalar), o'xshashliklar (analogiya) topish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda yangi g'oyalar tug'ilishi, diqqatlarini jamlash muammoning asl mag'zini aniqlab olish va verbal ma'lumotlarni vizual ko'rinishda ifodalash imkonini beradi [17].

Bu ayniqsa tashqi olam haqida olinayotgan ma'lumotlarni o'rganish uchun muhimdir.


Intellekt xarita:

- Muammoga aniqlik kiritadi;
- Muammoni yechish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tartibga soladi;
- Vaziyatni to'la tasavvur qilishga va tasvirlashga yordam beradi;
- Barcha zarur ma'lumotlarni saqlash vositasiga aylanadi;
- G'ayrioddiy yechimlarni rag'batlantiradi [3].

Ma'lumotlarni yaxshi eslab qolish va fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun alohida ma'lumotlardan bir-birlariga bog'langan ma'lumotlar bog'lamini, assotsiatsiyani hosil qilishni o'rganmoq lozim. Intellekt xarita esa bu uchun qulay vositadir.

Yuqorida qayd etilganidek axborot tashqi olamdan olinadi. Inson bu ma'lumotlarni asosan beshta sezgi (sensor) kanallari orqali qabul qiladi. Bular: ko'rish – 83 %, eshitish – 11 %, hid bilish – 3,5 %, tuyush 1,5 %, ta'm bilish 1% ma'lumotlar olinadi. Bu ma'lumotlar inson miyasining chap yarimsharida qayta ishlanadi ya'ni idrok qilinadi. Ayni shu idrok bosh miyaning o'ng yarimsharida vujudga keladigan tasavvurlarga va demak, ijodiy fikrlashga asos bo'ladi.

Quyida "Tasavvur" nomli intellekt xaritasida 1-sinf o'quvchisi yordamida o'zi yaxshi ko'rgan mevasi orqali bosh miya chap va o'ng yarim sharlarida ma'lumotlarni tasavvur qilinishini ko'rsatilgan.(1-rasm)



**1-rasm.** "Tasavvur" nomli intellect xarita.

"To'la fikrlash" ko'nikmalarini baholash maqsadida "tasavvurni" o'rganish usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Buning uchun bolalarning biror voqeani bayon qilishida, rasm chizishida yoki boshqa ijodiy mahsulotni yaratishdagi fantaziyasiga tayanish mumkin. Odatda bolalarga biror hikoyani (ertak, kechinma, lof) o'ylab topish va uni og'zaki bayon qilish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Unga hikoya mavzusini va syujetini o'ylab topish uchun 1 minut vaqt ajratiladi. So'ngra esa og'zaki aytishni boshlashi kerak [16].

Tasavvurni aniqlash usullariga quyidagilar kiradi:

- 1) verbal fantaziya (hikoya, ertak, tarix, lof va hokazo). Og'zaki bayon qilinadi.
- 2) rasm chizish (fantaziya, natyumort, peyzaj, voqea aksi). Standart qog'ozga flamaster yoki qalam yordamida chiziladi. (Planshetda chiziladi.)
- 3) haykaltaroshlik tasavvuridagi badiiy asar plastilinlar to'plamidan 5 minutda yasaladi.



4) kosmosga sayohat haqida yasagan robotining, yasagan mashinasining, raketasining imkoniyatlari haqida hikoya qilib berish.

5) o'zga sayyoraga sayohat qilganida ko'rgan manzarasining rasmini chizib berishini so'rash. (Planshetda.)

6) bolaga 5 daqiqa davomida rangli qalamlar yordamida o'ylagan voqeasining IXni tuzish so'raladi. (Planshetda.)

7) bolaga 5 daqiqa davomida kompyuter yordamida o'ylagan voqeasining IXni tuzish so'raladi.

Shuningdek, o'quvchilarning bosh miyalarining faolligini turli kombinatsiyalar bilan bajariladigan: sanash, ko'paytirish, bo'lish, olish amallaridan ham foydalanish mumkin.

Baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir. Baholash natijasida ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan mavzularni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish imkoniyatlari aniqlanadi.

O'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini baholashda quyidagi rangli kartochkalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

- Mantiqiy fikrlash elementlari – oq;
- Tasavvur elementlarining mavjudligi – yashil;
- Assotsiatsiyaning mavjudligi – ko'k;
- Analogiyaning (o'xshatishning) mavjudligi – sariq;
- Metaforaning mavjudligi – pushti;
- Intuitsiya elementlarining mavjudligi – qizil.

Har bir o'quvchiga 2 ta kartochka berish mumkin va har bir kartochka 1 ballni ko'rsatadi.

Har bir topshiriq 10 ballik sistemada baholanadi. Bunda asosiy e'tibor bolaning fantaziyasiga, tasavvurining kengligiga, ijod mahsulida yangiliklarni, ayniqsa g'ayrioddiy fikrlarni olg'a surishiga qaratilmog'i lozim [2].

10-12 ball – bolaning to'la fikrlash ko'nikmalari a'lo shakllangan va talantga egaligini ko'rsatadi. Undan ijodkor mutaxassis chiqadi.

7-9 ball – bolaning to'la fikrlash ko'nikmalari yaxshi va ta'limning kelgusi etapida muvaffaqiyatlarga erisha olishini ko'rsatadi.

5-7 ball – bolaning to'la fikrlash ko'nikmalari qoniqarli darajada va o'z ustida qo'shimcha ishlashi lozim.

3-5 ball – bolaning to'la fikrlash ko'nikmalari yomon. Uning intellekti yo'nalishini o'zgartirish haqida o'ylash kerak.

3 balldan kam – bolaning intellekti yo'nalishi noto'g'ri tanlangan va uning yo'nalishini aniqlash uchun qo'shimcha sinovlar o'tkazish maqsadga muvofiq.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish joizki, fan va texnikaning jadal taraqqiyoti “ijodiy fikrlovchi” muutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi. Ijodiy fikrlashni o'rgatish esa ta'lim jarayonida amalga oshirilib u «tasavvur»ni rivojlantirishdan boshlanadi. 1-sinf o'quvchilarining bosh miyalarining yarim sharlari mutaxassisliklarga ajralgan va ularning “tasavvur” qilish qobiliyatlarini ta'lim jarayonida rivojlantirish mumkin. Bu ularning “to'la fikrlash” ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. “Intellekt xarita” 1-sinf o'quvchiga “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining “Biz olamni qanday qabul qilamiz” bobiga aloqador ko'plab ma'lumotlarni vizuallashtirish va ular orasidagi bog'lanishlarni yaqqol ko'rsatish imkonini beradi.

– “Biz olamni qanday qabul qilamiz” bobini o'rganish davomida o'quvchilarda atrof olamdagi voqealar, o'zgarishlar va jarayonlar haqida ma'lumotlarni olish imkoniyatlari haqida tasavvurlar shakllanadi;

– Tashqi olam haqida olingan ma'lumotlarni, ular orasidagi munosabatlarni tahlil qilish o'quvchilarda ular haqidagi tasavvurlarni rivojlanishiga yordam beradi;

– Ma'lumotlar orasidagi assotsiatsiyalar, analogiyalar, metaforalar topish o'quvchilar bosh miyalarining o'ng yarimsharini faollashtirishga va ularda nostandart fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi;

- O‘quvchilarni insonning robotlardan ustunligini ta‘minlovchi nostandart fikrlash ko‘nikmalari bilan qurollantirish ularning kelgusida qimmatli mutaxassislar bo‘lishini ta‘minlaydi;
- Atrofimizdagi olam haqidagi axborotlarni ma‘lumotlarni vizuallashtirishning sermahsul usuli bo‘lgan intellekt xarita (Mind Map)lar yordamida tahlil qilish o‘quvchilarda tasavvur qilish va nostandart fikrlash ko‘nikmalari rivojlanishiga yordam beradi;
- O‘quvchilarning “to‘la fikrlash” ko‘nikmalarini baholash usullari nafaqat ularning bu sohadagi ko‘nikmalarining rivojlanish darajasini harakterlab qolmay ularning “nostandart fikrlash” usullarini o‘zlashtirishlariga ham katta hissa qo‘shadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. А.Г. Ганиев. Using mind maps in formation of imagination and creative thinking skills in 5-6 year old children 2020yil Volume 7, Issue 11, European journal of molecular & clinical medicine.
2. А.Г. Ганиев. Ижодий фикрлаш кўникмаларини баҳолаш тизими – ТДПУ Илмий Ахборотнома. – 5 сон, 2021 й.
3. А.Г.Ганиев. Ўқувчиларнинг ижодий фикрлаш кўникмаларини ривожлантиришда Интеллект харита (Mind Map)дан фойдаланиш.– ТДПУ Илмий Ахборотлари.– 7 сон, 2021 й.
4. А.Г.Сердон. Критическое мышление. You tube 2020 г.
5. А.Маслоу. Мотивация и личность, 3-е издание. - СПб. 2014 г. – С. 600.
6. Бердяев Н.А. Философия свободы. Смысл творчества. - М.: «Правда» 1989 г.
7. Боно де Эдвард. Серьезное творческое мышление.– Минск: ООО “Попурри”, 2015 г.
8. Г. Гарднер. Структура разума. Теория множественного интеллекта. - М.: Вильямс. 2007 г.
9. Д. Медина. Правила Мозга. – М.: Манн, Иванов и Фербер 2014 г.
10. Дж. Брунер Психология познания. За пределами непосредственной информации. Пер.с.англ. - М.: Прогресс, 1977 г. – С. 239;
11. Дж. Дьюи. Психология и педагогика мышления. - М.: Мир, 1999 г.- С.192;
12. Л.С. Выготский. Воображение и творчество в детском возрасте. 1997 г.
13. М. Fayzullayeva, N. Naytullayeva. Informatika va axborot texnologiyalari. 1-sinf o‘quvchilari uchun.
14. М. Вертгеймер. Продуктивное мышление. М.: Прогресс. 1987 г.
15. М. Зденек. Развитие правого полушария. - М.: Издательство “Попурри”, 2004 г.
16. Р.С. Немов. Психология. Книга 3. – М.: Владос, 2005 г.
17. Сперри Роджеру. Функциональная специализация полушарий мозга. 1964 г.
18. Т. Бьюзен. Интеллект карты. Глава “Что такое интеллект карта?” – М.: МАНН, Иванов и Фербер, 2019 г.
19. Халперн Д. Психология критического мышления / Д. Халперн - СПб.: Питер, 2000. – С.512;

## **QarDU XABARLARI**

**Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal**

**Qarshi davlat universiteti kichik bosmaxonasida chop etildi.**

*Manzil: 180003, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17.*

**Indeks: 4071**

Terishga 24.06.2024-yilda berildi.

Bosishga 26.06.2024-yilda ruxsat etildi.

27.06.2024-yilda bosildi.

Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84, 1/8.

Times New Roman garniturasida. Nashriyot hisob tabog'i 22,35.

Buyurtma raqami: № 35.

Adadi 50 nusxa. Erkin narxda.